<i>5</i>	<i>150 gr koptokni uloqtirish (sm)</i>	<i>19-n</i>	<i>26,7 ± 0,51 23,2 ± 0,49</i>	<i>22,5 ± 0,34 18,8 ± 0,33</i>	<i>1,79 0,94</i>	<i>&gt;0.05 &gt;0.05</i>

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni



2. A.Abdullayev, R.Rasulov, A.Xasanov UMUMIY O‘RTA VA KASB-HUNAR TA‘LIMI TIZIMLARIDA JISMONIY TARBIYADAN SINFDAN TASHQARI ISHLAR Toshkent 2009. -200. b.
3. Bondarevsky E .YA. Xankeldiyev SH. X. O‘quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligi. Meditsina –T.: 1986.-204. b.
4. A.Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2018. -410.b.
5. R.Abdumalikov ,T.T. Yunusov. va boshqalar. «O‘zbekistonda jismoniy tarbiya taolimining rivojlanishi», metodik tavsiyanoma. T.,



**YENGIL ATLETIKA SPORT TO‘GARAKLARINING UMUMTA’LIM  
MAKTABLARI O‘QUVCHILARINING JISMONIY TAYYORGARLIGIGA  
TA’SIRI**

**Abduxakimova Nargiza Sobitovna,  
Abdunazarova Mashhura Abdusattor qizi,**  
Namangan davlat universiteti,  
E-mail: [abduhakimovanargiza227@gmail.com](mailto:abduhakimovanargiza227@gmail.com)

**Annotatsiya:** o‘quvchilar uchun umumta’lim maktablarida tashkil etiladigan sinfdan tashqari ishlar va uning tarkibiy qismi bo‘lgan Athletics sport to‘garaklarining ahamiyati hamda o‘quvchi bolalar jismoniy sifatlariga, ya’ni chaqqonlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik ta’siri haqida nazariy ma’lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** sinfdan tashqari ishlar, jismoniy sifatlari, chaqqonlik, tezkorlik, kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, jismoniy rivojlanish, sport o‘yinlari.

**THE EFFECT OF ATHLETICS SPORTS CLUBS ON THE PHYSICAL  
PREPARATION OF SECONDARY SCHOOL STUDENTS**

**Annotation:** about the importance of extracurricular activities for students in secondary schools and Athletics clubs, which are part of it, and the impact on the physical qualities of students, ie agility, speed, strength, endurance, flexibility theoretical information and practical recommendations.

**Key words:** extracurricular activities, Physical qualities, agility, speed, strength, endurance, flexibility Physical development, Sports game

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin jismoniy madaniyat va sportni rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. Ma’naviy-marifiy qadriyatlar, milliy urf-odatlar va an’analar tiklandi, ayniqsa jismoniy tarbiya va sport bilan bog‘liq ko‘pgina tadbirlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni<sup>18</sup> buning yorqin dalili sifatida keltirish mumkin. Umumta’lim maktablarida olib borilayotgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining o‘rni juda ham ahamiyatli bo‘lib, ushbu mashg‘ulotlar maktab o‘quvchilariga bazaviy tayyorgarlikni yo‘lga qo‘yish uchun xizmat qilmoqda. Sport to‘garaklari sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakli ekanligini hisobga olib, sport to‘garaklari ichida biz yuqorida keltirib o‘tgan “Athletics sport to‘garaklari”ning o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligiga ta’sirini ushbu tadqiqot ishimiz orqali ilmiy asoslashga urindik.

Asosiy qism. Umumta’lim maktablaridagi „*Sinfdan tashqari ishlar*” faoliyati juda ham keng qamrovli bo‘lib, uning o‘ziga xos tarifi „Umumiy ta’lim maktablarida o‘quv kuni yakunlanganidan so‘ng sinfdan tashqari vaqtda o‘tkaziladigan jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish mashg‘ulotlari, sport hamda sog‘lomlashtirish tadbirlari tizimini sinfdan tashqari ishlar (STI) deb atash qabul qilingan. Bundan tashqari Sinfdan tashqari ishlarni amalga oshirishda „Maktab jismoniy tarbiya jamoasi” asosiy vazifalarni bajaradi va quydagicha tariflanadi.

**Maktab jismoniy tarbiya jamoasi** (keying qatorlarda MJTJ deb yoziladi) bu o‘quvchilar jismoniy tarbiyasini amalga oshirishda maktab va oilaga yordam beradigan o‘quvchilarning ko‘ngilli, o‘zlarining xohishi va tashabbusi bilan faoliyat ko‘rsatadigan jamoatchilikka asoslangan tashkilotidir.

Biz mazkur faoliyatni amalga oshirishda Maktab jismoniy tarbiya jamoasining asosiy uch kengashi mavjud. *Ular:*

---

<sup>18</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni

1. *Ommoviy tashkiliy ishlar kengashi.*
2. *O‘quv –sport ishlari kengashi.*
3. *<<Alpomish>> va << Barchinoy>> salomatlik testi kengashi.*

Asosan mazkur kengash faoliyati ko‘pgina sog‘lomlashtiruvchi tadbirlarni o‘zida jamlaydi.

**Maktab sport musobaqalari sinfdan tashqari ishlarning ommaviy shakli sifatid. Sinfdan tashqari ishlarning musobaqa shakli.** Umumiy ta’lim maktabida olib boriladigan jismoniy tarbiya jarayoni va bu jarayon tarkibidagi barcha jismoniy tarbiya ishlariga yakun rolini bajaradi, ommaviy tarzda uyushtiriladigan tadbirlardan biri sanaladi. Albatta musobaqalarni tashkillash va o‘tkazish o‘ziga xos quydagicha ketma -ketlikda amalga oshiriladi. Dastlab o‘tkaziladigan musobaqaning nizomi yoziladi va uni o‘tkazish dasturi tuziladi. Har qanday musobaqa nizomi bir necha bo‘limlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Musobaqaning mazmuni yoki dasturi, musobaqaning turi va qo‘yilgan vazifalari bilan belgilanadi.

Yuqoridagi barcha malumotlar sizga ommoviy tashkiliy ishlar faoliyatini tanishtirib o‘tish uchun bayon etildi.

Sport to‘garak mashg‘ulotlari sinfdan tashqari ishlari asosiy ko‘rinishi deb hisoblashimizga quydagi asosiy sabablarni keltirdik. Ular:

1. Maktablarda sport to‘garaklarining ko‘lamining kengligi.
2. O‘quvchilarning ko‘pchiligi sport to‘garaklariga qatnashishi.
3. Sport to‘garalari turli kasalliklarga va zararli odatlarga nisbatan imunitet ekanligi.
4. Sport to‘garaklari o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligiga ta’sirini yuqoriligi va kelgusida sport faoliyati bilan muntazam shug‘ullanishlari uchun ba’za ekanligi bilan izohlash mumkin.

Mazkur faoliyatni tashkil etishni biz maktab jismoniy tarbiya fani dasturidan chetlashmagan holda sport fanlari qatoriga kiruvchi Athletics sport to‘garak mashg‘ulotlari misolida ko‘rib chiqamiz.

*Tajriba qismi.* Biz quyda Namangan viloyati Chust tumani XTB ga qarashli 9-umumta’lim maktabida tashkillangan Athletics sport to‘garaklariga muntazam qatnashuvchi 12 nafar o‘g‘il bolalarni tajriba hamda Namangan viloyati Chust tumani XTB ga qarashli 75-maktabning shu yoshdagi 19 nafar Gandbol sport to‘garagi a’zolarini nazorat guruhi sifatida tanlab oldik. O‘quvchilarni jismoniy sifatlarining rivojlanishini kuzatish davomida quydagi natijalarni 1-jadvalda qayd etdik.

**Maktab o‘quvchilarning (10-11 yosh) tajribadan keyin bo‘lgan jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari**

*1-jadval*

<i>Nº</i>	<i>Sinov turlari</i>	<i>Sinaluv chilar Soni</i>	<i>Tajriba</i>	<i>Nazorat</i>	<i>t</i>	<i>P</i>
<i>1</i>	<i>Yuqori startdan yugurush (30m)</i>	<i>19-n</i>	<i>5,7 ± 0,09 6,4 ± 0,06</i>	<i>6,3 ± 0,05 6,8 ± 0,04</i>	<i>1,23 1,02</i>	<i>&gt;0.05 &gt;0.05</i>
<i>2</i>	<i>3x10 mokisimon yugurish</i>	<i>19-n</i>	<i>7,7 ± 0,15 7,9 ± 0,16</i>	<i>8,3 ± 0,06 9,0 ± 0,07</i>	<i>1,23 1,02</i>	<i>&gt;0.05 &gt;0.05</i>
<i>3</i>	<i>Arg‘amchidan sakrash (30 soniya)</i>	<i>19-n</i>	<i>38,3 ± 1,46 45,5 ± 1,19</i>	<i>32,6 ± 0,71 39,2 ± 0,84</i>	<i>1,38 1,25</i>	<i>&gt;0.05 &gt;0.05</i>
<i>4</i>	<i>Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)</i>	<i>19-n</i>	<i>143,4 ± 0,72 133,5 ± 1,63</i>	<i>137,3 ± 0,77 126,6 ± 1,66</i>	<i>2,43 2,04</i>	<i>&gt;0.05 &gt;0.05</i>
<i>5</i>	<i>150 gr koptokni uloqtirish (sm)</i>	<i>19-n</i>	<i>26,7 ± 0,51 23,2 ± 0,49</i>	<i>22,5 ± 0,34 18,8 ± 0,33</i>	<i>1,79 0,94</i>	<i>&gt;0.05 &gt;0.05</i>

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24- yanvardagi “Jismoniy tarbiya va sportni takomillashtirish va ommalashtirish chora - tadbirlari to‘g‘risidagi 5924-sonli farmoni.

2. A.Abdullayev, R.Rasulov, A.Xasanov UMUMIY O‘RTA VA KASB-HUNAR TA‘LIMI TIZIMLARIDA JISMONIY TARBIYADAN SINFDAN TASHQARI ISHLAR Toshkent 2009. -200. b.
3. Bondarevsky E .YA. Xankeldiyev SH. X. O‘quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligi. Meditsina –T.: 1986.-204. b.
4. A.Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2018. -410.b.
5. R.Abdumalikov ,T.T. Yunusov. va boshqalar. «O‘zbekistonda jismoniy tarbiya taolimining rivojlanishi», metodik tavsiyanoma. T.



**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA HARAKATLI O'YINLARNI  
O'QUVCHILAR HARAKAT SIFATLARIGA TA'SIR ETISHDAGI  
AHAMIYATI**

**Ibragimov Muslim Artikmashrabovich,**

**Aliyev Botir Bahodirjon og'li**

Namangan davlat universiteti

E-mail: [ibragimovmuslim177@gmail.com](mailto:ibragimovmuslim177@gmail.com)

**Annotatsiya:** o'quvchilar uchun umumta'lim maktablarida tashkil etiladigan sog'lomlashtirish tadbirlari hamda maktab o'quvchilarning salomatligi va jismoniy sifatlariga sog'lomlashtirish tadbirlarining ta'siri haqida nazariy ma'lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** harakat sifati, jismoniy rivojlanish, sog'lomlashtirish tadbirlari, harakatli o'yinlar.

**THE IMPORTANCE OF MOVING GAMES IN SECONDARY SCHOOLS IN  
INFLUENCING THE QUALITIES OF STUDENT MOVEMENT**

**Annotation:** Theoretical information and practical recommendations on the health activities organized for students in secondary schools and the impact of health activities on the health and physical qualities of schoolchildren.

**Key words:** Quality of movement, Physical development, Wellness activities, Action games.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgandan so'ng juda ko'plab rivojlanish jarayaonlarini amalga oshirdi, jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohasida ham ko'plab rivojlanishlar amalga oshirildi va bir qator qaror, farmonlar ijro etildi.

Bunga misol qilib Yurtboshimiz tomonidan 2020-yil 24-yanvardagi 5924-sonli farmonlari “O‘zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish to‘g‘risida”<sup>19</sup> gi farmonlarini ko‘rsatish mumkin. Bu esa yosh avlodni so‘g‘lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy madaniyat oldiga katta masuliyatli vazifalar qo‘yadi. Yosh avlodni jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishiga qaratilgan o‘yinlarini to‘plash, hayotga, maktabga tadbiq etish, rivojlantirish yo‘llari va usullarini qayta ko‘rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ma‘lumki, umumtalim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dastur bo‘limlarining o‘qitilish o‘quv soatlarining asosiy hajmi harakatli o‘yinlar tashkil etib, 1-sinf o‘quvchilari uchun dastur bo‘limlarining harakatli o‘yinlarga berilgan saotlar hajmi 38 soatni, 2-3-sinf o‘quvchilari uchun dastur bo‘limlarining harakatli o‘yinlarga berilgan saotlar hajmi 36 soatni, 4-sinflar uchun dastur bo‘limlarining harakatli o‘yinlarga berilgan saotlar hajmi 12 soatni tashkil etadi. Bundan ko‘rinib turibdiki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining asosiy olib boriladigan jarayonlari harakatli o‘yinlarga qaratilgan bo‘lib, hayotiy zarur bo‘lgan harakat ko‘nikma, malakalarini va unga bog‘liq bo‘lgan bilimlarni egallashga qaratilgan.

Shularni hisobga olgan holda umumta‘lim maktablarida harakatli o‘yinlarni takomillashtirish, o‘quvchilar yoshiga mos ravishda harakatli o‘yinlarni tanlash, ulardan keng foydalanish, dars mashg‘ulotlariga yuqori darajada kiritish, katta tanaffuslarda tashkil etishning yangi ko‘rinishlarini ishlab chiqish zaruriyati tug‘iladi. Maktab yoshidagi o‘quvchiarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish va egallagan harakat ko‘nikma va malakalarini hayotda keng qo‘llay olishda harakatli o‘yinlarning o‘rni beqiyosdir.

Mazkur sog‘lomashtirish tadbirlarini muntazam tashkil etish natijasi sifatida quydagilarni misol qilib keltirdik.

*Ular:*

a) *o‘quvchilarning nazariy darslarda toliqishini bartaraf etish.*

<sup>19</sup> O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora tadbirlari tog‘risida” 2020-yil 24-yanvardagi 5924-sonli farmoni. Mabuot.uz



- b) harakatga bo‘lgan ehtiyojini qondirish.
- d) sog‘lomlashtirish.
- e) o‘quvchilarni uyushqoqligini taminlash.
- f) jismoniy rivojlanishini oshirish.

g) harakat faolligini rivojlantirish kabi ko‘plab vazifalarni amalga oshirishda muhim o‘rin tutganligidir. . Ushbu faoliyatni tashkllashga doir quyida o‘yinlar keltirilgan.

**Umumta’lim maktablarida 1-4 sinf o‘quvchilarining harakat faolligini rivojlantirishga tavsiya etilgan “Katta tanaffusdagi harakatli o‘yinlar” dasturi**

№	O‘yinlarning ta’sir yo‘nalishi	Tavsiya etilgan harakatli o‘yinlar nomi va ularning tashkllash usullari	Harakatli o‘yinlarni o‘tkazish qoidalari	Harakatli o‘yinlar muddati
	Chaqonlik ni rivijlantirish uchun	<p><b>Kim chaqqon o‘yini</b> Ushbu o‘yin doira shaklida joylgan stullar, va musiqa yordamida butun sinfga birgalikda tashkllaniladi</p>	<p>Makur o‘yin talabi musiqaga reaksiya ko‘rsatgan holda chaqqonlik bilan stulga joylashishi kerak boladi. Har urinishdan so‘ng stullar bittaga kamayib boradi. O‘yin bitta stul qolgunga qadar davom etadi.</p>	10 minut
		<p><b>Orol,botqoq,dengiz.</b> Ushbu o‘yin uchta doira chizilib, doiralar ichiga orol,botqoq,dengiz yoziladi. O‘yin sinf ikki guruga ajratilgan holda tashkllanadi.</p>	<p>Sinf ikki guruhga ajratilgandan so‘ng tartib bilan sanaydilar va 5 m metrda qarama qarshi joylashadi. Guruhdagi ishtirokchilar o‘z raqamini esda saqlaydi. Qaysi raqam va joy nomi (orol)aytilganda shu raqamdagilar aytilgan joyga birinchi yetib borishi kerak bo‘ladi</p>	10 minut

	<p>Tezkorlikni rivojlantirish uchun</p>	<p><b><i>Kun va tun o'yini.</i></b> Mazkur o'yin ikki jamoa kun va tun bo'lib bellashiladi. Jamoalar noananaviy start holatida bir-biriga teskari holatda joylashadilar.</p>	<p>O'yin ikki jamoani tez qaror qabul qilib komondaga reaksiya ko'rsatishini aniqlanadi. O'yinda qaysi jamoa nomi aytilsa o'sha jamoa turgan joydan 10 m masofada raqib jamoa qo'lga tushmaslik uchun urinadilar va qaysi jamoada uchta o'yinchi qo'lga tushib qolsa o'sha jamoa mag'lub bo'ladi</p>	<p>10 minut</p>
--	---	--	--	-----------------

Shunday qilib, pedagogik sharoitlarning yaratilishi, jismoniy mashqlar majmuasining to'g'ri tashkil qilinishi harakatli o'yinlarga asoslangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini yuqori sifatli o'tkazishga imkoniyat yaratadi hamda mashg'ulotlarni qiziqarli o'tkazishga yordam beradi. Jismoniy sifatlarni tarbiyalash, muvozanatni o'lchash jihatdan murakkab harakatlarni o'zlashtirib olish qobiliyati tarbiyalanadi, kassalikka chalinish foizlari pasayib boalarning immun tizimiga ijobiy ta'sir etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Abdullayev, R.Rasulov, A.Xasanov UMUMIY O'RTA VA KASB-HUNAR TA'LIMI TIZIMLARIDA JISMONIY TARBIYADAN SINFDAN TASHQARI ISHLAR Toshkent 2009. - 200. b.
2. Bondarevsky E.YA. Xankeldiyev SH. X. O'quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligi. Meditsina -T.: 1986.-204. b.
3. A.Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2018. -410.b.
4. F.A.Kerimov " Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar". Toshkent. "Zar qalam" -2004.-447.b.
5. R.Abdumalikov ,T.T. Yunusov. va boshqalar. «O'zbekistonda jismoniy tarbiya taolimining rivojlanishi», metodik tavsiyanoma. T., O'zDJTI nash, 1992.
6. I.N. Sarkizov-Sirazini. «Tansihatlik – tuman boylik», T., «Medisina», 1966.
7. U.Tursunov, «Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi», o'quv qo'llanma, Qo'qon, 1992.

## TALABALARNING PEDAGOGIK AMALIYOTINI TASHKIL QILISH

**Saydaxmetova Shaxnoza Ravshanbekovna**

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Kimyo va uni o‘qitish metodikasi v.b. dotsenti PhD

E-mail: [Saydaxmetova\\_shaxnoza77@mail.ru](mailto:Saydaxmetova_shaxnoza77@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va olib borish haqida so‘z boradi. Talabalarning kreativligini oshirish va bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash mazmuni va uslubi muhokama qilingan.

**Kalit so‘zlar:** maktab, oliy ta‘lim, malakaviy pedagogik amaliyot, innovasion texnologiyalar, kreativlik.

### ORGANIZATION OF PEDAGOGICAL PRACTICE OF STUDENTS.

**Abstract:** This article discusses the organization and conduct of qualified teaching practice. The content and methods of increasing the creativity of students and training future specialists were discussed.

**Key words:** school, higher education, qualified pedagogical practice, innovative technologies, creativity.

Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda zamonaviy ilm-fan va tarbiyaning zarurligi, bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o‘qituvchilar, haqiqiy ziyolilarga bog‘liq ekanligi e‘tirof etilmoqda. Ta‘lim sohasida o‘qituvchilarga bo‘lgan e‘tibor ularning erkin ijod qilishi faoliyatini yangi qirralarni ezgu maqsadlarini amalga oshirishga imkon yaratmoqda. Shuning uchun ham bugungi kunda bu kasbni egallashni xohlovchi yoshlar soni kundan-kunga oshib bormoqda. “2022 yil - Inson qadrini ulug‘lash va

faol mahalla yili” Davlat dasturining ustuvor vazifalari amalga tadbqiq qilish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 yildagi PF-6108-son O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmoni hamda 12.08.2020 yildagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarorlarining ijrosi yuzasidan Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, bog‘cha tarbiyalanuvchilari, o‘quvchi va talaba yoshlarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’lim tizimlari hamda ilm-fan sohasi o‘rtasida yaqin hamkorlik va integratsiyani, ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash, Kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishlarda ta’lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish borasida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Malakaviy pedagogik amaliyot o‘tkazish: talabalarning kimyo fanidan olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llash orqali ko‘nikmalarni shakllantirib malaka hosil bo‘lishiga olib keladi. O‘qitish jarayonida o‘qituvchilar tomonidan innovasion texnologiyalardan foydalanish turli fanlarni o‘qitishda stereotiplarni bartaraf etishga, pedagogik vaziyatlarga yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishga, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘z navbatida bo‘ljak o‘qituvchilarni yetishtiruvchi pedagogika oliy ta’lim tashkiloti talabalar uchun 1-kursdan boshlab darslarning 4 kunini oliy ta’lim muassasasida, 2 kunini maktabda bevosita amaliyot o‘tash tartibida tashkil etishni belgilandi. O‘zbekiston Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi amalga oshirilmoqda. “Zamonaviy maktab” loyihasi doirasida 2020—2022-yillarda butun respublika bo‘yicha, xususan uzoqda joylashgan tuman va qishloqlarda 48 ta yangi maktablar qurilishi, 748 ta maktablarda rekonstruksiya va kapital ta’mir ishlari amalga oshiriladi. Yuz marta gapirgandan bir marta ko‘rgan yaxshi deydi dono xalqimiz.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti kimyo va uni o‘qitish metodikasi kafedasi Yangi hayot tumanidagi 330-umumta’lim maktabi bilan hamkorlikni yolga qo‘ygan. Bu maktab bugungi kundagi yangi zamonaviy jihozlangan

yangi ko‘rinishdagi maktablardan biri hisoblanadi. Talabalarning pedagogik amaliyotining bunday maktablarda tashkil qilinishi ta’lim sohasida hukumat farmon va qarorlarining ijrosining ta’minlanayotganligining in’ikosidir. Innovasion ta’limda qo‘llaniladigan metodlar va pedagogik texnologiyalar haqida so‘z borganda amaliyotchi talabalarni aynan shunday muhitga olib kirish va o‘z qarashlarini shakllantirishlarida kreativlikning ahamiyatini yoritish muhimdir. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida nostandart fikrlaydigan ijodkorlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Zamonaviy ta’limning asosi o‘quv fanlari emas, balki o‘quvchilarning fikrlashi va faolligi bo‘lishi kerak. Har qanday oliy o‘quv yurtining vazifasi nafaqat yuqori malakali mutaxassislarni bitirishi, balki talabalarni tubdan yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga, ularni ishlab chiqarish muhitining real sharoitlariga moslashtirishga qo‘shishdir. Shu bilan birga, o‘quv jarayonida talabalarning quyidagi qobiliyatlarini rivojlantirish muhim: ijodiy faollik, ijodiy fikrlash, tahlil qilish, baholash bugungi kun talabining o‘zgaruvchan ehtiyojlariga tez moslashish qobiliyati. Bunday ko‘nikmalarni egallash ko‘p jihatdan bo‘ljak mutaxassislarni tayyorlash mazmuni va uslubiga ham bog‘liqdir. Pedagogik amaliyotini tashkil qilishda maktab va oliy ta’limning o‘zaro hamkorligi talabalarning olgan bilimlarini amalda sinab ko‘rish imkoniyatini tug‘diradi va ta’lim sifatini oshirish muammolarini hal qiladi. O‘qituvchi kasbining benihoyat qadriligini tushunishi, mashaqqatli va shu bilan birga sharaflı kasb ekanligini his qilish orqali kasbga muhabbati ortadi. Talaba malakaviy pedagogik amaliyotning birinchi bosqichida - kuzatuv amaliyoti tashkil qilinib faol talabadan→ kuzatuvchi, tahlil qiluvchi, o‘rganuvchi; ikkinchi bosqichida - analiz qiluvchi, baholovchi faol va ijodiy qo‘llovchi bosqichlaridan o‘tadi. Talabalarga II kursdan ishlash imkoniyatining yaratilishi uning kasbiy rivojlanish davridagi muammolarni hal etishda metodist o‘qituvchilar bilan birgalikda doimiy muloqoti amalga oshiradi. Ustoz-shogid tizimining bunday ko‘rinishi samarali hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Sh.R. Saydakhmetova. Teaching organic chemistry as organization and development of students educational activity. /International Virtual Conference on Innovative Thoughts, Research Ideas and Inventions in Sciences ITRIIS 2021 Eurasia conference.com January 20th, 2021 Newyork, USA, p.-342-345
2. Saydaxmetova Sh.R., Bozorov U.E., Uralova F.B., Baxtiyorova A.Z., Suyarova M.K. Kimyo darslariga innovasion texnologiyalarini qo‘llash. /O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Tabiiy fanlarning zamonaviy yutuqlari va o‘qitishda innovatsiyalar” Respublika ilmiy-amaliy anjumani 10 aprel Toshkent-2021 b.-251-254 azilatlarni rivojlantirishga hissa qo‘shadi.



## DORIVOR AMARANT O‘SIMLIGINING AHAMIYATI

**Yuldashev Akmal Axmadjonovich**

AndDUPI fakultet dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: [a.yu/genetikus@mail.ru](mailto:a.yu/genetikus@mail.ru)

**Abduxalilova Madinaxon Abdurayim qizi**

AndDUPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, biologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: [.madinaxon14092004@mail.ru](mailto:.madinaxon14092004@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Maqolada dorivor o‘simliklarning ahamiyati va amarant o‘simligining sistematik, geobotanik tavsifi, shuningdek, ushbu o‘simlik tarkibiga kiruvchi ayrim moddalarning inson salomatligida tutgan o‘rni haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Amaranthus, amaranthaceae, antioksidant, skvalen, gipoksiya, xolisterin, metabolitik.

### IMPORTANCE OF MEDICINAL PLANTS AND AMARANTH

#### ANNOTATION

The article provides information on the importance of medicinal plants and a systematic, geobotanical description of the amaranth plant, as well as the role of certain substances in this plant in human health.

**Keywords:** Amaranthus, amaranthaceae, antioxidant, squalen, hypoxia, cholesterol, metabolic.

Mamlakatimiz inson salomatligi uchun foydali bo‘lgan o‘simlik turlariga nihoyatda boy. Farmaseftikaning jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi va yangi yuqori samarali sintetik dorilar yaratilishiga qaramay dorivor o‘simliklar va dorivor

mahsulotlarga bo‘lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Bu o‘simliklardan bugungi tezkor globallashuv davrida sohadagi qator muammolarni hal etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018-yil 12-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida Xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to‘grisida”gi PQ-3968-sonli, 2020-yillning 10-aprelidagi “O‘zbekiston Respublikasida Xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4668-sonli, 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘svuchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4670-sonli qarorlari qabul qilindi. Dorivor o‘simliklar va ulardan olinadigan preparatlarga talabni yanada oshirishga sabablardan biri, sintez yo‘li bilan olingan har bir kimyoviy dorivor preparatni uzoq vaqt uzluksiz ravishda iste‘mol qilish, inson va hayvonlar organizimida turli ko‘ngilsiz holatlarga olib kelishidir. Shunga ko‘ra butun dunyoda o‘simlik dorivor preparatlari bo‘lgan – fitopreparatlarga va dorivor o‘simliklarga bo‘lgan ehtiyoj ko‘paymoqda [1].

O‘zbekiston tibbiyotida qo‘llaniladigan dori vositalarining 38-40 foizini dorivor o‘simliklardan olinadigan preparatlar tashkil qiladi. Ba’zi og‘ir kasalliklarni davolashda ishlatiladigan muhim ahamiyatli ayrim dorivor preparatlarni (yurak glikozidlari, qator alkaloidlar, terpenlar, saponinlar, steroid, fenolli birikmalar va boshqa biologik faol moddalar )shu vaqtgacha sintez yo‘li bilan olib bo‘lmaydi. Ularni olish manbai hozirgi vaqtgacha faqat o‘simliklar bo‘lib qolmoqda [2].

Yer yuzida dorivor o‘simliklarning 10-12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o‘simlik turining kimyoviy va farmokologik xossalari tekshirilgan. O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud [3]. Shulardan biri *amaranthus* o‘simligidir.

Amarant-*Amaranthus* amarantdoshar-*Amaranthaceae* oilasiga mansub o‘simlik bo‘lib, Amerika, Yevropa, Afrika, Osiyo va Rossiya viloyatlarida o‘stiriladi. O‘zbekiston florasida *amaranthus*ning bir avlodi va 10 ta turi o‘sadi [2]. Dorivor maqsadlarda *amaranthus* moyi diqqatga sazovor hisoblanadi. Amarant moyining dorivorlik va foydali xususiyatlari moddani tashkil etuvchi ikkita komponentga



asoslangan kuchli antioksidant bo‘lgan E vitamin, skvalen, immunitetni faol tarzda mustahkamlanishida ahamiyatga ega, amarant moyida skvalen moddasi mavjudligi aniqlangani davrimizning eng muhim bo‘lgan kashfiyotlaridan biri hisoblanadi. Tibbiyotda alohida o‘ringa ega bo‘lgan bu modda 1906-yili Yaponiyalik olim Mitsumaro Sudjimoto tomonidan dengiz tubida hayot kechiruvchi akula jigaridan ajratib olingan. Ma’lumotlarda qayd etilishicha, dengiz chuqurligida yashovchi akulalarning gipoksiya sharoitida yashashi uchun skvalen o‘ta muhim modda ekan [4].

Bundan tashqari amarant moyi tarkibida foydali yog‘ kislotalari, A, B, D guruh vitaminlari mavjud. Uning shunday tarkibi tufayli amarant moyi quyidagi ta’sirlarga ega hisoblanadi, immunitet tizimini mustahkamlaydi, yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarga ega, qon tiqinlari shakllanishiga to‘sqinlik qilib, xolisterinni tushiradi, qon tomirlarini kuchaytiradi, metabolitik jarayonlarni tiklaydi [5].

Dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talab ortib borayotgan bu davrda dorivor o‘simliklarni asrab avaylash va ularni yanada chuqquroq o‘rganish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Shu asnoda dorivor o‘simliklar orasida alohida o‘ringa ega bo‘lgan amarant o‘simligini vegetatsiya davrida anatomik tuzilishini o‘rganish o‘simlikning dorivorlik xususiyatlari qay tartibda o‘zgarib borishini tahlil etish imkonini beradi. Shunga ko‘ra o‘simlik vegetatsiyasini unib chiqish, o‘shish, shonalash, gullash va pishish fazalarida anatomik jihatdan o‘rganib fundamental tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azimova Dilnoza Jigar va o‘t yo‘llari kasalliklarini davolashda qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklar // Journal of natural Science 2022. №1 (6). – B 131-132.
2. Ahmedov O‘., Ergashev A., Abzalov A. va boshqalar. Dorivor o‘simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya. Toshkent 2018. – B 45-46.
3. Toxirov B.B., Dorivor o‘simliklarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida yangi ma’lumotlar // Science and education scientific journal 2022. №3 – B 112.
4. Кретов И.Т., Соболев С.Н., Мирошниченко Л.А., Жаркова И.М . Масло из семян амаранта // масложировая промышленность. 2006. №1. – С.22-23.
5. Sala M., Berardi S., Bondioli P. Amaranth seed: the potentials // Riv. Ital. sostanze grasse. 1998. Vol. 78. N11. – P 503-506.

## ПРЕДМЕТ И ЗАДАЧИ НАУКИ СТРОИТЕЛЬНОЙ МЕХАНИКИ

Джизакский Политехнический Институт

Email: [isokjulanov@gmail.com](mailto:isokjulanov@gmail.com)

**Жуланов Исок Одилович**

### АННОТАЦИЯ

Строительная механика в связи с активным строительством мостов, железных дорог, плотин, кораблей и крупных промышленных сооружений в первой половине 19 века начала развиваться самостоятельно как наука.

**Ключевые слова:** строительная механика, статических неопределенных систем, деформация, расчетная схема, нестержневые системы.

### SUBJECT AND OBJECTIVES OF THE SCIENCE OF BUILDING MECHANICS

### ABSTRACT

Structural mechanics in connection with the active construction of bridges, railways, dams, ships and large industrial facilities in the first half of the 19th century began to develop independently as a science.

**Key words:** building mechanics, static indefinite systems, deformation, calculation scheme, non-rod systems.

Единичный объект, построенный (построенный) человеком, называется *сооружением* ... Устройства необходимы для удовлетворения жизненных потребностей людей и повышения качества их жизни. Они должны быть удобными, прочными, устойчивыми и безопасными.

Строительство — древняя человеческая профессия и древний вид искусства. Доказательством тому являются результаты множества археологических раскопок, проведенных в разных уголках мира, а также сохранившиеся до наших дней старинные здания и сооружения. Их совершенство и красота говорят об искусстве и большом опыте древних строителей даже с точки зрения современных знаний.

Специальная наука занимается расчетом конструкций, *Строительную механику* часто называют *строительной механикой* ... Строительная механика в связи с активным строительством мостов, железных дорог, плотин, кораблей и крупных промышленных сооружений в первой половине 19 века начала развиваться самостоятельно как наука. В 20 в. в результате развития вычислительных методов и вычислительной техники строительная механика поднялась на современный высокий уровень. Отсутствие методов расчета таких конструкций не позволяло реализовать легкие, экономичные и в то же время надежные конструкции.

Считается, что строительная механика возникла в 1638 году после публикации статьи великого итальянского ученого Галилео Галилея, озаглавленной «Беседы и математические данные о двух новых областях науки, касающихся механики и местного движения...».

Ряд его открытий о сопротивлении лучей изгибу ценны и сегодня. Однако ему не удалось создать теорию изгиба балок, поскольку он ошибочно полагал, что все волокна балок растягиваются при изгибе. Более того, связь между напряжениями и деформациями в то время не была установлена. Позже Р. Гук (1678) сформулировал этот закон в простейшей форме: что есть удлинение, то и сила, следующая «ХУТ11 во второй половине века». Проведены экспериментальные исследования, выявившие наличие как сжимающих, так и растягивающих напряжений в искривленном свете. Это, в свою очередь, привело к решению проблемы искривления света, вызванной Галилеем. Работы Эйлера и

Лагранжа, достижения высшей математики сыграли важную роль в развитии механики того времени.

Развитие методов расчета статических неопределенных систем связано, например, с именами БП. Клапейрона (уравнение трех моментов для расчета постоянных лучей), Дж. К. Максвелла и О. Мора (определение перемещений в упругих системах при заданных внутренних силах). К 30-м гг. XX После выделения были усовершенствованы основные вычислительные методы расчета упругостатических неопределенных систем: метод сил, метод перемещений и смешанный метод, а также их многочисленные модификации.

Ломоносов одним из первых ученых в России заинтересовался проблемами энергетики, в частности, созданный им закон сохранения энергии является одним из основных законов строительной механики, и на его основе разработал универсальный метод определения перемещений.

Русский механик И. Кулибин (1733 - 1818) внес большой вклад в развитие механики, особенно в области экспериментальных методов. Он первым применил правило веревочного многоугольника для расчета усилий и спроектировал арочный деревянный мост через Неву длиной 300 м. Один из самых ярких проектов металлического моста также принадлежит И. Кулибину. Он предложил ее как трехдуговую систему.

Дальнейшее развитие теория и практика мостостроения получили в трудах Д. Юравского (1821 - 1891). Разработал теорию расчета плоских ферм. Ему же принадлежит создание теории сохранения напряжения при изгибе.

Существенный вклад в формирование и развитие строительной механики Ф.С. Ясинский (1856-1899) (исследования по теории устойчивости ветвей), В.Л. Кирпичев (1845-1913) (законы подобия, отличные учебники по строительной механике).

Конец 19 - начало 20 вв. На развитие механики оказали влияние такие всемирно известные ученые, как А. Н. Крылов (теория корабля, приближенные методы решения задач механики), С. П. Тимошенко (теория изгиба и

устойчивости, проблемы пластин и оболочек, хорошо известные учебники). величин и тока), Г. В. Колосов (плоская задача теории упругости), И. Г. Бубнов (вариационные методы), Б. Г. Галеркин (теория пластин и оболочек, приближенные методы).

Много работ по статике сооружений великого инженера, академика В. Г. Шухова (1853-1939). Благодаря его таланту во всем мире получили широкое распространение гиперболоидные раскрывающиеся башни, наливные речные и морские суда, решетчатые склады. Он же положил начало развитию наиболее актуального раздела строительной механики — оптимизации конструкций.

Работы известных ученых Н. И. Мускелишвили (плоские задачи теории упругости), М. В. Келдиша (задачи плоской механики), М. А. Лаврентьева (применение функций комплексных переменных в механике), Власова В. З. (теория оболочек), И. М. Рабиновича (теория стержневых систем). )) и др.

С появлением компьютеров произошли значительные изменения в статике и динамике конструкций. Широкое распространение получил метод конечных элементов, на основе которого создан ряд мощных автоматизированных комплексов (Лира, Феникс и др.) для расчета зданий и сооружений, позволяющих с высокой точностью и расчетностью оценивать напряженное состояние конструкций. оптимальные структуры.

*Строительной механикой* в самом широком смысле называют науку о методах расчета конструкций на прочность, жесткость и устойчивость под действием статических (строительная статика) и динамических (строительная динамика) нагрузок.

Строительная механика является как теоретической, так и практической наукой. С одной стороны, он развивает теоретические основы вычислительных методов, с другой стороны, является вычислительным инструментом, поскольку решает важные практические задачи, связанные с прочностью, жесткостью и устойчивостью конструкций.

Действие нагрузок приводит к деформации отдельных элементов и всей конструкции в целом. *Механика деформированных твердых* материалов, которая занимается расчетом и теоретической оценкой результатов их воздействия ... Часть этой науки занимается расчетом *практической механики (сопротивления материалов)* простейших конструкций или их отдельных элементов. Другая ее часть заключается в том, что *строительная механика* позволяет рассчитывать и без того разнообразные и очень сложные многоэлементные конструкции. В методах теоретической механики широко используется механика деформируемого твердого тела, постоянно изучающая равновесие и движение тел, считающихся абсолютно твердыми.

Для правильного расчета конструкций необходимо правильно применять основные законы механики с учетом механических свойств материала, взаимодействия элементов, деталей и основания конструкции. На этом основании строится *расчетная схема сооружения* в виде механической системы и ее *математическая модель* в виде системы уравнений.

В классической строительной механике рассматриваются только стержневые системы. Однако практические потребности предопределили появление новых специализированных курсов бессистемной механики, где будут рассматриваться нестержневые системы. «Строительная механика корабля» (рассматриваются методы расчета плит и оболочек), «Структурная механика летательных аппаратов» (расчет плит и оболочек относительно конструкций самолета), «Структурная механика ракеты» (основная часть данного курса посвящена расчет) курсы заключаются в следующем. Эти курсы позволяют широко применять методы теории упругости, более сложные, чем методы классической строительной механики. Его методы становятся все более популярными где трубы должны рассчитываться исходя из любых рам и ферм бесконечной длины, сплошных поворотов, буровых установок, пандусов и площадок.

Используются разные элементы:

1) **стержни** - плоские или криволинейные элементы, размеры которых значительно меньше длин  $a$  и  $b$  (рис. 1, а - б). Ос Назначение новых игл - восприятие осевых сил (растяжения и сжатия), а также изгибающих и крутящих моментов. Определенный вид инструмента представляет собой гибкую нить (тросы, канаты, цепи, ремни), работающую только в условиях растяжения, не оказывая сопротивления воздействиям сжатия и изгиба. При меньшем их количестве они состоят из расчетных схем многих инженерных сооружений: ферм, рвов, шпангоутов, современных стержневых конструкций и так далее.

2) **пластины** - элементы толщиной  $t$  меньше остальных размеров  $a$  и  $b$ ; пластины могут быть прямыми (рис. 1, г) и изогнутыми в одном или двух направлениях (рис. 1, з, д). Возьмите с внутри плит, чтобы двигаться в двух направлениях, что является наиболее полезным в ряде случаев и экономит эти материалы. Расчет ровных пластин и систем из них намного сложнее, чем расчет проволочных систем.

3) **массивные тела** - все три размера элементов одинаковы (рис. 1, рис. Е).





Рис. 1

Простейшие конструкции, составленные из таких элементов, можно разделить на следующие виды - **стержневые конструкции** (рис. 2, а, б), **складчатые конструкции** (рис. 2, внутри), **оболочки** (рис. 2, з)

и **массивные конструкции** - удерживающие стены (рис. 1.4, з) и каменные колонны (рис. 2) д):



**Рис. 2**

Современные строители научились возводить очень сложные конструкции, состоящие из разных элементов разной формы и типа. Например, очень распространена конструкция с массивным фундаментом, средняя часть может состоять из колонн и плит стержневого типа, а верхняя часть может состоять из плит или оболочек.

**В заключение основными задачами строительной механики, а именно механики инженерных сооружений, являются разработка методов определения прочности, жесткости, устойчивости инженерных сооружений и получение данных для их надежного и экономичного проектирования.**

## СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Анохин, Н.Н. Строительная механика в примерах и задачах: ч. I. Статически определимые системы/ Н.Н. Анохин. – М.: Высшая школа, 1999.
2. Дарков, А.В. Строительная механика/ А.В. Дарков, Н.Н. Шапошников.– М.: Высшая школа, 1986.
3. Е. Odilxo‘jaev va boshqalar «Qurilish mexanikasi» 1972 yil.
4. Е. Odilxo‘jaev va boshqalar «Qurilish mexanikasidan misol va masalalar» 1972 yil.
5. Q.S. Abdurashidov va boshqalar «Qurilish mexanikasi» T.:, «O‘zbekiston», 1999 yil.
6. X.SH. To‘raev va boshqalar «Qurilish mexanikasi» (Nazariy asoslari va amaliy masalalar) Moliya – 2000.



## “ҚИРҚ ЙИГИТ” ҚАЛЪАСИ

**Бекбосынов Жалғасбай,**

**Саатов Батирбек**

Тошкент архитектура қурилиш институти “Архитектура” факультети

“Архитектура тарихи ва назарияси” кафедраси магистрантлари

### АННОТАЦИЯ

Мазкур мақола ўрта асрлар бошида Орол бўйи минтақасида жойлашган “Қирқ йигит” қалъасига бағишланган.

**Калит сўзлар:** гидрографик, дельта, муҳофаа, мабил, горнизон, археология.

### АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена ране средневековой крепости “Кирк джигит” в Приаралье.

**Ключевые слова:** гидрография, дельта, оборона, мобильный, гарнизон, археология.

### ANNOTATION

This article is devoted to the wound of the medieval fortress "Kirk Dzhigit" in the Aral Sea region.

**Keywords:** hydrographic, delta, defense, mobile, garrison, archeology.

Қадим Хоразмнинг Орол бўйи худудларидан савдо қарвон-йўлларининг илк шакилланиш давларлари ва уларнинг ўзгариб бориши минтақадаги гидрографик шароит билан боғлиқ. VII-VIII асрларда Орол дельтаси яхлид гидрографик ҳолатини археолог олимлар қуйидагича таърифлайди: Амударёнинг асосий ирмоғи Ток-қалъага бориб кўп ирмоқларга тарқалиб

оқабошлайди[1]. Орол бўйи минтақасида шарқдан Қизилқум саҳроси, ғарбдан Устюрт платоси, жанубдан Огузлар юрти, шимолдан денгиз билан қуршалган, натижада бир гуруҳ дарё ирмоқлари йўналиш негизида янги “Қуанишжарма” дельтаси пайдо бўлади, ва дарё уша пайтда “Жойхун”деб, денгиз эса “Кердер кўли” деб номланган (1-расм).

Дарё қуйи қисмида кўплаб ирмоқларга бўлиниб унинг бўйларида Кят, Миздахкон, Дарсан, Вардарак, Кердер, Куйик қалъа, Багдот, Қирқ йигит, Қўрғонча каби қалъалар вужудга келган. Бу қалъалардан бири Қирқ йигит, хозирги Қораўзак туманида жойлашган.

1

Қалъа тўғри тўрт бурчакли, жанубий девори ўртасида ярим айлана буржли минора излари сақланган бўлиб Хоразм анъанавий мудофаа кўрғон деворини эслатади.

Ёдгорлик хозирда қаттиқ шикасланган фақатгина мудофаа деворлари пойдевори излари сақланган.



1-расм

Деворлар узунлиги 110 ва 120 м 13,200 м.кв ни ташкил қилади. қалъанинг паҳсали деворлари қолдиқлари ва ундаги ярим айлана бурж миноралар билан мустаҳкамланганлиги Хоразм мудофаа меъморчилик мактабига мансуб [2,31.6].

Қалъа ичида қурилиш излари сақланмаганлигига қараганда Хоразмшоҳлар давлатининг мавсумий ғарбий мудофаа истехкоми бўлган бўлиши мумкин. Қирқ йигит қалъаси мудофаа деворлари ичкарасида мабил, отовлар ёки чодир билан харбийларга вақтинчалик горнизон сифатида хизмат кўрсатган бўлиши эҳтимали бор.

Ўрта асрларда харбий юришларда чодирлардан кенг фойдаланилганлиги ҳақидаги қўл ёзмалар ва рассомлар ижодларида ўз аксини топган. Илмий қўлёзмаларда “Чодир шаҳарсозлиги” атамасида ёритилган. Унда кўчма чодирлар қурилиши эсга олиниб ёғоч устунга ёпиладиган мато ва уларнинг бири нечта типлари ва шарқ миниатюрасида муҳирланганлиги билан асосланади [3,36-37 б]. Меъморчилик анъаналарини ўрганишда қурилиш излари бизгача тўлиқ сақланганмаган ҳолатларда, қалъалардан қолган пойдевор излари, топилган археологик ашёлар бу қўрғонлардан қандай мақсадларда фойдаланилганлигини билиш жуда қийин. Шу сабабли илмий ишларимизда, тадқиқот усулларида маҳаллий фольклор ва этнографик материаллардан ҳам унумли фойдаланиш муҳум ўрин тутди.

## 2

Масалан Орол бўйидаги Қирқ-қиз достонида бизнинг эрамизгача VI-VII-II асрларда яшаган қавумларнинг ботқоқликни экин майдонларига айлантиргани, қўрғонлар қурган ва бошқа маданият излари кўринади. Бу маълумотларда апасияклар, ороллилар маданияти ёдга олинади, Қирқ-қиз тимсоли қорақалпоқ рассомларининг ҳам ижодларида ҳам ўз аксини топган. 1938 йилда Хоразм вилояти ҳудудида олиб борилган археологик қазишмалар пайтида Беруний шаҳридан 27-км шимолда Қирқ қиз-қалъа (мил.I-VI асрлар) қадимги манзилгоҳ топилган. Олимлар, бу қадимий Хоразмнинг шимолий-ғарбий қисимининг чегараларини химоя қилиш учун мустаҳкам истеҳкомлар занжири таркибидага кирувчи мудофаа қалъаси деган фикрни билдирган.

Мудофаа қўрғон Қирқ-йигитнинг қалъаси атамасини олгани маҳаллий топоним, Қорақалпоқ фалклор дostonларида ҳам учраб улар Қирқ-ботир тимсолида гавдаланади. масалан Соппасли сипра бахши, унинг “Қорақалпоқларнинг қирқ ботири” номли дostonлар парчаси халигача Хоразмдаги қорақалпоқларнинг ёдида сақланган. Бу дostonларда кўрсатилишича босқинчилик азобидан қорақалпоқларнинг бир қисми Қримдан Волга, Орол, Қозоғстон, Бухоро хонликлари орқали Хоразмга келганлигини

1965-йили Тахтакўпир туманининг Ленин номидаги хўжалигида яшовчи муйтан уруғи вакилларидан ёзиб олинган [4,7 б]. Кейинчалик бу дастондаги ботирлар тимсоли қорақалпоқ рассомлари ижодларида ифодаланган (2-расм).



2-расм

Қримда қорақалпоқ халқининг  
 Қирқ ботири эди оғаси,  
 Теридан эди ёқаси.  
 Қирқ ботир йўлга отланса,  
 Қирғинлар эди ораси  
 Қирқ ботирдан айрилиб,  
 Йиғлаб қолди боласи.  
 (5, .36 б)

3

Ёдгорлик дастлаб 1958 йилда ЎзБ.Р ФА Қорақалпоғистон бўлими комплекс тарихий илмий-археологик тадқиқот ишлари давомида топилган. маданий катлами борлиги билан ташкил этилган. Кўплаб топилган кулолчилик буюмлари тахлил қилиниши асосида ёдгорликнинг тахминий санъаси VII-IX асрларга оид. Археологик тадқиқотлар хулосалари ёдгорликни Кердер маданиятига мансуб деб топилган ва у VII-IX асрларга оид [6,6.б]. Хоразм давлатининг Орол худудларида савдо йўллариининг ҳавсизлиги таъминлаш мақсадида харбий истехком горнизонлар Амударё бўйларига яқин худудларга жойлашган масалан Хоразм пойтахти Кят яқинидаги Қизил-қалъа жойлашгани дарёнинг қуйи қисмида Белтау тепалигининг ғарбидаги оҳирги манзил Қирқ йигит қалъасигача етиб борган.

Масалан Амударё дельталарида кеч ўрта асрларда шакилланган Арзи қалъаси излари яхши сақланган ёдгорликда Хоразмнинг анъанавий қалъаларни

сунъий хандаклар ёрдамида душмандан мудофааланган бўлса Арзи қалъаси атрофи ҳам дарёдан ирмоқ орқали тўлдирилган.

Мудофаа девори ичида эса 25-30 дона қора-уй отовлар излари яхши сақланган. Шу сабабли Орол бўйи минтақасидаги иқлим шороит ҳисобга олинган, ва аскарларнинг вақтинчалик чегара ҳудудларга келиб кетиши учун хизмат қилган бўлиши мумкин[7, 7,8,9,10,11.б].




График реконструкция; О.А.Машарипов бўйича

4

## АДАБИЁТЛАР

1. **В.Н. Ягодин** АРХЕОЛОГИЯ ПРИАРАЛЬЯ Выпуск VII КОМПЛЕКС АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВНА ВОЗВЫШЕННОСТИ КРАНТАУ ТАШКЕНТ Издательство “ФАН” Академии наук Республики Узбекистан 2008.
2. **Ягодин В.Н. С.М.Мадияров** Материалы к своду памятников истории и культуры Каракалпакский АССР, 1985 с 31.
3. **Бону Азизова** Миниатуралардаги чодир шаҳарсозлиги Мозийдан Садо илми-амалий, маънавий-маърифий журнал 4(72).2016й. 36-37б.

4. **Есбергенов Х.**, Қонырат тарихий ва маданий эсталиклар: Билим. – Нукус, 1993й.
5. **Гудкова А,В., Ягодин В.Н.** Археологические исследование а правобережной части Приаральской дельты р. Амударьи в 1985-1959 гг. – МХЭ, вкп.6 М., 1963.
6. **Манылов Ю.П.** Средневековые Хорезмские памятники Восточного чинка. – В кн.: Древняя и средневековая культура юго-восточного Устюрта. Ташкент, 1979.
7. **Машарипов.О.А** Древний Хорезмский замок “Кирк-джигит”(Сорок богатерей) Наука и образование: проблемы, идеи, инновации Материалы VII Международной научно-практической конференции “Наука и общество в современных условиях” 7,8,9,10,11 стр. г.Уфа, Российская Федерация 29-30 октября 2019г.



## DEMOGRAFIYADA OILA VA UNING TARAQQIYOTI

**Dilshoda Inomjonova**

Andijon davlat universiteti, Tabiiy fanlar fakulteti

Geografiya yo‘nalishi talabasi

[dilshodainomjonova20@gmail.com](mailto:dilshodainomjonova20@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oila paydo bo‘lishi va rivojlanishini ilmiy o‘rganish, oilaning jamiyat taraqqiyotidagi mahsuli, oilaning shakllari, demografik taraqqiyotdagi o‘rni, oilaning demografik mezonlari, ijtimoiy holati, oilaning demografik vazifasi uning demografik faoliyati.

**Kalit so‘zlar:** monogam oila, ko‘pxotinlik oila, ekzogam oila, oilaning demografik vazifalari, uning demografik rivojlanishi, oilaning ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy rivojlanishi, oilaning iqtisodiy vazifalari, iqtisodiy rivojlanishi, uy-ro‘zg‘orchilik.

### ANOTATION

A scientific study of the origin and development of a family in this article, the product of the family in society, the skeptics of the family, the role of the demographic development, the demographic criteria of the family, the social status, and the demographic function of the family are its demographic activities.

**Key words:** monogamous family, polygamous family, eczogamous family, the demographic functions of the family, its demographic development, the social functions of the family, its social development, the economical functions of the family, its economic development, housekeeping.

Oila jamiyat taraqqiyotining mahsuli sifatida o‘zining paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixiga ega. Oilaning dastlabki shakli ibtidoiy jamoa tuzumi davrida paydo bo‘ldi. Ma’lumki, ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida insonlar to‘da-to‘da bo‘lib yashaganlar. Ular orasidagi jinsiy munosabatlar tartib - qoidaga ega bo‘lmagan. Bir nechta erkak va bir nechta ayol farzandlari bilan bir oila bo‘lib yashaganlar, o‘zaro turmush kechirishgan. Oilaning bunday shakli fanda “Poligamiya” - ko‘p nikohlik, deb ataladi. Quldorlik jamoa tuzumi davrida esa jamiyat taraqqiyotida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar asosan, xususiy mulkning paydo bo‘lishi natijasida, oilaning tarkibi ham, shakli ham o‘zgardi. Dexqoncxilik va chorvaxilikning rivojlanishi ijtimoiy ishlab chiqarishda erkaklar qadrini oshirdi, moddiy maxsulotlar yaratishda erkaklar ulushi yuqori bo‘la boshladi. Natijada ota huquqiga asoslangan patriarhal oila vujudga keldi. Endi bir erkak oila boshlig‘i bo‘lib, u xotinlari, farzandlari va qullari bilan oila bo‘lib yashardilar. Bunday oilalar ko‘pxotinlik, ya’ni “poliginiya” asosida tashkil bo‘lgan poligamiya oila shakli bilan monogam - bir nikohli oila o‘rtasidagi oraliq oilalarni tashkil etganlar. Quldorlik davridan feodalizm jamoa tuzumi davriga o‘tish, hamda feodalizm ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi oilaning “monogam”, ya’ni yakka nikohlilik ko‘rinishining paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. Ushbu davrda xo‘jalik yuritishda ota-ona farzandlari, nabira - chevaralari bilan birga ishtirok etishgan. Ular birgalikda ekin ekib, xosil yig‘ib, moddiy boylik yaratishgan. Ushbu davrda ota -ona, o‘g‘il-qiz, kelin -kuyov, nabiralari birga bir nechta bo‘g‘inli oila bo‘lib yashashgan. Kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari sharoitida esa, yirik -yirik sanoat korxonalarining paydo bo‘lishi natijasida, mayda dehqon xo‘jaliklar, mayda hunarmand oilalar inqirozga uchradi. Bolalarning mehnatidan foydalanish, ularga ishchi kuchi sifatidagi talab asta -sekin kamayib boradi. Ko‘p bo‘g‘inli katta oila bo‘lib yashash hollari yo‘qola boshladi va oilaning yangi tuzilishi er -xotin va bolalardan iborat bo‘lgan nuklear - yadro oila yuzaga keladi.

Oila paydo bo‘lishi va rivojlanishini ilmiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, oilaning tashkil bo‘lishida asosiy omil-nikoh va qarindoshlik munosabatlari bo‘lib, bu hol oilaga berilgan ilmiy ta’rifda o‘z ifodasini topgan. Oila-insonlarning tabiiy biologik,



nikoh, qon-qarindoshlik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlarga asoslangan turmush birligi va o'zaro javobgarlik orqali bog'langan ijtimoiy guruhidir. Oilaning bugungi shaklida oila a'zolari bir-birlari bilan umumiy turmush, ma'naviy xuquqiy, psixologik munosabatlar va o'zaro javobgarlik xis-tuyg'ulari bilan bog'lanib turadilar. Oilada har bir oila a'zosining o'z ijtimoiy o'rni bordir. Oila asosini er - xotin tashkil etadi. Lekin oilada er-xotin uning farzandlari, otaonasi, aka-uka, opa -singil va boshqa qarindosh-urug'lar ham yashashlari mumkin. Demak oila turli mezonlar asosida tashkil topar ekan, ushbu mezonlarni o'z mazmuniga ko'ra, shartli ravishda demografik, ijtimoiy va iqtisodiy mezonlarga ajratish mumkin.

1.Oilaning demografik mezonlarga ko'ra turlari: Ma'lumki oila tashkil bo'lishiga avvalo erkak bilan ayol o'rtasidagi nikoh birligi asos bo'ladi. Ana shu nikoh birligiga asosan oila ikki turga bo'linadi. Poligam - ko'p nikohli oilalar, bunday oilalar yuqorida qayd etilganidek bir erkak, bir nechta ayol bilan nikohda turishi, oila ko'rishi mumkin. Monogam - bir nikohli oilalar, ya'ni bir erkak bir ayol bilan nikohda turadi, oila quradi. Qayta tuzilgan - ikkinchi nikohli oilalar.

2.Oila unda istiqomat etuvchi oila a'zolarining tarkibiga ko'ra turlari: Oddiy (nuklear) oila, unda er-xotin nikohga kirmagan, ya'ni turmush qurmagan farzandlari bilan yashaydi. Bunday oilalar turlari eng ko'p tarqalgandir. Murakkab (ko'p bo'g'inli) oilalar, bunday oilalarda ikki yoki undan ortiq, avlod vakillari istiqomat etishadi. Masalan, ota-ona oila qurgan farzandi va nabiralari bilan yoki bobo, buvi, ota-ona va farzand o'z bolalari bilan istiqomat etishadi.

3. Oila yadrosini tashkil etgan er-xotin hayotligiga, shu oilada birga yashash va yashamasligiga ko'ra turlari: Tugal (to'liq) oilalar, er -xotin hayot bo'lgan va birga yashagan oilalar. Tugalmas (noto'liq) oila. Bunday oilalarda oila asosini tashkil etgan er xotinning biri hayot emas yoki shu oilada yashamaydi.

4. Oilada istiqomat etuvchi oila a'zolarinint miqdoriga ko'ra: Kichik oilalar (2 - 4 kishilik) O'rta oilalar (5 - 6 kishilik) Katta oilalar (7 - 8 va undan ko'p kishilik) mavjuddir.

5. Bolalar soniga ko‘ra: farzandsiz, bir bolali, kam, o‘rtacha va ko‘p bolali oilalar (davlatlarda, turli davrlarda ushbu mezonlar turlichadir.) Oila jamiyatda tutgan ijtimoiy o‘rniga, ya’ni er- xotinning ijtimoiy sinfiga, guruhiga qarab ham turlarga bo‘linadi. Oilaning bunday ijtimoiy turlari, turli ishlab chiqarish usuli xukmron jamiyatda turlicha bo‘lgan.

Oilalar ijtimoiy holatiga ko‘ra 2 guruhga bo‘lish mumkin:

1. Er-xotin bir xil ijtimoiy guruhga mansub oilalar (ishchi oilalar, xizmatchi oilalar, dehqon, tadbirkor, savdogar, olimlar, san’atkor, xunarmand oilalar).

2. Er-xotin turli ijtimoiy guruhga mansub oilalar.

3. Er-xotinni ma’lumotlariga ko‘ra turlari: o‘rta ma’lumotli, o‘rta maxsus, yordamchi maktab ma’lumoti va oliy ma’lumotga ega bo‘lgan oilalar, ma’lumotsiz (savodsiz) oilalar.

4. Oilaning “yoshiga” ko‘ra yosh oila (1 yilgacha, 3-5 yillik, 6-10 yillik turmush tajribasiga ega bo‘lgan oilalar), o‘rta yoshdagi oila, yetuk oila.

5. Oilaning hududiy jihatlariga ko‘ra: shahar, qishloq va aralash tipdagi oilalar. Hamda aralash tipdagi oilalar.

6. Er xotinning millatiga ko‘ra; Bir millatli (er xotin bir bir xil millatga mansub) va baynalminal (er-xotin turli millatga mansub) oilalar.

7. Olaning yuridik xususiyatiga ko‘ra rasmiy oila (nikohdagi oila) va norasmiy (nikohga kirmagan, nikohdan tashqari).

Oila paydo bo‘lgandan to hozirgi davrga qadar u bajarib kelgan vazifalar chuqur ilmiy tahlil etilsa, ularni asosan uch yo‘nalishda ifodalash mumkin. Bu yo‘nalishlar farzandlarning tutilishi, ularni tarbiyalash va moddiy extiyojini qondirishdir. Shuning uchun ham oila vazifalarini uch guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir. Oilaning vazifalarini: Oilaning demografik vazifasi. Oilaning ijtimoiy vazifasi. Oilaning iqtisodiy vazifasi. Oilaning demografik vazifasiga - uning demografik faoliyati, ya’ni oilada farzandlarning tug‘ilishi, inson naslini, jamiyatni davom ettiruvchi avlod yaratish kiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bo‘riyeva M, Tojjeva Z., Zokirov S. Aholi geografiyasi si va demografiya asoslari. Toshkent. 2011.
2. Bo‘riyeva M. “Demografiya asoslari” (o‘quv qo‘llanma) Toshkent. 2001.
3. Bo‘riyeva M.R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. Toshkent, 1997.
4. Bo‘riyeva M.R. Oila va demografiya asoslari.(ma‘ruzalar matni) Toshkent 1999.
5. Mallaboyev T. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. Namangan. 2012.
6. Kopilov V.A. Geografiya naseleniya. M. 1999.
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
8. [www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)



## MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINING O‘SISHIDA BOLALAR ADABIYOTINING O‘RNI

**Erdanova Dilbar Xursanovna**

Surxondaryo viloyati Denov tumani 14-DMTT tarbiyachisi

### ANNOTATSIYA

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ta’lim-tarbiya berishda badiiy adabiyotlardan, jumladan, o‘zbek xalq ertaklari va boshqa millat xalqlari ertaklaridan foydalanish, mashg‘ulotlar e`davomida bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirishda tarbiyachilar nimalarga tibor berishlari haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Badiiy adabiyot, maktabgacha ta’lim, ta’lim, tarbiya, ertak, hikoya, topishmoq, nutq, kitob, mashg‘ulot.

Maktabgacha tarbiya yoshidaga bolalar bilan ishlashda badiiy so‘z katta ahamiyatga egadir. Bolalar xalq ertaklari, she’r, hikoyalar eshitishni yaxshi ko‘radilar. Bolalar adabiyoti, avvalo o‘zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go‘zalliga, tilning ifodaliligi, she’riy so‘zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi. V.G. Belinskiy bolalar kitobi tarbiya uchun yoziladi, «Tarbiya - buyuk ish, u insonning taqdirini hal qiladi» - degan edi. Badiiy adabiyotning qiymati bolaning har bir jihatdan o‘shiga ta’sir ko‘rsatishidadir. Badiiy adabiyot bolaga jona-jon o‘lka tabiatining kishilarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va ko‘rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqeaalar, bolalarning o‘yinlari, ermaklari va qilayotgan mehnatlarini hikoya qilib beradi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlari, his-tuyg‘ulari, xatti-harakatlarini, shuningdek, tasvirlangan hodisalarga yozuvchining munosabatini ko‘rsatib, badiiy adabiyot asarlari bolani hayajonlanishga, asar qahramonlariga achinishga yoki ularni qoralashga majbur qiladi. Eng yaxshi

badiiy adabiyot asarlari bolalarda biror narsaga yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz, to‘g‘ri-noto‘g‘ri deb, o‘zlariga xos bir yordam beradi. Bolalar kitobning qiziqarli mazmuni do‘stlik, halollik, mehnatsevarlik, o‘rtoqlik namunalarini ko‘rsatadi. Bolalar badiiy adabiyot asarlari estetik jihatdan tarbiyalashga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Badiiy asarlarning yorqin obrazlari, jonajon tabiatning shoirona manzaralari, she‘rlarning musiqaviyligi, tilning o‘tkirliigi, ifodaliligi bolalarga yoqadi. Bolalar badiiy so‘z qudratini his etadilar, uncha katta bo‘lmagan ertaklar, xalq ashula hamda she‘rlarini tez va osongina eslab qoladilar.

Badiiy so‘zga muhabbatni ilk yoshdan boshlab tarbiyalab borish zarur, bola maktabga ana shu muhabbat bilan o‘tadi va keyinchalik Vatan adabiyotini sevadigan bo‘lib qoladi. Xalq, og‘zaki ijodi - ertaklar, topishmoqlar, maqollar, qo‘shiqlarning ko‘plari uzoq o‘tmishda va hozirgidan tubdan farq qiladigan voqeligidan tubdan farq qiladigan turmush sharoitida yaratilgan xalq ijodi asarlaridan faqat tarbiya vazifalariga javob beradiganlari tanlab olinadi.

Maktabgacha te‘lim tashkiloti dasturida ko‘rsatilgan asarlarning ko‘pchiligi bolalar adabiyotining oltin fondini tashkil etadi. Har yili bolalar uchun yangi kitoblar nashr etib turiladi. Tarbiyachi bosmadan chiqayotgan kitoblarni kuzatib borishi, jurnallardagi tanqidiy maqolalarni o‘qishi va bolalar kitoblarining muhokama etilishida ishtirok etishi kerak. Tarbiyachi har bir yosh guruhida bolalarni juda ko‘p bolalar badiiy adabiyoti asarlari bilan tanishtirib borishi lozim. Maktabgacha te‘lim tashkilotlarida tashkil etilgan “Til va nutq” markazining muhim vazifasi ham bolalarning asarlar mazmunini o‘zlashtirib olishlariga, ularni to‘g‘ri tushunishlariga erishishdir. Bolalar asarlarning bir qismini yod olishlari, bir qismini esa matnga yaqinroq qilib aytib bera olishlari lozim.

Tarbiyachilar bolalarda birgalashib eshitish malakalarini, uyushqoqlik bilan savollarga javob berish va o‘qib berilgan asar asosida savollar berish, illyustrasiyani diqqat bilan ko‘zdan kechirish, kitobga yaxshi munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini tarbiyalashi zarur. Bolalarda kitobga berilish, bilishga qiziqish, tinglangan asar haqidaga taassurotlarni o‘rtoqlashish istagi va ko‘nikmasini tarbiyalashi lozim.

Bolalar kitobi bolaga tushunarli bo‘lgan, uning aqli va qalbiga yetib borgan, ya’ni bola yozuvchining hikoya qilayotgan narsasini tushunadi hamda his eta olgan taqdirdagina u o‘zining tarbiyaviy rolini bajaradi. Tarbiyachilar bolalarning asarlar haqidagi bilimlarini mustahkamlab borish uchun oldingi yosh guruhlarida ularning qaysi asarlar bilan tanishganlarini bilishlari kerak. Buning uchun yil boshida oldingi guruh dasturini ko‘rib chiqish va takrorlash materialini belgilab olishi lozim. Tarbiyachi taqvim-reja tuzish paytida yaqin bir-ikki hafta ichida bolalarga o‘qib beradigan asarlarini tavsiya ro‘yxatidan belgilab oladi. Bunda u bolalarda his - tuyg‘u va xulq-atvorni, tevarak-atrofga har xil qiziqish hamda munosabatlarni tarkib toptirishdek muhim tarbiyaning umumiy vazifalariga amal qiladi. Bolalarning qiziqqan narsalarini, ularning o‘zaro munosabatlarini, o‘yinlarini kuzatish yaxshi kitob tanlashga ancha yordam beradi. Har bir asarni tevarak-atrofdaga ma’lum hodisalar bilan bog‘lash va o‘sha vaqtdagina o‘qib berish lozim, deb o‘ylash noto‘g‘ri. Albatta, kitobdagi hodisalarga bog‘liq mavzuni o‘qib berish kerak. Lekin boshqa vaqtda ham bunday kitob o‘qishni o‘tkazish lozim.

Tarbiyachi asar tanlagach, bolalarga uni qanday yetkazish lozimligini aniqlab olishi kerak. Notanish so‘zlari ko‘p bo‘lgani uchun bolalar mazmunini tushuna olmaydigan asarni o‘qimagan ma’qul.

Badiiy adabiyotdan foydalanadigan mashg‘ulotlar g‘oyat osoyishta sharoit yaratilishini talab etadi. Muhimi, xech narsa bolalarni eshitishdan chalg‘itmasligi lozim. Mashg‘ulotlarni tez uyushtirish, uni bolalar adabiyotiga xos sog‘lom, optimistik xarakterda, xushchaqchqlik bilan o‘tkazish kerak. Tarbiyachi bolalarni xushmuomalalik va osiyishtalik bilan o‘tirishga taklif etib, bolalarning qanday o‘tirganini tekshirib, mashg‘ulotni boshlaydi. Mashg‘ulot boshlangan vaqtdayoq bolalarning diqqatini jalb etish juda muhim.

Xulosamiz o‘rnida , ruhshunos D. V. Elkonin fikrini keltirib o‘tmoqchimiz. U shunday deydi: "Bola hayot tarzining o‘zgarishi, kattalar bilan yangi munosabatlarning va yangi turdagi faoliyatlarning shakllanishi nutq shaklini va uning vazifasini (xizmatini) farqlashga olib keladi. Muomalaning yangi vazifalari vujudga keladi, bola

o‘z taassurotlarini, kechinmalarini, rejalarini (niyatini) kattalarga yetkazishga harakat qiladi. Nutqning yangi shakli - monolog tarzida xabar qilish, ko‘rgan va eshitganlari to‘g‘risida hikoya qilish paydo bo‘ladi”, bolalarni hikoya qilishga o‘rgatish jarayonida barkamol tarbiya berishning xilma-xil masalalarini hal qiladi, aqliy rivojlanishga yordam beradi. Hikoya qilib berishda mantiqiy tafakkur, diqqat rivojlanadi, nutq grammatik jihatdan shakllangan bo‘lib, o‘zini tutish, jamoa oldida so‘zga chiqish malakasi hosil bo‘ladi”.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Qodirova F., Qodirova M. Bolalar nutqini o‘stirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent - 2013 yil.
2. D.R. Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi ” Toshkent-2018
3. Ishmuhamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari - T.: TDPU, 2005.
4. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - T.: Fan, 2006.



## O‘QITUVCHI VA UNING O‘QUVCHILAR BILAN SHAXSIY FAOLIYATI

**G‘ofirjonova Asila Ismailjonovna,**

**Muradova Mashxura Yunusjonovna,**

Namangan davlat universiteti

E-mail: [gofurjonovaasila225@gmail.com](mailto:gofurjonovaasila225@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

O‘qituvchining sifatlari, unga qo‘yiladigan talablar, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabat, o‘qituvchining o‘quvchi hayotidagi roli haqida nazariy ma’lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘qituvchisining sifatlari, yuksak ma’naviyatga ega bo‘lish, o‘qituvchining roli, o‘qituvchining dunyoqarashi.

### PERSONAL ACTIVITIES WITH THE TEACHER AND HIS STUDENTS

#### ANNOTATION

Theoretical information about the qualities of the teacher, the requirements for him, the relationship between teacher and student, the role of the teacher in the life of the student.

**Key words:** teacher qualities, high morale, teacher role, teacher outlook.

Shunday bir kasb borki, jamiyat uchun zarur bo‘lgan biror mutaxassis uning ishtiroki va mehnatisiz o‘z kasbini mukammal egallab chiqa olmaydi. Bu -o‘qituvchilik kasbidir. O‘qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasbdir. Chunki har qanday odam ham bu murakkab kasbni egallab ololmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’lim to‘g‘risidagi 1997 yil 29 avgust oyida qabul qilingan qonunda hozirgi zamon o‘qituvchisi qaysi sifatlarga ega bo‘lishi kerakligi shunday sanab o‘tiladi: pedagogik



faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon; milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol; O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tiqodli fuqaro, ixtisosga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek nazariy ilmlarni mukammal egallagan, o'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi odam bo'lishiga chin ko'ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko'maklashadigan, erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i darkor. Bundan tashqari hozirgi zamon madaniyatli kishisi ega bo'lishi kerak bo'lgan barcha sifatlarga, jumladan yuksak ma'naviyatga ega bo'lish, fan–texnika taraqqiyoti va undan kundalik turmushda foydalanish yo'llari bilan qiziqish, o'z xatti–harakatlari bilan har jihatdan oilada, mahallada, jamoatchilik o'rtasida ijobiy namuna bo'la olish va boshqalardir. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida o'qituvchilarga g'amxo'rlik qilishning juda ko'p qirralari mavjud, bular ; «O'qituvchilar kuni» umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi, turli faxriy unvonlar ta'sis etilganligi, maoshi, turli imtiyozlari va xokazolar. O'zbek xalqi qadimdan ustozni e'zozlab kelgan xalq bo'lishi bilan shuhrat qozongan. « Ustoz otangdan aziz », « Usta qanday-shogird shunday », « Ustoz bilimli- shogird ilmi » singari xalq maqollarida ham o'z ifodasini topgan. Texnika taraqqiyotini jadallashtirish va ishlab chikarish samaradorligini oshirish sharoitida odamlarning umum ta'lim va kasbiy tayyorgarligiga har bir kishining mehnatga eng birinchi ijtimoiy burch sifatida ongli, ijodiy munosabatni shakllantirishga nisbatan qo'yiladigan talablar ham oshib bormoqda. Hozir mamlakatimizda amalga oshirilayotgan umum ta'lim va hunar ta'limini isloh qilish tadbirlari, ta'lim to'g'risidagi qonun, kadrlar tayyorlash milliy dastur va boshqalar mana shu talablarga javob beradi. Maktab islohotini amalga oshirishda o'qituvchi xalq qiluvchi rol o'ynaydi.

Shuni aytish kerakki, milliy dasturda ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish sur'atlari ko'p jixatdan umum ta'lim va kasb-hunar maktabi o'qituvchisining

faoligiga, uning nazariy va amaliy tayyorligi sifatiga va darajasiga bog‘liq. Hozirgi zamon ijtimoiy voqeligi zamonaviy ishlab chiqarishning ilmiy yo‘nalishlarining asoslarini, uni intensivlashtirishning yetakchi yo‘nalishlarini o‘rganishni yanada puxtarroq yo‘lga qo‘yishni talab etadi. O‘quvchilarning kompyuter savodxonligini ta‘minlash esa, ayniqsa zarurdir. Umuman ta‘limni ishlab chiqarish mehnati bilan qo‘shib olib borish prinsipini yanada to‘laroq ro‘yobga chiqarishga, ta‘lim berish samaradorligini oshirishga, yoshlarni mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlashni tubdan yaxshilashga, zamonamizning ongli quruvchilarini tarbiyalashga yanada qat‘iyroq tarzda erishmoq kerak. Ta‘lim to‘g‘risidagi Qonunda o‘quv jarayonining asosi xisoblangan dars bilan bir qatorda umum ta‘lim maktabining yuqori sinflarida, akademik lisey va kollejlarda ma‘ruzalar o‘qish, seminar va vmashg‘ulotlari o‘tkazish, suhbatlar, praktikumlar, konsultasiyalar uyushtirish, toki umum ta‘lim maktabi, kollej va oliy o‘quv yurti ish mazmuni va shakli o‘rtasida uzluksizlikni ta‘minlash zarurligi ta‘kidlab o‘tildi. Bu talablar fan o‘qituvchilaridan har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ma‘lumotga va chuqur bilimga ega bo‘lishni: pedagogik muammolarni prognoz qilish va hal etishning metodik jihatdan asoslangan yo‘llarini qidirib topish, o‘quvchi shaxsiga pedagogik ta‘sir ko‘rsatishning strategik mahoratini tanlay bilishni taqozo qiladi. Biroq, o‘qituvchining funksiyasi u dars paytida ko‘rsatgan faoliyat bilangina cheklanib qolmaydi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan darsdan tashqari vaqtlarda bajariladigan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etadi, sinf, guruh rahbari vazifasini bajara borib, bolalarning ota-onalari bilan ish olib boradi. Bunday sharoitlarda o‘quvchilarning o‘quv va o‘qishdan tashqari faoliyatini yagona ta‘lim tarbiya jarayoni sifatida rejalashtirish va tashkil qilishga nisbatan kompleks va izchil yondoshishning o‘qituvchi faoliyatidagi roli ortib boradi. Bunday faoliyat o‘quvchilarni bilimlar bilan qurollantirishga hamda bilish, muloqot va mehnatning ongli sub’ektlari sifatida ular shaxsini shakllantirib borishga qaratilmog‘i kerak. O‘qituvchi mehnatini pedagogik–psixologik tadqiq etish shuni isbot etganki, o‘quvchilarning o‘quv faoliyati samaradorligiga g‘oyat katta ta‘sir ko‘rsatadi. O‘qituvchining ilmiy jihatdan bilimdonligi, uning shaxsiga xos ijobiy fazilatlar

o‘quvchilarga tarbiya berishning, ularda ongli faollikni hamda mustaqil ijodiy bilishga bo‘lgan intilish faolligini shakllantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

### **Xulosa**

O‘qituvchining dunyoqarashi – undagi pedagogik madaniyatning hamda tarbiyachi sifatidagi mahoratning muhim komponenti hisoblanadi. Bugungi kunda o‘zini pedagoglik kasbiga bagishlagan talaba yoshlar shuni yaxshi bilishlari kerakki, hozirgi zamonning yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, hozirgi zamonning g‘oyat dolzarb va keskin muammolari yuzasidan bahs-munozaralar o‘tkaza olish, odamlarni ishontira olish, mustaqil to‘g‘ri xulosa va umumlashmalar chiqara olish mahoratini egallab olishlari g‘oyat muhim ahamiyatga egadir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Maxkamjonov K. Nasriddinov F. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini takomillashtirish. -Toshkent.1995.-74 b. 7.
2. Tulenova X. B. Maktabgacha tarbiya muassasalarida 5-7 yoshli bolalar jismoniy tarbiyasini takomillashtirish. Dis....ped.fan.nom. –Toshkent.2000. -160 b.
2. F.A.Kerimov ” Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar”. Toshkent. ”Zar qalam” - 2004.-447.b.
3. Bondarevsky E .YA. Xankeldiyev SH. X. O‘quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligi. Meditsina –T.: 1986.-204. b.
4. 5.U.Tursunov, «Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi», o‘quv qo‘llanma, Qo‘qon, 1992.

## MILLIY HARAKATLI O‘YINLARNING O‘QUVCHILAR YOSHIGA MOS TANLANISHI VA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA QO‘LLASHNING AHAMIYATI

**Ibragimov Muslim Artikmashrabovich,**

**Siddiqova Feruza Abdulxayevna**

Namangan davlat universiteti

### ANNOTATSIYA

Umumta’lim maktabidagi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun yoshiga mos, milliylikimizni ifoda etuvchi o‘yinlar va ularni o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligiga ta'siri haqida nazariy ma'lumotlar va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** yoshga mos ravishda milliy harakatli o‘yinlarni tanlash, kichik maktab yoshi, jismoniy tayyorgarlik.

### SIGNIFICANCE OF NATIONAL GAMES IN THE AGE OF CHILDREN'S AGE AND THEIR IMPORTANCE IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES

#### ANNOTATION

Theoretical information and practical recommendations on age-appropriate, national games and their impact on students' physical fitness are provided for primary school students.

**Key words:** selection of national action games according to age, small school age, physical training.

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgandan so‘ng juda ko‘plab rivojlanish jarayaonlarini amalga oshirdi, jumladan, jismoniy tarbiya va sport sohasida ham ko‘plab rivojlanishlar amalga oshirildi va bir qator qaror, farmonlar ijro etildi.

Bunga misol qilib Yurtboshimiz tomonidan 2020-yil 24-yanvardagi 5924-sonli farmonlari “O‘zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish to‘g‘risida”<sup>20</sup> gi farmonlarini ko‘rsatish mumkin. Bu esa yosh avlodni so‘g‘lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy madaniyat oldiga katta masuliyatli vazifalar qo‘yadi. Yosh avlodni jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, ularning jismoniy sifatlarini rivojlantirishiga qaratilgan, jismoniy madaniyatini milliylashtirishda xalqimizning unitilib borayotgan milliy o‘yinlarini to‘plash, hayotga, maktabga tadbiq etish, rivojlantirish yo‘llari va usullarini qayta ko‘rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Ma‘lumki, umumtalim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dastur bo‘limlarining o‘qitilish o‘quv soatlarining asosiy hajmi harakatli o‘yinlar tashkil etib, 1-sinf o‘quvchilari uchun dastur bo‘limlarining harakatli o‘yinlarga berilgan saotlar hajmi 38 soatni, 2-3-sinf o‘quvchilari uchun dastur bo‘limlarining harakatli o‘yinlarga berilgan saotlar hajmi 36 saotni, 4-sinflar uchun dastur bo‘limlarining harakatli o‘yinlarga berilgan saotlar hajmi 12 saotni tashkil etadi. Bundan korinib turibdiki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining asosiy olib boriladigan jarayonlari harakatli o‘yinlarga qaratilgan bo‘lib, hayotiy zarur bo‘lgan harakat ko‘nikma, malakalarini va unga bog‘liq bo‘lgan bilimlarni egallashga qaratilgan .

Shularni hisobga olgan holda umumtalim maktablarida harakatli o‘yinlarni takomillashtirish, o‘quvchilar yoshiga mos ravishda harakatli o‘yinlarni tanlash, harakatli o‘yinlarga milliylikni singdirish, ya‘ni milliy harakatli o‘yinlarni maktab kun tartibida keng foydalanish, dars mashg‘ulotlariga yuqori darajada kiritish, tashkil etishning yangi usullarini ishlab chiqish zaruriyati tug‘iladi.

**Asosiy qism.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ya‘ni 7-11 yoshli o‘quvchilar uchun ko‘proq harakatli o‘yinlar dastur bo‘limlarining asosiy tarkibiy qismlarini egallaydi va bunga o‘zgartirishlar kiritishga urindik, ya‘ni harakatli o‘yinlar o‘rniga xalqimizning og‘zdan-og‘zga o‘tib kelgan lekin xozrda unutib borilayotgan, milliyligimizni aks ettiradigan xalq milliy o‘yinlarimizni maktab dars mashg‘ulotlariga kiritishga urindik.

<sup>20</sup> O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora tadbirlari tog‘risida” 2020-yil 24-yanvardagi 5924- sonli farmoni. Mabuot.uz

Bu yoshdagi bolalar uchun harakatli o‘yinlar jismoniy tarbiya darsining asosi bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun maktab dasturida o‘yinlarga boshqa materiallarga nisbatan ko‘proq o‘rin ajratiladi. Buning sababi shundaki, dasturga kiritilgan turli xil jismoniy mashnlarni bolalar xilma-xil o‘yinlar vositasida osongina idrok qiladilar va o‘zlashtiradilar. Masalan, yugurib kelib uzunlikka sakrashni o‘rgatish uchun alohida mashg‘ulot o‘tkazilganda o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan vazifa amalgam oshirilmay qolishi mumkin. Chunki mashqni tushuntirish, ko‘rsatish berish, bajarish va uning qanday bajarilganligini aniqlash, xatolarni tuzatish bolalar uchun juda zerikarli bo‘ladi. Agar bu vazifani hal qilish uchun “Bo‘ri zovur ichida” o‘yinidan foydalanilsa, maqsadga osongina erishiladi. III-IV sinflar uchun harakatli o‘yinlarniasosan darsning asosiy va yakunlovchi qismida o‘tkazish tavsiya etiladi, chunki dastur meteriali darsning kirish qismida saf mashqlarini o‘tkazishni talab qiladi. O‘yinlarda yugurish, sakrash va uloqtirish yoki irg‘itish mashqlariga alohida e‘tibor berish lozim. Bu yoshdagi bolalar bilan oddiy va o‘rtacha murakkab o‘yinlarni o‘tkazish bilan birga, agar jamoa yetarli darajada tayyorlangan bo‘lsa, ancha murakkabroq, ya’ni jamoalarga bo‘linib o‘ynaladigan o‘yinlarni ham o‘tkazish mumkin. Jamoa o‘yinlari yetarli darajada chaqqonlik, hozirjavoblik, farosatlilikni va jismoniy tayyorgarlikni talab etadi va ayni vaqtda bu xususiyatlarni takomillashtiradi.

Izlanishlar natijasida umumtalim maktabi o‘quvchilari uchun yoshga mos ravishda o‘yinlar kompleksini ishlab chiqdik va ushbu jadval asosida tadbiiq qilishga harakat qildik

**MILLIY O‘YINLARNING O‘QUVCHILAR YOSHIGA MOS TANLANISHI**

Sinf	Yoshi	Milliy harakatli o‘yinlar	Izoh
1	7-8	„Oq ayiqlar“ „Olmaxonlar“ „Bo‘ri zovurda“	Bu o‘yinda ko‘proq harakat yo‘nalishini o‘zgartirib yurish va yugurish malakasi mustahkamlanadi. Qisqa masofaga tez yugurish malakasi xosil qilinadi. Uzunlikka sakrash va qisqa-qisqa yugurish malakasi xosil qilinadi.

2	8-9	„Ovchilar” „Boyo‘g‘li” „Chumchuqlar”	O‘ng va chap qo‘l bilan predmetni otishni o‘rganadilar. Chaqqonlik va ehtiyotkorlik tarbiyalanadi Birjoydan ikkinchi joyga tez-tez sakrab yurish malakalari xosil qilinadi
3	9-10	„Insiz quyon” „Ovchilar va o‘rdaklar” „To‘pni tutish	Chaqqonlik sifati tarbiyalanadi Mustaqillik va tashabbuskorlik, do‘stlik hislatlari tarbiyalanadi Diqqat-e‘tiborli, ziyrak bo‘lish malakasi xosil qilinadi
4	10-11	„Kun vat un” „Oq terakmi, ko‘k terak?” „Chillak”	Xushyorlik, sezgirlik sifatleri tarbiyalanadi. Qo‘rqmaslik, qa‘tiyatlilik hamda hamjihat harakat qilish malakasi tarbiyalanadi Qatiyatlilik va iroda sifatleri tarbiyalanadi va mustaxkamlanadi.

**Tadqiqot qismi.** Unutib borilayotgan milliy harakatli o‘yinlarimiz yosh avlodning milliy qadryatlarini rivojlantiribgina qolmay, balki birmuncha murakkab bo‘lgan, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun zerikarli hisoblangan vazifalarni oson, samarali va qiziqish bilan o‘zlashtirishiga zamin yaratib beradi. O‘quvchilarning harakat zaxirasini oshirib, hayotiy zarur bo‘lgan harakat ko‘nikmalari va malakalarini egallashga ko‘maklashadi. Biz quyida Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani XTB ga qarashli 40-umumta‘lim maktabidagi 2-„A” sinf o‘quvchilarini tajriba hamda shu maktabning 2-„B” sinf o‘quvchilarini nazorat guruhi sifatida tanlab oldik. Milliy harakatli o‘yinlar asosida tashkil etilgan dars mashg‘ulotlaridagi o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik holatini kuzatish davomida quyidagi natijalarni quyidagijadvalda qayd etdik.

№	Testlar	Jinsi	n	Tajriba x ± m	Nazorat x ± m	t	P
1	Yuqori startdan 30m.ga yugurish	O‘	15	6,9 ± 0,05	7,8 ± 0,06	0,52	>0,05
		Q	11	7,3 ± 0,06	7,5 ± 0,11	0,41	>0,05
2	3x10m.ga mokisimon yugurish	O‘	15	8,9 ± 0,12	9,8 ± 0,08	0,52	>0,05
		Q	11	9,3 ± 0,19	10,2 ± 0,11	0,41	>0,05
3	Arg‘amchida sakrash (30 soniya)	O‘	15	22,5 ± 0,52	18,7 ± 0,45	0,79	>0,05
		Q	11	27,4 ± 0,71	24,9 ± 0,85	3,45	<0,05

4	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	O'	15	126,3 ± 0,86	124,5 ± 0,73	0,87	>0.05
		Q	11	122,8 ± 1,16	119,6 ± 1,11	0,48	>0.05
5	150gr koptokni uloqtirish	O'	15	19,8 ± 0,52	17,6 ± 0,31	0,95	>0.05
		Q	11	17,0 ± 0,58	15,8 ± 0,52	1,45	>0.05

## Xulosa

Shunday qilib, pedagogik sharoitlarning yaratilishi, jismoniy mashqlar majmuasining to'g'ri tashkil qilinishi milliy harakatli o'yinlarga asoslangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini yuqori sifatli o'tkazishga imkoniyat yaratadi hamda mashg'ulotlarni qiziqarli o'tkazishga yordam beradi. Jismoniy tarbiya ish rejalarining usuliy nuqtai nazardan to'g'ri tuzilishiga yordam beradi. Yuqorida qayd etilganlar asosida to'plangan ma'lumotlar pedagogik kuzatishlar va nazorat me'yori ko'rsatkichlarining tahlili bo'yicha ma'lum bo'ldiki, 7-11 yoshli bolalarning jismoniy tayyorgarligi tajriba-sinov maktabida yuqori darajada, shu bilan birga ularning salomatligi nisbatan yuqori va bolalarning kasalga chalinishi kamaydi. Jismoniy sifatlarni tarbiyalash, birinchidan, muvozanatni o'lchash jihatdan murakkab harakatlarni o'zlashtirib olish qobiliyatini tarbiyalashdan iboratdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 24-yanvardagi 5924-sonli farmoni. Mabuot.uz
2. Abdullaeva M. Bolalar o'yinlarida o'zaro munosabatlar Boshlang'ich ta'lim.- Toshkent, 2000.
3. Atoev A.K. O'zbek xalq milliy o'yinlaridan foydalanish // Sovet maktabi.-Toshkent, 1988.
4. Yuldosheva R. O'zbek xalq o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyati. - T.: O'qituvchi. 1992
5. Usmonxo'jaev T.S. 1001 o'yin. - T.: Ibn Sino.1990
6. Kerimov F.A." Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar". -Toshkent. "Zar qalam" -2004
7. www.xalqoyinlari.uz



## SPECIAL CEMENT FOR CONCRETE PREPATION

**Teshaboeva Nodira Djuraevna**

Star.prep.kaf. “GKK”

Email: [teshaboyevanodira1953@gmail.com](mailto:teshaboyevanodira1953@gmail.com)

**No‘monov Jasurbek Omonullo o‘g‘li**

(ORCID: 0000-0001-6778-8232)

Email: [jasurbeknumonov@gmail.com](mailto:jasurbeknumonov@gmail.com)

Fergana Polytechnic Institute

### ABSTRACT

The article shows that the cement mixture is a system consisting of various components, including cement, additives and water, during production.

**Key words:** cement, concrete, components, frost resistance.

Cement mortar at the time of manufacture is a system consisting of various components, including cement, aggregates and water. Each solid in this case, regardless of its distribution in the system, is a separate phase - a set of individual parts of the system that are identical in composition and in all properties and are separated from the rest of the system by an interface. Cement grains are very small, their dimension is in the range of 1 - 100 microns. The more dispersed the substance, the greater its specific surface area. The specific surface of cements, determined by the method of air permeability, is on average 3000 - 3500 cm<sup>2</sup> / g. This method is quite suitable for practical needs and is widely used. However, it is not accurate enough, since it does not reflect the true surface of cement grains, which usually have a developed microrelief, microcracks and microcracks. [1-3]

In our case, each grain of sand can be separated from similar particles by interlayers of water or cement particles, but since the composition and properties of sand grains practically do not differ from one another, they are considered as one phase. Similarly, all particles of cement introduced into the composition of the mortar are considered to be another solid phase. Cement mortar at the time of manufacture is a system consisting of various components, including cement, aggregates and water. Each solid in this case, regardless of its distribution in the system, is a separate phase - a set of individual parts of the system that are identical in composition and in all properties and are separated from the rest of the system by an interface. For this reason, the real microgeometric surface of a cement particle is many times larger than its apparent geometric surface. Significantly more reliable are the indicators of the specific surface, determined by the adsorption of nitrogen. According to these methods, the specific surface area of modern cements averages about 20,000 cm<sup>2</sup>/g. It is easy to calculate that the total surface of the cement powder used to produce 1 m<sup>3</sup> of concrete at a cement consumption of 400 kg/m<sup>3</sup> is 800,000 m<sup>2</sup>. And if we add here the surface of aggregates (their specific surface is much less than that of cement, but it still needs to be taken into account), then it turns out that the surface of particles of solid phases in 1 m<sup>3</sup> of concrete mixture approaches 1 km<sup>2</sup>. Let us assume that 180-190 liters of water are introduced in the manufacture of 1 m<sup>3</sup> of concrete mix. Theoretically, such an amount of water should be distributed over this huge surface of solid particles and a practically homogeneous mixture should be obtained. Mixing of components is one of the important tasks in the technology of concretes and mortars. [3-5]

In particular, uniform mixing contributes to a more complete and rapid physical and chemical interaction of cement particles with water. Water introduced into the concrete mixture during its manufacture should, first of all, evenly and, moreover, with the thinnest layer, moisten the entire total surface of cement particles and aggregates.

But water has a significant surface tension, i.e. between the water molecules located in its surface layer at the phase boundary, there are significant cohesive forces that prevent it from flowing. Since, of all geometric bodies, a ball has the smallest ratio

of surface to volume, i.e., it has the most “economical” surface development, it is precisely due to surface tension that a liquid in a free state tends not to spread into a thin film, but to form spherical drops. Including the conclusion, Therefore, the large surface tension of water prevents its uniform distribution on the solid particles of the concrete mixture. Some substances, namely surfactants (hereinafter referred to as surfactants) are able to significantly reduce the surface tension of water at a given interface, for example, at the interfaces water - solid, water - air. An example of the manifestation of the action of these substances, known to everyone since childhood, is soap bubbles. It is possible to inflate a soap bubble even more than 20 cm in diameter. This can be done because there are surfactant molecules on both sides of the thinnest water shell of the bubble. [5-8]

#### REFERENCES

1. Moskvin V.M., Ivanov F.M., Alekseev S.N., Guzeev E.A. .Corrosion of concrete and reinforced concrete, methods of protection. M., Stroyizdat, 1980p.
2. Тешабаева Н. Д., Умирзаков З. А. Значение физиологических свойств почвообразования //Проблемы современной науки и образования. – 2020.№. 1 (146).
3. Djuraevna T. N. Surface identification methods used in land management and land cadastre //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 8. – С. 98-103.
4. Nomonov J. O. O. FARGONA VILOYATIDAGI MADANIYAT VA ISTIROHAT BOGLARI //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 8. – С. 27-30.
5. Mamatkulov O. O., Numanov J. O. Recycling of the Curve Planning in Gat Technology (Auto Cad) Program //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 18. – С. 418-423.
6. Abdukadirova M. A. The Role Of Builder And Building In The Development Of The Country Is Invaluable //The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 81-84.

7. Berdaliyeva Y. X. et al. GIS DASTURLARI YORDAMIDA GEOGRAFIK ASOS QATLAMLARINI JOYLASHTIRISH VA ULARNI BOSHQARISH //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 312-314.
8. Yokubov Sherzodbek Shavkat, and Abduvohidov Parviz Abdurafiq O‘G‘Li. "KOSMIK MA'LUMOTLAR YORDAMIDA YER TUZISH LOYIHA ISHLARINI OLIB BORISH." *Ta'lim fidoyilari* 25.5 (2022): 23-25.



## DIODNING VOLT-AMPER XARAKTERISTIKASIGA MAGNIT MAYDON VA YORUG‘LIKNING TA‘SIRINI O‘RGANISH

**Gulyamov Gafur,**

Namangan muxandislik-qurilish institute

**Davlataliyeva Navbaxor Muhammadjon qizi**

Namangan davlat universiteti talabasi

[dildor.macs@gmail.com](mailto:dildor.macs@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu ishimizda diodning volt-ampere xarakteristikasiga magnit maydoni va yo‘rug‘likni ta‘sirini o‘rganib chiqilgan. Dioddan tok oqa boshlaganda ko‘ndalang kesim bo‘ylab yuzaga keluvchi Xoll kuchlanishi magnit maydonning oshishi bilan ortib boradi. Buning natijasida dioddan o‘tayotgan tok magnit maydonning qiymatiga proporsional ravishda kamayib borishini sabablari o‘rganilgan. Magnit maydoni dioddagi fototoklarni maydonning ortishi bilan monoton ravishda kamayishiga sabab bo‘lishi izoxlangan.

**Kalit so‘zlar:** Xoll kuchlanishi, VAX-volt-ampere xarakteristika, fotomagnitoEYuK


## INVESTIGATION OF THE INFLUENCE OF THE MAGNETIC FIELD AND LIGHT ON THE VOLT-AMPERE CHARACTERISTICS OF DIODES

**Abstract:** In this work, the influence of the magnetic field and direction on the current-voltage characteristics of the diode is investigated. When current begins to flow through the diode, the Hall voltage across the cross section increases with increasing magnetic field. As a result of the cause, the current flowing through the diode decreases in proportion to the magnitude of the magnetic field. This is explained by the fact that

the magnetic field causes a monotonic decrease in the photocurrents in the diode with increasing field.

**Key words:** Hall voltage, I–V characteristics, photomagnetic EMF


Agar biz p-n o‘tishga bir vaqtning o‘zida ham magnit maydon ham yorug‘lik ta‘sir qildirganimizda quyidagi formulaga ega bo‘lamiz.



$$j = j_s \left( e^{\frac{e\varphi_0}{kT} \frac{e(\varphi_0 - U - U_1 + J((R_b - AU^n) + aR_x J\beta))}{kT_e}} - 1 \right) + \frac{U}{R_u} - J_f \quad (1)$$

Bu yerda  $R_b$  baza qarshiligi,  $R_x$  Xoll doimiysi,  $R_u$  sirqish qarshiligi,  $J_f$  fototok

Ushbu ifodaga  $k := 1.38 \cdot 10^{-23}$ ;  $q := 1.62 \cdot 10^{-19}$ ;  $U_1 := 0$ ;  $J_s := 10^{-9}$ ;  $R_b := 200$ ;  $R_u := 50000$ ;  $J_f := 10^{-4}$ ;  $T := 300$ ;  $t_e := 300$ ;  $R := 1000$ ;  $l := 1$ ;  $l := 1$  berilgan son qiymatlarini qo‘yib VAXni grafigini olganimizda



1-rasm. Magnit maydon va yorug‘lik ta‘sirida VAX


Bu grafikdan ko‘rinadiki magnit va foto ta‘sirida VAXda fotomagnitoEYuK hosil bo‘lib, magnit maydon ortishi bilan fototokning kamayishi kuzatiladi. Magnit maydon  $0 < B < 5$  oralig‘ida qisqa tutashuv fototoki 1 dan 0.3 gacha kamayishi kuzatiladi. Bu xodisani qo‘yidagicha izohlaymiz:

P-n o‘tishga va Lorens kuchiga fototok perpendikulyar yo‘nalgan bo‘lib, Lorens kuchi hisobiga fotoelektron va fotokovaklarning trayektoriyalari egiladi. P-n tekisligi bo‘ylab Xoll kuchlanishi p-n o‘tish potensial to‘siq balandligini o‘zgartirib yuboradi. Buning natijasida p-n o‘tish ko‘ndalang kesimida potensial to‘siq balandligi va xajmiy zaryad kengligi o‘zgaruvchan bo‘ladi. Dioddan o‘tayotgan tok asosan potensial to‘siqning eng kam bo‘lgan sohasidan o‘ta boshlaydi. Potensial to‘siq katta bo‘lgan sohalarda esa tok zichligining qiymati keskin kamaya boshlaydi. Buning natijasida natijaviy dioddan o‘tayotgan to‘la tok magnit maydonining ortishi bilan keskin kamaya boshlaydi.

Dastlab magnit maydoni bo‘lmaganda tok zichligi p-n o‘tishning butun kesimi bo‘ylab bir xil bo‘lgan bo‘lsa magnit maydoni tok zichligining diod kesimi bo‘ylab notekis taqsimlanishiga sabab bo‘ladi. Dioddan oqayotgan tok p-n o‘tishning chetiga qisilgandek bo‘ladi.

Agarda Xoll kuchlanishi diod ko‘ndalang kesimi bo‘ylab potensial to‘siq balandligining bir tarafdin ikkinchi tomonga oshirib borsa, potensial to‘siqning ko‘tarilgan sohalarida tok zichligi keskin kamayadi. Bu xodisani diodning tok o‘tayotgan ko‘ndalang kesimini magnit maydoni ta‘sirida kamayib borayotganday tasavvur qilish mumkin. Boshqacha qilib aytgandigan bo‘lsak diodning tok

o‘tkazuvchi ko‘ndalang kesimini effektiv qiymatini magnit maydoni ortishi bilan kamayib borayotganday tasavvur qilishimiz mumkin.



2 rasm. Dioddan o‘tayotgan toklarning kuch chiziqlari orasidagi bog‘lanishlar sxematik ravishda tasvirlangan.

1 rasmda M nuqtadan turli magnit maydondagi VAXlarni kesishishi kuzatiladi. Buning fizik sababini qo‘yidagicha izoxlash mumkin. Salt yurish kuchlanishida ( $U_{xx}$ ) dioddan oqayotgan tok 0 ga teng bo‘lganligi sababli diod ko‘ndalang kesimi bo‘ylab Xoll kuchlanishi yuzaga kelmaydi. Buning natijasida potensial to‘siqning balandligi turli magnit maydonlari uchun ham o‘zgarmay qolaveradi. Bu esa turli magnit maydondagi VAXlarning bir nuqtada kesishishiga sabab bo‘ladi. Dioddan tok oqa boshlaganda ko‘ndalang kesim bo‘ylab yuzaga keluvchi Xoll kuchlanishi magnit maydonning oshishi bilan ortib boradi. Buning natijasida dioddan o‘tayotgan tok magnit maydonning qiymatiga proporsional ravishda kamayib boradi. Yuqorigagi aytilgan fikrlar rasmlarda ko‘rsatilgan VAXlarning magnit maydondagi siljishini tushuntirib beradi.

Magnit maydoni dioddagi fototoklarni maydonning ortishi bilan monoton ravishda kamayishiga sabab bo‘ladi degan xulosaga kelimiz.

### ADABIYOTLAR

- [1] В.И. Стафеев, Э.И. Каракушан “Магнитодиоды”, Наука, 1975г
- [2] Dezheng Yang, Fangcong Wang va boshqalar, “A Large Magnetoresistance Effect in p–n Junction Devices by the Space-Charge Effect”, Adv. Funct. Mater. 2013, 23, 2918–2923



- [3] G Gulyamov, A Gulyamov, B Shahobiddinov, G Majidova “Relation of quasi-level fermi of hot electrons and holes with the current-voltage characteristics of the p-n junction. Scientific Bulletin of Namangan State University 2 (4), 8-15
- [4] N. A. Porter , C. H. Marrows , J. Appl. Phys. 2011 , 109 , 07c703 .
- [5] C. Wan , X. Zhang , X. Gao , J. Wang , X. Tan , Nature 2011 , 477 , 304 .
- [6] L. H. Wu , X. Zhang , J. Vanacken , N. Schildermans , C. H. Wan , V. V. Moshchalkov , Appl. Phys. Lett. 2011 , 98 , 112113 .
- [7] J. J. H. M. Schoonus , P. P. J. Haazen , H. J. M. Swagten , B. Koopmans , J. Phys. D: Appl. Phys. 2009 , 42 , 185011
- [8] S. A. Wolf , D. D. Awschalom , R. A. Buhrman , J. M. Daughton , S. von Molnar, M. L. Roukes , A. Y. Chtchelkanova , D. M. Treger , Science 2001 , 294 , 1488

## СРАВНЕНИЕ ДИФфуЗИОННЫХ ЕМКОСТЕЙ ТРЕХМЕРНЫХ 3D И ДВУМЕРНЫХ 2D p-n—ПЕРЕХОДОВ

**Косимова Мамура Одилжоновна**

Наманганский инженерно-строительный институт

докторант

E-mail: [omamuraqosimova@gmail.com](mailto:omamuraqosimova@gmail.com)

**Сайфиддинов Осимхон Обиддин ўғли**

Наманганский инженерно-строительный институт

Студент

[Dcos1mxon@gmail.com](mailto:Dcos1mxon@gmail.com)

### АННАТОЦИЯ

В данном исследовании теоретически показано, что диффузионная емкость трехмерного (3D) диода с p-n переходом больше, чем у двумерного диода (2D).

**Ключевые слова:** p-n переход, диффузионная емкость, однослойной SL MoS<sub>2</sub>, двумерного 2D диода, трехмерного 3D диода.

### COMPARISON OF THE DIFFUSION CAPACITIES OF THREE- DIMENSIONAL 3D AND TWO-DIMENSIONAL 2D p-n-JUNCTIONS

**Abstract:** In this study, it is theoretically shown that the diffusion capacitance of a three-dimensional (3D) diode with a p-n junction is greater than that of a two-dimensional diode (2D).

**Keywords:** p-n junction, diffusion capacitance, single-layer SL MoS<sub>2</sub>, two-dimensional 2D diode, three-dimensional 3D diode.


В последние годы двумерные (2D) полупроводниковые материалы вызывают большой интерес в области электроники в связи с их высоким потенциалом в производстве многогранных электронных устройств. Полупроводниковые материалы 2D показывали эффективность поглощение света. Поэтому эти материалы являются основным источником для оптоэлектронных приборов, а особенно фотодетекторам [1-4].

Исходя из высшее изложенного, нашей целью является теоретическое исследование диффузионной емкости 2D- и 3D-полупроводников.

Используя приведенное в нашей предыдущей работе [5] выражение, для диффузионной емкости трехмерной 3D  $p-n$ -перехода можно получить, её график в логарифмическом масштабе.

$$C = \frac{\tau e I_s}{2kT} e^{\frac{eU}{kT}} \quad (1)$$

используя выражение, можно получить его график в логарифмическом масштабе.




**Рис.1. Зависимость диффузионной емкости трехмерного 3D  $p-n$  перехода от напряжения.**

Диффузионная ёмкость двумерного 2D  $p-n$ - перехода определяется следующим соотношением [6]:


$$C_{dif} = \frac{q^2 n_i^2 (L_n + L_p)}{2kTN_d} \exp\left(\frac{qU}{kT}\right) \quad (2)$$

График выражения (2) в логарифмическом масштабе выглядит следующим образом



**Рис.2 . Зависимость диффузионной емкости однослойной SL MoS<sub>2</sub> двумерного 2D диода от напряжения**

Сравнение диффузионных емкостей трехмерных 3D и двумерных 2D



- переходов:

**Рис.3. Зависимость диффузионной емкости трехмерных 3D и двумерных 2D диодов  $p-n$ - переходов от напряжения**

Как видно из рис.2, диффузионная емкость однослойной SL MoS<sub>2</sub> двумерного 2D диода больше, чем диффузионной емкости трехмерного 3D диода Si.

### СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. M. Buscema, J.O.Island, D.J. Groenendijk, S. I. Blanter, G.A. Steele, H.S.J. van der Zant, and A. Castellanos-Gomez, “Photocurrent generation with two-dimensional van der Waals semiconductors”. *Chemical Society Reviews*, 44(11), 3691–3718. (2015).  
<https://doi.org/10.1039/c5cs00106d>
2. M. Buscema, D.J. Groenendijk, G.A. Steele, H.S.J. van der Zant and A. Castellanos-Gomez, “Photovoltaic effect in few-layer black phosphorus PN junctions defined by local electrostatic gating. *Nature Communications*” 5(1). (2014).  
<https://doi.org/10.1038/ncomms5651>

3. A. Pospischil, M.Furchi, T.Mueller, “Solar-energy conversion and light emission in an atomic monolayer p–n diode”. *Nature Nanotech* **9**, 257–261 (2014).  
<https://doi.org/10.1038/nnano.2014.14>
4. B.W.H., Baugher, H.O.H. Churchill, Y. Yang and P. Jarillo-Herrero, “Optoelectronic devices based on electrically tunable p–n diodes in a monolayer dichalcogenide. *Nature Nanotechnology*”, 9(4), 262–267. (2014).  
<https://doi.org/10.1038/nnano.2014.25>
5. G. Gulyamov, M.G. Dadamirzayev, M.O. Kosimova “Influence of deformation and light on the differential resistance and diffusion capacity of a p-n junction in a strong electromagnetic field”. *Scientific Bulletin of Namangan State University* (2021).  
<https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol6/iss6/1>
6. F. A. Chaves, P.C. Feijoo Guerro, and D. Jiménez, “The 2D PN Junction Driven Out-of-Equilibrium”. *Nanoscale Advances*. (2020).  
<https://doi.org/10.1039/D0NA00267D>



## КРЕМНИЙ АСОСЛИ P-N ЎТИШИ ДИОДЛАРИ КВАЗИ ФЕРМИ САТҲИГА ЁРУҒЛИК ВА ДЕФОРМАЦИЯ ТАЪСИРИ

Шахобиддинов Баҳодир Бахтиёр ўғли,

Номозов Иқболжон Иброҳим ўғли

Наманган муҳандислик-қурилиш институти,

160103, Наманган, Ўзбекистан

E-Mail: [bahodirshahobiddinov@gmail.com](mailto:bahodirshahobiddinov@gmail.com)

**Аннотация:** Бу ишда p-n ўтишли диодлар характеристикасига ёруғлик ва деформация таъсири ўрганилган Ферми квазисатҳларининг ёруғлик ва деформация таъсирида ўзгаришлари билан p-n ўтишли диоднинг вольтампер характеристикасини боғлиқлиги кўриб чиқилган.

**Калит сўз:** ЭЮК – электир юрутувчи куч, ВАХ - вольт – ампер характеристикаси, квазихимпотенциал.

## EFFECT OF LIGHT AND DEFORMATION ON SILICON-BASED P-N JUNCTION DIODES QUASI FERM LEVEL

**Abstract:** In this work, the influence of light and deformation on the characteristics of diodes with a p-n junction was studied, and the relationship between the volt-ampere characteristics of a diode with a p-n junction and the change in Fermi quasi-surfaces under the action of light and deformation was also considered.

**Key words:** EYUK – electromotive force, VAC – current-voltage characteristic, quasi-impotential.

Биз p – n ўтишли яримўтказгичларга ёруғлик билан бир вақтда ташқи деформация таъсирини ҳам кўрадиган бўлсак, бизга маълумки ютилаётган фотон

энергияси тақик зона энергиясига тенг  $\hbar\omega = E_g$  бўлса бу фотоефектнинг қизил чегараси ҳисобланади. Агар шарт  $\hbar\omega < E_g$  бўлса ички фотоефект кузатилмайди. Қачонки  $\hbar\omega > E_g$  шарт бажарилса электрон ва коваклар генерацияланишни бошлайди [1].

Агар тақик зона кенглиги ташқи таъсир билан ўзгартирилмаса қизил чегара частотаси ўзгармайди, акс ҳолда тақик зона кенглигини ўзгартириб ёруғликни ютилишини бошқариш мумкин.

Фурфуролидендикарбамид молекулаласини геометрик параметрларини топиш учун квант-кимёвий ҳисоблар компютер дастури Gaussian 98 да зичлик функционали DFT/B3LYP усулида 3-21 G базис тўплами билан амалга оширилди [4]. Фурфуролидендикарбамид молекуласининг оптималлаштирилган геометриясини топилди. Натижада молекулани ташкил этган атомларининг зарядлари, атомлараро боғ узунликлари аниқланди. Қуйидаги 1-расмда молекуланинг атомлар зарядлари келтирилган.



**1-расм.** Фурфуролидендикарбамиднинг электрон заряд тақсимоти

Ушбу тасвирдан кўриниб турибдики, услерод атомларида энг юқори атом зарядлари  $q \approx 0,930; 0,841e$  ларни ташкил этган бўлса, энг паст зарядлар азот атомида  $q \approx -0,818; -0,769 e$  ни кўрсатди.

Дастур ёрдамида оптимал холатга келтирилган фурфуролидендикарбамид молекуласини ИҚ-спектроскопияда қайд этиши мумкин бўлган тегишли ютилиш частоталари аниқланди. Қуйидаги 2-расмда молекуланинг ИҚ-спектр тасвири келтирилган.



**2-расм.** Фурфуролидендикарбамиднинг ИҚ-спектр тасвири

Дастур ёрдамида аниқланган молекуланинг ИҚ-спектрида кўришимиз мумкинки, тегишли частоталарда молекулани ташкил этган функционал гуруҳларнинг натижалари келтирилган. Фурфуролидендикарбамидни ташкил этган NH<sub>2</sub> ва NH функционал гуруҳларнинг ютилиш частоталари 3250 ва 3500 см<sup>-1</sup>, C=O эса 1600 см<sup>-1</sup> да, NH<sub>2</sub> деформацион ҳолати 1500 см<sup>-1</sup>, C–N, фуран ҳалқаси, C-C, C-H, N-C-N каби боғланишлар тегишли равишда 1300 см<sup>-1</sup>, 1000 см<sup>-1</sup>, 900 см<sup>-1</sup>, 700 см<sup>-1</sup>, 600 см<sup>-1</sup> ларда намоён бўлиши аниқланди.

Хулоса. Фурфуролидендикарбамид молекуласининг электрон тузилиши, ИҚ-спектри, атомларда электрон зарядлар тақсимооти ҳамда геометрик катталиклари Gaussian дастури ёрдамида юқори аниқликда ҳисобланди. Фурфуролидендикарбамиднинг комплексларини олиш бўйича молекула атомларнинг реакцион қобилиятлари аниқланди. Олинган натижалар асосида реакциянинг эҳтимолий ҳосилалари баҳоланди ва фурфуролидендикарбамид асосида олинадиган маҳсулотларнинг юқори унум билан чиқиши назарий жиҳатдан асосланди.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Бейдер Р. Атомы в молекулах: Квантовая теория. М., 2001. 532с
2. Аскарлов И.Р., Киргизов Ш.М., Мамарахмонов М.Х., Алимбоев С.А. Синтез и квантово-химическое изучение реакции ацетилферроцена с изомерами аминокислоты. // Universum: Химия и биология : электрон. научн. журн. 2020. № 1(67). Стр 42-44.
3. QUANTUM-CHEMICAL STUDY OF FURFURAL MOLECULE// Universum: химия и биология : электрон. научн. журн. Askarov I. [и др.]. 2022. 5(95). URL: <https://7universum.com/ru/nature/archive/item/13417>
4. M.J.F. Frisch and etc. / Gaussian 98. Revision A.5, Gaussian Inc.- Pittsburg (PA), 1998.

**ЭЛЕКТРОН РАҚАМЛИ ХАРИТАЛАРДАГИ КОНТУРЛАР ЧЕГАРАСИ  
УЛАРНИ МАЙДОН (ПОЛИГОН) КЎРИНИШДА ЧИЗИШНИНГ ARCGIS  
ДАСТУРИЙ ТАЪМИНОТИ ОРҚАЛИ АВТОМАТЛАШГАН УСУЛИНИ  
ТАКОМИЛЛАШТИРИШ**

**Абдукадилова Мухаррамхон Араббоевна,**  
Фарғона политехника институти,  
ГК ва К кафедраси ассистенти  
E-mail: [muharramabdukadyrova@gmail.com](mailto:muharramabdukadyrova@gmail.com)

**Ёкубов Шерзодбек Шавкат ўғли**  
Фарғона политехника институти магистри  
(ORCID: 0000-0001-7118-073X)  
E-mail: [sherzodbekyokubov95gmail.com](mailto:sherzodbekyokubov95gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli xaritalardaagi konturлар чегараси уларни майдон (полигон) кўринишда чизишнинг ArcGIS дастурий таъминоти орқали автоматлашган усулини такомиллаштириш бўйича маълумотлар бериб ўтилган.

**Калит сўзлар:** харита, ГИС, ArcGIS, майдон, контур, худуд, полигон слой.

**IMPROVING THE AUTOMATED METHOD OF DRAWING THE  
BOUNDARIES OF CONTOURS ON ELECTRONIC DIGITAL MAPS IN THE  
FORM OF A FIELD (POLYGON) USING THE SOFTWARE ARCGIS**

**Annotation:** This article provides information on how to improve the automated method of drawing the contour boundaries of digital maps in the form of a field (polygon) using the software ArcGIS.

**Keywords:** map, GIS, ArcGIS, area, contour, territory, polygon layer.

**Кириш.** Хариталар чизишнинг эскича усулига назар соладиган бўлсак, у анчагина кўл меҳнати талаб қиладиган услубдир.

Бугунга келиб эса бундай машаққатли ишларни компьютерлашган тизим тўлиқ қамраб олди. Бу тизимда эса харита элементларининг аниқлиги, ҳамда сифатининг яхшиланишига эришилади.[1-4]

Бугунга келиб Республика бўйича барча қишлоқ хўжалик хариталари тўлиқ ArcGIS дастурий таъминоти форматига келтирилган. ArcGIS дастури картографик маълумотларни яратиш, таҳлил қилиш ва тасвирлаш учун жуда қулай дастур ҳисобланади. Бизга маълумки, хариталар контурлардан иборат, уларнинг майдонларини ҳисоблаш ишлари қочонки контур элементларидан фойдаланиб бурилиш нуқталари орқали майдон кўринишига келтирсагина, контур майдонини тўлиқ ҳисоблай оламиз. Ўртача оладиган бўлсак битта туманда 13 тача массив бўлади. Ҳар бир массивда ўртача 800 та контур мавжуд. Ҳар бир контурни контур элементларидан фойдаланиб бурилиш нуқталари орқали майдон (полигон) кўринишига келтириш, яъни чизиш ишлари анчагина вақт талаб қилади. Дастурий таъминотлар бизга харита чизиш ишларидаги оғир кўл меҳнатидан холос этган бўлса, ArcGIS дастурий таъминотининг янги авлодлари, яъни ArcGIS 10.2 эса контурларни майдон (полигон) қилиш ишларини автоматик равишда бажариш имкониятини яратди.[1-5]

ArcGIS дастурий таъминотида контурларни автоматик равишда чизиш учун қандай ишларни амалга ошириш лозим.? Демак, биз биринчи галда электрон рақамли харитани картографик жихатдан тўлиқ тайёрлаб олишимиз лозим. Бунда контурга қўйиладиган талаб: контур тўлиқ ёпилиши керак. Шундай контурлар борки, улар тўлиқ ёпилмаган, бундай ҳолларда дастурда чизиқли қатлам яратилиб контур чегаралари ёпилади ва бу жараён фақатгина контурларни автоматик равишда чизиш ишларини бажариш учун яратилади. Энди контурни автоматик равишда чизиш кетма-кетлигини кўриб чиқамиз.

Демак, массивдаги барча чизикли қатламлар (гидрография, йўллар, кўчалар)ни белгилаб оламиз, сўнгра дастурнинг маълумотлар ойнасидан "Construct polygons" орқали дастурда яратилган "Контур" қатлам (слой)ини қўшиб оламиз ва "ок" буйруғини белгилаймиз. Шу тариқа барча контурлар автоматик равишда белгиланган қатламимизда майдон (полигон) кўринишида шаклланади

Яратилган майдон шаклидаги контурлар асосида биз куйидаги қулайликларга эга бўламиз: контурнинг исталганча атрибутив маълумотларини киритиш, фермер хўжаликлари ер майдонларининг чегараларини автоматик равишда чизиш, контурларнинг йигиндиси орқали массив чегараларини яратиш кабилардир.[5-8]

**Хулоса.** Юқоридагилардан хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, замонавий технологияларни соҳага доим татбиқ қилиб бориш лозим. Натижада бажарилаётган ишлар қисқа вақт давомида янада аниқ ва сифатли бўлишига эришилади.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

1. Abdukadirova M. A., Mirzakarimova G. M. The importance of installation of base gps stations in permanent activity in Fergana region //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 9. – С. 483-488.
2. Arabboyevna A. M. et al. In orthophotoplane technology photomod mosaic module //International Journal Of Discourse On Innovation, Integration And Education. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 93-97.
3. Berdaliyeva Y. X. et al. GIS DASTURLARI YORDAMIDA GEOGRAFIK ASOS QATLAMLARINI JOYLASHTIRISH VA ULARNI BOSHQARISH //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 312-314.
4. Abduqodirova M. A., qizi Mirzakarimova G. M. GIS TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA KARTANING GEOGRAFIK ASOSINI TUZISH, UNI TAHRIR QILISH //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING.

– 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 309-311.

5. Abdukadirova M. A., qizi Mirzakarimova G. M. The use of Geo Information System in the Establishment of Land Balance //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 18. – C. 441-445.

6. Yokubov Sherzodbek Shavkat o‘g‘li, and Abduvohidov Parviz Abdurafiq o‘g‘li. "KOSMIK MA'LUMOTLAR YORDAMIDA YER TUZISH LOYIHA ISHLARINI OLIB BORISH." *Ta'lim fidoyilari* 25.5 (2022): 23-25.

7. Abdukadirova M. A. The Role Of Builder And Building In The Development Of The Country Is Invaluable //The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research. – 2021. – T. 3. – №. 05. – C. 81-84.

8. Abdukadirova M. A., Mirzakarimova G. M. Value of geodetic works in construction of hydrotechnical structures //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 6. – C. 1307-1312.





## NAFAS YO‘LLARI KASALLIKLARIDA ISHLATILADIGAN AYRIM DORIVOR O‘SIMLIKLAR

**To‘rayeva Parizoda Axliddin qizi**

AndUPI Aniq va tabiiy fanlar o‘qitish metodikasi fakulteti,

biologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: [madinaxon14092004@mail.ru](mailto:madinaxon14092004@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida tarqalgan o‘simliklarni, nafas yo‘llari kasalliklarida foydalaniladigan turlari, damlama va preparatlar tayyorlashda qo‘llaniladigan qismlari ko‘rsatib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** nafas yo‘llari kasalliklari, bronxial astma, yo‘tal, o‘pka shamollashi, dorivor o‘simliklar, sigirquyruq.

### Some medicinal plants used in respiratory diseases

**Abstract:** This article describes the plants distributed in the territory of Uzbekistan, the types used in respiratory diseases, the parts used in the preparation of tinctures and preparations

**Keywords:** respiratory diseases, bronchial asthma, cough, pneumonia, herbs, cow dung.

Yer yuzida o‘simliklar keng tarqalgan bo‘lib: oziq-ovqat, kosmetika va farmatsevtika sanoatida ishlatiladi. Dorivor o‘simliklarning yer-yuzida 10-12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o‘simliklarni kimyoviy, formokologik xususiyatlari tekshirilgan. O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarning 7000 dan ortiq turi borligi aniqlangan bo‘lib, shulardan tabiiy holda o‘sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin turlardan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi [1].

Mamlakatimiz hududida yovvoyi holda o‘sadigan va o‘stiriladigan o‘simliklar 4150ga yaqin. Ulardan 577tasi shifobaxsh xususiyatga ega.Tabobatda ishlatiladigan preparatlarning 45% i shifobash o‘simliklardan tayyorlanadi.[2]

Dorivor o‘simliklardan tayyorlanadigan preparat va damlamalar turli kasalliklarda foydalaniladi. Ovqat hazm qilish,nafas yo‘llaridagi,yurak,nerv sistemasi va turli shamollashlarda foydalaniladi.Hususan nafas yo‘llari kasalliklari yo‘tal,bronxial astmada,o‘pka tuberkulyezida,balg‘amni ko‘chirishda ishlatiladi.Dorivor o‘simliklar tog‘ etaklari,o‘rmon,cho‘l va adir zo‘nalarida keng tarqalgan. Bu o‘simliklar turli oilalarga mansub bo‘lib,ularning turli qismlari preparat va damlamalar tayyorlashda foydalaniladi.Murakkabguldoshlar (Astradosh) lar oilasiga mansub botqoq sushenikasi(Gnaphalium Uliginosum)ning barcha qismlaridan,bo‘yimadaron(Achillea Millefolium)ning yer ustki qismidan,ko‘k bo‘tako‘z(Centaurea cyanus)ning gullaridan,qoraandiz(Inula helenium)ning ildizpoya va ildizidan turli damlamalar tayyorlanadi ,nafas yo‘llari kasalliklarida foydalaniladi.Dukkakdoshlar(Fabaceae)lar oilasiga mansub qizilmiya(Glycyrrhiza glabra)ning ildizpoya va ildizidan tayyorlangan damlamalari nafas yo‘llari kasallanganda balg‘am ko‘chiruvchi sifatida qo‘llaniladi.Ra‘noguldoshlar(Rosaceae)lar oilasiga mansub pashshao‘t(filipendula utmaria)ning ildizi va gulidan,manjetka(Alchemilla vulgaris)ning yer ustki qismidan balg‘am ko‘chirishda, o‘pka shamollaganda foydalaniladi.Qarag‘aydosh(Pinaceae)lardan qarag‘ay(Pinns sylvestus)ning qubbasidan,Zig‘irdoshlar(Linaceae) oilasidan zig‘ir(usitatissimum)ning urug‘i va undan olinadigan moylaridan,Zig‘irak(Linaria vulgaris)ning poyasidan kasalliklarda foydalaniladi.Zubtutum dosh(Plantaginaceae) oilasidan zubtutum(Plantago major)ning barglari va yer ustki qismidan,uchqatdosh(Caprifoliaceae)lar oilasidan marjon daraxt(tambucus nigra)ning guli va mevasidan,gulxayridoshlar(malvaceae) oilasidan gulxayrining(Althaea medicinal) ildizi,ildizpoya ba‘zan barglaridan,soyabonguldosh(Umbell ferae) oilasidan arpabodiyon(Anisium vulgare)ning mevasidan tabobatda foydalaniladi.

Bu o‘simliklardan biri sigirqyruq -sigirqyruqdoshlar(scrophulariaceae) oilasiga mansub 2yillik o‘t-o‘simlik.1-yili faqat ildizoldi barglari ,2-yili shoxlanmagan poyasi chiqadi.Gullari ro‘vak gulto‘plamini hosil qiladi.Mevasi sertuk ko‘sakcha.Iyun-avgust oylarida gullaydi ,mevasi avgust-sentabrda yetiladi.Sigirqyruq turlari Ukraina,Belarussiya,O‘rta Osiyo,Sibirdagi qumli yerlarda,o‘rmon chetlarida o‘sadi.Tibbiyotda sigirqyruq turlarining guli ishlatiladi.Sigirqyruq tarkibida triterpen saponinlar,2.5foizi shilliq modda,11foiz gacha qand,kumarinlar,efir moyi,karotin va boshqa moddalar bor.Sigirqyruq gulining damlamasi balg‘am ko‘chiruvchi va yumshatuvchi vosita sifatida yuqori nafas yo‘llari kassalliklarini davolshda qo‘llaniladi[3]

Xulosa qilib aytganda, O‘rta Osiyo ning cho‘,adir,tog‘ etaklari va yaylovda o‘sadigan o‘simliklarning deyarli ko‘pchiligi dorivordir.Ulardan oqilona foydalanish lozim.Dorivor o‘simliklardan tabobatda foydalanib,insonlar salomatligini yanada mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A.A.Yuldashv.,M.A.Abduxalilova., Amaranthus o‘simligining dorivorlik xususiyatlari//Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari.Buxoro.2022.
- 2.Munisxon Faxriddinxon qizi Mutalibxonova.,Dorivor o‘simliklar ahamiyati va maymunjon o‘simligi//Central Asian Academic Journal of Scientific Research.2021.N1.-B 241
- 3.M.A.Jo‘rayeva., Dorivor o‘simliklar atlası.Toshkent.Noshir.2019.-B.10-168

## ПРОИЗВОДСТВО ОТДЕЛОЧНЫХ ПЛИТ ДЛЯ СТЕН НА ОСНОВЕ МЕСТНОГО РАКУШЕЧНИКА

**Гончарова Наталья Ивановна**

Ферганский политехнический институт

МЗ-20 СОИ Пан Владислав, магистрант

(ORCID 0000-0001-8846-4392)

e-mail: [n.goncharova@ferpi.uz](mailto:n.goncharova@ferpi.uz)

**Аннотация:** В статье приведены исследования, подтверждающие возможность применения в производстве отделочных плит ракушечника Ферганского региона Узбекистана с производством плит по фильтр-прессовой технологии. Технические показатели плит отвечают установленным требованиям.

**Ключевые слова:** шлам ракушечника, цементно-ракушечные композиции, фильтр-прессовая технология, особенности технологии, применение.

## PRODUCTION OF FINISHING PLATES FOR WALLS BASED ON LOCAL SHELL

**Abstract:** The article presents studies confirming the possibility of using shell rock from the Ferghana region of Uzbekistan in the production of finishing slabs with the production of slabs using filter press technology. The technical indicators of the plates meet the established requirements.

**Keywords:** shell rock sludge, cement-shell compositions, filter-press technology, technology features, application.

Для отделки стен, цоколей малоэтажных гражданских зданий используются блоки и плиты из природного или искусственного материала. Безусловно природные облицовочные материалы являются идеальными, однако они дорогостоящи и увеличивают вес здания, что для сейсмических районов Узбекистана является нежелательным фактором. Среди эффективных искусственных материалов, изготавливаемых на основе местного сырья и вторичных отходов и применяемых в настоящее время для облицовки стен применяются цементно-стружечные плиты, цементно-опилковые плиты и другие.

Проведены исследования по производству отделочных плит на основе цемента с отходами распиловки местного известняка-ракушечника [11-28].

Ракушечник – это разновидность известняковой пористой породы, имеющей осадочный тип образования. Залежи ракушечника имеются и в Ферганском регионе Узбекистана.

Известняки-ракушечники желтого и желтовато-серого цвета имеют органическую структуру и пористую текстуру. Они состоят из органических остатков – 47–63 %, цементирующего карбоната кальция – 30–40 % и глинистых частиц – 7–13 %.

Приведенный состав ракушечника относит его к экологически чистому материалу, на котором не размножается грибок.

Строительный ракушечник имеет предел прочности при сжатии 5–15 кгс/см<sup>2</sup>. Средняя плотность ракушечника составляет 700–2300 кг/м<sup>3</sup>. За счет высокой пористости ракушечник имеет низкий показатель теплопроводности – 0,2–0,6 Вт/(м·К) и относится к единственному в мире материалу, обладающему защитными свойствами от радиации.

При распиловке ракушечника остается большое количество шлама, который требует утилизации [1-17].

На основе цемента и ракушечника различной дисперсности по фильтр прессовой технологии получен композитный материал для отделочных плит размерами 180x180x180мм и 200x200x200мм.

Выбор фильтр прессовой технологии обоснован тем, было что при получении цементно-ракушечных материалов, содержащих пористый ракушечник для улучшения удобоукладываемости смеси принято повышенное содержание воды ( $V/C= 0,5-0,7$ ), следствием чего явилось снижение прочности, морозостойкости, водонепроницаемости. Использование же смесей с пониженным водовязущим отношением связано с трудностью перемешивания и укладкой жестких смесей литьевым способом и виброформованием. Методом прессования возможно получение изделий из смесей с достаточно низким значением водоцементного отношения, что требует высоких прессующих давлений. Получаемый же материал обладает неоднородной, хаотичной структурой.

Технология фильтрационного прессования заключалась в следующем: цемент и ракушечник разной дисперсности смешивали в определенных соотношениях, затем добавлялась вода в количестве 40... 70% от массы цемента, после чего прикладывалось давление от 5 до 10 МПа в течение 1,5-4 минут. В процессе формования из смеси удалялся избыток воды (до 60% от воды затворения) через фильтрующий элемент, предусмотренный конструкцией пресс-формы. Затем изделия отправляли на твердение, которое можно проводить как при естественных условиях, так и при тепловлажностной обработке.

Данные экспериментов показывают, что составы, содержащие от 70-80% тонкодисперсного ракушечника-шлама, 20-30% портландцемента и полифункциональной добавки К-9 позволяют получать отделочные плиты с прочностью на сжатие 25-30 МПа и до 10 Мпа на растяжение [1-38].

Таким образом, показана возможность использования шлама местного ракушечника для изготовления отделочных плит размером 180x180x180 мм со

средней плотностью 820-1900кг/м<sup>3</sup>, пределом прочности на сжатие 25-30кг/см<sup>2</sup>, морозостойкостью от F50 до F70. Показатель теплопроводности – 0,32 Вт/(мК).

Данные отделочные плиты рекомендованы для внешней отделки фасадов и внутренней отделки.

### ИСПОЛЬЗУЕМАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Davlyatov S. M., Makhsudov B. A. Technologies for producing high-strength gypsum from gypsum-containing wastes of sulfur production-flotation tailings //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 10. – С. 724-728.
2. Бабков В.В., Каримов Н.Х., Джакупов К.К., Каримов И.Н., Недосеко И.В., Газизов Х.В. Использование дисперсного известняка-ракушечника в составах смешанных цементов // Материалы 1-го Международного совещания по химии и технологии цемента (апрель 1996 г.)/ РХТУ. - Москва. - 1996. - С. 128-129.
3. Плиты цементно-ракушечные облицовочные. Технические условия ТУ 5714-055-02069450-96 / В.В.Бабков, К.К.Джакупов. И.В.Недосеко. - 1996. - 18 с.
4. Akhrarovich A. K., Muradovich D. S. Calculation of cylindrical shells of tower type, reinforced along the generatrix by circular panels //European science review. – 2016. – №. 3-4. – С. 283-286.
5. Muratovich D. S. Study of functioning of reservoirs in the form of cylindrical shells //European science review. – 2016. – №. 9-10.
6. Adilhodzhaev A. et al. The study of the interaction of adhesive with the substrate surface in a new composite material based on modified gypsum and treated rice straw //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. – Т. 7. – №. 2. – С. 683-689.
7. Акрамов Х. А., Давлятов Ш. М., Хазраткулов У. У. Методы расчета общей устойчивости цилиндрических оболочек, подкрепленных в продольном направлении цилиндрическими панелями //Молодой ученый. – 2016. – №. 7-2. – С. 29-34.

8. Egamberdiyev B. O. et al. A Practical Method For Calculating Cylindrical Shells //The American Journal of Engineering and Technology. – 2020. – Т. 2. – №. 09. – С. 149-158.
9. Davlyatov S. M., Kimsanov B. I. U. Prospects For Application Of Non-Metal Composite Valves As Working Without Stress In Compressed Elements //The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research. – 2021. – Т. 3. – №. 09. – С. 16-23.
10. Mirzaraximov M. A. O., Davlyatov S. M. APPLICATION OF FILLED LIQUID GLASS IN THE TECHNOLOGY OF OBTAINING A HEAT RESISTANT MATERIAL //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 8. – С. 4-7.
11. Мамажонов А. У., Юнусалиев Э. М., Давлятов Ш. М. БЕТОН С МИНЕРАЛЬНЫМ НАПОЛНИТЕЛЕМ-ГЛИЕЖЕМ, ЭЛЕКТРОТЕРМОФОСФОРЫМ ШЛАКОМ И ДОБАВКОЙ АЦФ-3М //Энерго-ресурсосберегающие технологии и оборудование в дорожной и строительной отраслях. – 2020. – С. 220-226.
12. Абдуллаев И. Н. и др. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ПРИ УСТРОЙСТВЕ ФУНДАМЕНТОВ ГЛУБОКОГО ЗАЛОЖЕНИЯ //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 526-532.
13. Гончарова Н. И., Абобакирова З. А. БИТУМИНИРОВАННЫЙ БЕТОН ДЛЯ ПОДЗЕМНЫХ КОНСТРУКЦИЙ ЗДАНИЙ //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 122-125.
14. Абобакирова З. А., Бобофозилов О. ИСПОЛЗОВАНИЕ ШЛАКОВЫХ ВЯЖУЩИХ В КОНСТРУКЦИОННЫХ СОЛЕСТОЙКИХ БЕТОНАХ //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 6.
15. Абобакирова З. А., кизи Мирзаева З. А. СЕЙСМИК ҲУДУДЛАРДА БИНОЛАРНИ ЭКСПЛУАТАЦИЯ ҚИЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС



ХУСУСИЯТЛАРИ //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 147-151.

16. Абобакирова З. А., угли Содиков С. С. СВОЙСТВА ЦЕМЕНТНОГО КАМНЯ ОПТИМАЛЬНОГО СОСТАВА С ДОБАВКАМИ В УСЛОВИЯХ СУХОГО ЖАРКОГО КЛИМАТА //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 81-85.

17. Goncharova N. I., Abobakirova Z. A., Mukhamedzanov A. R. Capillary permeability of concrete in salt media in dry hot climate //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2020. – Т. 2281. – №. 1. – С. 020028.

18. Гончарова Н. И. и др. Применение Шлаковых Вяжущих В Конструкционных Солестойких Бетонах //Таълим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 32-35.

19. Ivanovna G. N., Asrorovna A. Z., Ravilovich M. A. The Choice of Configuration of Buildings When Designing in Seismic Areas //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 32-39.

20. Гончарова Н. И., Абобакирова З. А., Мухаммедзиянов А. Р. Сейсмостойкость Малоэтажных Зданий Из Низкопрочных Материалов //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 209-217.

21. Умаров Ш. А., Мирзабабаева С. М., Абобакирова З. А. Бетон Тўсинларда Шиша Толали Арматураларни Қўллаш Орқали Мустаҳкамлик Ва Бузилиш Ҳолатлари Аниқлаш //Таълим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 56-59.

22. Мамажонов А. У., Юнусалиев Э. М., Абобакирова З. А. Об опыте применения добавки ацф-3м при производстве сборных железобетонных изделий //Энерго-ресурсосберегающие технологии и оборудование в дорожной и строительной отраслях. – 2020. – С. 216-220.

23. Мирзаахмедова У. А. и др. Надежности И Долговечности Энергоэффективные Строительные Конструкций //Таълим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 48-51.
24. Кодиров, Г. М., Набиев, М. Н., & Умаров, Ш. А. (2021). Микроклимат В Помещениях Общественных Зданиях. Таълим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали, 1(6), 36-39.
25. Umarov, S. A. (2021). Development of deformations in the reinforcement of beams with composite reinforcement. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 511-517.
26. Akhrarovich, A. X., Mamajonovich, M. Y., & Abdugofurovich, U. S. (2021). Development Of Deformations In The Reinforcement Of Beams With Composite Reinforcement. The American Journal Of Applied Sciences, 3(05), 196-202.
27. Гончарова Н. И., Абобакирова З. А., Мухамедзянов А. Р. Энергосбережение в технологии ограждающих конструкций //Энергоресурсосберегающие технологии и оборудование в дорожной и строительной отраслях. – 2020. – С. 107-112.
28. Гончарова Н. И. и др. Разработка солестойкого бетона для конструкций с большим модулем открытой поверхности //Молодой ученый. – 2016. – №. 7-2. – С. 53-57.
29. Abobakirova Z. A. Reasonable design of cement composition for refractory concrete //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 9. – С. 556-563.
30. Goncharova N. I., Abobakirova Z. A. Reception mixed knitting with microadditive and gelpolimer the additive //Scientific-technical journal. – 2021. – Т. 4. – №. 2. – С. 87-91.
31. Goncharova N. I., Abobakirova Z. A., Kimsanov Z. Technological Features of Magnetic Activation of Cement Paste" Advanced Research in Science //Engineering and Technology. – 2019. – Т. 6. – №. 5. – С. 12.

32. Goncharova N. I., Abobakirova Z. A., Mukhamedzanov A. R. Capillary permeability of concrete in salt media in dry hot climate //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2020. – Т. 2281. – №. 1. – С. 020028.
33. Asrorovna A. Z. Effects Of A Dry Hot Climate And Salt Aggression On The Permeability Of Concrete //The American Journal of Engineering and Technology. – 2021. – Т. 3. – №. 06. – С. 6-10.
34. Abobakirova Z. A. Regulation Of The Resistance Of Cement Concrete With Polymer Additive And Activated Liquid Medium //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 04. – С. 172-177.
35. Мирзажонович Қ. Ғ., Мирзабабаева С. М. БИНОЛАРНИ ЎРОВЧИ КОНСТРУКЦИЯЛАРИНИ ТУЗЛАР ТАЪСИРИДАГИ СОРБЦИОН ХУСУСИЯТИНИ ЯХШИЛАШ //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – С. 86.
36. Мирзабабаева С. М., Мирзажонович Қ. Ғ. БЕТОН ВА ТЕМИРБЕТОН КОНСТРУКЦИЯЛАР БУЗИЛИШИНING ТУРЛАРИ ВА УЛАРNING ОЛДИНИ ОЛИШ //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – С. 91.
37. Abdukhalimjohnovna M. U. Failure Mechanism Of Bending Reinforced Concrete Elements Under The Action Of Transverse Forces //The American Journal of Applied sciences. – 2020. – Т. 2. – №. 12. – С. 36-43.
38. Abdukhalimjohnovna M. U. Technology Of Elimination Damage And Deformation In Construction Structures //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 224-228.

## QASHQADARYO VILOYATINING SUG‘ORILADIGAN YERLARI VA EKIN TURLARI

**Xujamova Muhabbat Tog‘ay qizi**

Qarshi muhandislik – iqtisodiyot instituti

E-mail: [xujamovamuhabbat@gmail.com](mailto:xujamovamuhabbat@gmail.com)

**Annotatsiya.** Hozirgi rivojlanish davrida dehqonchilikka katta e‘tibor qaratilmoqda. Shu sababli, ushbu maqola mazmuni Qashqadaryo viloyatining sug‘oriladigan yerlari hamda ekin turlariga qaratildi.

**Kalit so‘zlar.** Resurs, o‘simlik, yaylov, tekislik, vegetatsiya, hosildorlik, tog‘oldi, chala cho‘l, cho‘l, qishloq xo‘jaligi.

## IRRIGATED LAND AND CROP TYPES OF KASHKADARYA REGION

**Annatation.** In the current era of development, a lot of attention is paid to agriculture. Therefore, the content of this article focuses on irrigated lands and crops in Kashkadarya region.

**Keywords.** Resource, vegetation, pasture, plain, yield, foothills, semidesert, desert, agriculture.

Qashqadaryo viloyatning o‘simlik resurslari qishloq xo‘jaligida foydalanish nuqtai nazarda yaylov chorvachiligi muhim ahamiyatga ega. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, Qashqadaryo viloyati yer jamg‘armasidan foydalanish tuzilmasida yaylov sifatida foydalaniladigan yerlar eng katta maydoni (1514.4 ming hektarni ) tashkil etadi.

Yaylov sifatida foydalaniladigan yerlarning katta qismi cho‘l va tog‘ oldi chala cho‘l zonalariga to‘g‘ri keladi. Yaylovlarning o‘rtacha hosildorligi har hektarga 1.2 sentnerdan 3.3 sentnergacha o‘zgaradi. Tekislik yaylovlarning katta qismi uchun

vegetatsiya davri qor qoplarning yupqa bo‘lishi yoki deyarli hosil bo‘lmasligi va qishining qisqa bo‘lishi yil davomida foydalaniladi va eng arzon ozuqa beradi.

Viloyatda 2001-yilda hamma tumanlar bo‘yicha qishloq xo‘jalik reja va amalda ekin qaydnomasida paxta, beda, makka, bog‘ va uzum, g‘alla va boshqa ekinlar ekish rejasi va amalda bajarilganligi hamda foiz hisobida berilgan. Jami viloyatlar bo‘yicha jami yerlar rejasida (482743 ga) bo‘lsa, amalda esa (472801 ga) foiz hisobida 98 %, shundan paxta rejada (164000 gektar) bo‘lsa amalda (162679 ga) bajarilgan bu foizda 90 % ni bildiradi. Bu bo‘lsa rejada (46700 ga) amalda (44149 ga) rejadan kam bajarilgan. Foiz hisobida 95%. Makka rejada(33744 ga) amalda esa (9212ga) 27 % ni tashkil etadi. Bog‘ va uzum rejada (36863 ga) berilgan amalda esa (37002 ga) rejadan ortiq bajarilgan va 100% bajarilgan. G‘alla rejada (131000 ga) amalda (131000 ga)100 % bajarilgan. Boshqa ekinlar (70436 ga) amalda (88705 ga) rejadan 126 foiz ortiq bajarilgan. To‘plangan 5 yil ma'lumotlardan foydalanib, ekilgan ekinlar va ekish qaydnomasini yillar davomida o‘zgarishi o‘rganildi. 2001 – yilda (482743 ga) rejada berilgan edi. Amalda esa (472801 ga) reja to‘liq bajarilmagan. 2002 –yilda rejada (470756 ga) berilgan amalda esa (485612 ga) reja ortig‘i bilan bajarilgan. 2003 –yilda jami rejada (487265 ga) amalda esa (487327 ga) reja100 % bajarilgan. 2004-yilda rejada (495594 ga) amalda (495594 ga) reja 100 % bajarilgan. 2005 –yilda (500537 ga) amalda (500537 ga) reja 100 % bajarilgan.)

Qashqadaryo vohasi sug‘oriladigan yerlariga manbalardan olingan suv miqdorining yillararo o‘zgarishini o‘rganish maqsadida Amu-Qashqadaryo irrigatsiya havza boshqarmasidan ma'lumotlar to‘plandi. Bunda Qashqadaryo, Eski Anhor va Qarshi magistral kanalidan sug‘orilgan.

1-jadval

Qashqadaryo vohasi sug‘oriladigan erlariga olingan suv miqdorining yillararo o‘zgarishi (mil.m<sup>3</sup>)

Yillar	Qashqadaryodan	EskiAnhordan	Qarshi magistral kanaldan	Jami
1981	1242,1	313,1	3379,5	4934,7
1982	1023,4	252,1	3272,8	4548,3
1983	896,3	349,3	4237,5	5483,1
1984	868,9	448,1	4572,7	5889,7
1985	1121,5	350,9	4581,6	6054,0
1986	571,1	265,5	4086,2	4922,8
1987	980,7	340,5	4224,3	5545,5
1988	1321,1	395,1	4574,5	6290,7
1989	1126,1	248,5	4511,3	5885,9
1990	1184,1	349,6	4365,7	5899,4
1991	1275,6	348,3	4301,4	5925,3
1992	1894,5	388,2	3821,5	6104,2
1993	1843,2	328	3752,7	5923,9
1994	1846,3	428,7	3962,8	6237,8
1995	1048,7	334,4	4182	5565,1
1996	1205,3	517,4	4603	6325,7
1997	1786	567,8	4708,2	7062,0
1998	1284,5	601,5	4711,4	6597,4
1999	644,3	236,3	1710,2	2590,8
2000	725,8	248,9	3524,2	4498,9
2001	908	329	3517,3	4754,3
2002	776,2	342,6	3729,1	4847,9
2003	1214,4	400,8	3744,7	5359,9
2004	1171,9	417,5	3776,8	5366,2
2005	1652,8	367,6	3627	5647,4
2006	1206,5	328,7	3500,2	5035,4
2007	1214,7	375,3	4050,4	5640,5
2008	1253,4	386,0	4141,0	5780,3
2009	1292,0	396,6	4231,5	5920,1
Ŷpra.	1192,4	367,5	3979,4	5539,2

Jadval Qashqadaryo viloyati qishloq va suv xo‘jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Baratov P. – O‘rta Osiyo daryolari va ularning xo‘jalikdagi ahamiyati.- Toshkent: Fan, 1967. –

2. Rasulov A.R., Hikmatov F. H., Aytbaev D.P. Hidrologiya asoslari. –Toshkent: Universitet, 2003. -327 b.
3. Yunusov G.X.,Xikmatov F.X. Vodny balans novooroshaymoy territorii Kashkadarinskoy oblasti. - Vopros geografii i geoekologiya.Qozog‘iston, Almata, 2013, №1, 23-27.
4. Yunusov G.X., Xikmatov F.X.Struktura poter rechnx vod i vodny balans oroshaymx territoriy (monografiya). - Toshkent, Fan va texnologiya, 2013.-142 s.
5. <http://www.avesta.tj>
6. <http://www.astronet.ru>



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA INSON HUQUQLARINING KAFOLATLARIGA E‘TIBOR

**Mo‘minjonov Bobur Qobiljon o‘g‘li**

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Ommaviy axborot vositalari huquqi” bo‘limi magistranti

E-mail: [boburmominjonov@gmail.com](mailto:boburmominjonov@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Mustaqil davlatning asosiy vazifalaridan biri o‘z fuqarolarining demokratik huquq va erkinliklarini ta‘minlash va kafolatlashdir. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlari va erkinliklari ta‘minlanganlik darajasi, inson huquq va erkinliklari borasida davlatning o‘z ichki kafolatlari va xalqaro huquqiy kafolatlari, yuridik hamda ijtimoiy kafolatlarining huquqiy asoslari taxlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** davlatning o‘z ichki kafolatlari, xalqaro huquqiy kafolatlari, yuridik kafolatlari, ijtimoiy kafolatlari.

Insonlarning huquq va erkinliklarining eng muhimi, Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklarni kafolatlash, ya‘ni amalga oshirishini ta‘minlashdir. Buning uchun mukammal tizim yaratilishi zarur. Huquq va erkinliklarning kafolatlari Konstitutsiyada belgilangan huquq va erkinliklarni ta‘minlashni nazarda tutuvchi huquq normalari va maxsus mexanizmdan iborat bo‘ladi. Konstitutsiyada huquqiy normalar belgilansa-da, ularning amalga oshirishini ta‘minlovchi mexanizm bo‘lmasa, bu huquq va erkinliklar qog‘ozda qolib ketaveradi.

Huquq va erkinliklarni ta‘minlash masalasi jamiyatni rivojlantirishdagi ustuvor vazifa deb qaralishi, inson huquqlari va erkinliklarini so‘zda yoki qog‘ozda emas,



amaliy hayotda joriy qilish zarurligi haqidagi birinchi Prezidentimiz fikrlari<sup>21</sup> huquq va erkinliklarni ta'minlash muhim ekanligi ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlarini xalqaro normalarga mos qilib o'rnatar ekan, ularni kafolatlashga ham alohida e'tibor qaratgan va uni doimiy takomillashtirib kelmoqda.

Konstitutsiyamizning o'zida inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari uchun alohida X-bob ajratilganligining o'zi kafolatga kuchli e'tibor berilganligini ko'rsatadi. Agar e'tibor beradigan bo'lsak boshqa davlatlarning Konstitutsiyasida ushbu kafolatlar uchun alohida bob ajratilmagan.

Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari ikki ko'rinishi mavjud:

1. Davlatning o'z ichki kafolatlari.
2. Xalqaro huquqiy kafolatlar.

Inson huquqlari va erkinliklari kafolatlari institutlari tizimiga ahamiyati ortib borayotgan Ombudsman ya'ni, Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakilini va Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazini kiritish mumkin.

Inson huquq va erkinliklari kafolatlari malakali yuridik xizmat va malakali himoyachi (advokat) xizmatidan to'liq ravishda konstitutsiyaviy, jinoiy, fuqaroviy va ma'muriy ishlarda foydalanish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Bu tushuncha O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasi 2-qismida “Tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakaliy yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi” deb aniq ko'rsatilgan.

Huquq va erkinliklarning kafolatlari bo'lib, ularni buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Bunda asosan hokimiyat vakillari va mansabdor shaxslarning javobgarligi haqida alohida to'xtalib o'tish zarur. Odatda, bunday javobgarlik umumiy xarakterga ega bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeks va Jinoyat Kodeksining tegishli moddalarida aniq ifodalangan.

Xalqaro-huquqiy kafolatlar to'g'risida gapiradigan bo'lsak, bu holat xalqaro ommaviy huquq tomonidan tartibga solinishini eslashimiz lozim.

<sup>21</sup> I.A.Karimov O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarini yanada chiqkrashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy iynalishlari. – T: Ўзбекистон, 2002.- 21-бем.

Ikkinchi jahon urushigacha davlat va shaxs o‘rtasidagi munosabatlar, asosan, davlat miqyosida hal etilgan. Totalitar tuzumlarining yemirilishi natijasida jahon jamoatchiligining e‘tiborini inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishi o‘ziga qaratdi. Bular BMTning Ustavida, 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari to‘g‘risidagi Deklaratsiya"da, Inson huquqlari to‘g‘risidagi 1966 yilgi xalqaro Paktlarda o‘z ifodasini topgan. Bu xalqaro hujjatlarda insonning global muammolari huquqiy jihatdan keng yoritilgan. Inson huquqlarining xalqaro himoyasini hozirda BMT va uning tegishli maxsus tashkilotlar amalga oshirmoqda. Ular Yevropa Kengashi tomonidan 1950-yilda qabul qilingan "Inson huquqlari himoyasi va asosiy erkinliklari to‘g‘risida"gi Yevropa Konvensiyasiga asosan ish olib borishadi. Agarda fuqaro o‘z huquqi himoyasi yuzasidan o‘z davlatidan yordam olmasa, unda inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudiga murojaat qilishi mumkin.

Konstitutsiyamizning 43-moddasida "Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta‘minlaydi" deb anik belgilangan. Ushbu modda Konstitutsiyaviy prinsiplarning asosi, o‘zagi, xarakterini ifodalagan bo‘lib, unda inson manfaatlariga xizmat qilish, erkinlik kafolati, davlatning ijtimoiy maqsadi va asl g‘oyasi aks etgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishilgach, umuminsoniy qadriyatlarni tiklash va demokratik jamiyat qurish yo‘ldan borishda inson erkinligiga, jamiyat va davlatning birligida insonning tutgan o‘rnini yuksak baholashga katta ahamiyat berildi. Demokratik davlatda jamiyat a‘zolari huquq va erkinliklarining kafolatlari doimiy harakatdagi mexanizm singari bo‘lmog‘i lozim. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmunida davlat fuqaroning huquq va erkinliklarini ta‘minlashga, jamiyat uchun xizmat qilishga butun kuchini safarbar etishi lozimligi haqidagi g‘oyalar mavjud.

Konstitutsiyamizning 19-moddasida "hech kim sud qarorisiz fuqarolarni huquq va erkinliklaridan mahrum etishga yoki ularni cheklab qo‘yishga haqli emas" deb belgilangan. Bu esa agar javobgar bo‘lsa, hattoki, davlat organlarini ham sud-huquqiy javobgarlikka tortish mumkinligini bildiradi. Kafolat tizimida iqtisodiy omil muxim

ahamiyatga egadir. Chunki iqtisodiy hayot qanchalik farovon bo‘lsa, huquqning amaldagi kafolat sifati shunchalik yuqori bo‘ladi. Bularning hammasi davlatning Konstitutsiyasi bilan belgilanadi va kafolatlanadi.

Konstitutsiyamizning 44-moddasida "Har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi." deb belgilangan. Ushbu konstitutsiyaviy qoidaning asosiy mohiyati shundaki, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari buzilganda, u sud orqali himoya qilinadi. Insonlarga tegishli huquq va erkinliklar ko‘p qirrali xususiyatga egadir. Shaxsiy huquq va erkinliklar turkumiga misol uchun yashash huquqi, erkinlik huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi kabilar kiradi.

Inson o‘z vijdon erkinligi va harakatida erkindir. Masalan Konstitutsiyamizning 24-moddasiga asosan, yashash huquqiga qilingan tajovuz eng og‘ir jinoyat deb topilishiga olib keladi. Har bir fuqaro o‘z harakatidan kelib chiqib, asosiy huquq va erkinliklarini qonun himoyasi orqali amalga oshirishi mumkin. Demokratik huquqiy davlatda Konstitutsiya tomonidan sud himoyasining berilishi bu juda katta ahamiyat kasb etadi. Buning o‘ta muhimligi Konstitutsiyamizning Muqaddimasida ham o‘z ifodasini topgan.

Konstitutsiyamizning 45-moddasida “Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir” deb belgilangan. Aholining himoyaga muhtoj qatlamini alohida muhofaza qilish davlat siyosatining bosh yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Chunki, O‘zbekistonning davlat qurilishi va iqtisodiyotini islox qilish dasturining besh tamoyillaridan biri - kuchli ijtimoiy himoya hisoblanadi.<sup>22</sup>

O‘zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so‘ng, yangi iqtisodiy sharoitga o‘tish davrida ijtimoiy himoya qilish dasturini yaratdi. Davlat asosiy bosh islohotchi sifatida tanilgani bois asosiy ijtimoiy himoya mexanizmlari ham davlat tomonidan yaratilishi o‘z vaqtida samara bera boshladi. Bu ijtimoiy siyosatda mamlakat

<sup>22</sup> I.A.Karimov O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. – T.: O‘zbekiston.1993.- 42-43-betlar.

aholisining eng muhtoj qatlamlariga katta e'tibor berilmoqda. Yangi O'zbekistonni o'z hayotidan rozi, baxtli insonlar mamlakatiga, har tamonlama rivojlangan ijtimoiy makonga aylantirish, ushbu yo'nalishdagi islohatlarimizning asosiy maqsadidir<sup>23</sup>. Mamlakatimizda yoshlarga oid siyosat davlat faoliyatining ustivor yo'nalishi ekanligi Konstitutsiyamizning 46-moddasiga ko'ra “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir” deb belgilangan va Bu esa jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatda fuqarolarning jinsidan qat'iy nazar, qonun oldida tengligini kafolatlaydi. Shuningdek, ularning hayotiy munosabatlarini tartibga soladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, inson huquqlari va erkinliklari cheksiz davom etib boruvchi va takomillashib boradigan jarayonlardan bir hisoblanadi. Shu bois, inson huquqlariga oid normativ-huquqiy hujjatlarini har bir inson doimo o'rganib o'z qalbi va ongiga singdirishi, milliy o'zlikni anglashga hamda huquqiy insonparvar demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati shakllantirilishiga o'z xissasini qo'shmog'i kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azizxo'jaev A.A. va boshq. Konstitutsiyaviy huquq (izohli lug'at).-T.: Akademiya, 2001.
2. I.A.Karimov O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarini yanada chiqkrlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. – T; O'zbekiston, 2002.
3. I.A.Karimov O'zbekiston – bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. – T.: O'zbekiston.1993.
4. Yangi O'zbekiston strategiyasi Sh.M.Mirziyoyev. – T.: 2021.
5. Saidov A, Sultonov S. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari . – T.: “Adolat” 1998.

<sup>23</sup> Yangi O'zbekiston strategiyasi Sh.M.Mirziyoyev. – T.: 2021. – 199-bet.

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HUQUQ USTUVORLIGINI TA’MINLASH SOHASIDAGI AMALIY ISHLAR

**Parxatov Mardonbek Davronbekovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi yo‘nalishi magistranti

### ANNOTATSIYA

So‘ngi yillarda o‘z rivojlanish tarixida yangi sahifa ochgan Respublikamizda davlat va jamiyat hayotida huquq ustuvorligini ta‘minlashda bir qator islohatlar orqali muqim barqarorlik amalga oshirildi. Mazkur ishda huquq ustuvorligini ta‘minlash bo‘yicha va uning nazorati bo‘yicha davlatimizda amalga oshirilayotgan ishlar va ularning huquqiy mezanizmlari haqida fikr yuritiladi. Mazkur ishda huquq ustunligini takomillashtirish bo‘yicha tavsiya va takliflar berilgan bo‘lib, undan qonun ijodkorligi sohasida foydalanish mumkin.

**Kalit so‘zlar:** huquq ustuvorligi, demokratik davlat, qonuniylik, huquqiy ong va huquqiy madaniyat.

### ANNOTATION

In recent years, the Republic, which has opened a new page in its history of development, has achieved a stable stability through a series of reforms to ensure the rule of law in the life of the state and society. This work focuses on the work being done in our country to ensure the rule of law and its control, and their legal mechanisms. This work provides recommendations and suggestions for improving the rule of law, which can be used in the field of lawmaking.

**Keywords:** rule of law, democratic state, legitimacy, legal consciousness and legal culture.

So‘ngi yillarda sud-huquq sohasida, davlat boshqaruvi sohasida amalga oshirilgan islohatlar natijasida tom ma‘noda ijtimoiy adolat tiklandi. Fuqarolarga bevosita Prezident portali va Xalq qabulxonalarini orqali murojat qilish imkoniyatining yaratilishi natijasida o‘zlarining mavjud muammolari va turli xil davlat organlaridagi o‘zboshimchalik va huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar berish va o‘zlarining buzulgan huquqlarini tiklash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

“Huquq ustuvorligi – bu qonunlar va ularga muvofiq chiqarilgan huquqiy hujjatlarga barcha davlat organlari, mansabdor va boshqa shaxslarning og‘ishmay amal qilishiga aytiladi”. Huquq ustuvorligini ta‘minlashda birinchi navbatda barcha normativ huquqiy hujjatlar qat‘iy mayor asosida va belgilangan tartibda qabul qilinishi va barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar unga qat‘iy amal qilishi ta‘minlash lozim. Aynan yuqoridagi fikrlar Konstitutsiyamizning 15-moddasida ham o‘z ifodasini topgan bo‘lib “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar”<sup>24</sup> deb mustahkamlab qo‘yilgan.

Huquq ustuvorligi - bu qonunlarning realligidan, jamiyatda chinakam demokratik muhit va haqiqiy huquqiy rejim o‘rnatilganligidan dalolat beradi. Qonuniylik bu davlat tomonidan qonunlar tizimini jamiyat taraqqiyoti talablariga mos ravishda takomillashtirib borish va davlat organlari, jamoat birlashmalari, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan qonunlarga qat‘iy rioya etish va ularni og‘ishmay amalga oshirishda namoyon bo‘ladigan davlat va jamiyat hayotining prinsipidir. Jamiyatda qonuniylikning darajasini huquqiy tartibotning qay darajada o‘rnatilganligi va unga amal qilinishi orqali aniqlanadi. Qonuniylikning mazmuni huquqiy me‘yorlarga qat‘iy va og‘ishmay rioya etishlarida ifodalansa, huquqiy-tartibot esa jamiyat a‘zolarining yurishturishlari, ularning subyektiv huquq va burchlariga muvofiq kelishida ifodalanadi. Boshqacha qilib aytganda, huquqiy-tartibot huquqiy munosabatlar doirasida shu munosabatlarning ishtirokchilari o‘z subyektiv huquqlarini amalga

<sup>24</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021-y., 03/21/671/0093-son.

oshirishlari va huquqiy burchlarini bajarishlari natijasida vujudga keladi. Huquqiy tartibotga amal qilish uchun eng avvalo huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish lozim.

Qonuniylik prinsipi-bu barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, xizmatchilar, jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning qonun va boshqa qonun hujjatlariga og‘ishmay amal qilishidir. Bundan ko‘rishimiz mumkinki qonunlarga amal qilish barchamizning vazifamizdir. Shu o‘rinda takidlab o‘tish joizki birinchi Prezidentimiz Islom Karimov *“Qonuniylik va huquqiy tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklar, qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va ma’suliyat ustuvir bo‘lmasa, qonun va an’analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur qilib bo‘lmaydi”*,<sup>25</sup> - deb qonuniylikning ahamiyatini aniq ko‘rsatib bergan edilar. Zeroki qonunlarga amal qilish rivojlanish va farovonlik garovi ekanligini jahon tajribasi isbotlagan.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev 2017-yil 22-dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatnomasida *“Barchamiz bir haqiqatni unutmasligimiz kerak: qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma’noda xalq bo‘lishi shart.”*<sup>26</sup> – degan tamoyilni ilgari surdi. Bundan shu narsa anglashiladiki xalqimizning huquqiy savodxonligi qanchalik yuqori bo‘lsa jamiyatda huquq ustuvorligi ta’minlanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni hamma birdek tushunishi uchun albatta ular sharhlanishi lozim. Huquqiy madaniyat va huquqiy ongning rivojlanishida huquqni sharhlash muhim rol o‘ynaydi. Jamiyat hayotida huquqiy munosabatlar o‘rnatilishida har bir shaxsdan yetarlicha huquqiy ongga ega bo‘lish talab etiladi.

Huquqiy ong - jamiyat a’zolarining mavjud huquqiy munosabatlar va huquqni tushunishi, huquq-tartibot haqidagi tasavvurida o‘z aksini topadi. Huquqiy ong nafaqat amaldagi huquq, balki uning tarixi, shuningdek boshqa jamiyatlardagi voqeliklarni bilishni ham o‘z ichiga oladi<sup>27</sup>.

<sup>25</sup> Karimov.I.A.. “O‘zbekiston-kelajagi buyuk davlat”.-T.: “O‘zbekiston”. 1992. 38-bet.

<sup>26</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2017 yil 22 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/1371> URL: <https://lex.uz/statistic>

<sup>27</sup> Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. — T., 2018. — 280 b.

Huquqiy madaniyat o‘z navbatida qonunni tushunish, qabul qilish hamda unga ongli ravishda rioya etish, ijro etish kabi xususiyatlarni ham qamrab oladi<sup>28</sup>.

So‘ngi yillarda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasida jadal ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan 2019 yil 9-yanvarda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” farmoni e‘lon qilindi. Ushbu farmon doirasida qilingan ishlar ya‘ni jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasini oshirish bo‘yicha Adliya vazirligi tomonidan “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqildi. Yana shuningdek Advice.uz huquqiy axborot tizimining ishlab chiqilishi orqali aholining huquqiy maslahat olish imkoniyatini yaratildi. Shu bilan birgalikda konsepsiyaga muvofiq Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Huquqiy targ‘ibot ishlari a‘lochisi” ko‘krak nishoni joriy etildi<sup>29</sup>. Bu kabi ishlar aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi oshishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Davlat boshqaruvi sohasida Ijro.gov.uz ijro intizomining idoralararo yagona elektron tizimi joriy etilishi orqali davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlarining ijrosi bo‘yicha nazorat va hisobdorligi tashkil qilindi. Bu esa ularning faoliyatidagi huquqiylikni ta‘minlamoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov.I.A. “O‘zbekiston-kelajagi buyuk davlat”.-T.: “O‘zbekiston”. 1992.
2. Mirziyoev Sh.M. 2017-yil 22-dekabr kungi Oliy Majlisga murojaatnomasi.
3. Sh.Mirziyoyevning 2019 yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
5. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. — T., 2018.
6. Корельский В.М., Перевалов В.Д. Теория государства и права. — М., 2013.

<sup>28</sup> Корельский В.М., Перевалов В.Д. Теория государства и права. — М., 2013. — 335 с.

<sup>29</sup> *Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi*, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son



## MAHALLIY VAKILLIK ORGANLARINING NAZORAT FAOLIYATI TUSHUNCHASI, MAQSAD VA VAZIFALARI

**Shukurov Dilshod Shokir o‘g‘li**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi yo‘nalishi magistranti

E-mail: [dilshodshukurov@gmail.com](mailto:dilshodshukurov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari tajribasidan ma’lumki, boshqaruv vakolatlarining markaziy organlardan mahalliy organlar zimmasiga o‘tkazilishi demokratiya qaror topishining zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Xususan, quyi ma’muriy bo‘g‘inlarda xalq o‘zi saylab qo‘ygan vakillar tomonidan mahalliy boshqaruvning amalga oshirilishi va nazorat qilinishi eng adolatli va demokratik tamoyillarga to‘liq mos keladi. Mazkur tezisda mahalliy vakillik organlarining nazorat faoliyati, uning maqsad hamda vazifalari atroflicha tahlil qilingan. Tezisda tahlil qilingan ma’lumotlardan mahalliy vakillik organlarining nazorat faoliyatiga doir ilmiy ishlarda foydalanish mumkin.

**Kalit so‘zlar:** mahalliy boshqaruv, mahalliy vakillik organlari, siyosiy partiyalar, xalq deputatlari Kengashi, nazorat faoliyati.

### CONCEPT, GOALS AND OBJECTIVES OF LOCAL REPRESENTATIVE BODIES

**Annotation:** The experience of the most developed countries of the world shows that the transfer of power from central to local authorities is one of the prerequisites for democracy. In particular, the exercise and control of local government by elected representatives at the lower levels of government is fully in line with the most just and democratic principles. This thesis provides a detailed analysis of the control activities

of local representative bodies, its goals and objectives. The information analyzed in the thesis can be used in scientific work on the control activities of local representative bodies.

**Keywords:** local government, local representative bodies, political parties, the Council of People's Deputies, oversight activities.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, davlat hokimiyati manbaiy bevosita xalq bo'lgandagina, boshqaruv demokratik va qonuniy ruhda faoliyat yuritadi. Mazkur tamoyil mahalliy boshqaruvga ham to'g'ridan-to'g'ri aloqadordir. Mahalliy davlat hokimiyatida xalq o'z vakillari orqali, ya'ni mahalliy vakillik organlari orqali boshqaruvni amalga oshirsa, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish asoslari chuqurroq ildiz otadi.

Mahalliy vakillik organlari tushunchasi fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishdagi ishtirokining vakillik shakli ma'nosida qo'llaniladi. Ushbu organlarning vakillik xususiyati ularning saylov yo'li bilan tashkil etilishi, masalalar jamoa tomonidan erkin muhokama asosida hal qilinishidan, oshkoralikdan, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, ular saylaydigan, tasdiqlaydigan yoki tayinlaydigan mansabdor shaxslar vakillik organi oldida mas'ul bo'lishidan va hisob berib turishidan, qonuniylikdan, fuqarolarni davlat ishlarini boshqarish ishiga keng ko'lamda jalb etishidan, jamoatchilik fikrini doimo hisobga olishidan iborat<sup>30</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahalliy davlat hokimiyatini tizimiga alohida hamda boshqa davlat konstitutsiyalaridan farqli tarzda yondashilgan, O'zbekiston Konstitutsiyasida mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tizimidan alohida qilib belgilangan. Faqat O'zbekiston Konstitutsiyasidagina mahalliy davlat hokimiyati degan tushuncha qo'llanilgan. Chunonchi, Qozog'iston Konstitutsiyasida “Davlatning hududiy tuzilishi va o'zini-o'zi boshqaruv”, Belorussiya Konstitutsiyasida “Mahalliy boshqaruv va o'zini-o'zi boshqaruv”, Qirg'iziston, Rossiya va Estoniya Konstitutsiyalarida

<sup>30</sup> O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

“Mahalliy boshqaruv”, Turkmaniston Konstitutsiyasida esa “Mahalliy ijro hokimiyati” alohida, “Mahalliy boshqaruv” alohida boblarda aks ettirilgan. Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi mazkur masalada boshqaruvning o‘ziga xos yo‘lidan foydalangan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida alohida XXI bob “Mahalliy davlat hokimiyati asoslari”ga bag‘ishlangan. Konstitutsiyamizning 99-moddasida “Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan shaharlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo‘lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab o‘z vakolatlariga taalluqli masalalarni hal etadilar”<sup>31</sup> – deb mustahkamlab qo‘yilgan. Xuddi mana shu norma viloyat, tuman, shahar xalq deputatlari kengashlari mahalliy vakillik organlari ekanligining konstitutsiyaviy asosidir. Shuningdek, bu norma O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 1-moddasida ham o‘z aksini topgan. Ya‘ni: “viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo‘ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyatining vakillik organlaridir”<sup>32</sup> – degan norma belgilangan.

Xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari o‘rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta‘minlaydi<sup>33</sup>.

Mahalliy vakillik organlarini shakllantirishda siyosiy partiyalarning o‘rni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Xususan, bu borada taniqli olim M.A.Lipchanskayaning fikriga ko‘ra, mahalliy davlat hokimiyat organlari faoliyatini tashkil etishda siyosiy

<sup>31</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -2021. Lex.uz

<sup>32</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 02.09.1993-yildagi 913-XII-sonli Qonuni

<sup>33</sup> O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 02.09.1993-yildagi 913-XII-sonli Qonuni

partiyalar muhim rol o‘ynaydi, normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqishda ishtirok etadi<sup>34</sup>.

V.Meytusning tadqiqotlarida esa, siyosiy partiyalar mahalliy hokimiyat organlari kabi demokratik tizimning muhim elementi ekanligi alohida e‘tirof etilgan<sup>35</sup>.

Dunyoning ba‘zi mamlakatlari siyosiy hayotiga e‘tibor bersak, mahalliy hokimiyat organlarining faoliyati milliy saylov jarayoni bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin. Chunonchi, Isroilda mahalliy va markaziy hokimiyat organlari o‘rtasidagi munosabatlarining xarakteri aynan saylov natijalari bilan bog‘liq holda ro‘yobga chiqadi<sup>36</sup>.

Hozirgi vaqtda xorijiy mamlakatlarda faoliyatda bo‘lgan siyosiy partiyalarning sonini tadqiq etadigan bo‘lsak, ular Turkiyada 83 ta, Rossiyada 64 ta, Braziliyada 34 ta, Moldovada 26 ta, Yaponiya va Belgiyada 13 ta, Avstriya, Shveysariya, Qozog‘iston va Tojikistonda 7 ta, Kanadada 6 ta partiya ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lsa ham, Rossiyada faol partiyalar soni 6 ta (umumiy soni 64 ta edi), Turkiyada 13 ta (umumiy soni 83 ta edi), AQShda 4 tani tashkil etishi alohida diqqatga sazovor<sup>37</sup>.

O‘zbekiston Respublikasida bu sohadagi islohotlarni jadallashtirish maqsadida qabul qilingan “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonun eng yirik qadamlardan biri bo‘ldi. Mazkur qonun asosida viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tegishli xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan keyin xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etilishi belgilandi. Tegishli xalq

<sup>34</sup> Липчанская М.А., Волкова М.С. Принципы и основы правового регулирования государственно-партийного взаимодействия в современной России // Вестник Саратовской государственной юридической академии. 2015. – № 1 (102). –С.147.

<sup>35</sup> Мейтус В., Мейтус В. Политическая партия: стратегия и управление. – К.: Эльга, Ника-Центр, 2004. – С.9.

<sup>36</sup> Vinarski-Peretz, H., & Kidron, A. The shadow dance of political climate: Engagement in political behavior in local government authorities // European Management Journal. 2018. –P.1.

<sup>37</sup> <https://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook/fields/315.html> (ma'lumot AQShning milliy baza materiallari tahlili asosida berilgan).

deputatlari Kengashi deputatlari umumiy sonining ko‘pchilik ovozini olgan viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodi tasdiqlangan sanaladi<sup>38</sup>.

Shuningdek, mana shu norma O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 31-iyulda qabul qilingan SQ-360-IV-sonli “Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamenti hamda xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining doimiy komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” qarorida ham mustahkamlab qo‘yilgan. Ya’ni Senat qarorining beshinchi bobida Viloyat (Toshkent shahar) hokimi — mahalliy Kengash rahbarini tasdiqlash tartibi, oltinchi bobida esa Tuman (shahar) hokimi — mahalliy Kengash rahbarini tasdiqlash tartibi atroflicha tartibga solingan<sup>39</sup>.

Unga muvofiq, Viloyat (Toshkent shahar) hokimi — mahalliy Kengash rahbarining nomzodi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mahalliy Kengashdagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar o‘tkazilganidan so‘ng xalq deputatlari viloyat (Toshkent shahar) Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Nomzodni tasdiqlash to‘g‘risidagi masalani xalq deputatlari viloyat (Toshkent shahar) Kengashi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdimnoma kiritilgan kundan e’tiboran uch kun ichida ko‘rib chiqadi<sup>40</sup>.

Viloyat (Toshkent shahar) hokimi — mahalliy Kengash rahbari lavozimiga nomzodga deputatlarning savollariga javob berish uchun 30 daqiqagacha vaqt ajratiladi. Nomzodni sessiyada muhokama qilish uchun 20 daqiqagacha vaqt ajratiladi. Nomzodini tasdiqlash yoki rad etish to‘g‘risidagi qarori ochiq ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinib, kechi bilan uch kun ichida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboriladi. Xalq deputatlari viloyat (Toshkent shahar) Kengashi deputatlari umumiy

<sup>38</sup> O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-apreldagi “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitusiyaviy qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 15-son, 151-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – [www.lex.uz](http://www.lex.uz), 05.09.2019 y., 03/19/563/3685-son.

<sup>39</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 31-iyuldagi SQ-360-IV-sonli “Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamenti hamda xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining doimiy komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” qarori

<sup>40</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 31-iyuldagi SQ-360-IV-sonli “Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamenti hamda xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining doimiy komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” qarori

sonining ko‘pchilik ovozini olgan viloyat (Toshkent shahar) hokimi — mahalliy Kengash rahbarining nomzodi tasdiqlangan hisoblanadi<sup>41</sup>.

Agar ovoz berish vaqtida nomzodlar deputatlar umumiy sonining ko‘pchilik ovozini ololmasa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti mazkur lavozimga nomzodlarni partiya guruhlar bilan qo‘shimcha maslahatlashuvlar o‘tkazganidan so‘ng bir oy ichida yana ikki marta taqdim etish huquqiga ega. Xalq deputatlari viloyat (Toshkent shahar) Kengashi taqdim etilgan nomzodlarni uch marta rad etgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti viloyat (Toshkent shahar) hokimi vazifasini bajaruvchini tayinlash, xalq deputatlari viloyat (Toshkent shahar) Kengashini tarqatib yuborish huquqiga ega. Bunda xalq deputatlari viloyat (Toshkent shahar) Kengashiga saylov tarqatib yuborish to‘g‘risida qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran uch oy ichida o‘tkaziladi<sup>42</sup>.

E.S.Shugrina mahalliy davlat hokimiyat organlarining asosiy xususiyatlariga to‘xtalib o‘tar ekan, bu xususiyatlar sifatida quyidagilarni qayd etadi:

**Birinchi**dan, mahalliy davlat hokimiyati – konstitutsiya doirasida belgilangan davlat hokimiyati hisoblanadi;

**Ikkinchi**dan, mahalliy miqyosda davlat hokimiyatini amalga oshiradi;

**Uchinchi**dan, mahalliy davlat hokimiyat organlari byudjeti, munitsipial shaklda mustaqil moddiy va moliyaviy asosga ega<sup>43</sup>.

2014-yilda bo‘lib o‘tgan mahalliy xalq deputatlar kengashlarining saylov natijalari ko‘ra, tuman, shahar, viloyat, Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi deputatlarining 2300 nafari O‘zXDP, 2250 nafari - O‘zLiDeP, 1077 tasi – Milliy tiklanish DP va 431 tasi – Adolat SDP vakillaridir<sup>44</sup>.

<sup>41</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 31-iyuldagi SQ-360-IV-sonli “Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamenti hamda xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining doimiy komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” qarori

<sup>42</sup> O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 31-iyuldagi SQ-360-IV-sonli “Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamenti hamda xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining doimiy komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida” qarori

<sup>43</sup> Шугрина Е.С. Муниципальное право. М.: Проспект. 2004. С. 4–5.

<sup>44</sup> <https://uzanalytics.com/siyosat/3225/>.

2017-yil 24-dekabrda Toshkent shahar xalq deputatlari tuman Kengashlariga o‘tkazilgan saylov natijalariga binoan siyosiy partiyalardan jami 278 (84,2 foiz) nafar deputat va fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tomonidan esa 52 (15,8 foiz) nafar nomzod deputatlik o‘rinlarini egallashga muvaffaq bo‘lgan<sup>45</sup>.

Aynan shu masalada davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev alohida ta'kidlab o‘tganlaridek, “siyosiy partiyalar hokimiyat uchun kurashish huquqiga ega. Lekin shunga qaramasdan, ular o‘rtasida raqobat, fikrlar, pozitsiyalar xilma-xilligi mutlaqo sezilmayapti”<sup>46</sup>.

Sh.Mamadaliyev partiyalarning ommaviylashmaganligi, saylovchilar orasida yetarli darajada obro‘-e’tibor qozonmayotganligining asosiy sabablari deya quyidagilarni sanab o‘tadi:

- partiyalar siyosiy mafkurasining yetarli darajada shakllanmaganligi;
- partiyalar matbuotidagi siyosiy qiyofaning noaniqligi, respublika va jahonda sodir bo‘layotgan voqealarning O‘zbekiston nuqtai nazaridan yetarli darajada sharhlanmayotganligi, partiyalarning fuqarolar siyosiy madaniyatini shakllantirishga kam e’tibor qaratayotganligi;
- O‘zbekiston fuqarolari o‘zlarining siyosiy huquqlarini yetarlicha anglab yetmaganliklari, siyosiy faollikning yetishmasligi;
- partiya, fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshirishga ko‘mak beruvchi fanning zamon talab va ehtiyojlaridan orqada qolayotganligi va boshqalar<sup>47</sup>.

Mazkur muammolarning yechimi aholi huquqiy ongi va madaniyatining o‘sishi, siyosiy partiyalar faoliyatining kuchayishi hamda mahalliy vakillik organlari faoliyatida ularning ishtirokini tubdan takomillashtirish zarur.

Shundan xulosa qilishimiz mumkinki, yurtimizda faoliyat yuritayotgan beshta siyosiy partiya o‘rtasida bo‘layotgan raqobat hamda ularning mahalliy vakillik organlarini tashkil etishdagi ishtirokini tahlil qilish mahlliy vakillik organlari

<sup>45</sup> Yangibayev A. Siyosiy partiyalarning davlat hokimiyati vakillik organlarini shakllantirishda va ularning faoliyatida ishtirok etishi // Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. –T., 2019. – B.15.

<sup>46</sup> Mirziyoyev Sh.M. Parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishi kerak // Xalq so‘zi. – 2017-y. 13-iyul.

<sup>47</sup> Mamadaliev Sh. O‘zbekiston siyosiy partiyalari: shakllanish jarayonlari va rivojlanish istiqbollari. –T.: O‘zR IIV Akademiyasi, 2004. – B.27.

tomonidan hokim faoliyatini nazorat qilishda hal qiluvchi omillardan biri ekanligini va nazoratni kuchaytirish uchun siyosiy partiyalar tomonidan o‘z dasturiy vazifalarini belgilashda ko‘plab ishlarni amalga oshirish zarurligini yaqqol tasdiqlab turibdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi -2021. Lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi 02.09.1993-yildagi 913-XII-sonli Qonuni
4. Липчанская М.А., Волкова М.С. Принципы и основы правового регулирования государственно-партийного взаимодействия в современной России // Вестник Саратовской государственной юридической академии. 2015. – № 1 (102). –С.147.
5. Мейтус В., Мейтус В. Политическая партия: стратегия и управление. – К.: Эльга, Ника-Центр, 2004. – С.9.
6. Vinarski-Peretz, H., & Kidron, A. The shadow dance of political climate: Engagement in political behavior in local government authorities // European Management Journal. 2018. –P.1.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 11-apreldagi “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi Konstitusiyaviy qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 15-son, 151-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi – [www.lex.uz](http://www.lex.uz), 05.09.2019 y., 03/19/563/3685-son.



## INSON HUQUQLARI BO‘YICHA XALQARO NAZORAT INSTITUTI TUSHUNCHASI VA ASOSIY XUSUSIYATLARI

**Mo‘minjonov Bobur Qobiljon o‘g‘li**

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Ommaviy axborot vositalari huquqi” bo‘limi magistranti

E-mail: [boburmominjonov@gmail.com](mailto:boburmominjonov@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Hozirgi vaqtda dunyoda xalqaro xavfsizlik va tinchlik, inson huquqlarini himoya qilish masalalari xalqaro huquqiy normalar bilan tartibga solinadi, ularga rioya qilish amaldagi xalqaro huquqiy tartibotining asosini tashkil etadi. Ushbu asoslari inson huquqlari bo‘yicha xalqaro nazorat instituti tushunchasi va asosiy xususiyatlari taxlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** inson huquqlari, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro nazorat instituti, universal davriy tahlil xalqaro huquqiy kafolatlar.

Hozirgi globallashib borayotgan dunyoda xalqaro xavfsizlik va tinchlik, inson huquqlarini himoya qilish masalalari xalqaro huquqiy normalar bilan tartibga solinadi, ularga rioya qilish amaldagi jahon huquqiy tartibotining asosini tashkil etadi. Shu munosabat bilan xalqaro huquq va tartibni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish, xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashish, migratsiya kabi zamonaviy muammolarni hal etishda davlatlar murojaat etayotgan xalqaro huquqiy vositalar va normalar orasida xalqaro nazorat instituti muhim o‘rin tutadi.

Inson huquqlari sohasida xalqaro standartlarni ishlab chiqishda insoniyatning umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish jarayoniga sezilarli ta'sir ko‘rsatgan BMT Nizomi, shuningdek, inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilishda inson huquqlari bilan bog‘liq asosiy xalqaro hujjatlar muhim rol o‘ynaydi.

Biz qat'iy ishonamiz – Birlashgan Millatlar Tashkiloti bundan keyin ham xalqaro munosabatlarda xalq qiluvchi o'rin tutadi

1948 yildan beri Birlashgan Millatlar Tashkiloti doirasida inson huquqlari bo'yicha 100 dan ortiq shartnoma va deklaratsiyalar tuzilgan. BMT tarkibida inson huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi bir qator organlar mavjud. Odatda ularni ikkita toifaga bo'lish mumkin: 1. Умумий мақсадли органлар.

2. Ixtisoslashgan, ya'ni, faqat inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро назорат ёки мониторинг<sup>48</sup> davlatlarning xalqaro majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning yangi shakllantiruvchi mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Inson huquqlari sohasida xalqaro nazorat ko'lamining kengayishi bir qator omillar bilan bog'liq:

birinchidan, xalqaro-huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy va boshqa jihatlari bilan ajralib turadigan inson huquqlari muammosi keng qamrovli va ko'p qirrali bo'ldi;

ikkinchidan, xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, xalqaro inson huquqlari tashkilotlari faoliyati faollashdi, shu munosabat bilan inson huquqlariga rioya qilish va himoya qilishning amaldagi tartib va mexanizmlarini takomillashtirish zarur;

uchinchidan, shaxs o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun xalqaro organlarga (sudlar, qo'mitalar, komissiyalar) murojaat qilish huquqiga ega:

to'rtinchidan, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyati inson huquqlarini ta'minlash va himoya qilish jarayonining muhim omiliga aylandi.

Shunday qilib, yuqorida aytilganlar inson huquqlari sohasida xalqaro nazorat masalalarini har tomonlama o'rganish, shu jumladan huquqni qo'llash amaliyotida xalqaro nazoratni amalga oshirishning asosiy tamoyillarini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Xalqaro huquqshunoslarning mutlaq ko'pchiligi xalqaro nazoratni shartnoma bo'yicha o'z zimmlariga olgan majburiyatlarning bajarilishini tekshirish deb hisoblashadi, ya'ni, faktik holatlarni aniqlash va ularni qonun talablariga muvofiqligi

<sup>48</sup> Rus tilidagi ilmiy adabiyotlarda "nazorat" atamasi, ingliz tilida - "monitoring" atamasi qo'llaniladi.

nuqtai nazaridan baholash. Xalqaro nazorat faoliyati mazmunining keng talqini R.M.Valeyev, O.I.Tiunova, I.I.Kotlyarov xalqaro majburiyatlarni buzishda uning oldini olish roli va ularni vijdonan, to‘liq va o‘z vaqtida bajarish maqsadi haqida gapiradi.

Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro tashkilotlar amaliyoti, shuningdek, ilmiy adabiyotlarni ko‘rib chiqish xalqaro nazoratni amalga oshirishning quyidagi bosqichlarini aniqlash imkonini beradi:

birinchidan, majburiyat va vakolatlarni belgilash, dastlabki ma'lumotlarni to‘plash bo‘yicha davlatlar bilan o‘zaro hamkorlikni o‘z ichiga olgan tayyorgarlik ishlari va ba'zi hollarda davlatlarning tegishli taklifini talab qiladi (masalan, maxsus protseduralar bo‘yicha);

ikkinchidan, monitoring, shu jumladan ham davlat, ham boshqa manbalar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni ko‘rib chiqish, ayrim hollarda esa, haqiqiy holatni joyida o‘rganish uchun mamlakatga tashrif buyurish;

uchinchidan, davlatlar tomonidan inson huquqlariga rioya etilishiga oid xalqaro organlar tavsiyalarini, ayrim hollarda majburiy bo‘lgan qarorlarni (masalan, Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudining qarorlarini) umumlashtirish va qabul qilish;

to‘rtinchidan, davlat tomonidan tavsiyalarning bajarilishini monitoring qilish orqali amalga oshiriladigan kuzatuv.

Ilmiy adabiyotlarda va davlatlarning xalqaro shartnoma amaliyotida xalqaro nazorat institutining quyidagi usullari qayd etilgan: axborot almashinuvi; xalqaro majburiyatlarni bajarish bo‘yicha maslahatlashuvlar; hisobotlar, kuzatishlar; tashriflar, xalqaro tekshiruvlar va tekshiruvlar; sud va arbitraj nazorati.

Shu bilan birga, inson huquqlari sohasida xalqaro majburiyatlarni amalga oshirishda dunyoning turli burchaklarida sodir bo‘layotgan qurolli to‘qnashuvlar, davlatlarda favqulodda holat e‘lon qilinishi va shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishdan chetlashtirish bo‘yicha qarorlar qabul qilinishi, inson huquqlarining qo‘pol ravishda buzilishi faktlarining mavjudligi muammoli jihatlardan dalolat beradi.

Zamonaviy xalqaro huquq fanida davlatlarning inson huquqlari bo'yicha xalqaro-huquqiy majburiyatlarini chetlab o'tishlariga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar boshqa xalqaro shartnomalardan bir qator xususiyatlari bilan ham farqlanadi:

birinchidan, inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar umuminsoniy qo'llanilishiga qaratilgan bo'lib, bu holat turli sabablarga ko'ra (irqi, jinsi, dini, millati va boshqalar) kamsitilmaslik tamoyilining mustahkamlanishi bilan ta'kidlanadi;

ikkinchidan, inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar noma'lum muddatga tuziladi (1948 yildagi Genotsid jinoyatining oldini olish va jazolash to'g'risidagi konvensiya bundan mustasno, 10 yilga tuzilgan va uning amal qilish muddati har keyingi 5 yilda uzaytiriladi ) va davlatlar hududi, shu jumladan va qaram hududlar;

uchinchidan, inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarda ko'p hollarda konvensiyani ratifikatsiya qilish yoki unga qo'shilishda izoh qo'yish imkoniyati ko'zda tutilmaydi. Masalan, 1966-yildagi Inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro paktlar, 1960-yildagi Ta'lim sohasidagi kamsitishlarga qarshi YuNESKO konvensiyasi (9-modda) , 1987-yildagi Qiynoqlar va g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala yoki jazoning oldini olish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi (21-modda) , Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha Evropa konvensiyasining 1983 yildagi o'lim jazosini bekor qilish to'g'risidagi 6-sonli bayonnomasi (4-modda) e'tiroz bildirishni taqiqlaydi;

to'rtinchidan, inson huquqlari va erkinliklarining asosiy qoidalari va talqini inson huquqlari bo'yicha xalqaro va mintaqaviy shartnomalarda bir xil bo'lib, bu davlatlar uchun milliy qonunchilikni amalga oshirishni osonlashtiradi;

beshinchidan, inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarda davlatlar xalqaro shartnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan chetga chiqishlari uchun aniq mezonlarni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, xarakterli tendentsiya inson huquqlari sohasidagi konvensiyalarga qo'shilgan va ratifikatsiya qilingan davlatlar sonining ko'payishi

hisoblanadi. Xalqaro tan olish, ayniqsa, insonning asosiy huquq va erkinliklarini tartibga soluvchi konventsiyalarga xosdir.

Xulosa qilib, quyidagi asosiy fikrlarni aytish mumkin:

brinchidan, inson huquq va erkinliklarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar nafaqat davlatlarning ularga rioya etishi bo'yicha huquq va majburiyatlarni belgilabgina qolmay, balki shaxslarga bevosita tegishli huquq, erkinlik va majburiyatlarni ham beradi.

ikkinchidan, inson huquq va erkinliklarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar davlatlarning milliy qonunchilikka muayyan cheklashlar kiritish huquqini nazarda tutadi. Biroq, bu cheklovlar shaxsning xalqaro sud institutlariga murojaat qilish huquqiga taalluqli emas. Davlatlarning xalqaro shartnomalarga o'z fuqarolariga xalqaro sud institutlarida sud himoyasi huquqini bermaslik to'g'risidagi e'tirozlarini qonuniy deb tan olish mumkin emas.

uchinchidan, shaxs, hatto milliy qonunchilikda nazarda tutilmagan bo'lsa ham, sud orqali himoyalani huquqiga ega bo'lishi kerak. Ushbu ish bo'yicha sudga murojaat qilish xalqaro huquq normalariga asoslanishi kerak, chunki xalqaro inson huquqlari huquqining majburiy normalari ichki qonunlardan ustundir;

to'rtinchidan, inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalarda inson huquqlari sohasidagi xalqaro nazorat institutining asosiy va maxsus tamoyillari shakllantirilgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Sh.M.Mirziyoyev.-Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti, 2021.-347b
2. Inson huquqlari:darslik/A.R. Muminov.M.A. Tillabayev: -T.: Adolat, 2013.-B.138.
3. I.A.Karimov O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarini yanada chiqkrashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. – T; O'zbekiston, 2002.
4. Saidov A.X. Mejdunarodnoye pravo prav cheloveka. M.: 2002.
5. Saidov A, Sultonov S. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va inson huquqlari . – T.: "Adolat" 1998.

## АНАЛИЗ ДЕФОРМАЦИЙ И НАПРЯЖЕНИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ДВУТАВРОВОЙ БАЛКИ

**Давлятов Шохрух Муратович**

(ORCID 0000-0002-9552-897X)

Ферганский политехнический институт

e-mail: [davlatshoh@ferpi.uz](mailto:davlatshoh@ferpi.uz)

**Маматемиров Ботир**

M2-20 (магистрант)

**Аннотация.** В статье проведено дальнейшее исследование нагружения строительных двутавровых балок. Анализируются напряжения и деформации получаемые при деформировании балки с прямой стенкой и гофрированной.

**Ключевые слова:** двутавровая балка, напряжения, деформация, строительство, металлическая конструкция.

## ANALYSIS OF DEFORMATIONS AND STRESSES OF A CONSTRUCTION I-BEAM


**Abstract:** The article carried out a further study of the loading of construction I-beams. The stresses and deformations obtained during the deformation of a beam with a straight wall and a corrugated one are analyzed.

**Key words:** I-beam, stresses, deformation, construction, metal structure.

С каждым годом количество зданий, возведенных из металлических конструкций, растет, что обуславливается большим числом преимуществ [1 – 2]. Зачастую в сооружениях, выполненных из металлоконструкций, встречаются балки, а именно двутавровые, которые могут иметь различную форму стенки, например, гофрированную.

В данной работе продолжится исследование двутавровой балки на предмет ее деформирования. В исследовании [3-26] проводился анализ формы стенки гофрированных балок и была выявлена наиболее оптимальная, ею оказалось треугольная.

На рис. 1 показаны деформации, вызванные нагружением двутавровых балок одной и той же силой в 200 кН и при одинаковом времени воздействия силы на верхние полки балок.




**Рис. 1. Деформации: а – в балке; б – в гофрированной балке**

Исследование продолжится также в программе Ansys [4-16] с применением тех же начальных условий, описанных в статье [3-30]. В данном случае будет производиться сравнение гофрированной треугольной двутавровой балки с двутавровой балкой с прямой стенкой той же толщины и той же длины с последующим определением наиболее оптимальной формы балки для применения в строительной сфере.

Наибольшей деформации подвергаются середины двутавровых балок, в них образуется прогиб. Максимальные деформации видны в строительной балке с гофрированной стенкой. Балка с прямой стенкой показывает наилучшее сопротивление деформированию.

На рис. 2 показаны напряжения, образующиеся в теле балок при их нагружении.



*Рис. 2. Напряжения: а – в балке; б – в гофрированной балке*

Полученные данные свидетельствуют о том, что при таких геометрических размерах и начальных условиях наиболее благоприятные результаты показывает строительная двутавровая балка с прямой стенкой, у нее наблюдаются меньшие деформации, чем у гофрированной балки с треугольным профилем стенки.[30-39]

### ИСПОЛЬЗУЕМАЯ ЛИТЕРАТУРА

37. Davlyatov S. M., Makhsudov B. A. Technologies for producing high-strength gypsum from gypsum-containing wastes of sulfur production-flotation tailings //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 10. – С. 724-728.
38. Ахмедов Ж. Д. Оптимизация преднапряженных перекрестных ферменных систем //Промислове будівництво та інженерні споруди. К.: ВАТ “Укрдніпроектстальконструкція ім. ВМ Шимановського. – 2010. – Т. 4.
39. Akhrarovich A. K., Muradovich D. S. Calculation of cylindrical shells of tower type, reinforced along the generatrix by circular panels //European science review. – 2016. – №. 3-4. – С. 283-286.
40. Muratovich D. S. Study of functioning of reservoirs in the form of cylindrical shells //European science review. – 2016. – №. 9-10.
41. Adilhodzhaev A. et al. The study of the interaction of adhesive with the substrate surface in a new composite material based on modified gypsum and treated rice straw



//European Journal of Molecular & Clinical Medicine. – 2020. – Т. 7. – №. 2. – С. 683-689.

42. Акрамов Х. А., Давлятов Ш. М., Хазраткулов У. У. Методы расчета общей устойчивости цилиндрических оболочек, подкрепленных в продольном направлении цилиндрическими панелями //Молодой ученый. – 2016. – №. 7-2. – С. 29-34.

43. Egamberdiyev B. O. et al. A Practical Method For Calculating Cylindrical Shells //The American Journal of Engineering and Technology. – 2020. – Т. 2. – №. 09. – С. 149-158.

44. Davlyatov S. M., Kimsanov B. I. U. Prospects For Application Of Non-Metal Composite Valves As Working Without Stress In Compressed Elements //The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research. – 2021. – Т. 3. – №. 09. – С. 16-23.

45. Mirzaraximov M. A. O., Davlyatov S. M. APPLICATION OF FILLED LIQUID GLASS IN THE TECHNOLOGY OF OBTAINING A HEAT RESISTANT MATERIAL //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 8. – С. 4-7.

46. Мамажонов А. У., Юнусалиев Э. М., Давлятов Ш. М. БЕТОН С МИНЕРАЛЬНЫМ НАПОЛНИТЕЛЕМ-ГЛИЕЖЕМ, ЭЛЕКТРОТЕРМОФОСФОРЫМ ШЛАКОМ И ДОБАВКОЙ АЦФ-3М //Энергоресурсосберегающие технологии и оборудование в дорожной и строительной отраслях. – 2020. – С. 220-226.

47. Абдуллаев И. Н. и др. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ПРИ УСТРОЙСТВЕ ФУНДАМЕНТОВ ГЛУБОКОГО ЗАЛОЖЕНИЯ //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 526-532.

48. Гончарова Н. И., Абобакирова З. А. БИТУМИНИРОВАННЫЙ БЕТОН ДЛЯ ПОДЗЕМНЫХ КОНСТРУКЦИЙ ЗДАНИЙ //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 122-125.

49. Абобакирова З. А., Бобофозилов О. ИСПОЛЗОВАНИЕ ШЛАКОВЫХ ВЯЖУЩИХ В КОНСТРУКЦИОННЫХ СОЛЕСТОЙКИХ БЕТОНАХ //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 6.
50. Абобакирова З. А., кизи Мирзаева З. А. СЕЙСМИК ҲУДУДЛАРДА БИНОЛАРНИ ЭКСПЛУАТАЦИЯ ҚИЛИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 147-151.
51. Абобакирова З. А., угли Содиков С. С. СВОЙСТВА ЦЕМЕНТНОГО КАМНЯ ОПТИМАЛЬНОГО СОСТАВА С ДОБАВКАМИ В УСЛОВИЯХ СУХОГО ЖАРКОГО КЛИМАТА //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 81-85.
52. Goncharova N. I., Abobakirova Z. A., Mukhamedzanov A. R. Capillary permeability of concrete in salt media in dry hot climate //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2020. – Т. 2281. – №. 1. – С. 020028.
53. Гончарова Н. И. и др. Применение Шлаковых Вяжущих В Конструкционных Солестойких Бетонах //Таълим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 32-35.
54. Ivanovna G. N., Asrorovna A. Z., Ravilovich M. A. The Choice of Configuration of Buildings When Designing in Seismic Areas //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 32-39.
55. Гончарова Н. И., Абобакирова З. А., Мухаммедзиянов А. Р. Сейсмостойкость Малоэтажных Зданий Из Низкопрочных Материалов //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 209-217.
56. Умаров Ш. А., Мирзабабаева С. М., Абобакирова З. А. Бетон Тўсинларда Шиша Толали Арматураларни Қўллаш Орқали Мустаҳкамлик Ва Бузилиш Ҳолатлари Аниқлаш //Таълим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 56-59.

57. Мамажонов А. У., Юнусалиев Э. М., Абобакирова З. А. Об опыте применения добавки ацф-3м при производстве сборных железобетонных изделий //Энерго-ресурсосберегающие технологии и оборудование в дорожной и строительной отраслях. – 2020. – С. 216-220.
58. Мирзаахмедова У. А. и др. Надежности И Долговечности Энергоэффективные Строительные Конструкций //Таълим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 48-51.
59. Кодиров, Г. М., Набиев, М. Н., & Умаров, Ш. А. (2021). Микроклимат В Помещениях Общественных Зданиях. *Таълим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали*, 1(6), 36-39.
60. Umarov, S. A. (2021). Development of deformations in the reinforcement of beams with composite reinforcement. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 511-517.
61. Akhrarovich, A. X., Mamajonovich, M. Y., & Abdugofurovich, U. S. (2021). Development Of Deformations In The Reinforcement Of Beams With Composite Reinforcement. *The American Journal Of Applied Sciences*, 3(05), 196-202.
62. Гончарова Н. И., Абобакирова З. А., Мухамедзянов А. Р. Энергосбережение в технологии ограждающих конструкций //Энерго-ресурсосберегающие технологии и оборудование в дорожной и строительной отраслях. – 2020. – С. 107-112.
63. Гончарова Н. И. и др. Разработка солестойкого бетона для конструкций с большим модулем открытой поверхности //Молодой ученый. – 2016. – №. 7-2. – С. 53-57.
64. Abobakirova Z. A. Reasonable design of cement composition for refractory concrete //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 9. – С. 556-563.
65. Goncharova N. I., Abobakirova Z. A. Reception mixed knitting with microadditive and gelpolimer the additive //Scientific-technical journal. – 2021. – Т. 4. – №. 2. – С. 87-91.

66. Goncharova N. I., Abobakirova Z. A., Kimsanov Z. Technological Features of Magnetic Activation of Cement Paste" Advanced Research in Science //Engineering and Technology. – 2019. – Т. 6. – №. 5. – С. 12.
67. Goncharova N. I., Abobakirova Z. A., Mukhamedzanov A. R. Capillary permeability of concrete in salt media in dry hot climate //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2020. – Т. 2281. – №. 1. – С. 020028.
68. Asrorovna A. Z. Effects Of A Dry Hot Climate And Salt Aggression On The Permeability Of Concrete //The American Journal of Engineering and Technology. – 2021. – Т. 3. – №. 06. – С. 6-10.
69. Abobakirova Z. A. Regulation Of The Resistance Of Cement Concrete With Polymer Additive And Activated Liquid Medium //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 04. – С. 172-177.
70. Abdukadirova M. A. The Role Of Builder And Building In The Development Of The Country Is Invaluable //The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 81-84.
71. Мирзажонович Қ. Ғ., Мирзабабаева С. М. БИНОЛАРНИ ЎРОВЧИ КОНСТРУКЦИЯЛАРИНИ ТУЗЛАР ТАЪСИРИДАГИ СОРБЦИОН ХУСУСИЯТИНИ ЯХШИЛАШ //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – С. 86.
72. Мирзабабаева С. М., Мирзажонович Қ. Ғ. БЕТОН ВА ТЕМИРБЕТОН КОНСТРУКЦИЯЛАР БУЗИЛИШИНING ТУРЛАРИ ВА УЛАРNING ОЛДИНИ ОЛИШ //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – С. 91.
73. Abdukhalimjohnovna M. U. Failure Mechanism Of Bending Reinforced Concrete Elements Under The Action Of Transverse Forces //The American Journal of Applied sciences. – 2020. – Т. 2. – №. 12. – С. 36-43.
74. Abdukhalimjohnovna M. U. Technology Of Elimination Damage And Deformation In Construction Structures //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 224-228.

## ПРОГНОЗИРОВАНИЕ НАДЕЖНОСТИ И ДОЛГОВЕЧНОСТИ ЭНЕРГОЭКОНОМНЫХ СТРОИТЕЛЬНЫХ КОНСТРУКЦИЙ

**Мирзаахмедов Абдухалим Тахирович**

доц. к.т.н.

**E-mail:** [a.t.mirzaahmedov@mail.uz](mailto:a.t.mirzaahmedov@mail.uz)

Ферганский политехнический институт

**Байматов Сардорбек Игамбердиевич**

Магистрант группы М1 -20 “АЗИС”

[sardorboymatov19960306@mail.ru](mailto:sardorboymatov19960306@mail.ru)

**Аннотация:** В статье приведены прогнозы надежности и долговечности энергоэкономных строительных конструкций на основании теории оптимальных конструкций.

**Ключевые слова:** надежность, долговечность, энергоэкономных зданий и сооружений, эксплуатационные показатели, испытаний конструкций.

## PREDICTION OF RELIABILITY AND DURABILITY OF ENERGY-SAVING BUILDING STRUCTURES

**Abstract:** The article presents forecasts of reliability and durability of energy-efficient building structures based on the theory of optimal structures

**Key words:** reliability, durability, energy-efficient buildings and structures, operational performance, structural testing.

Проблема надежности и экономичности строительных конструкций относится к числу основных проблем не только в нашей республике, но и во всем

мире. Это объясняется увеличивающимися требованиями к качеству зданий и сооружений в целях повышения надежности и долговечности. Решение этой проблемы имеет исключительно важное практическое значение, поскольку она открывает пути для создания научно-обоснованных методов нормирования расчетных параметров строительных конструкций и указывает принципы проектирования надежных, долговечных и в то же время энергоэкономичных зданий и сооружений [1-3].

Надежность и долговечность строительных конструкций, в свою очередь, зависят от большого количества постоянно действующих и частично изменяющихся недетерминированных факторов.

Для достижения максимальной надежности конструкций необходимо их проектировать так, чтобы они функционировали и в том случае, когда параметры всех элементов одновременно будут находиться вблизи допустимых пределов.

Теория надежности оперируется случайными величинами, наряду с обычными детерминированными. Это требует некоторой перестройки мышления, так как случайная величина представляет собой не обычное число, а вектор в функциональном пространстве в соответствии с заданной для нее функцией распределения [4-6].

Надежность обеспечивает техническую возможность использования строительных конструкций по назначению в нужное время и с требуемой эффективностью. Нормы определяют надежность, как свойство конструкции выполнять заданные функции, сохраняя эксплуатационные показатели в заданных пределах течение требуемого промежутка времени или требуемой наработки. Это свойство комплексное, включающее в себя безотказность, долговечность конструкции, в целом и ее составных частей.

Решение проблемы надежности предполагает изучение статистических свойств внешних воздействий, изучение статистических свойств материалов и конструкций, а также исследование поведения конструкций при случайных воздействиях. На основе полученных результатов исследований может быть

найдена количественная оценка надежности и долговечности конструкций. Для решения инженерных вопросов требуется задание нормативных значений надежности и долговечности [7-8].

Отыскание этих значений требует решения задач, родственных задачам теории оптимальных конструкций. На основе общей теории могут быть далее развиты отдельные приложения - теория методов сокращенных испытаний конструкций на надежность и долговечность, теория проектирования конструкций повышенной живучести, а также могут быть разработаны нормативные инженерные методы расчета конструкций, не содержащие в явной форме теоретико - вероятностных элементов [9-10].

### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРА

1. Болотин В.В. Методы теории вероятностей и теории надежности в расчетах сооружений. -М.: Стройиздат, 1982. –351 с.
2. Ржаницын А.Р. Теория расчета строительных конструкций на надежность. -М.: Стройиздат, 1978. -273 с.
3. Мирзаахмедов А.Т. Алгоритм расчета стержневых систем с учетом нелинейной работы железобетона. М.: Фергана, 2021. -100 с.
4. Abdukhalimjohnovna M. U. Failure Mechanism Of Bending Reinforced Concrete Elements Under The Action Of Transverse Forces //The American Journal of Applied sciences. – 2020. – Т. 2. – №. 12. – С. 36-43.
5. Abdukhalimjohnovna M. U. Technology Of Elimination Damage And Deformation In Construction Structures //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 224-228.
6. Мирзаахмедов А. Т., Мирзаахмедова У. А., Максумова С. Р. Алгоритм расчета предварительно напряженной железобетонной фермы с учетом нелинейной работы железобетона //Актуальная наука. – 2019. – №. 9. – С. 15-19.
7. Mirzaakhmedova U. A. Inspection of concrete in reinforced concrete elements //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 9. – С. 621-628.

8. Mirzaakhmedov A. T., Mirzaakhmedova U. A. Prestressed losses from shrinkage and nonlinear creep of concrete of reinforced concrete rod systems //EPRA International journal of research and development (IJRD). – 2020. – Т. 5. – №. 5. – С. 588-593.
9. Мирзаахмедов А. Т., Мирзаахмедова У. А. Алгоритм расчета железобетонных балок прямоугольного сечения с односторонней сжатой полкой //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 12-2 (145).
10. Abdukadirova M. A. The Role Of Builder And Building In The Development Of The Country Is Invaluable //The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 81-84.





## **BOLA ASRAB OLGAN OILA BILAN OLIB BORILADIGAN FAOLIYAT**

**Fayzullayeva Xolida Ahmadjon qizi**

Sirdaryo viloyati Xovos tuman 6-maktab  
amaliyotchi psixologi

**Abduvohidov Abbas Narzullayevich Sirdaryo viloyati**

Boyovut tuman 53-maktab amaliyotchi psixologi

**Annotatsiya:** Talabalarga Oila tiplari va yetim bola asrab olgan oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat va oila omilining insonga butun umur davomida ta'siri, ijtimoiy jihatdan o'z-o'zini belgilab olishga, uning ijtimoiy-ijodiy faolligi, oilaviy munosabatlar qadriyatlar haqida tushunch berish.

**Kalit so'zlar lug'ati:** O'zbekcha - Oila Ota-ona Oilaning ijtimoiy maqomi Oilaning turlari Oila a'zolari Yetimlik Ijtimoiy yordam Asrab olish Oilaning ijtimoiy-madaniy darajasi Oilaning vazifalari.

Oila shaxs tarbiyasida boshqa ijtimoiy institutlar bilan taqqoslaganda birinchi darajali rolni bajaradi. Chunki, aynan oilada individual qobiliyatlar, shaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy normalar shakllanadi. Oila omili insonga butun umur davomida ta'sir etadi. Ijtimoiy jihatdan oila inson turli ijtimoiy rollarni egallaydigan jamoa hisoblanadi. Oila insonning o'z-o'zini belgilab olishga, uning ijtimoiy-ijodiy faolligini oshishiga yordam beradi. Oilaviy munosabatlar oliy qadriyat hisoblangan bizning respublikamizda O'zbekistonda oilaning ijtimoiy maqomi nihoyatda balanddir va o'z mavqe'ini hozirgacha ushlab turibdi. Biroq bu holatdagi oila inqirozi ko'pgina oilalar, shu jumladan, o'zbek oilalariga ham ta'sir qiladi.

Manbalarda oiladagi mavjud muhit, oila a'zolarining bir-birlari bilan o'zaro munosabatiga ko'ra oilalarning quyidagi turlari ko'rsatilgan:

1) tinch, baxtli oilalar (ularida vazifalar muvaffaqiyatli bajariladi, oila a'zolari o'rtasida o'zaro ziddiyatlar yuzaga kelmaydi; har bir ishni bajarishdan oldin maslahatlashiladi, agarda muammolar yuzaga kelsa, birgalikda, hamjihatlikda hal qilinadi);

2) ijtimoiy xavf mavjud bo'lgan oilalar (farzandlarni tarbiyalashda muammolar ko'zga tashlanadi);

3) notinch oilalar (doimiy janjallar hukmron bo'lib, farzand tarbiyasida katta qiyinchiliklar seziladi);

4) asotsial oilalar (ota-onalar axloqsiz hayot kechirishadi; oilada sanitariya-gigiena qoidalariga amal qilinmaydi, bolalar nazoratsiz qoldiriladi).

Farzandlarni tarbiyalash va ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishda oilalarga quyidagi shakllarda yordam ko'rsatiladi:

Maslahat berish — farzandlar tarbiyasi, ularning ta'lim olishlarini tashkil etishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, samarali shakl, metod va vositalardan foydalanishga oid maslahat beriladi.

Metodik yordam ko'rsatish — ota-onalar metodik bilimlardan xabardor qilinadi, bolalarning fiziologik va psixologik rivojlanishlarini nazorat qilish, ularni to'g'ri parvarishlar va tarbiyalash bazasidan zarur yordam ko'rsatiladi, oilalarning psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlaydi, yordamga muhtoj bolalarga tibbiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatiladi.

Ijtimoiy himoya qilish — xavf mavjud bo'lgan, notinch yoki asotsial oilalarda bolalar ota-onalar giyohvand, ichuvchi, shafqatsiz ota-onalardan himoya qilinadi; bolalarni anomal hulqli ota-onalardan ajratib olish, ularni maxsus ta'lim muassasalariga joylashtirish yoki farzandlikka berish, bu borada hujjatlarni rasmiylashtirish ishlarini bajaradi.

Farzandlikka olgan oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat bosqichlari va mazmuni

#### 1. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat bosqichlari

2. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat vazifalari
3. Farzandlikka oluvchi oilani qidirish.
4. Axborot berish
5. Bo‘lg‘usi qabul qiluvchi ota-onalarni o‘rganish.

Bola bo‘lgan muassasa va oilalarga tashrif buyurish (bolalar uyi, inqirozli oila) va boshqalar. Bo‘lg‘usi bola qabul qiluvchi oilani o‘rganish. Boshlang‘ich ta‘lim: ma‘ruza qilish, hikoya, suhbat o‘tkazish, video-filmlar ko‘rsatish. Bolani oilaga oylashtirish, ota-onalarga chuqur ta‘lim berish. Tashhis qo‘yish (ilk) Ijtimoiy-pedagogik faoliyat metodlari Anketa so‘rovlari, suhbat, intervyu o‘tkazish Anketa so‘rovlari o‘tkazish, suhbat Vositachilik Kuzatuv, suhbat Tashhis qo‘yish (guruhlashgan) Test o‘tkazish, suhbat, hujjatlarni o‘rganish Ta‘lim berish Ma‘ruza, suhbat, kuzatuv, mashg‘ulotlar Patronaj Kerakli metodlardan o‘z o‘rnida foydalanish kerak.

Bola asrab olish borasidagi ijtimoiy-pedagogik faoliyat ijtimoiy ta‘minot bo‘limlarining xodimlari, shifokorlar, psixologlar, defektologlar va huquqshunolar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Goziyev E.G. Mamatov M.M. va boshkalar "O‘spirin psixologiyasi" ToshD.U 1992
2. Goziyev E.G Utanov B "Xamkorlik psixologiyasi" T., Tosh D.U. 1992
3. Lyaudis V.L. - Metodika prepodavaniya psixologii, iz.vo 2000 URAO
4. Davletshin M.G. Obshaya psixologiya T. 2002
5. Filatova O.G Sotsialnaya psixologiya SP 2000

## TA'LIMDA PLAGIATNI OLDINI OLIISH

**Kosimova mukammal Umaraliyevna,**

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Farg'ona filiali o'qituvchisi,

Email: [mukammalkosimova11@gmail.com](mailto:mukammalkosimova11@gmail.com)

**Mo'minov Asadbek Mamurjon o'g'li**

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Farg'ona filiali talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola plagiat, uning ta'rifi, ta'lim sohasiga keltiradigan zararlari, hozirgi holatdagi uning avj olganligi va plagiatni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida so'z ketadi.

**Kalit so'zlar:** plagiat, antiplagiat, originallik.

Hozirda o'quvchi va talabalarning bilim saviyalari aksariyat hollarda talab darajasida emas. Buning eng asosiy omillaridan biri esa bu – plagiat. Plagiat ilm o'rganuvchining shaxsiy qarashini susaytirib, uni bilim olishda dangasalik tomon olib boradi.

The language can redefine and reuse old words. The dictionary name, in turn, became generalized as a verb assuming to explore for something, not so crucially on the net. Everyone can find a 'hamburger' of two existing words- web + master otherwise you can fuse them together: lexpert =lexics + expert, someone who is an expert in uttering words. Such an amalgamated word is additionally called a portmanteau (from French, meaning a bag for carrying clothes, one that opens on two sides) since Charles Dodgson gave them this moniker in his 1872 classic "Through the Looking-Glass". Carroll himself coined some great portmanteaux, for example chortle (chuckle + snort), and slithy (slimy + lithe).

## CONCLUSION

In this day and age English language like many other languages passes through “neologistic boom” in its spoken and written discourse. Large amount of recent words (neologisms) and necessity of their interpretation led to formation of special particular branch of lexicology-neology-science about neologisms. This sector has been discussing linguistic interpretation of the phenomenon of neology, and bringing forward various definitions to the term neologism suggested by different scholars. Therefore, a neologism is taken into account to be a brand newly coined word or phrase or a new meaning for an existing word, or a word borrowed from another language. Furthermore, the subject saw evolution of neologism, i.e. the stages the word must withstand to enter the language. As we reside within the period of globalization, plenty of objects are created and much of latest words are came to an existence to call them. There's little question that country language currently is that the most generally used language for international communication both for business and education. Words and expressions are born, live for a brief time then wipe out or find their place in our vocabulary in keeping with the temporary or permanent usage of the phenomena they depict. Today an excellent number of linguists are attempting to reveal the foremost productive spheres of act. Accordingly, there are 4 leading spheres that are men and 75 women links, computer technologies, culture and science where business and language appear more or less stable.

The development of latest meanings in existing words proves another fruitful source of recent vocabulary that's getting used widely. Semantic extension expresses the qualitative aspect of vocabulary growth. Traditionally there are distinguished such semantic processes as metaphor, metonymy, extension or generalization of meaning, specialization or narrowing of meaning: pejorative words (words that have negative meaning) and melioration. Among these metaphor is predominating.

## REFERENCES

1. Vorno E.F., Kashcheeva M.A., Malishevskaya E.V., Potapova I.A. Lexicology of

the English language. A guide for teachers: L.: Education, 1955.-170s

2. Elise Eva V.V. Lexicology of the English language - St. Petersburg: Publishing house of St. Petersburg State University, 2003. - 144 p
3. Zabotkina V.I New vocabulary of modern English. M. “High school”. 1989-124s.
4. Karpov A.K and others. Educational dictionary of linguistic terms and concepts.- Nizhnevartovsk: Publishing house of NGPI, 2002.-375s.
5. Kubryakova E. Nominative aspect of speech activity. Moscow, 1986.-159.



## SOVET DAVRIDA ARXITEKTURA VA SHAHARSOZLIK

**Axmedov To‘lqinjon Obidovich,**

**Rustamova Dildoraxon Qaxramon qizi**

M3 20 “IOQ” guruh magistranti

Farg‘ona politexnika instituti

**E mail:** [ahmedovtulqinjon@fer.uz](mailto:ahmedovtulqinjon@fer.uz)

**Annotatsiya:** Maqolada sovet davrida arxitekturasi va shaharsozlik asoslari haqida materiallar keltirilgan. O‘sha davrda barpo etilgan bino va inshootlarning hajmiy – rejaviy, konstruktiv yechlari yuzasidan manbalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yirik obektlar, sotsialistik industriya, sanatoriyalar, loyihalash ishlari, ishchilar klubi, madaniyat saroylari, pionerlar uyi, dam olish uylari.

## ARCHITECTURE AND URBAN PLANNING IN THE SOVIET PERIOD

**Abstract:** The article presents materials on the basics of architecture and urban planning in the Soviet era. Sources are given for space planning, design solutions for buildings and structures built at that time.

**Keywords:** Large scale farms, socialist industry, sanatoriums, design work, a workers' club, palaces of culture, pioneer houses, rest houses.

Sovet davrida sobiq ittifoq davlatida sotsialistik qurilish keng ko‘lamda olib borildi. Revolutsiyadan so‘ng fuqarolar urushlari natijasida vayron bo‘lgan shaharlar tashlandiq qishloq va xutorlar ko‘p edi, bularni tiklash, rivojlangan jamiyat qurish uchun, hamda kommunistik ideologiyani odamlar ongiga solish uchun kommunistlar qurilishdan keng foydalandilar. Sovet arxitekturasi shaharsozlikda sifat nuqtai – nazardan yangi etap ochib berdi.

Agrar Rossiyani kuchlik Industriallashgan va qishloq xo‘jaligi rivojlangan Davlatga aylanishi Arxitektura oldiga ham yuksak marralarni qo‘yli. Yuzlab yillar davomida qurilgan arxitektura obidalarini Burjuaziya ekspluatatorlar sinfiga mansub. Sovet arxitekturasi asosiga gumanistik g‘oyalar qiyildi. Sotsiyalistik tu shunchalar ya’ni oddiy odamlar mexnatkashlar haqida g‘amxo‘rlik tushunchalari ilgari surildi. Arxitektura faoliyatini harakteri Xalq Xokimiyatiga bo‘ysundirildi. Birinchi marotaba Qurilishni shaharlarni rekonstruksiyalashni asosiy qilib ilmiy Sotsiyalistik rejalashtirish qo‘yildi. Sotsiyalistik shaxarsozlik va arxitekturasi barcha qurilayotgan inshootlar va komplekslarni yagona bir g‘oyaga birlashtirish va bir butun arxitektura ansanbllarini yaratish uchun shart sharoitlar yaratildi. Sovet davrini boshlanish chog‘ida birinchi tadbir, shaxar ishchilar sinfini yashash sharoitlarini yaxshilash, shaxarlardagi eng kambag‘allar yashaydigan (trushoba) kvartallaridagi zerikarli hayot tarzini yo‘qotishdan boshlandi. Sovet davlati o‘z boshidan fuqarolar urushini boshidan kechirib turgan og‘ir yillarda birinchi sanoat inshootlari bilan bir qatorda yangi ishchilar shaxarchalari (posyolkalar) va kvartallarini qura boshladi [1-2].

Bular keyinchalik yirik sanoat korxonalarini bilan bir qatorda Sovet arxitekturasi yirik ob’ektlariga aylandi (Shatyura GESi va posyolkasi, Dubrovskiy posyolkalari va b.) Sovet arxitekturasi belgilari, Sovet sotsiyalistik industriyasining to‘ng‘ichi Volxov GES qurilishida ayniqsa yorqin namoyjn bo‘ldi. Bu bilan bir qatorda Dnep ro GES qurilishini ham eslatib o‘tish joiz bo‘ladi. O‘z vaqtida Dunyodagi eng yirik inshootni akademik B.A.Vesnini boshchiligida ishlab chiqilgan loyixa asosida qurildi juda yirik Ekekr stansiyaning binosining monumental qiyofasi va shakli o‘lchamlari xaybatli bo‘lgan damba inshooti va GES binosi Dnepr daryosi uzra tik ko‘tarilib turibdi. Rivojlangan jamiyat qurish uchun, hamda kommunistik ideolo giyani odamlar ongiga solish uchun kommunistlar progressiv texnikaviy vositalari qo‘llanilishi va chuqur ideologik va badiiy ta’sirlar bilan yo‘g‘irilgan kompozitsi yalarni qo‘llashga yo‘naltirdilar.

Birinchi jahon urushidan keyin ittifoqda bir qancha yangi sotsiyalistik mazmun bilan boyitilgan arxitektura komplekslar barpo qilindi. 1923 yilda Moskvada birinchi

umumittifoq qishloq ho‘jalik ko‘rgazmasini kompleks –ansambli yaratildi. Bu qurilishda an’anaviy rus va jahon me‘morchiligi san’ atidan ijodiy foydalanildi va original o‘ziga xos texnikaviy uslublar ham keng qo‘llanildi. Sovet arxitekturasini buyuk asarlaridan biri Lenin mavzoleyi edi (Akademik A.Shusyev 1924 yilda boshlang‘ich yog‘ochdan so‘ng granitdan qurilgan) mavzoley kompozitsiyasi ozini soddaligi shaklini aniq bo‘lishi bilan ajralib turadi. Ko‘p yillar bu mavzoley bir vaqtni o‘zida katta katta bayram namoyishlari tantanalarida tribuna vazifasini ham bajargan. Sovet madaniyati xalqchil sotsialistik xalq xarakterini o‘ziga bo‘ysundirib uning shartlari asosida yangi tipdagi qurilmalar, jamoa binolarini (Ishchilar klubi, madaniyat saroylari, pionerlar uyi va saroylari, dam olish uylari va h.k.) ommaviy ravishda qurilishga olib keldi. Bundan tashqari Teatrlar, muzeylar (Toshkentdagi A.Navoiy nomidagi akadevik opera va balet teatri ham shu jumladan), Davlat Kutubxonasi Dinamo stadioni, Moskvadagi ”Lujniki deb nomlanadigan sport inшоati” Moskvani rekonstruksiya qilish bosh rejasi (1935) ga asosan ko‘p miqdorda maktablar, kasalxohalar, dam olish uylari, sanatoriyalar, Moskva rekani 50 km.lik qirg‘og‘iga granit qoplanishi, Metro qurilishi va b.Sotsialistik industriyani o‘sishi natijasida tez vaqtlarda yangidan qurilgan. Shaxarlar Uralda “Magnitogorsk”, Ukrainada “Zaporozhye”, Uzoq sharqda Komsomol’sk, Shimolda “Igarka”, “Norilsk” “Monchegorsk va boshqalar qurildi [3].

O‘sha davrda yangi xisoblangan bu tipdagi saroylar, madaniyat uylari SSSR ning ko‘plab shaharlarida ko‘plab tirajlarda qurilgan. Bu binolardan teatr zali, o‘quv mashg‘ulotlar zali, ko‘rgazmalar gallereyalari, kutubxona va o‘qish zali va jismoniy tarbiya o‘tkazish xonalari kabilarda foydalanish ko‘zda tutilgan.

Sotsialistik rekonstruksiya rejaları sobiq Ittifoqning ko‘plab shaharlarida shu jumladan Rostov, Sverdlovsk, Chelyabinsk, Gorkiy, Novosibirsk va barcha ittifoqchi respublika markazlarida amalga oshirildi. Ko‘p joylarda bu rejani amalga oshirilishi amalda shaxarni qayta tug‘ilishiga olib keldi. Bu rekonstruksiya shaharlar ko‘rinishini xar tomonlama va chuqur ma’noda arxitektura ko‘rinishini o‘zgartirib yubordi. Yangi progressiv tuzilmalarni yaratilishi, yangi qurilish materiallarini o‘zlashtirish Qurilish



ishlarini mexanizatsiyalashtirish, qurilishni tezkor usullarini qo‘llash [4-5]. Loyihalash ishlarini Davlat darajasida yo‘lga qo‘yilishi bu kabilar Sovet arxitekturasini kuchlik usullar bilan quvvatlantirdi. Sovet arxitekturasini yangidan yaratishda aka-uka Vesninlarni arxitektura maktabi katta rol o‘ynadi. Sovet madaniyatini Sotsialistik Xalq xarakterini o‘zida singdirib yangi tipdagi qurilmalar (Ishchilar klubi, Madaniyat saroylari, pionerlar uyi, dam olish uylari) larni kehg qurilishiga sabab bo‘ldi ikkinchi jahon urushidan keyin arxitekturani rivojlanishi SSSR Xalq Xo‘jaligini qayta tiklash bilan bog‘liq bo‘ldi. Arxitekturani rivojlanishini urushdan keyingi davrlarda ayniqsa 1955 yili qurilishiga yangi texnikani keng qo‘llanilishi oqibatida qurilish soxasida juda katta sifat o‘zarishlari sodir bo‘ldi. Bu vaqtda Moskvada Ittifoqda birinchi bor osmono‘par binolar qurildi. Bulardan ahamiyatliysi Moskva Davlat universiteti binosi bo‘ldi va kompleks ko‘rinishida qurildi. Bundan tashqari irtifoqdosh Respublikalar poytaxtlarida ham misli ko‘rilmagan qurilishlar olib borlidi. Sovet arxitekturasi bunday muxim texnik yutuqlari bilan bir qatorda urushdan keying vaqtlarda yolg‘on tendensiyalar binolarni ortiqcha bezaklash kabi yolg‘on va zararli yo‘nalish ham ayon bo‘ldi. Arxitekturada binoni tashqi ko‘rinishini korsartish keng yoyildi.

1955 yildan so‘ng sovet arxitekturasi koplav yangi va muxim ob‘yektlar yaratdilar. Ular Volgograd va Bratsk GESi, Moskva markaziy stadioni, s‘yezdlar saroyi va boshqalar [6-8]. Kommunistik partiyaning XIX s‘yezdi (1952 yil) qarorida urushdan keyingi qayta qurish va tiklash ishlarini bajarishni yanada tezlashtirish maqsadida Mamlakatda temir beton zavodlarini qurish haqida qaror qabul qildi. 1954-yil 19-avgustda Sovet Xukumati qurilish uchun yig‘ma temir beton konstuksiyalar va detallar ishlab chiqarishni rivojlantirish haqida qaror qabul qildi. Bir xil ko‘rinishli Mikrorayonlar xatto ko‘cha va uylari bir biriga o‘xshash shaxar lar ko‘paydi. Zavodlarda tayorlanib quriladigan binolar tez orada eskirdi va bu binolar talabga lavob bermay qo‘ydi. Zavodlar esa o‘sha vaqt talabidan kelib–chiqib mahsulotini o‘zgartirmay 20-30 yillab ishlab chiqarda davom ettirib keldi.

Mamlakatda urushdan keyin uysiz boshpanasiz qolgan axolini tezroq uy joy bilan ta‘minlash maqsadida, binolarni planirovkasini ham eng minimal ko‘satkichlar asosida

rejalashtirildi. Unda xech qayerda bo‘lmagan 1 xonali, 2 xonali xonadon lari bo‘lgan binolar, unda ham bir kishi uchun 6.0 m.kv. dan norma bilan – qurila boshlandi. Minimalizatsiya tendensiyasi natijasida yashash sharoiti sifati orqada qolib ketdi, kichik xonalar, bir xonali kvatiralarni loyixalash o‘sha vaqtda davr talabi bo‘lgan mamlakatda tez va oz vaqtda ko‘p dan ko‘p uysizlarni uy joy bilan ta‘minlash birihchi galdagi vazifa edi [7-8]. Tez orada bu xolat odamlarni yashash sharoitlari talablariga lavob bermay qo‘ydi oradan 15-20 yillar o‘tib, odamlar bunday uylarda yashashga qiziqmay qo‘ydilar asosiy sabab uyni torligi pastligi va ilg‘orlab ketgan zamoh talabiga javob bera olmasligi edi. lekin juda ko‘plab eski planirovkali binolar hali ham iste‘molda mavjud bo‘lib turibti. Bunday binolarda individuallikni yo‘qolganligi, binoga chiroy beradigan elementlarni yo‘qligi sababli Binolarni ko‘rki ham yo‘qoldi. Bunday binolar endi shaxar chiroyini buzib turibdi xolos. Xozir bunday 5 qavatli binolarni rekonstruktsiya qilish, 4 qavatli binolar ni esa buzib tashlab o‘rniga yangi keng zamonaviy va ko‘p qavatli binolar qurish oldimizdagi eng katta vazifa bo‘lib qoldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Tolkin A. Reconstruction of 5 storey large panel buildings, use of atmospheric precipitation water for technical purposes in the building //The American Journal of Applied sciences. – 2020. – T. 2. – №. 12. – C. 86 89.
2. Tolqin A. Ancient greek and ancient rome architecture and urban planning //The American Journal of Engineering and Technology. – 2021. – T. 3. – №. 06. – C. 82 87.
3. T.Axmedov GOTIKA USLUBINING ARXITEKTURADAGI AHAMIYATI// Ilmiy taraqqiyot. 2021yil. 6 son. URL: [https://cyberleninka.ru/article/n/gotika\\_uslubining\\_arxitekturadagi\\_ahamiyati](https://cyberleninka.ru/article/n/gotika_uslubining_arxitekturadagi_ahamiyati)
4. Abdukhalimjohnovna M. U. Failure Mechanism Of Bending Reinforced Concrete Elements Under The Action Of Transverse Forces //The American Journal of Applied sciences. – 2020. – T. 2. – №. 12. – C. 36 43.

5. Abdukhalimjohnovna M. U. Technology Of Elimination Damage And Deformation In Construction Structures //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – T. 3. – №. 05. – C. 224 228.
6. Mahkamov Y. M., Mirzababaeva S. M. Strength of bending reinforced concrete elements under action of transverse forces under influence of high temperatures //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 5. – C. 618 624.
7. Makhkamov Y. M., Mirzababaeva S. M. Rigidity of bent reinforced concrete elements under the action of shear forces and high temperatures //Scientific technical journal. – 2021. – T. 4. – №. 3. – C. 93 97.
8. Yokubov Sherzodbek Shavkat o‘g‘li, and Abduvohidov Parviz Abdurafiq o‘g‘li. "KOSMIK MA'LUMOTLAR YORDAMIDA YER TUZISH LOYIHA ISHLARINI OLIB BORISH." *Ta'lim fidoyilari* 25.5 (2022): 23-25.



## DAVLAT YER KADASTRIDA GIS TEXNALOGIYALARIDAN FOYDALANISH

**Abduraxmonov Abduhokim Abduvahobovich**

Farg‘ona Politexnika instituti

**E-mail:** [a.abduraxmonov@ferpi.uz](mailto:a.abduraxmonov@ferpi.uz)

**Yokubov Sherzodbek Shavkat o‘g‘li**

Farg‘ona Politexnika instituti

**E-mail:** [sherzodbekyokubov95@gmail.com](mailto:sherzodbekyokubov95@gmail.com)

**(ORCID:** 0000-0001-7118-073X)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Davlat yer kadastrida GIS texnologiyalarini qo‘llash, Suv ob`yektlarining gidrologik holatini o‘rganish va monitoringidagi GIS loyiha, GPS (Global Position System) –priyomniklari to‘g‘risida ma‘lumotlar, Bir chastotali SR20, GS 20, GPS asboblari haqida ma‘lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Davlatv yer kadastri, GIS, gidrologik, GPS, SR20, GS 20, ArcView, WGS-84.

## USE OF GIS TECHNOLOGIES IN STATE LAND CADASTRE

**Annotation:** This article provides information on the application of GIS technology in the State Land Cadastre, GIS project for the study and monitoring of hydrological status of water bodies, GPS (Global Position System) receivers, Single frequency SR20, GS 20 , Information on GPS devices.

**Keywords:** State Land Cadastre, GIS, Hydrological, GPS, SR20, GS 20, ArcView, WGS-84.

Turli xil xalq xo‘jaligidagi kadastrlar (yer, shahar qurilishi, suv, o‘rmon, transport tizimi va h.k.) kartografik informatsiya bazasidagi yer, tabiiy, xo‘jalik, huquqiy holatning ishonchli va zaruriy ma‘lumotlar majmuasiga ega bo‘lganligi geoinformatsiya tizimini tashkil etadi va ushbu kartografik informatsiya yerning maydoni, sifati, qiymati, yerdan foydalanuvchilar va yer egalari to‘g‘risida ma‘lumot olish va yerdan foydalanishni nazorat etish uchun ham xizmat qiladi.

Kadastrning informatsion asosi mavjud yerlarning inventarizatsiyalash va kadastr tasviriga olish natijasida yaratiladi. [1-3]

Katta hajmdagi ma‘lumotlarni yagona informatsion tizimda joylashtirish uchun kadastrni informatsion elementlar qatlamiga ajratiladi, ularning har biri aniq masalalarni yechishda mustaqil foydalaniladi.

GIS ni qo‘llashga asoslangan kadastrning avtomatlashtirilgan tizimi uchun raqamli kadastrli xaritalar, planlar qo‘llanilib, qabul qilingan koordinatalar tizimida aniqlanadi. Ob‘yektning ta‘riflash kadastrlik nomerlarda belgilanib, belgilar informatsion tizimning ma‘lumotlar bazasini tashkil etadi. Shu tarzda raqamli kadastr kartometrik (grafik) va sementik (ifodalash) majmuasini ifodalab, kadastrning informatsion tizimi qismini tasvirlab ko‘rsatadi. Yer uchastkalarining o‘rni, ularning chegaralari va maydonini aniqlab undan resurslarni boshqarishda foydalaniladi.

*Suv ob‘yektlarining gidrologik holatini o‘rganish va monitoringidagi GIS loyiha*

GIS- loyiha O‘zbekiston Hidrometeorologik ilmiy tekshirish institutida yaratilgan Arc View 3,2 ta‘minotli dasturga ega va quyidagi tematik qavatlarni o‘z ichiga olgan:

- o‘rganilayotgan hududning tartibsiz ko‘rinishidagi yerning sun‘iy yo‘ldoshidan olingan surat;
- vektor ko‘rinishidagi 1:200000 masshtabli topografik xarita;
- yerning sun‘iy yo‘ldoshidan olingan suratni qayta ishlash natijasidagi rel‘efning tasviri;
- vektor fayllari –suv yuzasining poligoni.

Vektor fayllari ob‘yektining nomi, uzunligi, poligon maydoni va boshqa matn informatsiyalari bilan ta‘minlangan.[4-10]

WGS-84 Dunyo geodezik koordinatalar tizimi 1984 -yil jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan bo‘lib, tizimning boshlang‘ich nuqtasi Yerning markazida berilgan Fazoviy to‘g‘ri burchakli koordinatalar tizimining Z o‘qi shartli Yer qutbi yo‘nalishiga parallel, X o‘qi WGS-84 shartli meridian tekisliklari bilan aniqlanadi. Y o‘qi koordinata tizimining o‘ng tomoniga joylashgan.

*GPS (Global Position System) –prijomniklari to‘g‘risida ma‘lumotlar*

Qabul qilish (prijomnikli) moslamalarning asosiy vazifalari –Yer navigatsiyali sun‘iy yo‘ldoshlari ishchi turkumini tanlash, navigatsiya signallarini qidirib topish, dal‘nomerli signallarni uzatish, sinxronli tizimga kirish, navigatsiyali axborotlarni ajratish, moslama o‘rnatilgan joyning koordinatalarini aniqlash, ma‘lumotlarni raqamli tabloda aks ettirishdan iborat. Hamma GPS signal qabul qiladigan antenaning yuqori qismidagi fazali markazga keltiriladi. Buning uchun antenna yoki asbob balandligi deyiladigan masofa o‘lchanadi va u prijomnikka kiritiladi, ma‘lumotlarni yig‘ish uchun prijomnik ulanadi. Bunda prijomnik avtomatik tarzda nazorat testlarini bajaradi, imkon qadar barcha sun‘iy Yo‘ldoshlarni izlaydi va qayd qiladi, GPS o‘lchashlarni bajaradi va o‘z xolatini hisoblaydi, fayl ochib, unga barcha ma‘lumotlarni to‘playdi. Tasvir olish tugagach, prijomnik uziladi, fayl avtomatik tarzda bekilib, to‘plangan ma‘lumotlar saqlanadi.[10-19]

*Bir chastotali SR20, GS 20, GPS asboblari*

Topografo-geodezik, kartografik va GIS ma‘lumotlarini to‘plash maqsadida ishlab chiqilgan portativ GPS asboblari SR20, GS 20 murakkab dala sharoitiga moslangan.

Simsiz Bluetooth bog‘lanish texnologiyasining ta‘minotli dasturiga ko‘ra, GIS ilovasiga ma‘lumotlarni yetkazish, yerning sun‘iy Yo‘ldoshlari va yer yuzasida joylashgan baza stansiyalardan DGPS va RTK tuzatmalarini qabul qilishga, shu bilan birga GIS dasturida tayyorlangan vektorli xaritalardan foydalanishga mo‘ljallangan.

*SMARTSTATION tizim va unda yechiladigan masalalar*

Taxeometr TPS 1200 va GPS prijomnigi GPS 1200 birgaligida tuzilgan SMARTSTATION tizim hozircha amaliyotda yagona hisoblanadi.

Taxeometrغا o‘rnatilgan GPS priyomnigining antennasi RTK rejimida bir necha sekund ichida bazis stansiyasidan 50 km gacha bo‘lgan masofadagi nuqtalarning koordinatalarini 1 sm xatolikda tez aniqlaydi.

Topografik tasvir olish vaqtini keskin qisqartiradi. Asbobni boshqarish taxeometr klaviaturasi orqali amalga oshiriladi. Barcha o‘lchashlarning natijalari va boshqa axborotlar taxeometrning ekranida tasvirlanadi. To‘plangan ma`lumotlar karta xotirasidagi ma`lumotlar bazasida saqlanadi.[1-4]

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.M.Nishonboyev, Shaxar kadastrini yuritish. Toshkent - 2015
2. Ogli Y. S. S., O‘G‘Li A. P. A. KOSMIK MA'LUMOTLAR YORDAMIDA YER TUZISH LOYIHA ISHLARINI OLIB BORISH //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 25. – №. 5. – C. 23-25.
3. Abduqodirova M. A., qizi Mirzakarimova G. M. GIS TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA KARTANING GEOGRAFIK ASOSINI TUZISH, UNI TAHRIR QILISH //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 309-311.
4. Shavkat o‘g‘li Y. S., Xalilovna B. Y. GIS DASTURLARI YORDAMIDA GEOGRAFIK ASOS QATLAMLARINI JOYLASHTIRISH VA ULARNI BOSHQARISH //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – C. 312.
5. Abdukadirova M. A., qizi Mirzakarimova G. M. The use of Geo Information System in the Establishment of Land Balance //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 18. – C. 441-445.
6. Хакимова К. Р., Абдукадилова М. А., Абдухалилов Б. К. РАЗРАБОТКА ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В КАРТОГРАФИЧЕСКОМ ОПИСАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ //Актуальная наука. – 2019. – №. 11. – С. 34-38.

7. Abdukadirova M. A. The Role Of Builder And Building In The Development Of The Country Is Invaluable //The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research. – 2021. – T. 3. – №. 05. – C. 81-84.
  8. Khakimova K. R., Ahmedov B. M., Qosimov M. Structure and content of the fergana valley ecological atlas //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 5. – C. 456-459.
  9. Marupov A. A., Ahmedov B. M. General Characteristics of Zones with Special Conditions of use of the Territory //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 18. – C. 446-451.
  10. Madaminovich A. B. The use of gis technology to create electronic environmental maps //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 5. – C. 438-440.
  11. Marupov A. A., Ahmedov B. M. General Characteristics of Zones with Special Conditions of use of the Territory //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 18. – C. 446-451.
  12. Salyamova K D., Rumi D.F., Turdikulov Kh.Kh. Analysis of seismic stability of retaining earth structures with account of dissipative properties of soil. European science review 11–12 November – December. V 1 Vienna. 2018, P. 81-84.
  13. KD Salyamova, XX Turdiqulov. Analysis of stability of ground dams under seismic loads // Scientific-technical journal – (2020) 24 (1), 59-63
  14. Makhmud K., Khasan M. Horizontal Survey of Crane Paths //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 18. – C. 410-417
  15. Abduraufovich Q. O., Valiyevich M. X., Dilshodbeko‘g‘li H. E. Some issues of re-utilization of casing strings, unused water intake wells (for example, some countries in the south-western sahel) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 6. – C. 1568-1574.
  16. Mamatkulov O. O., Numanov J. O. Recycling of the Curve Planning in Gat Technology (Auto Cad) Program //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 18. – C. 418-423.
- Nomonov J. O. O. FARGONA VILOYATIDAGI MADANIYAT



VA ISTIROHAT BOGLARI //Science and Education. – 2020. – T. 1. – №. 8. – C. 27-30.

**17.** Abduraxmonov A.A. Methods of Improving Physical and Mechanical Properties of Light Concrete on the Basis of Chemical Additives // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. ISSN NO: 2770-0003. – C. 165 – 167

**18.** Abdukadirova M.A., Yokubov Sh.Sh., The Use of Geoinformation Systems in the Study of the Land Fund of Household and Dekhkan Farms // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2022. ISSN NO: 2770-0003. – C. 163-164



## **POLIGONOMETRIYA YO‘LINI O‘TKAZISHDA OLINGAN DALA O‘LCHASH NATIJALARINI TENGLASHTIRISH VA UNING PUNKTLARI KOORDINATALARINI HISOBLASH**

**Axmedov Baxriddin Madaminovich**

Farag‘ona Politexnika Instituti

**Alisherov Shoxruxbek Mirzohidjon og‘li**

Farg‘ona Politexnika Instituti 2-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada poligonometriya yo‘lini o‘tkazishda olingan o‘lchash natijalarini tenglashtirish punktlar koordinatalari hisoblash va topish, o‘lchangan qiymatlarga mos ravishda tuzatmalar kiritish, ishchi sxemalarini tuzish va boshqalar haqida aytib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Poligonometriya, chekli xato, tenglashtirish, punktlar, koordinatalari hisoblash, o‘lchangan qiymatlar, sxema, sistema, aniqlik, kattalik, masshtab.

### **EQUIPMENT OF FIELD MEASURES RECEIVED IN POLYGONOMETRY ROAD AND CALCULATION OF COORDINATES OF ITS POINTS**

**Abstract:** This article deals with the calculation and finding the coordinates of the points of equalization of the measurement results obtained during the polygonometry path, making corrections in accordance with the measured values, drawing up working schemes and more.

**Keywords:** Polygonometry, finite error, equation, points, calculation of coordinates, measured values, scheme, system, accuracy, magnitude, scale.

Poligonometriya yo‘lini o‘tkazishda punkt koordinatalarini hisoblash uchun faqat kerakli o‘lchashlarning o‘zigina emas, balki, berilayotgan yo‘lni hisoblashda zarur

bo‘ladigan ya’ni kattaliklar bilan matematik aloqalarida aniqlashda topiladigan ayrim ortiqcha kattaliklar o‘lchashlari ham bajariladi.

Ortiqcha o‘lchashlarning borligi o‘lchangan kattaliklarni tenglashtirish ishlarini bajarish zaruratini keltirib chiqaradi. [1-3]

Poligonometriya yo‘lini tenglashtirish kichik kvadratlar usuli qonuniyatlariga ko‘ra amalga oshiriladi va quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) tuzatmani quyidagi shartni qanoatlantirgan holda aniqlansa, bu tenglashtirishning qat’iy usullari hisoblanadi

$$[p_{\beta}v_{\beta}^2] + [p_s v_s^2] = \min ; \quad (1)$$

2) agar o‘lchangan burchaklarga va koordinatalar orttirmasiga tuzatmalar ularning o‘zaro munosabatlarini hisobga olmasdan alohida aniqlansa (masalan:  $f_x$  va  $f_y$  bog‘lanmaslik xatolarini tomon uzunliklariga proporsional tarzda taqsimlansa) bu tenglashtirishning noqat’iy (to‘liq aniq emas) usuli hisoblanadi. [4-8]

### ***Boshlang‘ich hisoblashlar.***

Poligonometriya yo‘lidagi boshlang‘ich hisoblashlar ketma-ketligini.

*a) burchak bog‘lanmaslik xatolari quyidagi formulalar orqali hisoblanadi:*

ochiq poligonometriya yo‘li uchun

$$f_{\beta} = \sum \beta - [(\alpha_{oxirgi} - \alpha_{boshgi}) + 180^{\circ}(n+1)] \quad (2)$$

yopiq poligonometriya yo‘li uchun

$$f_{\beta} = \sum \beta - 180^{\circ}(n-2) \quad (3)$$

Olingan kattalikni chekli qiymat bilan quyidagi formula orqali solishtiriladi\*

$$f_{\beta_{chekli}} = 2m_{\beta} \sqrt{n+1} \quad (4)$$

Burchak o‘lchash o‘rta kvadratik xatoligi kattaligi, tegishli klass yoki razryadga-poligonometriyaga oid instruktsiyadan olinadi. SHuning uchun quyidagi nisbat qanoatlanishi kerak

$$f_{\beta} \leq f_{\beta_{chekli}} \quad (5)$$

Agar keyingi tenglashtirish hisoblashlarida burchak bog‘lamaslik xatosi uchun tuzatma kiritish talab etilsa, u holda bog‘lanmaslikni quyidagi tuzatmalarni hisoblash bilan har bir burchaklarga teng taqsimlanadi

$$v_{\beta_i} = -\frac{f_{\beta}}{n+1} \quad (6)$$

*b)koordinata ottirmalaridagi bog‘lanmaslikni hisoblash.* Buning uchun birinchi navbatda direksion burchaklar topiladi

$$\alpha_{i+1} = \alpha_i \pm 180^0 + \beta_{chap} \quad (7)$$

yoki

$$\alpha_{i+1} = \alpha_i \pm 180^0 - \beta_{o'ng} \quad (8)$$

bu yerda,  $\alpha_i$  va  $\alpha_{i+1}$ -oldingi va keyingi chiziqlarning direksion burchaklari,

$\beta_{chap}$  va  $\beta_{o'ng}$ -tuzatilgan(yoki bog‘lanmaslik uchun tuzatilmagan) chap va o‘ng

burilish burchaklari. [9-15]

So‘ngra quyidagi formulalar orqali koordinata ottirmalari olinadi

$$\left. \begin{aligned} \Delta x_i &= s_i \cos \alpha_i \\ \Delta y_i &= s_i \sin \alpha_i \end{aligned} \right\} \quad (9)$$

va orttirmalardagi bog‘lanmaslik xatolari  $f_x$  va  $f_y$  lar hisoblanadi.

Ochiq poligonometriya yo‘li yoki ochiq paligon uchun bog‘lanmaslik xatolari quyidagicha bo‘ladi

$$\left. \begin{aligned} f_x &= \sum \Delta x - (x_{oxirgi} - x_{boshgi}); \\ f_y &= \sum \Delta y - (y_{oxirgi} - y_{boshgi}) \end{aligned} \right\} \quad (10)$$

Yopiq poligonometriya yo‘li yoki yopiq paligon uchun bog‘lanmaslik xatolari quyidagicha bo‘ladi

$$\left. \begin{aligned} f_x &= \sum \Delta x; \\ f_y &= \sum \Delta y \end{aligned} \right\} \quad (11)$$

v) *poligonometriya yo‘li(yoki poligoni) chiziqli absolyut  $f_s$  va nisbiy  $\frac{f_s}{[s]}$*

*bog‘lanmaslik xatolarini hisoblash.*

Poligonometriya yo‘lining bog‘lanmasligi quyidagi formulada aniqlanadi

$$f_s = \sqrt{f_x^2 + f_y^2} \quad (12)$$

va chekli qiymati bilan taqqoslanadi, hamda quyidagicha aniqlanadi

$$f_{s_{chekli}} = 2M \quad (13)$$

Poligonometriya yo‘lining nisbiy bog‘lanmasligi  $\frac{f_s}{[s]}$  berilayotgan razryaddagi poligonometriyani tuzish instruktsiyasida ko‘rsatilgan ruhsat etilgan qiymat chegarasidan ortib ketmasligi kerak. [16-17]

Hisoblashlardan  $x$  va  $y$  koordinatalar quyidagi formulalar bilan olinadi

$$\left. \begin{aligned} x_{i+1} &= x_i + \Delta x_{i_{\text{muzatilgan}}} \\ y_{i+1} &= y_i + \Delta y_{i_{\text{muzatilgan}}} \end{aligned} \right\} \quad (14)$$

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Чеботарев А. С., Селеханович В. Г., Соколов М. Н. “Геодезия”. 2-қисм. М: Геодезиздат, 1962 й. §100-109; §122.
2. Селеханович В. Г. Логинова Г. П. “Задачник по геодезии” 2-қисм. М: Недра, 1970 й 7-боб.
3. Большаков В. Д., Гайдаев П.А ТМОГИ. М: “Недра” 1977, §58,62,,63,68.
4. Khakimova K. R., Ahmedov B. M., Qosimov M. Structure and content of the fergana valley ecological atlas //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 456-459.
5. Marupov A. A., Ahmedov B. M. General Characteristics of Zones with Special Conditions of use of the Territory //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 18. – С. 446-451.
6. Madaminovich A. B. The use of gis technology to create electronic environmental maps //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 438-440.

7. Marupov A. A., Ahmedov B. M. General Characteristics of Zones with Special Conditions of use of the Territory //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 18. – С. 446-451.
8. Salyamova K D., Rumi D.F., Turdikulov Kh.Kh. Analysis of seismic stability of retaining earth structures with account of dissipative properties of soil. European science review 11–12 November – December. V 1 Vienna. 2018, P. 81-84.
9. KD Salyamova, XX Turdiqulov. Analysis of stability of ground dams under seismic loads // Scientific-technical journal – (2020) 24 (1), 59-63
10. Shavkat o‘g‘li Y. S., Xalilovna B. Y. GIS DASTURLARI YORDAMIDA GEOGRAFIK ASOS QATLAMLARINI JOYLASHTIRISH VA ULARNI BOSHQARISH //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – С. 312.
11. Abdukadirova M. A. The Role Of Builder And Building In The Development Of The Country Is Invaluable //The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 81-84.
12. Хакимова К. Р., Абдукадилова М. А., Абдухалилов Б. К. РАЗРАБОТКА ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В КАРТОГРАФИЧЕСКОМ ОПИСАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ //Актуальная наука. – 2019. – №. 11. – С. 34-38.
13. Makhmud K., Khasan M. Horizontal Survey of Crane Paths //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 18. – С. 410-417
14. Abduraufovich Q. O., Valiyevich M. X., Dilshodbeko‘g‘li H. E. Some issues of re-utilization of casing strings, unused water intake wells (for example, some countries in the south-western sahel) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 6. – С. 1568-1574.
15. Mamatkulov O. O., Numanov J. O. Recycling of the Curve Planning in Gat Technology (Auto Cad) Program //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 18. – С. 418-423.
16. Nomonov J. O. O. FARGONA VILOYATIDAGI MADANIYAT VA ISTIROHAT BOGLARI //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 8. – С. 27-30.

17. Ogli Y. S. S., O‘G‘Li A. P. A. KOSMIK MA‘LUMOTLAR YORDAMIDA YER TUZISH LOYIHA ISHLARINI OLIB BORISH //Ta‘lim fidoyilari. – 2022. – T. 25. – №. 5. – C. 23-25.



## DANAKLI MEVA KASALLIKLARIGA QARSHI KURASHISH YO‘LLARI

**Mamatqulov Orifjon Odiljon o‘g‘li**

Farg‘ona davlat universiteti

**E-mail:** [orifjonmamatqulov435@gmail.com](mailto:orifjonmamatqulov435@gmail.com)

**Sodiqova Zabida Tolqinovna**

Farg‘ona davlat universiteti

**E-mail:** [zabidaxonsodiqova@gmail.com](mailto:zabidaxonsodiqova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hududning iqlim sharoitidan kelib chiqqan danakli meva ekinlarini yetishtrish va ularni kasalliklarga qarshi kurashish chora tadbirlari bo‘yicha ilmiy tavsiyalar berilgan. Viloyatning tuproq va iqlim sharoiti xar xil ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak bu yerdagi ekinlarni sug‘orish uchun sareflanadigan suv miqdorlari ham turlicha bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan har bir ekinlarni suv talabchanligini inobatga olgan holda va ularni zararkunanada xasharotlar bilan kasallanishini etiborga olgan holda yetishtrishning tavsiyalari berilgan.

**Kalit so‘zlar:** danakli mevalar, continental, sug‘orish, zovur, alternarioz, teshikchali dog‘lanish.

## WAYS TO COMBAT FRUIT DISEASES

**Abstract:** This article provides scientific recommendations on the cultivation of legumes and their control measures against diseases caused by the climatic conditions of the region. Considering the different soil and climatic conditions of the region, the amount of water used to irrigate crops here also varies. From this point of view, it is recommended to cultivate each crop taking into account the water requirements and taking into account the fact that they are infested with pests.

**Keywords:** nuts, continental, irrigation, ditch, alternariosis, perforated staining



Farg‘ona viloyatining iqlim sharoiti keskin kontinental bo‘lib yozi issiq va qishning quruq sovuqligi bilan boshqa viloyatlardan farq qiladi. Farg‘ona viloyat hududining yana bir o‘ziga xos xususiyatlaridan bu hududning yaxlit bir iqlim sharoitida joylashmaganligi hisoblanadi. Masalan (Shohimardon) va So‘x tumani Qirg‘iziston hududining ichida eksklav holatda joylashgan bu o‘z navbatida qishloq xo‘jalik ekinlarini sug‘orish uchun sarflanadigan suv normasini erkin boshqara olmasligiga olib keladi.

Mazkur holat esa danakli mevalarni yetishtirishda hududning o‘zida yer osti suvlaridan foydalanishni talab etadi. Lekin bizning hududimizda sizot suvlarining minerallasganlik darajasi yuqori hisoblanadi shu sababli barcha turdagi sizot suvlaridan foydalanish tavsiya etilmaydi. Lekin tuproqning mexanik tarkibidan kelib chiqqan holda mazkur holatni ilmiy yo‘l bilan hal qilish mumkin.

Bunga quydagicha erishish imkoniyati mavjud hudud sharoitiga bog‘liq holda tik yoki yotiq zovur sxemalarini qurish va qayta tiklash orqali zovurlar suvda erigan mineral tuzlarni va sizot suvlarining sathini pasaytiruvchi asosiy omillardan biridir, mexanik tarkibga bog‘liq holda minerallasgan sug‘orish suvlaridan foydalanish borasida N.To‘raxonov, I.Mallabayevlar tomonida ko‘plab ishlar amalga oshirilgan. Jumladan mexanik tarkibi yengil bo‘lgan tuproqlarda minerallasganlik darajasi 6 gr/l gacha bo‘lgan suvlardan foydalanish ekinlarga va tuproqlarning sho‘rlanishiga ta’sir ko‘rsatmaydi mazkur me’yor paxta hom ashyosi uchun ishlab chiqilganligini inobatga oladigan bo‘lsak, danakli mevalarni suvga bo‘lgan talabini qondirish uchun foydalanish ilmiy jihatdan mumkin hisoblanadi.

Danakli mevalarga ko‘plab kasalliklar xavf soladi bular jumlasiga quydagilarni kiritish mumkin: 1) Alternarioz va 2) Teshikchali dog‘lanish bu tur kasalliklarni tanlab olinishiga sabab keng tarqalganligi, keltiriladigan zarar miqdori yirikligidir. Keling endi bu kasalliklarning belgilari va xususiyatlari haqida ma’lumotlar beraman.

Teshikchali dog‘lanish (Klayastosporioz) daraxtning novda, kurtak, gul va gul tugunini, meva va shoxlarini zararlaydi xo‘sh bundan kelib chiqadiki biz yuqorida sanab o‘tgan zararlanuvchi organlar o‘simlik o‘sish siklini barcha fazalarini qamrab

olgan va butun vegetatsiya davomida zararlashi mumkin. Bu kasallik daraxt barglarida kuzatiladigan bo‘lsa quydagi belgilar namoyon bo‘ladi dastlab bargda diametri 3-5 mm bo‘lgan och qizil tusli dog‘ paydo bo‘ladi va 1-2 hafta muddat o‘tgach bu dog‘ teshiladi va qurib to‘kiladi. Bunday holat asosan daraxtlarning pastki qismlaridagi barglarida ko‘proq kuzatiladi. Mevalarda bu kasallik pishuv davrining boshida ya’ni o‘rikning g‘o‘ralik davridanoq zararlashga kirishadi. Bunda mevalarda och qizil tusli dog‘lar paydo bo‘lib keyinchalik kattalashib boradi, mevalarning shaklini buzadi va keyinchalik qorayib chirish kuzatiladi va to‘likilib ketadi. Agar meva to‘kilib ketmasa zararlangan holda novdada qolsa kattalashmaydi va mazasi buziladi.



**1-rasm. O‘rik mevasini teshikchali dog‘lanish kasalligi bilan zararlanishi.**



**2-rasm. Gilos o‘simligining teshikchali dog‘lanish kasalligi bilan zararlanishi.**

### **MANBALAR VA ADABIYOTLAR**

1. Mamatkulov, O. O. ., & Numanov, J. O. . (2021). Recycling of the Curve Planning in Gat Technology (Auto Cad) Program. Middle European Scientific Bulletin, 18, 418-423. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.18.908>
2. .X.Kimsanov, K.R.Xakimova, O.O.Mamatqulov. Tuproqlar unumdorligini oshirish va hossa xususiyatlari. Monografiya. Toshkent, 2022.
3. Abdukadirova M. A. The Role Of Builder And Building In The Development Of The Country Is Invaluable //The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research. – 2021. – T. 3. – №. 05. – C. 81-84.

4. Berdaliyeva Y. X. et al. Gis Dasturlari Yordamida Geografik Asos Qatlamlarini Joylashtirish Va Ularni Boshqarish //International Conferences On Learning And Teaching. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 312-314
5. Numanovich, A. I., & Abbosxonovich, M. A. (2020). The analysis of lands in security zones of high-voltage power lines (power line) on the example of the Fergana region. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 2, 25-30.
6. Yuldashev, G., & Marupov, A. A. (2019). Main ways to improve the efficiency of agricultural land use in the Fergana valley sample. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(8), 68-74.
7. Marupov, A. A., & Ahmedov, B. M. (2021). General Characteristics of Zones with Special Conditions of use of the Territory. Middle European Scientific Bulletin, 18, 446-451.
8. Abdukadirova M. A., qizi Mirzakarimova G. M. The use of Geo Information System in the Establishment of Land Balance //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 18. – С. 441-445.
9. Хакимова К. Р., Абдукадилова М. А., Абдухалилов Б. К. РАЗРАБОТКА ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ В КАРТОГРАФИЧЕСКОМ ОПИСАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ //Актуальная наука. – 2019. – №. 11. – С. 34-38.
10. Khakimova K. R., Ahmedov B. M., Qosimov M. Structure and content of the fergana valley ecological atlas //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 456-459.
11. Makhmud K., Khasan M. Horizontal Survey of Crane Paths //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 18. – С. 410-417.
12. Abduraufovich Q. O., Valiyevich M. X., Dilshodbeko‘g‘li H. E. Some issues of re-utilization of casing strings, unused water intake wells (for example, some countries in the south-western sahel) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 6. – С. 1568-1574.

13. Salyamova K D., Rumi D.F., Turdikulov Kh.Kh. Analysis of seismic stability of retaining earth structures with account of dissipative properties of soil. European science review 11–12 November – December. V 1 Vienna. 2018, P. 81-84.
14. Yangiev Asror, Salyamova Klara, Turdikulov Khusanboy and Fayziev Xomitxon. Dynamics of an earth dam with account for rheological properties of soil under dynamic effect // IOP Conf. Series: Materials Science and Engineering 869 (2020) 072005 IOP Publishing doi:10.1088/1757-899X/869/7/072005
15. KD Salyamova, XX Turdiqulov. Analysis of stability of ground dams under seismic loads // Scientific-technical journal – (2020) 24 (1), 59-63
16. o'gli Y.S.S., o'g'li A.P.A. KOSMIK MA'LUMOTLAR YORDAMIDA YER TUZISH LOYIHA ISHLARINI OLIB BORISH //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 25. – №. 5. – C. 23-25.



## O‘ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI, ISLOM BANKLARINING RIVOJLANISHI VA ISLOMIY SUG‘URTA ASOSLARI

**Abdurahimova Dilara Karimovna PhD**

**Muxitdinova Dilnozaxon Faxriddin qizi**

Toshkent moliya instituti

E-mail: [dilnozaxonmukhitdinova@gmail.com](mailto:dilnozaxonmukhitdinova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Jahon moliyasining kichik ulushiga qaramay, islomiy moliya tez sur‘atlar bilan o‘shib bormoqda va keyingi o‘shish uchun ulkan salohiyatga ega. Hozirda islom moliyasi bank, lizing, sukuk (qimmatli qog‘ozlar) va qimmatli qog‘ozlar bozorlari, investitsiya fondlari, sug‘urta (takaful) va mikromoliyani o‘z ichiga oladi. Maqolada, islom moliyasida islom banklarining hozirgi kundagi faoliyati, islomiy sug‘urta-takaful bo‘yicha olib borilayotga ishlar, O‘zbekiston islom moliyasini rivojlanishi yuzasida ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** islom moliyasi, sukuk, ribo, murobaha, takaful, islom banki, investitsiya fondlari, islomiy qimmatli qog‘ozlar.

## ISLAMIC FINANCE IN UZBEKISTAN, DEVELOPMENT OF ISLAMIC BANKS AND BASICS OF ISLAMIC INSURANCE

**Abstract.** Despite the small share of global finance, Islamic finance is growing rapidly and has tremendous potential for further growth. Currently, Islamic finance includes banking, leasing, sukuk (securities) and stock markets, investment funds, insurance (takaful) and microfinance. The article provides scientific proposals and practical recommendations on the current activities of Islamic banks in Islamic finance, the work on Islamic insurance and takaful, the development of Islamic finance in Uzbekistan.

**Key words:** Islamic finance, sukuk, ribo, murabaha, takaful, islamic banking, investment funds, islamic securities.

1960-yillarda Misrda islom bank tizimining paydo bo‘lishi olamshumul voqealik emas edi, ammo yarim asrdan ko‘proq vaqt davomida ushbu soha barqaror rivojlanib kelmoqda. So‘nggi yillarda Islom moliya tizimi tushunchasi ko‘plab mamlakatlar moliyachilarining so‘z boyligidan mustahkam o‘rin oldi. Darhaqiqat, turli mamlakatlarda, xattoki aksariyat aholisi islom diniga mansub bo‘lmagan davlatlarda ham, jumladan AQSH va Buyuk Britaniyada, ushbu moliyaviy institut an’anaviy bank xizmatlariga alternativ moliyalash tizimi sifatida barqaror rivojlanmoqda. Shuning uchun islom bankchiligini o‘rganish global iqtisodiyotda dolzarb mavzu hisoblanadi. An’anaviy bank tizimiga alternativ moliyalash shakllari mavjudligini bilish qiziqarli va foydalidir.

O‘zbekiston Respublikasi Islom taraqqiyot bankiga (ITB) 2003-yilda a‘zo bo‘lgan. Ushbu qisqa muddatli hamkorlik davomida ITB guruhining O‘zbekistondagi portfeli ko‘p jihatdan hukumat bilan faol hamkorlik tufayli jiddiy miqdorda o‘tdi. Bu esa O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyaviy dasturlari qator ustuvor milliy loyihalarining moliyalanishi ma‘qullanishida namoyon bo‘ldi. Ayni paytda ITBning O‘zbekistondagi portfeli Markaziy Osiyo hududida eng yirik (1,8 mlrd. dollardan ziyod) hisoblanadi.

Islom taraqqiyot banki guruhi tarkibiga bir qancha tashkilotlar kirib, shulardan Xususiy sektorni rivojlantirish islom korporatsiyasi (XSRIK) va Xalqaro islom savdo-moliya korporatsiyasi (XISMK) O‘zbekiston banklari bilan hamkorlik qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabrda 596-sonli qarori bilan O‘zbekiston XSRIKga a‘zo bo‘lgan va 2006-yildan boshlab mahalliy tijorat banklari va tadbirkorlar bilan hamkorlik qilib keladi. Xususan, Murobaxa (ustama haqi evaziga sotish) moliyalashtirish usuli orqali tijorat banklariga moliyalashtirish liniyalari ajratilgan. Ushbu liniyalardan O‘zbekistonda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, qayta ishlash va

iqtisodiyotning boshqa sohalarida ishlab kelayotgan korxonalar o‘z faoliyatlarini yana-da rivojlantirish uchun foydalanadilar.

Mazkur yo‘nalishda XSRIK shu kungacha 15 ta tijorat banklari va 2 ta lizing kompaniyasi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan va bugungi kungacha banklarga 285 million AQSH dollari miqdorida moliyalashtirish liniyalarini ajratish ma‘qullangan.

Bundan tashqari, XISMK tomonidan, tadbirkorlarga qisqa muddatli (1 yil mobaynida qaytariladigan) savdoni moliyalashtirish liniyalari bir nechta mahalliy banklar bilan hamkorlikda taqdim etilmoqda. Bunda ham Murobaxa moliyalashtirish usuli ishlatilib asosan xom ashyo va uskunalar sotib olish uchun mo‘ljallangan. XISMK tomonidan ma‘qullangan loyihalar qiymati 82 million AQSH dollarini tashkil etdi.

Bugungi kunda dunyo bo‘yicha Islom banklari daromadi yiliga 15-20 foiz, aktivlari esa 20 foizga oshmoqda.

Mamlakatimizda Islomiy moliyalashtirish ishlari 2004-yilda boshlangan bo‘lib, bu O‘zbekistonning Islom taraqqiyot banki (ITB) a‘zoligiga qo‘shilishi bilan bog‘liq. Bu yurtimiz iqtisodiyoti uchun yangi yo‘nalish bo‘lib, unga bugun biznes tarafdin ham, aholi tomonidan ham ehtiyoj mavjud. Mamlakatimiz aholisining 90 foizidan yuqori qismi Islom diniga e‘tiqod qilishi va e‘tiqodi tufayli 15-20 foizga yaqin aholi an‘anaviy kreditlash tizimidan foydalanmayotganini hisobga olsak, muqobil kreditlash tizimi orqali mazkur qatlam to‘liq qamrab olinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga hamda xalqimizga qilgan 2020-yil dekabr oyidagi Murojaatnomasida “endigi vazifa – chuqur tarkibiy islohotlar orqali uzoq muddatli barqaror o‘shning poydevorini yaratishdan iborat” ekani bejiz ta‘kidlanmadi. Iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish uchun moliyaviy-investitsion resurslarni jalb etish usullaridan biri islomiy banking vositalari, islomiy kapital bozori hamda islomiy nobank va mikromoliyaviy muassasalardan foydalanish hisoblanadi. Shuningdek, moliyaviy xizmatlar, kapital va sug‘urta bozorlarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Quvonarlisi shundaki, 2021-yil O‘zbekiston hukumatining islomiy moliyalashtirish uchun mustahkam poydevor yaratish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yO‘lida real qadamlar qO‘yishdagi jiddiyligini namoyon etdi. 2022-yil qonunchilikni rivojlantirish va islom bank ishi, mikromoliya, lizing, takaful va sukuk uchun qulay muhit yaratish yili bo‘lishi kutilmoqda .

Xususan, 2021-yilda O‘zbekiston hukumati O‘zbekiston Respublikasida islom bank ishi bO‘yicha me‘yoriy-huquqiy bazani ishlab chiqish uchun ITB tomonidan tanlangan xalqaro maslahatchilardan texnik va moliyaviy ko‘mak oldi.

Shuningdek, ITB ko‘magida Moliya vazirligi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi bilan hamkorlikda sukukning chiqarilishi va muomalasi bo‘yicha huquqiy va me‘yoriy asoslar ustida ishlamoqda .

Bundan tashqari, 2021-yil mart oyida Apex Insurance sug‘urta kompaniyasi O‘zining islomiy sug‘urta oynasini ochdi, u orqali amaldagi qonunchilik doirasida shariatga muvofiqligi ma‘qullangan “ Takaful ” mahsulotini taklif etadi. 2021-yilning yana bir ramziy voqeasi 2021-yil may oyida O‘zbekiston Islomiy moliya va takaful assotsiatsiyasining tashkil etilishi bo‘ldi . Assotsiatsiya nodavlat va notijorat tashkilot bo‘lib, uning mandati islom moliya sanoatini rivojlantirish maqsadida barcha islomiy moliya manfaatdor tomonlari bilan ishlash va ularni birlashtirishdan iborat.

Takaful - bu islomiy sug‘urtaning bir turi bo‘lib, unda a'zolar bir-birlarini yO‘qotish yoki buzilishdan kafolatlash uchun pul mablag‘lari tizimiga pul qO‘shadilar. Takaful brendi ostida sug‘urta qilish shariat yoki islom diniy qonunchiligiga asoslangan bo‘lib, unda shaxslar qanday qilib hamkorlik qilishlari va bir-birlarini himoya qilishlari kerakligini tushuntiradi. Takaful siyosati sog‘liqni saqlash, hayot va umumiy sug‘urta ehtiyojlarini qamrab oladi. Takaful sug‘urta kompaniyalari tijorat sug‘urtasi sohasidagi alternativa sifatida taqdim etildi, ular riba (foizlar) bo‘yicha islomiy cheklovlarga qarshi, al-maysir (qimor) va al-g‘arar (noaniqlik) tamoyillari - barchasi shariatda qonuniy emas. Takaful kelishuvidagi barcha tomonlar yoki sug‘urta qildiruvchilar bir-birlariga kafolat berishga va badal tO‘lash O‘rniga pul fondiga yoki O‘zaro fondga mablag qO‘shishga rozi bo‘lishadi.



Yig‘ilgan badallar tO‘plami takaful fondini yaratadi. Har bir ishtirokchining hissasi talab qilinadigan qamrov turiga va shaxsiy sharoitlariga asoslanadi. Takaful shartnomasi odatdagi sug‘urta polisi kabi tavakkalning mohiyatini va qoplanish muddatini belgilaydi.

Global takaful sug‘urta bozori 2021-yilda 27,6 milliard AQSH dollari qiymatiga yetdi. IMARC Group 2022-2027 yillar davomida CAGR 10,5 foizni tashkil etib, 2027 yilga kelib bozor 49,8 milliard dollarga yetishini kutmoqda.

18. Madaminovich A. B. The use of gis technology to create electronic environmental maps //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 5. – C. 438-440.
19. Makhmud K., Khasan M. Horizontal Survey of Crane Paths //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 18. – C. 410-417.
20. Abduraufovich Q. O., Valiyevich M. X., Dilshodbeko‘g‘li H. E. Some issues of re-utilization of casing strings, unused water intake wells (for example, some countries in the south-western sahel) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – T. 10. – №. 6. – C. 1568-1574.
21. Kayumov O. A., Diallo Y. K., Yefremov A. N. SOME ISSUES OF RE-UTILIZATION OF CASING STRINGS, UNUSED WATER WELLS (ON THE EXAMPLE OF SOME COUNTRIES OF THE SOUTH-WESTERN SAHEL) //Innovative Technologica: Methodical Research Journal. – 2021. – T. 2. – №. 12. – C. 138-146.



## AGRESSIV MUHIT VA IQLIM TA’SIRIDAGI DEVORLARNI NAMLIK HOLATI VA UZOQQA CHIDAMLILIGI

**Turaboyev Olamjon Xayridinovich,**

**G‘ulomov Qurbonali Ibrohim o‘g‘li**

Farg‘ona politexnika instituti magistrлари

e-mail: [eclips-0531@mail.ru](mailto:eclips-0531@mail.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada agressiv muhit, iqlimni namlikka ta’siri va devor konstruksiyalarining namlik holati va chidamliligiga ta’siri o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** iqlim, agressiv muhit, devor, namlik, kondensatsiya, sorbssiya.

**Annotation:** The article presents a study of protective devices in seismically active areas based on world experience.

**Key words:** climate, aggressive environment, wall, moisture, condensation, sorbs.

Hozirgi kunda Respublikamizda qurilayotgan binolardagi agressiv muhit va iqlim ta’siridagi devorlarni namlik holati va uzoqqa chidamliligini oshirish usullarini takomillashtirish orqali yangi amaliy tavsiyanomalar ishlab chiqish rejalashtirilgan. Ushbu masalalarning natijalari amaliyotga tadbiiq etilishi natijasida agressiv muhit va iqlim ta’siridagi devorlarni namlik holati va uzoqqa chidamliligini oshirishga erishish mumkin [1,2,3,4,5,6,7,8,9,10,11] .

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 noyabrdagi “Qurilish sohasini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5577-sonli Farmoni, 2019 yil 23 maydagi “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirish to‘g‘risida”gi PQ-4335-sonli qarorlariga javoban agressiv muhit va iqlimni devor konstruksiyalarga ta’siri masalasi dolzarb hisoblanadi.

Butun dunyoda agressiv muhit va iqlim ta'siridagi devorlarni namlik holati va uzoqqa chidamliligini oshirish va ularni kuchaytirish usullari allaqachon professional quruvchilar orasida ma'lum miqdorda o'rganilgan. Ammo, agressiv muhit va iqlim ta'siridagi devorlarni namlik holati va uzoqqa chidamliligini oshirish va ularni kuchaytirish usullarini doimiy ravishda o'rganish talab etiladigan qurilish konstruksiyalaridan deb hisoblanadi. (1-rasm).



1- rasm. Agressiv muhit namlik, harorat ta'sirida devorni nurash holati

Agressiv muhit va iqlim ta'siridagi devorlarni namlik holati va uzoqqa chidamliligini oshirish haqida kerakli bo'lgan nazariy ma'lumot yetarli emas. Ushbu bo'shliqni to'ldirish uchun biz qurilishda eng zarur parametrlar uchun agressiv muhit ta'siridagi devorlarni namlik holati va uzoqqa chidamliligini qiyoslash kerak bo'ladi. Zamonaviy ko'p qavatli binolarning tashqi devorlarining chidamliligi binolarning gips va g'isht qoplamali qatlamlarini yo'q qilish sabablari tahlil qilinadi, yangi binolarning tashqi devorlarini loyihalash uchun chidamlilik va issiqlikdan himoya qilish xususiyatlarini oshirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish kerak bo'ladi. Germaniyada 1959 yildan beri foydalanilgan ko'p qatlamli issiqlik izolyatsiyasi jabha tizimi (WDV-Systeme) Evropada 90-yillarning o'rtalarida, 1997 yildan esa Rossiyada keng tarqaldi. Xozirda Respublikamizda keng qo'llanilmoqda. U beton yoki g'ishtli konstruktiv qismdan iborat bo'lib, unga issiqlik izolyatsiyasi qatlami, mustahkamlangan shisha tolali to'r, kvarts qumini o'z ichiga olgan akril astar va dekorativ gips qatlami yopishtiriladi va dublonlar bilan o'rnatiladi. Bunday devor konstruksiyalarini o'rnatishning talab qilinadigan sifatiga bir nechta qurilish mutaxassisliklari bo'lgan ishchilarni jalb qilish sharti bilan erishiladi. Xarajat va ko'p bosqichli nuqtai nazardan, umumiy qalinligi 420-520 mm bo'lgan bunday fasad



tizimining 1 m<sup>2</sup> umumiy qalinligi 640 mm bo‘lgan qoplamali g‘isht devoridan, ayniqsa gazbeton bloklardan yasalgan devordan oshib ketadi. Qarama-qarshi g‘isht ishlari o‘rnatilgan temir-beton pollarga biriktirilgan metall burchaklar g‘isht tomonidan so‘rilgan kondensatsiya hosil bo‘lishiga yordam beradi va muzlatilgan holda, qoplama qatlamini yo‘q qiladi. Harorat, namlik va havo sharoitlari bo‘yicha issiqlik izolyatsiyasi darajasi yuqori bo‘lgan tashqi to‘siqlar ilgari ishlatilgan qattiq devor tuzilmalaridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu muqarrar ravishda hatto yaxshi qurilgan binolarning qoplama qatlamini yo‘q qilishni tezlashtiradi. Tashqi qattiq g‘isht devorlarida ish sharoitida bir xil sovuqqa chidamlilik darajasiga ega bo‘lgan ichi bo‘sh keramik materiallarning chidamliligi sezilarli darajada farq qilishi mumkin. Xizmat muddatining farqiga g‘isht va toshlardagi bo‘shliqlarning joylashishi, shuningdek, devorning qoplamali materiallarning joylashishi ta‘sir qiladi. Bo‘shliqlarning irratsional joylashishi devorning qoplama qatlamida issiqlikdan himoya qiluvchi xususiyatlarning pasayishi va bug o‘tkazuvchanligini oshiradi. Ikkinchisi tashqi keramik devorlarning ichki yuzasida namlikning kontsentratsiyasiga hissa qo‘shadi, bu ularning botqoqlanishiga va erta yo‘q qilinishiga olib keladi. Shamollatilgan havo bo‘shlig‘i bo‘lgan tashqi devorlarning qoplamali qatlamida maxsus ish sharoitlari tashqi havo bilan ikki tomonlama aloqa natijasida yaratiladi, bu esa bulutli ob-havoda va yomg‘ir paytida g‘isht va g‘ishtning namligining oshishiga olib keladi. Qoplama qatlamidagi keramik g‘ishtlarni sorbsion namlash jarayonini tezlashtirishga toshning bo‘g‘inlarida va g‘ishtlarning bo‘shliqlarida joylashgan namroq tsement-qumli toshli ohak yordam beradi. Natijada, qarama-qarshi g‘ishtning namligi maksimal suv assimilyatsiyasiga yaqin qiymatga yetishi mumkin. Qarama-qarshi g‘isht har ikki tomonning sovuq va erishi bilan yo‘q qilinadi. Shuning uchun, havo bo‘shlig‘i mavjud bo‘lganda, devorning issiqlik izolatsiyasi darajasidan qat‘iynazar, qoplamali qatlam F100 sovuqqa chidamlilik darajasiga ega bo‘lgan qattiq g‘ishtlardan yasalgan bo‘lishi tavsiya etiladi. 40-55 yil davomida ekspluatatsiya qilingan ko‘p qavatli binolarning issiqlik izolyatsion fasad tizimlarining gips qoplamali qatlamlarini yo‘q qilish sabablarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, ular texnologik reglamentlar va texnik

shartlar talablarini buzadigan past malakali ishchilarni jalb qilish natijasida yuzaga keladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Набиев М. Влажностный режим и долговечность стен промышленных зданий и присутствии водорастворимых солей. Автореферат. Москва 1979
2. В.А.Объедков, М.Набиев. Влияние гидрофобизирующих добавок на свойства керамзитобетона в агрессивной среде. ЦИНИС. Реферативная информация, серия УП “Строительные материалы и изделия”, вып. 12,21,1976.
3. М.Набиев. Исследование долговечности панельных стен в присутствии хлористого натрия. Сборник трудов № 168, функциональные и технические проблемы архитектуры. МИСИ им. В.В. Куйбышева, 1977.
4. Makhkamov Y. M., Mirzababayeva S. M. Deformation of reinforcement and concrete of bended concrete structures with fiberglass reinforcement //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 9. – С. 529-537.
5. Мирзабаева С. М. Определение Величины Усушки Древесины Хвойных Пород Исползуемых В Условиях Сухого Жаркого Климата //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 40-47.
6. Мирзажонович Қ. Ғ., Мирзабабаева С. М. Биноларни ўрвчи конструкцияларини тузлар таъсиридаги сорбцион хусусиятини яхшилаш //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – С. 86.
7. Mirzaakbarovna M. S. Wood Drying In Construction //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 229-233.
8. Mamazonovich M. Y., Abdugofurovich U. S., Mirzaakbarovna M. S. The Development of Deformation in Concrete and Reinforcement in Concrete Beams Reinforced with Fiberglass Reinforcement //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 18. – С. 384-391.
9. Мирзабабаева С. М., Мирзаахмедова Ў. А. ДРЕВЕСИНЫ И СТРОИТЕЛЬСТВО //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – С. 96.

10. Мирзабабаева С. М., Мирзажонович Қ. Ғ. БЕТОН ВА ТЕМИРБЕТОН КОНСТРУКЦИЯЛАР БУЗИЛИШИНИНГ ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – С. 91.

11. Mirzaakbarovna M. S. Wood Drying In Construction //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 229-233.



## OQOVA SUVLARNI IFLOSLANISHINI OLDINI OLISH VA SUV RESURSLARINI TIKLASH YO‘LLARI

**Usmonova Nodiraxon Akramovna PhD**

Farg‘ona politexnika instituti,

**Abdug‘aniyeva Gulchexraxon Soliyevna,**

Farg‘ona politexnika instituti magistranti

Email: [nurnoza1@gmail.com](mailto:nurnoza1@gmail.com)

**Annotatsiya:** Sanoat rivojlanishining o‘sishi bilan ifloslantiruvchi chiqindi suvlar hajmi muhit ortadi, bu esa suv tizimlarining ekologik muvozanatiga olib keladi va inson tanasiga zararli ta‘sir. Maqolada usullar va usullar tasvirlangan oqova suvlarni tozalash va yanada zamonaviy tozalash inshootlaridan foydalanish

**Kalit so‘zlar:** Oqova suvlar, tozalash, usullar, oqova suvlar hajmi, atrof-muhit, tozalash inshootlari, sanoat, suv tizimi.

## WAYS TO PREVENT POLLUTION AND RESTORE WATER RESOURCES

**Abstract:** With the growth of industrial development, the volume of waste water that pollutes the environment increases, which leads to an ecological balance of water systems and has a detrimental effect on the human body. The article describes the methods and methods of wastewater treatment and the use of more modern treatment facilities.

**Key words:** Wastewater, Treatment, Methods, Volume Of Wastewater, Human Body, Environment, Treatment Facilities, Industry, Water System.

Respublikamizda jamiyatning barqaror rivojlanishi, aholining yashash ko‘rsatgichlari, hududning ekologik holati muxandislik kommunikatsiyalarining ishlash samarasi bilan bilan chambarchas bog‘liq. Hozirgi paytda suv havzalari

ifloslanishining oldini olishga juda katta ahamiyat berilmoqda. Sanoat korxonalaridan chiqadigan oqova suvlar inshootlarda muayyan tozalanib, ular yana suv havzalariga oqiziladi. Shu bilan birga suv havzalarini maʼlum darajada ifloslantiradi. Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan suv havzalarining sanitariya holatini yaxshilashga qaratilgan qator amaliy chora-tadbirlar koʻrilmoqda. Jumladan, mamlakatimiz hududiy infratuzilmasining eng muhim tarkibiy qismi xisoblangan, insonlarning munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantiruvchi, uy-joylar va aholi punktlarining har jihatdan shinam va qulay boʻlishini taʼminlaydigan kommunal soha va uning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda ichimlik suvi taʼminoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi toʻgʻrisida”gi 2017 yil 20 apreldagi qarori qabul qilingan. Kommunal sohaning taraqqiyot darajasi va faoliyat samaradorligi aholining shunga mos hayot sifatini shakllantiradi, turmush darajasi va hayot tarzini aks ettiradi, iqtisodiy salohiyatni yanada yuksaltirish omillaridan biri boʻlib xizmat qiladi. Bularning barchasi oʻzaro bogʻliq boʻlib, sifatli xizmat sogʻlom jamiyat garovidir.

Suvni ifloslovchi manbalar orasida eng muhim oʻrinni sanoat va maishiy kommunal xoʻjalikdan chiqqan oqova suvlar egallaydi. Sanoat chiqindi suvlarida tirik organizm uchun xavfli boʻlgan har xil kislotalar, fenollar, vodorod sulfati, ammiak, mis, rux, simob, mishyak, xrom va boshqa zaharli moddalar yogʻ, neft mahsulotlari mavjud boʻlib, ular sanoat korxonalarida ishlatilgan oqova suvlar bilan birga daryo, koʻl va suv omborlariga qoʻshilib ularni ifloslaydi. Soʻngi yillarda jahonda toʻqimachilik sanoati korxonalarining oqava suvlarini tozalash sohasida bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Ushbu ishlar bizga eng samarali tozalash usullarini bayon qilishga imkon beradi. Koʻpgina hollarda mualliflar oqava suvlarni tozalashning fizik-kimyoviy usullaridan foydalanishning maqsadga muvofiq emasligini taʼkidlashadi. Reagentlarning katta sarflanishi bilan asosan suyuqlikni aniqlashtirishga erishiladi, erigan organik birikmalar miqdori yetarli darajada kamayadi va suyuqlik chirib qoladi.

Shuning uchun suv resurslarini ifloslanishdan saqlashda va uni qayta tiklashda quyidagi tadbir-choralar amalga oshirilishi kerak:

- suv resurslarining sifati pasayib ketishdan saqlash, iflos oqava suvlar miqdorini kamaytirishga erishish. Sanoatda suvdan foydalanishning aylanma sistemasiga o'tish zarur. Shunda chuchuk suv tejab qolinadi, ifloslangan suvning suv havzalariga oqizilishiga chek qo'yiladi, natijada daryo, ko'l, suv omborlari, kanal suvlari toza saqlanadi;

- iflos chiqindi suvlar miqdorini kamaytirib, suv resurslarining toza saqlashda rejali ravishda har bir korxonada qoshida chiqindi suvlarni tozalovchi inshootlar qurish va tozalash usullarini takomillashtirib borish lozim;

- suv resurslarini toza saqlashda sanoat korxonalarida sovitish ishlarini suv yordamida emas, havo yordamida amalga oshirish usullarini qo'llash zarur. Bunda chuchuk suvning 60-70 foizi tejaladi;

- suv ist'emol qilishning ilg'or fan-texnika yutuqlariga asoslangan me'yorlarini ishlab chiqish;

- suv resurslarini toza saqlab, ularni muhofaza qilishda chiqindi iflos suvdan sug'orishda foydalanishga o'tish zarur;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shahar va korxonalarining ishlab chiqarish oqova suvlarining tarkibi hamda turlari o'rganib chiqiladi, ishlab chiqarish oqova suvlarining tozalash usullari tahlil qilinadi va tarkibida muallaq moddalar bo'lgan oqova suvlarni zamonaviy inshootlarda tozalash tavsiya qilinadi. Suv resurslarini ifloslanishdan saqlashda va uni qayta tiklash bo'yicha amaliy tavsiyalar taklif qilingan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

6. Abduganiev Nazirjon Nabijonovich, Mirzaeva Gulchexra Sotvoldievna, Abduganiev Numonjon Nabijonovich Puti intensivnosti rabot aeratenkov s pnevmaticheskoy aeratsiey // Universum: texnicheskie nauki. 2019. №12-1 (69). (data obraopeniya: 23.05.2022). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/puti-intensivnosti-raboty-aeratenkov-s-pnevmaticheskoy-aeratsiey>

7. Mirzaeva Gulchexra Sotivoldievna, Jalilov Lutfiyor Sotvoldievich, Abduganiev Nazirjon Nabijonovich, Dadakuziev Muzaffar Raxnomoyevich Problema ekologii pri utilizatsii stroitelnix materialov na primere intensivifikatsii stroitelstva v Uzbekistane // Universum: texnicheskie nauki. 2019. №12-1 (69). (data obrao‘eniya: 23.05.2022). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problema-ekologii-pri-utilizatsii-stroitelnih-materialov-na-primere-intensifikatsii-stroitelstva-v-uzbekistane>
8. Sotivoldievna, M. G., & Nabizhonovich, A. N. (2021). In'act of industrial wastewater on the environment. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 869-873.
9. Akramovna, U. N., & Ismoilovich, M. R. (2021). Flow Around a Plate at Nonzero Cavitation Numbers. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(12), 142-146.
10. Akramovna, U. N., Ahmadjonovich, U. A., & Ishankulovich, K. S. FLOW PRESSURE ON THE ROTATION OF THE PRESSURE WATER DISCHARGE OF THE KARKIDON RESERVOIR AND VELOCITY DISTRIBUTION ALONG SECTION. Chief Editor.
11. Mamatisaev, G. I., & Abdullaeva, I. (2021). Effective Solutions of Water Resources. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF THEORETICAL & APPLIED SCIENCES, 2(12), 253-259.
12. Usmonova, N. A. (2021). Structural Characteristics of the Cavern at a Fine Bubbled Stage of Cavitation. Middle European Scientific Bulletin, 18, 95-101.
13. Ishankulovich, K. S., & Akramovna, U. N. (2021). Simulation of the Lift of Two Sequential Gate Valves of the Karkidon Reservoir. Middle European Scientific Bulletin, 18, 148-156.
14. Jovliev, O. T., Khujakulova, M. K., Usmonova, N. A., & O‘tbosarov, S. R. (2021). Modeling the Theory of Liquid Motion Variable on the Way Flow. Middle European Scientific Bulletin, 18, 455-461.

## VOLEYBOLCHI TALABALARNI DARS MASHG‘ULOTLARIGA FAOL ISHTIROKINI TAMINLASHDA O‘YIN USULINING AHAMIYATI

**Abdullayev Botir Rahimjonovich,**

**Yuldashev Rashid Yigitaliyevich**

Namangan davlat universiteti

Jismoniy madaniyat fakulteti o‘qituvchilari

e-mail: [abdullayevbotir@gmail.com](mailto:abdullayevbotir@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada voleybolchi talabalarni dars mashg‘ulotlariga faol ishtirokini taminlashda o‘yin usulining ahamiyati haqida nazariy ma’lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Sport tayyorgarligi, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, chaqqonlik, tezkorlik.

## ЗНАЧЕНИЕ ИГРОВОГО МЕТОДА В ОБЕСПЕЧЕНИИ АКТИВНОГО УЧАСТИЯ ВОЛЕЙБОЛИСТОВ НА ЗАНЯТИЯХ

**Аннотация:** В данной статье приведены теоретические сведения и практические рекомендации о значении игрового метода в обеспечении активного участия волейбольных студентов в занятиях.

**Ключевые слова:** Спортивная подготовка, физическая подготовка, физические качества, ловкость, быстрота.

## THE IMPORTANCE OF THE GAME METHOD IN ENSURING THE ACTIVE PARTICIPATION OF VOLLEYBALL STUDENTS IN THE LESSONS




**Abstract:** This article provides theoretical information and practical recommendations on the importance of the game method in ensuring the active participation of volleyball students in the lessons.

**Key words:** Sports training, physical training, physical qualities, agility, speed.

**Ishning dolzarbligi.** Hozirda barcha sport turlarida hujum va himoya taktik tayyorgarligi alohida ahamiyat ega hisoblanadi. Bunga sabab mashg‘ulotlarda o‘yinning texnik usullari va uni o‘zlashtirish, jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi yuqori bo‘lishiga qaramasdan sportda yaxshi natija ko‘rsatish uchun sportchilarning taktik tayyorgarlikga ega bo‘lishi tabab qilinadi. Jismoniy tayyorgarlikning o‘rni, ayniqsa, musobaqalar bir necha kun o‘tkazilsa va musobaqa murosasiz davom etadigan bo‘lsa, hamda taktik tayyorgarlik yetarli bo‘lmasa, sportchilar hujum va himoya texnikasini kutilgan darajada bajara olmasligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Voleybolchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish ularning natijalarini yaxshilash, hujum va himoya taktikasini rivojlantirishda “Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari” tarkibiga kiruvchi “Musobaqa usuli” dan foydalanish eng qulay vosita bo‘lib, hizmat qilishini quydagi malumotlarda bayon etiladi.

Sport mashg‘ulotlari jarayonida sportchilarni tayyorlashda ko‘pgina o‘rgatish usullaridan foydalaniladi. Albatta har bir usulni o‘ziga xos jihatli mavjud. Bizga tanish bo‘lgan usullardan biri musobaqa usuli hisoblanadi. Ushbu usuldan sport mashg‘ulotlarda ma’lum bir o‘yin yoki harakat texnikasini o‘rgatishda foydalaniladi. Musobaqa usulining o‘ziga xosligi shundaki u orqali o‘yin texnikasini Voleybolchilar maksimal nomoyon etishga erishiladilar. Buning asosiy sababi o‘zaro raqobatlashuv hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari haqida so‘z yuritilganda albatta quydagi usullarni yodga olamiz. Ular quyda 1-chizmada keltirilgan. Musobaqa usuli asosan mashg‘ulotlarda yangi o‘yin texnikasini o‘zlashtirilgandan so‘ng qo‘llaniladi natijada voleybolchilari shu harakatlarni o‘zaro jamoalar o‘rtasida kichik musobaqa tashkillash orqali yanada mustaxkamlanadi. Bu musobaqa usulining o‘ziga xosligini to‘la yoritishga kamlik qiladi va uning yana bir



### **Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari.**

eng kerakli jihati uni mashg‘ulotlarda faqatgina o‘yin texnikasiga oid harakatlarni tarbiyalashgina bo‘lmay, u orqali voleybolchilar hujum va himoya taktikasi rivojlantirish uchun asosiy usul hisoblanadi.

Ushu usulda mashg‘ulotni tashkillash va o‘tkazishni qanchalik kerkligini va taktik harakatlarni rivojlanishi haqida so‘z yuritayotganda biz aslida o‘yin taktikasi o‘zini nima uni vazifasi haqida qisqacha malumot keltirsak. Taktika ikki ko‘rinishda amalga o‘shirilib, ular a) hujum taktikasi, b) himoya taktikasiga bo‘linadi. Taktika – malum bir texnik harakatlar to‘plamini mahorat bilan qo‘llashni oldinda va musobaqa jarayonida murabbiy hamda jammo tomonidan rejalashtish tushiniladi. Obrazli qilib aytganda, taktika bu – generallar o‘yinidir.

Chunki, mashg‘ulot va musobaqa jarayonida sportchilarning o‘yin faoliyati murabbiy tamonidan boshqariladi, barcha kerakli qarorlar qabul qilinadi. Ushbu usul yordamida mashg‘ulot tashkil etilsa, uning tub negizida o‘zaro musobaqalashuv o‘rin oladi va bu taktik tayyorgarlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun keng yo‘l ochib beradi.

**Ishning maqsadi:** Voleybolchilarning hujum va himoyadagi taktik harakatlarini rivojlantirishda musobaqa usulidan foydalanish bilan ushbu harakatlarni tez o‘zlashtirishga imkon berishini ilmiy asoslashdir.

**Ishning vazifasi:** 1.Voleybolchilarni mashg‘ulot jarayonida rejalashtirilgan taktik harakatlarni musobaqalarda qo‘llash hamda kamchiliklarni bartaraf etish .

2. Voleybolchilarni hujum va himoyadagi taktik tayyorgarlik jarayonini optimallashtirishga doir ilmiy-uslubiy adabiyotlarni va musobaqa jarayonini o‘rganish hamda tahlil qilish;

Voleybolchilarning mashg‘ulot jarayonidaga mos bo‘lgan usulni tanlash va unga hujum va himoyadagi taktik harakatlarni joylashtirish, bu jarayonga biz Voleybolchilar tomomidan o‘yinda qo‘llanilishi kerak bo‘lgan hujum yoki himoya taktikalarni qay darjada o‘zlashtirilganligini bevosita nazortaga olish imkoni tug‘iladi hamda ulardan qay biri yuqori darajada bajarilyotgani yoki qaysidir taktik harakatni bajarishda voleybolchilar muammoga uchrayotganligini ham aniqlab olamiz. Odatda o‘yin usuli yordamida shug‘ullanuvchilarni faoliyatga ijodiy yondoshuvni shakllantiriladi ammo, musobaqa usuli esa sportchilarni texnik va taktik harakatlarni maksimal darajada namoyon qilishga majbur qilib qo‘yadi. Bunga asosiy sabab bu har bir mashg‘ulotda musobaqalashuv, o‘zaro raqobat va g‘oliblikka intilish borligi hisoblanadi. Quyida voleybolchilar taktik tayyorgarlini rivojlantirishda muhim sanalgan hujum va himoya taktik usullarini 2- jadvalda keltirilgan. Mazkur usul voleybolchilar mashg‘ulotlarini tashkil etishda turli yoshdagi sportchilar uchun samara berishi ham uning qay darajada optimal ekanligini ko‘rsatadi.

**Xulosa:** Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish hamda amaliyotda voleybolchilarning tayyorgarligi jarayonini kuzatish natijasida olib borilayotgan mashg‘ulotlarda aynan musobaqa faoliyatiga xos bo‘lgan taktik harakatlarini rivojlantirishga yetarli darajada e‘tibor berilmasligi hamda tayyorgarlik davrining bosqichlarida mana shunday harakatlarga oid metodik jihatdan yondoshuvning yetishmasligi yosh sportchilarda hujum va himoyadagi taktik harakatlarni rivojlantirishni samarali tashkil etish imkonini bermay kelayotganligi ma’lum bo‘ldi.

Voleybol mashg‘ulotlarida sportchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasi shakllangandan so‘ng, Voleybolchilarning mashg‘ulot jarayonlarini musobaqa usuli orqali tashkil etilishi sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishini hisobga olgan holda nazariy jihatdan musobaqa oldi tayyorgarlik davrida voleybolchilarning hujum va himoyadagi taktik tayyorgarligini amalga oshirishda yuqorida tavsiya etilgan ro‘yxatdagi taktik

usullarni musobqa usulidagi mashg‘ulotlarda bajarilishi taktik harakatlarni o‘zlashtirish, mustaxkamlash va takomillashtirish jarayonlari tez va samarali hal etiladi.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.SH.Pavlov,F.Abduraximov,J.Akbarov. Voleybol nazaryasi va uslubiyoti O‘zDJTI nashiryot-madbuot bo‘limi, 2005 –yil. 190.b.
- 2.A. Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi, Farg‘ona -2016 372, b.
- 3.R.S.Salomov. Jismoniy tarbiya nazaryasi va uslubiyati, Toshkent-2014 296 b.
- 4.П.Л.Матвеев .Теория и методика физической культурк. Учебник для институтов. физ. культурк. М. ФиС, 1991 г.
- 5.Б.А.Ашмарина.Теория и методика физического воспитания. Уч.пос. Под редакцией. Москва, «Просвищение», 1978 г.



## AMARANT O‘SIMLIGINI ZARARKUNANDALAR BILAN ZARARLANISHI

**Saidganiyeva Shahodatxon Talatbek qizi**

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada amarant o‘simligini turli zararkunandalar bilan zararlanishi va lavlagi shirasi bilan zararlanishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar :** Amarant, entomofauna, lavlagi shirasi, o‘simlik barglari, qarshi kurash.

**Abstract:** This article providec information on how to treat amaranth plants with damage pests and beet aphid

**Keywords:** Amaranth, entomofauna, beet aphid, plant leaves, measure.

Amarant o‘simligi amarantdoshlar oilasiga kiruvchi o‘simlik bo‘lib, xalq tilida biz ushbu o‘simlikni gultojixo‘roz deb ataymiz. Ushbu o‘simlikning kelib chiqish vatani Janubiy Amerika bo‘lib, uni bu yerda 8000 yildan beri urug‘i uchun o‘stiriladi. Ikkilamchi vatani esa Xitoy xamda Xindiston xisoblanadi. Ushbu o‘simlikni yetishtirishga oid tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘simlikni yetishtirish fermerlar uchun yuqori daromad manbai bo‘lishidan tashqari, chorvachilik, parrandachilik, oziq-ovqat, farmatsevtika va kosmetika sanoatida xam keng miqyosda foydalanish mumkinligi ko‘rsatdi. Barcha qishloq xo‘jaligi o‘simliklar singari amarant o‘simligi ham turli zararkunanda va hashoratlar bilan zararlanadi. O‘tgan yilgi ilmiy tadqiqotlarimiz davomida amarant o‘simligiga chirildoqlar, chigirtkalar, lavlagi shirasi, lavlagi biti va lavlagi uzunburuni bilan zararlangani aniqladik.

Amarant o‘simligini mart oyidan to iyun oyigacha yetishtirish davomida ushbu o‘simlikda entomofaunasini ular orasidan zararli va foydali turlari tarqalganligiga guvoh bo‘ldik. Dastlab amarant o‘simligini ekkan davrimizdan to 3-4 chinbarg chiqargungacha bo‘lagan davrda 1 m<sup>2</sup> joyda 5-6 ta *Pyrrhocoris apterus* qandalasini

uchratdik. O‘simligimiz bo‘yi 10-15 sm bo‘lgandan so‘ng ushbu hashoratlarni deyarli tajriba maydonlarida uchratmadik. Amarant o‘simligini 3-4 chinbarg chiqarishi bilan esa kemiruvchi zararkunandalar bilan zararlanganiga guvoh bo‘ldik. Tajriba maydonimizda chirildoqlar va lavlagi uzunburunini uchratdik va bu zararkunandalar amarant o‘simligiga jiddiy zarar keltirayotganligini kuzatdik. May oyidan boshlab esa amarant o‘simligi lavlagi shirasi bilan zararlanishi qayd etildi

Lavlagi shira amarantga 8-10 ta juft barg hosil bo‘lganda zararlashni boshlaydi. Bu, qoida tariqasida, issiq mintaqalarda, shuningdek issiq va quruq mavsumda sodir bo‘ladi.

Hasharotlar o‘simlik barglariga o‘suv nuqtasi va novdalar poyasiga zarar yetkazadi. Amarantning ko‘proq yem -xashak va donli navlari zarar ko‘radi. Aphid koloniyalari asosiy yoki lateral kurtaklarning yuqori qismida to‘planadi, ular zararkunandalarning ko‘pligi bilan deformatsiyalanadi va quriydi. Zararlangan o‘simliklarning urug ' hosildorligi pasayadi, yo‘qotishlar 35%ni tashkil qiladi. Shira yem -xashak navlarida ko‘payganda, hosil yo‘qotilishi 55% ga etadi.

Shira barcha turlari amarantda xuddi shunday harakat qiladi. Ular barg va poyadan o‘simlik shirasini so‘rib oladi, buning natijasida barglar markaziy tomir bo‘ylab o‘simlik shirasini so‘rishi natijasida o‘simlik poyalari zaiflashadi, mustahkamligi va elastikligini yo‘qoladi va quriydi.

Shira ommaviy ko‘payishiga may va iyun oylarida, erta va namli bahor yuz beradi. Shira barcha navlari sovuqni yoqtirmaydi, shuning uchun kuzgi kam uchraydi. Sovuq davrda ekilgan ertangi amarant navlariga shiralalar bilan kamroq zararlanadi. Amarantdagi shiralarga qarshi kurashishda



A

B



S

D

**1-rasm. Amarant o‘simligi. A-B-Amarant o‘simligining O‘zbekiston M navini lavlagi shirasi bilan zararlangan barglari, S-D - Amarant o‘simliging Andijon navini lavlagi shirasi bilan zararlangan bargi va o‘suv nuqtasi.**

Shira uchun erta kurash choralari zararkunandalarning ko‘payish joyi bo‘lib xizmat qila oladigan, amarant o‘simligiga yaqin joylashgan o‘simliklarni olib tashlash orqali kamaytiriladi. Agar shira amarantga zararlanishni boshlagan bo‘lsa oltinko‘z entomofagini qo‘llash yoki Biovert biologik preparatini shiralarga qarshi qo‘llashimiz mumkin. Ekish oldidan Gaupsin eritmasi bilan 4 l / ga, profilaktika maqsadida - 2 l / ga dorilanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Ergashev “Amarant — XXI asr kashfiyoti “ Xalq so‘zi 10.07.2017 y
2. Natsionalnaya akademiya nauk. Amarant: sovremennye perspektivy drevney kultury . Vashington, okrug Kolumbiya: Natsionalnaya akademiya nauk; 1984 g.
3. O‘. Ahmedov va boshqalar. “Dorivor o‘simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya”. Tafakkur bostoni nashriyoti T. – 2017 y 45 bet.
4. Saidganiyeva SH.T., Tufliyev N.X Amarant o‘simligining biologik xususiyatlari va xalq xo‘jaligidagi ahamiyati Agrar fani habarnomasi 1(85)2021 yil
5. Saidganieva, S. T. Q. (2021). Andijon viloyati sharoitida dorivor amarant o‘simligini yetishtirish texnologiyasi. Science and Education, 2(5), 111-115.
6. Саидганиева Ш.Т., Туфлиев Н.Х “Виды основных вредителей растения амарант и степень их встречаемости” международная научно-практическая конференция по теме “Инновационные технологии защиты растений в продуктовой безопасности” 2021 год (2) с 240.

7. Nodirbek, T., & Kizi, S. S. T. (2021). CULTIVATION OF THE MEDICINAL PLANT AMARANTH AND ITS ENTOMOFAUNA. *Universum: химия и биология*, (11-2 (89)), 70-73.

8. Saidganieva, S. T. Q., & Yuldasheva, S. N. Q. (2020). Measures against the damage of the insects of the nightshades family in the Soybean plant. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(8), 28-30.





## INSON VA FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARINI CHEKLASHNING AMALGA OSHIRILISH USULLARI

**Islomov Bekzod Bektosh o‘g‘li**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi yo‘nalishi magistranti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada huquqiy davlat sharoitida inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini konstitutsiyaviy cheklashning amalga oshirilish turlari, ularning ilmiy-nazariy asoslari tahlili amalga oshirilgan. Jamiyat hayotida sodir bo‘luvchi alohida vaziyatlarda fuqarolar huquqlari ta‘minlanishi maqsadida jamiyatdagi shaxslarning ba‘zi erkinliklari cheklanishi alohida e‘tibrga olingan.

**Kalit so‘zlar:** qonuniy xulq-atrorda fuqarolar huquqlari cheklanishi, kasbiy faoliyat bilan bog‘liq sharoitda konstitutsiyaviy huquqlar cheklanishi, maxsus huquqiy rejim sharoitida huquqlar cheklanishi.

### ANNOTATION

This article analyzes the types of implementation of the constitutional restriction of human and civil rights and freedoms in the rule of law, their scientific and theoretical basis. Particular attention is paid to the restriction of certain freedoms of individuals in society in order to ensure the rights of citizens in special situations in society.

**Keywords:** restriction of civil rights in legal conduct, restriction of constitutional rights in connection with professional activity, restriction of rights under special legal regime.

Har qanday huquqiy hodisani o‘rganishning muhim tarkibiy qismi uning namoyon bo‘lishini bunday farqlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan muayyan belgilarga qarab farqlashdir.

Fan huquq va erkinliklarni cheklash muammosining u yoki bu tomoni, huquq va erkinliklarni cheklashning mohiyati hamda mazmuniga turlicha yondashish natijasida yuzaga keladigan turli me'zonlar asosida huquq va erkinliklarni cheklash tasniflarini taqdim etadi.

Inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklashning tahlili shuni ta'kidlashga imkon beradiki, insonning qonuniy xatti-harakati chegaralarini belgilaydigan yoki huquqlar (erkinliklar) doirasini kamaytiradigan cheklovlar, ya'ni, ruxsat etilgan xatti-harakatlar, shaxs huquqbuzarlik sodir etgan taqdirda, subyektga nisbatan qo'llaniladigan cheklovlardan farqli o'laroq, o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Demak, birinchi holda, huquq va erkinliklarni cheklash shu bilan ajralib turadiki, huquq va erkinliklarni cheklashning oldini olish va himoya qilish funksiyalari birinchi o'ringa chiqadi. Bunday cheklovlarni belgilash va qo'llashda, agar subyekt qonuniy faoliyatni amalga oshirishda davom etsa, ularni himoya qilishdan ko'ra, buzilishi mumkin bo'lgan boshqa teng darajada muhim shaxsiy va jamoat manfaatlarini himoya qilish zarurligini asoslash kerak.

Shaxs huquqbuzarlik sodir etgan taqdirda huquq va erkinliklarga qo'yiladigan cheklashlar, birinchidan, yuridik javobgarlik rolini o'ynaydi va jazo xarakteriga ega yoki ushbu majburlash choralari bilan birga keladi va ularni ta'minlaydi, ikkinchidan, ular avvalo, himoya, jazo va tuzatuvchi chora-tadbirlardir, uchinchidan, huquq va erkinliklarning huquqbuzarlar toifasiga kiruvchi shaxslarga nisbatan qo'llaniladi, to'rtinchidan, qonun hujjatlarida belgilangan maxsus tartib va jarayonida qo'llaniladi, beshinchidan, birinchi holatdan ko'ra aniqroq konstitutsiyaviy ahamiyatga ega manfaatlar birinchi o'ringa chiquvchi boshqa huquq va erkinliklarni himoya qilish maqsadida qo'llaniladi.

Bizning fikrimizcha, bu tasnif inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklashning eng xarakterli belgilarini qamrab oladi.

Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni cheklash quyidagi holatlarda amalga oshiriladi: a)qonuniy xulq-atvordagi shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va

erkinliklarini cheklash; b)maxsus huquqiy maqomga ega bo‘lgan shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini qonuniy cheklash; d)maxsus huquqiy rejimlarda inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash<sup>49</sup>.

### **Qonuniy xulq-atvordagi shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash**

O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, davlat huquqni muhofaza qilish faoliyatining yetakchi yo‘nalishlaridan biri qonunga bo‘ysunuvchi shaxslarning huquq va erkinliklarini, jumladan, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash hisoblanadi.

Huquq va erkinliklarni bunday cheklashning asosi qonunga bo‘ysunuvchi shaxsning qonuniy xatti-harakatlarini amalga oshirishda konstitutsiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan manfaatlarning to‘qnashuvi (qarama-qarshiligi) hisoblanadi.

Ushbu asosga ko‘ra, huquq va erkinliklarni cheklashning ushbu turining mohiyati konstitutsiyaviy ahamiyatga ega bo‘lmagan shaxsiy va jamoat manfaatlarini himoya qilish va ularning muvozanatiga erishish uchun shaxsning qonuniy xulq-atvori chegaralarini belgilash yoki bunday xatti-harakatlar hajmini kamaytirishdan iboratdir.

“Shu bilan birga, cheklanishi mumkin bo‘lgan bir qator huquq va erkinliklar ayniqsa nozik hisoblanadi, chunki ular shaxsning shaxsiyati bilan chambarchas bog‘liq va shaxsning huquqiy maqomida asosiy hisoblanadi. Davlat tomonidan yashash huquqi, vijdon va diniy e‘tiqod erkinligi, harakatlanish va yashash joyini erkin tanlash erkinligi, sha‘nini himoya qilish huquqi kabi huquq va erkinliklarga nisbatan cheklovchi choralarning me‘yorida oshib ketishi shaxsiy daxlsizlikka, insonning shaxsiy erkinligiga aralashishga, boshqa guruh huquq va erkinliklarining buzilishiga olib keladi”<sup>50</sup>.

Yashash huquqi insonning asosiy huquqi bo‘lib, u zamonaviy davlatlar tomonidan konstitutsiyaviy va xalqaro miqyosda tan olingan hamda boshqa shaxs huquq va erkinliklari uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi

<sup>49</sup> Казимирская Ю.В. Конституционно-правовые основы ограничения личных (гражданских) прав и свобод человека и гражданина в россии и зарубежных странах. М.:Академия Генеральной прокуратуры. 2016. 37-б

<sup>50</sup> Казимирская Ю.В. Конституционно-правовые основы ограничения личных (гражданских) прав и свобод человека и гражданина в россии и зарубежных странах. М.:Академия Генеральной прокуратуры. 2016. 99-б

Konstitutsiyasining 24-moddasida ham shunday deyilgan: “Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir”<sup>51</sup>.

“Tezkor ilmiy-texnika taraqqiyoti, tibbiyotga yangi texnologiyalarning joriy etilishi ta’sirida inson va uning tabiati haqidagi avvalgi umume’tirof etilgan paradigma g‘oyalari, zamonaviy jamiyatda tibbiy deontologiya standartlari qayta ko‘rib chiqilmoqda, nazariy huquqiy tushunchalar ham o‘zgarib bormoqda. Unda hayotning qadr-qimmatini va yashash huquqi o‘lim va qonun qadriyatlariga ziddir. Bu borada eng munozarali masalalardan biri **evtanaziyani** huquqiy tartibga solish muammosidir. Evtanaziya, qoida tariqasida, tibbiy xodimning jismoniy va ruhiy azob-uqubatlarini to‘xtatish uchun xabardor bemor yoki uning qonuniy vakilining aniq va qat’iy iltimosiga binoan amalga oshiriladigan qasddan harakatlari yoki harakatsizligi tushuniladi”<sup>52</sup>.

Shaxsning evtanaziyaga bo‘lgan huquqi masalasini o‘rganuvchi huquqshunoslarga keladigan bo‘lsak, ba’zi olimlar yashash huquqi insonning o‘z hayotini boshqarish huquqiga kiritilgan o‘lim huquqiga immanent tarzda xosdir, deb hisoblashadi. Demak, O‘z hayotini mustaqil tasarruf etish imkoniyati, shu jumladan, uni tugatish to‘g‘risidagi masala bo‘yicha qaror qabul qilish insonning yashash huquqining vakolatlaridan biridir.

M.N. Maleina yashash huquqini bir necha jihatlarida, jumladan, hayotni saqlab qolish huquqi (individuallik) va hayotni tasarruf etish huquqini ko‘rib chiqadi, bu o‘zini muhim xavfga duchor qilish imkoniyati va hayotni tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi<sup>53</sup>.

Shunday qilib, insonning yashash huquqi mazmunining vektori hayotni tugatish huquqini to‘liq ta’minlashga emas, balki hayot sifatini yaxshilash va kafolatlashga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Yashash huquqining mazmuniga oid yuqoridagi tushunchalar quyidagi oqibatlarga olib keladi. Agar biz yashash huquqi mazmuniga o‘z hayotini to‘liq

<sup>51</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.:2019. “O‘zbekiston”. 11-b.

<sup>52</sup> Крылова Н.Е. Эвтаназия: уголовно-правовой аспект // Вестник Моск. ун-та. Серия 11. Право. 2002. № 2.20-b.

<sup>53</sup> Малеина М.Н. Уйти достойно // Биоэтика: принципы, правила, проблемы / Отв. ред. Б.Г. Юдин. М.: Эдиториал УРСС, 1998. 41-b.

boshqarish huquqini kiritadigan bo'lsak, evtanaziya huquqi yashash huquqining kafolati bo'lib xizmat qiladi, bu ham huquqiy, ham axloqiy nuqtai nazardan bema'nilik kabi ko'rinishi kerak. Agar biz yashash huquqiga o'lim huquqiga qarshi chiqsak, evtanaziya huquqi yashash huquqining bevosita buzilishidir.

“Zamonaviy dunyo sharoitida shaxslarning qonuniy xulq-atvoriga nisbatan keng tarqalgan navbatdagi cheklov **diniy e'tiqod erkinligini cheklashdir**. Jahon mamlakatlarida davlat-din munosabatlarining kelib chiqishi turlicha bo'lishiga va davlat va jamiyat institutlarining turli darajadagi dunyoviylashuviga qaramasdan, bu diniy erkinlik va uning chegaralarining huquqiy mustahkamlanishida, globallashtiruv muammolari, ko'p konfessiyali aholining tarkibi va xalqaro terrorizm barcha zamonaviy davlatlar oldiga hal qilinishi kerak bo'lgan bir xil muammolarni qo'yimoqda”<sup>54</sup>.

### **Maxsus huquqiy maqomga ega bo'lgan shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini qonuniy cheklash**

Shaxsiy huquq va erkinliklarni cheklashning navbatdagi kichik guruhi fuqarolarning maxsus kasbiy maqomi bilan bog'liq.

Davlat mansabdor shaxslariga yuklangan funksiyalarning samarali bajarilishini ta'minlash maqsadida ularning huquqiy maqomi huquq va erkinliklarga nisbatan ko'proq cheklash va ta'qiqlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Qoida tariqasida, bunday cheklovlar huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari, harbiy xizmatchilar va boshqa davlat xizmatchilari uchun belgilangan.

Harakat erkinligi haqida gapirganda, xorijiy davlatlar va O'zbekiston qonunlari<sup>55</sup> huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va harbiy xizmatchilar toifasiga mansubligi va davlat sirlari sifatida tasniflangan ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan cheklovlarni nazarda tutadi.

<sup>54</sup> Казимирская Ю.В. Конституционно-правовые основы ограничения личных (гражданских) прав и свобод человека и гражданина в россии и зарубежных странах. М.:Академия Генеральной прокуратуры. 2016. 117-б

<sup>55</sup> O'zbekiston Respublikasi Favqulodda holat to'g'risidagi qonuni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5774840>

Shundga ko‘ra, xorijiy mamlakatlarda harakatlanish erkinligini cheklash davlat xavfsizligi manfaatlarini ko‘zlab alohida hollarda qonuniy va ruxsat etilgan deb tan olinadi<sup>56</sup>.

Kasbiy faoliyat bilan bog‘liq alohida huquqiy maqomga ega bo‘lgan shaxslarning shaxsiy huquq va erkinliklarini cheklashning yana bir kichik guruhi diniy e‘tiqod erkinligini cheklashdir.

Diniy erkinlikka nisbatan eng qattiq cheklovlar huquq-tartibot organlari va harbiy xizmatchilarga nisbatan qo‘yiladi.

Ushbu toifadagi shaxslarning diniy ramzlarini kiyish orqali o‘z diniy mansubligini ifoda etish huquqini berish to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatdiki, bunday cheklashlar davlat manfaatlari ustuvorligi bilan asoslanadi.

Bunda, davlat xizmatchisiga davlat organi tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan barcha fuqarolarga teng munosabatda bo‘lish majburiyati xodimning diniy e‘tiqod erkinligini cheklovchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Kasbiy faoliyat bilan bog‘liq alohida huquqiy maqomga ega bo‘lgan shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash jarayoni quyidagicha zaruriy tamoyillarga ega bo‘lishi shart:

- huquq yoki erkinlikning ichki tomonlariga ta’sir qilmaydigan cheklashlar joriy qilish mumkin, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarning ichki tomonlarga ta’sir qiluvchi cheklovlar kiritish mumkin emas;

- ushbu cheklovlarni davlat vazifalarini bajaruvchi shaxslarga nisbatan qo‘llash;
- muayyan kasbiy faoliyatni amalga oshirishga ixtiyoriy roziligiga asoslanish;
- vaqtinchalik xususiyatga ega, qoida tariqasida, ularning amal qilish muddati mehnat (xizmat) shartnomasining amal qilish muddatiga to‘g‘ri kelishi zarur;
- bunday cheklovlarning qonuniyligi jamoat (jamiyat va davlat) manfaatlarining ustuvorligi bilan asoslanishi shart;

<sup>56</sup> Коливер С. Сравнительный анализ законодательства о прессе в европейских и других демократических государствах // Законы и практика СМИ в Европе, Америке и Австралии. Сравнительный анализ. М.: Права человека, 1997. № 3. 171-б.

•ushbu cheklovlar shaxsning alohida huquqiy maqomiga hamda uning alohida erkinliklariga ta'sir qilishi mumkin<sup>57</sup>.

### **Maxsus huquqiy rejimlarda inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash**

Ko'rib chiqilayotgan inson va fuqarolar konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklashlar guruhining qonuniyligi va zarurligi favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq maxsus huquqiy rejimlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Maxsus huquqiy rejim bu davlat organlari faoliyatining alohida tartibini belgilaydigan va qonunda belgilangan huquq va erkinliklarni, shu jumladan qonunga bo'ysunuvchi shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklashga yo'l qo'yadigan, ularga qo'shimcha majburiyatlar yuklaydigan va huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan javobgarlik choralari kuchaytirishni asoslantiruvchi yuridik institutdir.

Barcha zamonaviy davlatlar tarix davomida u yoki bu tarzda tabiiy ofatlar, texnogen ofatlar, ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarga duch kelganligi va duch kelishda davom etayotganligi sababli, ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar qonunchiligida ular sabab bo'lgan maxsus huquqiy rejim holatlari va shunga mos ravishda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini, shu jumladan konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash to'g'risidagi huquqiy normalar mavjud<sup>58</sup>.

Germaniya o'ziga xos xususiyati favqulodda huquqiy rejimni konstitutsiyaviy va qonunchilik darajasida batafsil tartibga solish bo'lgan mamlakatlardan biridir. Shu bilan birga, favqulodda xarakterdagi bir qator qonun hujjatlari va amaldagi qonun hujjatlari maxsus huquqiy rejimlarning turli jihatlarini tartibga solishga bag'ishlangan<sup>59</sup>.

Xorijiy davlatlar qonunchiligida davlat xavfsizligi va mudofaasini ta'minlash maqsadida ushbu qoidaning amal qilishini cheklash yoki to'liq to'xtatib turishni

<sup>57</sup> Казимирская Ю.В. Конституционно-правовые основы ограничения личных (гражданских) прав и свобод человека и гражданина в россии и зарубежных странах. М.:Академия Генеральной прокуратуры. 2016. 151-б

<sup>58</sup> Избранные конституции зарубежных стран. 162-201-бб.

<sup>59</sup> GFR ning 1957-yildagi "Aholi muhofazasi to'g'risida"gi qonuni, "Falokatdan himoya qilsih ko'lami to'g'risida"gi qonuni, 1968-yildagi "Yozishmalar, pochta, telegraf va telefon yozishmalari cheklanishi to'g'risida"gi qonuni, "Fuqaro himoyasi korpusi to'g'risida"gi qonuni va boshqalar.

nazarda tutuvchi yondashuv mavjud. GFRda mudofaa muddati uchun uzoqroq muddat qamoq yoki qamoqqa olish muddati belgilanadi<sup>60</sup>. Himoya holatida jinoiy javobgarlikka tortiladigan qilmishni sodir etganlikda gumon qilingan shaxslarni qamoqqa olish va qamoqda saqlash muddati sudya tomonidan qaror qabul qilingunga qadar ushbu moddada belgilangan muddatdan oshib ketishi mumkin.

Shunday qilib, jinoiy huquqbuzarlik sodir etishda gumon qilinayotgan shaxslarga nisbatan konstitutsiyaviy normalar maxsus huquqiy rejimda uzoqroq qamoqda saqlash muddatiga ruxsat beradi.

Huquq va erkinliklarni cheklash favqulodda holat joriy etilgan hududga kirish va undan chiqishning alohida rejimini joriy etish, aholini xavfsiz hududlarga vaqtincha ko‘chirish, karantin, sanitariya-epidemiya qarshi, veterinariya va boshqa qonun hujjatlarini joriy etish yo‘li bilan boshqa chora-tadbirlar qo‘llanilishi mumkin.

Harbiy holat rejimiga nisbatan shaxs huquq va erkinliklarini cheklashning mamlakat mudofaasi va davlat xavfsizligini ta‘minlash maqsadlariga mutanosiblik printsipi ham qo‘llaniladi.

Huquq va erkinliklarni cheklash qonuniyligining muhim kafolati sifatida favqulodda holat joriy etilganda parlament nazorati, favqulodda holat rejimida parlament ishining davom etishi, sud va prokuratura organlarining faoliyatini davom ettirish, favqulodda holat rejimini ta‘minlashda ishtirok etuvchi shaxslarning javobgarligi, favqulodda holat sharoitida jismoniy kuch va maxsus vositalarni qo‘llash tartibi va shartlarini qat‘iylashtirishni taqiqlash, favqulodda holat sharoitida huquq va erkinliklarni cheklashni qo‘llash chegaralarini belgilash to‘g‘risida qonun hujjatlarining normalari hisoblanadi.

Qoida tariqasida, xalqaro huquqiy hujjatlarda muayyan huquq yoki erkinlikka nisbatan davlat (milliy) va jamoat xavfsizligini ta‘minlash maqsadidagi cheklovlar haqida so‘z boradi. Xususan, xalqaro hujjatlarda davlat (milliy) xavfsizlik manfaatlari yo‘lida quyidagi huquq va erkinliklarning cheklanishi ko‘zda tutilgan: harakatlanish erkinligi (Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi xalqaro

<sup>60</sup> GFR ning 1957-yildagi “Aholi muhofazasi to‘g‘risida”gi qonuni.



konvensiyaning 2-moddasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi paktning 12, 13-moddalari<sup>61</sup>, Inson huquqlari to‘g‘risidagi Amerika konvensiyasining 22-moddasi<sup>62</sup>), shaxsiy va oilaviy hayotini, uy-joy va yozishmalari daxlsizligini hurmat qilish huquqi (Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiyaning 8-moddasi) , so‘z erkinligi (Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiyaning 1-moddasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 19-moddasi, Inson huquqlari to‘g‘risidagi Amerika konvensiyasining<sup>63</sup> 13-moddasi). Bundan tashqari, jamoat xavfsizligi manfaatlarini ko‘zlab, fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqi cheklanishi mumkin (Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiyaning 9-moddasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 18-moddasi, Inson huquqlari bo‘yicha Amerika konvensiyasining 12-moddasi).

Maxsus huquqiy rejimlar ostida konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni cheklanishini qonunchilik bilan tartibga solishda 3 jihatni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Bular:

1. Shaxsiy huquq va erkinliklarni cheklash qonuniy fakt sifatida maxsus huquqiy rejimni joriy etish va bunday rejim uchun qonunda nazarda tutilgan erkinliklar amal qilish tartibini huquqiy tartibga solishda qo‘llaniladi.
2. Asosan ijro etuvchi hokimiyat davlat organlarining huquq va erkinliklari sohasidagi vakolatlarini qayta taqsimlash va ixtiyoriy ravishda taqsimlash imkoniyati, shu jumladan qonunga bo‘ysunuvchi va qonunga xilof xatti-harakatlarga ega bo‘lgan shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga cheklovlar o‘rnatish imkoniyati.
3. Shaxsiy huquq va erkinliklarni cheklash sohasida ko‘rilayotgan favqulodda choralar qonuniyligining huquqiy kafolatlari.

Xalqaro huquqda har bir mamlakat alohida rejim sharoitida huquq va erkinliklarni cheklovchi qonun osti hujjatlarini qabul qilishiga ruxsat beriladi.

<sup>61</sup> Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi pakt. <https://lex.uz/docs/-2640479>

<sup>62</sup> Inson huquqlari to‘g‘risidagi Amerika konvensiyasi. <http://hrlibrary.umn.edu/russian/instate/Rzoas3con.html>

<sup>63</sup> Inson huquqlari to‘g‘risidagi Amerika konvensiyasi. <http://hrlibrary.umn.edu/russian/instate/Rzoas3con.html>

Maxsus huquqiy rejimlar ostida qonunga bo‘ysunuvchi fuqarolarning huquq va erkinliklarini cheklash bilan bir qatorda, xalqaro qonunchilik shaxs qonunga xilof xatti-harakatlar sodir etgan taqdirda, ushbu shaxsning huquq va erkinliklariga nisbatan protsessual majburlash va jazo choralarini kuchaytirish cheklovlarni belgilaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini huquqiy jihatdan cheklash shartlari (huquqiy rejimi), maqsadlari, asoslari, subyektlari, ushbu cheklovlarning mazmuni va ularni qo‘llash tartibiga qarab, cheklovlarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari turlari quyidagilarga bo‘linadi:

I. Oddiy huquqiy rejimning elementi bo‘lgan huquq va erkinliklarni cheklash:

1. qonuniy xulq-atvor chegaralarini belgilash maqsadida huquq va erkinliklarni cheklash: a) umumiy xarakterdagi huquq va erkinliklarni cheklash; b) maxsus huquq subyektlarining huquq va erkinliklarini, shu jumladan kasbiy faoliyatiga qarab cheklash;

2. shaxs huquqbuzarlik sodir etganda huquq va erkinliklarning cheklanishi;

II. Favqulodda vaziyatlar bilan bog‘liq cheklovlar: a) qonunga bo‘ysunuvchi shaxslarning huquq va erkinliklarini cheklash; b) shaxs huquqbuzarlik sodir etganda huquq va erkinliklarni cheklash.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.:2019. “O‘zbekiston”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda holat to‘g‘risidagi qonuni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5774840>
3. Малеина М.Н. Уйти достойно // Биоэтика: принципы, правила, проблемы / Отв. ред. Б.Г. Юдин. М.: Эдиториал УРСС, 1998. 41-б.
4. Коливер С. Сравнительный анализ законодательства о прессе в европейских и других демократических государствах // Законы и практика СМИ в Европе, Америке и Австралии. Сравнительный анализ. М.: Права человека, 1997. № 3. 171-б.
5. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi pakt. <https://lex.uz/docs/-2640479>
6. Inson huquqlari to‘g‘risidagi Amerika konvensiyasi. <http://hrlibrary.umn.edu/russian/instate/Rzoas3con.html>

## БИР ЭКСПОНАТ ТАРИХИДАН

мутахассиси **Носирова С.С**

Бухоро давлат музей-қўриқхонаси

**Аннотатсия:** Ушбу мақолада Бухоро давлат музей-қўриқхонасида муҳим аҳамиятга эга бўлган яҳудийлар ибодатхонаси таҳлил этилади. Ундан ташқари яҳудийларнинг ушбу маконда истиқомат этиш тарихи илмий-методологик жиҳатдан тадқиқ этилади.

**Калит сўзлар:** Бухоро, музей, яҳудийлар, ибодатхона, буюм, фонд.

Бой миллий-маданий меросни, ўлкамизда яшаётган халқларнинг тарихи ва маданиятини ўрганишда музейларнинг аҳамияти катта. Ушбу ўринда 1922 йилда ташкил топган Бухоро давлат музей-қўриқхонаси алоҳида аҳамият касб этади. Музей қўриқхонасининг “Нумизматика”, “Этнография”, “Хужжатлар ва фонотека” фондлари фаолиятини алоҳида таъкидлаш жоиз. Ушбу фондлар орасидан “Юмшоқ буюмлар” коллекциясида **4638/9-инвентар** рақам остида сақланаётган яҳудийлар ибодатхонасида фойдаланилган зардўзи ёпинчиқ томошибинлар диққатини ўзига жалб этади. Зардўзлик хунари қадим-қадимдан маълум ва машҳур бўлиб келган. Бухоро зардўзлари томонидан оқ ва тилла ранг тусдаги яссиланган кумуш тола – сим кенг қўлланилган. Нафақат кийим-кечаклар балким уй-рўзғор буюмлари: сўзани, такияпуш, жойнамоз, лўла-болишлар жилди, кўрпа-кўрпачалар ёпинчиғи тикилган бўлган. Биз баён этадиган нодир-дурдона санъат асари бўлмиш **Ёпинчиқ** яҳудий уста томонидан тайёрланган бўлган. Ёпинчиқдаги нақшлар марказий ва четки композицияда, оч-жигар рангдаги бахмалда зар ишларда “Гулдўзи” услубида тикилган гул

нақшлари мавжуд. Четки қомпозицияда ўн иккита доира нақшида лолагул нақшлари мужассамлаштирилган ҳолда тикилган. Марказий композициясида марказга қараб тўртта бодомгул, бирта дорагул ва яхудий хунарманд “Абрам Сулаймон, 1895 й” ёзуви зар ипларда тикилган. Марказий композициянинг четки тўрт томон параллелларида саккизта доира ва доира ичида лолагул нақшлари гулдўзи услубида тикилган. Зардўзликда иш қуроллари унча кўп бўлмаган чамбарак, чамбаракка бўздан қилинган **кериш**, яъни **тавар** тортилган, ипни думалоқлаш учун қаттиқ ёғочдан қилинган, узунлиги 20 сантиметрдан бўлган, тўрт қиррали **патиладан** фойдаланилган. Патиланинг ичида қўрғошин солиб вазминлаштирилган бундай патилалар ипни зич қилиб ўрашни таъминлаган. Зар ипларни тикишда бир текис ва силлиқ чиройли сифатли чиқишига сабаб бўлган.



Зарларни тикишда икки хил ангушвонадан фойдаланилган. Бири таглик, иккинчиси тагсиз. Икки хил қайчи бўлган: бири қайчи уштур гардон, иккинчиси оддий уй-рўзгор қайчиси, ва тикишда игнадан фойдаланган. Ёпинчиқнинг астари қизил рангда, кўк гул нақшли матодан

тикилган. Ўлчами: ёпинчиқнинг узунлиги – 240 сантиметр, эни 205 сантиметрни ташкил этади. Юқорида айтилгадек ушбу ёпинчиқ 1895 йилда тикилган. Бухорода зардўзлик иши энг авжига чиққан даври 1885-1911 йиллар йигирматадан, йигирма бештагача зардўзлик устахоналари бўлган. Масалан амир Музаффархон пайтида хусусий устахоналарда нима тикилса, шундай зардўзи буюмлари тайёрлашга рухсат этилган. Бироқ унинг вориси Амир Аҳадхон пайтига келиб хусусий устахоналарнинг имкониятлари қаттиқ чегараланиб қўйилган бўлган.

Албатта, яхудийлар ҳақида фикр юритилганда, улар қачон ва қандай Бухорога келиб қолган?- деган савол туғилади. Баъзи бир маълумотларга кўра

яхудийлар ўзларини “исроэл”, “бане исроэл”, “яхудий-тожик” деб аташган. Бухоро яхудийлари атамаси биринчи бўлиб, XVI асрда пайдо бўлган. Бухоро яхудийларининг ўтмишдаги умумий сони ҳақида аниқ маълумот йўқ. Инглиз миссионери Вольф, Амир Насруллохон ҳукмронлиги даври XVIII(1826-60)да Бухорода 10 минг яхудий яшаганлигини кўрсатиб ўтган.

Бухоро яхудийларининг Ўрта Осиёда қачон пайдо бўлганлари мунозарали. Баъзи олимлар М. Занднинг фикрича, яхудийлар Ўрта Осиёда мил.ав. 6-асрда пайдо бўлганлар. Археологик тадқиқотларга кўра, яхудийлар Ўрта Осиё (Марв, Самарқанд)да II-IV-V асрлар ва VIII асрларда келганлар. Ёзма манбаларга кўра эса мил.ав I асрда, мил. I а.да Марвга, 6-асрнинг 80-йилларида Хоразмга келганлар.

Яхудийларнинг Бухорода бўлишлари тўғрисида илк маълумотлар XIII асрга тўғри келади. Бухоро яхудийларининг оилавий афсоналарига кўра, XIV аср охири XV аср бошларида яхудий тўқувчилар Амир Темур томонидан Сабзавор, Шероз ва Боғдоддан Мовароуннаҳрга олиб келинган. Улар кейинчалик маҳаллий яхудий жамоалари билан аралашиб кетишган.

XVI асрда Бухоро яхудийларнинг бош марказига айланган, ушбу асрда шаҳарда яхудийлар маҳалласи – “**маҳаллаи куҳна**” ташкил топган. Бухоро яхудийлари **иудаизм** динига эътиқод қилишади. Барча шаҳарларда, яхудийлар гуж бўлиб яшаган маҳаллаларда *синагогалар* бўлган.

Бухоро яхудийлари орасидан фан ва маданиятнинг йирик арбоблари етишиб чиққан. Фан докторлари: прафессор Ю. И. Исҳоқов, И. А. Каландаров, Б. И. Пинхасов, Н.М. Маллаев; композиторлар М. Шамаева ва бошқалар шулар жумласидан.

Ўзбекистон мустақилликка эришгандан кейин Ўзбекистон Республикаси Конституцияси барча миллат ва элат вакилларининг тили, урф-одати, анъаналарига ҳурмат билан муносабатда бўлишни, уларнинг ривожланиши учун шароит яратишни кафолатлади.

Бугунги кунда, Бухорода 2 та яхудийлар синогогаси, иврит тилида ўқитиладиган мактаб ва болалар боғчаси фаолият кўрсатмоқда. Турли диний маросимлар эркин ўтказилади. Ўзбек халқи билан республикаимиз мустақиллигини мустаҳкамлашда халқимиз билан ёнма-ён халқ хўжалигининг турли соҳаларида, шу жумладан илм-фанда ва маданият соҳасида фаолият қилаётган Бухоро яхудийлари “Бухоро яхудийлари” маданий маркази атрофига бирлашиб, мамлакатимизнинг бошқа халқлари қатори фан ва маданият, соғлиқни сақлаш, таълим-тарбия ва санъат соҳаларида меҳнат қилишмоқда.

### Фойдаланилган адабиётлар

- 1.Альмиев Р. Бухарские евреи. Бухоро 1998 г.
2. “Бухоро зардўзлик санъати” П.А.Гончарова.1986 й.



## P-N O‘TISHLI YARIMO‘TKAZGICHLARNING VOLT-AMPER XARAKTERISTIKALARIGA MAGNIT MAYDONNING TA’SIRI

**Majidova Gulnoza Nurmuhamedovna,**

**Muhitdinova Feruza Rustam qizi,**

Namangan Muhandislik-qurilish instituti


E-mail: [feruzafizik1991@gmail.com](mailto:feruzafizik1991@gmail.com)

Bugungi kunda elektrotexnika va elektronika sohasi rivojlanib borgan sari yarimotkazgichli asboblarni yanada takomillashtirish, ularning tashqi ta’sirlarga sezgirligi va turli maydonlarning ularning xarakteristikalariga ta’sirini o‘rganish ahamiyatli xisoblanadi. Bu ishda biz p-n o‘tishli diodning volt-amper xarakteristikalari (VAX)ga magnit maydonning ta’sirini ko‘rib chiqamiz.


Ideal xolatda diodning volt amper xarakteristikasiga bazadagi qarshilik va magnit maydonini ta’sirini xisobga olganimizda quyidagicha formula xosil bo‘ladi

$$j = j_s \left[ e^{\frac{e\phi_0 - U + J(R_b + R_x B/l)}{kT}} - 1 \right]; \quad (1)$$

bu yerda  $R_b$ -baza qarshiligi,  $R_x$ -Xoll koeffitsienti,  $B$ -magnit maydon induksiyasi,  $l$ - p-n o‘tish qalinligi.



1-rasm. p-n o‘tishli diodga turli magnit maydonlarning ta‘sirini tajribada olingan volt-amper xarakteristikasi



2-rasm. p-n o‘tishga turli magnit maydonning tasiridagi nazariy xisoblangan volt-amper xarakteristika

P-n o‘tishli diodga magnit maydonning ta‘sirini tajribada ko‘rib, VAX lari olingan. Ularni taxlil qilib, magnit maydonni oshib borishi bilan VAX larni o‘zgarishini nazariy jihatdan xisoblab oldik.

1-rasmda diodga turli induksiyali magnit maydonlarni ta‘sirini o‘rganishgan va VAX lari olishgan. Bu grafiklarni tahlil qilib biz ham o‘zimiz keltirgan formula yordamida quyidagi grafiklarni maple dasturi yordamida oldik:


2-rasmda bizning keltirgan formulamiz (1) asosida olingan VAX keltirilgan. VAX quyidagi qiymatlarda olingan:  $R_b=480 \text{ Om}$ ,  $T=300\text{K}$ ,  $R_x=1$ ,  $l=0.01 \text{ m}$ ,  $B_1=0 \text{ T}$ ,  $B_2=0.5 \text{ T}$ ,  $B_3=1.1 \text{ T}$ ,  $J_s=10^{-9}$ .

3-rasmda tajribada olingan VAXiga bizning matematik model orqali olingan VAXlarni birgalikdagi keltirilgan. 1-2-rasmlarda ularni aloxida grafiklari keltirilgan. Tajriba natijalari bilan nazariy xisoblashlar natijasini solishtirish orqali magnit maydon



asosan p-n o‘tishning qarshiligiga va potensial to‘siq balandligiga ta’sir qiladi deyish mumkin.

Bu xulosaga magnit maydon ortib borgani sari grafik katta kuchlanishlar tomon siljib ketganligidan ham kelish mumkin. Shuning uchun nazriy xisoblashlarda (1) formulaning qarshiligi va potensialiga qo‘shimchalar qo‘shilgan. Mana shu qo‘shimchalar orqali olingan (1) formula yordamida maple dasturida 2-rasmdagi VAX hosil bo‘ldi.



3-rasm. Nazariya va eksperiment natijalarini ustma-ustligi.

Grafikdan ko‘rinadiki magnit maydonning ortishi p-n o‘tishning qarshiligini va potensialini orttirar ekan. 3-rasmdagi tajriba va nazriy olingan VAXlarni solishtirish orqali ularning qanchalik mos ekanligini ko‘rish mumkin. Demak nazariy xisoblashlarda foydalanilgan formula ma’lum darajada to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi.

## ADABIYOTLAR

11. Arjvadhara.P.Ali, S.M.Chitralkha.J., “ Analysis of solar PV cell performance with changing irradiance and temperature”, Int.J.Eng.Comput. Sci 2, 214-220, 2013
12. J. Chen, X Zhang, Z. Luo, J. Wang, H-G Piao “Large positive magnetoresistance in germanium”, People’s Republic of China [<http://dx.doi.org/10.1063/1.4896173>]

13. Singh.P,Ravindra.N.M, “Temperature dependence of solar cell performance – an analysis”, Sol.Energy Mater. Sol.Cells 101,36-45, 2012
14. В.Л.Бонч-Бруевич, С.Г.Калашников «Физика полупроводников», Наука, М.1977.
15. G.Gulyamov, A.G.Gulyamov. “On the tensoensitivity of p-n junction under illuminatian”, Semiconductors,2015,vol.49, pp 819-822



**ZAMONAVIY INGLIZ TILI ASPEKTLARINI NAZARIY VA AMALIY  
O‘QITISH MUAMMOLARI, YECHIMLARI VA RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI**

O‘zbekiston Jurnalistika va Ommaviy  
Kommunikatsiyalar universiteti  
Internet jurnalistika fakulteti  
Mediamarketing va reklama yo‘nalishi talabasi  
**Saidqulova Muxlisa Ilhomjonovna**  
Email: [muxlisaaidqulova07@gmail.com](mailto:muxlisaaidqulova07@gmail.com)

**ANNOTATION**

Rossiyada ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish hozirgi bosqich Jamiyat taraqqiyoti chet tillarini o‘qitishni tashkil etishdagi innovatsion jarayonlar bilan ham bog‘liq emas. Zamonaviy maktabning rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi ta’limning insonparvarlik yo‘nalishi bo‘lib, unda yetakchi o‘rinni egallaydi. So‘ngi yillarda maktablarda yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash masalasi tobora ko‘proq ko‘tarilmoqda. Bular nafaqat yangi texnik vositalar, balki o‘qitishning yangi shakl va usullari, o‘quv jarayoniga yangicha yondashuvdir. Chet tillarining o‘qitishning asosiy maqsadi maktab o‘quvchilarining kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, chet tilini amaliy o‘zlashtirishga o‘rgatishdir. Maktabda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda chet tilini o‘qitish kognitiv, ijobiy, hissiy, motivatsion, optimistik, texnologik kabi bir qator psixologik yonda yondashuvlarni joriy qilishni o‘z ichiga oladi.

**Kalit So‘zlar:**

Zamonaviy texnologiyalar, chet tillarning roli, Jahon madaniyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multi-media o‘quv qurollari, internet resurslari, til portfeli, tili bilish darajalari, Shveysariya, Akkreditatsiya qo‘mitasi, Hamlet, Uilyam

Shekspir, ta’lim texnologiyasi, Angliya, Shotlandiya, Irlandiya, ko‘p funksiyali til, umujahon aloqa, kompyuterlashtirilgan integratsiya.

Ilm, ijod umuman, go‘zallikning poyoni yo‘q. Agar poyoni bo‘lganida faqat bitta odam “Hamlet”ni sahnalashtirardi. Har bir insonning hayoti kamida bitta Kitob, kitobning qalinligi Umruga, mundarijasi esa Taqdirga bog‘liq.

XXI asrga kelib, zamonaviy texnologiyalar rivojlanmoqda va ilm-fanda ham rivojlanish yuqori darajasida suzildi, jumladan, eng so‘ngi pedagogik texnologiyalar ishlab chiqiladi va tatbiq qilindi. Albatta, XXI asr tilni o‘qitish va o‘rganishni zamonaviy texnologiyalar tez va oson o‘zlashtirishni ta’minlab bermoqda. Eng so‘ngi innovatsion texnologiyalar nafaqat an’anaviy ta’lim jarayonida balki mustaqil ta’lim yoki onlayn ta’limda ham o‘qituvchi va o‘quvchilarga yengillik yaratmoqda. Dissertatsiyaning dolzarbligi zamonaviy jamiyatda chet tillarining roli ortib bormoqda. Chet tilini bilish Jahon madaniyatiga qo‘shilish, o‘z faoliyatida keng internet resurslari imkoniyatlaridan foydalanish, shuningdek axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia o‘quv qurollari bilan ishlash imkonini beradi. Shu munosabat bilan chet tilini o‘qitishda kompyuter axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish zarurati paydo bo‘ldi. Chet tillarini o‘qitishning asosiy maqsadi maktab o‘quvchilarining kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, chet tilini amaliy o‘zlashtirishga o‘rgatishdir. O‘qituvchining vazifasi chet tillarini o‘qitish jarayonida talabaning bilim faolligini faollashtirishdir. Hamkorlikda o‘qitish loyiha metodologiyasi, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, internet resurslari kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvini amalga oshirishga yordam beradi, bolalarning qobiliyatlari, ularning bilim olish darajasini hisobga olgan holda o‘qitishni individuallashtirish va differentsiallashtirishni ta’minlaydi.

Til portfeliga kelsak, u chet tilini o‘zlashtirish darajasiga bo‘lgan rus talablarning umumiy Yevropa tizimlari bilan o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi, bu esa o‘z navbatida yagona ta’lim makonini yaratish uchun boshlang‘ich nuqtadir. Til portfeli texnologiyasida chet tilini bilish darajasini, baholashning asosiy mezonini test

hisoblanadi. Ushbu texnologiyaning ustuvorligi ta'lim jarayonini o'qituvchidan talabaga yo'naltirishdir. Umuman olganda til portfeli ko'p funktsiyali bo'lib, ko'p tillikni rivojlantirishga yordam beradi. Til portfeli maktabda chet tilini o'rgatishning istiqbolli vositalaridan biri sifatida, til portfeli zamonaviy sharoitlar chet tilini o'zlashtirishda talabaning o'quv faoliyatining u yoki bu tajribasini, natijasini ifodalovchi ishchi materiallar to'plami sifatida aniqlanadi.

Chet tilini bilish darajasini, o'z-o'zini baholash vositasini yaratish g'oyasini birinchi marta Shveysariyada 10 yildan ko'proq vaqt oldin paydo bo'lgan. Hozrgi vaqtda Yevropa kengashi qoshida Akkreditatsiya qo'mitasi tashkil etilgan bo'lib, u yerda til portfellari loyihalari yuboriladi. Til portfelining muhim afzalliklaridan biri, xususan talabaning ma'lum vaqt oralig'ida o'rganilayotgan tilni bilish darajasining dinamikasini mustaqil ravishda kuzatish imkoniyatidir.

Chet tilini o'qitish usullarini ishlab chiqish, takomillashtirish, optimallashtirish vazifasi har doim rus ta'limining dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelgan. Tadqiqot olib borgan pedagogik ish bu sohada bugungi kunda maktabda chet tillarini o'rgatish innovatsion komponentsiz mumkin emasligini ko'rsatdi. Xorijiy tilini o'qitish maqsadlariga qo'yiladigan zamonaviy talablardan kelib chiqib, sxemadan o'tayotgan talabaning ham, o'qituvchining ham maqomi o'zgarmoqda, o'qituvchi -talaba yaqin hamkorlikda talaba markazlashtirilgan ta'lim texnologiyasidir.

Shekspir va uning zamondoshlari bilan muloqot qilganimizda, biz XXI asrning boshida birga mutlaqo notanish madaniyat bilan shug'ullanamiz. Tillarning rivojlanishida ma'lum voqealar ko'pincha ta'niqli va ba'zida keng qamrovli ta'sir ko'rsatadi. Boshlanishi qulay bo'lgan 1500 yildan boshlangan zamonaviy ingliz davrida ko'plab yangi sharoitlar, muhim rol o'ynay boshladi. Avvalari umuman bo'lmagan yoki faqat cheklangan tarzda mavjud bo'lgan sharoitlar ingliz tilining rivojlanishiga sabab bo'ldi. O'rta asrlarda uning tarixini tavsiflaganidan biroz farqli bo'lgan. Matbaa xalq ta'limining tez tarqalishi, aloqa va aloqa vositalarining kuchayishi, maxsus bilimlarning o'sishi, til haqida o'z-o'zini anglashning turli shakllarining paydo bo'lishi yangi omillar edi. Ilk zamonaviy davrda ingliz tili butun

Angliyada, shuningdek Uels, Shotlandiya va Irlandiyaning ayrim hududlarida og‘zaki va yozma kontekslarda qo‘llaniladigan ko‘p funksiyali til sifatida qayta tiklandi.

Xulosa qilib aytganimizda, Zamonaviy ingliz tilini rivojlantirish usullari texnologik jarayonlarga borib taqaladi. Bilamizki, texnologiyalar rivojlanayotgan davrda yashayabmiz, ingliz tiliga bo‘lgan qiziqish, raqobat, izlanish, intilish bo‘lsagina rivojlana oladi. Umumjahon aloqa vositasi sifatida ingliz tili jahon hamjamiyatini yagona, yaxlit axborot qudrati sifatida birlashtirish va birlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu hodisa tufayli ingliz tili o‘zining geografiyasi va amalga oshirish sohalarini kengaytirmoqda. Jumladan, biznes va shaxslararo o‘zaro ta’sir hamda butun dunyo bo‘ylab turli mamlakatlar o‘rtasida xalqaro munosabatlarning kompyuterlashtirilgan integratsiyasidir. Quyidagi maqola erta zamonaviy ingliz tili bo‘lgan qiziqarli hodisaning barcha mumkin bo‘lgan tomonlarini o‘quvchiga taqdim etish maqsadida yozilgan. U erta zamonaviy ingliz tilining ildizlaridan boshlanadi, til rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan mumkin bo‘lgan tashqi omillardan o‘tadi, o‘sha davr ingliz tilining eng zo‘r mutaxassisi Uilyam Shekspirni ko‘rsatadi va nihoyat ingliz tilining bu davrda sodir bo‘lgan ichki o‘zgarishlari bilan yakunlanadi. Butun ishning asosiy maqsadi 1476 yildan XVIII asr boshlarigacha bo‘lgan davrda ingliz tilining rivojlanish yo‘lini ko‘rsatishdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2021 fakt va dalillar, mulohaza va munozara, tanqid va tahlil, talqin va xulosalar..
2. The Development of Early Modern English jurnali
3. Tilni o‘qitish va o‘rganish XXI asr ko‘nikmalari jurnali
4. <https://goaravetisyan.ru/uz/ispolzovanie-innovacionnyh-tehnologii-na-urokah-angliiskogo-yazyka/>

## "USING SONGS IN TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS"

**Nozima Jalilova**

Student at Uzbekistan State University of World Languages

English faculty № 2

Supervisor: F.Ashurova at English Language

Teaching Methodology №2, UzSWLU

### ABSTRACT

This article is about teaching based on modern methods of learning English and teaching using songs. About the aspects that need to be considered when teaching English to young learners using songs. It is also about measures that are important in improving the quality of education and mastery of young learners..

**Keywords:** songs , young learners, methods, audio materials;

Language is an important means of communication for people. Knowledge of foreign languages allows you to know the thoughts, worldviews, interests and aspirations, customs and traditions of nations that use this language. Knowing English, which is especially important around the world, allows you to know and learn about lifestyle in other language-speaking countries. Because English is studied and taught in almost all countries of the world. Especially in our country the attention to knowledge of English is very high. As a proof of my words, I would like to quote this sentence of the President of the Republic of Uzbekistan: “It is time to introduce a new system of foreign language teaching in our country, which will be a solid foundation for the future. Since we have set ourselves the goal of building a competitive state, from now on, graduates of schools, high schools, colleges and universities must be fluent in at least 2 foreign languages. This strict requirement should become the main criterion of the activity of the head of each educational institution”, - said Shavkat Mirziyoyev.

These views of our President not only increase the attention paid to the study of English in our country. He demanded that English teachers take a responsible approach to their language teaching activities. Now foreign language teachers have the responsibility to work on themselves regularly, using a variety of new methods, techniques and technologies to teach students quickly and effectively.

The use of songs is especially important in the use of new materials in teaching English, especially in the development of listening skills. There are many benefits to teaching young learners using songs.

Songs are one of the most magical and culturally rich resources that can be easily used in language classes. The songs suggest a change from the usual classroom activities. They are valuable resources for developing students' listening, speaking, reading, and writing skills. Songs can also be used to teach a variety of language elements such as sentences, vocabulary, pronunciation, rhythm, adjectives, and affixes. Learning English through songs also provides a non-hazardous environment for students who are generally tense when speaking English in class.

Songs can also be used for the presentation or practice phase of grammar lessons. They can encourage broad and intense listening and inspire creativity and imagination in a relaxed classroom environment. When choosing a song, the teacher should take into account the age, interests and language of the students in the song. To reproduce it is also helpful to allow students to participate in the selection of songs. Another plus side of using songs to young learners is flexibility since children are mostly tend to imitate to things they watch and listen. This also allows every child to feel as a part of the whole group and create the full responsibility among them.



Why are songs so suitable?

- Common, short words
- Written at about 5<sup>th</sup> grade level(US)
- The language is conversational
- Time and place are usually imprecise
- The lyrics are often sung at a slower

rate than spoken words



- There is repetition of words and grammar
- It lowers the “Affective filter”

We should also add that the song creates a positive mood in the audience. Helps to improve mood, improve mental performance, physical freshness. The use of songs in the classroom ensures that the lesson is interesting and colorful. Increases interest in the lesson in students. Accelerates the learning process. Helps to improve language skills.

## REFERENCES

1. Teaching English for Young Learners with Songs By IkaFarihahHentihu ikafarihah@yahoo.com Universitas Islam NegeriMaulana Malik Ibrahim Malang
2. Cameron, L. (1997). The task as a unit for teacher development. *ELT Journal*, 51(4), 345-351. <http://dx.doi.org/10.1093/elt/51.4.345>
3. Cameron, L. (2001). *Teaching languages to young learners*. Cambridge, England: Cambridge University Press.
4. Jolly, Y. S. (1975). The use of songs in teaching foreign languages. *The Modern Language Journal*, 59(1/2), 11-14.
5. Moriya, Y. (1988). English speech rhythm and its teaching to non-native speakers. Paper presented at the annual convention of Teachers of English to Speakers of Other Languages, Chicago.

6. Murphey, T. (1992). *Music and Song*. Oxford, England: Oxford University Press.
7. Purcell, J. M. (1992). Using songs to enrich the secondary class. *Hispania*, 75(1), 192-196. Retrieved from <http://www.jstor.org/stable/344779>
8. Richards, J. (1969). Songs in language learning. *TESOL Quarterly*, 3(2), 161-174.
9. Shen, C. (2009). Using English songs: An enjoyable and effective approach to ELT. *English Language Teaching*, 2(1), 88-94. Retrieved from [www.ccsenet.org/journal.html](http://www.ccsenet.org/journal.html)



## **ALLERGIK RINIT KASALLIKLARIDA KLINIK–LABORATORIYA DIAGNOSTIKASINI VA DAVOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH**

Magistr: **Axmadxo‘jayev Doniyorxo‘ja Ilhomxo‘ja o‘g‘li**

Ilmiy rahbar: FVKTTM Otorinolaringologiya kafedrasini mudiri Nazarov J.I

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Email: [axmadxojayev96@gmail.com](mailto:axmadxojayev96@gmail.com)

**Annotatsiya:** Allergik rinit eng keng tarqalgan kasalliklardan biri bo‘lib , umumiy aholining 10-20%ida uchraydi. Mazkur maqolada hozirgi kunda ko‘p uchrayotgan kasalliklardan biri allergik rinit kasalliklarini diagnostikasi va bu bilan kasalangan bemorlarni davolashni takomillashtirish haqida bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** yuqori nafas yo‘llari, o‘tkir va yuqumli kasalliklari, emlash, astma, allergik rinitni simptomlar, allergiya.

### **KIRISH**

Allergik rinit — yuqori nafas yo‘llarining kasalligi bo‘lib, organizmda allergik reaksiyaning paydo bo‘lishi tufayli yuzaga keladi. Bu kasallik ko‘pincha mavsumiydir (gul changiga allergiya bo‘lsa). Rinit o‘tkir va surunkali bo‘lishi mumkin. Har yili bemorlar soni ortib bormoqda. Allergik rinit eng keng tarqalgan allergik kasallikdir. 50 million allergik bemorlar orasida kasallik 40 million odamda kuzatiladi, bu 80% ni tashkil qiladi! So‘nggi ma‘lumotlarga ko‘ra, allergiyaning bu shakli sayyoramiz aholisining 8-12 foizida uchraydi. Birinchi alomatlar bolalik va o‘smirlik davrida paydo bo‘ladi. 25 yil o‘tgach, namoyonlarning zo‘ravonligi biroz kamayadi, ammo bemorlar to‘liq davolanmaydi.[1]

### **ASOSIY QISM**

Allergik rinit bilan bog‘liq eng muhim muammolardan biri kech tashxis hisoblanadi. Shunday qilib, bemorlarning 12 foizida kasallikning birinchi yilida tashxis qo‘yiladi, 50 foizida - kasallikning birinchi besh yilida va 38 foizida kasallik

boshlanganidan boshlab 10 yildan ortiq vaqt davomida yashaydi. [2] Kechiktirilgan tashxis allergik rinitning asoratlari rivojlanishiga olib keladi, shuningdek, bemorning hayot sifatini sezilarli darajada yomonlashtiradi [2]. Allergik rinit har qanday yoshda, hattoki chaqaloqlarda ham boshlanishi mumkin [3]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, emlash allergik kasalliklarga olib kelmaydi [4] . Hayotning dastlabki 5 yilida antibiotiklardan foydalanish astma va allergik rinit [5] xavfi bilan bog‘liq emasligi haqida dalillar ham mavjud.

**Kasallik sabablari.** Burun shilliq qavatining shishishi tufayli rinit paydo bo‘ladi. Kasallikni qozgatuvchi asosiy sabablar – allergiya uygotuvchilar bolib, ulardan eng tarqalganlari - o‘simlik changchilari, chang, uy hayvonlari tuklari, kimyoviy moddalar, dori vositalari va zamburuglar hisoblanadi. Bu kasallik nasldan naslga otadi. Bolalarda bu kasallik immunitetning zaiflashishi tufayli yuzaga keladi.[1]

Allergik rinitni davolash simptomlarning og‘irligi va davomiyligiga qarab bosqichma-bosqich yondashuvni talab qiladi. Hozirgi kunda Davolash usullarini tanlashda dori vositalarining xavfsizligi va iqtisodiy samaradorligini hisobga olish kerak. Xulosa qilib aytganda, shifokorlar to‘g‘ri tashxis qo‘yish va har bir bemor uchun to‘g‘ri davolash usulini tanlash uchun Allergik rinit bilan bog‘liq etiologiya, patofiziologiya, simptomlar, belgilar va kasalliklardan xabardor bo‘lishlari kerak.

**Diagnostika.** To‘g‘ri tashxis qo‘yish uchun siz allergist bilan maslahatlashingiz kerak. Ko‘pincha shifokor allergik rinitni simptomlar, shuningdek, shaxsiy va oilaviy kasallik tarixi bilan, mavsum va tetikleyiciler bilan bog‘liqligini qayd etishi mumkin. U burun ichidagi poliplar uchun burunning ichki qismini tekshirishi mumkin. Allergik rinit odatda davolanishning boshida tasdiqlanadi. Agar bemor antigistaminlarga yaxshi javob bersa, alomatlar deyarli allergiya tufayli yuzaga keladi. Agar allergik rinitning aniq sababi ma'lum bo‘lmasa, shifokor sizni allergiya testini o‘tkazish uchun klinikaga yuborishi mumkin.

**Ikkita asosiy allergiya testlari:** Teri tekshiruvi - allergen qo‘lga joylashtiriladi va allergenning immunitet tizimiga ta'sir qilishiga imkon berish uchun terining yuzasi

igna bilan teshiladi. Agar ushbu moddaga allergiya bo‘lsa, kichik qichimali yamoq (blister) paydo bo‘ladi.[6,7]

Qon testlari - qonda immunoglobulin E (IgE) antikorlari mavjudligini tekshirish; immun tizimi shubhali allergenga javoban bu antikor ishlab chiqaradi. Ba'zi hollarda burun poliplari yoki sinusit kabi asoratlarni izlash uchun qo‘shimcha testlar va testlar talab qilinishi mumkin[7].

Yuqoridagilarga ko‘ra shuni aytish kerakki Allergik rinitning ko‘pgina belgilari boshqarilishi mumkin. Keyinchalik og‘ir holatlarda, allergik zarbalar kerak. Ba'zi odamlarda, ayniqsa bolalarda, allergiya kamayishi yoki yo‘qolishi mumkin, chunki immunitet tizimi patogenga nisbatan kamroq sezgir bo‘ladi. Ammo agar polen kabi modda allergiyaga olib keladigan bo‘lsa, u ko‘pincha odamga uzoq muddatli ta'sir ko‘rsatishda davom etadi. Bemor allergik bo‘lgan gulchaglardan qochish orqali simptomlarni oldini oladi. Polen mavsumida iloji boricha konditsioner bilan uyda qoling. Yopiq derazalar bilan uxlang va derazalar yopiq holda haydash.

## **XULOSA**

Muxtasar qilib aytganda, Har yili bemorlar soni ortib bormoqda. Allergiya kasalliklaridan eng keng tarqalganlardan biri allergik kasallikdir. Kasallik bilan 50 million allergik bemorlar orasida kasallik 40 million odamda kuzatiladi, bu 80% ni tashkil qiladi! So‘nggi ma'lumotlarga ko‘ra, allergiyaning bu shakli sayyoramiz aholisining 8-12 foizida uchraydi. Birinchi alomatlar bolalik va o‘smirlik davrida paydo bo‘ladi. 25 yil o‘tgach, namoyonlarning zo‘ravonligi biroz kamayadi, ammo bemorlar to‘liq davolanmaydi. Shuning uchun bu kasallikni oldini olishi va shifokor ko‘rsatmasiga rioya qilishi zarur.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Allergik rinitning farmakoterapiyasi. Palchun V.T., Guseva A.L., Levina Yu.V., Derbeneva M.L. Tibbiy kengash, 2020. bet. 122-127
2. Rinit: differentsial tashxis va davolash tamoyillari. Guseva A.L., Derbeneva M.L. Tibbiy kengash, 2020. bet. 102-108

3. Allergist nuqtai nazaridan allergik rinit. Sidorovich O.I., Luss L.V. Consilium Medicum, 2019. p. 75-78
4. Allergik rinit. Ryazantsev S.V., Goncharov O.I. Tibbiy kengash, 2018. p. 76-79
5. Аллергический ринит: этиология, патогенез, особенности фармакологии. Методические рекомендации. — СПб, 2017.
6. Koppen S., de Groot R., Neijens H. J., Nagelkerke N., van Eden W., Rümke H. C. No epidemiological evidence for infant vaccinations to cause allergic disease // Vaccine. — 2004; 22(25-26): 3375-85.
7. Cullinan P., Harris J., Mills P., Moffat S., White C., Figg J., Moon A., Newman Taylor A. J. Early prescriptions of antibiotics and the risk of allergic disease in adults: a cohort study // Thorax. — 2004; 59(1): 11-16
8. Suyarkulova Madhiya Erkinovna, & Abdullaeva Muazzam Rustamjon kizi. (2022, April 25). PREPARATION OF WOMEN WITH GLOMERULONEFTITIS FOR PREGNANCY. "INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM", USA washington. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6481795>
9. Suyarkulova Madhiya Erkinovna, & Abdullaeva Muazzam Rustamjon kizi. (2022). Prevention of Early Birth in Pregnant People with Kidney Disease. Texas Journal of Medical Science, 7, 101–102. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjms/article/view/1387>

## **QORAKO‘LCHILIK MAXSULOTLARIGA ISHLOV BERISHDA BIOTEXNOLOGIK JARAYONLARDAN FOYDALANISH**

**Baratov Kamol Urolboy o‘g‘li**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar  
universiteti magistri

E-mail: [kamolbaratov1494@gmail.com](mailto:kamolbaratov1494@gmail.com)

**Mirzayev Sanjar Kilichevich**

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar  
universiteti magistri

E-mail: [mirzayevsanjar3322@gmail.com](mailto:mirzayevsanjar3322@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada qorako‘l terilariga sanoat ishlov berishda terilarini oshlashda biotexnologik usullarni qo‘llash yuzasida olib borilgan tadqiqot natijalari aks ettirilgan .

**Kalit so‘zlar:** qorako‘l teri, terilarini oshlash, terilarning sath o‘lchamlari, terilarni iylash

**Annotation:** The article presents the results of research on the application of biotechnological methods in the processing of astrakhan skins.

**Keywords:** astrakhan leather, leather upholstery, leather surface sizes, leather upholstery

Qorako‘lchilik sohasi chorvachilikning muhim tarmog‘i bo‘lib og‘ir ekstremal sharoitiga ega cho‘l yaylovlaridan samarali foydalanish, Respublikamizning oziq ovqat xavsizligini ta‘minlashda va jahon mo‘yna bozori talabiga muvofiq eksportbop salohiyatga ega bo‘lgan turli rang va rang- baranglikdagi qorako‘l teri, xalqning go‘sht,

jun va boshqa mahsulotlar, engil sanoatga xomashyo turlarini etkazib berishda juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu xududda yashaydigan 3,0 milliondan ortiq soha bilan shug‘ullanuvchi aholining hayot kechirish manbai hisoblanadi.

Qorako‘lchilik mahsulotlariga sanoat ishlovi berish masalalari qorako‘lchilik mahsulotlariga qayta ishlov berish korxonalari sharoitida o‘rganiladi. Qorako‘l yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi xo‘jaliklar sanoat markazlaridan ancha uzoqda, tarqoq holda joylashganligi, joylarda terilarga sanoat ishlov berish imkoniyati yo‘qligidan qorako‘lni ma‘lum muddatga buzmasdan saqlash maqsadida ular tuzlab yoki tuzlamasdan quritiladi. Yangi shilingan terilar tuzlanganida tuz eritmasi teri to‘qimasi ichiga singib kiradi va teridagi suyuqlikning ancha qismi yuzaga sirqib chiqishi tufayli u yerdagi osmotik bosim shu qadar ko‘tarilib ketadiki, natijada zararli mikroorganizmlarning ko‘payishi uchun kerakli sharoitlar deyarli tugatiladi. Tuzdan chiqqan terilarda qolgan namlik quritilish jarayonida yanada ham kamayadi va zararli mikroorganizmlar hayot faoliyati deyarli to‘xtaydi.

Yangi shilingan qorako‘l terilari tuzlamasdan ham quritilishi mumkin. Tuzlamasdan quritilgan terilar nam muhitga ancha chidamli bo‘lishiga qaramasdan o‘z egiluvchanlik xususiyatini yo‘qotganligidan tez sinuvchan va yirtiluvchan bo‘lib qoladi. Yangi shilingan qorako‘l terilariga birlamchi ishlov berishning bu ikkala usuli ham vaqtinchalik tadbir bulib, bu xilda ishlov berilgan terilardan amalda ehtiyoj uchun foydalanish mumkin emas. Qorako‘l terilarini oshlashda don yormasi achitqilaridan (arpa va so‘li yormasi) foydalaniladi. Oshlash usuli azaldan ma‘lum bo‘lib, ilgari vaqtlari barcha turdagi mo‘yna va mo‘ynabop xomashyo terilariga oshlash yo‘li bilan ishlov berilgan. Qorako‘l terilarni iylash. Tuzlab quritish, tuzlamasdan quritish usuli bilan konservalangan terilarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste‘mol uchun ishlatishning hych iloji yo‘q. Oshlangan qorako‘l terilari iste‘mol uchun birmuncha qulay, ammo oshlash jarayonida orttirilgan egiluvchanlik, qayishqoqlik kabi ijobiy xislatlar doimiy emas, chunki muhitning noqulay sharoitlari (yuqori harorat, havoning sernamligi, tik tushuvchi quyosh nurlari va hokazo) ta‘sirida bu xislatlarning yo‘qolish xavfi mavjud. Shu sababli iste‘mol buyumlari tikish oldidan qorako‘l terilariga sanoat ishlovi berish,



ya'ni iylash lozim bo'ladi. Qorako'lni iylash murakkab mexanik, fizik va kimyoviy jarayonlar majmuasi bo'lib, undan quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi: a) qorako'lning mag'zini teri osti kletchatkasidan, yog' qoldiqlaridan tozalash; b) teri to'qimasini konservalovchi modda (osh tuzi, don achitqilari) lardan, eruvchan oqsillardan tozalash c) terining yumshoq, qayishqoq, egiluvchanligiga erishish maqsadida yo'g'on kollagen tolimli bog'lamlarining yechilib, ingichka tolachalar darajasigacha titilishiga va tolalar holatining shu tarzda uzoq muddat saqlanishiga erishish; d) qorako'ldan foydalanish jarayonida paydo bo'ladigan turli xil ta'sirlarga teri to'qimasining kimyoviy chidamliligini oshirish; e) qorako'lning tola qoplamini har xil iflosliklar va konservalovchi moddalardan tozalash, gullariga yangi shilingan holdagi shaklu-shamoyilini va chiroyini qaytarib berish. Qorako'l terilarini quritish va tozalash jarayonlarida ularning gullari to'zg'iydi, xurpayadi, o'zining asl shaklini vaqtincha yo'qotadi. Gullari aniq bilinmagan qorako'lning tovar sifatini aniqlash, qanaqa navga mansubligini aytib berish o'ta qiyindir. Qorako'l savdosida odillik bo'lishi, qorako'l gullarining jimjimador va aniq ko'zga tashlanishi va navlarga xillashning aniq bo'lishi uchun quritib, tozalangan terilarga “dam” beriladi. Bunda ularni “gulini-guliga” qilib 60-80 sm gacha balandlikda ustun qilib taxlangan holda, ustiga biror og'irroq yuk bilan kamida 72 soatga bostirib qo'yiladi.

Yaxshi dam olib, to'zg'igan gullari ancha bosilib, tiklanib, asl shakliga qaytgan qorako'l terilari navlarga xillanadi. O'quvchilarda qorako'l terilarning savdosi ko'proq yalpi soni bo'yicha bo'layotganligi tufayli ularni navlarga xillash shartmikan degan savol tug'ilishi mumkin. Shuni unutmaslik kerakki, qorako'l terilaridan tayyorlanadigan turli xil kiyim-kechaklarning har biriga ma'lum nav va rangdagi o'xshash sifatli terilar ishlatiladi, buning ustiga jahon “kim oshdi” mo'yna savdolaridagi barcha aloqalar faqatgina ma'lum navli (nomer) terilar bo'yicha olib boriladi. Shu tufayli ham qorako'l terilari albatta, amaldagi tayyorlov andozalarining talablari asosida xillanishi, dastalanib bog'langan bo'lishi lozim.

Oshlanmagan qorako'l terilar savdosi ularning turi, rangi, sath o'lchami, nav va nuqsonliligini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Terilarning sath o'lchamlari.

Ushbu ko‘rsatkich terilarning bahosini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining “Oshlanmagan barra qorako‘l terilar” (1996) davlat andoza talablariga asosan tuzlab quritilgan qorako‘l hom-ashyosi 3 guruhga ya’ni yirik sathli (1400 sm katta), o‘rta sathli (901 sm dan 1400 smgacha), mayda sathli (601 sm dan 900 sm) guruhlarga ajratiladi Tajribalar davomida qorako‘l terilari sath o‘lchamlarning turi birlamchi ishlov berish sharoiti qo‘zilardan yangi shilib olingandagiga nisbatan o‘zgarish darajalarini o‘rganish quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

1 - jadval

### Tajribadagi terilarning sath o‘lchamlari

Ishlov berish jarayonlari	p	Terining sath olchami sm <sup>2</sup>			Sath qisqarishi, %
		Qo‘zilardan shilib olingan holatda		Quritilgan holatda	
		M ± m		M ± m	
Otar sharoitida tuzlab quritilgan	3 0	1451,4 ± 23,4		1210,3±15, 3	16,5 9
Markazlashgan so‘yim punkitida tuzlab quritilgan	3 0	1461,7±23, 9		1240,5±16, 3	15,1 0

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki tanlangan terilar sath o‘lchami bo‘yicha deyarli bir xil ko‘rsatkichga (mutanosib ravishda 1551,4 sm<sup>2</sup> ; 1561,7 sm<sup>2</sup>) ega bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkichning o‘zgaruvchanlik darajasi ham bir-biridan deyarli farq qilmasligi (Sv = 8,27; 8,38) kuzatish mumkin Tadqiqotlar davomida turli xil sharoitda ularga ishlov berish va quritish jarayoniga ma’lum o‘zgartirish kiritish sath o‘lchamining turli xil darajada qisqarishini ta’minlashi aniqlandi. Xar ikkala guruxdagi terilar ko‘rinib turibdiki, qo‘zilardan shilib olingan terilar Davlat andoza talablariga

asosan yirik sathga ega. Otar sharoitida ularga birlamchi ishlov berish teri sathining eng yuqori darajada qisqarishiga olib kelishi kuzatilgan (18,4 % yoki 241,3 sm<sup>2</sup>). Markazlashgan so‘yish punktida birlamchi ishlov berish va terilarni yerda quritish sharoitida (maxsus ajratilgan joyda) teri quritilsa 16,5 %ga yoki 221,2 sm<sup>2</sup> qisqarishi aniqlangan Ko‘rinib turibdiki ushbu ikki usulda tuzlanmasdan oldin yirik hisoblangan terilar birlamchi ishlov bergandan keyin o‘rta sathli terilar guruxiga o‘tdi. Ushbu holatni otar sharoitida terilarni quritishga qo‘yishda ularni yaxshi qo‘zg‘alishiga yetarli e‘tibor bermaslik natijasida ko‘p joylarda terining buklanib qolishi bilan, markazlashgan so‘yish punktida tuzlab quritilgan terilarni yaxshilab tekis tortilishi va maxsus ajratilgan joyda (yerda) quritilishi bilan teri to‘qimasining minimal darajada qisqarishi bilan izohlash mumkin. Shuning uchun maxsus joyda quritish otar sharoitida ishlov berilgan terilar sathiga nisbatan statistik ishonchli ustun ko‘rsatkichga ega bo‘linishi ta’kidlaydi ( $R < 0,01$ )

2 - jadval

**Tajribadagi qorako‘l terilarning og‘irligi.**

Ishlov berish sharoiti	n	Terining og‘irligi, g				Teri og‘irligining kamayishi	
		Qo‘zilardan shilib olingan xolatda		Quritilgan xolatda		G	%
		M ± m	C	M ± m	C		
Otar sharoitida tuzlab quritilgan	30	217,7 ±29,6	1 3,34	480,1 ±10,1	7 ,4	7 35,6	6 0,5
Markazlashgan so‘yish	30	232,3±34,6	1 5,39	420,1 ±7,1	5 ,6	8 12,2	6 5,9

punktida tuzlab quritilgan							
----------------------------------	--	--	--	--	--	--	--

Jadval ma’lumotlarining taxlili ko’rsatmoqdaki turli sharoitda ishlov berish qorako’l terilari massasining o’zgarishiga sezilarli ta’sir ko’rsatadi. Xulosa qilib aytganda Qo’zilarida yangi shilib olingan holatda deyarli bir xil statistik jihatdan ishonch kriteriyasi darajasida farqlanmaydigan massaga ega bo’lgan qorako’l terilari mutanosib ravishda (1215,7 va 1232,32 g) turli sharoitda tuzlab quritilgan keyin ma’lum statistik ishonchli ( $R < 0,01$ ) farqlanishga ega bo’lishi aniqlandi. Otar sharoitida tuzlab quritilgan qorako’l terilari ishlov berish jarayonida tarkibidagi 60,5 % namlik yo’qolishi xisobiga massasi 735,6 grammga yo’qolib, oxiri 480,12 g massaga ega bo’lib qoladigan bo’lsa, xuddi shu jarayonni markazlashgan so’yish punkitida amalgam oshirish teri tarkibidagi 65,9 % namlikning chiqib ketishini ta’minlab, mutanosib ravishda 812,2 g massasi yo’qolish xisobiga 420,1 gramm oxirgi massaga ega bo’lishi ta’minlanishi kuzatildi. Oxirgi sharoit ma’lum darajadagi yuqori natijalarning olinishi markazlashgan so’yish punkitida qorako’l terlariga birlamchi ishlov berishda mavjud texnologik qoidalarga to’liq amal qilinishi bilan tushuntirish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Abduraxmonov M. Qorako’lchilikka e’tibor. O’zbekiston qishloq xo’jaligi, №12, 2008
2. Ajiniyazov B. SHerstnaya produktivnost seryx karakulskix ovets v usloviyax Karakalpakstana. Zooveterinariya jurnali №12.2010
3. Axmedov F., Gaziev A., Narziev M. Qorako’lchilikdagi muhim tadbirlar. O’zbekiston qishloq xo’jaligi, №2, 2011
4. Bazarov S.R. “Qizilqum sharoitida sur rang qorako’l qo’ylarini urchitishni irsiy-naslchilik asoslari” doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. Samarqand 2015 yiy. 72 bet.
5. Baratov. P. Tabiatni muxofaza kilish. Toshkent. 1990. yil. 258 bet.

**QO‘YLARNI KO‘PAYTIRISHDA BIOTEXNOLOGIYADAN  
FOYDALANISH, TURLI YOSHDAGI QO‘CHQORLARNING JINSIY  
FAOLLIGI VA URUG‘ SIFATINI BAHOLASH**

**Baratov Kamol Urolboy o‘g‘li**

E-mail: [kamolbaratov1494@gmail.com](mailto:kamolbaratov1494@gmail.com)

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar  
universiteti magistri

**Mirzayev Sanjar Kilichevich**

E-mail: [mirzayevsanjar3322@gmail.com](mailto:mirzayevsanjar3322@gmail.com)

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar  
universiteti magistri

**Annotatsiya.** Ushbu maqolda qo‘ylarni ko‘paytirishda biotexnologiya usullaridan foydalanish va turli yoshdagi qo‘chqorlarning jinsiy faolligi va urug‘ sifati bo‘yicha tadqiqot natejalari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** biotexnologiya, jinsiy faollik, urug‘, qo‘ylar.

**Annotation.** This article presents the results of research on the use of biotechnological methods in sheep breeding and sexual activity and seed quality of rams of different ages.

**Keywords:** biotechnology, sexual activity, semen, sheep.

Biotexnologiya fan-texnika taraqqiyotining murakkab ko‘p tarmoqli sohasi bo‘lib, turli mikrobiologik sintez, genetik va hujayra muhandisligi, muhandislik enzimologiyasi - o‘simliklar, hayvonlar va hayvonlar organizmida oqsil fermentlarining ta'sir qilish shartlari va ketma-ketligi haqidagi bilimlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. odamlar, sanoat reaktorida (Yu.A. Ovchinnikov). Biotexnologiya mikrobiologiya, biokimyo va biofizika, genetika va sitologiya,

bioorganik kimyo va molekulyar biologiya, immunologiya va molekulyar genetika chorrahasida paydo bo‘ldi. biotexnologiya tirik organizmlarni zamonaviy qurishning yangi usullari bilan bog‘liq muammolarning keng doirasini oladi; foydali mikroorganizmlar, madaniy o‘simliklar va qishloq xo‘jaligi hayvonlari.

Ma'lumki, zamonaviy qishloq xo‘jaligi biologiyasining ajoyib yutuqlaridan biri - sun'iy urug‘lantirish usullarini ishlab chiqarish, so‘ngra spermani yaxshilash, azotda uzoq saqlash - ayniqsa qimmatli ishlab chiqarish genfondidan maksimal darajada foluchimalydarajada bu zotlarni qayta tiklash jarayonini faollashtirishga imkon berdi. Zamonaviy klassik genetikaga ko‘ra, ikkala ota-ona ham naslga taxminan bir xil ta'sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, naslchilikni yanada takomillashtirish alohida zo‘r urg‘ochi qishloq xo‘jaligi hayvonlari genofondidan keng foydalanish asosida ham mumkin. Buni biotexnologiya usullari, xususan, erta embrionlarni transplantatsiya qilish usuli asosida amaliy tanlashda amalga oshirish mumkin. Qo‘ylarning mahsuldorlik va naslchilik sifatlarini oshirishda zamonaviy ko‘payish usullaridan foydalanish nasl sifati bo‘yicha sinovdan o‘tgan va takomillashtiruvchi deb e‘tirof etilgan urug‘lar yordamida sun'iy urug‘lantirish kombinatsiyasi bilan cheklanadi. Boshqa biotexnologik usullar, masalan, embrion transplantatsiyasi, tuxum olish, yetishtirish va urug‘lantirish, urug‘ va embrionlarni jinsiga ko‘ra saralash juda qimmat, yetarli darajada mukammal emas va amalda qo‘llanilmaydi. Hozirgi vaqtda seleksiya va naslchilik ishlari va hayvonlarni ko‘paytirish masalasi keskin. Birinchidan, faqat yuqori mahsuldor nasldor hayvonlar bilan sarmoyadan maksimal foyda olish va sanoatning rentabelligini oshirish mumkin. Ikkinchidan, chorva mollari sonini ko‘paytirish va qo‘ychilik mahsulotlari yetishtirishning asosiy dastagi podani ko‘paytirish ishlarini kuchaytirishdir.

Chorvador qo‘chqorlarning jinsiy faolligini aniqlash katta nazariy va amaliy qiziqish uyg‘otadi.

Jinsiy faollikni aniqlashda asosiy testlar sifatida qo‘chqorlarning bitta eyakulyatsiyani olish uchun sarflagan vaqti va sakrashlar soni olingan.

Sperma yig‘ish boshlanishidan 30-35 kun oldin qo‘chqorlar sun‘iy qin qafaslariga tizimli ravishda o‘rganila boshlandi. Jinsiy foydalanish rejimi ishlab chiqaruvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘rnatildi. Shartli jinsiy reflekslarni tiklash uchun qo‘chqorlarga har kuni bittadan, urug‘ni yig‘ish boshlanishidan oldin oxirgi 7 kun ichida kuniga 1-2 katak berildi.

Sperma yig‘ish boshlangandan beri ishlab chiqaruvchilarning jinsiy faolligini saqlab qolish va yuqori sifatli sperma olish uchun qo‘chqorlar kuniga 2 ta katak yuklangan. Sperma kuniga 2 marta qabul qilindi: ertalab va kechqurun. Shuni yodda tutish kerakki, qo‘ylarning jinsiy faolligini saqlab qolish va uni yuqori darajada ushlab turish uchun kun tartibiga qat‘iy rioya qilish kerak.

### 1-Jadval

#### Turli yoshdagi qo‘chqorlarning jinsiy faolligi

Ko‘rsatkichlar	Yoshi	
	1,5 yosh	2,5 yosh
Nazorat davrida sakrashlar soni 3 soat	8,10	11,30
1 sakrashga ketgan vaqt, sek	37,2	31,0
Jinsiy reflekslar ifodalanishi, ball	4,66	4,90

Qo‘ylarini sun‘iy qochirishni to‘g‘ri tashkil qilish uchun ularni fiziologik va jinsiy yetukligini hisobga olish, kuyukishning boshlanish vaqtini, sun‘iy urug‘lantirish usullari va yana bir qancha tadbirlarni bilish juda muhimdir. Qo‘ylar 3-4 yoshga kirganda fiziologik yetuklik davri hisoblanib, bu paytda ularningg mahsuldorlik ko‘rsatkichlari eng yuqori darajaga yetadi. Jinsiy yetuklik davri esa 6-8 oylik davridayoq namoyon bo‘ladi. Qo‘ylarni jinsiy yetuklik davri ularni saqlash va oziqlantirish sharoitiga bevosita bog‘liq. Urg‘ochi qo‘zilarni juda erta (5-6 oyligida) qochirish ularning keyingi o‘ssishi va rivojlanishiga, mahsuldorligi va ko‘payish sifatiga zararli ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun podada 4,0-4,5 oylik to‘qlilar (urg‘ochi qo‘zilarni) qo‘chqorchalardan alohida saqladi. Sovliqlarni qochirishga tayyorlash

uchun qari va surunkali kasal ko‘payishga yaroqsiz sovliqlar puchak qilinib, podadan chiqarilib yuborildi. Veterenariya–sanitariya ishlari, qo‘tirga qarshi cho‘miltiriladi, emlash va kuzgi jun qirqilishi o‘tkazildi. Qo‘ylar kuzgi hosildorligi yaxshi yaylovlarda boqiladi. Nimjon qo‘ylarga 250-300 g dan qo‘shimcha omuxta yem yoki konsentrat ozuqalar berildi. Sovliqlar sutkasiga 2-3 marta sug‘orildi, ularga tuz va bo‘r berib turildi. Qo‘chqorlar urug‘lantirishga 30-35 kun qolganda nasldor qo‘chqorlar asta–sekin urug‘lantirish punktiga haydab keltirildi. 20-25 kun qolganda ular kuchaytirilgan me‘yorga o‘tkazildi, bu me‘yor ular tirik vazni va urug‘lantiradigan sovliq miqdoriga moslab tuzildi

## 2-Jadval

### Turli yoshdagi qo‘chqorlar urug‘i sifati

Ko‘rsatkichlar	Qo‘chqorlar yoshi	
	1,5 yosh (n=4)	2,5 yosh (n=4)
Jami sakrash soni	31	35
Olingan urug‘, ml	30,9	44,8
Bitta eyakulyat xajmi, ml	0,99	1,28
Rezistentligi, ming	28,54	35,06
1 ml da konsentratsiya (mlrd)	3,21	3,98

Jadval ma`lumotlaridan ko‘rinib turibdiki Turli yoshdagi qo‘chqorlarning urug‘i sifatini o‘rganish uchun 1,5 va 2,5 yoshli qo‘chqorlar saralab olindi tajriba davomida qo‘chqorlarning Jami sakrash soni 1,5 yoshda 31 tani 2,5 yoshda 35 tani tashkil qildi olingan urug‘ miqdori 1,5 yoshda 30,9 mlni 2,5 yoshda 44,8 mlni tashkil qildi bitta eyakulyat hajmi 0,99 ml 1,5 yoshda va 1,28 mlni 2,5 yoshda tashkil qilgan. shunday qilib qo‘chqorlarning urug‘ sifati yoshiga qarab o‘zgaradi. qo‘ylarni ko‘paytirishda biotexnologik usullardan foydalangan holda urug‘ sifati va jinsiy faolligi muhim bo‘lib ulardan foydalanish yo‘nalishini ertaroq aniqlashga qo‘chqor sifatini aniqlash



imkoni yaratadi ushbu tajriba natijasida qo‘ylarning yoshlararo ko‘payishini biotexnologik holatini nazorati qo‘ylarni yoshlari o‘rtasida katta tafovut mavjud emasligini ko‘rsatdi va yosh qo‘chqorlardan ertaroq foydalanish samarali ekanligini ko‘rsatdi va ishlab chiqarishga ertaroq ulardan foydalanish tavsiya etiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.Aybazov M.M., Mamontova T.V., Seitov M.S. Povyshenie rezultativnosti osemneniya oves kriokonservirovannoy spermoy. Selskoxozyaystvenniy 2017

2.Boboqulov N.A., Popova V.V., Ibragimov J.X., Xaydarov Q., Rafiev B., Razrabotat effektivnye priemy intensivatsii proizvodstva myasa v karakulevodstve. Samarkand 2018.

3.Ismailov M.Sh., Yusupov S.Yu., Gaziev A., Fazilov U.T., Boltaev A.J., Ismailova M.M. Qorako‘l qo‘ylarining qayta urchish qobiliyatini yaxshilash bo‘yicha tavsiyanomalar. Samarqand 2016



## CHALLENGES OF TEACHING ENGLISH FOR STUDENTS IN ECONOMICS

**Yunusova Feruzakhon Hodjiakbarovna**

a senior teacher, the English language department, TSUE.

e-mail: [yunusovaferuza1981@gmail.com](mailto:yunusovaferuza1981@gmail.com)

**Shermuhamedova Dilnozakhon Rakhimdjanovna**

a senior teacher, the English language department, TSUE.

e-mail: [noz\\_1983@mail.ru](mailto:noz_1983@mail.ru)

**Abstract:** It is obvious that, the role of the English language as the main means of professional communication (especially in the process of international cooperation) is currently constantly increasing, which is confirmed by the results of studies that are actively carried out both by universities and analytical centers, by various organizations related to public opinion polls. The article deals with the issues related to teaching a foreign language for special purposes (ESP - English for Special Purposes) on the example of teaching English for students in Economics.

**Key words:** factors, Economics, business English, educational material.

**Abstract:** Ma'lumki, bugungi kunda ingliz tilining professional muloqotning asosiy vositasi sifatidagi roli (ayniqsa, xalqaro hamkorlik jarayonida) doimiy ravishda oshib bormoqda. Buni universitetlar va tahliliy markazlar, jamoatchilik fikrini o'rganish bilan bog'liq turli tashkilotlar tomonidan faol olib borilayotgan tadqiqotlar natijalari ham tasdiqlaydi. Maqolada Iqtisodiyot yo'nalishi talabalari uchun ingliz tilini o'rgatish misolida maxsus maqsadlar uchun chet tilini (ESP - English for Special Purpose) o'qitish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** omillar, Ekonomika, biznes ingliz tili, o'q'uv materiallari

Currently, the study of Business English is of considerable interest, the development of which is facilitated by a number of extralinguistic factors, such as the development of economic, political and trade relations between countries. Today, the use of business English as the language of international communication is expanding significantly. Business English serves the official and extremely important areas of human relationships: between government and population, between countries, enterprises, organizations, institutions, individuals and society. Due to the involvement of a large number of people in market relations, the ability to correctly and efficiently draw up business papers, conduct a presentation, negotiate with business partners, and conduct a business conversation on the phone become relevant. Most students of economics universities realize that in the current situation on the labor market, when joint ventures with foreign partners are formed and branches of large foreign companies open, proficiency in business English is becoming one of the factors giving priority when applying for a job. These facts allow us to state that proficiency in business English today is one of the criteria for the professional competence of a specialist in the field of economics.

The study of research materials on the problem of the formation of business English skills, acquaintance with the practice of teaching business English in an economic university and the personal experience of scholars allowed us to admit that most students of economic faculties do not have sufficient skills in business English: they are not able to select lexical units typical for business speech, when presenting their thoughts orally or in writing, do not possess compositional features characteristic of oral and written genres of business English, have a low level of skills in conducting a business conversation on the phone and creating presentations on economic topics, etc. Since the inability to use English for professional purposes is due to the insufficient level of formed foreign language skills in business English, it is necessary to state the need for a deeper study of this issue and the creation of an optimized methodology for teaching business English, which could be used in the conditions of teaching students

of economic universities. We believe that such a methodology can be a method of teaching business English using electronic resources. To achieve these goals, the motivation of students of economic specialties to study English is the main, if not decisive factor, including because the majority of students are either weakly interested or not at all interested in mastering a foreign language [2]. This can be explained by the fact that English is a compulsory but non-core discipline, as well as the insufficient school preparation of the majority of students. The objective values, interests and ideals inherent in a given society act as a motive. If accepted by a person, they acquire a personal meaning and incentive force.

In the process of training a specialist (bachelor's or master's) for the economy of the state, these qualities should develop within the walls of the university, and the debatable nature of communication in a foreign language, work on projects as part of a team, discussion of a case study and the search for an optimal solution based on various databases, participation in business and role-playing games - the basis for interactive interaction in the triad "learner - group - educator". In addition, higher education offers excellent opportunities for the economic mobility of young professionals. For example, the researchers of this process A. Yu. Polenova, GS Pshegusova believe that “the higher the educational potential, the higher the economic activity, the more employment, the lower the unemployment rate. The professional mobility of young people is facilitated by the effective interaction of educational institutions with employers, flexibility in determining the content of education, taking into account external factors” [1, p. 131]. In this regard, the regularly held job fairs at the university are relevant, where students can meet and personally talk with company representatives, take a small test, sign up for an interview with the HR manager for internship or employment. In addition to the traditional ones, the so-called "Bolognese" forms and methods of foreign language teaching are being introduced in the process of teaching at the university. For example, the transition from a linear to a modular form of education is currently underway. This gives a chance to select the language material in more detail, arrange it in the form of work programs in highly specialized areas of

training for undergraduates, during modular training, carefully work out all types of speech activities in the format of intensive training and smoothly "bring" students to a test or exam. In addition, the principles of the approach to the formation of mobile groups are being introduced. This contributes to the development of skills in foreign language communication and verbal communication with different participants, each time students develop teambuilding skills and effective interaction within the team. Particularly relevant are specific principles in the process of foreign language professionally oriented education of undergraduates [2, P.36].

The creation of an institute of tutors, lectures by invited foreign professors and specialists in English give excellent chances for improving students' professional communication skills in a non-native language, expanding their boundaries of knowledge, and contributing to the development of the axiology of the educational process. At the moment, universities are paying more and more attention to the organization of students' independent work. It should be expanded by mastering the educational material for each lesson through the use of the information system. This type of work should become a mandatory stage of preparation, which contributes to the development of communication skills. At the same time, the task of the teacher is to skillfully direct and stimulate the development of students' desire to work independently. Access to the information system of the university should be built on the basis of network technologies that allow you to receive educational materials via the Internet and update data on your training on the server to inform the teacher. Such an organizational form of training will increase the effectiveness of students' educational activities, as it will contribute to its organization, management, control and motivation. In this regard, one cannot fail to note the active work of the teaching staff in the preparation of electronic textbooks and teaching aids, electronic disks, multimedia training programs. For example, tests in the ICT system provide automatic verification, display the test results on the screen, offer an analysis of the most poorly mastered elements of foreign language material on the topic under study with the aim

of re-working it. This greatly saves the teacher's time, which they often have to spend on checking such written assignments.

### REFERENCES

1. Polenova, A.Yu., Pshegusova, G.S. Foreign language as a tool for the formation of professional mobility of the future economist. Volume 6. - 2015. - No. 1. - P.131.
2. Dmitrienko T.A. Development of skills of independent creative activity in the process of professionally oriented teaching of a foreign language // Problems of Applied Linguistics. M.: RUDN, 2009. P. 6-11.



## TA'LIM SOHASIDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA TALABALARNING BULUTLI TEXNOLOGIYALARGA EHTIYOJLARI

**Egamov Zafarbek Raximboy o'g'li,**

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

E-mail: [zafarbekegamov0112@gmail.com](mailto:zafarbekegamov0112@gmail.com)

**Abstrakt:** Hozirgi kunda bulutli texnologiyalar ta'lim sohasini rivojlanishining kuchli yo'nalishini ifodalaydi. Bulutli hisoblash haqida gap ketganda, biz uch xil xizmat modelini ajratib ko'rsatishimiz kerak: Infratuzilma xizmat sifatida (IaaS), Platforma xizmat sifatida (PaaS) va dasturiy ta'minot xizmat sifatida (SaaS). Ushbu ishning ko'lami dasturiy ta'minot sifatida xizmat ko'rsatish modelidir.

**Kalit so'zlar:** bulutli hisoblash, xizmat sifatida platforma (PaaS), ta'lim, talabalar.

## USE OF CLOUD TECHNOLOGIES IN EDUCATION AND STUDENT NEEDS FOR CLOUD TECHNOLOGIES

**Abstract:** Today, cloud technologies represent a strong direction in the development of education. When it comes to cloud computing, we need to distinguish three different service models: Infrastructure as a service (IaaS), Platform as a service (PaaS) and Software as a service (SaaS). The scope of this work is a model of service as software

**Keywords:** cloud computing, platform as a service (PaaS), education, students.

**1.Kirish.**So'nggi bir necha yil ichida "bulutli hisoblash" tobora ko'proq muhokama qilinmoqda. Bu IT sanoati rivojlanishining nisbatan yangi tendentsiyasi bo'lib, u foydalanuvchilarga qaratilgan va noutbuklar, planshet kompyuterlar va

smartfonlar kabi turli xil mobil qurilmalardan foydalanishning ko‘payishi bilan bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bu raqamli iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri. Yevropa hukumatlari va sanoati 2020-yilgacha bulutli hisoblashni rivojlantirishga 45 milliard yevro sarmoya kiritishni rejalashtirmoqda. Masofaviy serverlarning bulutli hisoblash tarmoqlarida, saqlash tizimlari (ma'lumotlar markazlari va server fermalari) va ularning resurslaridan foydalanuvchi talabiga binoan foydalanilmoqda.

**2.Nazariy asoslar.** AQSh Savdo Departamenti Milliy standartlar va texnologiyalar instituti bulutli hisoblashni "sozlanishi mumkin bo‘lgan hisoblash resurslarining (masalan, tarmoqlar, serverlar, saqlash, ilovalar va xizmatlar) umumiy havzasiga hamma joyda, qulay, talab qilinadigan tarmoqqa kirishni ta'minlash modeli" deb ta'riflaydi. boshqaruvning minimal harakatlari yoki xizmat ko‘rsatuvchi provayderning o‘zaro ta'siri bilan tezda ta'minlanishi va chiqarilishi mumkin". Gartner bulutli hisoblashni “internet texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat sifatida kengaytiriladigan va elastik IT imkoniyatlarini taqdim etuvchi hisoblash uslubi” sifatida belgilaydi. "Internet va kompyuterlarning kundalik foydalanuvchilari uchun bulutli hisoblash - bu ma'lumotlarga kirish yoki dasturiy ta'minot dasturidan foydalanish kabi har qanday onlayn faoliyat bo‘lib, u har xil qurilmalarda amalga oshirilishi mumkin. 1-rasmda ko‘rsatilganidek, Internetga rampa. Bu ko‘rinishda ma'lumotlar yoki dasturiy ilovalar foydalanuvchining kompyuterida saqlanmaydi, aksincha, Internet orqali istalgan qurilmadan istalgan joydan foydalanishi mumkin. Idoralar veb-saytga kirish huquqiga ega.”. Yakuniy foydalanuvchilar uchun bulutli hisoblash sizga uskunani saqlash yoki yangi jihozlar sotib olish, kerakli ma'lumotlarni olish haqida tashvishlanishingiz shart emasligini anglatadi.

**3.Muammo va gipotezalar.** Ushbu maqolaning kengroq muammo doirasi oliy ta'limda bulutli xizmatlar va ilovalarni joriy etishning dastlabki shartlarini o‘rganishdir. Bu talabalar va o‘qituvchilar tomonidan bunday xizmatlarni qabul qilish va faol foydalanishni nazarda tutadi. Tadqiqot talabalar uchun bulutli xizmatlardan (SaaS) foydalanishga qaratilgan. Talabalarni tadqiqotning maqsadli populyatsiyasi sifatida




tanlashning sababi shundaki, talabalar o‘rganish va baholash uchun onlayn xizmatlarga tobora ko‘proq qaram bo‘lib bormoqda.

H1: Erkak va qiz talabalar o‘rtasida bulut xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojda sezilarsiz

H2: Erkak va qiz talabalar o‘rtasida bulut xizmatlaridan foydalanishda sezilarsiz

**4.Tahlil va natijalar.** Anketani 158 ta respondent to‘ldirdi; 58% erkaklar va 42% ayollar. Talabalar ulushi Informatika o‘quv dasturidan 78% va boshqa o‘quv dasturlari bo‘yicha 22%; hammasi Riyeka politexnikasidan. Talabalarning katta qismi (90%) kasbiy ta'limda (birinchi 3 yil) qatnashgan va talabalarning faqat kichik bir qismi (10%) ixtisoslashtirilgan (4 va 5-kurs) talabalar edi. "Internet va ma'lumotlarga kirish uchun qaysi qurilmalardan foydalanasiz?" Respondentlar bir nechta javoblarni tanlashlari mumkin edi va taqsimot ko‘rsatilgan. Respondentlar asosan noutbuklardan (74%) va smartfonlardan (67%) foydalanishadi, bu ularning harakatchanligini ko‘rsatadi. Kamroq foydalanuvchilar soni uyda (64%) va fakultetda (54%) ish stoli kompyuterlarini, eng kam qismi esa planshet kompyuterlarni (13%) va ultra portativ kompyuterlarni (5%) tanlagan. Respondentlar Internetga kirish chastotasi haqida xabar berishdi va javoblar uchta toifaga bo‘lingan: hafta oxiri yoki haftada bir necha marta (5%), kuniga bir necha marta (18%), har doim yoki har doim imkonim bo‘lganda (77%).



**1-rasm.** Internet va ma'lumotlarga kirish uchun kompyuter va qurilmalardan foydalanish, javoblarni tarqatish ko‘rsatkichi

**7.Gipotezalarni testlash.** Mann-Whitney U testi H1 gipotezasini baholash uchun erkak va qiz talabalar o‘rtasida bulutli hisoblash xizmatlaridan foydalanish zaruratida farq yo‘qligi haqida o‘tkazildi. Sinov natijalari ahamiyatli emas edi,  $z = -0,109$ ;  $p = 0,98$  (1-jadval). Shunday qilib, biz aytilgan nol-gipotezani qabul qilishimiz mumkin. H2 gipotezasini baholash uchun Mann-Whitney U testi ham o‘tkazildi, unda erkak va qiz talabalar o‘rtasida bulutli hisoblash xizmatlaridan foydalanishda farq yo‘qligini aytadi. Sinov natijalari muhim emas edi, ko‘rsatilgandek  $z = -1,054$ ;  $p = 0,29$  (2-jadval). Shunday qilib, biz aytilgan nol-gipotezani qabul qilishimiz mumkin. Garchi o‘tmishda erkaklar va ayollar o‘rtasida kompyuterlardan foydalanish chastotasi va usulida sezilarli farqlar bo‘lgan bo‘lsa-da, odamlar "gender farqi" haqida gapirishsa-da, so‘nggi ma'lumotlar bulutli xizmatlardan foydalanishda katta farq yo‘qligini ko‘rsatadi. Ba'zi ekspertlarning fikricha, IT sohasida ayollar sonini ko‘paytirish yo‘li bulutli hisoblashdan o‘tadi ... chunki "bulut" xususiyatlari, ijtimoiylashuv, hamkorlik va loyihalarni boshqarishga katta ta'sir ko‘rsatadi, ayollarning ITga bo‘lgan qiziqishini oshiradi

**1-jadval.** H1 testlash natijasi.

Mann-Whitney U testi(spreadsheet)							
spol o‘zgaruvchilari							
p < 0,05000 da belgilangan testlar							
o‘zgaruvchilar	daraja yig'indisi	daraja yig'indisi	U	Z	p-bosqich	Z	p-bosqich
	1-guruh	2-guruh				sozlangan	
bulut ehtiyojlar	7308.500	5252.500	3030.500	-0.019390	0.984530	-0.020967	0.983272

**2-jadval.** H2 testlash natijasi.

Mann-Whitney U testi(spreadsheet)							
spol o‘zgaruvchilari							
p < 0,05000 da belgilangan testlar							
o‘zgaruvchilar	daraja yig'indisi	daraja yig'indisi	U	Z	p-bosqich	Z	p-bosqich
	1-guruh	2-guruh				sozlangan	
bulutdan foydalanish	7015.000	5546.000	2737.000	-1.05414	0.291821	-1.12573	0.260281

**8.Xulosa.** Bulutli hisoblash IT xizmatlarini taqdim etishning yangi modelini ifodalaydi, u "bulut" ichida joylashgan resurslarni ijaraga olishni o‘z ichiga oladi va IT

sohasining kelajakdagi rivojlanishining yo‘nalishi hisoblanadi. Oddiy odamlar tobora ko‘proq onlayn bo‘lib, elektron pochta xabarlarini tekshirish va boshqa aloqa shakllaridan foydalanish, hujjatlarni yozish va tahrirlash va hamkorlik qilishdan tortib, filmlar va videolarni tomosha qilish yoki musiqa tinglashdan tortib, shaxsiy hujjatlar va rasmlarni ko‘rishgacha bo‘lgan ko‘proq ish onlayn tarzda amalga oshirilmoqda. internetda saqlanadi. Dasturni o‘rnatish, litsenziyalash va yangilashning hojati yo‘q va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari yo‘q, chunki barcha dasturlar va xizmatlar veb-brauzer orqali mavjud.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Cloud Computing in Education, IITE Policy Brief, UNESCO, 2010, <http://iite.unesco.org/pics/publications/en/files/3214674.pdf> (29. 01. 2013)
2. Horrigan, J.B., Use of Cloud Computing Applications and Services, 2008, <http://www.pewinternet.org/Reports/2008/Use-of-Cloud-Computing-Applications-and-Services.aspx> (26. 01. 2013)
3. Kop, R., Carroll, F., Cloud Computing and Creativity: Learning on a Massive Open Online Course, European Journal of Open, Distance and E-Learning, 2011, <http://www.eurodl.org/index.php?article=457> (21. 01. 2013)
4. Al-Zoube, M., E-learning on the Cloud, International Arab Journal of e-Technology, Vol.1, No.2, 2009, [http://www.iajet.org/iajet/iajet\\_files/vol.1/no.2/ELearning%20on%20the%20Cloud.pdf](http://www.iajet.org/iajet/iajet_files/vol.1/no.2/ELearning%20on%20the%20Cloud.pdf) (28. 12. 2012)
5. Bittman, T., Cloud Computing Inquiries at Gartner, 2009, [http://blogs.gartner.com/thomas\\_bittman/2009/10/29/cloudcomputing-inquiries-at-gartner/](http://blogs.gartner.com/thomas_bittman/2009/10/29/cloudcomputing-inquiries-at-gartner/) (12. 01. 2013)
6. Bronzin, T., Kaldi, V., Mobilnost u oblaku, Infotrend, 186, 2011.
7. Lin, A., Chen, N., Cloud computing as an innovation: Perception, attitude, and adoption. International Journal of Information Management, 2012, <http://dx.doi.org/10.1016/j.ijinfomgt.2012.04.001> (27. 01.2013)

8. Mallikharjuna Rao, N., Sasidhar, C., Satyendra Kumar, V., Cloud Computing Through Mobile Learning, International Journal of Advanced Computer Science and Applications, Vol.1, No. 6, December 2010,  
[http://thesai.org/Downloads/Volume1No6/Paper\\_7\\_Cloud\\_Computing\\_Through\\_Mobile-Learning.pdf](http://thesai.org/Downloads/Volume1No6/Paper_7_Cloud_Computing_Through_Mobile-Learning.pdf) (28. 01. 2013)
9. Mell, P., Grance., T., Final Version of NIST Cloud Computing Definition, NIST, 2011,  
<http://www.nist.gov/itl/csd/cloud-102511.cfm> (25. 01. 2013)
10. Sultan, N., Cloud computing for education: A new dawn? International Journal of Information Management, no. 30,2010,  
<http://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0268401209001170> (28. 01. 2013)
11. Žganec, T., na nebu ni na zemlji, Infotrend 184, 2011.
12. Cloud Computing, Wikipedia,  
[http://en.wikipedia.org/wiki/Cloud\\_computing](http://en.wikipedia.org/wiki/Cloud_computing) (14. 01. 2013)



## XALQ TA'LIM SOHASIDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Egamov Zafarbek Raximboy o'g'li,**

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

E-mail: [zafarbekegamov0112@gmail.com](mailto:zafarbekegamov0112@gmail.com)

**Abstrakt:** Bulutli texnologiyalar IT sanoati rivojlanishining kuchli yo'nalishini ifodalaydi. Bulutli hisoblash ta'limda qo'llaniladi, lekin bu xizmatlarni ta'lim jarayoniga jalb qilingan barcha shaxslar tomonidan qabul qilinishini nazarda tutadi. Shu sababli, ushbu maqolaning maqsadi talabalarimiz o'rtasida "bulut" (SaaS) da ilovalar va xizmatlarga ehtiyoj bor-yo'qligini, ulardan qay darajada foydalanayotganini va qanday turdagi ilovalar va xizmatlar etakchiligini o'rganishdir. Maqolada talabalarning "bulutga o'tish" istagini ko'rsatadigan ushbu tadqiqot natijalari tahlil qilinadi va sharhlanadi.

**Kalit so'zlar:** bulutli texnologiyal, xizmat sifatida dastur (SaaS), o'quvchilar.

## USE OF CLOUD TECHNOLOGIES IN SCHOOL EDUCATION

**Abstract:** Cloud technology represents a strong direction in the development of the IT industry. Cloud computing is used in education, but it means that these services will be accepted by all individuals involved in the learning process. Therefore, the purpose of this article is to find out whether there is a need for applications and services in the cloud (SaaS) among our students, to what extent they use them, and what types of applications and services are leading. The article analyzes and interprets the results of this research, which shows the desire of students to “jump into the cloud”.

**Keywords:** cloud technology, software as a service (SaaS), pupils.

**1.Kirish.** So'nggi bir necha yil ichida "bulutli hisoblash" tobora ko'proq muhokama qilinmoqda. Yevropa hukumatlari va sanoati 2020-yilgacha bulutli

hisoblashni rivojlantirishga 45 milliard yevro sarmoya kiritishni rejalashtirmoqda. Masofaviy serverlarning bulutli hisoblash tarmoqlarida, saqlash tizimlari (ma'lumotlar markazlari va server fermalari) va ularning resurslaridan foydalanuvchi talabiga binoan foydalanilmoqda. "Bulut" atamasi Internet uchun metafora sifatida ishlatiladi, chunki foydalaniladigan apparat va dasturiy ta'minot resurslari qayerda joylashganligi muhim emas. IT mutaxassislari uchun bulutli hisoblash yangi biznes modelidir va ilovalarni ishlab chiqish va joylashtirish uchun yangi texnologiya platformasi va oxirgi foydalanuvchilar uchun ilovalardan foydalanishning yangi va arzonroq usuli.

**2.Nazariy asoslar.** Dasturiy ta'minot litsenziyalari, mavjud dasturiy ta'minotni yangilash yoki yangilash, ma'lumotlarni sinxronlashtirish va h.k., chunki bularning barchasi "bulut" xizmatiga kiritilgan. Aytish mumkinki, bulutli hisoblash IT inqilobining yangi drayveri bo'lib, unda yangi IT xizmatlari ishlab chiqilmoqda, o'zgarib turadi. Talab bo'yicha xizmatlardan foydalanish, foydalanish, texnik xizmat ko'rsatish va moliyalashtirish usullari. Bulutli hisoblash miqyosi (ilova ehtiyojlariga ko'ra foydalaniladigan resurslar hajmi va miqdori va resurslardan haqiqiy foydalanish bo'yicha to'lanadi), mobillik va platforma mustaqilligi (istalgan vaqtda, istalgan joydan va qurilmadan kirish imkoniyati) bilan tavsiflanadi. Bulutli hisoblashning uchta turi mavjud: Xizmat sifatida infratuzilma (IaaS) - bu virtual texnologiyalarni ijaraga olishning turli shakllariga ega apparat komponenti, xizmat sifatida platforma (PaaS) bulutda operatsion tizim va ishlab chiqish vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. serverda ishlaydigan va bajariladigan turli veb-ilovalardan foydalanishni nazarda tutuvchi xizmat (SaaS). Ushbu modellar foydalanuvchilar tomonidan foydalaniladigan va boshqariladigan resurslarning turi va hajmida farqlanadi.

**3.Muammo va gipotezalar.** Ushbu maqolaga qo'yilgan muammo doirasi ta'lim tizimida bulutli xizmatlar va ilovalarni joriy etishning dastlabki shartlarini o'rganishdir. Tadqiqot o'quvchilar uchun bulutli xizmatlardan (PaaS) foydalanishga qaratilgan. O'quvchilarni tadqiqotning maqsadli populyatsiyasi sifatida tanlashning sababi shundaki, talabalar o'rganish va baholash uchun onlayn xizmatlarga tobora ko'proq qaram bo'lib bormoqda. Shuningdek, u bulutga bo'lgan ehtiyoj o'rtasidagi

munosabatni o‘rganishga qaratilgan xizmatlar va ulardan faol foydalanish, chunki u har doim ham o‘zaro bog‘liq bo‘lmasligi mumkin. Maqsadlarga ko‘ra, quyidagi nol gipotezalar joylashtirilgan:

H1: Bulut xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj va ulardan foydalanish chastotasi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik yo‘q.

H2: O‘quvchilar Internetga kiradigan qurilmalar soni va bulut xizmatlaridan foydalanish chastotasi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik yo‘q.

**4.Tahlil va natijalar.** Bulutli texnologi-yalar ustida izlanish olib boruvchi tadqiqotchilar tomonidan 15-30 yoshli aholi o‘rtasida o‘tkazilgan yana bir so‘rov shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning 80% har kuni onlayn xizmatlardan foydalanadi, qariyb 50% esa mobil telefon orqali internetdan foydalanadi. Bulutdagi xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojni ko‘rsatadigan vaziyatlarning chastotasi haqidagi bayonotlari bo‘lgan elementlar bayonot tegishli bo‘lgan xizmat toifalari bo‘yicha guruhlangan. Respondentlar chastotani 4 balli shkala bo‘yicha ifodaladilar va javoblarning taqsimlanishi 1-jadvalda ko‘rsatilgan. Bu ma'lumotlar shuni ko‘rsatadiki, respondentlar bulutga, keyin bulutli multimedia almashishga, bulutli hujjatlar / ofis dasturlariga va aloqa dasturlariga eng katta ehtiyojni bildirishgan. eng kichik ehtiyoj bulutli saqlash va fayllarni sinxronlashtirish dasturi. Anketaning yakuniy qismidagi 10 ta savol orqali respondentlar turli xil bulutli xizmatlardan (SaaS) faol foydalanish chastotasini bildirishdi. Savollar guruhlariga ajratilgan va javoblar taqsimoti 2-jadvalda ko‘rsatilgan. Javoblarning o‘rtacha arifmetik ko‘rsatkichi shuni ko‘rsatadiki, respondentlar bulutli aloqa dasturidan tez-tez va tez-tez foydalanadilar, ba’zan ular multimedia almashish va o‘rganish uchun bulut xizmatlaridan foydalanadilar va bulutli xotiradan foydalanish ehtimoli kamroq.

**1-jadval.** Bulutli xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojni tasniflovchi jadval.

<b>Xizmatlarning turlari:</b>	<b>M</b>	<b>SD</b>
Bulutda saqlash va fayllarni sinxronlashtirish	2,52	0,76
Bulutli hujjatlar / ofis dasturlari	2,82	0,79

Multimedia almashish uchun bulutli xizmatlar	3,05	0,85
Bulutli aloqa dasturi	3,38	0,70

**2-jadval.** Bulutli xizmatlardan foydalanish takroriyligini tasniflovchi jadval.

<b>Xizmatlarning turlari:</b>	<b>M</b>	<b>SD</b>
Bulutda saqlash va fayllarni sinxronlashtirish	2,49	1,05
Bulutli hujjatlar / ofis dasturlari	2,46	0,98
Multimedia almashish uchun bulutli xizmatlar	2,79	1,15
Bulutli aloqa dasturi	3,62	0,76
O‘rganish uchun bulutli xizmatlar	2,55	1,00

**7.Gipotezalarni testlash.** Ba'zi ekspertlarning fikricha, IT sohasida ayollar sonini ko'paytirish yo'li bulutli hisoblashdan o'tadi, chunki "bulut" xususiyatlari, ijtimoiylashuv, hamkorlik va loyihalarni boshqarishga katta ta'sir ko'rsatadi, ayollarning ITga bo'lgan qiziqishini oshiradi. H1 ni sinash uchun biz Spearman korrelyatsiya koeffitsientidan foydalandik. 3-jadvalda ko'rsatilgan natijalar  $r_s = 0,563$  va statistik ahamiyati  $p < 0,05$  bo'lgan bulutli hisoblash xizmatlari va ilovalaridan foydalanish ehtiyojlari va o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Statistik tahlil o'rtacha korrelyatsiyani ko'rsatdi. Shunday qilib, biz bulutli hisoblash xizmatlariga aniq ehtiyoj va ulardan foydalanish chastotasi o'rtasida ijobiy bog'liqlik yo'q degan gipotezani rad etishimiz mumkin. Shu sababli, kompyuterdagi kundalik faoliyatida bulut xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni anglagan talabalar ushbu bulut xizmatlari va ilovalaridan ba'zilari faolroq foydalanishini kutishimiz mumkin. Ikkinchi gipoteza (H2) ham Spearman korrelyatsiyasi yordamida tekshirildi. Spearman korrelyatsiya koeffitsienti "qurilmalar soni" va "bulutli hisoblash xizmatlaridan foydalanish" o'zgaruvchilari o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatadi,  $r_s = 0,164$  va statistik



ahamiyati  $p < 0,05$  (4-jadval). Biroq, statistik tahlil chegara statistik ahamiyati bilan zaif korrelyatsiyani ko'rsatdi. Bulutli xizmatlar turli xil kompyuterlar va mobil qurilmalardan tez-tez foydalanadigan odamlar uchun mo'ljallangan, bu talabalar buni qilishadi. Biroq, ushbu tadqiqotda bu ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi korrelyatsiya kutilgandek kuchli ekanligi isbotlanmadi.

**3-jadval.** H2 testlash natijasi.

Spearmen darajasi tartibi korrelyatsiyasi MDni juftlik bilan o'chirish $p < 0,05000$ da belgilangan bog'liqlik darajasi		
o'zgaruvchilar	bulut ehtiyojlari	bulutdan foydakanish
bulut ehtiyojlari	1.000000	0.563467
bulutdan foydakanish	0.563467	1.000000

**4-jadval.** H3 testlash natijasi.

Spearmen darajasi tartibi korrelyatsiyasi MDni juftlik bilan o'chirish $p < 0,05000$ da belgilangan bog'liqlik darajasi		
o'zgaruvchilar	qurilmalar soni	bulutdan foydakanish
qurilmalar soni	1.000000	0.164522
bulutdan foydakanish	0.164522	1.000000

**8.Xulosa.** Bulutli hisoblash (SaaS) "foydalanish sifatida to'lash" modeliga ega "talab bo'yicha o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish" ga asoslangan, garchi oddiy foydalanuvchilar va ta'lim sohasidagi ilovalar uchun bunday dasturiy ta'minot odatda bepul. Ta'lim muassasalari uchun bulutli hisoblashning dunyo miqyosida joriy etilishining sabablari asosan moliyaviy xususiyatga ega, ammo shuni ta'kidlash kerakki, "bulut" ijodiy salohiyatga ega, chunki u g'oyalar, fikrlar va bilimlarni osongina yaratish, ulardan foydalanish va almashish imkonini beradi. O'quvchilar o'zlarining "Bulutli ta'limga asoslangan shaxsiylashtirilgan o'quv muhitini" yaratishlari yoki m-learning va bulutdan Ochiq ta'lim resurslariga kirishdan foydalanishlari mumkin. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, respondentlar (talabalar) ko'pincha onlayn va bir vaqtning o'zida bir nechta kompyuterlar va shunga o'xshash qurilmalardan (planshet kompyuterlar, smartfonlar) foydalanadilar. Kompyuterlardan

foydalanganda ular (o‘rtacha) ba'zan bulutdagi ilovalar va xizmatlardan foydalanishni talab qiladigan holatlarda. Eng katta foydalanish bulutli aloqa dasturiy ta'minotida, eng kichiki esa bulutli hujjatlar / ofis dasturlarida qayd etilgan. Bulutdagi xizmatlarga bo‘lgan ehtiyoj yoki bulutdagi ilovalardan foydalanish chastotasidagi gender farqi tasdiqlanmagan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

13. Cloud Computing in Education, IITE Policy Brief, UNESCO, 2010, <http://iite.unesco.org/pics/publications/en/files/3214674.pdf> (29. 01. 2013)
14. Horrigan, J.B., Use of Cloud Computing Applications and Services, 2008, <http://www.pewinternet.org/Reports/2008/Use-of-Cloud-Computing-Applications-and-Services.aspx> (26. 01. 2013)
15. Kop, R., Carroll, F., Cloud Computing and Creativity: Learning on a Massive Open Online Course, European Journal of Open, Distance and E-Learning, 2011, <http://www.eurodl.org/index.php?article=457> (21. 01. 2013)
16. Al-Zoube, M., E-learning on the Cloud, International Arab Journal of e-Technology, Vol.1, No.2, 2009, [http://www.iajet.org/iajet/iajet\\_files/vol.1/no.2/ELearning%20on%20the%20Cloud.pdf](http://www.iajet.org/iajet/iajet_files/vol.1/no.2/ELearning%20on%20the%20Cloud.pdf) (28. 12. 2012)
17. Bittman, T., Cloud Computing Inquiries at Gartner, 2009, [http://blogs.gartner.com/thomas\\_bittman/2009/10/29/cloudcomputing-inquiries-at-gartner/](http://blogs.gartner.com/thomas_bittman/2009/10/29/cloudcomputing-inquiries-at-gartner/) (12. 01. 2013)
18. Bronzin, T., Kaldi, V., Mobilnost u oblaku, Infotrend, 186, 2011.
19. Lin, A., Chen, N., Cloud computing as an innovation: Perception, attitude, and adoption. International Journal of Information Management, 2012, <http://dx.doi.org/10.1016/j.ijinfomgt.2012.04.001> (27. 01.2013)
20. Mallikharjuna Rao, N., Sasidhar, C., Satyendra Kumar, V., Cloud Computing Through Mobile Larning, International Journal of Advanced Computer Science and Applications, Vol.1, No. 6, December 2010,

[http://thesai.org/Downloads/Volume1No6/Paper\\_7\\_Cloud\\_Computing\\_Through\\_Mobile-Learning.pdf](http://thesai.org/Downloads/Volume1No6/Paper_7_Cloud_Computing_Through_Mobile-Learning.pdf) (28. 01. 2013)

21. Mell, P., Grance., T., Final Version of NIST Cloud Computing Definition, NIST, 2011,

<http://www.nist.gov/itl/csd/cloud-102511.cfm> (25. 01. 2013)

22. Cloud Computing, Wikipedia,

[http://en.wikipedia.org/wiki/Cloud\\_computing](http://en.wikipedia.org/wiki/Cloud_computing) (14. 01. 2013)



**MEVALI BOG‘LARDAGI KALIFORNIYA QALQONDORI BIOLOGIYASI,  
ZARARI VA UCHRASH DARAJASI**

**Raxmonova Madina Kimsanboyevna**

dotsent

**Imomaliyev Erali Nurali o‘g‘li**

magistr

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

**Annotatsiya** Respublikamizda barcha toifa xo‘jaliklarida jami 337 ming gektar bog‘lar va 182 ming gektar uzumzorlar mavjud. Tinimsiz har kuni yog‘ayotgan yomg‘ir gullash fazasiga kirgan o‘rik, shaftoli, bodom bog‘lari hosildorligiga zarar yetkazmaydi. Faqat changlanish muddatini sekinlashtirishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** qalqondor, qalqon, yosh, lichinka, avlod.

**Annotation** The country has 337,000 hectares of orchards and 182,000 hectares of vineyards in all categories of farms. Constant rains do not affect the yield of apricot, peach and almond orchards, which enter the flowering phase every day. This can only slow down the pollination period.

**Key words:** scale insect, scale insect, age, larva, generation

**Kirish.** Hozirgi kunda bog‘dorchilik qishloq xo‘jaligining muhim soxasi hisoblanadi. Axolini meva va meva maxsulotlariga, sanoatni meva xom ashyosiga bo‘lgan talabini qondirishga xizmat qiladi. Jaxon bog‘dorchiligida 200 dan ortiq meva turlari ekiladi. Respublikamizda esa 20 dan ortiq turi ekiladi. Bulardan o‘rik, shaftoli, olxo‘ri, gilos, olcha, olma, behi, nok asosiy o‘rinni egallaydi. Mevali bog‘lardan yuqori va sifatli xosil olish uchun turli zararkunanda va kasalliklarga qarshi

kurashish dolzarb masala hisoblanadi. Yog‘ingarchilikning foydali tomoni oxirgi 2020-2021 yilda yangi barpo etilgan 88 ming gektar mevali bog‘lar va 75 ming gektar uzumzorlarga tuproqdagi namlik hisobiga ildiz tizimi yaxshi rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, lalmi yerlarda parvarishlanayotgan bog‘larning yer osti suvlarining Mevali bog‘larda hozirgi kunda uchraydigan asosiy zararkunandalardan Sharq mevaxo‘ri, olma mevaxo‘ri, meva kuyalari, Kaliforniya Qalqondori, olma arrakashi, olcha pashshasi kabilar kiradi. Hozirgi kunda respublikamizda ichki karantin obykti hisoblangan Kaliforniya Qalqondori mevali daraxtlarga kuchli zarar yetkazmoqda.

**Tadqiqot obekti:** Kaliforniya qalqondorining qalqoni yumaloq, anchagina yapaloq, och jigarrang – kul rang tusda bo‘lib, diametri 1,0 – 1,5 mm, ba‘zan 2 mm gacha boradi. Qalqonning chetlari o‘rtasiga qaraganda och tusdadir. Qalqonning o‘rta qismida och jigarrang lichinka terisi bor. Erkagining qanoti bir juft. Yosh lichinkasi oziqlana boshlaganda oqimtir shira chiqaradi. Yupqa qavat bo‘lib turadigan bu shira keyinchalik qalqonga aylanadi. Birinchi yoshda erkak va urg‘ochi lichinkalarini bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Ikkinchi yoshdan boshlab erkak lichinkalarining qalqonlari cho‘ziqroq bo‘lib qoladi. Urg‘ochi lichinkalarining qalqonlari esa yumaloq holda qolaveradi. Urg‘ochi zotining rangi limon kabi sariq, shakli noksimon, uzunligi 1,3 mm, ko‘zi, oyog‘i va mo‘ylovi yo‘q. Qalqoni yumaloq, o‘lchami 2mm, bo‘rtgan, rangi qoramtir yoki qo‘ng‘ir, o‘rtasida 2 ta lichinka po‘stining izi bor. Kaliforniya qalqondorining birinchi yoshli va qisman ikkichi yoshli lichinkalari va voyaga yetgan urg‘ochilari qishlaydi, ammo ikki yoshli lichinkalari va voyaga yetgan urg‘ochilari qishda xalok bo‘ladi. Qalqondorlar daraxtlarning shoxlari va qalqonlari ostida qishlaydi. Fevralning oxirlarida uyqudagi lichinka ikkinchi yoshga o‘ta boshlaydi. Lekin qish paytida 20-50% lichinkalar o‘lib ketadi. Daraxtlar ko‘kara boshlashi bilan lichinkalar oziqlanishni boshlaydi va 2 marta po‘st tashlab jinsiy yetuk urg‘ochi va erkak zotlarga aylanadi. Erkak va urg‘ochi zotlarning nisbati o‘rtacha birga-bir to‘g‘ri keladi.

**Tadqiqot natijalari:** Kaliforniya qalqondorining erkaklari qanotli, serharakat bo‘ladi, urg‘ochilari bir joyga yopishib olib, qimirlamay yotadi. Ular yosh lichinkalik

stadiyasida tarqaladi, ular o‘rmlab yuradi yoki shamol, hasharotlar, qushlar vositasi bilan tarqaladi. Lichinkalar keyinchalik biron joyga yopishib olib, harakatlanmaydi.

Ikkinchi avlod uchun urchigan urg‘ochi zot 1 oycha yetilgach, tirik tug‘a boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, lichinkalar ona tanasida tug‘ilishdan oldin tuxumdan ochib chiqqan bo‘ladi. Kamdan – kam hollarda lichinka qalqon ostida onasi tuxum qo‘yganidan keyin chiqadi. Bular ham daraxt bo‘ylab tarqab ketib yangi avlodni boshlab beradi.

Kaliforniya qalqondorining urg‘ochisi 100-200 tacha (janubdagi ba’zi joylarda 500 tacha) lichinka tug‘adi. O‘zbekiston sharoitida kaliforniya qalqondori mavsumda 4-5 ta avlod beradi. Tojikiston va Ozarbayjon sharoitida 4ta avlod beradi. Har qaysi avlod lichinkalaridan bir qismi qishlashga qoladi. Va nihoyat, oxirgi avlodning birinchi yosh lichinkalari maxsus tayyorgarlik ko‘rib, ona qalqoni ostida qishlab qoladi. Ammo, sharoit mavjud bo‘lsa (issiqxona va boshqa xonadonlardagi o‘simliklar) kaliforniya qalqondori yil mobaynida tinmay rivojlanishi mumkin. Kaliforniya qalqondori meva daraxtlariga, rezavor meva, butalarga va manzarali o‘simliklarga zarar yetkazadi. Kaliforniya qalqondori juda ko‘payib ketganda daraxt po‘stlog‘ini yorib yuboradi. Shoxlarni va hatto butun daraxtni quritib qo‘yadi. Mevalardagi shirani so‘rib, to‘q qizil dog‘ tushiradi. Kaliforniya qalqondori yangi o‘tkazilgan daraxtlarga ayniqsa katta zarar yetkazadi. Kaliforniya qalqondori har narsani yeyaveradi. Ular olma va nok daraxtlariga ko‘proq zarar yetkazadi, bundan tashqari, u behi, o‘rik, bodom, yong‘oq, olxo‘ri, tog‘olcha, gilos, olchaga zarar yetkazadi, boshqa juda ko‘p mevali daraxtlar, tok manzarali daraxt va butalarning shirasini so‘radi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

1. SH.T, Xo‘jayev. O‘simliklarni Zararkunandalardan “Uyg‘unlashgan Ximoya Qilishning Zamonaviy Usul va Vositalari” Toshkent-2015yil.
2. M.T.Arslonov. A.U.Sagdullayev. Sh.K.Aliyev. O.T.Xujayev. X.Z.Ablullayeva. “O‘simliklar karantini zararkunandalari tarqalishining oldini olish”

3. Argangelskaya A.D. Kfauncher vetsovi i pitovok() Turkestana // trudy Turkestanskogo nauchnogo obshchestva, t.1. – Tashkent –
4. Argangelskaya A.D. – Koksidi Sredney Azii – Tashkent, Komitet nauk – 159s.
5. Muxammadiev B.Q. Xavfli koksidi va ularga qarshi kurash choralari. Monografiya, T:2015
6. Sayfiev A.X., Qurbonmurodova M.B., Muxammadiev B.Q. Kaliforniya Qalqondori bioekologiyasi. Agroilm, 3[41] son, 2016 yil,



## ZAMONAVIY MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHISINING KASBIY KOMPETENSIYASI

**G'afforova Dilshoda Amirqulovna**

E-mail: [gafforova1987@mail.ru](mailto:gafforova1987@mail.ru)

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, o'qituvchisi

**Ergashova Munisa Hoshim qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, magistri

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi tarbiyachi – pedagoglarning ijodiy va kasbiy faoliyati, kasbiy mahorat kompetensiyalarni egallash usullari, rivojlantirish vositalari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Kompetensiya, zamonaviy tarbiyachi, qobiliyat, mahorat, malaka, kasbiy mahorat, tarbiyachi.

**Annotation:** This article describes the creative and professional activities of educators working in preschool education, methods of acquiring professional skills, tools for development.

**Keywords:** Competence, modern educator, ability, skill, qualification, professional skill, educator.

2017–2021-yillarga mo'ljallangan “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi”, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma'aviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari”ga muvofiq, ta'lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta'minlash, ta'lim-tarbiyaning zamonaviy metodologiyasini yaratish, o'quv adabiyotlarining yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish taqozo etiladi. Mamlakatimizda shakllanayotgan



milliy ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida innovatsion yondashuvlar, izlanishlar, tadqiqot muammolariga oid yechimlar, ilmiy-amaliy tavsiyalar yaratildi. Oliy ta’lim tizimi uzluksiz ta’lim tizimiga - maktabgacha ta’lim, umumiy o’rta ta’lim, o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi, malaka oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta’lim tizimi uchun mutaxassislar tayyorlab berar ekan, ularning kasbiy tayyorgarligi, ma’naviy-axloqiy qiyofasiga, o’qituvchilarning tarbiyachilik darajasiga alohida talablar qo’yilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbuslari bilan jamiyatimizda pedagoglar shaxsini qadrlash,ularning nufuzini oshirish,qadr-qimmatini himoya qilish bo‘yicha qator islohatlar amalga oshirilmoqda.Masalan:O‘zining kasbiy barkamolligini oshirishda izlanuvchi,tashabbuskor pedagoglar uchun unvonlar va ko‘rak nishonlari ta’sis etildi.Turli tuman ilm-fan ravnaqi yo‘lidagi jonkuyarlar uchun ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilmoqda.Prezidentimizning tashabbuslari bilan pedagog xodimlarning oylik maoshlari yildan-yilga oshirilib turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida qo‘shimcha moddiy rag‘batlar berilmoqda.Pedagog xodimlarning malakasini oshirish ilmiy - metodik markazlari kengaytirilmoqda,ularning siyosiy tayyorgarligiga talab kuchaytirilmoqda, har 4-5 yilda qayta tayyorlashdan o‘tishlari uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Bugungi kun zamonaviy tarbiyachi yosh avlodimizni millatning munosib farzandlari etib tarbiyalashdek muhim, vazifani bajarishadi deb e’tirof etishimiz mumkin.Tarbiyachi-pedagogning yuqori darajadagi pegagogik mahoratga chunonchi,komminikativlik layoqatiga ega bo‘lishi, pedagogik texnika,takt,nutq,yuz,qo‘l-oyoq va gavda harakatlari,mimika (jest, pantomimika) qonuniyatlarni chuqur o‘zlashtirishi lozim.Tarbiyachi bolalarni kuzata oladigan,ularning harakatlarini boshqara oladigan,xatti-harakatlarini tahlil qila oladigan va ularga tog‘ri yo‘nalish bera oladigan bo‘lmog‘i lozim.Hozirgi zamonaviy ta’lim- tarbiya jarayonida tarbiyachilar quidagi kompetensiyalarga ( bilim, malaka, ko‘nikma) ega bo‘lishi yani o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak.

- Etik-estetik madaniayti

- Kommunikativ qobiliyati
- Ijodkorlik qobiliyati va faoliyati
- Liderlik qobiliyati
- Tashkilotchilik
- AKT va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalana olishi.

Yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda shuni aytish mumkinki tarbiyachi ham kasbiy aham umuminsoniy sifatlarni o'zida gavdalantira olishi lozim.

Xulosa va tavsiyalar: Adabiy manbalarni tahlil qilish asosida maktabgacha tarbiyachining kasbiy kompetentsiyasini fundamental ilmiy ta'limga asoslangan pozitsiya talablari va o'qitishga hissiy-qiyamat munosabati bilan belgilanadigan kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirish qobiliyati deb ta'riflash mumkin. Bu kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan munosabat va shaxsiy fazilatlarni, nazariy bilimlarni, kasbiy mahorat va ko'nikmalarni egallashni o'z ichiga oladi.

Tavsiyalar:

- kasbga mos ilmiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish faoliyat jarayonida qo'llash;
- Seminar treninglarda faol bo'lish;
- faoliyatida duch kelayotgan muammolar yuzasidan maqolalar yozish va uni bartaraf etish yo'llarini izlash;
- kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish ( maqol,tez aytishlar,badiiy sherlar yodlash);
- ijodkorlik faoliyatini yuksaltirish ( yasash va chizish malakalarini egallash).

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Sh. Mirziyoyev.,Erkin va farovon, Demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz".Toshkent – “O'zbekiston”-2016.
2. Zaraxash, T.O'qituvchilar malakasini oshirish mazmunining zamonaviy yangilanishi/T.Zaraxash//Maktabgacha ta'lim-2011.-№12.S.74

3. Xoxlova O.A. O‘qituvchining kasbiy vakolatlarini shakllantirish/O.A.Xoxlova // Katta o‘qituvchining qo‘llanmasi-2010.- №3.-B.4



## USMON AZIM IJODIDA “ALPOMISH” DOSTONI

ToshDO‘TAU magistri

**Boynazarova Gulbahor Rustamovna**

### ANNOTATSIYA

Maqolada Usmon Azim ijodida “Alpomish” dostoniga murojatlar tasvirlangan. Nima uchun bu folklor qoliplaridan foydalanilganligi izohlangan va xulosalar berilgan. Maqola yozishda tasviriy metodlardan foydalanilgan.

**Kalit so‘zlar:** Talmeh, folklor, qolip, to‘qima, motiv

### ABSTRACT

The article describes references to the epic “Alpomish” in the works of Osman Azim. Why these folklore patterns were used is explained and conclusions are given. Descriptive methods were used in writing the article.

**Keywords:** Talmeh, folklore, mold, texture, motif

Adabiyotda talmeh san’ati bor, bu san’atning ma’nosi – chaqmoq chaqqanda ko‘rinmay qolgan kichik mavjudotlar ko‘rinishi degan ma’nodan kelib chiqqan. Ijodkorlar tarixiy shaxslar va voqea hodisalardan ularning ko‘rinmay qolgan jihatlarini ko‘rsatish va bugungi kundagi muammolarni tasvirlash ular orqali tasvirlash uchun foydalanishgan. Usmon Azim ijodida ham xalq og‘zaki ijodi namunalari ko‘plab uchraydi. Ular ichida “Alpomish” dostoniga murojaatlar va dostonga qo‘shimcha kiritilgan o‘rinlar uchraydi.

“Alpomish” dostoni Usmon Azimni hayajonga solgan va bir emas, bir necha martalab qo‘liga qalam olishga da’vat etgan doston.. U ijodining dastlabki davrida ham, sal keyinroq “Baxshiyona” turkumida ham “Alpomish” ohanglariga murojaat qiladi. Uning nasrdagi “G‘oz” hikoyasi, keyinroq “Alpomishning qaytishi” dramasi, “Tong otgan taraflarda” dramatik dostonida “Alpomish”ga u yoki bu darajada

tayanilgan. Umuman, Usmon Azimning bu mavzudagi asarlarining barchasiga “Alpomish” asos bo‘lgan, deyish mumkin. Biroq yozuvchi birgina manbaga qayta-qayta murojaat etganda ham mavzu jihatdan bir-biriga yaqin, ammo mazmun tomondan umuman betakror asarlar yaratadi. U doston qolipidan bugungi kun uchun muhim mavzularni yoritishda foydalangan.

“Alpomish” dostonida zindonda yotgan Alpomishning yoniga tushgan G‘oz bilan bog‘liq motiv bor. Bu motivga ko‘ra, bir oyog‘i singan va bir qanoti shikastlangan G‘oz zindonga yiqiladi. Alpomish G‘ozning yaralari bitib, uchadigan bo‘lgach, uning qanotiga xat bog‘lab: “Elu xalqimga mening o‘lik- tirik xabarimni sen yetkazsang,” deya niyat qilib, G‘ozni uchirib yuboradi. G‘oz o‘n to‘rt kecha-kunduz uchgach, Shakaman tog‘iga yetib, qanotlari tolib, toqqa qo‘nadi. G‘ozni mana shu tog‘ etagida yashovchi bir kampirning o‘g‘li otgan bo‘lib, u G‘ozning o‘lmasdan, faqat yarador bo‘lgani, hatto uchib ketganidan alamiga chiday olmay, bir necha yildan beri o‘lasi bo‘lib yotgan edi. Hordiq chiqarib, kuch yig‘ish uchun toqqa qo‘ngan G‘ozning g‘ag‘illagan tovushi kasal yotgan Merganning qulog‘iga yetadi. U o‘zini “oriyatga qo‘ygan” G‘ozni ovozidan tanib, uni yana otmoq payiga tushadi. Kampir esa, G‘ozni uchirib yuborish payiga tushadi. Mergan Kampirning so‘ziga quloq solmay, G‘ozni otadi. U o‘qni otganida G‘oz uchib ketadi va o‘g‘il og‘ir dard bilan yotib qoladi. G‘oz esa xatni, eson-omon Alpomishning singlisi Qaldirg‘ochga yetkazadi. Dostondagi G‘oz bilan bog‘liq motiv shu sujet bilan tugaydi. Usmon Azim mana shu kichikkina syujetni biroz kengaytirib, uni dastlab hikoyaga aylantirdi. Hikoyada qahramon hayotidan birgina epizodni yaratgan. G‘ozni o‘ldirolmay, oriyatdan kuyib ketgan o‘g‘ilning ruhiy holati tasvirlangan. Muallif diqqat markazida Kampir obrazi turadi. Kampir farzandini baloga giriftor etayotganini bilib tursa ham, G‘ozning elchi ekanligini ko‘ngli sezib, uni uchirib yuboradi. Kampir ana shu murakkab ruhiy jarayonda dunyoni, insoniyatni balo-qazolardan saqlab qola oladigan ilohiylashtirilgan kuch darajasiga ko‘tariladi. Hikoya “Alpomish” dostonidagi motiv asosida yozilgan bo‘lsa-da, dostonidagi epizodning davomi sifatida tamoman yangicha talqin etilgan.

Usmon Azim hayot haqida nimaiki demoqchi bo‘lgan bo‘lsa, shuning hammasini badiiy asarda tasvir etilgan odamlarning yashash sharoiti, xulq-atvori, ruhiyati, bajaradigan ishlari, intilishlari va o‘ylarida, umuman olganda, taqdirida aks ettirishga harakat qiladi. Shunga ko‘ra, hikoyaga, dostondagilardan tashqari, yana bir qancha yangi obrazlar kiritilgan. Unda dostonda mavjud bo‘lgan G‘oz, Kampir, uning o‘g‘li, Alpomish, Oybarchin kabi obrazlar qatoriga folchi Bo‘lgan Kal, tabib Luqmoni Hakimlar ham qo‘shilgan.

Hikoya yozilganidan so‘ng oradan ma‘lum vaqt o‘tgach, yozuvchida uni yanada kengaytirish niyati tug‘ildi va 2013- yili ana shu “G‘oz” hikoyasi asosida “Tong otgan tarafdarda” dramasi yaratdi. Dramaning qamrovi katta, unda yozuvchi o‘zining hayot haqidagi, o‘zbek xalqining tarixi haqidagi fikr va o‘ylarini ifodalashga harakat qilgan. Hikoyadagi voqea dramaga yanada kengayib, yangi tafsilotlar bilan ko‘chdi. Shu sababli asar ma‘lum syujet asosida yaratilgan bo‘lsa-da, butunlay mustaqil yangi asar darajasiga ko‘tarildi. Asardagi mazmun abadiyatga, insoniyatga aloqador. Alloh taqdirini bitadi, uni o‘zgartirib bo‘lmaydi. Ammo biz insonlar taqdirimizdagi voqealarga nisbatan unday bo‘lishi kerak yoki bunday bo‘lishi kerak edi deb, norozilik bildiramiz. Biz duo qilib o‘zimiz xohlagan narsaga erishsak ham Haqni ayblaymiz. Aslida bizga bunday bo‘lishidan oldin Allohdan ko‘p bora ishoralar berilgan edi. Mergan obrazi orqali ijodkor or-nomus masalasidan tashqari taqdirga norozi bo‘lgan va o‘zi xohlagan narsaga erishganda esa, uni u uchun yomin bo‘lganini, onasini yo‘qotganini tasvirladi. Bu buun hikoyaning mazmuni desak ham adashmagan bo‘lamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Malika Fozilova. Usmon Azim ijodida “Alpomish” dostoni motivlari. Maqola

## ЯССИ ҚУЁШ КОЛЛЕКТОРЛАРИНИ ИШЛАШ ПАРАМЕТРЛАРИНИ ОПТИММАЛЛАШТИРИШ

**М.М.Исмоилов**

Фарғона педагогика институти ассистенти

**Н.А.Олимов**

Фарғона педагогика институти магистри

**Аннотация:** Ушбу мақолада совуқ температурада ишлайдиган юқори самарали, коррозияга чидамли қуёш коллекторини яратиш хақида сўз юритилади.

**Калит сўзлар:** ноананавий энергия, коллектор, трубка, шарнир регулятори, госсипол қорамойи.

### **Asosiy qism**

Мамлакатимизда табиий бойликларни тежаш ва ишлаб чиқариш тармоқларида экологик соф технологияларни жорий этишга алохида эътибор қаратилмоқда. Мутахассисларнинг тақидлашича, ноананавий энергия турларидан фойдаланиш борасида улкан имкониятлар мавжуд. Республикамиз худудида йилнинг деярли 310-320 кун қуёшли бўлади, аксарият кенг худудли очик майдонларда эса доимий шамол эсиб туради. Бундай табиий имкониятлар Президентимизнинг 2013 йил 1 мартдаги “Муқобил энергия манбаларини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони бу борадаги ишларни сифат жиҳатдан янги босқичга кўтариш, пировардида табиий бойликларни тежашда дастуриамал бўлиши шубҳасиз.

Ушбу мақолада техник жиҳатдан энг яқин бўлган, қуёш коллектори, айниқса, бўёқлар билан иссиқлик ташувчиси учун кириш ва чиқиш ҳаволалари

билан шаффоф қоплама билан жиҳозланган уйни ўз ичига олади. Идишнинг тагида совутгични олиш учун камералар мавжуд.

Ушбу коллекторнинг салбий томони шундаки, совуқда музлайди, узок муддат фойдаланилгач, металл коррозияга учрайди, совутгичдаги бўёқлар рангсизланади ва пастда жойлашганида, сув ҳарорати  $100^{\circ}\text{C}$  дан ошмайди.

Ушбу мақолани мақсади совуқ температурада ишлайдиган юқори самарали, коррозияга чидамли қуёш коллекторини яратишдир.

Вазифа, иссиқлик ташувчиси ўтиши учун хужайралар мавжуд бўлган, иссиқлик ташувчисининг кириш ва чиқиш трубкалари билан шаффоф қопламали уйни ўз ичига олган қуёш коллекторининг корпусида жойлаштирилган шарнир регулятори ва чиқиш трубкасида ўрнатилган иссиқлик ташувчиси оқимли регулятори билан жиҳозланганлиги билан ҳал қилинади. Госсипол қорамойи иссиқлик ташувчи сифатида ишлатилган.

Совутгич сифатида госсипол қорамойидан фойдаланиш салбий ҳаво ҳароратида ишлаш имконини беради ва совутиш суви регуляторининг ўрнатилиши ҳароратни 30 дан 1500 В гача созлашга имкон беради. Корпусга ўрнатилган шарнир регулятори ёрдамида қуёш коллекторлари қуёш нурлари унинг юзасига перпендикуляр равишда тушиши учун ўрнатилиши мумкин.

Коллектор шаффоф қопламали шиша варақага эга ва унинг таглиги изолятор материалдан иборат.

Қуёш коллектори қуйидагича ишлайди. Совутгич учун махсус идишдан кириш трубкаси ичидаги госсипол мойни эритилган регулятор ёрдамида қуёш нурларига перпендикуляр бўлган коллекторга киради. Хужайралар орқали ўтаётганда госсипол қатрони қиздирилади ва совутиш суви регулятори ёрдамида қатрон температураси 30 дан  $1500^{\circ}\text{C}$  гача назорат қилинади. Чиқиш трубкаси орқали иситиладиган совутиш суви истеъмолчига оқиб ўтади ва кейин насос ёрдамида совутиш танкига киради ва жараён яна такрорланади.



Қўқон ва Фарғона ёғ-мойи ўсимликлар ишлаб чиқаришдан чиқадиган чиқинди ҳосил бўлган госсипол қатронидан иссиқлик ташувчиси (ОСТ Но. 18-114-73) сифатида фойдаланиш экологик муаммоларни ҳам ҳал қилади.



## ХУЛОСА

Юқоридаги маълумотлардан шуни айтиш мумкинки, бугунги кунда муқобил энергия манбааларидан фойдаланиш замонавий энергия тежамкор технологияларни ишлаб чиқиш долзарб муаммога айланиб бормоқда. Кундан кунга қайта тикланмайдиган энергия ресурслари камайиб бораётганлиги ва энергияга бўлган эҳтиёжларнинг ортиб бориши бу муаммони тез орада бартараф этиш чораларини кўришни тақазо этмоқда.

## Фойдаланилган адабиётлар

- [1] Экологик мақбул энергия манбаларидан фойдаланиш Н.М.Сафаров, А.Х.Алиазаров. Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси “Фан” нашриёти Тошкент-2014 йил 144 бет.
- [2] Расход теплоносителя в солнечном коллекторе [Электронный ресурс].– Режим доступа: <http://solarsoul.net/rasxod-teplonositelya-v-solnechnom-kollektore/>. – (дата обращения: 04.01.2019).

## GANDBOL TO‘PINI UZATISHDA TANLOV REAKSIYASINING AHAMIYATI

**Jiyanov Oxunjon Mirzaxmad o‘g‘li**

Namangan davlat universiteti

Jismoniy madaniyat fakulteti magistranti

e-mail:[oxunjonjiyanov@gmail.com](mailto:oxunjonjiyanov@gmail.com)

**Ergasheva Madina Zafarjon qizi**

Namangan davlat universiteti

Jismoniy madaniyat yo‘nalishi, 1-kurs talabasi:

e-mail:[madinaergasheva@gmail.com](mailto:madinaergasheva@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gandbol bilan shug‘ullanuvchilarni chaqqonlik sifati va tanlov reaksiyasining gandbol o‘yinidagi ahamiyati hamda uni qanday tarbiyalash haqida nazariy ma’lumotlar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Sport tayyorgarligi, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, chaqqonlik, tezkorlik.

## ЗНАЧЕНИЕ РЕАКЦИИ ВЫБОРА ПРИ ПЕРЕДАЧЕ ГАНДБОЛЬНОГО МЯЧА

**Аннотация:** В данной статье приведены теоретические сведения о качестве ловкости и значении реакции волейболистов в игре в гандбол и способах ее тренировки.

**Ключевые слова:** Спортивная подготовка, физическая подготовка, физические качества, ловкость, быстрота.

## THE IMPORTANCE OF THE SELECTION REACTION IN THE TRANSMISSION OF THE HANDBALL

**Annotation:** This article provides theoretical information about the quality of agility and the importance of the reaction of the handball players in the game of volleyball and how to train it.

**Key words:** Sports training, physical training, physical qualities, agility, speed.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. Sport sohasidagi ulkan islohotlar va erishilayotgan yuksak natijalar mamlakatimiz Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan oqilona davlat siyosatining mahsulidir. Yurtboshimiz tomonidan 2017-yil 7-fevraldagi farmoni bilan tasdiqlangan. 2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasining Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish deb nomlangan bandida “Jismonan sog‘lom ,ruhiy va intellektual rivojlangan ,mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega, ndan taqshqari Yurtboshimiz tomonidan 2020-yil 24-yanvardagi 5924-sonli farmonlari “O‘zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish to‘g‘risida”<sup>64</sup> jismoniy tarbiya va sport sohasini davlat siyosati darajasida muhimligidan dalolat beradi.

Shu bilan bir qatorda jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada rivojlantirish ham ustuvor masala hisoblanadi. Mazkur mavzuyimizda keltirilgan tanlov reaksiya va uning rivojlantirishni ahamiyati esa sportchi yuqori natijaga erishishini asosi hisoblanishi imkor etib bo‘lmaydi, chunki gandbol sporti chaqqonlikka asoslanadi.

**Ushbu ishimizning asosiy maqsadi** ham gandbol sportida namoyon boladigan tanlov reaksiyasini tarbiyalash vosita va usullarini aniqlash.

<sup>64</sup> O‘zbekiston Respublikasi prezidentining “Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora tadbirlari tog‘risida” 2020-yil 24-yanvardagi 5924-sonli farmoni. Mabuot.uz

**Ishimizni hal etishga oid vaziflar** ham maqsaddan kelib chiqib tuzilgan. Ular: 1) oddiy va murakkab reaksiyanilarni o‘rganish.

2) gandbol sporti mashg‘ulotlari o‘tkazishdagi usul va vositalarni tavsiflash.

«Handboll» so‘zini manosi ham «qo‘l to‘pi» degan manoni anglatadi, shundan ham ko‘rish mumkin. Uzatilayotgan oby’ekga nisbatan tez va aniq qaror qabul qilish kerak bo‘ladi. Manashunday qarorlarni yaxshilash uchun avvalo gandbol mashg‘ulotini shunchaki emas, undagi vazifalar qatoriga sportchini tanlov reaksiyani to‘g‘ri qilaolishiga yordam beruvchi mashqlarni joylash talab etiladi. Biz quyida gandbolchilar tomonidan ko‘rsatiladigan reaksiyalar va u chaqqonlik sifati bilan aloqadorligiga tegishli ma’lumotlar keltiramiz.

Chaqqonlik – jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasiga oid qator adabiyotlarda (L.P.Matveyev, 1991; V.M.Zasiorskiy, 2009; va boshqalar) hayotiy-zaruriy, kasbiy-amaliy malakalarga ega bo‘lishi uchun organizmning alohida qismlari( bo‘laklari), tizimlarining zarur bo‘lgan harakatlarni o‘zlashtirib olishi uchun tez moslasha olish jihati deb qarash tavsiya qilingan.<sup>65</sup>

Har qanday harakatni o‘zlashtirishda yuzaga kelgan harakat sharoiti, vaziyatga qarab, harakatlarni bajarishga tez, qisqa muddatda moslasha olish qobiliyatini chaqqonlik deb ataladi. Chaqqonlikni tarbiyalash uchun oldin o‘rganilgan, bajarishga odatlanib qolingani harakatlar tizimi yangi harakatlar bilan almashtiriladi va o‘zlashtirilgan harakatga boshqa elementlar qo‘shiladi. Bu o‘z navbatida bosh miya yarim sharlari po‘slog‘ining “ijodiy” faolligini yuqori darajasini ta’minlaydi.

Bu jarayon mashg‘ulotlar, sog‘lomlashtirish trenirovkalari, sog‘lom turmush tarzi jismoniy madaniyati mashg‘ulotlarining vositalari basketbol, **voleybol**, qo‘l to‘pi, futbol, gimnastika, yengil atletikaning sakrash va uloqtirish turlari, suv sporti mashq lari va boshqalar orqali yo‘lga qo‘yiladi.

Chaqqonlikni rivojlantirishda qo‘llaniladigan eng sodda ta’lim uslubiyotlarini bilishimiz lozim. Ular:

<sup>65</sup> A.Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyev Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2016. -410.b.

- mushakllarni aydarli darajada “bo’shashtirib” bo’lgandan so’ng berilgan tovush, ovozga qarab kelishilgan harakat akti yoki harakat faoliyatini bajarish;
- turli xildagi balandliklarga chiqish yoki pastga qarab yugurish, turli xildagi to’siqlardan (sun’iy, tabiiy), murakkab serpantinlarni zabt etish;
- chaqqonlikni o’zini alohida ajratib emas, boshqa sifatlar bilan qo’shib kompleksli rivojlantiriladi va o’yin, musobaqa metodlaridan foydalanish yaxshi natija beradi.

M.A.Cherkovning tadqiqotlariga ko’ra, chaqqonlik kasbiy yoki jismoniy harakatlarni bajarishda turlicha namoyon bo’ladi. Bu sifat individ mushakllarining yuqori darajada rivojlanganlik jihati va yarim sharlar po’stlog’idagi jarayonlarning plastikligi, tez sodir bo’lishi va almashinuvi bilan chambarchas bog’liq. **Chaqqonlik bo’g’inlar harakatchanligiga ham bog’liq.** Tadqiqotlar va kuzatishlar natijasida aniqlandiki, 14-15 yoshdalik davri chaqqonlikni rivojlantirishning eng qulay davri. 16-18 yoshga borganda bo’g’inlar harakatchanligining shakllanishi sekinlashadi. Shuning uchun chaqqonlikni rivojlantirish mashqlari va uni rivojlantirish asosan kasb-hunar kollejlari o’quv tarbiya jarayonida e’tiborli darajada vaqt sarflashni taqazo etadi. Chaqqonlikni rivojlantirish uchun ko’proq o’yinlardan: voleybol, basketbol, futbol, tennis, stol tenisi, gandbol, xokkey, regbi va boshqalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O’yinlar chaqqonlik-tezlikning ahamiyati ham ikkinchi darajali emas. Chunki chaqqonlik tezliksiz namoyon bo’lmaydi.

Chaqqonlikni rivojlantirish esa tez o’zgaruvchan o’yin sharoitiga moslasha bilishni, kuzatuvchanlikni, mo’ljalga to’g’ri olishni, qisqa fursat ichida turli murakkab vaziyatda aniq, to’xtamga kelish, uni his qilish va o’z harakatlarini shu vaziyatga moslay olishdek hayotiy-zaruriy amaliy harakat malakalarini shakllantiradi. Velosiped, harakatli o’yinlar ham chaqqonlikni rivojlantiradi.

Harakatlarning koordinasiyaviy murakkabligi chaqqonlikning birinchi o’lchovidir. Agar harakatning fazo, vaqt, kuch xarakteristikalari harakat vazifasiga mos bo’lsa, harakat yetarli darajada aniq bo’ladi. Harakat vazifalari harakatning aniqligi tushunchasini keltirib chiqaradi. Harakatning aniqligi chaqqonlikning ikkinchi o’lchovidir.

Chaqqonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilib yuklamani oshirish shug‘ulla nuvchilarga koordinasiyaviy qiyinchiliklarni kuchaytiradi. Mashg‘ulotlar davomida bunday qiyinchiliklar uch guruhga bo‘linadi:

1. Harakatlarning aniqligiga erishishdagi qiyinchiliklar.
2. Ularning o‘zaro moslasha olishidagi qiyinchiliklar.
3. Kutilmaganda, qisqa vaqt ichida, o‘zgargan sharoitda duch kelinadigan qiyinchiliklar.

Sportchilarni chaqqonlik sifatini tarbiyalash orqali o‘z ozidan tanlov reaksiyalarni ham bemalol tarbiyalash mumkin bo‘ladi.

Sportchi ko‘rsatadigan reaksiyalar ikkiga bo‘linib ular:

1. Oddiy reaksiya
2. Murakkab reaksiyalarga ajratiladi.

Agarda gandbolchi chalingan shutak tovishiga nisbatan javob reaksiyasi ko‘rsatsa bu oddiy chunki bu mashg‘ulot jarayonida ko‘p marta tushintirilga va o‘yin qoidalari bilan mustaxkamlab qo‘yilgan holat bo‘ladi. Yoki gandbochi hujum zonasidan berilgan zarbaga nisbatan himoyalani uchun biron bir javab reaksiyasini ko‘rsatsa bu murakkab reaksiya yani tanlov reaksiyasi bo‘ladi va uni rivojlantirishda yuqorida keltirilgan usul va vositalardan foydalanish eng foydali natija beradi.

### **Xulosa**

Sport mashg‘uloti juda ham keng qamrovli jarayon hisoblanadi, chunki unda tayyorgarlikning ko‘plab tamonlari mavjud. Manashu tamonlarni to‘g‘ri tarbiyalash uchun murabbiy ko‘plab jihatlarni hisobga olishga majbur. Sportchining nerv sistemasi qanchalik yaxshi faoliyat amalga oshirsa shuncha harakatdagi turg‘unlik mustaxkam va ijobiy bo‘ladi. Shu o‘rinda gandbol sport turi tezkorlik va chaqqonlikni talab etishini inobatga olgan holda yosh gandbolchilarni yoshlikdan jarayonga to‘g‘ri baho bera olishga va tanlov reaksiyasini vaqtida berishga o‘gatish kelgusidagi natijani yuksak bo‘lishi uchu poydevor vazifasini o‘taydi deb hisoblaymiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bondarevskiy E .YA. Xankeldiyev SH. X. O‘quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligi. Meditsina –T.: 1986.-204. b.
2. SH.K.Povlov,O.X.Abdalimov,Z.Ye.Yusupova. Gandbol nazaryasi va uslubiyoti. Darslik Toshkent 2017-yil 415.b
3. A.Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyev Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2016. -410.b.
4. R.S.Salomov. Jismoniy tarbiya nazaryasi va metodikasi. Darslik –Toshkent 2014-yil 284 b.
5. F.A.Kerimov ” Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar”. Toshkent. ”Zar qalam” - 2004.-447.b





## YENGIL ATLETIKANING 13-14 YOSHLI O‘QUVCHILAR JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

**Jonibekova Fotima Gulomjonovna**

Namangan davlat universiteti

Jismoniy madaniyat fakulteti magistri

**Annatsiya:** 13-14 yoshli o‘quvchilarni yengil atletika to‘g‘arak mashg‘ulotlari orqali jismoniy sifatlarni tarbiyalash va bu orqali jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga oid nazariy ma‘lumot hamda amaliy ta‘vsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlar, tezkorlik, chaqqonlik, kuch, chidamkorlik.

## РОЛЬ ЛЕГКОЙ АТЛЕТИКИ В РАЗВИТИИ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ШКОЛЬНИКОВ 13-14 ЛЕТ

**Аннотация:** Теоретические сведения и практические рекомендации по развитию физических качеств и физической подготовленности школьников 13-14 лет путем занятий в легкоатлетических секциях.

**Ключевые слова:** Физическая подготовка, физическая подготовка, физические качества, ловкость, ловкость, сила, выносливость.

## THE ROLE OF ATHLETICS IN THE DEVELOPMENT OF PHYSICAL FITNESS OF 13–14-YEAR-OLD PUPILS

**Annotation:** Theoretical information and practical recommendations on the development of physical qualities and the development of physical fitness of 13-14-year-old students through athletics clubs

**Keywords:** Physical training, physical training, physical qualities, agility, agility, strength, endurance.

**Ishning dolzarbligi.** Hozirda butun dunyoda sport va jismoniy tarbiyaning ahamiyatini hisobga olmaslikni ilojisi yo‘q. Chunki, har bir millat o‘z vatani kelajagi bo‘lgan yosh avlod salomatligiga befarq bo‘lolmaydi. Mazkur vazifani oshirishni dastlab bog‘cha va maktab yoshidan amalga oshiriladi. Albatta maktab jismoniy tarbiyasi ko‘pgina muhim vazifalarni amalga oshira. Shu vazifalar o‘quvchilarni sog‘lomlashtirish va jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish hisoblanadi. Ammo, ushbu vazifalarni amalga oshirishda ayrim nomutanosiblik yuzaga kelayotganini maktab sport to‘garaklari faoliyatini o‘rganish jarayonida guvohi bo‘lish mumkin. Umumta’lim maktabining 13-14 yoshli yengil atletikachilarga o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda ko‘proq etiborli bo‘lish talab etiladi. Chunki, bu yoshda bolalar o‘z rivojlanishi jadal bo‘lib, ularning o‘zini tutishi, fe’l atvorida ham beqarorlik yuzaga kela boshlaydi. Manashunday vaziyatda o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish uchun jismoniy tayyorgarlik turlarini bilish juda ham ahamiyatlidir. Ko‘pchilikka ma’lum sport mashg‘ulotlarini o‘tkazishda Yengil atletikaning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik turlaridan foydalaniladi. Ushbu tayyorgarlik turlari o‘ziga xos vazifalarni bajaradi. Manashu o‘ziga xoslikni bir bir-biriga bog‘lash, ya’ni umumiy jismoniy tayyorgarlikdan maxsus jismoniy tayyorgarlikga to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘tib ketmasdan, o‘quvchining tayyorgarlik jarayoniga qandaydur yordam berish talabi yuzaga keladi. Bunday yordamni amalga oshirish uchun har bir Yengil atletika sport to‘garagi murabbiysi jismoniy tayyorgarlik turlarini bilishi hamda mashg‘ulot vazifasi mos jismoniy tayyorgarlik mashqlarini tanlab qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lishi juda ham dolzarb masala deb qaramoqdamiz.

**Ishning maqsadi:** 13-14 yoshli o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda yengil atletika to‘garaklarining ahamiyatini aniqlash.

**Ishning vazifalari :** 1) Yengil atletika mashg‘ulotida qo‘llaniladigan vositalarni o‘rganish. 2) umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni bir biriga bog‘lab mashg‘ulot tashkil etilishi o‘rganish.

Mazkur tayyorgarlik turi haqida so‘z yuritishdan avval yuqoridagi ikki jismoniy tayyorgarlik turlari va ularni o‘ziga xosligi haqida qisqacha to‘xtalsak.

Yengil atletika sport mashg‘ulotlari jismoniy tayyorgarligida harakat(jismoniy) sifatlarini rivojlanishi tushuniladi: kuch, tezlik, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik. Sportda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik ajratiladi, ular sportchini musobaqaga tayyorlovchi vosita hisoblanadi. Sportchining jismoniy tayyorgarligini rivojlanishining baholanishini ko‘rsatgichi nerv-muskul apparatining miqdoriy va sifat ko‘rsatgichidir.

Yengil atletika to‘garaklari ham sportchini ko‘p yillik tayyorgarligi bosqichlaridagi kabi tayyorgarlik vositalari sportchining o‘sayotgan organizmining moslashish darajasiga bog‘liq holda o‘zgarib boradi. Quyda shunday tayyorgarlik turlariga to‘xtalib o‘tamiz.

### **Jismoniy tayyorgarlik turlari.**

1. **Umumiy jismoniy tayyorgarlik** qomatni to‘g‘ri bo‘lishiga, barcha muskul gruppalari va harakat sifatlarini umumiy rivojlanishiga, ya’ni yuqori sport natijalariga erishishga yordam beradi. Umumiy jismoniy tayyorlik kasb kasalliklarini oldini olishda va sportda tiklanish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

2. **Yordamchi jismoniy tayyorgarlik** maxsus jismoniy tayyorgarlikning birinchi pog‘onasi bo‘lib, maxsus harakat sifatlarini rivojlantirishga, funktsional imkoniyatlarni va musobaqa yuklamalarini bajarishda va ulardan keyin tiklanishda nerv-muskul koordinatsiyasini ko‘tarishga yo‘naltirilgan.

3. **Maxsus jismoniy tayyorgarlik** musobaqa faoliyatida zarur bo‘lgan maxsus harakat sifatlarini rivojlantiradi. Yengil atletika har tomonlama tayyorgarligining asosiy mezonlari ularning musobaqa faoliyati natijalari hisoblanadi. Sportning har bir turida umumiy va yordamchi tayyorgarlik sport mutaxassisligi bilan

bog‘liqdir, ular sportchi jismoniy harakat aniqligiga erishishiga yordamlashish uchun qaratilgan.<sup>66</sup>

Ba’zi harakat sifatlarining ahamiyati, ularning har birini takomillashuvi usulni talab qiladi. Masalan:

1) yuguruvchilarda:

- absolyut tezlikni oshirish;
- startni bajarishning tezligi;

•tezlikning elementar shakllarini takomillashtirish (reaktsiya vaqti, ba’zi harakatlarni bajarilish vaqti, harakat tempi).

2) Sakrovchilarda.

- alohida texnik usullarni qo‘llaganda tezlik sifatlarini namoyon qilish;
- mo‘ljal olish va qaror qabul qilish tezligi;
- sherik va raqiblar bilan guruh bo‘lib o‘zaro ta’sir qilishning murakkabligini ko‘rish mumkin.<sup>67</sup>

Har bir sport turning o‘ziga xosligi mavjud buni yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkin. Yengil atletika sport to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni bog‘lovchi sifatida yordamchi jismoniy tayyorgarlikdan foydalanilinish yuqori samara beradi.

Bunda Yengil atletikachi o‘quvchilar mashg‘ulot jarayoniga ajratilgan vaqtni tayyorgarlik turlariga mos holda taxsimplash juda muhim hisoblanadi. Yengil atletika to‘garak mashg‘ulotlariga ajratilgan vaqt 2 akademik soat, ya’ni 90 daqiqa bo‘lsa shundan umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlariga 25 daqiqa, maxsus jismoniy tayyorgarlikka 20 daqiqa, yordamchi tayyorgarlikka 10 daqiqa, 30 daqiqa texnik-taktik tayyorgarlik uchun 5 daqiqa qayta tiklanish va yakuniy qisim uchun ajratilgan tartibda, mashg‘ulot olib borilsa, shunday tartiblashtirilsa, biz yuqorida keltirib o‘tgan yordamchi jismoniy tayyorgarlikni mashg‘ulotga joriy qilish imkoni tug‘iladi. Mazkur

<sup>66</sup> Q T. Arabboyev. “O‘quv uslubiy majmua” QDPI 2021-2022 yil

<sup>67</sup> A. Abdullayev “Jismoniy madsaniyat nazaryasi va metodikasi” darslik farg‘ona 2016 yil

tayyorgarlinki mashg‘ulotida quydagicha tashkillash va o‘tkazish orqali atlet o‘quvchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga erishish mumkin bo‘ladi.

### **Xulosa**

Xulosa uchun 13-14 yoshli yengil atletikachilarni tarbiyalashda va ularning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda avvalo mashg‘ulotni muntazam ravishta tashkillash talabi yuzaga keladi. Mazkur talabni bajarish uchun yosh yengil atletikachilarni mashg‘ulot talablaridan bezitmasdan ishtiyoq bilan mashq bajarishlarini ta‘minlash juda muhim hisoblanadi. Yuqorida takitlangan yordamchi jismoniy tayyorgarlik shu vazifani amalga oshirishda juda ham yuqori samara berishi haqida ma‘lumotlarni etiborga olgan holda tayyorgarlik turlaridan oqilona va maqsadli foydalanish eng kerak vosita bo‘lib hizmat qiladi. Bundan tashqari sport to‘garak mashg‘ulotlarini o‘tkazishdagi asosiy maqsadni hal etishda sog‘lomlashtiruvchi va jismoniy tayyorgarlikni rivojlantiruvchi bo‘lib hizmat qiladi deb hisoblaymiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. M. J. Abdullayev, M. S. Olimov, N. T. To‘xtaboyev Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi darslik.- T. 2017. -625.b
2. F.A.Kerimov ” Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar”. Toshkent. ”Zar qalam” - 2004.-447.b.
3. R.S.Salomov. Jismoniy tarbiya nazaryasi va metodikasi. Darslik –Toshkent 2014-yil 284 b
4. Морфология человека, под. ред. Б.А.Никитюк и В.П.Чтецова, уч. пос., 2-е изд., издательство МГУ, 1990, 67-68 стр.
5. Q T. Arabboyev. “O‘quv uslubiy majmua” QDPI 2021-2022 yil..

## SIRT POTENSIALINI O‘LCHASHNING DINAMIK VA STATIK KONDENSATOR USULI USULLARI

**O‘rinboyev Dostonbek Rustamjon o‘g‘li**

Namangan muhandislik Qurilish Instituti

Email: [dostonbek0408@gmail.com](mailto:dostonbek0408@gmail.com)

**Suvanov Jahongir Xusniddin o‘g‘li**

Email: [jahongirsuvonov01@gmail.com](mailto:jahongirsuvonov01@gmail.com)

**Annotatsiya:** Bu ishda metal-diektirik-yarimo‘tkazgich tuzulmalarni chegara sohasidagi sirt xolatlar zichligini Volt-farad usuli bilan aniqlash ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar:** potensial, fotoEYuK, dinamik kondensator.

**Abstract:** In this work it is shown deformation of density of superficial states on interphase border metal-dielectric-semiconductor by method of volt-farad characteristics.

**Keywords:** potential, photoECC, dynamic capacitor

В работе показана определение плотности поверхностных состояний на межфазной границе металл-диэлектрик-полупроводник методом вольтфарадной характеристики

1. Dinamik kondensator usuli.

Sirtni o‘zgarmas potensialini va uning turli ta’sirlar ostida asta – sekin o‘zgarishini o‘lchashni o‘ta qulay usuli, bu dinamik kondensator usulidir. Bu usulni asosiy afzalligi shundaki, u juda yuqori sezgirlikka ega

( $10^{-3}$  –  $10^{-4}$  В) va katta temperatura intervalida, hamda ixtiyoriy gaz muxitida amalda o‘lchash imkoniyatiga ega. Dastlab bu usul Kel’vin tomonidan kontakt

potensiallar farqini o‘lchash uchun taklif etilgan bo‘lsada, hozirgi kunda ham sirt potensialini va uning o‘zgarishini o‘lchashda keng qo‘llaniladi.

Tadqiq etilayotgan yassi namuna atmosferadagi kondesator qoplamasini bir tomoni hisoblanadi. Ikkinchi qoplamasi esa, etalon elektrodan iborat (u kvars yoki shisha asosiga qoplangan yarim shaffof metal qatlami, yoki bo‘lmasa agar yoritish talab etilmaydigan bo‘lsa, soddagina metal plastinadan bo‘lishi ham mumkin.

Etalon elektrodga qo‘yiladigan asosiy talab, bu uning chiqish ishini vaqt bo‘yicha tadqiq etilyapgan sharoitdagi ta’sirlar ostida o‘zgarmay barqaror turishidir. Etalon elektrod tadqiq etilyapgan sirtga iloji boricha yaqinroq joylashtiriladi va elektrodlardan birini, odatda etalon elektrodni turli xildagi mexanik qurilmalar yordamida titratiladi, ya’ni dinamik kondensator hosil qilinadi. Titrash natijasida kondensator qoplamalari orasidagi masofa oddiy garmonik tebranish qonuni bo‘yicha o‘zgaradi.

$$d = d_0 + a \sin \omega t \quad (1)$$

bu yerda  $d_0$  –qoplamalar orasidagi o‘rtacha masofa.  $a$  – tebranish amplitudasi. Sezgirlikni oshirish uchun iloji boricha  $a \approx d_0$  bo‘lishi kerak, lekin qoplamalar bir biriga tegib ketmasligi lozim. Dinamik kondensator sig‘imini quyidagi ko‘rinishda yozish mumkin.

$$C = \frac{S}{4\pi(d_0 + a \sin \omega t)} \quad (2)$$

Agar qoplamalar orasida doimiy, yoki sekin asta o‘zgaruvchi kontakt potensiallar farqi, yoki boshqa turdagi  $V$  kuchlanish bo‘lsa, qoplamalardagi zaryad o‘zgaradi va

$$dQ = V dC \quad (3)$$


tashqi zanjirda o‘zgaruvchan tok yuzaga keladi;ol  
adi.

$$I = \frac{dQ}{dt} = V \frac{dC}{dt} \quad (4)$$

Agar  $V = 0$  bo‘lsa, sig‘im o‘zgarishiga qaramay  $J = 0$  bo‘ladi. Doimiy tok potensiometri yordamida qoplamalarga tashqi  $V$  ishorasiga qarama – qarshi potensiallar farqini berib, biz tadqiq etilayapgan potensialni kompensasiyalashimiz

mumkin va tashqi zanjirilarida o‘zgaruvchan signalni yo‘qolgan momenti paytida potensiometr ko‘rsatgan kontakt potentsiallar farqini topamiz. Dinamik kondensator usulida o‘lchash sxemasi 1 – rasmda keltirilgan. Chiqish ishlarini farqidan yuzaga keladigan signal elektrometrik kaskad (EK) orqali o‘tib tanlov kuchaytighichda kuchaytiriladi, voltmetrda kuchlanish  $V$  o‘lchanadi va ostsiollograf kirishiga ulanadi. Potentsiallar yordamida dinamik kondensatorga kontakt potentsiallar farqiga (KPF) teng va qarama – qarshi ishorali o‘zgarimas kuchlanish berib, voltmetr va ostsillografdagi signalni kompensiraymiz. Dinamik kondensatorni titrash chastotasi odatda 20 – 100 Gs atrofida tanlanadi. Kompensatsion usul kontakt potentsiallar farqini juda katta aniqlik bilan o‘lchashni ta‘minlaydi. Madomiki, bu usulda tadqiq etilayapgan sirt va etalon sirt orasidagi kontakt potentsiallar farqi o‘lchanar ekan, unda etalon elektrodning chiqish ishi qiymati stabil saqlanishi muhim hisoblanadi. Ushbu usul bilan yana foto E.Y.K. qiymatini kontakt potentsiallar qiymatlarini qorong‘udagi  $V_0$  va yoritilgandagi  $V_L$  lar farqi orqali  $\Delta V_{ph} = V_L - V_0$  topish mumkin.

Kichik yuzali elektroddan foydalanib va uni namuna sirti yuzasi bo‘lylab ko‘chirib yurish orqali tadqiq etilayapgan namuna sirtida kontakt potentsiallari farqini fazoviy taxsimotini ham o‘rganish mumkin.



**1 – rasm. Dinamik kondensator usulida sirt potentsialini o‘lchash sxemasi.**

DK – dinamik kondensator, PPT – doimiy tok potensiometri, EK – elektrometrik kaskad,

$R_{BX} > 10^{10}$  Om, CU – tanlov kuchaytirgichi, B – voltmetr, O – ostsillograf.



2. Statik kondensator usuli. Dinamik kondensator usuli etalon va tekshirilyapgan na'muna sirti orasidagi doimiy potentsiallar farqini va uni juda sekin o'zgarandagi (minut,soat) qiymatini o'lchashga imkon beradi. Lekin, u sirt potentsialini tez o'zgarishini o'rganishga bag'ishlanmagan. Masalan, yoritishni yuqori chastota bilan modulyatsiyalab, ta'sirini o'rganishga yaramaydi. Sirt potentsialini tez o'zgarishini o'rganish uchun (masalan,  $10^5$  chastotagacha ) modulyatsiyalab yoritishga elektrodlar xarakatsiz, odatdagi, kondensator usulidan foydalanish mumkin. Bu holda tekshirilayapgan sirt, etalon sirtidan yupqa dielektrik qatlam, odatda slyuda bilan, ajratiladi. So'ng yarimo'tkazgich sirtini sinus qonuni bo'yicha o'zgaradigan yoritish tizimi bilan yoritiladi.

$$L = L_0(\sin \omega t + 1) \quad (5)$$

Bu holda foto E.Y.K. tufayli o'zgargan potentsiallar farqi quyidagiga teng.

$$dV_{Ph} = V_0 \sin(\omega t + \varphi) \quad (6)$$

Bu yerda  $\varphi$  - hosil bo'lgan kuchlanish va yorug'lik fazalarini siljishi.

Sig'im o'zgarmay turganda kondensator qoplamalaridagi zaryad quyidagi ifodaga ko'ra ro'y beradi .

$$dQ = CdV_{Ph} \quad (7)$$

Hosil bo'lgan tok esa, bu zaryadni vaqt bo'yicha hosilasi orqali aniqlanadi.

$$I = \frac{dQ}{dt} \propto \cos(\omega t + \varphi) \quad (8)$$

Foto E.Y.K.ni o'lchashda dinamik konsator uchun qo'llangan sxemadan foydalanish mumkin.

Bunda o'lchanayapgan o'zgaruvchan kuchlanish foto E.Y.K. kattaligiga teng bo'lmaydi.

$$V^{\approx} = IR_N \neq dV_{Ph} \quad (9)$$

Foto E.Y.K.ni absolyut qiymatini aniqlash uchun sxemani kolibrovkalash lozim. Sxemani zaruriy ishlash sharti.

$$\tau = R_N C \gg T = \frac{1}{f} \quad (10)$$

Bu yerda  $R_N$ -nagruska qarshilik, S-o‘lchov kondensatori sig‘imi, f - yoritishni modulyatsiya chastotasi. Bu shartlar buzilganda signal foto E.Y.K.ga proporsional bo‘lmasdan uning hosilasiga proporsional bo‘ladi.  $\frac{dV_{Ph}}{dt}$

Bu usul yuqori sezgirlikka egaligi bilan farqlanib,  $V_{Ph} \sim 0.1$  mkv kuchlanishga qadar o‘lchashga imkon beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.I. Vlasov, A.A. Nasirov, X.A. Abdusamatov, V. Abduazimov, Uzbek. fizich. Journ. № 6, 69 (1994).
2. A.Yu. Bobqlev. V materialax Mejdunarodnoy konferentsii po fotoelektricheskiy opticheskiy yavleniyam v poluprovodnikovqx strukturax (Fergana, 2006), s. 96.
3. S.I. Vlasov, S.Z. Zaynabidinov, A.A. Nasirov, T.SH. Alimov, T.X. Pak, Izvestiya vuzov. Fizika № 1, 121 (1991).

## МУҲАММАД АЛИНИНГ “УЛУҒ САЛТАНАТ” ТЕТРОЛОГИЯСИДА ЁЗУВЧИ ДУНЁҚАРАШИ ВА ҚАҲРАМОН ТАБИАТИ

**Мардонова Лобар Умаралиевна**

Термиз давлат университети

Педагогика институти

Она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси

**Аннотация:** Асар тасвирий йўналишдаги фалсафий мушоҳадакорлик, адиб гоյвий концепциясидаги теран ҳаётий умумлашмалар ўқувчи онгида олам ва одам ҳақида теран мулоҳазалар уйғотади, ўша давр руҳини китобхон қалбига жойлайди. Асар марказида жаҳолат ва ёвузлик, хиёнат ва қабоҳатнинг инкори орқали эътиқод бутлиги, иймон мусаффолиги, эрк соғинчи, юртга садоқат сингари ардоқли туйғуларни улуғлаш туради.

**Калит сўзлар:** тарихий образ, инсон, шахс, мулоҳаза, фалсафий мушоҳадакорлик, давр руҳи, тасвир.

**Аннотация:** Произведение представляет собой философское наблюдение в изобразительном направлении, глубокие жизненные обобщения в мировоззренческой концепции писателя пробуждают в сознании читателя глубокие размышления о мире и человеке, поселяют в сердце читателя дух того периода. . В основе произведения прославление таких благородных чувств, как невежество и зло, отрицание предательства и зла, непорочность веры, чистота веры, стремление к свободе, верность стране.

**Ключевые слова:** исторический образ, человек, личность, размышление, философское наблюдение, дух времени, образ.

**Annotation:** The work is a philosophical observation in the visual direction, deep life generalizations in the ideological concept of the writer evokes in the mind of the

reader deep thoughts about the world and man, places the spirit of that period in the heart of the reader. At the heart of the work is the glorification of such noble feelings as ignorance and evil, the denial of betrayal and evil, the integrity of faith, the purity of faith, the longing for freedom, loyalty to the country.

**Keywords:** historical image, person, person, reflection, philosophical observation, spirit of the period, image.

Халқимизнинг адабий-эстетик эҳтиёжини қондиришга интилиб келаётган носирларимиздан бири Муҳаммад Али тарихий ҳақиқатларни бадиий талқин қилишга, насримиз имкониятларини янада кенгайтиришга баракали ҳисса қўшмоқда. Бугунгача Амир Темур ҳақида кўплаб асарлар ва “Улуғ салтанат” тетралогиясини ўқувчилар ҳукмига ҳавола этган ёзувчининг асарларида гоҳ тарихий, гоҳ романтик, гоҳида эса ўткир психологизм руҳи устунлик қилади. Адибнинг “Сарбадорлар” номли романи аслида “Улуғ салтанат”га руҳий-ижодий тайёргарлик босқичи бўлиб, миллий истиқлолдан анча илгари, ўтган асрнинг 70-йилларида бошланган эди. Романга материал тўплаш жараёнида ёзувчи адабиётимизда мазкур мавзуда ёзилган асарларни синчиклаб ўрганганлиги аниқ. Мақсад эса миллатнинг отаси ҳақида –унинг ибратли фазилятлари, намуна бўладиган ҳаётий лавҳаларни ўқувчига ёзувчи томонидан етказилишидир.

Тарихий буюк шахслар ҳаётини ўрганиш яъни ўтмиш-мозий мавзуда ёзувчи бўлиш–икки қарра ёзувчи бўлиш, деганидир. Унда ёзувчиликдан бошқа ёзилаётган мавзунинг ипидан-игнаси гача, икир-чикири (этнография, урф-одатлар, маросимлар, ўша давр географияси, шаҳарлар, қишлоқлар, йўллар, тоғлар, саҳролар, дарёлар, муомала маданияти, таомлар, кийим-кечаклар, ҳайвонот олами ва ҳоказолар) гача эринмай ўрганиб чиқилганлиги, замон об-ҳавосини англай олиш, давр томир уришини сезиш тадқиқотчилик талаб этганлиги ва ёзувчининг бу жараёни юксак маҳорат билан эгаллаганлигини асар давомида сезишимиз мумкин.

Тетралогида Амир Темур оддий бекликдан улуг саркардаликкача кўтарилган, соҳибқиронлик рутбасига мушарраф бўлган, хурриятга ташна инсон образи сифатида кенг кўламда ифода этилди. Амир Темур-руҳан енгилмайдиган ўқтам инсон. У халқ мусибатини шахсий майлларида устун қўя олади. Ёзувчи унинг нафақат жисмоний, балки руҳий қудратини ҳам кўрсата билган. Бундай ҳолни романнинг Тўхтамишхон, Боязид Йилдирим билан тўқнашув тасвирланган ўринларида ҳам учратамиз. Ёзувчи туйғуларни тасвирлашда қахрамонлар руҳиятидаги тебранишларга эътибор қаратади. Амир Темур билан Боязид Йилдиримни қарама-қарши қўйиб тасвирлаш орқали иймон поклиги ва руҳ мусаффолиги ҳақидаги концепцияни тасдиқлайди, китобхон туйғулар оламини ларзага солиб, гоҳ ғурур, гоҳ энтиқиш, гоҳида эса ачиниш, изтиробга тушиш ҳисларининг ўрнини алмаштирибборади.

А.Орипов томонидан ёзилган “Соҳибқирон” драмасида ҳам Боязиднинг Амир Темурга ёзган хатидаги ҳақоратлар уни урушга киришишга мажбур этиши ишонarli тасвирланган. Муаллиф эса ҳеч бир инсон чидаши мумкин бўлмаган бундай одобсизликка Темурнинг жанг билан жавоб қайтариши табиийлигини тарихий ҳақиқатга ҳам мос ҳолда тасвирлайди.

Асарда ёзилишича, Амир Темур ва Йилдирим Боязид-ўз замонасининг енгилмас саркардалари. Улар ўртасидаги муносабатлар турлича талқинларга эга. Замонни лол қолдирган нарса яхши гапга кўнмаган Боязидга яқин бўлиш мақсадида Амир Темур томонидан қариндошлик риштасининг боғланиши яъни “қиз олиб, қиз бериш” таклифи берилганлигидир. Лекин Боязиднинг Амир Темурга ёзган хатидаги ҳақоратлар уни урушга киришишга мажбур этиши бу асарда ҳам ёритилади. Жанг бўлиб ўтади, Боязид енгилиб қўлга тушади... Соҳибқирон Боязидга шохчодирлар тиктиради, рум қайсари бола-чақаси билан бир ярим йилча яшайди, унинг бурнини ҳам қонатмайдилар, Соҳибқирон унга султондай муносабатда бўлади, ҳатто ўзининг тахтини қайтармоқчи эканини айтади, бироқ тақдири азал ҳукми ўзгача бўлади – у изтироблар инқирозига дош бера олмай оламдан ўтади.

Асар тасвирий йўналишдаги фалсафий мушоҳадакорлик, адиб ғоявий концепциясидаги теран ҳаётий умумлашмалар ўқувчи онгида олам ва одам ҳақида теран мулоҳазалар уйғотади, ўша давр руҳини китобхон қалбига жойлайди. Асар марказида жаҳолат ва ёвузлик, хиёнат ва қабоҳатнинг инкори орқали эътиқод бутлиги, иймон мусаффолиги, эрк соғинчи, юртга садоқат сингари ардоқли туйғуларни улуғлаш туради. Адиб сохибқиронни идеаллаштирмайди. Бутун умри даҳшатли йўқотишлар ичида кечган саркарданинг дард-аламлари, изтироблари ҳаққоний тасвирланади. У муқаррар фожиасини англаган ҳолда катта мақсадлар йўлида муҳорабагакиргани билан улуғворлик касб этса, атрофини қуршаганларнинг руҳий оламини билиб улгурмаганлиги жиҳатидан ожизлигини ҳам намоён этадики, у адабий қаҳрамонгина эмас, жонли одам, банда сифатида қабул қилинади.

Муаллифнинг бу асардан кўзлаган бош мақсади ҳам “*Чингиз қиличи*” яралаб, тиз чўктиришга уринган, буюк “*Ясо қонунлари*” хўрлаган исломий юрт Туронда эртанги кун қайғуси билан яшаётган, Ватан тупроғини муқаддас билувчи ботирлар кўплигини кўрсатишдан иборат эди.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мухаммад Али. Улуғ салтанат. Жаҳонгир Мирзо. 1- китоб.-Т.: Наврўз. 2019.-Б. 277.
2. Мухаммад Али. Улуғ салтанат. Мироншоҳ Мирзо. 3- китоб.-Т.: Наврўз. 2019.-Б.
3. Мухаммад Али. Улуғ салтанат. Шоҳруҳ Мирзо. 4-китоб. – Т.: Наврўз. 2019. – Б. 409
4. Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси.-Т.: Ўқитувчи. 2020.-Б. 259.
5. Алимбеков А. Тарихий романчилигимизга бир назар. Озод Ватан саодати. Адабий танқид. –Тошкент: Адиб, 2013. –313 б.
6. Каттабеков А. Тарихий ҳақиқат ва бадиий маҳорат.–Т:Фан, 1982.-127 б.
7. Амир Темур. Темур тузуклари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2019. -183 б.
8. Низомиддин Шомий, Зафарнома, Т., 1996;
9. Шарафуддин Али Йаздий, Зафарнома, Т., 1997;

## MOYCHECHAK (MATRIGARIA) VA UNING ZARARKUNANDALARIGA QARSHI KURASH, DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

**Hosilova Nilufar Akmaljon qizi**

ToshDAU "O'simliklar himoyasi, agrokimyo va tuproqshunoslik" fakulteti  
3-27 guruh talabasi

**Ismoilov Dilshodbek Sherzodjon o'g'li**

ToshDAU "O'simliklar himoyasi, agrokimyo va tuproqshunoslik" fakulteti  
3-20 guruh talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xalq tabobatida keng qo'llanib kelinayotgan Moychechak (Matrigaria) o'simligining ildizi, poyasi, bargi, gulidan olinadigan dorivor moddalar va ularda tabobatda qo'llanilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Recutito, kumarin, Flavonoid, Karotin, Aromaterapiya, Aken.

Moychechak (Matrigaria) — murakkab-guldoshlar oilasiga mansub bir yillik o'tsimon o'simlik turkumi, dorivor ekin. 50 dan ortiq turi bor. Asosan, Yevropada, Jan. Sibirda, Kavkaz, O'rta Osiyoda uchraydi. Ko'pgina mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonning Toshkent, Namangan viloyatlaridagi dorivor ekinlar yetishtiriladigan xo'jaliklarda dorivor M. (M.recutito) turi (chittigul) ekiladi. Dorivor M.ning bo'yi 40 sm. Poyasi bir yoki bir nechta, tik usadi, tepa qismidan shoxlanadi. Barglari ikki karra patsimon qirqilgan. To'pguli (savatchasi) oq, tilsimon urug'chi gullardan iborat. Gullari oq, sariq, xushbo'y. Iyun— iyul oylarida gullab urug'laydi. Tarkibida 0,8% efir moyi, kumarinlar, flavonoidlar, karotin va boshqa moddalar bor. Tibbiyotda qo'llaniladi. M. hosili (to'pguli) bir necha marta yig'ishtirib olinadi.. Hosildorligi:

quruq to'pguli 3—4s/ga, urug'i 0,8—1 s/ga. Yana q. Dorivor o'simliklar. Shifobaxsh xususiyatga ega bo'lgan moychechak (romashka) o'simligi teri va uyqu

holatini me'yorlashtirish xususiyatiga egaligi hamda boshqa noyob dorivorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tomoq yallig'lanishi va shamollashda ham moychechak damlamasi yaxshi yordam berishi hech kimga sir emas. Quyida moychechakning shifobaxsh xususiyatlari haqida batafsil to'xtalib o'tamiz. Siz endi moychechakning qanday shifobaxsh xususiyatlarga egaligi va undan qanday qilib foydalanish usullarini ham bilib olishingiz mumkin.

### **Asosiy xususiyatlari.**

Bu poyasi ancha tik bo'lgan aromatik va bir yillik otsu turidir. U maksimal o'sishga yetganda balandligi 50 sm gacha o'lchashga qodir. Barglari pinnate, navbatma-navbat va segmentlarga bo'lingan. Ular sochlarning kichik qatlamiga ega. Yozda u oq ligulalar va sariq karnelian bilan o'ralgan sariq gullar tomonidan hosil qilingan gulzorga ega. Moychechak mevalari silindrsimon akenlar deyiladi. Ularning diametri atigi 1 mm. Changlatish uchun bu o'simlik hasharotlar, masalan, ari, asalarilar va chumolilar yordamiga muhtoj. Va o'z-o'zini changlatishga qodir, u uchun hasharotlardan foydalanish keng tarqalgan bo'lsa-da. Bu o'simlik ko'pincha Rim yoki achchiq romashka bilan aralashtiriladi. Biroq, bu eng sudraluvchi va kamroq balandlikka ega. Moychechakdan faqat gullardan foydalaniladi. Ular dorivor xususiyatlarga ega bo'lganlardir. Gul qismi ishlab chiqilgandan so'ng uni to'plash mumkin. Gullarni ochadigan kun, ularni yig'ish eng yaxshisidir. Bu uning tarkibiy qismlari faolroq va ko'proq miqdorga ega ekanligi bilan bog'liq. Ular allaqachon yig'ib olingandan so'ng, ular soyada quritilishi va shamollatiladigan joyda saqlanadi.

### **Dorivor xususiyatlari.**

Moychechak tez-tez dorivor xususiyatlari uchun ishlatiladi. U tashqi va ichki foydalanish uchun ishlatiladi. Ichki foydalanishni tavsiflash bilan boshlaymiz. Moychechakning ichki ishlatilishi Odatda infuzionlarni qabul qilishda foydalaniladi.

### **Ovqat hazm qilish muammolari.**

Ovqat hazm qilish xususiyatlari tufayli u ovqat hazm qilish tizimimiz ish faoliyatini yaxshilashi va muammo tug'dirmasligi uchun ishlatiladi. Buning uchun u eng katta ovqatdan so'ng infuziya sifatida qabul qilinadi. Shunday qilib, oshqozon



osonroq bo‘ladi. Karmatsion xususiyatlari bilan u bizga gazlarni chiqarishga yordam beradi. Gastrit va oshqozon yarasi. Ushbu ichak muammolariga yordam beradigan yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarga ega. Bundan tashqari, u oshqozon membranasini tiklash va himoya qilish qobiliyatiga ega. Jigarni parvarish qiling. Moychechak tufayli jigarimiz safroni yaxshiroq chiqarib yuborishi mumkin. Kusishni keltirib chiqaring Oshqozon ustida bo‘lganimizda, romashka bizga qusish va o‘zimizga zarar etkazadigan narsalardan xalos bo‘lishga yordam beradi. Shuningdek, ular oshqozon ichidagi asablarni tinchitadilar. Tartibga solish yaxshi qin oqimlari va hayz ko‘rish davriyligi. Bu qarshi samarali asab va uyqusizlik. Suyuqlikni ushlab turish va semirish. Bu tanadagi suyuqlikni yo‘q qiladigan o‘simlik. Uni ortiqcha vaznli odamlarda ishlatish qiziq. Yordam berish qondagi yog‘larni yo‘q qilish xolesterin bilan kurashish.

#### **Kurash choralari:**

Aksariyat hasharotlar romashkadan tozalanadi. Aslida u bodiring zararkunandalariga qarshi ishlatiladi. Biroq shira va trips muammoga duch kelishi mumkin. Ikkalasi ham o‘simlik yuvish va hashorotlar sovuni bilan davolash mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

[www.Wikepidiya.uz](http://www.Wikepidiya.uz)

1. “Moychechak” O‘zME. Birinchi jild.
2. Toshkent. 2000-yil
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi 2000-2005 ma’lumotlari.



## INCREASING PROFESSIONAL SKILLS OF MEDICAL STUDENTS BASED ON LINGUO-DIDACTIC APPROACH

**Khujaakhmatova Qunduz Baxtiyarovna**

Tashkent Medical Academy, Department of Uzbek  
and Foreign languages, teacher

Email: [xojaaxmatovaqunduz@gmail.com](mailto:xojaaxmatovaqunduz@gmail.com)

### ANNOTATION

This article is devoted to improve professional skills of students in the field of English medicine using modern strategies and methods and analyzing effectiveness of integrating lingua-didactic approach to enhance vocabulary acquisition of medical students.

**Key words:** lingua-didactic approach, modern technologies, strategies, professional skill, medical terms, techniques.

### Introduction

These days the role and influence of English are gaining higher speed not only in the world but also in Uzbekistan. The demand for improving higher education system in Uzbekistan is becoming an important issue on the educational system of Uzbekistan. From early years paying attention to the development of teaching foreign languages not only in specialized institutions but also in non-linguistic universities has played a pivotal role according to several reforms and decrees in Uzbekistan. English for Specific Purposes (ESP) has become a successful field over the recent period. As a learner-centered approach, its main purpose has been achieving the specific needs of target learners to fulfill either their professional or vocational needs.

### The characteristics of professional skills of medical students

- Commercial awareness
- Teamwork

- Attention to detail
- Communication
- Creative problem solving
- Information analysis and research
- Organisation

### **Teamwork**

Doctors will work alongside a variety of people and more often than not winning a case will be a team effort. Paramedics need to collaborate with colleagues and partners in their firm, as well as liaise with clients. Barristers need to foster a close working relationship with their clerks and will often work high-profile cases alongside other barristers. The ability to work as part of a team is essential and they will need to be able to deal with people from all levels of the community, from trainees and pupils, to members of the doctors. It's also vital that clients trust their medical representatives, so they need to be personable, persuasive and polite. The easiest way to hone people skills is to join a team. This could be a sports team, drama club or choir - anything that enables lawyers to work with others. Alternatively, getting involved with editing the student newspaper or join a debating society is also one of the profitable ways. Part-time work in a customer service role is another way to improve this skill.

### **Attention to detail**

Actually, accuracy is pivotal to the success of doctors' legal career. A single word out of place can change the meaning of a clause or contract, while misspelt or ungrammatical emails, letters or documents give clients a bad impression, costing them firm their business. When applying for jobs or training contracts they must remember that employers look for spelling, punctuation and grammatical errors. If their cover letter is vague, too long or littered with spelling mistakes, a recruiter may question what a potential client would make of their letter of advice. To improve attention to detail, they should volunteer their proofing services to student publications and get used to going through their own work with a fine-tooth comb.

### **Communication**

Fluent oral and written communication skills are crucial and without them any doctors will struggle to carry out the duties of a solicitor effectively. Excellent listening ability is also important when working with clients, as they need to be able to build relationships and engender confidence. They need to be a confident speaker when arguing a case in court, negotiating settlements and explaining complex information to clients. They have to use persuasive, clear and succinct language. Public speaking is also required in the role of a barrister. To hone this skill while at university, the doctors should volunteer as the spokesperson in group activities or get involved in debate teams.

Written ability is equally important when drafting patients' history and prescriptions. They need to know technical and medical language and be able to convey it clearly and concisely. To improve their written communication skills, get involved with the university's medicine society. They could take meeting minutes, draft emails, write newsletters or manage social media accounts.

### **Creative problem solving**

Some may think that the medical profession provides little outlet for an individual's creative talent but this simply isn't the case. No matter which medical career they choose they will frequently have to think outside the box to get the job done. As all experienced doctors and paramedics know, the best course of action isn't always the easiest or the most obvious. To outmanoeuvre opposing parties and secure a positive result for their client they'll need to employ their creative thinking and problem-solving skills on an almost daily basis. A good way to develop these abilities is to take part in student competitions, such as mooting, become a student representative or gain a position on students' union.

## REFERENCES

1. Whyte. Sh, Sarre.C, Introduction to new developments in ESP teaching and learning research, 2017.
2. Yukhimenko.A.N, Mefodova.M.A, Teaching Methods a Means of Stimulating Reserves of Medical Student Interaction, Kazan Federal University,2017,p.34.
3. Živković & S Tojković, Features of Linguo-didactic approach in ESP , 2015, p,357
4. Zivcovich.C, professional skills efficiency-an emerging trend in ESP teaching and learning, University of Nis Serba,2016, p77



## ICHIMLIK SUVLARINI ZARARSIZLANTIRISHDA ENERGIYA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Qurbonova Sarvinoz Nosirali qizi**

Farg‘ona Politexnika Instituti

Muhandislik kommunikatsiyasi tizimlari yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.

Email: [faraxnoza1@gmail.com](mailto:faraxnoza1@gmail.com)

Ilmiy rahbar: PhD J.T.Orzimatov Farg‘ona Politexnika Instituti

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda, ichimlik suvini zararsizlantirishda xloridan foydalanishdagi kamchiliklar hamda zamonaviy texnologiyadan foydalanishdagi energiya tejamlilik haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ichimlik suvi sifati, zararli moddalar, bakteriyalar, xlor, rulonli membrana apparati.

## THE USE OF ENERGY-SAVING TECHNOLOGIES IN THE NEUTRALIZATION OF DRINKING WATER

**Abstract:** In this thesis, the use of chlorine in the neutralization of drinking water, as well as energy savings in the use of modern technology, is considered.

**Key words:** quality of drinking water, harmful substances, bacteria, chlorine, roll membrane.

O‘zbekiston o‘zining jug‘rofiy joylashuvi tufayli qurg‘oqchil zonada joylashgan bo‘lib, aholisi tez o‘tib borayotgan va jadal rivojlanayotgan iqtisodiyoti bilan dunyoda suv tanqisligi xavfi yuqori bo‘lgan 25 mamlakat qatoriga kiradi. Ushbu omillarni hisobga olgan holda, shuningdek, mamlakatning iqlim o‘zgarishining salbiy ta‘siriga sezilarli darajada moyilligini hisobga olgan holda, suv boshqaruvini samaradorligini

o'shish va har bir tomchi suvdan oqilona foydalana olish aholining farovonligini va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. Chunki kasalliklarning 80% suv sifatining yomonligi tufayli kelib chiqadi. Xususan, Respublikamizda, Farg'ona viloyati ichimlik suvining sifati yomonligi tufayli kelib chiqadigan kasalliklar bo'yicha birinchi o'rinda turadi.

Farg'ona viloyatining ichimlik suv ta'minotida foydalanilayotgan suvning qattiqlik ko'rsatkichlari yuqoriligi va suvning ifloslanishi tufayli turli kasalliklar – oshqozon ichak, buyrak, jigar, qonda turli allergik xastaliklar sodir bo'ladi. Ifloslangan suv orqali zararli gelmitlar inson organizmiga o'tadi. Ich terlama, dizenteriya, gepatit va boshqa kasalliklar ko'payadi. Suvda kimyoviy elementlar, birikmalarning me'yoridan ortiq bo'lishi ularning asta-sekin to'planib borishiga sharoit yaratadi, natijada ayrim kasalliklarning kelib chiqishiga sababchi bo'ladi. Shu boisdan bugungi kunda aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash hamda inson salomatligiga ziyon yetkazmaslik maqsadida ichimlik suvni mikroorganizmlardan tozalash, suvni zararsizlantirish kimyoviy va fizik usullar yordamida amalga oshiriladi. Fizik usullarga qaynatish, ultrabinafsha nurlar, gamma nurlari va ultratovushlar yordamida zararsizlantirish kiradi. Bunda suvni ichimlik suvining sifat darajalariga javob beradigan talabga keltirish mumkin. Qaynatish suvni zararsizlantirishning muhim usullaridan bo'lib, bu jarayonda suvdagi barcha mikroorganizmlar o'ladi va suvning tabiiy mazasi buzilmaydi. Lekin ko'p miqdordagi suvni qaynatish imkoni yo'q, shu sababli barcha viloyatimizda vodoprovod suvlari xlolab zararsizlantiriladi. Lekin, xlolash bir qator kamchiliklarga ega. Xususan, bakteriyalar vaqt o'tishi bilan xlol va uning birikmalariga moslashadi, bu esa reagentning tobora kattaroq dozalarini qo'llashga yoki shunga qaramay, qo'shimcha dezinfeksiya usullaridan foydalanishga majbur qiladi. Xlollashning kamchiliklari quyidagicha:

Oksidlangach, u suvda yuqori darajali toksiklik, mutagenlik, kanserogenlik hosil bo'ladi.


Xlordan keyin suyuqlikni faollashtirilgan uglerod bilan tozalash uni xlolash natijasida hosil bo'lgan birikmalardan to'liq qutqarmaydi. Birikmalar juda chidamli,

ular ichimlik suvini ichib bo‘lmaydigan qilib qo‘yishi, daryolar va quyi oqimdagi boshqa tabiiy suv havzalarini to‘sib qo‘yishi mumkin.

Inson tanasiga kanserogen ta‘sir ko‘rsatadigan trihalometanlarning shakllanishi. Ular saraton hujayralarining o‘shiga yordam beradi. Va suvni zararsizlantirishning eng oson yo‘li bo‘lgan qaynoq vaziyatni yanada kuchaytiradi. Xlorli suyuqlikda undan keyin dioksin hosil bo‘ladi - xavfli zaharli modda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xlorli suv tomir kasalliklari, oshqozon -ichak trakti, jigar, yurak, gipertoniya, aterosklerozning rivojlanishiga ham yordam beradi. Teri, soch va tirnoqlarning holatiga salbiy ta‘sir qiladi. Tanadagi oqsillarni yo‘q qiladi.

Bunday salbiy oqibatlarni oldini olish uchun biz ichimlik suvini tozalashda yangi texnologiyalardan foydalanishni yo‘lga qo‘yishimiz zaruratga aylanmoqda. Shunday suvni tozalashda yangi texnologiyalardan biri - **rulonli turdagi qurilma**. Energiya iste‘moli jihatidan arzonroq - har bir kubometr suv uchun  $\frac{1}{2}$  kilovatt, yuqori sifatli tozalashni ta‘minlaydi, etkazib beriladigan suyuqlikning bosimi va tezligini sozlash imkonini beradi, o‘rnatish oson, suvning to‘xtab qolishi mumkin bo‘lgan joylarni o‘z ichiga olmaydi.



1-rasm. Rulonli membrana apparati umumiy ko‘rinishi.



Ularning afzalliklari:

- yuqori rangli (150 gacha) va to‘xtatilgan qattiq moddalarga qarshi kurashda samaradorlik;

- oqim tezligi va ish faoliyatini sozlash imkoniyati;

- sxemaning soddaligi;

- o‘rnatish qulayligi.

Roll-up mashinalari past gidravlik qarshilikka ega va alohida bo‘limda ular ochiq kanal bilan jihozlangan, bu esa hosil bo‘lgan cho‘kindilarni olib tashlashni osonlashtiradi. Tozalash, shuningdek, rulonli apparatlardan cho‘kindilarni olib tashlaydigan oqim tezligini oshirish orqali ham amalga oshiriladi.

Salbiy tomoni shundaki, tizim tarkibidagi qattiq elementlar quvurdagi to‘siqlarni to‘siq qo‘ymasligi uchun maxsus mexanik keyingi ishlov berish bilan jihozlangan bo‘lishi kerak. Boshqa tomondan, rulonli qurilmalarning energiya iste‘moli juda oddiy - tozalangan suvning 1 kubometri uchun 0,5 kVt.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan birga, ularning energiya resurslaridan oqilona foydalanish xususiyatlarini ham hisobga olish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Viloyatimizda ichimlik suvi ta‘minotini rivojlantirishda energiya tejamkor texnologiyalardan foydalanish samarali natijalarga erishish imkonini ta‘minlashi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Madraximov, M. M., Abdulkhaev, Z. E., & ugli Inomjonov, I. I. (2022). Factors Influencing Changes In The Groundwater Level In Fergana. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 30(2), 523-526.
2. Madaliev M. E., Navruzov D. P. Research of vt-92 turbulence model for calculating an axisymmetric sound jet //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – T. 4. – №. 2. – C. 82-90.

3. Маликов З. М., Мадалиев М. Э. Численное моделирование течения в плоском внезапно расширяющемся канале на основе новой двухжидкостной модели турбулентности //Вестник Московского государственного технического университета им. НЭ Баумана. Серия Естественные науки. – 2021. – №. 4. – С. 24-39.
4. Abdulkhaev, Z. E., Abdurazaqov, A. M., & Sattorov, A. M. (2021). Calculation of the Transition Processes in the Pressurized Water Pipes at the Start of the Pump Unit. *JournalNX*, 7(05), 285-291.
5. Madaliev E. et al. Comparison of turbulence models for two-phase flow in a centrifugal separator //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – Т. 264. [26]  
Маликов З. М., Мадалиев М. Э. Численное исследование воздушного центробежного сепаратора на основе модели турбулентности SARC //Проблемы вычислительной и прикладной математики. – 2019. – №. 6 (24). – С. 72-82.
6. Мадалиев М. Э. У. Численное моделирование течения в центробежном сепараторе на основе моделей SA и SARC //Математическое моделирование и численные методы. – 2019. – №. 2 (22).
7. Abdulkhaev Zokhidjon, Mamadali Madraximov, Axmadullo Abdurazaqov, and Mardon Shoyev. "Heat Calculations of Water Cooling Tower." *Uzbekistan Journal of Engineering and Technology* (2021).
8. Abdulkhaev Zokhidjon Erkinjonovich, Axmadullo Muxammadovich Abdurazaqov, and Abdusalom Mutalipovich Sattorov. "Calculation of the Transition Processes in the Pressurized Water Pipes at the Start of the Pump Unit." *JournalNX* 7, no. 05: 285-291. Numerical Simulation Of The Energy Separation Effect In The Ranke-Hilsch Tube Vol. 31 No. 2 March 2022 ISSN: 2509-0119 403
9. ABDULKHAEV ZOKHIDJON ERKINJONOVICH. "Protection of Fergana City from Groundwater." *Euro Afro Studies International Journal* 6 (2021): 70-81.
10. Madaliev M. E. Numerical research v t-92 turbulence model for axisymmetric jet flow //Vestnik Yuzhno-Ural'skogo Gosudarstvennogo Universiteta. Seriya" Vychislitel'naya Matematika i Informatika". – 2020. – Т. 9. – №. 4. – С. 67-78.

11. Мадрахимов, М. М., З. Э. Абдулхаев, and Н. Э. Ташпулатов. "Фарғона Шаҳар Ер Ости Сизот Сувлари Сатҳини Пасайтириш." Фарғона Политехника Институти Илмий–Техника Журнали 23, no. 1 (2019): 54-58.



**TALABALARGA “YARIMO‘TKAZGICHLI DIODLARNING VAX INI  
OLISH” LABARATORIYA MASHG‘ULOTINI O‘QITISHDA AKT DAN  
UNUMLI FOYDALANISH**

**Madumarova Saodat Qudiratulla qizi**

Namangan muhandislik-qurilish instituti

[saodatmadumarova0609@gmail.com](mailto:saodatmadumarova0609@gmail.com)

**Mingboyev Murodjon**

Namangan muhandislik-qurilish instituti

[mingboyevmurodjon@gmail.com](mailto:mingboyevmurodjon@gmail.com)

**Annotatsiya:** Biz bu ishimiz orqali talabalarga tajriba ishlarini tushuntirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) dan ma’lum dasturlar asosida tajriba ishini mukammal o‘rgatishdan iborat.

**Kalit so‘zi:** yarimo‘tkazgich, diod, axborot kommunikatsiya texnologiyasi, CASSY LAB, volt-amper xarakteristikasi.

**EFFECTIVE USE OF ICT IN TEACHING STUDENTS THE LABORATORY  
LESSON “OBTAINING THE VAX OF SEMICONDAKTOR DIODES”**

**Annotation:** Through this work, we are able to explain the experiments to students through the use of specific applications from information and communication technologies (ICT).

**Keywords:** semiconductor, diode, information and communication technologies (ICT), CASSY LAB, volt-ampere characteristics.

Bugun yurtimizda buyuk bunyodkorlik jarayoni kechmoqda. Qay bir go‘shaga boqmang, zamonaviy andozalar asosida bunyod etilayotgan inshootlarga, o‘z

hayotidan mamnun zamondoshlarimizga duch kelasiz. Ayniqsa, kelajagimiz egalari bo‘lmish yoshlarning barkamol voyaga yetishlari uchun yaratib berilayotgan qulaylik va imkoniyatlarning ko‘lami shu qadar kengki, buni so‘z bilan ta’riflab bo‘lmaydi. Hatto chekka-chekka qishloqlarda ham barcha qulayliklarga ega, zamonaviy texnik jihozlar bilan jihozlangan umumta’lim maktablari, kollejlarda yoshlar ixtiyorida.

Ta’lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biri o‘quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikasion texnologiyalarni, shu jumladan multimediyali o‘quv kurslarini qo‘llash, o‘qituvchi va o‘quvchining interfaol o‘zaro aloqalarini ta’minlash, multimediyali o‘quv kurslari va darsliklarini ishlab chiqishda yuqori malakali kadrlarni jalb etishdan iborat bo‘ladi.


Ta’lim tizimida axborot texnologiyalari asosida masofadan o‘qitishning samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan yaratilayotgan va qo‘llanilayotgan pedagogik dasturiy vositalar – o‘quv dastur, elektron o‘quv qo‘llanma, avtomatlashtirilgan o‘qitish kurslari va hokozalarning maqsadi, tarkibiy qismi, mazmuni va o‘qitish sifatiga bog‘liq bo‘ladi.

Shu jumladan laboratoriya mashg‘ulotlarida o‘tkazilayotgan tajribamiz eksperiment hissoqlashlarini nazariy hissoqlashlar birgalikda solishtirish imkonini beruvchi zamonaviy dasturlar foydalanish maqsadga muvofiq. Shunday zamonaviy dasturlardan biri CASSY LAB dasturi bo‘lib, u yordamida laboratoriya mashg‘ulotimizni nazariy jihatdan ham hissoqlash imkonini beruvchi funksiyalari mavjud. Buni quyida tajriba ishi orqali ham ko‘rib chiqishimiz mumkin.

#### **Yarimo‘tkazgichli diodning VAX ni hissoqlash**


Buning uchun bizga Yarimo‘tkazgichli diod, ma’lum qarshiliklar, CASSY LAB qurilmasi, kompyuter, CASSY LAB dasturi, ulovchi simlar kk boladi.

- Zanjirni quyidagi ko‘rinishda yig‘amiz.



CASSY LAB dasturini ishga tushirib, kerakli laboratoriya ishini tanlaymiz.

- Ko‘rsatkichlarni nol holatga keltirib, asta sekin kuchlanishni ortirib boramiz
- Qiymatlarga mos ravishda quyidagi grafikni olishimiz mumkin.



Bu dastur yordamida talabalarga tajriba ishini tushuntirib berish va diodning volt-ampere harakteristikasini olishga qulaylik ham yaratib berishi mumkin. Bundan tashqari grafik aniqligiga ham erishamiz.

### ADABIYOTLAR

16. Arjvadhara.P.Ali, S.M.Chitralkha.J., “ Analysis of solar PV cell performance with changing irradiance and temperature”, Int.J.Eng.Comput. Sci 2, 214-220, 2013
17. Fesharaki.V.J, Dehghani.M,Fesharaki.J.J “The effect of temperature on photovoltaic cell efficiency.In:Proceedings of the 1<sup>st</sup> International conference on Emerging Trends in Energy Conservation -ETEC”,Tehran,Iran,November 20-22, 2011
18. Sabry.M,Ghitas.A.E. “Influence of temperature on methods for determining Silicon solar cell series resistance”,J. Sol. Energy Eng.129,331-335, 2008
19. Arjvadhara.P.Ali, S.M.Chitralkha.J., “ Analysis of solar PV cell performance with changing irradiance and temperature”, Int.J.Eng.Comput. Sci 2, 214-220, 2013
20. Fesharaki.V.J, Dehghani.M,Fesharaki.J.J “The effect of temperature on photovoltaic cell efficiency.In:Proceedings of the 1<sup>st</sup> International conference on Emerging Trends in Energy Conservation -ETEC”,Tehran,Iran,November 20-22, 2011
21. Sabry.M,Ghitas.A.E. “Influence of temperature on methods for determining Silicon solar cell series resistance”,J. Sol. Energy Eng.129,331-335, 2008
22. Singh.P,Ravindra.N.M, “Temperature dependence of solar cell performance –an analysis”, Sol.Energy Mater. Sol.Cells 101,36-45, 2012
23. Mengjin Yang, Yuanyuan Zhou, Yining Zeng and other, “Square-Centimeter Solution- Planar CH<sub>3</sub>NH<sub>3</sub>PbI<sub>3</sub> Perovskite Solar Cells with Efficiency Eceeding15”,Adv Mater, 2015, 28 september
24. В.Л.Бонч-Бруевич, С.Г.Калашников «Физика полупроводников», Наука, М.1977.
25. G.Gulyamov, A.G.Gulyamov. “On the tensoensitivity of p-n junction under illuminatian”, Semiconductors,2015,vol.49, pp 819-822

## OILADA TARBIYA ASOSLARI

**Ermakova Sevinch Shavkat qizi**

Toshkent davlat pedagogika unversiteti

Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabasi

E-mail: [sevinchermakova@gmail.com](mailto:sevinchermakova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Shaxs kamoloti, jamiyat rivojida oila va undagi munosabatlarning o‘rni muhimdir. Sog‘lom muhitdagi oilagina barkamol insonlarni voyaga yetkazib beradi.

**Kalit so‘zlar:** oila, tarbiya, shaxs, barkamol, avlod, farzand, muhit.

## BASICS OF FAMILY UPBRINGING

**Abstract:** The role of household and reletionships are significant for evolution of society. Only a family with a healthy environment can bring up competant persons.

**Key words:** family, upbringing, person, mature, generation, child, ambience

Oila qon-qarindoshlik, nikoh yoki birga yashash orqali bog‘langan insonlar guruhidir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan buyon oila, uning mustahkamligi, oilada farzand tarbiyasi yanada dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Axloqan pok, ma‘nan yetuk, jismonan baquvvat, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash va voyaga yetkazish bugungi kunning asosiy mavzusidir. Mana shu sifatlarga ega avlodning yetishib chiqishidan, albatta, har bir jamiyat manfaatdor. Chunki har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlod, uning egallagan ta‘lim-tarbiya darajasiga bog‘liq. Bu avlodni esa sog‘lom munosabatlar o‘rnatilgan oila voyaga yetkazadi. Bola tarbiyasining asosida oiladagi muhit yaqqol namoyon bo‘lib, uning kelajakdagi xatti-harakatlarini ko‘p jihatdan belgilab beradi. Sog‘lom muhit qaror topgan oilada, albatta, jamiyat uchun foydali farzandlar kamol topadi. Bolaning qanday tarbiya topishi, qaysi



bilimlarni egallashi, qaysi kasb egasi bo‘lishi oiladagi rag‘batning nimaga yo‘naltirilganligiga bog‘liqdir. Uning bajargan qaysi ishlari, odatlari amallariga nisbatan rag‘bat, mukofot, e‘tibor berilsa, bola ham shu jihatini takrorlashga, mustahkamlashga va rivojlantirishga intiladi. Aksincha, salbiy qabul qilingan, jazolangan holatlarini yashirish, kamaytirish yoki tugatishga harakat qiladi. Biz bu masalani ajoyib tajriba misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin: 1965-yilda vengriyalik Laslo Polgar o‘qituvchi ayolga turmush qurish taklifini beradi, lekin bu turmushdan maqsad o‘z g‘oyasini farzandlari ustida tajriba sifatida sinab ko‘rish edi. U tarbiya berish orqali har qanday insonni voyaga yetkazish mumkinligiga qattiq ishonadi. Ushbu tajriba uchun u shaxmat o‘yinini tanlab oladi va dunyoga kelgan uch farzandini shaxmatga rag‘bat, mukofot kuchli bo‘lgan muhitda tarbiyalab boshlaydi. Natijada, har bir farzandi bu sohaning yetuk insonlari bo‘lib ulg‘ayishdi, ayniqsa, kenja qizi yigirma yetti yil davomida jahonning eng yaxshi shaxmatchi ayoli unvonini saqlab qoladi. Bularning asosiy sababi oiladagi e‘tiborning nimaga qaratilganligidadir. Ota-ona yoki yaqinlarning qo‘llab-quvvatlashi shaxs rivojlanishi, o‘z sohasinining yetuk mutaxassisi bo‘lishi, yuksak axloqqa erishishida muhim turtkilaridan hisoblanadi. Undagi loqaydlik esa farzand tarbiyasidagi haqiqiy inqirozdir.

Shuni ham aytib o‘tish joizki, farzand tarbiyasi, uning sog‘lom muhitda o‘sib-ulg‘ayishida ota-onaning o‘rni birdek muhimdir. Oilaning har bir a‘zosi o‘z vazifalarini bajarishga mas‘ulligi ular uchun bir qator ustunliklarni yaratadi, tarbiyalanuvchilar ham iqtisodiy, ma‘naviy resurslardan ko‘proq foydalana oladi. Biroq statistik ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda bolalarning 64 % igina o‘z ota-onalari bilan birga hayot kechirishadi. Hayot tarzi bundan farqli bo‘lgan bolalarda esa ularning zarur imkoniyatlardan foydalanishlarida cheklovlarga uchrash ehtimoli yuqorilashadi.

Farzand tarbiyasidagi muhim omillardan yana bir uning oila a‘zolari, yaqinlari, do‘stlari tomonidan tan olinishidir. Bola ulg‘aygani sayin uning atrofdagi kishilar nazarida mavqega ega bo‘lishi muhimlashib boradi. Bunda, albatta, odatdagidan ko‘proq e‘tibor va tarbiya talab etiladi. Natija esa, albatta, ijobiy yutuqlarga, bolaning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga olib keladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, oilaviy tarbiya ota-onaning hayotiy tajribalari natijasida orttirgan diniy, dunyoviy, iqtisodiy, estetik va shu kabi bilimlarini bolaning shaxs sifatida shakllanishi uchun singdirib borishlaridir. Oilaviy tarbiyaning mohiyatini tushunish esa ayni paytdagi dolzarb masaladir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

15. M. Inomova – «Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi», Toshkent – 1999;
16. <https://vestiizssr.com/news/40-facts-about-two-parent-families-studies-and-2/>



**“TRIGONOMETRIK SHAKLDA BERILGAN KOMPLEKS  
SONLARNING KO‘PAYTMASI VA BO‘LINMASI”  
MAVZUSINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI  
QO‘LLASH**

**Yangiboyeva Maftuna**

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Fizika- Matematika fakulteti,

Matematika o‘qitish metodikasi yo‘nalishi 3 – kurs talabasi

**Saydaliyeva Feruza**

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Matematika va uni o‘qitish metodikasi kafedrası dotsenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, matematika darsini keys – stadi texnologiyasini qo‘llagan holda o‘qitish yoritilgan bo‘lib, bu orqali o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirish, tafakkurini oshirish, jamoada ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish, ularni milliy ruhda kamol toptirish kabi fazilatlarini takomillashtirishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** muammoli vaziyat, keys – stadi texnologiyasi, trigonometrik shaklda berilgan kompleks sonlarning ko‘paytmasi, trigonometrik shaklda berilgan kompleks sonlarning bo‘linmasi, eyler formulasi, trigonometrik qo‘shish formulalari.


**“TRIGONOMETRIC FORMAL COMPLEX  
PRODUCTION AND DIVISION OF NUMBERS”  
PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING THE TOPIC  
APPLY**

**Abstract:** In this article, a math lesson case - stage technology training with the use of, thereby shaping students' logical thinking, increase thinking, team building skills, aimed at perfecting their qualities, such as perfecting them in the national spirit.

**Key words:** problematic situation, case - stage technology, product of complex numbers given in trigonometric form, division of complex numbers given in trigonometric form, eyler formula, trigonometric addition formulas.

Barchamizga sir emaski, hozirgi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimiga innovatsion-pedagogik, modulli texnologiyalar va zamonaviy ta'lim vositalarini keng tatbiq etish davr talabi bo'lib qolmoqda. Bu o'z navbatida, ta'lim jarayonini oldindan loyihalashtirishni amalga oshira oladigan, texnologik bilimlar tizimiga ega bo'lgan zamonaviy o'qituvchilarga bo'lgan talabni oshiradi. Bugungi kunda, dunyodagi zamonaviy o'quv dasturlari, o'qitish metodikalarini o'rganib, yurtimiz umumta'lim maktablarida joriy qilish amalga oshirilmoqda. Maktablarda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi. Avvalo maktablarda o'quvchilarni faqat yodlashga emas, balki fikrlashga chorlaydigan metodikalarni qo'llagan holda ularni o'qitish zarurligi alohida ahamiyat kasb etadi. Albatta bular o'qituvchilar zimmasiga o'quv jarayonlarida pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llagan holda o'quvchilarni dars jarayoniga jalb qilish va undagi ishtirokini faollashtirish, ularning mantiqiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish talab qiladi. Shu maqsadda biz quyida muammoli ta'lim turlaridan biri bo'lgan keys – stadi ta'lim texnologiyasini darsga qanday qo'llash haqida tanishamiz. Ma'lumki, keys - stadi texnologiyasi muammoli vaziyatni yechimini izlashga qaratilgandir. Unga ko'ra muammoli vaziyatning yechimini topishni o'rganish yo'li 2 xildir. Ular :

**Keys-stadi maktablari**



Hozirda biz “Trigonometrik shaklda berilgan kompleks sonlarning ko‘paytmasi va bo‘linmasi” mavzusini 2-yo‘l orqali o‘quvchilarga o‘rgatamiz. Ya‘niki o‘quvchilar yangi mavzuni avval olgan bilimlariga tayangan holda o‘zlari o‘zlashtirishga harakat qiladilar. Bunda o‘quvchining asosiy e‘tibori tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga emas, balki uni rivojlantirishga, o‘quvchi va o‘qituvchi birgalikda ijod qilishga qaratiladi. Albatta mavzu bo‘yicha o‘quvchilar fikri tinglangach o‘qituvchi qo‘shimcha fikr-mulohazalarini bildiradi. O‘quvchilar xato, kamchiliklarga yo‘l qo‘ysa ularni to‘g‘irlaydi. Demak, keys metodi an’anaviy metodlardan tubdan farq qiladi.

Bunda o‘quvchilar 3 ta kichik guruhlariga bo‘linadilar, 3 ta guruhga ajralgan o‘quvchilarga quyidagi misol taqdim qilinadi. Va har bir guruh bu misolni bir-birida takrorlamaydigan usul orqali yechishlari talab qilinadi.

Avvaldan o‘zlashtirgan bilimlaringizga tayangan holda

$$z_1 = \frac{\sqrt{3}}{2}(\cos\frac{\pi}{4} + i\sin\frac{\pi}{4}) \text{ va } z_2 = \frac{1}{2}(\cos\frac{\pi}{6} + i\sin\frac{\pi}{6}) \text{ bo'lsa, } z_1 \cdot z_2 = ?$$

Topishga harakat qilinglar

$$1\text{-guruh yechimi: } z_1 \cdot z_2 = \frac{\sqrt{3}}{2}(\cos\frac{\pi}{4} + i\sin\frac{\pi}{4}) \cdot \frac{1}{2}(\cos\frac{\pi}{6} + i\sin\frac{\pi}{6}) =$$

$$\frac{\sqrt{3}}{2}\left(\frac{\sqrt{2}}{2} + i\frac{\sqrt{2}}{2}\right) \cdot \frac{1}{2}\left(\frac{\sqrt{3}}{2} + i\frac{1}{2}\right) = \frac{\sqrt{3}}{4}\left(\frac{\sqrt{6}}{4} + i\frac{\sqrt{2}}{4} + \frac{\sqrt{6}}{4}i + i^2\frac{\sqrt{2}}{4}\right) = \frac{\sqrt{3}}{4}\left(\frac{\sqrt{6}}{4} - \frac{\sqrt{2}}{4} + \left(\frac{\sqrt{2}}{4} + \frac{\sqrt{6}}{4}\right)i\right) = \frac{\sqrt{3}}{16}(\sqrt{6} - \sqrt{2} + (\sqrt{2} + \sqrt{6})i).$$

$$2\text{-guruh yechimi: } z_1 = \frac{\sqrt{3}}{2}\left(\cos\frac{\pi}{4} + i\sin\frac{\pi}{4}\right) = \frac{\sqrt{3}}{2}e^{i\frac{\pi}{4}}, \quad z_2 = \frac{1}{2}\left(\cos\frac{\pi}{6} + i\sin\frac{\pi}{6}\right) = \frac{1}{2}e^{i\frac{\pi}{6}}$$

$$z_1 \cdot z_2 = \frac{\sqrt{3}}{2}e^{i\frac{\pi}{4}} \cdot \frac{1}{2}e^{i\frac{\pi}{6}} = \frac{\sqrt{3}}{4}e^{i\frac{5\pi}{12}} = \frac{\sqrt{3}}{4}\left(\cos\frac{5\pi}{12} + i\sin\frac{5\pi}{12}\right) = \frac{\sqrt{3}}{4}\left(\frac{\sqrt{6}-\sqrt{2}}{4} + \frac{\sqrt{2}+\sqrt{6}}{4}i\right) =$$

$$\frac{\sqrt{3}}{16}(\sqrt{6}-\sqrt{2} + (\sqrt{2}+\sqrt{6})i).$$

$$3\text{-guruh yechimi: } z_1 \cdot z_2 = \frac{\sqrt{3}}{2}\left(\cos\frac{\pi}{4} + i\sin\frac{\pi}{4}\right) \cdot \frac{1}{2}\left(\cos\frac{\pi}{6} + i\sin\frac{\pi}{6}\right) = \frac{\sqrt{3}}{4}\left(\cos\frac{\pi}{4}\cos\frac{\pi}{6} + i\cos\frac{\pi}{4}\sin\frac{\pi}{6} + i\sin\frac{\pi}{4}\cos\frac{\pi}{6} + i^2\sin\frac{\pi}{4}\sin\frac{\pi}{6}\right) = \frac{\sqrt{3}}{4}\left(\cos\frac{\pi}{4}\cos\frac{\pi}{6} - \sin\frac{\pi}{4}\sin\frac{\pi}{6} + \left(\cos\frac{\pi}{4}\sin\frac{\pi}{6} + \sin\frac{\pi}{4}\cos\frac{\pi}{6}\right)i\right) = \frac{\sqrt{3}}{4}\left(\cos\left(\frac{\pi}{4} + \frac{\pi}{6}\right) + \sin\left(\frac{\pi}{6} + \frac{\pi}{4}\right)i\right) = \frac{\sqrt{3}}{4}\left(\cos\frac{5\pi}{12} + i\sin\frac{5\pi}{12}\right) = \frac{\sqrt{3}}{4}\left(\frac{\sqrt{6}-\sqrt{2}}{4} + \frac{\sqrt{2}+\sqrt{6}}{4}i\right) = \frac{\sqrt{3}}{16}(\sqrt{6}-\sqrt{2} + (\sqrt{2}+\sqrt{6})i).$$

Tahlil: Bunda har bir guruh javobi to‘g‘ri lekin yechish usullari turlichadir. 1-guruh yechgan usulini ko‘radigan bo‘lsak ular oddiy arifmetik amallar orqali to‘g‘ri javobni topishganlar ammo bu usul ancha murakkab va har doim ham barcha misollarga qo‘llash samarali emas, masalan  $z_1 = 2\left(\cos\frac{5\pi}{36} + i\sin\frac{5\pi}{36}\right)$  va

$z_2 = 3\left(\cos\frac{\pi}{9} + i\sin\frac{\pi}{9}\right)$  shu ikkita trigonometrik shakldagi kompleks sonlarni ko‘paytmasini hisoblashda xuddi 1-guruhdagidek ishlash imkonsizdir, chunki sinus va kosinusning  $\frac{5\pi}{36}$  va  $\frac{\pi}{9}$  dagi qiymatlarini topish mushkuldir.

2-guruh ishlaganiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, ular eyler formulasini qo‘llagan holda juda sodda va oson usulda to‘g‘ri javobga ega bo‘lganlar.

3-guruhga usuliga nazar soladigan bo‘lsak ular trigonometriyani qo‘shish formulalarini bilgan holda yechimni topganlar. Lekin 2-guruhga qaraganda ko‘proq amallardan foydalanganlar.

Keys stady texnologiyasiga muvofiq ko‘p variantli yechimlar orasidan hajmi birmuncha kamroq usulda yechishni qabul qilamiz. Chunki matematikani oltin qoidasi mavjud, kam amal-kam xato qilish demakdir.

$z_1=r_1(\cos\varphi_1 + i\sin\varphi_1)$ ,  $z_2=r_2(\cos\varphi_2+i\sin\varphi_2)$  trigonometrik ko‘rinishdagi kompleks sonlarning ko‘paytmasi uchun quyidagi formula o‘rinli:

$$z_1 \cdot z_2 = r_1 \cdot r_2 [\cos(\varphi_1 + \varphi_2) + i\sin(\varphi_1 + \varphi_2)]$$

Isboti:  $z_1=r_1(\cos\varphi_1 + i\sin\varphi_1)=r_1 \cdot e^{\varphi_1 i}$ ;  $z_2=r_2(\cos\varphi_2+i\sin\varphi_2)=r_2 \cdot e^{\varphi_2 i}$

$z_1 \cdot z_2 = r_1 \cdot r_2 \cdot e^{\varphi_1 i} \cdot e^{\varphi_2 i} = r_1 \cdot r_2 \cdot e^{(\varphi_1 + \varphi_2) i} = r_1 \cdot r_2 [\cos(\varphi_1 + \varphi_2) + i\sin(\varphi_1 + \varphi_2)]$ .

$z_1=r_1(\cos\varphi_1 + i\sin\varphi_1)$ ,  $z_2=r_2(\cos\varphi_2+i\sin\varphi_2)$  trigonometrik ko‘rinishdagi kompleks sonlarni bo‘lish uchun quyidagi formula o‘rinli:

$$\frac{z_2}{z_1} = \frac{r_2}{r_1} [\cos(\varphi_2 - \varphi_1) + i\sin(\varphi_2 - \varphi_1)], r_1 \neq 0.$$

Misol.  $z_1=6(\cos 50^\circ + i\sin 50^\circ)$  va  $z_2=2(\cos 25^\circ + i\sin 25^\circ)$  kompleks sonlar bo‘linmasini toping.

Yechish: Bo‘lishning qoidasiga muvofiq:

$$\frac{z_2}{z_1} = \frac{2}{6} [\cos(50^\circ - 25^\circ) + i\sin(50^\circ - 25^\circ)] = \frac{1}{3} [\cos 25^\circ + i\sin 25^\circ].$$

Bular orqali o‘quvchilarning matematik isbotlardagi aniq, qisqa, ravon fikr yuritish haqida mantiqiy xulosalar chiqarish, asoslash va isbotlash ko‘nikmalari shakllanadi va bu asosda mantiqiy tafakkuri rivojlanadi. Bundan tashqari algoritmik tafakkurni shakllantirish, ma’lum bir algoritmi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatish va yangilarini qurish ko‘nikmasi tarbiyalanadi. Matematikadan misol va masalalarni yechish jarayonida tafakkurning ijodiy va amaliy qirralari rivojlanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. D. I. Yunusova. Matematikani o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari. Toshkent. 2010.

2. M.A. Mirzaahmedov, Sh.N. Ismailov, A.Q. Amanov. “Matematika” 10 – sinf darslik. 2017
3. Isroilov I., Pashaev Z. Matematikadan masalalar to‘plami. Toshkent, O‘qituvchi, 2001.
4. Alixonov S. Matematika o‘qitish metodikasi. Universitetlarning matematika fakulteti bakalavr yo‘nalishidagi talabalari uchun darslik – T.:O‘qituvchi, 2008 y.





**ЎЗБЕК ЭСТРАДА МУСИҚАСИ ЖАНРЛАРИ. ЯНГИ ОҚИМЛАРИ.  
АУДИО – ВИЗУАЛ САНЪАТЛАРНИНГ ШИЖОАТЛИ РИВОЖЛАНИШИ  
НАТИЖАСИДА ЮЗАГА КЕЛГАН ШАКЛЛАР**

**Артыкбаева Дурдона Алишеровна**

Ўзбекистон давлат консерваторияси

“МУСИҚА ТАРИХИ ВА ТАНҚИДИ” КАФЕДРАСИНИНГ курс талабаси

**Аннотация:** В предлагаемая статья основана на узбекской эстрадной музыке. идет речь о истории возникновения, процесс становление узбекской эстрадной музыки и его жанрах, Новые потоки, формы, возникнувшей в результате аудиовизуального искусство.

**Ключевые слова** национальное эстрадное искусство, новая технология исполнения.

**Аннотация:** Тавсия этилган мақолада Ўзбек эстрада мусиқасининг келиб чиқиш тарихи, шаклланиш жараёни ва унинг жанрлари, янги оқимлари, аудио – визуал санъатларнинг шижоатли ривожланиши натижасида келган шакллар ҳақида сўз боради.

**Калит сўзлари** миллий эстрада санъати , ижро этиш янги технологияси.

**Annotation:** The proposed article is based on Uzbek pop music/ we are talking about the history of the emergence? The process of formation the Uzbek pop music and its genres. New flows , form’s resulting audiovisual art.

**Keywords** new technology of performance of national pop art.

XIX аср охири - XX аср бошларида Европа ва Шарқ мусиқа анъаналари негизида бошланган маданий интеграция, XX аср ўрталарига келиб глобаллашув жараён кўринишида, янада кенг, миқёсда халқаро маданий алоқаларнинг

кучайиши ва мавқени мустаҳкамланиши билан эътиборга тушти. Оммавий санъат тури бўлмиш эстрада санъати ҳам, ҳар бир мамлакатда байналминал характери ва ўзига ҳос миллий қиёфаси билан ажралиб замонавий санъатлар қаторида ўзига муносиб ўринни эгаллади. Бугунги кунда “миллий эстрада” дея оммаланиб келган иборанинг ишлатилишида кўпинча айнан миллий оҳангларда ва ижро услубида таранум этилган, шаклан ва услубан анъанавий ашула ва мақомлар туркумининг ривожланиш тамоилига таянган, мусиқий чолғуларни жалб қилишда миллий чолғулар томонидан ижро этилган куй ва қўшиқлар назарда тутилади.<sup>68</sup>

Шуни айтиш керакки, мусиқий эстрадани миллий кадриятлар ва касбийлик асосида ривожлантириш борасида Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармонлари ҳамда Вазирлар Маҳкамаси Қарорлари ниҳоятда муҳим аҳамият касб этди.<sup>69</sup> Бу борада яқин ўтган йиллар ичида амалга оширилган аҳамиятли ишлар қаторида 1996–йили Ўзбек давлат филармонияси асосида “Ўзбекнаво” гастрол–концерт бирлашмаси ташкил этилганлигини, Тошкент давлат консерваториясида эстрада мусиқа факультети,<sup>70</sup> жойларда мавжуд махсус ўқув юртларида эстрада бўлимлари ҳамда пойтахтда Эстрада-цирк коллежи очилганлигини алоҳида таъкидлаш мумкин.

Президент Шавкат Мирзиёев томонидан 15 февраль 2017 йилда имзолаган фармонига мувофиқ, “Ўзбекнаво” ҳамда “Ўзбекрақс” бирлашмалари тугатилиб, уларнинг негизида “Ўзбекконцерт” давлат муассаси ташкил этилиши. Фармонга расмий шарҳда айтилишича, ушбу тузилмавий ўзгаришдан кўзланган мақсад бу бирлашмаларнинг самародирлигини ошириш ва “юксак бадиий ва сифатли” асарлар яратишдир.

Президент қарори (ПҚ 5261 - сон, 16. 10. 2021й) билан Ўзбекистон давлат консерваторияси ҳузурида Ботир Зокиров номидаги Миллий Эстрада санъати

<sup>68</sup> с.ф.н. Турсунова Г. “Ўзбекистонда эстрада санъатини шаклланиш ва ривожланиш босқичлари”.

<sup>69</sup> Адабиётлар рўйхати: 1.1; 1.2; 1.3.

<sup>70</sup> 2001 йили ушбу ўқув даргоҳига “ Ўзбекистон давлат консерваторияси” номи берилган.

институти ташкил этилиши. Институт миллий эстрада йўналиши бўйича малакали мутахассислар ва илмий – педагогич кадрлар тайёрлайди.

Юқорида келтирилган қарорлар давлатимиз томонидан эстрада санъатига кўрсатилаётган катта эътибордир. Ўзбек эстрада муסיқаси ҳам жаҳон эстрада муסיқаси сингари босқичма босқич ривожланди. 60- йиллардан бошлаб рус эстрада кўшиқлари, француз шансонлари, Европа рок, жаз, поп муסיқаси ўзбек эстрада муסיқасига ўз таъсирини ўтказди. 60- йиллар ўзбек эстрада муסיқасининг ташкил топип шаклланиш даври саналса, 70 -80 йиллар эстрада ривожининг гуллаган давридир. Чунки бу даврда афсонавий гуруҳ, яккаҳон ижрочилар, ижодкорлар етишиб чиқдилар ва миллий эстрада санъатини дунё миқёсига олиб чиқиб, ўз мавқеига эга бўлишида катта хисса кўштидилар. Бу оқимни ўрганишда Ўзтелерадио Эстрада- симфоник оркестри, Тошкент мюзик-хол, жазовый биг- бэнд, Виа гуруҳларининг самарали ишларини ҳам айтиб ўтиш жоиз.

Ўзбек миллий эстрада кўшиқчилигининг ривожи истеъдодли санъаткор, моҳир хонанда Ботир Зокиров номи билан бевосита боғлиқдир. Чунки унинг бу жабҳадаги серқирра ва самарали ижодий изланишлари натижасида ўзбек кўшиқчилик санъати Шарқ ва Ғарб эстрада бадий воситалари билан уйғунлашиб, янги сифатларга эришди. Шу боис ҳам бежиз эмаски, Б.Зокиров ижро этган қатор кўшиқлар (“Раъно”, “Мафтун бўлдим”, “Газли”, “Араб тангоси”, “Хабиба”, “Қочоқ қиз” ва б.) бугунги кунда ҳам миллий эстрада кўшиқчилигининг юксак намуналари бўлиб қолмоқда.

Таъкидлаш жоизки, Б.Зокировнинг эстрада кўшиқчилиги соҳасидаги ижодий парвози ўтган асрнинг 70-80-йиллари республикамизда вокал-чолғу ансамбллари юзага келишига ҳам сабаб бўлган эди. Бу ўринда айниқса “Ялла”, “Наво”, “Садо” каби муסיқий фольклор манбаларига таянган вокал-чолғу гуруҳларининг фаолияти эътиборли бўлди. Шу билан бирга ўтган асрнинг 80–йиллари давомида муסיқий эстрада сахналарини бу соҳада махсус касбий тайёргарлиги бўлмаган хаваскор ҳам эгаллай бошладиларки, натижада чет эл

эстрасига эргашиш ва таклид қилиш кучайди, бадиий даражаси унча юқори бўлмаган паст савияли кўшиқлар ёшлар орасида кенг ёйила бошлади.<sup>71</sup>

1990 - йилларга келиб эса ўзбек эстрада кўшиқчилиги “кенг тармоқли улкан “саноат” (индустрия) даражасига етди ва тарихан қисқа муддат ичида ўзгача таъсир кучига эга оммавийлик касб этиб улгурди.”<sup>72</sup> Бу давр ўзбек мусиқий эстраси услуб, оқим ва йўналишлари жиҳатида хилма–хиллиги (диско, поп, хард–рок, реп, рейв, техно–соул, фьюжн, реггей ва б.) билан тавсифланади.

Ривожланиш жараёнида овоз ёзиш ва ижро этиш янги технологиялари кириб келди: грамафонлар электрофонларга ўзгарди, аудио касетта ва винил грампластинкалар компакт дискларга ва DAT – касеталар флешка ва DVD алмашилди. Бундай ўзгаришлар тингловчига ҳам, санъаткор ва ижодкорга ҳам катта қулайликлар яратди ва эстрада кўшиқларини оммалашига яна бир йўл очди.

Ўзбек эстрада мусиқаси ўзининг янги услуб ва йўналишларига эга. Ҳозирги кунда шоу индустрия оқимига кўплаб профессионал кадрлар ЎзДК томонидан етиштирилиб берилмоқда.

“Эстрада ижрочилиги” кафедраси 1987 йилдан ўз фаолиятини бошлаган. Бу йиллар давомида кафедра томонидан кўплаб профессионал эстрада ижодкор ва ижрочилари тарбияланди. Битирувчиларнинг кўпчилиги халқаро даражадаги фестивал ва конкурсларнинг лауреатидир. Эстрада бўлим бошлиғи композитор Д.Д. Омонуллаева ўзининг машҳур кўшиқлари билан халқ қалбидан жой эгаллаган санъаткор.Талабалар репертуарини ўзбек, рус, хориж хит кўшиқларидан ташкил топган маҳсус Эстрада ашулалари ташкил қилади.

Аммо, эстрада шоу индустриядаги барча ижрочи ва ижодкорларни профессионал деб бўлмайди, улар дипломга эга бўлсада ўз билимларини амалиёттада кўрсатиб бера олмайдилар.

<sup>71</sup> Беков О. Современная узбекская эстрадная песня в контексте музыкальной культуры Узбекистана., Т.; СИТИ. М (м) Б – 42 № 931. 1994. с 88 -89. 91

<sup>72</sup> Муллажонов Д. 1990 – йиллар ўзбек мусиқий эстрасида оҳанг муаммоси., Т.; СИТИ. М (м) М - 11 №1002. 2004.. 3.2 – с 3

Эндиликда эса эстрада йўналишидаги ижод ва ижро этувчи хонандалар, композиторлар, овозрежиссер ва аранжировкачиларни “Ботир Зокиров” номидаги эстрада институтидан малакали мутахассислар етишиб чиқади деган умиддамиз.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

- 1.1. Азимова О. Вопросы синтаксиса восточной монодии. – Т.:Фан, 1989.
- 1.2. Азимова О. Вопросы синтаксиса восточной монодии: К истории его становления и развития. Т.:Фан. 1998. – 103 с.
- 1.3. Амануллаева Д., Аманова Н. История джаза и эстрадной музыки. Т.: Санъат, 2010.
- 1.4. Аманова Н. Основные этапы развития узбекской эстрадной музыки. В сб: Ўзбекистон санъати макон ва замон талқинида Тошкент, 2011
- 1.5. Беков О., Муллажонов Д. Миллий эстрада санъати. // Ўзбекистон санъати (1991 – 2001йиллар). – Т.; “Шарқ” нашриёт - матбаа акциядорлик компанияси, 2001.
- 1.6. Вахидов С. Эстрадная песня // Узбекская музыка на современном этапе. Т.; ГИЛИ им. Г. Гуляма. 1977. – 123 – 139с.
- 1.7. Вахидов С. Узбекская советская песня. – Т.; ГИЛИ им. Г. Гуляма, 1976.

## INGLIZ TILINI O‘QITISHDA AXBOROT VOSITALARINING O‘RNI

**Yusupov Nodirjon Nosirjon O‘g‘li**

Farg‘ona davlat universiteti

Lingvistika (ingliz tili) yo‘nalishi magistranti:

Ilmiy rahbar: Farg‘ona davlat universiteti

Nemis va fransuz tillari kafedrası o‘qituvchisi Q.Qahhorov

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ingliz tilini o‘qitishda axborot vositalarining o‘rni, chet tilini o‘zlashtirishning aniq maqsadlari sifatida chegara darajalarini ishlab chiqish, Wastage darajalariga ko‘ra va chegara darajasi chet tilini o‘zlashtirish va malakasini baholash haqida batafsil bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** ingliz tili, ekspertlar, funksional-semantik, kommunikativ, mashg‘ulotlar.

**Anatation :** This article details the role of the media in English language teaching, the development of boundary levels as specific goals for foreign language acquisition, and the assessment of foreign language acquisition and proficiency according to Wastage levels.

**Keywords :** English, experts, functional-semantic, communicative, lessons.

### **Kirish:**

Ma'lumki hozirgi davrda ingiliz tili jadal takomillashib bormoqda. Shuningdek bu jadallashuv yurtimizni ham chetlab o‘tgani yo‘q. Albatta bu yurtimiz uchun ham, insonlar uchun ham katta rivojlanishlarni bir belgisi hisoblanadi. Shuning uchun ham ingliz tilini o‘qitishda o‘ziga xos bir tajribada, sinalgan shaklda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Evropa Kengashi qit'ada chet tillarini o‘qitishni faollashtirish

dasturini ishlab chiqishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirgan . 1971 yilda maktab o‘quvchilari va katta yoshdagi o‘quvchilarga chet tillarini o‘rgatish tizimini yaratish imkoniyatlarini o‘rganish uchun bir guruh ekspertlar topshirildi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

Chet tilini o‘zlashtirishning aniq maqsadlari sifatida chegara darajalarini ishlab chiqish g‘oyasi shakllandi. Dastlab, asosan, katta yoshdagi o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, maktab va boshqa o‘quv muassasalarida ta‘lim maqsadlari va mazmuniga katta muvaffaqiyat bilan moslashtirildi.

1982 - yilda tadqiqot natijalari "Zamonaviy tillar: 1971-1981" hujjatida taqdim etildi va tahlil qilindi. Bu ishlab chiqilgan yondashuvni funktsional-semantik asosda amaliy qo‘llash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish va amalga oshirish imkonini berdi. Bir necha yo‘nalishlarda asosiy: yangi usullarni ishlab chiqish va yangi o‘quv materiallarini yaratishda, murakkab texnologik o‘quv tizimlarini yaratishda (multimedia tizimlari), baholash va o‘z-o‘zini baholash tizimlarini ishlab chiqishda, o‘z-o‘zini o‘rganishda, chet tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishda uning individuallashtirishini (o‘quvchi avtonomiyasini) hisobga olish.

### **Natijalar:**

Yuqoridagilar bilan bir qatorda har bir nomdagi darajalarda o‘zlashtirilgan lingvistik va nutqiy materialni o‘zlashtirish va o‘zlashtirish darajasi belgilanadi. Ushbu daraja pragmatik adekvatlikning asosiy mezoni sifatida belgilanadi, bu aloqa sheriklarining uzatilgan va idrok etilgan kommunikativ niyatlari yoki ularning bayonotlari ma'nolarining mos kelishini nazarda tutadi. Ikkinchi mezon - bu aloqa samaradorligi darajasi.

Wastage darajalariga ko‘ra va chegara darajasi chet tilini o‘zlashtirish va malakasini baholash va o‘z-o‘zini baholash shkalalari tilni bilishning noldan idealgacha (masalan, ekspert) spektrida ko‘p darajali shkalalardan foydalanish asosida belgilanadi.

**Muhokama:**

Shu bilan birga, sinfda yoki chet tili kabinetida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish, muloqot muhitini, kommunikativ muhitni yaratish, guruh xonasini tashkil etishga qo‘yiladigan talablarga alohida o‘rin beriladi. Individual ish tinglovchilar, guruhlar va juftliklarni shakllantirish texnikasi, mashg‘ulotlar davomida o‘quv faoliyatini boshqarish usullari mavjud.

Bizning o‘qitish amaliyotimiz bilan solishtirganda, o‘quvchilar tomonidan o‘zlarining dastlabki bilimlarini, qiziqishlarini, tajribalarini aqliy hujum, kutish va ijodiy faoliyat shaklida faollashtirish uchun o‘qituvchining harakatlari tufayli o‘z matnlarini idrok etishlari alohida qiziqish uyg‘otadi.

**Xulosa:**

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, talabalarning dastlabki matnli faoliyati o‘qituvchi tomonidan matn bosqichida haqiqatda taqdim etilgan chet tili nutqi namunasining mazmuni va xususiyatlariga rahbarlik qiladi. Bu yerda mas'uliyat bilan talabalar tomonidan yaratilgan va o‘quv matnlarini taqqoslash amalga oshiriladi.

Shu jumladan, kommunikativ munosabatlarning barcha turlari amalga oshiriladi va birgalikda muhokama qilish, echimlarni taklif qilish, muammo , vazifalarni haqiqatda hal qilish, o‘zaro baholash va o‘z-o‘zini baholash, matn mazmunidan tashqariga chiqish, vaziyatlarga o‘tish, haqiqiy hayot va hokazolardan iboratdir .

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Maykl Xarris, Devid Mower, Anna Sikorzynska "Imkoniyatlar" (O‘rta, O‘rta darajagacha), Longman.
2. Boshlang‘ich va asosiy o‘rta maktablarda chet tillarini o‘rgatish usullari (Tahr. V.M. Filatov) .- Rostov n/a: "Feniks", 2004.
3. Jalolov Jamol. Chet til o‘qitish metodikasi. “O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2012.
4. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent — 2012.



5. Отабоева, М. Р. Chet tilini o‘qitishda zamonaviy innovatsion o‘qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева.  
— Текст: непосредственный.



**YARIMO‘TKAZGICHLI DIODNING VOLT-AMPER  
XARAKTERISTIKASINI ANIQLASHDA MAPLE DASTURIDAN  
FOYDALANISH**

**Madumarova Saodat Qudiratulla qizi**

Namangan muhandislik-qurilish institute

[saodatmadumarova0609@gmail.com](mailto:saodatmadumarova0609@gmail.com)

**Talaba Bahodirov Azizjon**

Namangan muhandislik-qurilish institute

[azizjonbahodirov@gmail.com](mailto:azizjonbahodirov@gmail.com)

**Annotatsiya:** ushbu ishimiz orqali fanlararo o‘zaro boglik va tajriba natijalarini olishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanishni ko‘rsatib berish. Dasturning imkoniyatlarini keng ochib berishdan iboratdir.

**Kalit so‘zi:** diod,electron, kovak,volt-amper xarakteristikasi, MAPLE dasturi,yarimo‘tkazgich.

**Using MAPLE to determine the Volt-Ampere characteristics of a semiconductor diode.**

**Annotation:** Through this work, we demonstrate the effective use of information and communication technologies in interdisciplinary interactions and experimental results. It consists of a wide disclosure of the capabilities of the program.

**Keywords:** diode, electron, cavity, volt-ampere characteristic, MAPLE program, semiconductor.

Hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biri “Energiya tejamligi va muqobil energiya manbalarini yaratishga doir asboblardan biri quyosh batareyalarining tarkibi yarimo‘tkazgichli diodlardan tashkil topgan . **Diod** deb odatda bir yoki bir necha elektr o‘tishlar va tashqi zanjirga


ulanish uchun ikkita chiqishga ega bo‘lgan elektr o‘zgartirgich asbobga aytiladi. Yarim o‘tkazgichli diodlar ma’lumotnomalarda radioelektron apparaturalarda qo‘llanilish sohalari yoki vazifasiga ko‘ra sinflanadilar. Yarim o‘tkazgichli asboblarning ko‘pchiligi bir jinsli bo‘lmagan yarim o‘tkazgichlardan tayyorlanadi. Xususiyl xolatda bir jinsli bo‘lmagan yarim o‘tkazgich bir sohasi p-turdagi, ikkinchisi esa n-turdagi monokristaldan tashkil topadi.

Bunday bir jinsli bo‘lmagan yarim o‘tkazgichning p va n – sohalarining ajralish chegarasida hajmiy zaryad qatlami hosil bo‘ladi, bu sohalar chegarasida ichki elektr maydoni yuzaga keladi va bu qatlam **elektron – kovak o‘tish** yoki **p-n o‘tish** deb ataladi. Ko‘p sonli yarim o‘tkazgichli asboblar va integral mikrosxemalarning ishlash printsiplari p-n o‘tish xossalriga asoslangan.

P-n o‘tish tokining unga berilayotgan kuchlanishga bog‘liqligi  $I=f(U)$  volt–amper xarakteristika (VAX) deyiladi.


$$I = I_0 \left( e^{\pm \frac{qU_0}{kT}} - 1 \right)$$

ifoda orqali yarimo‘tkazgichli diodning Volt-Amper harakteristikasini grafik tasvirini olishimiz mumkin. Buning uchun MAPLE dasturiga formulamizni kiratamiz va unga kerakli son qiymatlarni beramiz. !!! tugmachasini bosish orqali biz uchun kerakli bo‘lgan formula ya’ni yarimo‘tkazgichli diodning VAX ini olishimiz mumkin . Bundan tashqari dastur yordamida olgan grafigimizga rang berishimiz va turli temperaturalarda turlicha VAX larni bitta grafikda ifodalash ham mumkin.



1-rasm. MAPLE dasturida yarimo‘tkazgichning VAX ni olish.

Bu orqali olinayotgan eksperimental natijalarni nazariy jihatdan ham tekshirish imkoni beradi.



2-rasm. Yarimo‘tkazgichli diodning VAX si.

### ADABIYOTLAR

26. Arjvadhara.P.Ali, S.M.Chitralkha.J., “ Analysis of solar PV cell performance with changing irradiance and temperature”, Int.J.Eng.Comput. Sci 2, 214-220, 2013
27. Fesharaki.V.J, Dehghani.M,Fesharaki.J.J “The effect of temperature on photovoltaic cell efficiency.In:Proceedings of the 1<sup>st</sup> International conference on Emerging Trends in Energy Conservation -ETEC”,Tehran,Iran,November 20-22, 2011
28. Sabry.M,Ghitas.A.E. “Influence of temperature on methods for determining Silicon solar cell series resistance”,J. Sol. Energy Eng.129,331-335, 2008
29. Arjvadhara.P.Ali, S.M.Chitralkha.J., “ Analysis of solar PV cell performance with changing irradiance and temperature”, Int.J.Eng.Comput. Sci 2, 214-220, 2013

30. Fesharaki.V.J, Dehghani.M,Fesharaki.J.J “The effect of temperature on photovoltaic cell efficiency.In:Proceedings of the 1<sup>st</sup> International conference on Emerging Trends in Energy Conservation -ETEC”,Tehran,Iran,November 20-22, 2011
31. Sabry.M,Ghitas.A.E. “Influence of temperature on methods for determining Silicon solar cell series resistance”,J. Sol. Energy Eng.129,331-335, 2008
32. Singh.P,Ravindra.N.M, “Temperature dependence of solar cell performance – an analysis”, Sol.Energy Mater. Sol.Cells 101,36-45, 2012
33. Mengjin Yang,Yuanyuan Zhou, Yining Zeng and other, “Square-Centimeter Solution- Planar CH<sub>3</sub>NH<sub>3</sub>PbI<sub>3</sub> Perovskite Solar Cells with Efficiency Eceeding15”,Adv Mater, 2015, 28 september
34. В.Л.Бонч-Бруевич, С.Г.Калашников «Физика полупроводников», Наука, М.1977.
35. G.Gulyamov, A.G.Gulyamov. “On the tensoensitivity of p-n junction under illuminatian”, Semiconductors,2015,vol.49, pp 819-822

## БАЗАЛЪТ ФИБРАСИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

**Абдуллаев Иброҳим Нуманович**

т.ф.н., доцент,

[abdullayev.ibrahim@gmail.com](mailto:abdullayev.ibrahim@gmail.com)

**Рахимов Расулжон Равшанбек ўғли,**

Фарғона политехника институти

М2-21 магистрант

[Rasull517@mail.ru](mailto:Rasull517@mail.ru)

**Аннотация:** Базальт фибрасининг техник хусусиятлари кўрсатилган: Базальт толасидан фойдаланиб тайёрланган бетон ўзига хос хусусиятларга эгали, бошқа толаларга нисбатан сезиларли даражада фарқланиши ёритилган. Базальт толасининг қўлланилиш сохалари келтирилган.

**Калит сўзлар:** Базальт фибраси, бетон қоришмаси, базальтофибробетон, толали темир-бетон, цемент тоши.

**ABSTRACT:** Technical characteristics of basalt fiber are shown: Concrete made using basalt fiber has its own characteristics, which differ significantly from other fibers. Areas of application of basalt fiber are given.

**Key words:** Basalt fiber, concrete mix, basalt fiber reinforced concrete, cement stone.

Базальт толаси - маълум узунликдаги мураккаб базальт толасининг майдаланган монофиламентлар кўринишидаги бўлаги. Базальт толаси - бу тола бўлиб, унинг киритилиши бетоннинг кучланиш кучини оширади, синтетик толаларга нисбатан бир қатор афзалликларга эга, чунки у инсониятга маълум бўлган энг кучли минерал толалардан биридир. Етакчи маҳаллий ва хорижий

лабораторияларнинг кенг қамровли тадқиқотлари ва хулосалари базальт толаси қурилиш ғоясини бутунлай ўзгартиришга қодир эканлигини тўлиқ ишонч билан таъкидлаш учун асос бўлади [1-10].

**Техник хусусиятлари:**

- Асосий модда: базальт;
- Ранг: бронза;
- Зичлиги: 2,8 г/см<sup>3</sup>;
- Бир толанинг диаметри: 13-20 микрон;
- Тола узунлиги: 3,6,13,15,18,24,27,30 мм, эҳтимол 40, 50 мм (бетон кучини йўқотиши сабабли энди тавсия этилмайди);
- Толалар тури: монофиламент;
- Шакл: вақтинчалик тўпламларда йиғилган алоҳида толалар;
- Чизиқли зичлиги: 480 дтех гача;
- Кучланиши: 45-55 Гс/текс;
- Узатилиш нисбати: 4,5-8%;
- Ишлаш ҳарорати: -260 дан + 700 ° С гача;
- Қисқа муддатли экстремал иш ҳарорати: 900 ° С;
- Эриш ҳарорати: 1450. ° С;
- Кислота ва ишқорларга чидамлилиги: барқарор;
- Юзаси: бир хил дисперсияга ва цемент қоришмага ёпишишга ёрдам беради.

**Базальт толасининг қўлланилиш соҳалари:**

Фибра барча турдаги гипс ва цемент ўз ичига олган оҳакларда қўлланилиши керак, бу ерда микро-мустаҳкамлаш зарур ёки керакли бўлган жойларда, шунингдек, сиқилиш ёриқларининг олдини олиш, бетон қопламалар (ташқи ва ички) қурилиши учун. Одатда бетонда толалар қуйидагилар учун ишлатилади:

- кўпikli бетон, газбетон, полистиролли бетон ва бошқалар ишлаб чиқариш;
- бетон ўз-ўзидан текислаш поллари қурилмалари (ҳам саноат, ҳам маиший);

- цемент-қумли полга ишлов бериш учун асбоблар;
- оғир юкларни кўтарувчи саноат омборларининг полларини ўрнатиш;
- гидротехник иншоотлар (маёқлар, қирғоқ бўйидаги истехкомлар, кўприклар, тўғонлар, сув омборлари, бетон сув каналлари);
- очиқ майдонлар, автотураргоҳлар, қияликларни мустаҳкамлаш;
- темир конструкцияларнинг металл юзаларини қоплаш;
- бетон тахта плиталари;
- ёнғин хавфсизлиги юқори бўлган иншоотларда;
- ҳарбий объектлар;
- туннел ва каналларни мустаҳкамлаш;
- монолит тузилмалар;
- пойдеворнинг бетон плиталари;
- темир-бетон қозиқлар;
- иншоотларни таъмирлаш ва реконструкция қилиш;
- прессланган ва қуйма маҳсулотлар;
- қурилиш оҳаклари, қуруқ аралашмалар ва гипс;
- қуйма бетон;
- босилган декоратив бетон;
- сейсмик фаоллик кучайган жойлар;
- юлка плиталари ва бошқалар ишлаб чиқариш;
- кичик меъморий шаклларни бетон ёки гипсдан қуйиш;
- автомобилсозлик саноати учун ишқаланиш материаллари;
- автомобилсозлик саноати учун композит материаллар;
- иссиқлик изоляцияси ва ўтга чидамли материаллар учун игна билан тешилган мато бўлмаган материаллар;
- базальт пластмасса ишлаб чиқариш

Юқорида айтилганларнинг барчаси шуни кўрсатадики, ҳозирги вақтда қурилиш саноати базальт-толали темир-бетондан нафақат хорижий, балки



махаллий фукаролик, транспорт, гидротехника ва курилишнинг бошқа соҳаларида фаол фойдаланилмоқда.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. П. Матус. Численное моделирование электропрогрева дисперсноармированного бетона с фибрами высокой проводимости, Журнал-Вестник Евразийской науки, 2019, №2, том 11
2. В.И. Морозов, Ю.В. Пухаренко. Эффективность применения фибробетона в конструкциях при динамических воздействиях, Вестник-Строительное материаловедение, 2020, №3
3. В.П.Шевченко. Природное сырьё республики Узбекистан для получения сверхтонкого базальтового волокна, Журн.-Сырьевые материалы, 2013, №2.
4. И.Н.Абдуллаев, З.А.Умирзаков. Development and Research of an effective dust collector for cleaning gas streams from fine dust from cement production. EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues – Peer Reviewed Journal, vol.8, issue 3, Oktober 2020 SJIF 2020: 8.007
5. Mahkamov Y. M., Mirzababaeva S. M. Strength of bending reinforced concrete elements under action of transverse forces under influence of high temperatures //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 618-624.
6. Makhkamov Y. M., Mirzababaeva S. M. Rigidity of bent reinforced concrete elements under the action of shear forces and high temperatures //Scientific-technical journal. – 2021. – Т. 4. – №. 3. – С. 93-97.
7. Махкамов Й. М., Мирзабабаева С. М. Температурные прогибы железобетонных балок в условиях воздействия технологических температур //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 11-1. – С. 45-48.
8. Умаров Ш. А., Мирзабабаева С. М., Абобакирова З. А. Бетон Тўсинларда Шиша Толали Арматураларни Қўллаш Орқали Мустаҳкамлик Ва Бузилиш

Ҳолатлари Аниқлаш //Таълим ва Ривожланиш Таҳлили онлайн илмий журнали.  
– 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 56-59.

9. Физико-механические свойства базальто-волокнистого высокопрочного бетона М. Харун\*, Д.Д. Коротеев, П. Дхар, С. Ждеро, Ш.М. Елроба Российский университет дружбы народов ул. Миклухо-Макля, 6, Москва, Российская Федерация, 117198, УДК 691.3, DOI: 10.22363/1815-5235-2018-14-5-396-403

10. Mamazonovich M. Y., Abdugofurovich U. S., Mirzaakbarovna M. S. The Development of Deformation in Concrete and Reinforcement in Concrete Beams Reinforced with Fiberglass Reinforcement //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – Т. 18. – С. 384-391.



## YUQORI SINIF ONA TILI DARSLARIDA TEST TOPSHIRIQLARINING AMALIY AHAMIYATI

**Xusenova Nargiza**

mutaxassisligi magistranti

ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ona tili ta’limida test topshiriqlarining amaliy ahamiyati xususida bo‘lib, unda asosan 10-11-sinf darsliklarida keltirilgan test topshiriqlari tahlil qilinadi. Test topshiriqlarining nazariy va metodik asoslari qanday bo‘lishi lozim, ona tili darslarining samaradorligini oshirishda qaysi turdagi testlardan foydalanish lozimligi xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar.** Test topshiriqlari, ochiq testlar, yopiq testlar, jadvalli testlar, rasmlil testlar,

Har bir mamalakatning ta’lim tizimi uning buyuk kelajagini ta’minlovchi eng asosiy omillardan biridir. Aniq va tabiiy fanlar texnika taraqqiyotiga yo‘l ochsa, til va adabiyot ta’limi insonning o‘zligini anglashiga, milliyatini tanishiga yo‘l ochadi. Bizning jamiyatimiz hayotni aniq raqamlar asosida tasvirleydigan zamonaviy shaxs emas, balki hayotni o‘z e’tiqodiy haqiqatlariga va milliy an’analariga tayangan holda ko‘ra oladigan komil insonni tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Shu maqsadda mamlakatimizda maktab ta’limiga, xususan, adabiy va til ta’limini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi zamon o‘qituvchisi har tomonlama keng bilimli bo‘lishi ya’ni adabiy til normalarini egallashi, sinflarda olib boriladigan ishlar mazmuni va sistemasini dasturini yaxshi bilishi, o‘z fanini o‘rgatishning nazariy asoslarini va ta’lim prinsiplarini o‘zlashtirishi o‘quv ishlarining asosiy usullarini olishi va uni o‘z ish tajribasida tatbiq qila olishi, metodikaning fan sifatida rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini, keyingi yillarda o‘z sohasida olib borilgan tadqiqotlarni va hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolarni tushunib borishi lozim. Ayniqsa, ona tili fani

o‘qituvchisi tarbiya ishiga, o‘quvchilarga ona tilining boyligini ko‘rsata olishga mohir bo‘lishi, bolalarning adabiy tilga so‘zlashga adabiy nutqni egallashga, kitobni sevishtga va ifodali o‘qishga o‘rgatish lozim. O‘quvchi yoshlarni, avvalo, o‘z ona tiliga hurmat va muhabbat bilan tarbiyalash bu soha pedagoglarining asosiy vazifasidir. Yuqori sinf o‘quvchilarining tilshunoslik sohasidagi nazariy bilimlarini oshirish maqsadida prezidentimiz barcha oliy ta‘lim muassasalariga kirish imtihonlari uchun ona tili fanidan majburiy test sinovlarini ham qo‘shdilar<sup>73</sup>. Demak, O‘zbekistonning har bir fuqarosi u qaysi kasb egasi bo‘lishidan qati nazar, har bir yoshi u qaysi universitet talabasi bo‘lishidan qati nazar eng avvalo o‘z ona tilini yaxshi bilishi qonun hujjati bilan mustahkamlangandir.

Ona tili ta‘limini rivojlantirishda test topshiriqlarining ahamiyati kattadir. Testlar barcha fanlar doirasida o‘quvchi bilimni sinashning asosiy o‘lchovidir. Aslida eng avvaldan, test (ingl. - sinov) birinchi marta 1864-yilda Buyuk Britaniyada J.Fisher tomonidan talabalarning bilim darajasini tekshirish uchun qo‘llanilgan. Test sinovlari dastlab psixologiya fani doirasida rivojlandi. XX asr boshida esa test sinovlarini ishlab chiqishda psixologik va pedagogik yo‘nalishlar bir-biridan mustaqil ajrala boshladi. Pedagogik test sinovlari birinchi marta amerikalik psixolog E.Torndayk tomonidan yaratilgan<sup>74</sup>. Psixologik testlardan inson ongi va psixik holatlarini aniqlashda hozirgi keng miqiyosda foydalaniladi. Pedagogik testlar esa har bir fan miqiyosida o‘quvchining yosh va aqliy darajasiga qarab olinishi mumkin.

Hozirda test sinovlarining asosiy vazifasi nimalardan iborat. Xususan, bizning o‘rganish obyektimiz bo‘lgan ona tili ta‘limida test topshiriqlarining ta‘lim samaradorligi uchun asosiy funksiyasi nimadan iborat va uning qaysi turlarini ona tili darslarida qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Deyarli ko‘p yillar davomida bizning asosiy sinov turimiz yopiq testlar bo‘lib keldi. Ammo yangilanayotgan darsliklarda, ochiq testlarning, o‘quvchining yosh toifasiga qarab rasmi, jadvalli hamda matnli

<sup>73</sup> “Oliy ta‘lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi PQ-4319 sonli qarori

<sup>74</sup> [www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)

testlar ham darsliklardan o‘rin olayotganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, quyidagi jadvalda turli tillardan kirib kelgan so‘zlarni jadvalga joylashtirish lozim. Bunda o‘quvchilar qaysi tamoyillarga asoslangan holda topshiriqni bajarishadi. Bu mashq 11-sinf o‘uvchilari uchun ayni mos tanlangan chunki, o‘quvchilar jamiyat bilan uzluksiz muloqotda va munosabatda bo‘lib yoki ommaviy axborot vositalari orqali turli xil tillarni tushunish va farqlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Til xususiyatlarini nazariy jihatdan asoslab berolmasa ham so‘zlarning qaysi tilga oid ekanligini farqlay olishadi, ammo bu jadvalni test deb bo‘lmaydi albatta, bu bolaning salohiyatini aniqlash uchun qo‘yilgan jadval. Bunday jadvallar orqali mantiqiy tafakkur ko‘nikmalarini yanada rivojlantiramiz.<sup>75</sup>

Arabcha so‘zlar	Fors-tojikcha so‘zlar	Xitoycha so‘zlar	Rus tili orqali kirib kelgan so‘zlar
Muallim...	Farzand...	Lag‘mon...	Paroxod...

Yuqori sinf darsliklarida, ayniqsa 10-sinf va 11-sinf ona tili darsliklarida ko‘proq test topshiriqlarining berib borilishi maqsadga muvofiqdir chunki abituriyent uchun eng asosiy manba bu maktab darsliklaridir. Har bir mavzuning oxirida o‘quvchini ilmiy va mantiqiy fikrlashga undovchi testlarning berib borilishi bilan joriy bilimlar takrorlanadi va mustahkamlanadi. Ammo darslikda ba‘zi mashqlar ham borki shartlarida biroz tushunarsizliklarga duch kelamiz, masalan, quyidagi test topshirig‘iga e‘tibor qarataylik, topshiriqning sharti quyidagicha “Berilgan gapdan talaffuzda bir unli tushib qoladigan, bu o‘zgarish yozuvda aks etadigan so‘zni aniqlang. Odamning himmati va muruvvati, uning muomalasi, qo‘lidan keladigan ishlari, yaratuvchiligi barobarida qadrlanadi<sup>76</sup>. (Yusuf Xos Hojib)

A.Odam B.Muomala C.Qadrlanadi D. Muruvvat

<sup>75</sup> Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidova S. 11-sinf ona tili darsligi. 2-qism. Toshkent, 2020.

<sup>76</sup> Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidova S. 11-sinf ona tili darsligi. 2-qism. Toshkent, 2020

Bu testning javobi sifatida B.Muomala javobi berilmoqda. Bu soʻzni fonetik tahlilga tortamiz. Muomala soʻzi talaffuz qilinganda birinchi boʻgʻin tarkibidagi yuqori tor unlinining tushib qolib, yoki oʻzidan keyingi keng unliga uygʻun tarzida talaffuz qilinib sinerezis hodisasi yuzaga kelayotganini koʻrishimiz mumkin. Sinerezis hodisasi esa ogʻzaki nutqda roʻy beruvchi fonetik oʻzgarishdir. Ogʻzaki nutqda shunday aytilishidan qatʻiy nazar yozma nutqda oʻz shakliga koʻra yoziladi. Demak mashq shartidagi “bu oʻzgarish yozuvda aks etadigan soʻz” degan jumlaning olib tashlash joiz. Ammo bir qadar test topshiriqlari borki oʻz ilmiy asosiga egadir, testning topshirigʻi quyidagicha: “Matndan asosga qoʻshimcha qoʻshilganda tovush oʻzgarishi yozuvda aks etgan soʻzlarni belgilang”.

- A. Yuragiga, koʻngli, ahli, xotirjamlik, toʻlmaganini
- B. Yuragiga, muloyimroq, shunday, bagʻishlaydi, goʻzalligini
- C. Yuragiga, shunday, koʻngli, borligi, goʻzalligini
- D. Yuragiga, ishlayotgan, tinchlikdir, goʻzalligini, borligi

Ushbu test qiyinchilik darajasi birinchi darajali test hisoblanib, oʻquvchilar uchun takroriy dars yakuniga berilgan. Bu testning qiyinchilik darajasini biroz oshirish orqali oʻquvchini bir necha til boʻlimlari yuzasidan bilimlarini tekshirish mumkin. Masalan, fonetik oʻzgarishga sabab boʻluvchi ismlarning munosabat shakllarini yoki otning lugʻaviy shakllari qoʻshilishi asosida fonetik oʻzgarishga uchragan soʻzlarni aniqlang singari topshiriqlar berilsa oʻquvchining ham morfologiya, ham fonetika, ham morfemika yuzasidan bilimlari tekshirilishi mumkin. Qoida mohiyatini ochish qoida soʻzning qaysi qismini, qaysi soʻz turkumi yoki grammatik shaklini yozishni boshqarishni, bunda qaysi belgilar yetakchi ekanini tushuntirish demakdir. Oʻquvchilarni qoida bilan tanishtirish uchun material tanlashda oʻqituvchi bu yetakchi belgilarni albatta hisobga oladi. Topshiriq uchun tanlanayotgan matn ham katta ahamiyatga egadir, ilmiy uslubdagi matnlar tahlili orqali yangi bilimlar, didaktik ahamiyatga ega matnlar orqali oʻquvchini ichki sezimlariga taʻsir qiluvchi tarbiyaviy ruhni singdirish mumkin. Materialning toʻgʻri tanlanganligi uning gʻoyaviy yoʻnalishida va badiiy ifodaliligi oʻquvchilarning fikrlash faoliyatiga, his-tuygʻulariga

ta'sir etadi<sup>77</sup>. Atrof-muhit haqidagi bilimlarni kengaytiradi, tilga va uni yaratgan xalqqa hurmat ruhida tarbiyalaydi, ularning shaxsiy sifatlarini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida o'quvchilarga ta'lim, tarbiya berishdan asosiy maqsadlardan biri ularda mantiqiy tafakkur va keng dunyoqarashni shakllantirishdir. Bu vazifani hal qilishda maqsadga muvofiq ishlashning yetakchi sharti o'quvchiga nazariy bilimlar berish bilan bir qatorda, uning shaxsiyatini ham tarbiyalashdir. Jarayonda fanning asosiy obyekti darslik hisoblansa, darslikning asosiy obyekti esa undagi mashq va topshiriqlardir. Bu omillar esa tilni o'rgatish bilan bog'liq holda o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish usulini belgilaydi. To'g'ri tanglangan mashq va topshiriqlar samarali dars jarayoni uchun asos bo'la oladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “Oliy ta'lim muassasalariga test sinovlari orqali qabul qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi PQ-4319 sonli qarori
2. Mengliyev B., Toshmirzayeva Sh., Atoyeva S., Majidova S. 11-sinf ona tili darsligi. 2-qism. Toshkent, 2020.
3. To'xliyev B. va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti , 2006

<sup>77</sup> To'xliyev B. va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti , 2006

## **BUGUN PILLA-ERTAGA TILLA**

**Jumanozarova Dilrabo Bahrom qizi**

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

To‘qimachilik sanoati texnologiyasi fakulteti

III bosqich talabasi

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola ipak mahsulotlarini ishlab chiqarish yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim olayotgan bakalavrlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, u pillani chuvishga tayyorlash, chuvish, yig‘ish, sifatiga baho berish, texnologik suvni tayyorlash, chiqindilarni dastlabki ishlash va ipak eshish fabrikalarida tayyorlanadigan tabiiy ipak va kimyoviy toladan eshilgan iplarni ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘z ichiga olgan. Pillalarni chuvish va eshilgan iplarni ishlab chiqarishdagi zarur rejimlar va texnologik me‘yorlar keltirilgan.

### **АННОТАЦИЯ**

Эта статья предназначена для бакалавров, получающих образование по направлению производства шелковой продукции. Он включает технологию подготовки коконов к размотке, кокономотание, уборку, оценку качества, шелка-сырца подготовку технологической воды, первичную обработку отходов и выработку крученных нитей из химических волокон и натурального шелка, вырабатываемых на крутильных фабриках. Приведены необходимые режимы и технологические нормы для кокономотания и производства крученных нитей.

### **ANNOTATION**

This article is intended for bachelors studying silk production, which includes cocoon preparation for spinning, spinning, collection, quality assessment, process water preparation, waste pre-treatment and silk spinning. including technologies for



the production of natural silk and man-made yarns from factories. Necessary regimes and technological norms for spinning of cocoons and production of spun yarns are given.

Mehnatkash o‘zbek xalqining yana bir mashaqqatli sohada erishayotgan yutuqlari tahsinga loyiq. Bir qator ma’sulyat talab etiladigan bosqichlardan iborat “Kumush tola” yetishtirish azal azaldan an’anaga aylanib ulgurgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi Ipakchilik tarmog‘i tarixiga nazar solsak bir qancha viloyatlarimiz hamda vohalarimizda ancha yillardan buyon o‘z faoliyatini yuritib kelayotgan korxonalar mavjud va ular bugungi kunda ham jahon bozori talablariga javob beradigan darajadagi mahsulot ishlab chiqarmoqdalar. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda pilla yetishtirish va ipak ishlab chiqarish sohasiga, uni jahon andozalari talab darajasiga olib chiqish uchun juda katta e’tibor berilmoqda. Tabiiy ipak- jonivorlardan olinadigan qimmatbaho to‘qimachilik xom ashyosi hisoblanib, u ipak qurtining ipak ajratish bezi mahsuli hisoblanadi. Pilla va ipak ishlab chiqarish, uni qayta ishlash O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi an’anaviy milliy hunardmandchiligi bo‘lib, xususan, mamlakat hududida Farg‘ona vodiysi, Zarafshon vohasida keng rivojlangan. Keyinchalik diyorimizda pilla yetishtirishni jaddallik bilan rivojlanishi yurtimizda pillani qayta ishlashni sanoat usuliga o‘tishiga sabab bo‘ldi. Ipakchilik sanoati O‘zbekistonda asosiy sanoat sohalaridan biri bo‘lib, to‘quvchilik korxonalariga xom ashyo tayyorlaydi.

Ipakchilik sanoatining asosiy mahsulotlariga:

- ❖ Tut ipak qurti pillasi;
- ❖ Pilladan chuvib olingan xom ipak
- ❖ Eshilgan ipak iplari (jarrohlik, tikuv iplari);
- ❖ Shakldor ipak iplari;
- ❖ Yigirilgan ipak iplari;
- ❖ Maxsus sohalar uchun (elektrotexnika, harbiy, kosmos) tayyorlangan ipak iplari.

Shoyi to‘qish sanoatida, asosan, ipak gazlamalar (xon atlas, krepdeshin, krepjorjet va shifon, tasma, gilam) ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Xom ipak assortimentini ko‘paytirish aholini kelib chiqishi va an‘analari, sanitariya gigiyena talablari, iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda ipak mahsulotlarini yangidan yangi turlarini yaratish imkonini beradi. Bu masalalarni hal qilishda ishlab chiqarish korxonalarining ahamiyati katta. Pillakashlik korxonalarida xom ashyodan, texnologiya va dastohlardan, ishchi kuchidan unumli va oqilona foydalanib, mahsulot tannarxini kamaytirish hozirgi davr talabidir. Uzluksiz iplardan tayyorlanadigan eshilgan ip mahsulotlari, maxsus tola eshish fabrikalarda, ipak kombinatlarining tola eshish sexlarida hamda kimyoviy tola va ipak tayyorlanadigan to‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqariladi. Eshilgan mahsulotlarning assortimenti, turlari ko‘pdir. To‘qima va trikotaj ishlab chiqarishda ishlatiladigan eshilgan iplar bilan bir qatorda, turmushda keng iste‘mol qilinadigan va texnikaga mo‘ljallangan turli xildagi eshilgan mahsulotlar ham tayyorlanadi. Eshilgan mahsulotlar tabiiy ipakdan, shuningdek, turli sun‘iy, sintetik va shisha toladan qilingan iplardan ham tayyorlanadi. Eshilgan iplar o‘zining tuzilishiga, strukturasi qarang, dastlabki hom ashyoning xiliga va qanday mahsulot ishlab chiqarishga mo‘ljallanishiga ko‘ra turli texnologiyani, mashina va mexanizmlarni qo‘llash zarurligini taqozo etadi. Ipak eshishda sof mexanik, ya‘ni qayta o‘rash, eshish va qayta eshish jarayonlari bilan bir qatorda kimyoviy texnologiya, ya‘ni ipak xom ashyosini pishirish, ipni bo‘yash va boshqa jarayonlar ham qo‘llaniladi. Ipak eshish texnologiyasida ko‘p hollarda mexanik jarayondan ham, kimyoviy jarayondan ham foydalaniladi. Eshish mahsulotlari ishlab chiqarishda vaqti-vaqti bilan ishlaydigan mashinalar, ivitish apparatlari, sentrifugalar, quritish mashinalari, bug‘lash kameralari va hakazolar ishga solinadi hamda qayta o‘rash, eshish uzluksiz harakatlar qo‘llaniladi. Mazkur maqolada quruq pilladan xom ipak ishlab chiqarish, eshish fabrikalarida tayyorlanadigan eshilgan ipak iplari va kimyoviy toladan eshilgan iplarni ishlab chiqarish texnologik jarayonlari va ipak ishlab chiqarish texnologiyasi nazariy asoslari izohlab berilgan. Biz Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti talabalari sifatida shu sohada tahsil olar ekanmiz, ushbu ipakchilik tarmog‘i tarixi bugungi kuni

haqida bir qancha ma'lumotlarga ega bo'lib kelmoqdamiz. Bir qancha olimlar hattoki akademik olimalarimiz hayotiy faoliyati, qanday ilmiy ishlar ustida ish olib borganlari to'g'risida bilib olmoqdamiz. Bunday ma'lumotlarga ega bo'lish esa bizning diplom ishi himoyamizda, kelajakdagi rejalashtirgan ishlarimizda beminnat xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. X.Alimova, N.Islambekova, A.Gulamov, Sh.Fayzullayev “Ipak ishlab chiqarish texnologiyasi” Darslik T. «TTYeSI» 224 b , 2018 y.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harkatlar strategiyasi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
4. Islambekova N.M. Ipak ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlari nazariy asoslari fanidan laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma. 2014 y.



## APPLICATION OF ZONES IN WORKS

**Ikhtiyorbek Norov Kamoliddin og‘li,**

**Amaniyazova Gulbanu**

Nukus DPI Students of the Faculty of Turkish Languages

**Annotation:** One of the most widespread and major genres of Uzbek folklore is the epic. Folk epics are a great gift of antiquity is a literary monument. They are one of the classic sources of art, which contains evidence of the incomparable richness and limitless potential of our native language, as well as the laws of historical development of its all-Turkic and national stages.

**Keywords:** historical, Uzbek folklore, language, semantically associated, epics contain.

A large part of the rich spiritual wealth passed down to us from our ancestors are examples of folklore. President Islam Karimov said: “Considering the most important tasks facing us today, in addition to addressing issues directly related to the daily needs of the population, we consider the foundations and complexities of human life, national values, historical moment in the old regime. Mothers, we must not forget how much our society has been harmed by not taking into account the universal spiritual wealth.... It is necessary to pay attention to the roots of our national culture, the spiritual wealth of the people. This treasure has been accumulated over the centuries. It has stood the test of time. Helping people through difficult times. Our mission is to preserve and enrich this treasure like the apple of an eye,” he said.

After all, these views encourage a broad study of the history of the language of our people, the linguistic structure of folklore, which is an integral part of it.

One of the most widespread and major genres of Uzbek folklore is the epic. Folk epics are a great gift of antiquity is a literary monument. They are one of the classic sources of art, which contains evidence of the incomparable richness and limitless

potential of our native language, as well as the laws of historical development of its all-Turkic and national stages. From this point of view, it is important to study the linguistic features of zoonyms in the text of epics popular among our people in various aspects. The Uzbek language has nicknames specifically for birds and animals.

These names serve to distinguish and differentiate them from each other. It is common in the Uzbek language to give special names to dogs, cats, horses, and in some cases birds. The materials of zoonyms in Uzbek language require extensive research. Evidence of the centuries-old traditions of the ancient Turkic peoples is evident in the epics of horse nicknames. This is evidenced by the fact that the names of horses are semantically associated with epics in the written monuments of "Orhun-Enasoy", which are the first written sources of the Turkic peoples. For example, in the inscription of Kul tigin “Bashgu boz” (109), “Azman aq” (110), “Ogsuz aq” (109) 29 (Kul Tigin attacked on a gray horse named Bashgu, 109) are similar in meaning to horse nicknames such as Girkok, Temirkok, Majnunkok, Shabgirkok, which are found in folk epics.

Because Bashgu is a gray horse with a white head; A white horse without a son is an orphan, a white horse without a mother; Azman is the color of horses based on the meaning of white horse, while in epics Girkok means hungry brown, straw horse (DLT, I, 319); Shabgirkok - shab (Persian) night, night and mountain - black brown straw horse; Temirkok means iron blue horse.

Apparently, the color of horses plays a key role in the formation of horse nicknames in epics and epics.

In short, many of the names of horses and other zoonymic names reflected in the language of folk epics contain lexical units that have been actively consumed in the great historical period from the earliest times of the history of our language to the beginning of the century. In this regard, along with other lexical units, lexical-semantic analysis of zoonyms will be important in the in-depth study of areas such as historical lexicography, lexicology, language history, etymology.

Among the many historically valuable lexical units found in the language of epics, zoonyms also play an important role in the study of the history, way of life, past history, in short, the cultural and spiritual past of our people. earns. At the same time, the language of the epic is rich in dialects. It is dominated by Kipchak dialects. In addition, the vocabulary of the work, the group of zoonyms in it is also thematically diverse. Based on the analysis, the following general conclusions can be drawn: The language of folklore can serve as a source for Uzbek dialects. The dictionary structure of folk epics can also be studied in order to determine the attitude to different dialects of Uzbek dialects. There is a lot of linguistic evidence in the epic lexicon that helps to determine the history of the complex formation of dialects, as well as to restore and interpret many forgotten historical words.

Linguistic analysis of epic materials plays an important role in enriching the vocabulary of the Uzbek literary language.

### REFERENCES

1. Samad's son, R. S., & Kamoliddin's son, I. N. (2021, October). Reforms in Education. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 138-140).
2. Temirbekova, A. O. (2012). Iz istorii issledovaniya mezhdometiy. Vestnik Kostromskogo gosudarstvennogo universiteta, 18 (3), 73-76.
3. Kamalovich, A. H. (2020). Mythological basis of unusual images in turkish peoples. *Academicia: An international multidisciplinary research journal*, 10 (12), 678-682.

**GANDBOLCHILARNING HUJUM VA HIMOYADAGI TAKTIK  
HARAKATLARINI MASHG‘ULOTLARDA MUSOBAQA USULI ORQALI  
RIVOJLANTIRISH**

**Muradova Mashxura Yunusjonovna,  
Ababakirov Otabek Abdumutalibovich**

Namangan davlat universiteti

E-mail: [murodovamashxura125@gmail.com](mailto:murodovamashxura125@gmail.com)

**Annotatsiya:** Gandbolchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning natijalarini yaxshilash, hujum va himoya taktikasini rivojlantirishda “Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari” tarkibiga kiruvchi “Musobaqa usuli” dan foydalanish eng qulay vosita bo‘lib xizmat qilishini quydagi ma’lumotlarda bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari, musobaqa usuli, gandbolchilarning himoya taktikalari, gandbolchilarning hujum taktikasi.

**DEVELOPING ATTACK AND DEFENSIVE TACTICAL ACTIVITIES OF  
HANDBALL PLAYERS THROUGH COMPETITION IN TRAINING**

**Annotation:** The following information states that the use of the "Competition Method", which is part of the "Special Methods of Physical Education and Sports", is the most convenient tool for improving the system of training handball players, improving their results, developing offensive and defensive tactics.

**Key words:** Special methods of physical culture and sports, competition style, handball players 'defensive tactics, handball players' offensive tactics

**Ishning dolzarbligi.** Hozirda barcha sport turlarida hujum va himoya taktik tayyorgarligi alohida ahamiyat ega hisoblanadi. Bunga sabab mashg‘ulotlarda

o‘yinning texnik usullari va uni o‘zlashtirish, jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi yuqori bo‘lishiga qaramasdan sportda yaxshi natija ko‘rsatish uchun sportchilarning taktik tayyorgarlikga ega bo‘lishi tabab qilinadi. Jismoniy tayyorgarlikning o‘rni, ayniqsa, musobaqalar bir necha kun o‘tkazilsa va musobaqa murosasiz davom etadigan bo‘lsa, hamda taktik tayyorgarlik yetarli bo‘lmasa, sportchilar hujum va himoya texnikasini kutilgan darajada bajara olmasligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Gandbolchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish ularning natijalarini yaxshilash, hujum va himoya taktikasini rivojlantirishda “Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari” tarkibiga kiruvchi “Musobaqa usuli” dan foydalanish eng qulay vosita bo‘lib, hizmat qilishini quydagi malumotlarda bayon etiladi.

Sport mashg‘ulotlari jarayonida sportchilarni tayyorlashda ko‘pgina o‘rgatish usullaridan foydalaniladi. Albatta har bir usulni o‘ziga xos jihatli mavjud. Bizga tanish bo‘lgan usullardan biri musobaqa usuli hisoblanadi. Ushbu usuldan sport mashg‘ulotlarda ma‘lum bir o‘yin yoki harakat texnikasini o‘rgatishda foydalaniladi. Musobaqa usulining o‘ziga xosligi shundaki u orqali o‘yin texnikasini gandbolchilar maksimal nomoyon etishga erishiladilar. Buning asosiy sababi o‘zaro raqobatlashuv hisoblanadi. Musobaqa usuli asosan mashg‘ulotlarda yangi o‘yin texnikasini o‘zlashtirilgandan so‘ng qo‘llaniladi natijada gandbolchilari shu harakatlarni o‘zaro jamoalar o‘rtasida kichik musobaqa tashkillash orqali yanada mustaxkamlanadi. Bu musobaqa usulining o‘ziga xosligini to‘la yoritishga kamlik qiladi va uning yana bir eng kerakli jihati uni mashg‘ulotlarda faqatgina o‘yin texnikasiga oid harakatlarni tarbiyalashgina bo‘lmay, u orqali gandbolchilar hujum va himoya taktikasi rivojlantirish uchun asosiy usul hisoblanadi.

Ushu usulda mashg‘ulotni tashkillash va o‘tkazishni qanchalik kerkliligini va taktik harakatlarni rivojlanishi haqida so‘z yuritayotganda biz aslida o‘yin taktikasi o‘zini nima uni vazifasi haqida qisqacha malumot keltirsak. Taktika ikki ko‘rinishda amalga o‘shirilib, ular a) hujum taktikasi, b) himoya taktikasiga bo‘linadi. Taktika – malum bir texnik harakatlar to‘plamini mahorat bilan qo‘llashni oldinda va musobaqa



jarayonida murabbiy hamda jammo tomonidan rejalashtirish tushiniladi. Obrazli qilib aytganda, taktika bu – generallar o‘yinidir.

Chunki, mashg‘ulot va musobaqa jarayonida sportchilarning o‘yin faoliyati murabbiy tomonidan boshqariladi, barcha kerakli qarorlar qabul qilinadi. Ushbu usul yordamida mashg‘ulot tashkil etilsa, uning tub negizida o‘zaro musobaqalashuv o‘rin oladi va bu taktik tayyorgarlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun keng yo‘l ochib beradi.

**Ishning maqsadi:** Gandbolchilarning hujum va himoyadagi taktik harakatlarini rivojlantirishda musobaqa usulidan foydalanish bilan ushbu harakatlarni tez o‘zlashtirishga imkon berishini ilmiy asoslashdir.

**Ishning vazifasi:** 1. Gandbolchilarni mashg‘ulot jarayonida rejalashtirilgan taktik harakatlarni musobaqalarda qo‘llash hamda kamchiliklarni bartaraf etish.

2. Gandbolchilarni hujum va himoyadagi taktik tayyorgarlik jarayonini optimallashtirishga doir ilmiy-uslubiy adabiyotlarni va musobaqa jarayonini o‘rganish hamda tahlil qilish;

Gandbolchilarning mashg‘ulot jarayonidaga mos bo‘lgan usulni tanlash va unga hujum va himoyadagi taktik harakatlarni joylashtirish, bu jarayonga biz gandbolchilar tomonidan o‘yinda qo‘llanilishi kerak bo‘lgan hujum yoki himoya taktikalarni qay darjada o‘zlashtirilganligini bevosita nazortaga olish imkoni tug‘iladi hamda ulardan qay biri yuqori darajada bajarilyotgani yoki qaysidir taktik harakatni bajarishda gandbolchilar muammoga uchrayotganligini ham aniqlab olamiz. Odatda o‘yin usuli yordamida shug‘ullanuvchilarni faoliyatga ijodiy yondoshuvni shakllantiriladi ammo, musobaqa usuli esa sportchilarni texnik va taktik harakatlarni maksimal darajada namoyon qilishga majbur qilib qo‘yadi. Bunga asosiy sabab bu har bir mashg‘ulotda musobaqalashuv, o‘zaro raqobat va g‘oliblikka intilish borligi hisoblanadi. Gandbolchilar taktik tayyorgarlini rivojlantirishda muhim sanalgan hujum va himoya taktik usullarini quyida jadvalda keltirilgan.

**Gandbol mashg‘ulotlarini musobaqa usuli asosida tashkillashtirishda tavsiya etiladiga hujum va himoya taktikalari.**

<b>Gandbolchilarnig himoya taktikalari</b>		
<b>/r</b>	<b>Taktika nomi</b>	<b>Uning tavsifi</b>
	<b>6:0 taktikasi</b>	<b>Bu taktika eng ko‘p qo‘laniladigan taktika hisoblanib barcha o‘yinchilar bir chiziqda joylashib himoya qilish vazifasini bajaradi.</b>
	<b>5:1 taktikasi</b>	<b>Bu taktikada bir o‘yinchi raqib jamoadagi eng mahoratli o‘yinchini himoyalash bilan qolgan taktik usulardan farq qiladi.</b>
	<b>4:2 taktikasi</b>	<b>Ushbu taktik joylashuv orqali hujum qilayotgan jamoani taktik o‘ylangan rejasini amalga oshmasligini ta‘minlash va himoyani mustaxkamlashga xizmat qiladi .</b>
<b>Gandbolchilarning hujum taktikasi</b>		
<b>/r</b>	<b>Taktika nomi</b>	<b>Uning tavsifi</b>
<b>1</b>	<b>4:2 taktikasi</b>	<b>Mazkur taktik usul hujum paytida himoyani yorib o‘tishga yordam beradi, bunda ikki hujumchi himoyachilar orasiga kirib borib jamoadoshlari hujumini samarali hal etishga qaratilgan taktik usul hisoblanadi .</b>
	<b>3:3 taktikasi</b>	<b>Ushbu taktik usulda asosan uch hujumchi hujum qiladi va hujumni samarali yakunlaydi qolgan uch o‘yinchi esa himoya taktikasini buzish uchun xizmat qiladi.</b>

	<p><b>5:1 taktikasi</b></p>	<p><b>5:1 taktikasi eng ko‘p qo‘laniladigan usul hisoblanib,uning o‘ziga hosligi butun jamoa bo‘lib hujum qiladi va samarali yakunlashga yordam beradi.</b></p>
--	-----------------------------	---

**Xulosa:** Gandbol mashg‘ulotlarida sportchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasi shakllangandan so‘ng, gandbolchilarning mashg‘ulot jarayonlarini musobaqa usuli orqali tashkil etilishi sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishini hisobga olgan holda nazariy jihatdan musobaqa oldi tayyorgarlik davrida gandbolchilarning hujum va himoyadagi taktik tayyorgarligini amalga oshirishda yuqorida tavsiya etilgan ro‘yxatdagi taktik usullarni musobqa usulidagi mashg‘ulotlarda bajarilishi taktik harakatlarni o‘zlashtirish, mustaxkamlash va takomillashtirish jarayonlari tez va samarali hal etiladi.

#### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. SH.Pavlov,F.Abduraximov,J.Akbarov. Gandbol nazaryasi va uslubiyoti O‘zDJTI nashiryot-madbuot bo‘limi, 2005 –yil. 190.b.
2. A. Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi, Farg‘ona -2016 372, b.
3. R.S.Salomov. Jismoniy tarbiya nazaryasi va uslubiyati, Toshkent-2014, 296 b.

**MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTLARIDA YOZGI  
SOG`LOMLASHTIRISH DAVRINING BOLALAR SALOMATLIGIGA  
IJOBIY TA`SIRLARI**

**Muxammadiyeva Salomat Erkinovna**

Surxondaryo viloyati Denov tumani

14-DMTT tarbiyachisi

**ANNOTATSIYA**

Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida tashkil etiladigan yozgi sog`lomlashtirish davrining bolalar salomatligiga ijobiy ta`sir ko`rsatishi va salomatligini mustahkamlashda tarbiyachilar tomonidan yaratiladigan qulay shart-sharoitlar hamda maqsad va vazifalar haqida atroflicha so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** maktabgacha ta`lim, yoz, sog`lomlashtirish, rivojlanish, profilaktika, mustahkamlash, ekologiya, ekskursiya, tabiat, chiniqtirish.

Bugungi kunda ekologik vaziyatning yomonlashuvi yoshlarning, xususan, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning sog`lig'i, jismoniy, aqliy va ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko`rsatadi. Natijada sog`liqni saqlash, umumiy rivojlanish va profilaktik vazifalarni hal qilishda sog`liqni himoyalash texnologiyalari, ularni optimal va oqilona tashkil etilishidan faol foydalanish kerak bo`ladi. Maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyalanuvchilarning yozgi ta'tilini namunali o`tkazish, ularning jismoniy va aqliy salohiyatlarini oshirish, vaqtlarini maroqli o`tkazish, sog`lomlashtirish va chiniqtirish ishlarini tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayonini uzluksiz olib borish, shuningdek yozgi sog`lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish vazifalari belgilab olindi. Yozgi sog`lomlashtirish mashg`ulotlari har yili 1-iyundan 31- avgustgacha davom etib, maxsus moslashtirilgan reja asosida faoliyat olib boriladi. Bunda bolalar ko`p vaqtini toza havoda o`tkazadigan tarzda yaratiladi. Sayr vaqtida bolalarning rivojlanishi uchun turli tadbirlar tashkil etiladi. Chunki, yoz -

bolalarning salomatligini mustahkamlash va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng yaxshi davr hisoblanadi. Yozgi sog'lomlashtirish mashg'ulotlarida bolalarning sog'ligi, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish masalalari rejaga kiritiladi. Reja asosida tashkil etilgan chiniqtirish, sog'lomlashtirish, ko'ngilochar tadbirlar bolalarni jismoniy va psixik rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Aynan, yoz faslida bolalarning ochiq havoda ko'proq sayr qilishlari, tanasini chiniqtirish, harakatda bo'lish va salomatligini mustahkamlash uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qulay va zaruriy shart-sharoitlar yaratiladi. Shuningdek, yozda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkaziladigan barcha tadbirlarni yengillashtirish, qiziqarli va yorqin o'tishini ta'minlash, charchoqyozdi mashqlar, turli ko'ngilochar tadbirlarni muntazam uyushtirish, kichik sayrlarni tashkillashtirish, ijodiy va amaliy ishlarni bajartirish, suv muolajalarini o'rinli qo'llash va alohida belgilangan kun tartibiga qat'iy amal qilish tavsiya etiladi.

Yozgi davrda o'quv yili davomida olib borilgan rivojlantirish markazlari va umumiy guruhlardagi ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat davom ettiriladi, ya'ni davrga mos berilgan oy va hafta mavzulari asosida har kuni ta'limiy faoliyat tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim Vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yozgi sog'lomlashtirish ishlarini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiya”larda yozgi sog'lomlashtirish davri haqida quyidagilar belgilangan:

**Yozgi sog'lomlashtirish davrining maqsadlari:**

1. Salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlash;
2. Bolalarning shikastlanishi va kasallanishini oldini olish;
3. Yozgi davrda maktabgacha yoshdagi bolalarning harakatlanish faolligini, xissiy va kognitiv rivojlanishini ta'minlash;
4. Bolalarning bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlashga yo'naltirilgan ta'limiy-tarbiyaviy jarayonning samarali shakl va usullaridan foydalanish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish.

**Yozgi sog‘lomlashtirish davrining vazifalari:**

- ❖ bolalarning salomatligini mustahkamlash;
- ❖ tabiiy omillardan keng foydalanish hisobiga bolalarni sog‘lomlashtirish va jismoniy rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar tizimini amalga oshirish: havо, quyosh, suv;
- ❖ o‘quv yili davomida olingan BKMni mustahkamlashga qaratilgan ta‘limiy-tarbiyaviy jarayonni tashkil etish;
- ❖ ota-onalar o‘rtasida tarbiya va sog‘lomlashtirish masalalari bo‘yicha pedagogik va sanitariya-targ‘ibot ishlarini amalga oshirish, yozgi davrda ularni bolalar bilan birgalikdagi tadbirlarga jalb qilish.

Xulosamiz o‘rnida shuni ta‘kidlab o‘tmoqchimizki, yozgi sog‘lomlashtirish davrida kattalarning asosiy vazifasi o‘zida borayotgan organizmning dam olish, ijodiy faoliyat va harakatga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirishdir ba jarayonda ota-onalar va tarbiyachilar o‘zaro hamkorlikda bolalar uchun qulay sharoit yaratib berishlariz lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligi va O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2018 yil 30 apreldagi 20/1 sonli “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” gi qo‘shma qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim Vazirligining “ Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida yozgi sog‘lomlashtirish ishlarini tashkil etish bo‘yicha metodik ko‘rsatma” Toshkent-2021
3. B.Asrorova “Yozgi sog‘lomlashtirish mavsumini tashkil etishning ahamiyati” Oq daryo nashriyoti-2021

## АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ФОЙДАЛАНИШ АФЗАЛЛИКЛАРИ

**Мухиятдинов Н.С.**

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ТАТУ Нукус филиали талабаси.

**Анотация:** Мақолада таълим жараёнини самарали бошқариш, сифат курсаткичини ошириш масалаларида ахборот технологиялар ва коммуникацияларни самарали тадбиқ этиш ва талабаларнинг билим даражасини оширишда чет давлатларнинг нуфузли университетлари таълим жараёни тадқиқотларида асосланган ҳолда такомиллаштириш масалалари қўриб чиқилган.

**Калит сўзлар:** ахборот-технологиялар, таълим тизими, таълим сифати, телекоммуникация технологиялари.

Бугунги кунда ахборот технологиялари дунёда таълим тизимининг сифатига кучли таъсир кўрсатадиган асос ва энг муҳим омиллардан бири эканлиги ҳаммамизга маълум. Таълим соҳасида ахборот технологияларини кенг қўллашга жуда катта эътибор берилди ва дунё олимлари Ю.С.Брановский, Я.Л.Ваграменко, А.Г.Геин, А.Р.Ершов, И.В.Роберт ва бошқалар, бу масалада қўллаб-қўлланмалар ишлаган, шунингдек ахборотлаштиришни ўрганиш билан боғлиқдир, олий таълим муассасасидаги педагогик тадқиқотларни Пашкова.И.И., Козлова.Ж., Жилина.М.Я., Домрачев.В.Г. каби олимларнинг ишларида қўллаш мумкин.

Замонавий таълим тизимини ўрганиш, биринчи навбатда, билим ва қўникмаларни билиб олишга қаратилган когнитив фаолиятдир. Талаба шахсиятида содир бўладиган ўзгариш: биринчи навбатда, интеллект ошади ва асосий эътибор ўз-ўзини ривожлантиришга қаратилади. Олий ўқув юрти шундай

қурилганки, талаба аввало ўқийди, кейин еса бошқа одамларни ва ишлаб чиқариш тузилмаларини бошқаришга қаратилган босқич пайдо бўлади. Касбий компетенция, илмий малака ва тайёргарлик муаммони ҳал қилишда иштиёқ билан ижодий ёндашувни топадиган янги турдаги мутахассисни шакллантиришга олиб келади.

Асосий йўналиш – олий ўқув юртларида талабаларни тайёрлаш сифати ва даражаси бутун таълим тизими фаолиятининг самарадорлигини белгилайди.

Таълим муаммоларини ижодий ва мустақил ҳал эта оладиган педагог кадрлар тайёрлашда янги ёндашувларни ишлаб чиқиш зарур. Ушбу ёндашувлар қуйидаги мақсадларга ега:

- Педагогик фаолиятнинг ижодий табиати ва унинг жамият ҳаётида улкан аҳамият касб етиши ҳақида талабаларнинг тасаввурларини шакллантириш;
- Бўлажак ўқитувчиларда касбий маданиятининг пайдо бўлиши;
- Индивидуал хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда шахсий ва касбий ривожланиш, мустақил ўзини ўзи ривожлантириш.

Таълим жараёнида ахборот технологияларидан фойдаланиш бўлажак мутахассисни тайёрлаш сифати ошишига хизмат қилади.

Ахборот технологиялари деганда объект, жараён ёки ҳодисанинг ҳолати тўғрисида янги сифатдаги маълумотларни олиш учун маълумотларни йиғиш, қайта ишлаш ва узатиш воситалари ва усуллари тўплами тушунилиши керак.

Ахборот технологиялари таълим жараёнида бир нечта афзалликларга ега, масалан:

- таълимни ахборот билан таъминлашни бошқаришнинг энг самарали тизимини яратиш;
- ўқув жараёнида талабаларнинг билиш фаоллигини шакллантириш;
- таълим жараёнини индивидуаллаштириш ва ахборот технологиялари ёрдамида билиш жараёнини амалга ошириш имкониятини беради.

Бугунги кунга келиб, олий ўқув юртларининг ўқув жараёнида ахборот технологияларидан фойдаланишнинг долзарблиги, биринчи навбатда, таълим



сифатини оширишнинг ижтимоий еҳтиёжи ва олий ўқув юртларида замонавий компьютер дастурларини қўллашнинг амалий еҳтиёжи билан боғлиқдир.

Ўқув жараёнининг ахборот компоненти университетда мутахассислар тайёрлашнинг мазмун жиҳатини белгилайди. Ахборот технологияларидан фойдаланиш ўқув-услугий ёрдамни яратиш таълим жараёни самарадорлигини ошириш имконини беради. Бундай ахборот компоненти электрон ўқув-услугий мажмуа бўлиши мумкин, бу ўқитувчи ва талабалар ўртасида ўзаро алоқалар мавжуд бўлган, амалий педагогик дастурий маҳсулотларни, шунингдек, дидактик воситалар ва методик воситалар тўпламини ҳисобга оладиган дидактик тизим бўлиши мумкин. Ўқув жараёнини қўллаб-қувватловчи материаллар.

Таълимдаги ахборот технологиялари қуйдаги бир қатор муҳим вазифаларни ҳал қилади:

- Мураккаб уюшган тизимлар доирасида ва компьютер графикаси ва компьютер моделлаштиришдан фойдаланишга асосланган ҳодиса ва жараёнларни ўрганиш;

- Юқори ёки паст тезликда бориши мумкин бўлган турли хил физик, кимёвий, биологик ва ижтимоий жараёнларни ўрганиш.

Ахборот технологиялари тушунчаси таълимда ҳам компьютер, ҳам телекоммуникация технологияларини ўз ичига олади [1]. Биз ахборот технологияларини замонавий компьютер технологиялари асосида ахборотни тўплаш, сақлаш, қайта ишлаш ва узатишни таъминлайдиган замонавий техник воситалар мажмуаси деб ҳисоблаймиз. Ахборот технологиялари концепцияси ҳам маҳаллий муаллифлар нуқтаи назаридан кўриб чиқилади. Олимлар М.И.Жалдак ахборот технологияларини одамларнинг билимларини кенгайтиришга имкон берадиган ва техник ва ижтимоий жараёнларни бошқариш учун кенг имкониятлар яратадиган усул ва воситалар тўплами сифатида кўриб чиқади [2].

Тадқиқотчи Е.Н.Машбиц ахборот технологиялари турли таълим дастурлари тўплами деб ҳисоблаган; бу ерда у билимларни назорат қилиш, сунъий

интеллектага асосланган ўқув тизимларини ўз ичига олади [4]. Таълим соҳасидаги ахборот технологияларининг асосий вазифаси таълим фаолияти жараёнини бошқариш ва замонавий ахборот ва таълим ресурсларидан фойдаланиш учун интерфаол муҳитни ривожлантиришдир.

Ҳулоса қилиш кераки, ахборот технологияларини ўқув жараёнида қўллашдан асосий мақсад, енг аввало, ахборот жамияти шароитида ўқувчиларнинг интеллектуал имкониятларини мустаҳкамлаш, шунингдек, таълим тизимининг барча босқичларида таълим сифатини индивидуаллаштириш ва оширишдан иборатдир. Ўқув жараёнида ахборот технологияларидан фойдаланишнинг долзарблиги таълим сифатини оширишнинг ижтимоий еҳтиёжи, шунингдек, замонавий компьютер дастурларини қўллашнинг амалий еҳтиёжи замон талаби билан боғлиқдир.

### АДАБИЁТЛАР

1. Seytnazarov K.K., Kalimbetov K.I. The processes of organizing teaching students' algorithms and models // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492 ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 2, February 2021. 549-554
2. Seytnazarov K.K., Kalimbetov K.I. Development of decision-making algorithms based on irreversible mathematical calculations in the assessment of students' knowledge // An Interdisciplinary Journal PSYCHOLOGY AND EDUCATION (2021) 58(2): 356-360 (13.00.00, №4).
3. Сейтназаров К.К., Калимбетов К.И. Информатика фанини ўқитишда самарали методларни танлаб олиш ва қарорлар қабул қилиш дастурий таъминотини қайта ишлаб чиқиш // FIZIKA, MATEMATIKA va INFORMATIKA ilmiy-uslubiy jurnal Toshkent 2021. 88-98 (13.00.00, №2).

## **GANDBOLCHILAR O‘YIN TEXNIKASI SHAKILLANTIRISHDA MURABBIY FAOLIYATINING AHAMIYATINI**

**Azizov Nosirjon**

Namangan davlat universiteti  
Jismoniy madaniyat fakulteti o‘qituvchisi: dotsent,

**Sarbarova Zulayxo Asqarjon qizi**

Namangan davlat universiteti  
Jismoniy madaniyat fakulteti magistri

**Annotatsiya:** Mazkur tezisdagi **Gandbolchilar o‘yin texnikasi shakillantirishda murabbiy** faoliyatining ahamiyatini haqida nazariy ma’lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Sport murabbiysi, sportchi, sportchi tayyorgarligi, gandbol texnikasi, musobaqa usuli.

## **ЗНАЧЕНИЕ РАБОТЫ ТРЕНЕРА В ФОРМИРОВАНИИ ТЕХНИКИ ИГРЫ ГАНДБОЛИСТОВ**

**Аннотация:** В данной дипломной работе представлены теоретические сведения и практические рекомендации о роли коучинга в формировании гандбольной техники.

**Ключевые слова:** спортивный тренер, спортсмен, подготовка спортсмена, техника гандбола, соревновательный метод.

## **THE IMPORTANCE OF COACHES ACTIVITIES IN THE FORMATION OF GAME TECHNIQUES**

**Annotation:** This thesis provides theoretical information and practical recommendations on the importance of the coach's work in the formation of handball techniques

**Key words:** Sports coach, athlete, athlete training, handball technique, competition method.

**Mavzuning dolzarbligi.** Respublikamiz axolisini salomatligini yanada mustaxkamlash maqsadida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “Ommoviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori chiqdi. Mazkur qarorda Respublikamiz aholisini barcha qatlamlari uchun jismoniy tarbiya va sport orqali salomatliklarini saqlashda va sport bilan shug‘ullanishlariga imkoniyatlar qanday darajada yaratilganligi batafsil yoritib berilgan. Shundan kelib chiqqan holda sportni ommoviy lashtirish uchun avvalo jismoniy madaniyatni aholi o‘rtasida ayniqsa, maktab o‘quvchilari orasida keng shakillanishi kelajakda sport bilan shug‘ullanish uchun mustahkam poydevor va sportchini shakillantirishda muhim vosita bo‘lib hizmat qiladi.[1]

**Ishning maqsadi:** Sportchini shakillantirishda murabbiy faoliyatining ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish.

**Ishning vazifalari :** 1) Gandbol mashg‘ulotlarida murabbiy metodikasining oziga xosligini aniqlash;

2) Murabbiyning intellektual salohiyatini mashg‘ulot samaradorligiga ta‘sirini o‘rganish;

Murabbiy metodikasi haqida so‘z yuritilganda Jismoniy tarbiya va sportning asoschilaridan bo‘lgan P.F.Lesgafning murabbiy metodikasiga “metod bu men” deb tariff bergandi. Albatta har bir sportning o‘riga hos o‘gatish usuli bolgani kabi har bir murabbiyning ham o‘z o‘rgatish usuli ya’ni metodi bo‘ladi. Murabbiy qanchalik iqtidorli va tashabbuskor bo‘lsa hamda tajribali bo‘lsa shunda o‘zi va shogirdlari yuqori marralarni zaft eta oladi. Bizga tanish bo‘lgan usullardan biri musobaqa usuli hisoblanadi. Ushbu usuldan sport mashg‘ulotlarda ma’lum bir o‘yin yoki harakat texnikasini o‘rgatishda faydalaniladi. Musobaqa usulining o‘ziga xosligi shundaki u orqali o‘yin texnikasini gandbolchilar maksimal nomoyon etishga erishiladilar. Buning asosiy sababi o‘zaro raqobatlashuv hisoblanadi. Jismoniy tarbiya va sportning xususiy metodlari haqida so‘z yuritilganda albatta quydagi usullarni yodga olamiz. Musobaqa

usuli asosan mashg‘ulotlarda yangi o‘yin texnikasini o‘zlashtirilgandan so‘ng qo‘llaniladi natijada gandbolchilari shu harakatlarni o‘zaro jamoalar o‘rtasida kichik musobaqa tashkillash orqali yanada mustaxkamlanadi. Bu musobaqa usulining o‘ziga xosligini to‘la yoritishga kamlik qiladi va uning yana bir eng kerakli jihati uni mashg‘ulotlarda faqatgina o‘yin texnikasiga oid harakatlarni tarbiyalashgina bo‘lmay, u orqali gandbolchilar hujum va himoya taktikasini rivojlantirish uchun asosiy usul hisoblanadi.

### **Xulosa**

Odamni inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi, odob, axloq, madaniyat, ma’naviyat bilan mujassamlashadi. Hozirgi kunda kelajagimizni qanday bo‘lishi biz tarbiyalayotgan farzandlarga bog‘lik. Bunda kelajak avlodni kamolotida jismoniy tarbiya va sport faoliyati juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Oilada shaxs kamol topadi, shaxsni ongli ma’suliyatni shakllantirish uni jamiyatga daxldor ekanligini anglatish barchasidan muhimdir.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, inson ma’naviyatli bo‘lishi uchun juda kup bilim va tafakkurga va ayni vaqtda jismoniy tarbiyalangan bo‘lishi lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Sh. M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. TOSHKENT “O‘zbekiston” 2017-yil 484. 5-b
2. A.Abdullayev, R.Rasulov, A.Xasanov UMUMIY O‘RTA VA KASB-HUNAR TA’LIMI TIZIMLARIDA JISMONIY TARBIYADAN SINFDAN TASHQARI ISHLAR Toshkent 2009. -200. b.
3. A.Abdullayev, Sh.X.Xonkeldiyev Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2016. -410.b.
4. A.Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2018. -410.b.
5. Bondarevsky E .YA. Xankeldiyev SH. X. O‘quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligi. Meditsina –T.: 1986.-204. b.

UDK:664

## O‘ZBEKISTON OZIQ OVQAT ISHLAB CHIQARISHIGA ORGANIK FOOD STANDARTLARINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI

**Xaqberdiyev O‘tkir Xolmuradovich**

Toshkent davlat agrar universiteti

Samarqand filiali magistranti

### ANNOTATSIYA

Bugungi kunda oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash sohasini keng yo‘lga qo‘yishga mamlakatimiz rahbari tomonidan katta e‘tibor qaratilmoqda. Muallif organik oziq-ovqat mahsulotlarining inson salomatligiga ta‘siri va jahon mamlakatlarini bu borada amalga oshirayotgan xayrli ishlari haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tgan. To‘plangan tajriba va taklif sifatida berilgan ma‘lumotlar soha vakillari uchun albatta dasturul amal bo‘ladi.

**Kalit so‘zi:** Organik mahsulotlarning foydali hususiyatlari, noorganik moddalar, Usaid tashkiloti, yo‘l xaritasi, standartlar, biologik ahamiyat.

### АННОТАЦИЯ

Сегодня глава нашего государства уделяет большое внимание на развитие производства и переработки продуктов питания. Автор предоставляет информацию о влиянии органических продуктов питания на здоровье человека и хорошей работе стран мира в этом отношении. Информация, представленная в виде опыта и предложений, будет использована в отрасли.

**Ключевые слова:** Полезные свойства органических продуктов, неорганических вещества, УСАИД, дорожная карта, нормативы, биологическая значимость,

### ANNOTATION

Today, the head of our state pays great attention to the development of production and processing of food products. The author provides information on the impact of organic food on human health and the good work of the countries of the world in this regard. The information provided in the form of experience and suggestions will be used in the industry.

**Key words:** Useful properties of organic products, inorganic substances, USAID, roadmap, standards, biological significance.

Bugun dunyo tamadduni texnika-texnologiyalar, ilg'or g'oyalar va innovatsiyalarni joriy etishga intilmoqda. Har sohada bunday g'oyalarning amalda qo'llanishi albatta kelajakda o'zining natijasini berishi tayin. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlab aholi iste'moli uchun taqdim qilish har bir mirishkor dexqonlar va qishloq xo'jaligi hodimlari oldida turgan eng muhim masalalardan biridir. Boisi shundaki mahsulotlarni to'g'ri yetishtirish nafaqat yerning meliorativ holatini yaxshilaydi balki, inson organizmida ham turli potagen kasalliklarini kelib chiqishiga yo'l qo'ymaydi.

Bilamizki oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash davrimizning oldida turgan eng dolzarb masalalaridan biriga aylangani hech kimga sir emas. Chunki iqtisodiy yuksalish, sanoatlashish jarayonining jadallashishi, dunyo aholisi sonining o'sib borishi tufayli kundalik iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyoj ham yil sayin ortib bormoqda. Ushbu talablarni barqaror qondirish maqsadida esa iqtisodiyotning muhim tarmog'i hisoblangan agrosanoatni rivojlantirish, bog' va dala ne'matlari yetishtirish hajmini oshirish yuzasidan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq aksariyat davlatlarda qishloq xo'jaligi intensiv texnologiyalarga asoslangan bo'lib, oziq-ovqat ekinlarini parvarishlash, ularni kasallik hamda zararkunandalardan himoyalashda kimyoviy vositalar orqali amalga oshadi. Bu, o'z navbatida, tabiiy landshaftlarning yomonlashishi, tuproq unumdorligi pasayishi, ekologik tizimni izdan chiqishiga sabab

bo‘ladi. Ayni shu holatlar dehqonchilikning muqobil turlari, jumladan, organik usulni rivojlantirishni taqozo qilayapti [1].

Organik qishloq xo‘jaligini o‘rganish va uni realizatsiya qilish bundan ancha yillar ilgari paydo bo‘lgan. XX asrning 20- yillarining boshida Buyuk Britaniya, AQSH, Yaponiya, va Germaniya ixtirochi olimlari yillar davomida oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishda qishloq xo‘jaligi uchun muhim manba tuproq unumdorligini yaxshilash va uni yanada unimdorligini oshirish bo‘yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan. Organik qishloq xo‘jaligida tuproq, o‘simlik va hayvonlarning tabiiyligini saqlash va yaxshilash usullari o‘rganilgan afzalliklari esa ochib berilgan.

Organik usul bu noorganik mahsulotlardan farqliligi bilan ajralib turadi. Mahsulotlarning tarkibidagi makro hamda mikro elementlarning mavjudligi bilan ham farq qiladi. Organik mahsulotlar tarkibida kaliy, kalsiy, sink, temir, fluor elementlari yuqori bo‘ladi. S vitamin qarish, oshqozon-ichak kasalliklari hamda singa (tish emal qavatining yallig‘lanishi) kabi kasalliklarni kelib chiqishiga yo‘l qo‘ymaydi. Jahon mamlakalari bugungi kunda inson iste‘mol qiladigan barcha oziq-ovqat mahsulotlarining tarkibida GMO bo‘lgan har qanday noorganik mahsulotni oldini olishga harakat qilmoqda.

Oziq-ovqat havfsizligi mamlakat aholisining sog‘ligini saqlashga imkon beradigan demografik holatning ijobiy rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Havfsiz oziqlanish hayot davomiyligini uzaytiradi, bolalarning barkamol o‘sishi va rivojlanishiga yordam beradi, ko‘pgina kasalliklarning oldini oladi, shu orqali millat salomatligini ta‘minlaydi. Butun dunyoda sun‘iy mahsulotlarni ishlab chiqarish kundan-kunga ko‘payib borayotgan, bugungi kunda oziq-ovqat havfsizligi ustidan nazoratni susaytirishga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Mamlakatning oziq-ovqat havfsizligi-jismoniy talablar darajasida aholi salomatligi holatiga havf solmasdan aholini muhim iste‘mol mahsulotlari bilan uzluksiz ta‘minlash imkoniyati kafolatlangan ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy holatdir. Boshqacha qilib aytganda, hozirgi yashayotgan va kelajakda tug‘iladigan avlod uchun havf tug‘dirmaydigan oziq-ovqatlar havfsiz hisoblanadi, Shu bois, bugungi kunda mahsulot sifatini nazorat qilishning obyektivligi



o‘z navbatida butun insoniyat salomatligi uchun havfsizligini kafolatlagani bois, mazkur soha bilan bog‘liq muammolarga yuzaki qarab bo‘lmaydi. Bizning tadqiqot mavzuimizni chuqur ochib berish, sohadagi muammolarni ochib berish, zarur takliflar bildirish, O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarini tahlil qilishni taqozo etadi. “Aholining Sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan chiqarilgan qonunining 17-moddasida fuqarolar davlat boshqaruvi organlaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan, shuningdek davlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi organlardan sanitariya-epidemiologik vaziyat va insonning yashash muhiti holati, yuridik shaxslardan va yakka tartibdagi tadbirkorlardan mahsulotning, shuningdek bajarilayotgan ishlar va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning xavfsizligi hamda sifati to‘g‘risida axborot olish huquqida ega ekanligi belgilangan. Bundan kelib chiqadiki, har bir fuqaro o‘zi iste‘mol qiladigan mahsulotning havfsizlik talablariga qanchalik javob berishi haqida yetarli ma‘lumotga ega bo‘lishga huquqlidir. Shuningdek qonunchiligimizda, “Oziq-ovqat mahsulotining havfsizligi” tushunchasiga ta‘rif berilgan: “Oziq-ovqat mahsulotining havfsizligi- Oziq-ovqat mahsulotining veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalariga mosligi”, ko‘rinib turganidek, ta‘rifda havfsizlik uchun talab aynan ko‘rsatilmasdan boshqa normativ-hujjatlarga havola qilingan. Mahsulotning sifati va xavfsizligini ta‘minlaydigan talablar majburiy bo‘lib, u qonun yoki boshqa normativ hujjat belgilangan tartibda o‘rnatiladi.

Buning isboti sifatida Amerika davlatining ( USAID) Agrobeznisni rivojlantirish va oziq-ovqat mahsulotlarini xavsizligini ta‘minlash uchun O‘zbekiston mamlakatiga berayotgan beg‘araz yordami so‘zimning isbotidir. 2022 yilning 13-14 may kunlari Navoiy viloyatida o‘tkazilgan media treningda ham aynan oziq-ovqat xavsizligini ta‘minlash uchun Amerika mamlakati ishbilarmon O‘zbekistonlik xotin-qizlariga qayta ishlash, ishlab chiqarish sohalarida zarur bo‘ladigan texnika qurilmalarni beg‘araz olib berayotgani bilan ahamiyatlidir.

Organik food (oziq-ovqatlar) inson salomatligi va tana muvozanatini boshqarish uchun muhim biologik katalizator vazifasini bajaradi. Organik mahsulotlar noorganik

mahsulotlarga nisbatan afzalliklari bilan alohida ahamiyatga egadir [2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 maydagi PF-№5995-son “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari Xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilingan va organik qishloq xo‘jaligi va organik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish konseptsiyasini amalga oshirish bo‘yicha “YO‘L XARITASI” ishlab chiqilgan [3].

Shu sababli oziq-ovqat xavfsizligi darajasini baholashda yuqori energiyaga boy mahsulotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Oziq ovqat mahsulotlari quyidagi standartlarga ISO 9001, ISO 13485, ISO 22000, GLOBAL G.A.P., Global, Aquaculture Alliance, ORGANIC, GRMS, SQF 2000, ISO 14001, OHSAS 18001, GMP, ISO 22716, ISO 14971 kabi standartlarga javob berishi kerak. Oziq - ovqat mahsulotlari sifatli bo‘lsagina jahon mamlakatlari ushbu mahsulotlarni import sifatida qabul qiladi [4].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki organik mahsulotlar yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarida maxsus ekologik omillar hisobga olingan dehqonchilik tizimlari bo‘lishi kerak. Negaki dehqonchilik tizimi bu yerdan samarali foydalanish uchun agrotexnik, meliorativ va tashkiliy tadbirlarning birgalikda qo‘llanilishi natijasida tuproq unumdorligini saqlash va oshirib borishga va ekologik toza qishloq ho‘jalik mahsulotlarini yetishtirishga qaratilgan tizimni rivojlantira olamiz.

Taklif sifatida - har bir dexqon, fermer va klasterlar kesimida mahsulotlarning biologik pasportini joriy etishni kiritamiz. Shundagina biz oziq-ovqat mahsulotlarining ekilgan yer boniteti, yetilish fa‘zalari, tarkibiga berilayotgan o‘g‘itlar , mahsulotning pH ko‘rsatkichlarini kuzata olamiz. Bu kuzatish orqali biz bemalol food standartlarini joriy etishimiz va eksport salohiyatini kuchaytirishni qo‘lga kiritamiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

- 1- Закревский В.В. Генно-модифицированные продукты. Опасно или нет? [Genetically modified foods. Dangerous or not] Санкт-Петербург: "БХВ-Петербург", 2006. - 87 с
- 2- Донченко Л. В., Надыкта В. Д. Безопасность пищевой продукции. [Food safety] - Москва: Пищепромиздат, 2001. - 528 с.
- 3- PF-№5995-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18- maydagi qarori.
- 4- [http// food](http://food) mahsulotlari uchun standartlar



## PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKA FANI METODOLOGIK ASOSLARIGA INNOVATSION YONDASHUVLAR

**Abdurahmonov Azizbek Baxtiyor og‘li**

Jamoat xavfsizligi universiteti kursanti

**Elmurodov Bunyod Lapas o‘g‘li**

Guruh komandiri

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada psixologiya va pedagogika sohalarida qo‘llaniladigan innovatsion yondashuvlarning mohiyati ochib beriladi, mutafakkirlarning fiklari keltiriladi hamda amaliyotga tatbiq etish masalalari ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, tarixiy bosqich, psixologiya, innovatsiya, modernizatsiya, jamiyat taraqqiyoti, pedagogik faoliyat, qadriyat, inson, ta‘lim-tarbiya tizimi, texnologiya, ilmiy faoliyat.

**Аннотация:** В данной статье объясняется сущность инновационных подходов в области психологии и педагогики, приводятся отзывы мыслителей и обсуждаются вопросы практического применения.

**Ключевые слова:** образование, исторический этап, психология, инновации, модернизация, общественное развитие, педагогическая деятельность, ценность, человек, система образования, технология, научная деятельность.

**Annotation:** This article explains the essence of innovative approaches in the field of psychology and pedagogy, provides feedback from thinkers and discusses issues of practical application.

**Keywords:** education, historical stage, psychology, innovation, modernization, social development, pedagogical activity, value, human, education system, technology, scientific activity.

## KIRISH

Insoniyat taraqqiyotiga, uning bosib o‘tgan ijtimoiy tuzumiga nazar solar ekanmiz, shaxs taraqqiyoti ijtimoiy jamiyat bilan uzviy bog‘liqligining guvohi bo‘lamiz. Shaxsning makonda taraqqiyoti ijtimoiy munosabatlarning o‘zgarishi, rivojlanishi, tarixiy bosqichlar va davrlar bilan o‘z ifodasini topmoqda.

Bu yerda biz tarixiy bosqichlarda eski jamiyatdagi ilmiy, madaniy, ahloqiy kabi qadriyatlarni yangi ko‘rinishlarini yanada takomillashganligini, o‘z davrining ilg‘or innovatsion yo‘nalishlarini nazarda tutamiz. Demak, har qanday yangi yo‘nalish zaminida eski jamiyat qadriyatlari, maktab-maorif tizimi asos bo‘lib qolaveradi [1; 27-b.].

Ko‘plab faylasuf, olimlar qarashlarida jamiyat, tabiat o‘zgaruvchan, yagona organizm sifatida qarab, idealistik, dogmatik qarashlarni inkor etib kelganlar. Masalan : O‘rta Osiyoda XV asrning yirik ruhshunos, pedagog-psixolog olimlarimizdan Jaloliddin Davoniy o‘zining «Ahloqi Jaloliy» asarida ahloq jamiyatga nisbatan nisbiy bo‘lib, jamiyat o‘zgarishi bilan ahloq ham o‘zgarib boradi degan ilg‘or g‘oyani ilgari surgan. J.Davoniy jamiyatga dinamik kategoriya sifatida qaraydi va har qanday taraqqiyot zaminida inson ongi, tafakkuri, axloqi, ijtimoiy munosabatlari yotadi deb qaraydi.

Ma‘lumki, har qanday innovatsiya ishlab chiqarishga, jamiyatga ta‘lim tizimi bosqichlari asosida kirib keladi. Mazkur ta‘lim tizimini isloh qilish har bir davlat taraqqiyotining asosini tashkil etadi [2; 52-b.].

Agarda yaqin yillar ichida innovatsion yondashuv ta‘lim tizimiga mansub deb qarash tushunchasi bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda innovatsiya davlat tizimining barcha jabhalarida tizimli rejaga asoslangan holda, ommaviy ravishda amalga oshirishni talab etmoqda. Ta‘lim sohasidagi innovatsion masalaga xususiy jixatdan yondashish, bunda

iqtisodiyot, jamiyat, ma'naviyat masalalarini hisobga olmaslik ta'limni ijtimoiy mohiyatini anglamaslikni ko'rsatadi. Binobarin, pedagog atamasi bola yetaklash ma'nosini anglatsada, unda bugungi kun pedagogi va psixologining kasbiy mavqeini to'liq yoritib bera olmaydi. XXI asrning birinchi yarimida pedagoglik kasbi o'qituvchi, ya'ni ta'lim beruvchi vazifasini o'tagan bo'lsa, bugungi kun pedagogining faoliyat qirralari kengayib ijtimoiy pedagog-psixolog sifatidajamiyatdan o'z o'rnini egalladi. 30-yillarda qishloq o'qituvchisi Dushen (eslang taniqli adib Chingiz Aytmatovning “Birinchii o'qituvchi”) ovul yoshlariga yozish, o'qitishni o'rgata olgan bo'lsa, bugungi kun boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasbiy bilimi, faoliyati serqirrali xususiyatiga ega. Asar qahramoni 30-yillarda savodsizlikni tugatish, ma'rifatni targ'ibot etish, ijtimoiy masalani hal etishda faol ishtirok etgan bo'lsa, XXI asr pedagogi va psixologi iqtisodiy ijtimoiy, ma'naviy ahloqiy, mafkuraviy masalalarni amalga oshirishning faol ishtirokchisi bo'lishni davr talab etmoqda [3; 12-b.].

Pedagogik, psixologik kasbi, uning professiogramma doirasi har besh yilga kelib kengayib, chuqurlashib bormoqda.

Turkiston xalqining buyuk ma'rifatparvari A.Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir” – degan so'zlari ta'limning mohiyatiga munosib ijtimoiy baho berganligini ko'ramiz.

Inson ongi, tafakkuri uchun kurash, yangicha munosabatni shakllantirish, davlat inqirozini bartaraf etish, ta'lim tizimida, mazmunida, kadrlar tayorlashda yangi islohotni amalga oshirishni taqozo etmoqda. Bu umuminsoniyat miqyosida innovatsion yondashishini talab etadi. Inovatsion yondashish iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda islohotlarni amalga oshirishni talab etadi.

Taniqli fizik olim T.Edison aytganidek «sivilizatsiyaning asosiy belgilaridan biri insonlarni yangicha fikrlashga o'rgatishdan iborat». Ushbu fikr ta'lim bu jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri to'g'risidagi g'oya ekanligini ko'rsatmoqda. Binobarin, yoshlar ongi uchun innovatsion yondashish ta'lim tizimi, uning mazmuni, o'qitish texnologiyalari keng qamrab olinmoqda [5; 37-b.].

Mazkur innovatsion yondashish iqtisodiy ishlab chiqarish, mehnat faoliyatini sifat jihatidan o'zgartirishda, mehnatga bo'lgan munosabatlarni tarkib toptirishda, respublikamiz moddiy bazasini yaratishdan iborat.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning asosiy omillari uzluksiz ta'limni tubdan takomillashtirish orqali halqaro standartlar darajasidagi oliy va o'rta mahsus raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ustuvor masala hisoblanadi.

### **XULOSA**

Ta'lim-tarbiya tizimida innovatsion yondashish umumjamiyat masalasi bilan chambarchas bog'liq. Shaxsning ijtimoiylashuvi, uning ongu tafakkurida yangicha qarashlarini tarkib topishida, mehnatga bo'lgan yangicha munosabatlarni yuzaga keltirishda ta'lim-tarbiya tizimi, uning mazmuni va ta'lim tarbiya jarayonini tashkil etish texnologiyalari bilan uzviy bog'liq.

### **ADABIYOTLAR**

1. Саймон Б. Общество и образование. Пер.с англ. М.Прогресс 2019 г.
2. Халмурадов Р.И. О качестве высшего. // «Таълим, фан ва инновация». 1 / 2018 йил.
3. Qodirov A.Q. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning ijtimoiy-pedagogik masalalari. // «Ta'lim, fan va innovatsiya». 2 / 2018 yil.
4. Tojiev M, Qodirov M, Ashurov N. Oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalash – ta'lim sifati va samaradorligining kafolati. // «Ta'lim, fan va innovatsiya» / 2018 yil.
5. Кошелева А.Ф, Собирова Ш.Ш. Эффективность образовательного процесса как следствие инновационного подхода к обучению. // «Таълим, фан ва инновация». 3 / 2018 йил.

## KUCH TRANSFORMATORI ENERGIYA TIZIMINING EKSPLOTATSION REJIMLARDA ISHLASH XUSUSIYATLARI

**Amirov Sulton Fayzullayevich**

d.t.n. professor,

**Qayumov Sanjar Yuldosh o‘g‘li**

magistr


Toshkent Davlat Transport Universiteti

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada uch fazali kuch transformatorini energiya tizimining ekspluatatsion rejimlarda ishlash xususiyatlarini Matlab(Simulink) dasturi orqali ko‘rib chiqamiz

**Kalit so‘zlar:** aktiv qarshilik, induktiv qarshilik, nominal tok, nominal quvvat.

Kuch transformatori energiya tizimining ko‘p jihatdan nochiziqli elementi bo‘lib, shuning uchun transformator ishlash xususiyatlarini hisobga olish zarurati yuzaga kelganida uning turli ekspluatatsion rejimlarda ishlashi paytida magnitlanishning nochiziqli xarakteristikasiga (tavsifiga) ega bo‘lish talab etiladi. Bu holda yaratilayotgan modelda transformator o‘zagining magnitlanish egri chizig‘i o‘zakning oqim ilashishi  $\psi = f(I_{\mu})$  va magnitlanish toki  $I_{\mu}$  orasidagi mavjud bog‘liqlik (bo‘lakli-chiziqli) ko‘rinishida berilishi shart. Umumiy ko‘rinishda xarakteristikani (tavsifni) quyidagi rasmda tasvirlangan ko‘rinishda taqdim etish mumkin. Transformatorning barqaror ishlash rejimida oqimlar ilashishining amplitudali qiymati va transformator o‘zagining to‘yinishi ko‘rsatilgan.





Davomli nosimmetriya rejimlarini modellashtirishda transformator energiya iste'moli parametrlari o'zgarishi sababli o'rnatilgan ish rejimida bo'lmaydi deb faraz qilinganligi sababli, modelni shakllantirish maqsadida Three-phase Transformer (Two Windings) o'zagini to'yintirishni hisobga olib uch fazali va ikki chulg'amli transformator qo'llanadi.

Shunday qilib, tavsifni (xarakteristikani) qurish uchun transformatorning chulg'am o'ramlari soni, magnit o'tkazgich kesimi, magnit kuch chizig'i uzunligi kabi, odatda, ishlab chiqaruvchi zavodlar tomonidan taqdim etiladigan hujjatlarda ko'rsatilmaydigan geometrik parametrlariga ega bo'lish yoki ma'lumotnomalar berilgan qiymatlardan foydalanish talab etiladi.

Muhandislik yo'nalishidagi masalalarni hal qilishda Simulink Matlab kutubxonalaridan energiya tizimining istalgan element modellaridan foydalanishda asosiy muammo ishlatilayotgan bloklar yoki modellar parametrlarining “avvalboshdan” (po umolchaniyu) berilgan parametrlardan chetlashgan holda ham to'g'ri va ishonchli ishlashi bo'lib hisoblanadi. Bu holat shu bilan bog'liqliki, SimPowerSystems paketining kuch transformatorlarini qo'llagan holdagi namoyish etiladigan namunalari sinchiklab tanlangan bo'lib, ana shu bloklardan osonlik bilan foydalanish mumkinligi to'g'risida tasavvur hosil qiladilar

Transformator modelida uning magnit o‘tkazgichi to‘yinish jarayonini hisobga olish uchun Saturable core parametri qarshisiga tegishli belgi qo‘yish lozim. Bunday holda Parameters qo‘yilmasida magnitlanish zanjirining faqat aktiv (faol) qarshiligi Magnetization resistance ni ko‘rsatishga yo‘l qo‘yiladi. Agar magnit o‘tkazgichning to‘yinish jarayonini hisobga olish zarurati bo‘lmasa, unda transformator ish rejimini modellashtirish uchun qo‘shimcha ravishda ind Magnetization inductance magnitlanish zanjiri induktivligi qiymatini ko‘rsatib o‘tish lozim..

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ded, A.V. K voprosu o standartax na kachestvo elektricheskoy energii A.V. Ded, S.V. Biryukov, A.V. Parshukova Omskiy nauchniy vestnik. – 2015.
2. Ded, A.V. Raschetnaya otsenka dopolnitelnix poter moshnosti v elementax elektricheskix setey A.V. Ded, S.V. Biryukov, A.V. Parshukova Sovremennie naukoyemkiye texnologii. – 2014.

## **BINOLARNI LOYIHALASHDA IQLIM KO‘RSATKICHLARINI TA’SIRI**

**Nabiyev Mo‘minjon,**

Farg‘ona Politexnika Instituti

**Abduaxatova Dildora Mamadyoqub qizi,**

Farg‘ona politexnika instituti

E-mail: [dildoraabduaxatova1104@gmail.com](mailto:dildoraabduaxatova1104@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada turar-joy va inshootlarni loyihalashda iqlim ko‘rsatkichlari asosan yoz va qish kunlari xonalar mikroiklimiga ta’siri o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** iqlim, loyiha, turar-joy, inshoot, balkon, lodjiya

**Abstract:** The article examines the impact of climate indicators on the microclimate of rooms in summer and winter, mainly in the design of housing and facilities.

**Key words:** climate, design, housing, construction, balcony, loggia

Qurilish amaliyotida iqlimning ta’siri qurilishni rejalashtirish bosqichida muayyan ob’ektlarni loyihalash bosqichi kabi hisobga olinadi. Shaharda fabrika, zavod iqlim uchun joy tanlashning to‘g‘riligi qurilish ob’ektlarining arxitektura-rejaviy yechimini, ayrim inshootlarning (binolar, aloqa vositalari, havo aloqa liniyalari, elektr uzatish liniyalari) ishlash muddatini belgilaydi hamda insonning ish, yashash va dam olish sharoitlari qulayligini ta’minlaydi [1,2,3,4].

Qurilish iqlimshunosligining vazifasi quruvchilarga loyihalashda ma’lum hudud iqlimining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishga yordam berish, uning foydali tomonlarini ishlatish va uning zararli ta’siridan himoya qilish choralari ko‘rishdir. Iqlimni hisobga olishning to‘g‘riligi qurilishni rejalashtirish vaqtida hisobga olingan va loyihalash vaqtida hisob-kitoblarga kiritilgan ko‘rsatkichlar sifati bilan belgilanadi. Ushbu ko‘rsatkichlar QMQga kiritilgan. Iqlim ko‘rsatkichlari QMQning har bir bobida

umumiy qoidalar va konstruksiyani qurish, mustahkamlash usullari, qurilish materiallari turi, turli qarshiliklar uchun hisob-kitoblar va boshqalar bilan bog‘liq bir qator texnik ko‘rsatmalar mavjud. QMQda texnik ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda iqlim ko‘rsatkichlari joylashtiriladi [5,6,7,8,9].

Respublikamizdagi iqlimning xilma-xilligini va iqlim omillarining inshootlarning xizmat qilish muddatiga va binolar ichki mikroiqlimiga sezilarli ta‘sirini hisobga olgan holda, har bir geografik hududning iqlim sharoitini hisobga olish bugungi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda. Har yili iqlimshunoslikka yangi va murakkab talablar qo‘yila boshlandi. Ular, shuningdek, iqlimiy jihatdan yangi o‘rganilmagan hududlarni (tog‘li, cho‘l) o‘zlashtirish, yangi obyektlarni qurish bilan bog‘liq.

QMQga kiritilgan ma‘lumotlar yildan-yilga sezilarli darajada boyitilgan bo‘lsa-da, ularning yordami bilan dizaynning barcha holatlarida iqlimning prognoz qilinayotgan obyektga ta‘siri yetarlicha hisoblanmaydi. Shu bois, tabiiyki, qurilish iqlimshunosligi bo‘yicha turli tadqiqotlar ishlab chiqilmoqda, mavjud standartlar aniqlanmoqda va amaliyotga joriy etish uchun yangilari tayyorlanmoqda [10,11,12,13,14].

Buning uchun biz rejalashtirish va loyihalash bo‘yicha harakatlarni hisobga olishni talab qiladigan eng muhim ta‘sirlarini bilishimiz kerak.

Ularga:

- shaharlar va boshqa aholi punktlarining mikroiqlimini aniqlash;
- binolarning o‘rab turgan tuzilmalarining harorat va namlik sharoitlariga va binolarning mikroiqlimiga ta‘sir qilish;
- inshootlarning elementlariga yuklarni yaratish;
- qurilish materiallari va muhandislik mahsulotlarini korroziyaga olib kelishi va eskirishi kabilar kiradi.

Iqlimni hisobga olish uchun shaharsozlikda atmosferadagi makro jarayonlarni tavsiflovchi iqlim ko‘rsatkichlari bilan umumiy tik ta‘sirlari, shu bilan birga mahalliy fizik-geografik sharoitlarning iqlimiy ko‘rsatkichlarga ta‘siri (relefning chuqurligi, suv havzalari va tog‘larga yaqinligi) o‘rganiladi. Ushbu tadqiqotlar natijasida tadqiqot

davrida mikroiklim tadqiqotlari uchun tavsiyalar, shahar iqlimining meletiv holati bo'yicha tavsiyalar va boshqalar tuziladi.

Qurilish iqlimshunosligining vazifasi turli obyektlarni qurish va ishlatish bilan bog'liq iqlim ko'rsatkichlarini olishdan iborat bo'lganligi sababli, u arxitektura va texnologiya bilan chambarchas bog'liq [15,16,17,18]. Budan tashqari, qurilish iqlimshunosligi bilan bog'liq muhandislik muhandislik, texnik va arxitektura masalalari juda xilma-xildir. Natijada, qurilish iqlimshunosligida uning o'ziga xos bo'limlari va yo'nalishlari belgilangan. Shaharlar va boshqa anoli punktlarini rejalashtirish, arxitektura va rejalashtirish qarorlari bilan bog'liq bo'lgan iqlimshunoslik tadqiqotlari ba'zan me'moriy yoki me'moriy-qurilish klimatologiyasi bilan birlashtiriladi.

Binoni isitish va sovutish texnikasi talablarini hisobga olgan holda, iqlim parametrlarini eng oqilona tanlash amalga oshiriladi, bunda dizayn iqlimning binoga ta'sirini hisobga oladi. Buning uchun turli hisob-kitob ishlari olib boriladi. Hisoblashlarning turli bosqichlarida binolarni loyihalshda asosiy meteorologik elementlarning qiymatlari - harorat, namlik, shamol, yog'ingarchilik va boshqalar bilan belgilanadigan individual iqlim omillarining ta'siri hisobga olinadi. Qurilish uchun iqlimiy rayonlashtirish shunday amalga oshiriladi. Bu issiqlik rejimining xususiyatlariga asoslanadi. Binolar orasidagi havo teshiklari orqali eshik va derazalar teshiklarining bu almashinuvi to'siqlar orqali amalga oshiriladi.

Materiallarning havo o'tishi (filtrlash) xususiyatiga havo o'tkazuvchanligi deyiladi. Havo almashinuvi yoki havo filtratsiyasi bilan bog'liq bo'lgan issiqlik almashinuvi odatda infiltratsiya deyiladi. Amaldagi QMQga muvofiq binolarning infiltratsion issiqlik yo'qotishlari, binolar ichidagi va tashqarisidagi havo haroratining farqi tufayli issiqlik yo'qotishlarini hisoblash uchun qo'shimcha to'lovni kiritish orqali hisobga olinadi. Yuqoridagi qo'shimchalar faqat eng sovuq uch oyda shamol tezligi 5m/s dan oshadigan hududlarda kiritiladi. 10 m/s dan ortiq shamol tezligida ushbu ruhsatning qiymati har qanday o'rab turgan tuzilma va har qanday ochilish uchun 30%dan oshmaydi. Havo o'tkazuvchanligi devorlarining kerakli qarshiligi eng sovuq

derazalar uchun o‘rtacha shamol tezligi bilan belgilanadi. Hisoblangan harorat qisqa davrlarga (5 kundan ortiq bo‘lmagan) tegishli ekanligi va sovuq oy uchun shamol tezligi hisobga olinganligi va uning oy uchun o‘rtacha qiymati olinadi va qisqa sovuqda amalda kuzatilmaydi.

Xulosa qilib aytganda bu ma’lumotlarning barchasi turar-joy binolari va inshootlarini loyihalashda hisobga olinishi zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1]. Ильнский В.М. Проектирование ограждающих конструкций зданий (с учетом физико-климатических воздействий). Госстройиздат, 1964.
- [2]. Круглова А.И. Климат и ограждающие конструкции. Москва Стройиздат, 1970.
- [3]. Фокин К.В. Строительная теплотехника ограждающих частей зданий. Москва Стройиздат, 1973.
- [4]. Набиев М. Влажностный режим и долговечность стен промышленных зданий и присутствии водорастворимых солей. Автореферат. Москва 1979
- [5]. Mahkamov Y. M., Mirzababaeva S. M. Strength of bending reinforced concrete elements under action of transverse forces under influence of high temperatures //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 5. – С. 618-624.
- [6]. Makhkamov Y. M., Mirzababaeva S. M. Rigidity of bent reinforced concrete elements under the action of shear forces and high temperatures //Scientific-technical journal. – 2021. – Т. 4. – №. 3. – С. 93-97.
- [7]. Махкамов Й. М., Мирзабабаева С. М. Температурные прогибы железобетонных балок в условиях воздействия технологических температур //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 11-1 (144). – С. 45-48.
- [8]. Mamazhonovich M. Y., Mirzaakbarovna M. S. To Calculation Of Bended Elements Working Under The Conditions Of Exposure To High And High

Temperatures On The Lateral Force By A New Method //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 210-218.

[9]. Махкамов Й. М., Мирзабабаева С. М. Прогнбы изгибаемых железобетонных элементов при действии поперечных сил и технологических температур //Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №. 12-2. – С. 57-62.

[10]. Махкамов Й. М., Мирзабабаева С. М. Образование и развитие трещин в изгибаемых железобетонных элементах при высоких температурах, их деформации и жесткость //Научно-технический журнал ФерПИ. – 2019. – №. 3. – С. 160.

[11]. Мирзабабаева С. М. и др. Влияние Повышенных И Высоких Температур На Деформативность Бетонов //Таълим ва Ривожланиш Тахлили онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 40-43.

[12]. Мирзаахмедова У. А. и др. Надежности И Долговечности Энергоэффективные Строительные Конструкций //Таълим ва Ривожланиш Тахлили онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 48-51.

[13]. Mirzaakbarovna M. S. Wood Drying In Construction //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 229-233.

[14]. Умаров Ш. А., Мирзабабаева С. М., Абобакирова З. А. Бетон Тўсинларда Шиша Толали Арматураларни Қўллаш Орқали Мустаҳкамлик Ва Бузилиш Ҳолатлари Аниқлаш //Таълим ва Ривожланиш Тахлили онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 56-59.

[15]. Гончарова Н. И. и др. Применение Шлаковых Вяжущих В Конструкционных Солестойких Бетонах //Таълим ва Ривожланиш Тахлили онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 32-35.

[16]. Мирзажонович Қ. Ғ., Мирзабабаева С. М. Биноларни ўровчи конструкцияларини тузлар таъсиридаги сорбцион хусусиятини яхшилаш //research and education. – 2022. – С. 86.

[17]. Мирзабабаева С. М., Мирзаахмедова Ў. А. Древесины и строительство //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – С. 96.

[18]. Мирзабабаева С. М., Мирзажонович Қ. Ғ. Бетон ва темирбетон конструкциялар бузилишининг турлари ва уларнинг олдини олиш //research and education. – 2022. – С. 91.





## SPORTCHILARNI SHAKLLANTIRISHDA JISMONIY TARBIYANING AHAMIYATI

**Sarbarova Zulayxo Asqarjon qizi**

Namangan davlat universiteti

Jismoniy madaniyat fakulteti magistri

**Annotatsiya:** Mazkur tezisdagi sportchilarni shakllantirishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati haqida nazariy ma'lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy madaniyat mazmuni, sportchi, sportchi tayyorgarligi.

## ЗНАЧЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В СТАНОВЛЕНИИ СПОРТСМЕНОВ

**Аннотация:** В диссертации представлены теоретические сведения и практические рекомендации о значении физического воспитания в становлении спортсменов

**Ключевые слова:** Содержание физической культуры, спортсмен, подготовка спортсмена.

## THE IMPORTANCE OF PHYSICAL TRAINING IN THE FORMATION OF ATHLETES

**Annotation:** This thesis provides theoretical information and practical recommendations on the importance of physical education in the formation of athletes.

**Key words:** The content of physical culture, athlete, athlete training.

**Mavzuning dolzarbligi.** Istiqlol tufayli Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilmoqda. Bu islohotlarning bosh maqsadi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurishdir. Yurtimizda tub o‘zgarishlar ijtimoiy taraqqiyot qonunlarining talablarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Respublikamiz axolisini salomatligini yanada mustaxkamlash maqsadida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan “Ommoviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori chiqdi. Mazkur qarorda Respublikamiz aholisini barcha qatlamlari uchun jismoniy tarbiya va sport orqali salomatliklarini saqlashda va sport bilan shug‘ullanishlariga imkoniyatlar qanday darajada yaratilganligi batafsil yoritib berilgan. Shundan kelib chiqqan holda sportni ommoviy lashtirish uchun avvalo jismoniy madaniyatni aholi o‘rtasida ayniqsa, maktab o‘quvchilari orasida keng shakllanishi kelajakda sport bilan shug‘ullanish uchun mustahkam poydevor va sportchini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib hizmat qiladi.[1]

**Ishning maqsadi:** Sportchini shakllantirishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish.

**Ishning vazifalari :** 1) Sportchi va sport mashg‘ulotini o‘ziga xosligini aniqlash.  
2) Jismoniy tarbiya darsining sport bilan aloqador tomonlarini tahlil qilish.

Jismoniy tarbiyani ahamiyati haqida so‘z yuritishdan avval shu atamaning mazmuniga alohida to‘xtalishimiz lozim. **Jismoniy tarbiya** – mazmuniga ko‘ra keng ma‘nodagi “**tarbiya**” deb nomlanadigan umumiy pedagogik tushuncha tarkibiga kiradi va tarbiya jarayonidagi tarbiyaviy, bilim (ta‘lim) berish, vazifalarini mutaxassis pedagogning yo‘naltiruvchi xizmati asosida ta‘lim taomillariga muvofiq yoki o‘zini-o‘zi tarbiyalash tartibida amalga oshiriladi.[2]

Jismoniy tarbiya – inson organizmini morfologiyasi va xizmati jihatidan takomillashtirish, uning hayoti uchun muhim bo‘lgan asosiy hayotiy – zaruriy harakat malakalari, ko‘nikmalari, ular bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy bilim va amaliy malakalarni shakllantirish hamda harakat sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ko‘p yillik pedagogik jarayon hisoblanadi.[3]

Jismoniy tarbiyani yana bir ahamiyatli tomoni shundaki u orqali sportga bolani moslaymiz shakillantiramiz. Sportchini shakillantirishda avvalo yoshlik chog‘idan jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishiga keng imkon yaratishimiz, bolalarimizni mustaqil jismoniy tarbiya bilan shug‘illana olishlari uchun yo‘l ochib berishimiz lozim bo‘ladi. Shundagina biz sportchini tayyorlashda jismoniy tarbiyani ahamiyatini anglab yetamiz.

### **Xulosa**

Odamni inson sifatida shakllana borishi jarayonida uning kamoloti darajasi, odob, axloq, madaniyat, ma’naviyat bilan mujassamlashadi. Hozirgi kunda kelajagimizni qanday bo‘lishi biz tarbiyalayotgan farzandlarga bog‘lik. Bunda kelajak avlodni kamolotida jismoniy tarbiya va sport faoliyati juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Oilada shaxs kamol topadi, shaxsni ongli ma’suliyatni shakllantirish uni jamiyatga daxldor ekanligini anglatish barchasidan muhimdir.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, inson ma’naviyatli bo‘lishi uchun juda kup bilim va tafakkurga va ayni vaqtda jismoniy tarbiyalangan bo‘lishi lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

6. Sh. M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. TOSHKENT “O‘zbekiston” 2017-yil 484. 5-b
7. A. Abdullayev, R. Rasulov, A. Xasanov UMUMIY O‘RTA VA KASB-HUNAR TA’LIMI TIZIMLARIDA JISMONIY TARBIYADAN SINFDAN TASHQARI ISHLAR Toshkent 2009. -200. b.
8. A. Abdullayev, Sh. X. Xonkeldiyev Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2016. -410.b.
9. A. Abdullayev. Jismoniy madaniyat nazaryasi va metodikasi. Bakalavr talabalar uchun darslik.- T. 2018. -410.b.
10. Bondarevsky E .YA. Xankeldiyev SH. X. O‘quvchi yoshlarning jismoniy tayyorgarligi. Meditsina –T.: 1986.-204. b.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR  
TARBIYASIDA SHARQONA ODATLAR VA BOLA RIVOJLANISHIDA  
OILA MUHITINING AHAMIYATI**

**Sattorova Feruza Choriyevna**

Surxondaryo viloyati Denov tumanidagi

1-sonli DMTT tarbiyachisi

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarga ta`lim va tarbiya berishda sharqona odatlardan foydalanishning ijobiy tomonlari hamda bolani kelajakda barkamol shaxs bo`lib voyaga yetishida oila- bobo va momolar, ota-otalarning muhim roli haqida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** Maktabgacha ta`lim, oila, sharqona odatlar, ta`lim, tarbiya, odob, mehnatsevarlik, bola, rivojlanish.

**THE IMPORTANCE OF THE FAMILY ENVIRONMENT IN PRESCHOOL  
EDUCATION IN ORGANIZATION AND CHILD DEVELOPMENT IN  
CHILDREN'S EDUCATION**

**Abstact:** At present, there is talk about the positive aspects of the use of oriental traditions in the education and upbringing of children in preschool organizations, as well as the important role of parents and grandparents in the future development of the child as a harmoniously developed person.

**Keywords:** Preschool education, family, oriental customs, education, upbringing, etiquette, diligence, child, development.

Hozirgi kunda barcha Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida asosiy e`tibor bolalarni milliy qadryatlar ruhida tarbiyashga qaratilgan. Bundan tashqari Maktabgacha ta`lim bolaning sog`lom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta`minlaydi, unda

o‘qishga intilish xissini uyg‘otadi, uni muntazam ta‘lim olishga tayyorladi. Maktabgacha ta‘lim bola 6-7 yoshga etgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar tashkilotlarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta‘lim maqsadi va vazifalarini ro‘yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va hayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Keyingi yigirma ikki yil ichida davlatimiz olib borayotgan odilona siyosat natijasida mamlakatimiz hayotida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi.. Har bir tashkilot binosi o‘zgacha dizayn va ko‘rinishga egaligi bilan ajralib turadi. MTT larining ko‘rinishlarida va bezalishida milliyligimiz aks etib turadi. Bolalarga ta‘lim-tarbiya berishda ham sharqona odob va ahloq qoidalariga amal qilinadi. Bunda ayniqsa Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari hamda oilalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik ishlari yaxshi yo‘lga qo‘yilmoqda. Shu o‘rinda bolaning rivojlanishida oilaviy muhitning o‘rni haqida so‘z yuritsak.

Oilaning mustahkam va barqaror bo‘lishi oila a‘zolari salomatligiga, ota-onalikka psixologik tayyorgarligiga bevosita bog‘liq bo‘lgani uchun ham mamlakatimizda bu borada qator ijobiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shaxs ma‘naviyati, uning har tomonlama dunyoqarashi asosan oilada shakllanadi. O‘zbek xalqi azal-azaldan o‘zining bolajonligi, oilaparvarligi bilan ajralib turadi. Xalqimiz bola tarbiyasida nafaqat mehr ko‘rsatadi, balki yoshligidan bolani milliy tarbiya, odob-axloq, yuksak ma‘naviyat asosida tarbiyalashga intiladi. Oilada, ayniqsa ayolda ilm, axloq, tarbiya kuchli bo‘lsa, bu fazilatlar el-u yurt, millat va yosh avlodda chuqur tomir otadi. Farzandni har bir ota-ona zaminga, nasl-nasabiga munosib millat qilib tarbiyalashga intiladi. Ajdodlarimiz orzusi juda katta qiyinchilik va mashaqqatli mehnatlar evaziga amalga oshdi. Bunga javoban har bir nuri-diydamiz bo‘lgan o‘g‘il-qizlarimizni yaxshilik, sharqona odob-axloq, poklik, oriyat, adolatni hayot mezoni qilib olgan, millatimiz kelajagi bolalarimizni ongu tafakkuri, jismonan va aqlan, ruhan tetik va ma‘nan yetuk qilib tarbiyalash ham qarz ham farzdir. Bu esa jamiyat, oila oldidagi ota-onalik muqaddas vazifamiz, burchimizdir. Farzand tarbiyasida ayolning oqilaligi katta ahamiyatga ega. Har bir ayol o‘z hatti-harakati, xulq-odobini,

muomilasini nazorat va tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Toki farzandlar “Mening onam dunyodagi eng yaxshi ayol” - deya o‘z onasi bilan faxrlana olsin.

O‘zbek xalqining ming yillar davomida qon-qoniga singib ketgan qadriyatlar, qarindoshlik tuyg‘ularini yuzaga chiqarish, ota-bobolarning ma’naviy meroslarini o‘rganish, har qanday qiyinchiliklarni sabr-toqat bilan yengish, bobolar nasihatlarini yurakka singdirish orqali eng yaxshi fazilatlar, odamiylik xislatlarini yuzaga chiqarilgan. Bunday momomeros qadriyatlar asosida tarbiyalangan farzandlar o‘z umri davomida uchraydigan qiyinchiliklarni osonlikcha yengib o‘ta oladi. Bolalikdan tartib-intizomga o‘rgangan inson umrining oxirigacha unga qat’iy rioya qiladi. Bu esa uning jamiyatda munosib o‘rin egallashiga, kishilar o‘rtasida hurmat-e’tibor qozonishiga, kundalik yumush va ishlarini to‘la-to‘kis bajarishiga yordam beradi. Bunda ham oilada ota-ona shaxsiy ibrat bo‘la oladi. Ota-ona bolaning yarim baxti. Bola doimo ularga taqlid qilib yashaydi. Ota-ona ahil bo‘lib hayot kechirsalar, o‘z do‘st-qadrdonlari bilan izzat-hurmatda bo‘lsalar, ulardan o‘rnak olgan bola ham atrofdagilar bilan xushmuomilada, ochiq chehralik bilan muomilada bo‘ladi, insonni hayotning eng yuksak qadriyati deb biladi. Bu kelajakda uning oilaviy baxtiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Oilaviy tartib bolada tejamkorlikni tarbiyalashda eng yaxshi tarbiyachidir. Ota-onalarning iqtisodiy tarbiyadagi shaxsiy ibrati bolalarda mehnatsevarlik, tejamkorlik, uyushqoqlikni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Farzandlar kamoloti ota-ona qo‘lida, ota oilada ustun, g‘amxo‘r, mehribon murabbiy, ammo farzandini bag‘riga bosib muruvvat-mehri, qalb nuri bilan yuksaklikka yetaklovchi muqaddas zot bo‘lish onalarga xosdir. Buning uchun esa har bir ayoldan aql, ilm, bilim, mehnatsevarlik, tadbirkorlik, uddaburonlik, ziyraklik, sabr-matonat, mustahkam iroda va hayot tajribasidan zaruriy saboq chiqara olish qobiliyatini talab qiladi.

Xulosamiz o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tmoqchimizki, bolaning tabiati va ruhiyati ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar asosida shakllanadi. Tarixga nazar tashlasak, buyuk bobokalonimiz Amir Temurni dunyoga keltirib, shu darajaga yetkazgan Takinabegimning, bobomizni suyuqli nabirasi Mirzo Ulug‘bekning buyuk shaxs bo‘lib

shakllanishiga Bibixonimning hissasi naqadar katta ekanligini yaxshi bilamiz. “Qarisi bor uyning parisi bor” degan gap bejiz aytilmagan. Xulosa qilib, “Yaxshi oila barcha yaxshiliklarga onadir” - deymiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Igor de Rachewiltz va Volker Rybatzki . Xung Chin Introduction to Altaic Philology 2013/ p. 46
2. Pedagogika tarixi (I.Xoshimov) T., 2001.76-bet..
3. Bulatov Z, Ustozning shaxsiy va kasbiy fazilatlari “Xalq ta’limi”, 2012. 2-son, 64-67-bet



## O‘ZBEK TILI UCHUN TARJIMA TEXNOLOGIYASINI AVTOMATLASHTIRISHNING LINGVISTIK ASOSLARI

**Shamsiyeva Gulshoda Asliddin qizi**

O‘zbekiston Milliy universiteti, 1-kurs magistranti

[gulshoda.xayrullayeva.98@mail.ru](mailto:gulshoda.xayrullayeva.98@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi ilmiy va rasmiy matnlarni tarjima qila oladigan mashina tarjima texnologiyasini yaratishning lingvistik asoslari tahlil qilingan. Bunday tarjima dasturining yaratilishi ilmiy va rasmiy matnlarni tarjima qilishdagi muammo va kamchiliklarni bartaraf etadi va ilmiy izlanish olib boruvchilar uchun katta qulaylik yaratadi. Maqolada avtomat tarjima texnologiyasini yaratishda ijobiy natijaga erishish uchun bir qancha takliflar ham berib o‘tilgan. Shuningdek, “Google Translate” tarjima dasturi haqida ham to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, uning yutuq va kamchiliklari ko‘rsatib berilgan. Mashina tarjima uchun zarur bo‘lgan gap modellari haqida ham to‘xtalangan bo‘lib, bu borada qilingan tadqiqot ishlari tahlilga tortilgan. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi ilmiy izlanishlar yo‘lida keng imkoniyat yaratish uchun terminologik parallel korpuslar asosida ilmiy va rasmiy matnlarni (o‘zbek va ingliz tilida) tarjima qiladigan mashina tarjima texnologiyasining lingvistik asoslarini tahlil qilishdan iborat.

**Kalit so‘zlar:** Mashina tarjima, Parallel korpus, Morfoanalizator, Sintaktik analizator, Tarjima lug‘atlar, gap modellari, Modellashtirish.

### ANNOTATION

This article analyzes the linguistic basis of the development of machine translation technology that can translate scientific and official texts in Uzbek and English. The creation of such a translation program eliminates the problems and shortcomings in the translation of scientific and official texts and creates great convenience for researchers.



The article also offers a number of suggestions for achieving positive results in the development of automatic translation technology. Google Translate translation program was also mentioned its advantages and disadvantages. The models of speech required for machine translation were also discussed, and research work in this area was analyzed. The main purpose of our research is to analyze the linguistic basis of machine translation technology, which translates scientific and official texts (in Uzbek and English) on the basis of terminological parallel corpus to create a wide range of opportunities for scientific research.

**Key words:** Machine Translation, Parallel Corpus, Morphoanalyzer, Syntactic Analyzer, Translation Dictionaries, Speech Models, Modeling.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются лингвистические основы развития технологий машинного перевода, которые могут переводить научные и официальные тексты на узбекский и английский языки. Создание такой программы-переводчика устраняет проблемы и недостатки при переводе научных и официальных текстов и создает большие удобства для исследователей. Также в статье предлагается ряд предложений по достижению положительных результатов в развитии технологии автоматического перевода. Также была упомянута программа-переводчик Google Translate, ее преимущества и недостатки. Также обсуждались модели речи, необходимые для машинного перевода, и анализировались исследовательские работы в этой области. Основной целью нашего исследования является анализ лингвистических основ технологии машинного перевода, которая переводит научные и официальные тексты (на узбекский и английский языки) на основе терминологического параллельного корпуса для создания широких возможностей для научных исследований.

**Ключевые слова:** Машинный перевод, параллельный корпус, морфоанализатор, синтаксический анализатор, переводческие словари, модели речи, моделирование.

Buginga qadar mashina tarjimasi sohasida bir qancha olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. N. Abduraxmonova “Mashina tarjimasining lingvistik ta’minoti” nomli monografiyasi A.But, R. Richans, J. Xatchins, P. Braun (AQSh); G.G.Belonogov, J.Allen, Z.Shalyapina, N.D. Andreev, I.A. Melchuk, V.Yu. Rozensveyg, Yu.N. Marchuk, R.G. Piotrovskiy, Yu.A. Motorin, K.B. Bektaev, A.N. Belyaev, I.K. Belskiy, A.V. Zubov, G.E. Miram, L.L. Nelyubin, V.I. Perebiynos, V.A. Chijakovskiy, Ye.A.Shingarev, R.G.Kotov, Babushkina N.V, O.Yu. Mansurova, A.S. Panina, A.A. Xoroshilov (Rossiya); M. Nagao (Yaponiya); A.Vaxer (Estoniya); Fransiyada J.Astrouni; R.Sinha, A.Jain (Hindiston); B.Bleyzer, U.Shvol, A.Storrer (Germaniya) singari tadqiqotchilarning ishlarini sana o’tadi.<sup>78</sup> Massachusetts Texnologiya Institutining olimi Philipp Koehn “Pharaoh” (“Fir’avn”) mashina tarjimasi mexanizmi orqali frazalarga asoslangan statistic mashina tarjimasi modellarini tavsiflab beradi.<sup>79</sup>

XVIII asrda faylasuflar G. V. Leybnis va Deskart jumla va so‘zlarning o‘zaro bog‘liqligini kodlash nazariyasini fanga olib kirishadi. Mashinaning tarjima qila olish imkoniyati haqidagi g‘oyani Ch. Bebbidj (1791-1871) 1836-1848 yillarda o‘sha davrdan 100 yil keyin paydo bo‘lgan elektron raqamli mashinalarning mexanik prototipi - raqamli analitik mashinalar bo‘yicha olib borgan loyihasida qayd etgan. XX asrning 30 yillarida “tarjimon mashinalar” amalda qo‘llanilgan bo‘lsa, Estoniyada mexanik tarjimini ro‘yobga chiqarishda A.Vaxerning nazariy qarashlari “Vaba Maa” nomli ro‘znomada e’lon qilindi (1924). Fransiyada J.Astrouni tomonidan avtomatik bilingval lug‘atlardan foydalanish taklif etilib, u “Mexanik miya” deb nomlangan

<sup>78</sup>Abduraxmonova, N. Z. “Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) ildis. aftoref.” (2018).

<sup>79</sup> Philipp Koehn. A Beam Search Decoder for Phrase-Based Statistical Machine Translation Models. Machine Translation: From Real Users to Research 6<sup>th</sup> Conference of the Association for Machine Translation in the Americas, AMTA 2004. Washington, DC, USA, September/October 2004

mashina tarjimasi ishlanmasi uchun patentga ega bo‘ldi. 1933 yilda Rossiyada lingvistik arifmometr muallifi P.P.Smirnov Troyanskiy tomonidan esperanto tili asosida tillar o‘rtasidagi grammatik boshqaruv usuli bilan taqsimlash metodi va bilingual lug‘atni o‘z ichiga oluvchi tizim yaratildi.<sup>80</sup> Mashina tarjimasi sohasida birinchi ilmiy-amaliy konferensiya 1952-yilda Massachutes texnika universitetida o‘tkaziladi va 1954-yilda NyuYorkdagi Jorjtaun universiteti bilan IBM kompaniyasi hamkorligida birinchi IBM II rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilishga mo‘ljallangan mashina tarjimasi dasturi yaratiladi. Bu dastur L.Dorster rahbarligida o‘tkazilib, kimyo sohasi doirasida 250 ta leksik birlik hamda 6 ta grammatik qoidalar bilan chegaralangan edi. (“Dorster tajribasi” yoki “Jorjtaun sinovi”). Turkiy tillar bo‘yicha ilk mashina tarjimasi ham 1961-yilda Dorster boshchiligida amalga oshirilgan. Ingliz-turk tili mashina tarjimasi tizimida 700 ta so‘zshakldan iborat bo‘lib, lug‘at turk tili hamda ingliz tilidagi ekvivalentliklarining asos va suffikslari ro‘yxatidan iborat bo‘lgan.<sup>81</sup>

O‘zbek tili uchun mashina tarjimasiga doir deyarli fundamental izlanish olib borilmagan edi. N. Abduraxmonova “Mashina tarjimasining lingvistik ta‘minoti” monografiyasida M.Xakimov ishlarida kengaytirilgan matematik modelga asoslanilgan mashina tarjimasi texnologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilganligi, biroq o‘zbek tilidagi ma‘lumotlarning yetarli emasligi yaratiladigan dasturiy ta‘minotlarga ta‘sir ko‘rsatganligi, shuningdek S.Muhamedov R.R.Piotrovskiy bilan hammualliflikda yozgan “Injenernaya lingvistika i opyt sistemno-statisticheskogo issledovaniya uzbekskix tekstov” nomli kitobida lingvistik modellar, modellashtirish va uning umumiy tamoyillari haqida fikr yuritilib, o‘zbekcha matnlarning kvantativ modellari keltirilganligini qayd etib o‘tgan.<sup>82</sup> Nilufar


<sup>80</sup> Abduraxmonova, N. Z. “Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) ildis. aftoref.” (2018).

<sup>81</sup> Abduraxmonova, N. Z. “Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) ildis. aftoref.” (2018).// М.Г.Мамедова, З.Ю.Мамедова Машинный перевод: эволюция и основные аспекты моделирования. – Баку, 2005. – С. 34.

<sup>82</sup> Abduraxmonova, N. Z. “Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) ildis. aftoref.” (2018). // Мухамедов С.А., Пиотровский Г.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно – статистического исследования узбекских текстов. –Т.: Фан, 1986; Махмудов М.А., Пиотровская А.А., Садыков Т. Система машинного анализа и

Abduraxmonova tomonidan “Inglizcha matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta’minoti (sodda gaplar misolida)” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan (2018) dissertatsiyasida o‘zbek tilining lingvistik modellari, sintaktik strukturalar orqali tarjima qilish, qolaversa, transfer usuli qardosh bo‘lmagan tillar uchun mos ekanligi ilmiy jihatdan o‘rganilgan.<sup>83</sup>

Yuqorida aytib o‘tilgan tadqiqotlarga qaramasdan o‘zbek tilining avtomatik tarjima dasturi mavjud emas. Bir tildagi matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish uchun “Google Translation” dasturidan keng foydalaniladi. Bu dastur bir qancha qulayliklarga ega bo‘lish bilan birga, tarjimada xatoliklar ham uchraydi. Bu, ayniqsa, ilmiy va rasmiy matnlar tarjimasida ko‘p kuzatiladi. Misol tariqasida Philipp Koehnning “**A Beam Search Decoder for Phrase-Based Statistical Machine Translation Models**” maqolasidan parcha tarjima qilib ko‘rdik va dastur bizga quyidagi natijani berdi:



синтеза тюркской словоформы // Переработка текста методами инженерной лингвистики. –Минск, 1982.

<sup>83</sup>Abduraxmonova, N. Z. “Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) ildis. aftoref.” (2018).

Recombining Hypotheses — Recombining hypothesis is a **risk-free way** to reduce the search space. Two hypotheses can be recombined if they agree in (i) the foreign words covered so far, (ii) the last two English words generated, and (iii) the end of the last foreign phrase covered. If there are two paths that lead to two hypotheses that agree in these properties, we keep only **the cheaper hypothesis**, e.g., the one with the least cost so far. The other hypothesis cannot be part of the path to the best translation, and we can **safely discard** it. We do keep a record of the **additional arc** for **lattice generation**.

Gipotezalarni qayta birlashtirish - Gipotezani qayta birlashtirish qidiruv maydonini qisqartirishning **xavf-xatarsiz** usulidir. Ikkita gipoteza, agar ular (i) hozirgacha yoritilgan xorijiy soʻzlar, (ii) yaratilgan soʻnggi ikkita inglizcha soʻz va (iii) oxirgi chet el iborasining oxirida mos kelsa, qayta birlashtirilishi mumkin. Agar ushbu xususiyatlarga mos keladigan ikkita farazga olib keladigan ikkita yoʻl mavjud boʻlsa, biz faqat **arzonroq gipotezani**, masalan, hozirgacha eng **kam xarajatli gipotezani** saqlab qolamiz. Boshqa faraz eng yaxshi tarjima yoʻlining bir qismi boʻlishi mumkin emas, va biz uni **xavfsiz tashlab yuborishimiz** mumkin. Biz **panjara hosil qilish uchun** qoʻshimcha **yoyni** qayd qilamiz.

Tarjima natijasida koʻrinib turibdiki, ayrim soʻzlar va terminlar matn maʼnosiga va gap mazmuniga toʻgʻri kelmaydigan holda tarjima qilinyapti. Bu esa kontekstdagi maʼnoning anglashilmasligiga olib keladi. Buning asosiy sabablaridan biri “Google Translate” dasturida oʻzbek tili maʼlumotlar bazasining toʻliq emasligidadir.

Philipp Koehn tavsiflab bergan statistik mashina tarjimasi modellarini va “Google Translate” ni analiz qilgan holda Oʻzbek tilshunosligida ilk bor korpusga asoslangan mashina tarjimasi texnologiyasini joriy etmoqchimiz. Buning uchun bizga katta hajmdagi korpus kerak boʻladi. Buning uchun Nilufar Abduraxmonova rahbarligida yaratilgan <https://uzbekcorpus.uz/> dan foydalanish maqsadga muvofiq deb topdik. Bizning asosiy maqsadimiz terminologik parallel korpuslar asosida ilmiy va rasmiy matnlarni tarjima qiladigan avtomatik mashina tarjima dasturini yaratishdir.

Matnlarni terminologik, struktur, morfologik, sintaktik tomondan to‘g‘ri tarjima qiladigan avtomat tarjima dasturi texnologiyasini yaratish uchun katta hajmdagi korpus bilan bir qatorda quyidagilar kerak bo‘ladi:

1. Parallel korpus
2. Morfo analizator
3. Sintaktik analizator
4. Tarjima lug‘atlar

Tarjima dasturi to‘g‘ri ishlashi uchun matnlarni o‘xshashlik jihatidan ehtimollilik modellarini yaratib chiqishimiz zarur bo‘ladi. Modellashtirishning quyidagi turlari mavjud:

- So‘z asosida modellashtirish, ya‘ni so‘z segmentlari bo‘yicha muqobil variantlarni yaratish;
- So‘z birikmalari yoki frazalar bo‘yicha muqobillashtirish;
- Gaplarni o‘zaro muqobillashtirish.

Avvalo, yaratilayotgan mashina tarjimasi uchun taxminan nechta gap modeli kerak bo‘lishini aniqlab olish lozim. O‘zbek tilshunosligida gap modellari bir qancha olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, xususan, Nilufar Abduraxmonova aynan tarjima dastur uchun ingliz va o‘zbek tillaridagi gap modellarini tadqiq etish maqsadida mashina tarjimasi nazariyasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan va “Mashina tarjimasining lingvistik ta‘minoti” nomli monografiyasining to‘rtinchi bobini aynan mashina tarjimasi tizimida gap modellarini yaratish nazariyasiga bag‘ishlagan.<sup>84</sup> Monografiyada 50 dan ortiq o‘zbek-ingliz tillaridagi gap modellari keltirilgan bo‘lib, ular ingliz tilidagi ot kesimli sodda gap va fe‘l kesimli sodda gap modellari, shuningdek, inglizcha matnlardagi ega va kesim moslashuvining o‘zbek tilidagi modellari hisoblanadi. Tadqiqot ishida kesimi o‘timisiz fe‘ldan iborat bo‘lgan asosiy gap modellarining 10 ta, kesimi yordamchi fe‘l bilan hosil bo‘lgan asosiy gap modellarining 14 ta, kesimi o‘timli fe‘l bo‘lgan asosiy gap modellarining 13ta, *to be*

---

<sup>84</sup> Abduraxmonova, N. Z. “Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) ildis. aftoref.” (2018).

yordamchi fe’li ishtirok etadigan gap shakllarining 20 dan ortiq turi ko’rsatib berilgan. Mashina tarjimasi to’g’ri ishlashi uchun qo’shma gap modellari ham kerak bo’ladi. Ingliz va o’zbek tillaridagi qo’shma gap modellarini avtomatik tarjima uchun ishlab chiqish oldimizda turgan vazifalardan biri bo’lib hisoblanadi.

Mashina tarjimasi uchun matn so’zlarni mazmuniy birliklarga ajratib chiqish muhim bosqich sananladi. Biz WordFast texnologiyasida sigmentatsiya jarayonini amalga oshiramiz. Bunda tadqiqot obyektimiz o’zbek va ingliz tillaridagi avtorefetlar bo’ladi.

O’zbek-ingliz tillaridagi ilmiy va rasmiy matnlarni to’g’ri tarjima qila oladigan mashina tarjimasi texnologiyasini yaratish o’zbek olimlar, umuman, ilmiy tadqiqot ishini olib boruvchilar uchun keng imkoniyat yaratadi. Yuqoridagilarni hisobga olib, “Google Translate” tarjima dasturining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilgan holda o’z tadqiqot ishimizda ilmiy terminlar va ilmiy matnlar bazasini kengaytirib, ilmiy parallel matnlarni to’ldirish hisobiga boyitib o’zbek tilshunosligida ilk bor mashin atrjimasi texnologiyasini yaratishni maqsad qildik.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aripov, M., Sharipbay, A., Abdurakhmonova, N., Razakhova B.: Ontology of grammar rules as example of noun of Uzbek and Kazakh languages. In: Abstract of the VII International Conference “Modern Problems of Applied Mathematics and Information Technology -Al-Khorezmiy 2018”, pp. 37–38, Tashkent, Uzbekistan (2018)
2. Abduraxmonova, N. Z. “Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) ildis. aftoref.” (2018).
3. Abdurakhmonova N. The bases of automatic morphological analysis for machine translation. Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta. 2016;2 (38):12-7.

4. Abdurakhmonova N, Tuliyeu U. Morphological analysis by finite state transducer for Uzbek-English machine translation/Foreign Philology: Language. Literature, Education. 2018(3):68.
5. Abdurakhmonova N, Urdishev K. Corpus based teaching Uzbek as a foreign language. Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics (J-FLTAL). 2019;6(1-2019):131-7.
6. Abdurakhmonov N. Modeling Analytic Forms of Verb in Uzbek as Stage of Morphological Analysis in Machine Translation. Journal of Social Sciences and Humanities Research. 2017;5(03):89-100.
7. Abdurakhmonova N. Dependency parsing based on Uzbek Corpus. In Proceedings of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All) 2019.
8. A. Ismailov, M. M. A. Jalil, Z. Abdullah and N. H. A. Rahim, "A comparative study of stemming algorithms for use with the Uzbek language," 2016 " 3rd International Conference on Computer and Information Sciences (ICCOINS), 2016, pp. 7-12, doi: 10.1109/ICCOINS.2016.7783180.
9. Philipp Koehn. A Beam Search Decoder for Phrase-Based Statistical Machine Translation Models. Machine Translation: From Real Users to Research 6<sup>th</sup> Conference of the Association for Machine Translation in the Americas, AMTA 2004. Washington, DC, USA, September/October 2004
10. Jalil, Masita & Ismailov, Alisher & Abd Rahim, Noor Hafhizah & Abdullah, Zailani. (2017). The Development of the Uzbek Stemming Algorithm. Advanced Science Letters. 23. 4171-4174. 10.1166/asl.2017.8332



## YADRO ULOQTIRUVCHILARNING CHO‘ZILUVCHI MUSKULLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNI AHAMIYATI

**Jahongirov Shaxriyor Jahonjirivich**

Namangan davlat universiteti

Jismoniy madaniyat Jahonjirov fakulteti o‘qituvchisi

e-mail:[shaxriyorjahongirov@gmail.com](mailto:shaxriyorjahongirov@gmail.com)

**Annatatsiya :** Mazkur tezisdagi yengil atletakachilarni yozuvchi muskullari faoliyatini rivojlantirishda maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlari va ularni mashg‘ulot jarayonida qo‘llashga oid nazariy ma‘lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Uloqtirish texnikasi, uloqtirish texnikasining fazalari, yozuvchi muskullar, qisqaruvchi muskullar, o‘z holatini saqlovchi muskullar, maxsus jismoniy tayyorgarlik.

## ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ РАЗГИБАТЕЛЬНОЙ МЫШЕЧНОЙ АКТИВНОСТИ ПРИЛЕЖАЩЕГО ЯДРА

**Аннотация:** В тезис представлены теоретические сведения и практические рекомендации по специальным упражнениям физической подготовки и их применению в развитии мышц спортсменов.

**Ключевые слова:** Техника метания, фазы техники метания, пишущие мышцы, сокращающиеся мышцы, самоудерживающие мышцы, специальная физическая подготовка.

## THE IMPORTANCE OF DEVELOPING EXTENSOR MUSCLE ACTIVITY OF THE NUCLEUS ACCUMBENS

**Annotation:** This thesis contains theoretical information and practical recommendations for special physical training exercises and their use in the development of the muscles of athletes.

**Key words:** Throwing technique, phases of throwing technique, writing muscles, contracting muscles, self-maintaining muscles, special physical training.

**Ishning dolzarbligi:** Barchaga malumki butun dunyoda yengil atletika sporti orqali juda ko‘p vazifalar hal etiladi, chunki undagi yurish, yugurish, sakrash bilan bog‘liq sport turlari boshqa sportlarni umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik vositalari hisoblanadi. Manashunday yengil atletikaning bo‘limlaridan biri bo‘lgan uloqtirish bo‘limida ham barcha jismoniy sifatlar qatorida kuch jismoniy sifatini faol namoyon bo‘lishi ko‘rishimiz mumkin. Albatta kuch jismoniy sifatini rivojlantirish uloqtirishdagi natijani yaxshilanishiga kafolat bermaydi. Bunga sabablarni juda ham ko‘plab keltirish mumkin. Undan asosiysilari uloqtirish texnikasini yaxshi o‘zlashtirilmaganligi, maxsus jismoniy tayyorgarlikni yetishmovchiligi va sportchi muskul faoliyatiga moslab mashq berishga oid ayrim muammolar bor. Ushbu muammolarni hal etishda muskul faoliyatiga mos va to‘g‘ri maxsus mashqlarni tanlab qo‘llashni bilish dolzarb masala deb hisoblamoqdamiz.

Mazkur ish yuzasidan quyda tegishli maqsad va vazifalarni keltirdik.

**Ishning maqsadi:** Yadro uloqtirishda cho‘ziluvchi qo‘l muskullari faoliyatini rivojlantirishga oid maxsus mashqlari aniqlash.

**Ishning vazifalari:** 1) Kuch sifatini nomayon bo‘lish tartibi va uni rivojlantirish usullarini o‘rganish.

2) Muskullar va ularning faoliyatiga tegishli adabiyotlardagi ma‘lumotlarni o‘rganish va umumlashtirish.

Sportchi mushaklarining taranglashishi – zo‘riqishi (kuch namoyon qila olishi) quyidagi fiziologik jarayonlarga bog‘liq: 1) markazdan mushaklarga kelayotgan qo‘zg‘alishlarning chastotasi bilan bog‘liq (chastota qancha katta bo‘lsa, mushak shunchalik kuchli zo‘riqish namoyon qiladi va tarangligi oshadi) zo‘riqishlar.

2) zo‘riqishga qo‘shilgan harakat birliklarining soni bilan.

3) mushakning qo‘zg‘aluvchanligi va undagi quvvatning manbai, miqdori bilan bilan zo‘riqishlarning sifati, darajasi namoyon bo‘ladi.<sup>85</sup>

Mushak kuchini namoyon qilinishi (taranglashishi) **uch xil rejimda** amalga oshiriladi:

a) uzunligini o‘zgartirmagan holda mushak zo‘riqishi (statik, izometrik) rejimda namoyon qilishi orqali. Gavdani yoki uning ayrim bo‘laklarini turlicha holatlarda (pozalar)da ushlab uchun kuch namoyon qilish;

<sup>85</sup> Гончарова О.В. Болалар жисмоний сифатларини тарбиялаш. – Т., 2019. – б. 204.

b) mushak uzunligini qisqarishi hisobiga, bardosh berish – chidash bilan (miometrik) zo‘riqish namoyon qilish. Zo‘riqish birday turadi– o‘zgarmaydi, bunday rejim siklik va balastik harakatlardagi muskul qisqarishi fazalari evaziga sodir bo‘ladi;

v) mushakning cho‘zilishi, uning uzayishi hisobiga (yon berish, bo‘sh kelish-pliometrik) kuch yuzaga keladi. O‘tirib turish, uloqtirish, depsinishda muskul qisqarishi orqali shu kuch namoyon bo‘ladi. Bardosh berish bilan, yon berish, bo‘shashtirish bilan kuch namoyon qilishni *d i n a m i k r e j i m d a g i k u c h*, deb atash qabul qilingan. <sup>86</sup> Turli sharoitda maksimal kuchning ko‘lami turlicha. Qayd qilingan kuch namoyon qilishning xillarini kuch qobiliyatining klassifikasiyasi sifatida qabul qilingan.


Kuch qobiliyatining turlari mushak zo‘riqishi tartibining kombinasiyalashtira olish xarakteriga qarab farqlanadi. Statik rejimda va sekinlashtirilgan harakatlarda namoyon bo‘ladigan shaxsiy-kuch qobiliyatlari va tezlik-kuchi hisobiga sodir bo‘ladigan kuch - dinamik kuchdan, tez bajariladigan harakatlar uchun foydalaniladi. Boshqachasiga buni shiddat (portlash) kuchi deb ham ataladi. “Portlash kuchi”ga qisqa vaqt ichida eng katta kuch namoyon qila olish qobiliyat deb qaraladi. “Portlash kuchi” uloqtiruvchilarning uloqtirish tarzida namoyon bo‘ladi. Mushakning o‘ta zo‘riqishini optimal yo‘nalishi. Mushak kuchi belgilangan faoliyatning yo‘nalishiga iloji boricha yaqinlashtirilishi, moslashtirilishi lozim.

Masalan, Yadro uloqtirishda zo‘r berib tanaga tezlik berishimiz mumkin, lekin bu tezlik yadro uloqtirishdagi final kuch sarflash bilan moslanmasa, sarflangan kuch samarasiz bo‘ladi. Yadro mo‘ljallangan troyektoriyada uchmasligi mumkin.

Mazkur muskul faoliyatini rivojlantirish orqali biz portlovchi kuch sifatini yuksaltirishimiz mumkin. Bunga erishishda ushbu muskul uchun muskul kuchini o‘stiruvchi maxsus mashq talab e‘tiladi. Ko‘p hollarda kuch sifatini tarbiyalashda ikki xil yo‘nalishda mashq beriladi. 1) O‘z vazni evaziga yuzaga keladiqan qarshilik bilan kechadigan mashqlar.

<sup>86</sup> A.Abdullayev “Jismoniy madsaniyat nazaryasi va metodikasi” darslik farg‘ona 2016 yil.

2) Tashqi tasir qarshiligini yengish bilan bajariladigan mashqlar (ogirlik, to‘siq, rezina) hisoblanadi.



Muskul cho‘zilishi bilan kechadigan harakatlarni rivojlantirishda nisbatan yon beruvchi qarshilik eng qulay vosita bo‘ladi deb hisoblamoqdamiz. Buni amalga oshirishda ulotiruvchi atlet umumiy jismoniy tayyorgarlik mashqlaridan so‘ng maxsus jismoniy tayyorgarlik sifatida rezina qarshiligini yengish bilan amalga oshiriladigan mashqlar undagi muskullarni hajman hamda sifat jihatdan rivojlanishiga sababchi bo‘ladi. Ushbu mashni bir mikro siklda 1,5-2 soat davomida takrorlash sportchini cho‘zilish evaziga amalga oshadigan kuch jismoniy sifatini yaxshilaydi. Natijada ulotiruvchining portvovchi kuch bilan boshg‘liq bo‘lgan texnikalarni oson va samarali yakunlaydi.

### **Xulosa**

Sportchini tayyorlash jarayoni ko‘p yillik bo‘lib uni amalga oshirishda sportchilarni jismoniy holatiga to‘g‘ri baxo bera olish va undagi yetishmovchilikni aniqlab mashq tanlashimiz zarur. Bundan tashqari berilayomashqlarni muskul faoliyati

bilan bog‘liqligini inobatga olinadi. Yuqoridagi ma`lumotlardan kelib chiqib sportchilarni tayyorlashda biz ularning tayanch harakat apparati muskullari faoliyatini yaxshi bilishimiz va ularni rivojlantirishga doir uslub hamda jismoniy tayyorgarlik turlarini ajratib mos holatda qo‘llay olishimiz zarur shartlardan biri hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

6. M. J. Abdullayev, M. S. Olimov, N. T. To‘xtaboyev Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi darslik.- T. 2017. -625.b
7. F.A.Kerimov ” Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar”. Toshkent. ”Zar qalam” - 2004.-447.b.
8. R.S.Salomov. Jismoniy tarbiya nazaryasi va metodikasi. Darslik –Toshkent 2014-yil 284 b
9. Гончарова О.В. Болалар жисмоний сифатларини тарбиялаш. – Т., 2019. – б. 204.
10. Морфология человека, под. ред. Б.А.Никитюк и В.П.Чтецова, уч. пос., 2-е изд., издательство МГУ, 1990, 67-68 стр.
11. Q T. Arabboyev “O‘quv uslubiy majmua” QDPI 2021-2022 yil.



## TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Haqberdiyeva Yodgora**

Navoiy viloyati  
Konimex tumani 16-maktab  
huquq fani o'qituvchisi

**Jabborova Orzigul**

matematika-informatika fani  
o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar va ulardan ta'limda samarali, bosqichma-bosqich foydalanish, pedagogik texnologiyalarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi ahamiyati haqida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Innovatsion pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, yangi pedagogik dars usullari, axborot texnologiyalari

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy unsurlaridan biri bu, shubxasiz, yangicha, ya'ni innovatsion pedagogik texnologiyalardir. Ushbu pedagogik texnologiyalar orqali dars jarayonlarining olib borilishi yoki tashkil etilishi o'quvchilarning ham erkin, ham yangicha fikrlashlariga katta yo'l ochib berish uchun xizmat qiladi.

Innovatsiyalar yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlar, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar ishlab chiqiladi.

Texnologiya so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ushbu so'z yunonchadan olingan bo'lib, "tehnos"-mahorat, san'at "logos" -ta'limot, fan ma'nolarini

anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, texnologiya so‘zi boshqa terminlarga qo‘shilib, ana shu sohani rivojlantirish, mahoratini oshirish vazifalarini bajaradi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari uchta asosiy komponentga asoslanadi:

1. Zamonaviy, yaxshi qurilgan tarkib, uning asosi tadbirkorlik faoliyatining hozirgi voqeligiga javob beradigan kasbiy faoliyatdagi vakolatlardir. mazmuni zamonaviy aloqa vositalari orqali uzatiladigan turli multimedia materiallarini o‘z ichiga oladi.

2. O‘qitishda zamonaviy, innovatsion usullarni qo‘llash. Bunday usullar bo‘lajak mutaxassisning kompetensiyalarini shakllantirishga, o‘quvchilarni faol o‘quv va amaliy faoliyatga jalb etishga, o‘quv jarayonida tashabbus ko‘rsatishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. O‘quv dasturlarini passiv assimilyatsiya qilish istisno qilinadi.

3. Ta'lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi. U ta'limning yangi shakllari va usullarini, xususan, masofaviy ta'limni qo‘llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlariga asoslanishi kerak.

Ta'limda innovatsion texnologiyalar o‘qitishda muayyan yondashuvlarni qo‘llash asosida qo‘llaniladi, ya'ni. yangi texnologiyalarni rivojlantirish uchun asos bo‘lgan talablar va maqsadlarni o‘z ichiga olgan tamoyillar. Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga aniq mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtda ular o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o‘z-o‘zini o‘rganish va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o‘quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o‘zlashtirishga qaratilishi kerak. Maktab ta'limida turli xil pedagogik innovatsion usullar qo‘llaniladi

**Ta'lim jarayonidagi eng keng tarqalgan innovatsiyalar:**

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT);
- talabalarga yo‘naltirilgan ta'lim;
- dizayn va tadqiqot faoliyati;
- o‘yin texnologiyalari.

Kompyuterdan o‘quv jarayonining istalgan bosqichida foydalanish mumkin. Maktab o‘quvchilari asosiy dasturlar bilan ishlashga, elektron darslik va o‘quv qo‘llanmalari tufayli materialni o‘rganishga o‘rgatiladi. O‘qituvchi kompyuter va proyektor yordamida materialni taqdim etadi. Taqdimotlar, diagrammalar, audio va video fayllar aniqligi tufayli mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Slaydlar, diagrammalar, xotira kartalarini o‘z-o‘zidan yaratish bilimlarni shakllantirishga yordam beradi, bu esa yodlashda ham yordam beradi.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Innovatsion usullarda dars o‘tish jarayonini, ya’ni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni boshlang‘ich ta’lim davridan boshlab tashkillashtirish ta’lim tizimida yuqori samara beradi. Bu degani, boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’limning poydevori hisoblanadi. Ana shu poydevorni mustahkam tarzda bunyod etish kelgusi davrlardagi ta’lim jarayonlarining o‘tilishida ham qulayli yaratgan bo‘ladi. O‘z-o‘zidan kelib chiqadiki, boshlang‘ich ta’limdan boshlab tashkil etilgan pedagogik texnologiyalar ta’limning keyingi davrlarida tshkil etilishida birinchi bosqich vazifasini o‘taydi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Khodjamkulov, U., Botirova, S., Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 166-169.
2. Kholikova, N. (2020). Poetic Features of Uzbek Poetry of the National Awakening Period. *Theoretical & Applied Science*, (4), 615-623.
3. Makhmudov, K. (2020). Ways of Forming Intercultural Communication in Foreign Language Teaching. *Science and Education*, 1(4), 84-89.
4. Mukhamedov, G., Khodjamkulov, U., Shofkorov, A., & Makhmudov, K. (2020). Pedagogical Education Cluster: Content and Form. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 1(81), 250-257.



## THE USE OF EXERCISES AND ASSIGNMENTS TO IMPROVE STUDENTS' SPEAKING ACTIVITIES AT THE B2 LEVEL BASED ON A COMPETENCY-BASED APPROACH

**Yuldashova Umida Bakhtiyar qizi**

Tashkent institute of Finance

Senior teacher of

“Foreign languages” department

**Annotation:** The results of foreign language teaching are determined primarily through a system of exercises, because the practical goal of learning a foreign language, that is, the acquisition of all types of speech activities, is achieved through exercises. In this thesis, the opinions of scientists about the exercise system and examples from the exercise system are given.

**Key words:** foreign languages, exercises, teaching, system

The problem of creating a system of conditions for language training in the system of exercises is very important in practice and in theory. Its importance is determined by the fact that the practical methods of teaching foreign languages still do not have a sufficient, purposeful system of exercises. The more effective some types and types of exercises used in foreign language teaching are, the more likely it is that they will be completely successful in language teaching.

K.D. Ushinsky says that the fact that the exercises are in a certain system is the first and foremost feature of their successful application. Success in language teaching can only be achieved through an effective system of exercises. “Systematicity of exercise,” writes K.D. Ushinsky, is the first and most important foundation of success. “The importance of the system is that it ensures the organization of the learning process and the organization of the learning process. In terms of organizing the assimilation process, the exercise system should provide: a) select the necessary exercises that

correspond to the characteristics of a particular skill; b) determine the need for a sequence of exercises c) the location of the material and its proportions; d) regularity of certain materials and exercises; e) the correct interrelationship between the different types of speech activity and within itself.

So what is exercise? Exercise refers to individual or sequential operations or actions aimed at acquiring a particular activity or improving that activity in a training session. Exercise is a tool for teaching different types of speech activities, but not all actions are considered exercises. Exercise should always be goal-oriented, aimed at improving the way you move. Exercise should be adequate, develop skills, and achieve the set goal. Improving language skills is of course done through practical exercises. There are currently enough problems in shaping and improving the types of speech activities in an equal way, and to solve these problems it is necessary to abandon the existing exercises, add supplements or create a completely new system of exercises.

G.V.Perfilova [1] introduced language material on the specialty, to choose the most useful, easiest way to explain, to identify difficulties, to select, prepare, apply types of language exercises, to select, prepare, they demonstrate the ability to take, prepare types of speech exercises, set a lesson hour norm for teaching a clearly defined text to a student. Scholars have expressed differing views in their research on language teaching and their typology.

J.J. Jalolov [2] gave example that eaching language material (developing speech skills) in order to exemplify the following; 1) in a foreign language - vocabulary, grammar, pronunciation skills (in all educational institutions); skills and knowledge (theory) are given (as a specialty); 2) in the second language - skills and knowledge are provided (in all educational institutions); only skills are developed, no theory is given (in kindergartens, in some families); skills and in-depth theoretical knowledge are taught (in specialized educational institutions); 3) in the native language - knowledge and skills are provided (at school); skills are given (in the family, in kindergarten); skills and basic knowledge (in higher education); skills and theoretical knowledge (as a specialty).

A student wishing to study a foreign language will acquire the following knowledge, skills and competencies in the language studied.

I. Types of speech activities (4 main and 6 additional). II. Language materials (vocabulary, grammar, pronunciation). III. Linguistic knowledge (lexicology, grammar, phonetics). IV. Methods of teaching a foreign language

According to Ye.I. Passov [3], any exercise in its time has communicative linguistic and psychological properties. According to him, communicative exercises are divided into types of real communicative exercises and conditional communicative exercises. True communicative exercises occur in the process of communication, and conversely, conditional communicative exercises occur in the process of conditioned communication during training.

In his research, V.A.Buxbinder [4] divided types of exercises into informational, operational, and motivational.

S.F. Shatilov [5] divides speech activity into types according to types and purpose. The main goal of the lesson is to develop oral skills that will help teach reading. The main purpose of oral lessons is to help with reading. Combined reading and speaking lessons are taught on an equal footing. So in short, I. Peculiarities of foreign language teaching at the advanced level: 1. Age characteristics 2. Material size 3. Relationship of the main types of speech activities 4. The nature of working with speech skills and abilities 5. Learning conditions II. Main purpose: 1. Improving speech skills; 2. Enrich the individual speaking experience through the study of active language material; 3. To teach the use of dialogues and monologues in unprepared speech; III. Teaching to read: 1. The main type of reading, teaching to know the whole content. 2. Teach vocabulary reading by analyzing difficult places.

The results of foreign language teaching are determined primarily through a system of exercises, because the practical goal of learning a foreign language, that is, the acquisition of all types of speech activities, is achieved through exercises.

### USED LITERATURES

1. Perfilova G.V. Kompetentnostniy podxod i yego realizatsiya v sovremennom obrazovatelnom protsesse / G.V. Perfilova // Vestnik MGLU. – 2008. 196 str;
2. Jalolov.J.J. “Chet tili o‘qitish metodikasi” Chet tillar oliy o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik, “O‘qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2012-432 bb;
3. Passov Ye.I. Programma-konsepsiya kommunikativnogo inoyazichnogo obrazovaniya. Konsepsiya razvitiya individualnosti v dialoge kultur. M., 2000.
4. Buxbinder V. A. O sisteme uprajneniy // Obщaya metodika obucheniya inostrannim yazikam: xrestomatiya. M.: Russkiy yazik, 1979. S. 92-99.
5. S.F. Shatilov Metodika obucheniya nemetskomu yaziku v sredney shkole: ucheb. posobiye. 2-ye izd., dorab. M.: Prosveshyeniye, 1986. 222 s.



## O‘ZBEK VA FORS TILLARIDA SIFAT DARAJALARINING QO‘LLANILISHI

**Tillayeva Xurshidaxon Avazekovna**

Farg‘ona viloyati Quva tumani 13- umumiy o‘rta ta’lim  
maktabining ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari

**Botirova Ziyodaxon Azamjon qizi**

Email: [ziyodabotirova@mail.ru](mailto:ziyodabotirova@mail.ru)

**Anotatsiya.** Ushbu maqola o‘zbek va fors tillarida sifat darajalari qay tartibda darajalashi korsatilgan. Qarindosh bo‘lmagan tillarda sifat darajalarini oxshash va farqli tomonlari korsatilgan.

**Kalit so‘zlar.** Sifat darajalari, kontrastiv, til oilasi, qarindosh til, leksika, grammatika, izofali, izofasiz.

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligi salmoqli darajada rivojlanib bormoqda. Natijada tilshunoslikda yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lmoqda. Shunday yo‘nalishlardan biri kontrastiv (chog‘ishtirma) tilshunoslikdir. Kontrastiv tilshunoslik til oilalariga mansub bo‘lgan tillarni qiyoslab o‘rganadi.

Bir-biriga yaqin, umumiy jihatlari ko‘p bo‘lgan tillar qarindosh, bir-biridan uzoq, umumiy jihatlari bo‘lmagan tillar esa qarindosh bo‘lmagan tillar hisoblanadi. Masalan, o‘zbek, hind. Qarindosh kishilar bir ajdoddan tarqalgani kabi, qarindosh tillar ham bir bobo tildan kelib chiqqandir.

### **Hind-Yevropa tillar oilasi:**

- a)slavyan(rus,ukrain,belarus,chex,slovak,polyak);
- b)german(ingliz,nemis,shved,norveg,island,golland);
- c)roman(fransuz,italyan,ispan,Portugal,rumin,moldavan);

d) boltiq (litva, latish);

e) eron (fors, tojik, afgʻon, osetin);

f) hind (hind, Bengal, panjob, urdu, gujarat)

Oʻzbek va fors tillarini qiyoslab oʻrganish biz tilshunoslarning oldiga katta vazifa qoʻyadi. Bu ikki til leksikasi, grammatikasi oʻziga xos xususiyatga egaligi bilan oʻrganish obyektini belgilaydi. Bunga bu ikki tilde qoʻllaniladigan sifat darajalarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Belgining ortiq yoki kamlik jihatdan farqlanishi sifat darajalari, ana shunday maʼno ifodalovchi shakllar esa daraja shakli deyiladi.<sup>87</sup>

Sifatlar belgini ifodalashiga koʻra uch darajaga ajratiladi:

a) oddiy b) ozaytirma c) orttirma<sup>88</sup>

Misollar:

**Bultur bahorda eshigimiz oldidagi gullarni sugʻoroyotgan edim, yap- yangi “Mosvkich” kelib toʻxtadi.** ( Oʻtkir Hoshimov asarlaridan)

**Hovli tor, devorlari baland, xuddi kattakon hovuzga oʻxshar, buning ham toʻrtidan birini ayvon egallagan edi** (Abdulla Qahhor)

**Usta qarigina, burni choʻtirroq, juda soʻzamol, mahmadona kishi.** ( Oybek)

Malik Abdusamatovning “Fors tili” darsligida sifat darajalariga quydagicha taʼrif berilgan:

“Da raja koʻrsatish sifatlarga xos xususiyat boʻlib, bu sifatlarni boshqa soʻz turkumlaridan ajratib koʻrsatadigan asosiy belgisidir.

Fors tilida sifatning uch darajasi mavjud: a) oddiy b) chogʻishtirma c) orttirma”

Masalan: -خوب- xub – yaxshi

بد – bad – yomon

بزرگ - boʻzorg- katta

Yuqorida keltirilgan خوب- xub – yaxshi, بد – bad – yomon, بزرگ - boʻzorg- katta forsha sifatning oddiy darajasidagi misollar boʻlib, huddi oʻzbek tilidagi oddiy daraja sifatlari bilan bir xil.

<sup>87</sup> N.Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov., 6-sinf ona tili. Toshkent; Maʼnaviyat 2007.

<sup>88</sup> A. Nurmonov. A. Sobirov. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Ilmi ziyo: 2013

O‘zbek tilida belgining ortiqligini, kuchliligini bildirgan sifatlar ortirma darajadagi sifatlar deyildi.<sup>3</sup> ortirma darajadagi sifatlar uch xil usul bilan yasaladi:

a) oddiy darajadagi sifatlarning birinchi bo‘g‘inidagi oxirgi undoshning m va p ga almashtirish bilan;

ko‘m- ko‘k, sap-sariq.

b) tarkibidagi birinchi unlini cho‘zish yo‘li bilan;

achchiq- a:chchiq, shirin- shi:rin.

c) sifat oldidan juda, g‘oyat, nihoyatda, behad so‘zlarini qo‘llash bilan; yaxshi - juda yaxshi.

Fors tilida esa orttirma daraja sifatlari oddiy daraja sifatiga تارین tarin affiksini qo‘shish bilan yasaladi.<sup>4</sup>

Misollar; بزرگ - bo‘zorg- katta بزرگترین – bo‘zorgtarin- eng katta

بد –bad –yomon بدترین - badtarin- eng yomon

Orttirma darajadagi sifatdan so‘ng kelgan so‘z ko‘plik shaklida kelsa, ikki xil o‘qilishi va ikki ma`no bildirishi.<sup>5</sup> masalan,

ها فشنگ ترین هتل ها -qashangtarin hotelho- eng chiroyli mehmonxonalar

ها فشنگ ترین هتل ها -qashangtarin-e hotelho- Mehmonxonalarining eng chiroylisi

Fors tilida orttirma darajadagi sifatni izofali yoki izofasiz o‘qish katta ahamiyatga ega. Yuqoridagi ikki gap ma`no jihatda farq qiladi. Birinchi gapda (orttirma darjadagi sifat izofasiz o‘qilsa) bir jinsdagi predmetni eng yuqorisifati haqida xabar berilsa, ikkichi gapda esa yuqori sifatga ega bo‘lgan shu jinsdagi predmetlardan biri ajratib ko‘rsatilganligi haqida bayon qiladi.

O‘zbek tilida sifatning orttirma darajasini yasashda yuqoridagi holat kuzatilmaydi.

O‘zbek tilidan farqli o‘laroq fors tilida o‘zak o‘zgarishi bilan hosil qilinadigan sifatlar bor. -خوب-xub – yaxshi sifatidan chog‘ishtirma va orttirma darajalar bu so‘zning ekvivalenti bo‘lmish به beh so‘zidan hosil bo‘ladi.

Masalan,

-خوب-xub – yaxshi, بهتر -behtar-yaxshiroq, بهترین-behtarin- eng yaxshi

Yuqoridagi misoldan ko‘rinib turibdiki, fors tilida sifatlar darajalanayotganda o‘zak o‘zgarishi bilan ham hosil bo‘ladi. — خوب so‘zi oddiy darajadagi sifat, chog‘ishtirma yoki orttirma darajadagi sifat yasaydigan bo‘lsa, به beh so‘ziga تر tar, ترين tarin affikslarini qo‘shish bilan yasaladi.

Bundan ko‘rinadiki, o‘zbek va fors tillarida sifat darajalarining turlari bir xil ammo, orttirma darajadagi sifat va o‘zak o‘zgarishi bilan hosil qilinadigan sifatlar bilan farqli tomonlari bor. Shuning uchun bu tillardagi sifat darajalarini leksik va morfemik tasniflash, shuningdek, ularni qiyosiy o‘rganish hali tadqiq qilinishi kerak bo‘lgan masaladir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. T., O‘qituvchi, 1992.
2. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. T., O‘qituvchi, 1978.
3. Mirzayev M. va boshqalar. O‘zbek tili. T., 1978. –B.17-26.
4. Mirtojiyev M. O‘zbek tilida polisemiya. Toshkent, 1975.
5. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A .Sobirova 6- sinf ona tili. Toshkent,. Ma’naviyat 2013.
6. A.Sobirova. A.Nurminov,. Hozirgi o‘zbek tili. Ilmi ziyo;2013
7. Malik Abdusamatov. Fors tili darslik,. Sharq. 2013.



## TOPONIMLARNI O‘RGANISH JARAYONIDAGI LINGVODIDAKTIK MUAMMOLAR VA ULARNING MUQOBIL YECHIMI

**Xalilova Zarnigor Muhammadjon qizi**

Farg‘ona davlat universiteti

Ingliz tili o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqola ingliz va o‘zbek tillaridagi toponimlarning o‘rganishda duch kelinadigan muammolarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda toponimlarni o‘rganilish muammolari va ularning muqobil yechimi haqida ma‘lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** toponimema, lingvodidaktika, fonetik transkripsiya.

Ingliz tili darslarida toponimlarni o‘qitish jarayonida bir qancha muammolarga duch kelishimiz muqarrar. Bu muammoning o‘ziga xos bir qancha sabablari mavjud:

- Barcha ingliz tili – o‘zbek tili lug‘atlarida toponimlarning tarjimalari, tub ma‘nolari haqida batafsil ma‘lumot berilmagan;

- Ingliz tilidagi toponimlar ba‘zan o‘ziga xos grammatik qoidalarni o‘rganishni, istisnolarni eslab qolishni talab qiladi. Masalan: bir nechta davlatlar, xususan, Angliya, Italiya, Yangi Zelandiya, Braziliya “the” artiklini olmaydi. Xolbuki, Rossiya Federatsiyasi, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Niderlandiya doimo “the” artikli bilan keladi.

- Tarjima qilinadigan hamda tarjima qilinmaydigan toponimlarning mavjudligi o‘quvchilarni ba‘zi hollarda ikkilantirib qo‘yadi.

Odatda ismlar tarjima qilinmaydi. Geografik joylar, obyektlar nomi ham aslida ismlardir. Lekin jahon geografiyasi va xaritashunosligida ba‘zi bir xil nomlarni to‘liq, ba‘zilarini qisman tarjima qilish an‘anasi mavjud. Bunday an‘ana o‘zbek tiliga ham tadbiiq etildi va xalqaro tarjima qilinadigan geografik nomlar o‘zbekchaga tarjima qilib yoziladi.

Shuningdek, bir qancha xalqlar yashaydigan hududlarga tegishli yirik geografik obyektlar nomlari, obyektning tabiiy xususiyatiga bog‘liq holda paydo bo‘lgan geografik nomlar to‘liq tarjima qilinadi. Masalan; Qora dengiz, fors tilida Daryoi siyoh, rus tilida Чёрное море, rumin tilida More Neagre, nemis tilida Shvarzes Meyers fransuz tilida Mer Noire deb yuritiladi. O‘lik dengiz ruscha Myortvoye more, nemis tilida Totes Meyer, arab tilida Bahr Lut, italyan tilida Mar Moto deyiladi. Huddi shunday Yaxshi Umid burni, Yuqori ko‘l, Ko‘k Nil, Qizil dengiz, Oq dengiz, O‘rta dengiz, Katta Suvayirg‘ich tizmasi, Qoyali tog‘lar, Katta Sho‘r ko‘l, Shayton oroli, Olovli Yer oroli, Qorli tog‘lar, Shamolli orollar, Shamolsiz orollar ham tarjima qilinadi.

Ikki va undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lgan geografik nomlar qisman tarjima qilinadi. Bunda murakkab geografik nomlarning aniqlovchidan iborat bo‘lgan qismi tarjima qilinib, atoqli otdan iborat qismi tarjima qilinmaydi. Ruscha yozilgan geografik nomlardan misol keltiramiz. Южный, северный, восточный, западный, белый, голубой, зеленый, красный, черный, дальний, ближний верхний, нижний, большой, малый, средний, старый, новый kabi sifat aniqlovchilar odatda tarjima qilinadi. Asosiy nom fonetik transkripsiyaga muvofiq o‘zicha yozilaveradi. Misollar; Bolshoy Vostochniy Erg–Katta Sharqiy Erg, Vostochno - Avstraliyskoye techeniye–Sharqiy Avstraliya oqimi, Velikobritanskiye ostrova–Buyuk Britaniya orollari, Vostochno–Sibirskiye ostrova–Sharqiy Sibir orollari, Zapadno – Frizeskiye ostrova - G‘arbiy Friz orollari, Novaya Gvineya–Yangi Gvineya, Maliy Atlas -Kichik Atlas, Sredne – Russkaya vozvishennost–O‘rta Rossiya qirlari, Severnaya Amerika–Shimoliy Amerika, Verxniy Chirchik–Yuqori Chirchiq, Novaya Kaledoniya–Yangi Kaledoniya, Sentralnaya Aziya–Markaziy Osiyo va boshqalar. Lekin to‘liq va qisman tarjima qilish usuli ma'muriy va siyosiy geografik nomlarga, shaharlar, qishloqlar nomlariga qo‘llanilmaydi. Masalan, O‘zbekistondagi Yangiqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Yangiyo‘l, Yangibozor, Yakkabog‘, Kattaqo‘rg‘on, Ko‘kterak hamma tillarda ham tarjima qilinmay yozilaveradi. Xuddi shunday Velikiye Luki, Verxoyansk, Jeleznovodsk, Krivoy Rog, Nijniy Tagil, Nijniy Novgorod, Yujno - Saxalinsk, Staraya

Russa o‘zbek tilida o‘z shaklida yozilaveradi. Biroq har bir tilda o‘z tili grammatikasi imkoniyatida shartli transkripsiya qo‘llanishi mumkin. Tarkibida ruscha zemlya (yer) so‘zi bo‘lgan geografik nomlarni yozishda ikkita qoida mavjud;

1) Agar zemlya turdosh ot (termin) bo‘lsa tarjima qilib yoziladi. Masalan, Zemlya Adeli – Adeli Yeri, Zemlya Amudsena – Amudsen Yeri, Zemlya Fransa Iosifa – Frans Iosif Yeri deb yoziladi.

2) Agar zemlya so‘zi atoqli ot bo‘lib kelsa, u tarjima qilinmaydi. Masalan, Novaya Zemlya, Severnaya Zemlya ko‘rinishida yozilaveradi. Agar geografik nomlar faqat aniqlovchidan iborat bo‘lsa, u holda tarjima qilinmaydi. Masalan; Belaye ko‘li, Tixaya daryosi, Issiqko‘l, Qorako‘l, Olako‘l, Muzko‘l va boshqalar hamma tilda ham tarjima qilinmay yozilaveradi.

Tov, dog‘ so‘zlari geografik nomlar tarkibida kelgan hollarda tov, dog‘ deb yoziladi. Masalan, Kopetdog‘, Nebitdog‘, Qoratorov, Saritov, Olatov va h.k. Bular nom tarkibiga kirmasdan tog‘ ma‘nosida kelganda tog‘ deb alohida yoziladi. Masalan, Ili Olatog‘i, Talas Olatog‘i va boshqalar<sup>89</sup>.

Toponimlarni tarjima qilish jarayonida lingvodidaktik muammolarni hal etishning yagona yo‘li bu o‘quvchilarni joy nomlari tarjimalariga boy lug‘atlar bilan ishlashga o‘rgatish yaxshi esda saqlashi uchun ko‘proq interaktiv metodlar yordamida toponimik nomlar yuzasidan savol-javob, mashqlar, munozaralar o‘tkazish zarur.

### ADABIYOTLAR

1. Begaliyev N. B. Toponimlarning o‘zbek xalqi etnogenizidagi o‘rni. Samarqand. O‘zbek tili va adabiyoti. 2004.
3. Bolitho, R. (1998) Language Awareness in the English Classroom. English Teaching Professional, 6 January, 3-6;
3. Bo‘ronov J. va boshqalar. Ingliz tili grammatikasi. Toshkent. O‘qituvchi. 1974.
- Z.Madrahimov. Tarixiy Toponimika fanidan Ma`ruza Matni. Namangan – 2010

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTILARI HODIMLARIDA TOLERANTLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY- PEDAGOGIK YO'LLARI

**Tursunova Gulhayo Sherxonovna**  
Termiz Davlat Universitetining  
Pedagogika Instituti  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi  
1 bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tolerantlik tushunchasining asl mohiyati, maktabgacha ta'lim tashkilotlari hodimlarida tolerantlik tushunchalarini yanada kengroq joriy etish haqida yoritilgan.

**Kalit so'z:** Tolerantlik, bilim, ochiqlik, muloqot, fikr, vijdon, e'tiqod, xulq-atvoriga, urf-odatlariga, his-tuyg'ulariga, fikrlariga, g'oyalariga, e'tiqod.

**Аннотация:** В данной статье мы можем узнать о сущности понятия толерантности, более широком внедрении понятия толерантности в коллектив дошкольных образовательных учреждений.

**Annotation:** In this article, we can learn about the essence of the concept of tolerance, the wider introduction of the concept of tolerance in the staff of preschool education institutions.

Tolerantlik degani madaniyatlarning boy xilma-xilligini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunish bizning dunyomiz, ifoda shakllari va namoyon bo'lish usullari inson individualligi. Bu bilim, ochiqlik, muloqot va fikr, vijdon va e'tiqod erkinligi. Tolerantlik xilma-xillikdagi uyg'unlikdir. Bu nafaqat axloqiy burch, balki siyosiy va huquqiy ehtiyoj. Tolerantlik -tinchlikni ta'minlovchi va targ'ib qiluvchi fazilat urush madaniyatini tinchlik madaniyatiga almashtirish. Tolerantlik, eng avvalo, faollikdir umuminsoniy huquqlarni tan olish asosida shakllangan munosabat va insonning asosiy erkinliklari. Hech qanday holatda bag'rikenglik xizmat qila olmaydi

ushbu asosiy qadriyatlarga tajovuzlarni oqlash, bag‘rikenglik shaxslar, guruhlar va davlatlarni namoyon qilishi kerak. Tolerantlik -inson huquqlari, plyuralizm, demokratiya va qonun va tartib. Tolerantlik - bu rad etishni anglatuvchi tushuncha dogmatizmdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan va normalarni tasdiqlashdan, inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy hujjatlarda belgilangan. Inson huquqlarini hurmat qilish bilan uyg‘un bo‘lgan bag‘rikenglik namoyon bo‘lishi, ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan bag‘rikeng munosabat, rad etish degani emas o‘zini yoki boshqalarning e‘tiqodiga bo‘ysunish. Bu degani hamma erkin o‘z e‘tiqodlariga rioya qilish va boshqalar uchun ham xuddi shunday huquqni tan olish. Bu odamlarning tabiatan bir-biridan farq qilishini tan olishni anglatadi tashqi ko‘rinish, turish, nutq, xatti-harakatlar va qadriyatlar va egalik dunyoda yashash va individualligini saqlab qolish huquqi. Xuddi shunday bir kishining qarashlarini boshqalarga singdirib bo‘lmasligini bildiradi. Ko‘pgina madaniyatlarda "tolerantlik" tushunchasi o‘ziga xosdir "tolerantlik" so‘zining sinonimi: lat. - tolerantiya - sabr; ingliz - bag‘rikenglik, nemis - Toleranz, frantsuz. - bag‘rikenglik. Tarixiy-madaniy jarayonda falsafiy fikrning rivojlanishi va shakllanishi "tolerantlik" kategoriyasi ("tolerantlik") o‘zgarishlarga uchraydi. Bu tabiiy hodisa, chunki jamiyatning o‘zi o‘zgarmoqda, insonda birinchi o‘rinda munosabatlari turli g‘oyalar edi. Tolerantlik (lotincha sabr degan ma‘noni anglatadi) — yo‘qligi yoki har qanday noqulay omilga javobning zaiflashishi uning ta'siriga nisbatan sezgirlikning pasayishi natijasida. Sotsiologiya qo‘llanmalarida bag‘rikenglik tolerantlik deb ta’riflangan boshqa birovning turmush tarziga, xulq-atvoriga, urf-odatlariga, his-tuyg‘ulariga, fikrlariga, g‘oyalariga, e‘tiqodlar tushuniladi. Qadimgi dunyoning axloqiy qarashlari tizimida asosiy ta’limotlarda o‘z asosini topgan mo‘tadillikning rivojlanishini ko‘rib chiqdi. Bir tananing go‘zalligi har qanday tananing go‘zalligi bilan bog‘liq degan tushunchalar bor. Xudoga murojaat qilish, gunohlar uchun jazo umidiga yo‘naltirish, belgilangan me‘yorlarning buzilishi bilan bir xil - bu odatiy holdir. Xulq-atvorni nazorat qilishning o‘rta asrlarning dolzarb usuli va varianti jamiyatda tolerantlikni mustahkamlashdir. A.G. Simmel, birinchi bo‘lib yevropaliklar o‘rtasidagi aniq o‘zaro ta’sirlarni ko‘rib

chiqqan sotsiolog odamlar, xushmuomalalik tolerantlikning operatsion muhiti sifatida belgilanadi, bu "individual impulslarni cheklashdan iborat boshqalarning huquqlarini talab qilish" hisoblanadi. Ta'lim tizimi faol tashabbus ko'rsatishi va qo'llab-quvvatlashi mumkin. Turli madaniy integratsiyaga qaratilgan madaniyatlar muloqoti komponentlarini zamonaviyning ajralmas madaniy makoniga aylantiradi.

Ta'lim tizimi rivojlanishga ob'ektiv hissa qo'shishi mumkin turli darajadagi insoniy aloqalarni boshlash turizm, sport, universal taraqqiyot sohasida o'zaro manfaatli hamkorlik odamlar bilan muloqot qilishning lingvistik vositalari va boshqalar Ko'p millatli jamoa tarbiyachilari hamma narsani qilishlari kerak, ularning ishlari yaxshi o'ylangan, puxta rejalashtirilgan, uning barcha bosqichlarida izchil. Buning asosiy elementlari faoliyat bu: turli xalqlar vakillarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bilan tanishish urf-odatlar, an'analar. Hech qanday noto'g'ri fikrga yo'l qo'yilmaydi ayrim millat vakillariga va aksincha, berish boshqalarning imtiyozlari. Tarbiyachi doimo adolatli bo'lishi kerak millatidan qat'i nazar, har bir shaxsga; tarbiyachining ko'p millatli jamoadagi munosabatlarning mohiyatini, axloqiy va psixologik muhitni tushunishi. Global ta'lim tarbiyalanuvchilarda ular yashayotgan dunyoning buguni va kelajagi uchun mas'uliyat hissi va ongini shakllantirishga qaratilgan. Bu chet el madaniyatiga (hatto o'z madaniyatiga) nisbatan noto'g'ri qarashlar odamlarning xalqlar va ularning munosabatlari, milliy madaniyat va urf-odatlar to'g'risida etarli ma'lumotga ega emasligi sababli paydo bo'lishidan kelib chiqadi. Tarbiyachilar oldida tarbiyalanuvchilarni turli millatlarning madaniyati va an'analari bilan tanishtirish, ijtimoiy-etnik omillarning bolalarga ta'sirini sozlash va ularda dunyo fuqarolari tuyg'usi va ongini shakllantirish vazifasi turibdi. Turli millat vakillari bo'lgan jamoa bilan ishlashning barcha bosqichlarida, tarbiyalanuvchilarning yoshidan qat'i nazar, tarbiyachi amaliy chora-tadbirlarni o'ylab ko'rishi kerak, shunda bolalarda milliy izolyatsiyani, xudbinlikni engish, muloqot madaniyatini oshirishga e'tibor qaratish osonroq bo'ladi. butun jamoani zararli millatchilik ta'siriga qarshi turish uchun o'z imkoniyatlaridan foydalaning. Insonning shakllanishiga ta'sir qiluvchi barcha vositalardan, alohida rol xalq pedagogikasining tarbiya vositalariga berilgan.

Xalq pedagogikasi xalq og‘zaki ijodi, urf-odatlari, an‘analari, bolalar o‘yinlari va o‘yinchoqlarida saqlanib qolgan pedagogik ma‘lumotlar va tarbiyaviy tajribalar to‘plamidir. Turli xalqlar madaniyati bilan bog‘liq aniq masalalarni o‘rganish uchun maktab o‘quvchilarining tadqiqot guruhlarini tuzilishi mumkin. Boshqa xalqlar haqida iloji boricha ko‘proq bilish har qanday yoshda millatlararo munosabatlar madaniyatini shakllantirishning asosidir. O‘yin bolalar hayotining eng muhim sohasi bo‘lib, u mehnat, bilim, san‘at, sport bilan birgalikda o‘quvchilarda milliy ongini, millatlararo munosabatlar madaniyatini shakllantirish uchun zarur hissiy sharoitlarni ta‘minlaydi. Aytganimizdek, hozirgi ijtimoiy-madaniy vaziyat insoniyatning kelajakda omon qolishi sharti sifatida bag‘rikenglikni shakllantirishning dolzarb zaruratini belgilab berdi; ijtimoiy-madaniy tizimning qadriyatlari sifatida; insonparvarlik me‘yorlari sifatida insoniy munosabatlar, dunyoqarash va tashqi dunyo bilan munosabatlarni o‘rnatish uchun ongli ko‘rsatma sifatida. Bu bizga tolerantlikni ob‘ektiv voqelikning ko‘p komponentli hodisasi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, eng avvalo, insonning bu dunyo bilan o‘zaro munosabatining mohiyati va usullarini anglash orqali uning dunyoda mavjudligining mazmunini ochib berish muammosini hal qiladi. Tolerant muhitda ta‘lim va tarbiya jarayoni insonning dunyodagi o‘z o‘rnini anglashi, u bilan munosabatda bo‘lish usullarini o‘zlashtirib olishidan iborat. Oxir oqibat, biz bag‘rikenglikni shaxsan muhim qadriyat sifatida qabul qilish haqida gapiramiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.. Pchelintseva I. Tolerantlik va maktab o‘quvchisi. - M.: mosaik-sintez, 2003 yil.
2. Pchelintseva I. Tolerantlik, u qanday shakllanadi? - M.: mosaik-sintez, 2001 yil.
3. Svirskaya L. Oila bilan ishlash. - M.: LINKA-PRESS, 2007 yil.
4. Slobodyanik N.P. Ajablangan, g‘azablangan, qo‘rqqan ...: Amaliy qo‘llanma. - M.: Ibtido, 2003 yil.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕДИА В ДОШКОЛЬНЫХ КЛАССАХ

**Икрамова. Н.А**

Магистрант

Педагогический институт Бухарского  
Государственного Университета

### АННОТАЦИЯ

Данная статья предназначена для дошкольного образования, в которой приводятся методики и статистика использования медиа-технологий. Кроме того, использование наиболее широко применяемых современных педагогических технологий в сфере дошкольного образования.

**Ключевые слова:** планшет, смартфон, компьютер, телевизор, статистика

На сегодняшний день, многие дошкольники проводят дома у экрана телевизора, и это продолжает увеличиваться. По статистикам меньше известно о типах медиа-впечатлений, которые дети получают в дошкольных учреждениях. Кроме того, в небольшом количестве исследований изучались цели, для которых педагоги дошкольных учреждений используют технологии и средства массовой информации в классе, и контексты, в которых происходит такое использование. Настоящее исследование устраняет этот пробел, предоставляя детальную картину использования технологий и средств массовой информации в дошкольных классах. Ведущие учителя были набраны через списки адресов электронной почты преподавателей, которые участвовали в предыдущих исследованиях или выразили заинтересованность в получении сообщений от нашей исследовательской группы. Сначала участников попросили проверить, какое из четырех устройств они использовали с детьми в классе (планшет, смартфон, компьютер, телевизор).



Когда их спрашивали как часто они использовали каждое устройство и также оценивались элементы опроса (1) Цели: как часто учителя использовали каждое устройство в учебных целях (например, преподавание нового материала, отработка материала) и не учебных целях (например, развлечение, в качестве награды) и (2) Контекст: как часто учителя использовали устройства как для поддерживаемых учителем, так и для других видов деятельности. Результаты показали, что использование планшетов и компьютеров было наиболее распространенным, тогда как использование смартфонов и телевизоров было менее распространенным. Учителя сообщили, что чаще всего используют планшеты, компьютеры и смартфоны в учебных целях. Телевидение чаще всего использовалось для развлечения. Планшеты и смартфоны чаще всего использовались в индивидуальных контекстах, поддерживаемых учителем, тогда как компьютеры чаще всего использовались в контексте всей группы, поддерживаемой учителем.

Существенные исследования изучали практику учителей и деятельность, которая происходит в классе, в том числе в дошкольном возрасте. Тем не менее, мало исследований изучало использование технологий и средств массовой информации в дошкольных классах. Исследования, проведенные в основном в домашних условиях, показывают, что маленькие дети проводят значительное количество времени с технологиями и средствами массовой информации. Например, дошкольники в США, Великобритании, Австралии и Португалии проводят у экранов более 2 часов в день. В исследовании греческих дошкольников 95% родителей сообщили, что их ребенок ежедневно или почти ежедневно пользуется мобильным устройством. Недавнее исследование показало, что за последние два десятилетия использование технологий и средств массовой информации в домашних условиях в США в раннем детстве увеличилось на 32%.

Примечательно, что в то время как подавляющее большинство литературы сосредоточено исключительно на использовании технологий и средств массовой

информации в домашних условиях, меньше известно ни о распространенности, ни о характере (т. е. о целях и контексте) использования технологий и средств массовой информации в дошкольных классах. Таким образом, в настоящем исследовании изучались сообщения учителей об использовании технологий и средств массовой информации в дошкольных классах.

Имеющиеся небольшие эмпирические данные свидетельствуют о том, что учителя все чаще используют технологии и средства массовой информации в классе. Vanderloo (2014) провел систематический обзор восьми международных исследований, в которых сообщалось о ежедневном просмотре экрана в учреждениях по уходу за детьми раннего возраста. Результаты показали относительно высокий уровень ежедневного экранного времени, при этом в исследованиях центров по уходу за детьми сообщалось о до 1,3 часа экранного времени в день. Тем не менее, этот отчет может значительно недооценивать современные технологии и использование средств массовой информации, поскольку многие из включенных исследований были сосредоточены исключительно на телевидении до появления мобильных устройств. В отчете за 2021 год было обнаружено, что более половины учителей дошкольных учреждений в США сообщили об использовании планшетов в классе не реже одного раза в неделю (Северо-Западный университет, 2022 год), а в отчете за 2021 год доступ учителей дошкольных учреждений к технологиям в классе расширился, так что, у большинства был доступ к Интернету (89%), компьютерам (81%) и планшетам в классе. Исследование, проведенное в Новой Зеландии в 2016 году, показывает, что более 60% государственных детских садов сообщили об использовании планшетов и компьютеров в классе не реже одного раза в неделю.

### ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Bierman, K. L., Domitrovich, C. E., Nix, R. L., Gest, S. D., Welsh, J. A., Greenberg, M. T., et al. (2008). Promoting academic and social-emotional school

readiness: the head start REDI program. *Child Dev.* 79, 1802–1817. doi: 10.1111/j.1467-8624.2008.01227.x

2. Икрамова, А. А. (2022). Использование терминов драмы и драматургии в английской литературе. *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 245-247.

3. Ikromova, Aziza Aminovna. "The Concept Of Pedagogical Skills, Its Role And Importance In Teaching." *The American Journal of Applied sciences* 2.08 (2020): 122-126.

4. IKRAMOVA, Aziza Aminovna, and Nigina Aminovna IKRAMOVA. "FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF AMERICAN DRAMA." *E-Conference Globe*. 2021.

5. IKRAMOVA, Aziza Aminovna. "THE GENESIS OF DRAMA IN WESTERN AND UZBEK LITERATURE." *E-Conference Globe*. 2021.

6. Aziza, Ikramova. "SYNCRETIC PHENOMENA IN THE SYSTEM OF PARTS OF SPEECH IN SOME WORKS OF RUSSIAN WRITERS." *Web of Scientist: International Scientific Research Journal* 2.11 (2021): 277-283.

7. Ikramova, A. . (2021). SCIENTIFIC AND THEORETICAL VIEWS OF POETRIC DRAMA IN RUSSIAN AND UZBEK LITERATURE. *World Bulletin of Management and Law*, 2(2), 51-55. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/93>

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

**O‘razaliyeva Sojida Tojiboy qizi**

Toshkent viloyati chirchiq shahar pedagogika instituti tyutor

**Atabekova Ulbosin Baydulla qizi**

MAT 21/5 guruh talabasi

[ulbosinatabekova@gmail.com](mailto:ulbosinatabekova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish to‘g‘risida.

**Kalit so‘zlar:** Tarbiyachi, Tarbiya, o‘yin, rivojlanish xaritasi, kuzatuv, psixologik, fizilogik, ijtimoiy-fiziologik.

**Annotation:** This article is for preschoolers in children of age creative skills about development.

**Keywords:** Edukator, edukation, play, developmentmap, observation, psychological, Social physiologic.

**Аннотация:** Это статья о развитии творческих способностей детей дошкольного возраста

**Ключевые слова:** Воспитатель, обучение, игра, карта развития,наблюдение психологическая, физиологическая, социално, физиологическаяю.

Maktabgacha ta‘lim bolaga ijtimoiy muhit tomonidan ta‘sir ko‘rsatadigan, malakali shaxslar tomonidan ta‘lim-tarbiya faoliyatni samarali tashkil etadigan ilk bilim dargohi hisoblanadi. Har bir bola ruhiyati o‘ziga xos bo‘lgan murakkab konfiguratsiyaga ega, shu bilan unga ta‘sir etuvchi omillar va ularning ta‘siri ham juda xilma-xildir. Maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishlari va faolliklari ham aynan

maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulot jarayonlarida o'z ifodasni topadi. Xuddi shuningdek hozirgi kunda tarbiyalanuvchi bolajonlar o'rtasida olib boriladigan asosiy mashg'ulotlar bolaning diqqati va xulq-atvor ko'nikmalariga ijobiy ta'sir etib bolada hayotga o'zgacha bir qiziqish paydo qiladi. Ijod qobiliyatlari intellektual rivojlanish bilan bir xil muhim rol o'ynaydi. Tarbiyalanuvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mashg'ulot jarayonlarini samarali tashkil etish beshta asosiy markaz asosida bolalarning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olgan holda rejalashtirish bolada ko'nikma paydo qilib ijodiy qobiliyatlarining namoyon bo'lishida o'zining samarasini ko'rsatadi. Hozirgi kunda bilamizki, mashg'ulot jarayonlarida tarbiyalanuvchini qiziqitirmasa undagi qobiliyatlar, qiziqishlar asta-sekin so'na boshlaydi va bola maktabgacha ta'lim tashkilotidan uzoqlashadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ko'pincha ijodiy ish o'zlari o'ylab topgan ijod namunalarni tarbiyachi bilan baham ko'rish, teatr, sahna ko'rinishlari va shunga o'xshash hayotiy voqealarning bola faoliyatida aks etishi mashg'ulotda ham bolalarning erkin faoliyatlarida ham namoyon bo'ladi. Bolada ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun avvalambor tashkilot psixologi asosiy o'rinda turadi chunki tashkilotdagi jami tarbiyalanuvchilarning temperamenti ularning xohish-istaklari va ularning shug'ullanadigan mashg'ulotlarini bilishadi. Ijodiy qobiliyatlarni namoyon bo'lishida tashkilotning musiqa rahbarlari ham juda katta o'rin egallaydi chunki MTTda tashkillashtiriladigan musiqa to'garaklari, tadbirlar va ochiq mashg'ulotlarda bolalarning qaysi biri musiqiy qobiliyatlari rivojlangani va qaysi musiqada o'ynashlarini bilishadi va tarbiyalanuvchini o'z istak-xohishlarini hisobga olgan holda uni amalda ko'rishadi. Bilamizki tashkilotda bolalarning yil davomida va har chorakda o'zlashtirishlari va qaysi sohada qiynalib harakat bajarayotganliklarini biz bolalarning rivojlanish xaritalarida ko'rishimiz mumkin. Rivojlanish xaritalarida ham bola bilan yakka ishlash jarayonlarida musiqa rahbarlari, psixolog, jismoniy tarbiya yo'riqchisi va tarbiyachi ijodiy rivojlanish sohasini ham belgilaydi. Shu karta bo'yicha o'quv yili oxirida (odatda may oyida) shu xarita asosida yakuniy kuzatuv olib boriladi.

Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;  
ijtimoiy-hissiy rivojlanish;  
nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;  
bilish jarayonining rivojlanishi;  
ijodiy rivojlanish.

Oxirgi ijodiy rivojlanishda har bir bolaning rivojlanish xaritasini to'ldiradigan xodim tarbiyachi bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Mabodo bolalarning qaysi biridadir shu besh soha bo'yicha bajara olmaydigan harakat bo'lsa u to'garak rahbarlari ya'ni psixolog, musiqa rahbari, sport yo'riqchisiga biriktirilib ular har bir bajara olmaydigan bola bilan alohida individual shug'ullanib bu masalaga oydinlik kiritadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda har xil o'zining xohish-istagiga ko'ra qiziqish va qobiliyat bo'lib biz tarbiyachilar ularning qiziqishlarini o'zgartirmaymiz. Ijodiy qobiliyatlar esa yuqorida aytilganidek asosan, bolaning erkin faoliyatida va teatr sahna ko'rinishlari yaratganlarida o'z ifodasini topadi.

Bolaning ijodiy qobiliyatlari uchun maqbul darajada rivojlanishi uchun qulay muhit yaratilishi kerak. Bolaning ijodkorligini rivojlantirishning bir necha yo'li mavjud. Quyidagi ro'yxatda biz ulardan ba'zilari bilan tanishasiz: Ochiq savollar orqali: “Agar biror-bir joyga borishingiz mumkin bo'lsa, qayerga borasiz? Agar odamlar okeanda yashashlari mumkin bo'lsa-chi? Agar .. bo'lsa nima bo'ladi ...?” Bolalarga nazariyalar va farazli g'oyalarni taklif qilishlariga imkon berish, ularning ijodini rivojlantirishning samarali bir usulidir. Bolalarni oddiy tanlov qilishga undang: tushlikda nima iste'mol qilmoqchisiz? Ta'til kunlari nima qilishni xohlar edingiz? Ularga mustaqil fikr yuritishlariga ijozat bering, bu ijodkorlikni mashq qilishning ajoyib usuli. Buning yana bir usuli — farzandlaringizni kundalik hayotida qaror qabul qilishida ishtirok etish, masalan: “Biz nimani mazali va sodda qilib pishirishimiz mumkin?”, “Qanday qilib uyni tezroq tozalashimiz mumkin?” Mutolaa: o'qish nafaqat xotirani yaxshilaydi, balki so'z boyligini kengaytiradi va diqqatni oshiradi, shu bilan birgalikda, ijodkorlikni ham shakllantiradi. Bolalarga foydali bo'lgan eng yaxshi odatlardan biri har kuni yotishdan oldin kitob o'qishdir. Maktabgacha yoshdagi

bolalarning badiiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradigan bolalar o‘yinlarini uslubiy jihatdan taklif qiladi. Xususan, bolalar uchun foydali teatral doirada darslar bo‘ladi, chunki teatr faoliyati turli yo‘nalishlarda maktabgacha tarbiyachilarni rivojlantiradi. Bolalar nafaqat topshiriqlarni bajarishni o‘rganishadi, teatr tomoshalarida ishtirok etishadi, tasavvurni rivojlanishadi, badiiy ko‘rish, asarlarning yaxlitligini idrok etish qobiliyatini, imvoza qobiliyatini rivojlantiradi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun tashkilotda bolaning qiziqishlariga mos har xil devoriy ko‘rgazma va didaktikalar va sahna yaratishlari va teatr faoliyati uchun sharoit va tarbiyachi mahorati yaxshi bo‘lsa bolada ijodiy qobiliyat maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab tashkilotda rivojlanadi.

#### FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Bolangiz maktabga tayyorga tayyormi». T., Ma’rifat- madadkor. 2002. N.P. Sakulina «Bolalar bog‘chasida rasm, applikasiya va loy bilan M«Prosvesheniye»1993.
2. Ilk qadam davlat o‘quv dasturi
3. N.P. Kosterina. «Uchebnoye risovaniye» M. «Prosvesheniye» 1984
4. Qodirova F.R. va boshq. Maktabgacha pedagogika. O‘quv qo‘llanma. T: . «Ma’naviyat», 2013. – 159 b.

## **PREDGROVIDAR DAVRDA COVID–19 BILAN OG‘RIGAN HOMILADOR AYOLLARNING KLINIK HOLATI**

**Umirjonova Shohsanam**

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

**Annotatsiya:** Yangi koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan homilador ayollarni, tug‘ayotgan ayollarni, tug‘ruq vaqtidagi va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni davolash bo‘yicha klinik tavsiyalarni inobatga olib, homilador ayollarni quyidagi tarzda kuzatib boriladi. Mazkur maqolada COVID-19 kasalligi bilan og‘rigan ayollarning homiladorlik davrida klinik holati haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** homiladorlik, COVID-19, homiladorlik asoratlari, sezaryen, yangi tug‘ilgan chaqaloqlar, infeksiyaning patogenezini, virus.

### **KIRISH**

2019-yil dekabr oyidan beri butun dunyo bo‘ylab tarqalgan global muammo bu yangi koronavirus infeksiyasi paydo bo‘ldi. COVID-19 - bu virusga Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan berilgan nom. Virus haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, infeksiyaning patogenezini yaxshi tushunilmagan. Dunyo insoniyat uchun global xavf – yangi koronavirus infeksiyasiga duch keldi [1, 2]. 2020-yil 11-mart kuni Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ushbu kasallikning avj olishini pandemiya deb e‘lon qildi va u allaqachon global ahamiyatga ega bo‘lgan holat sifatida tarixga kirdi. Virusning yuqori yuqumliligi uning tez tarqalishiga olib keldi, bu esa jiddiy cheklovchi choralarga olib keldi. Bu holat epidemiologik farovonligimizni larzaga soldi.

**Tadqiqot maqsadi.** COVID-19 bilan kasallangan ayollarda homiladorlik xususiyatlari va natijalari bo‘yicha adabiyot ma'lumotlarini tahlil qilish. Kasallikning infeksiya epidemiologiyasi, xususiyatlari, etiologiyasi va patogenezini haqida umumiy ma'lumot berilgan. COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda homiladorlikning hozirgi kechishi haqidagi ma'lumotlar tahlil qilindi. Ta'kidlanishicha, SARS-CoV-2



tasdiqlangan homilador ayollarning klinik ko‘rinishlari homilador bo‘lmagan infeksiyalangan ayollarnikiga o‘xshaydi. Homiladorlikning kech davrida SARS-CoV-2 ning vertikal uzatilishi haqida hech qanday dalil yo‘q . Homiladorlik davrida COVID-19 infeksiyasining xususiyatlari haqida mavjud ma'lumotlarona va homila uchun ortib borayotgan xavf yo‘qligini ko‘rsatadi. Homilador bemorlarni boshqarish akusherlik ko‘rsatkichlari va ona/homila sog‘lig‘ining holati asosida individuallashtirilishi kerak, deb ishoniladi. Shuni hisobga olish kerakki, hozirgi COVID-19 pandemiyasi homilador ayollarda psixologik stress va xavotirni keltirib chiqaradi, bu homiladorlik davrida salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

### **ASOSIY QISM**

Odamlarning eng zaif toifasi, keksa odamlar bilan bir qatorda, homilador ayollardir. Immunitetning past reaktivligi tufayli ular boshqalarga qaraganda og‘ir asoratlarga ko‘proq moyil bo‘ladi [2]. Salbiy ta'sirlar infeksiya sodir bo‘lgan homiladorlik davriga bevosita bog‘liq. Birinchi trimestrda abort, rivojlanmagan homiladorlik, tug‘ma anomaliyalar ham virusning zararli ta'siri, ham COVID-19 ni davolash uchun ishlatiladigan dorilarning ta'siri tufayli mumkin. Ikkinchi trimestrda xavf platsentaning virusli shikastlanishi tufayli fetoplasental kompleksni kutishdir. Shuningdek, uchinchi trimestr platsentadagi mikrosirkulyatsiya o‘zgarishlari tufayli membranalarning erta yorilishi (PROM), erta tug‘ilish va o‘tkir homilalik gipoksiya bilan xavflidir. Shu kabi mavzular bo‘yicha juda ko‘p bahs-munozaralar ketmoqda. homiladorlikni, etkazib berish taktikasini uzaytirish imkoniyati sifatida mazkur sharhlar qarama-qarshi. Ba'zilarida biz COVID-19 bilan kasallangan homilador ayollarda kasallikning yengil kechishi haqida ma'lumotni ko‘ramiz va mualliflar eng jiddiy dalil sifatida bizga homiladorlik faktini beradilar, uning gormonlari progesteron va inson xorionik gonadotropini, Bemorning o‘limi va o‘ta og‘ir ahvolining asosiy sabablaridan biri bo‘lgan "sitokin bo‘roni" ning rivojlanish ehtimolini cheklash. Boshqa tadqiqotlarda biz homiladorlik paytida yuzaga keladigan immunologik va fiziologik o‘zgarishlar homilador ayollarning COVID-19 ga sezgirligini oshirishi haqida ma'lumot olamiz [2]. Bizga eng jiddiy dalil sifatida homiladorlik fakti

keltiriladi, uning gormonlari, progesteron va inson xorionik gonadotropini o‘limning asosiy sabablaridan biri va o‘ta og‘ir holat bo‘lgan "sitokin bo‘roni" ni rivojlanish ehtimolini to‘xtatadi [1].

**Homilaga ta'siri.** Hozirgi vaqtda COVID-19 bilan kasallangan homilador ayollarda homiladorlikni erta tugatish xavfi, rivojlanmagan homiladorlik xavfi yuqori ekanligi haqida hech qanday dalil yo‘q. Koronavirus infeksiyasi va ikkinchi trimestrda homiladorlikning yo‘qolishi xavfi o‘rtasida ishonchli bog‘liqlik yo‘q. [3] COVID-19 ning onadan homilaga yuqishi holati e‘lon qilindi va shuning uchun hozirda vertikal yuqish yo‘li mumkin deb hisoblanadi. Hozirgi vaqtda virus homila rivojlanishiga ta'sir qilishi ehtimoldan yiroq emas. Hozirda virusning teratogen ekanligiga dalil yo‘q. Adabiyotlarda COVID-19 bilan kasallangan ayollarda muddatidan oldin tug‘ilish holatlari haqida xabarlar mavjud, ammo qaysi qismi ko‘rsatkichlarga, qaysi qismi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi mumkinligi aniq emas. Ma'lumki, erta tug‘ish onaning virusli infeksiya bilan bog‘liq ko‘rsatmalariga ko‘ra amalga oshirilgan. Ba'zi xabarlarda intrauterin homila iztirobining rivojlanishi, membranalarning erta tug‘ilishdan oldin yorilishi haqida gapirilgan.[4]

Yangi koronavirus infeksiyasi bilan kasallangan homilador ayollarni, tug‘ayotgan ayollarni, tug‘ruq vaqtidagi va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni davolash bo‘yicha klinik tavsiyalarni inobatga olib, homilador ayollarni quyidagi tarzda kuzatib bordik – homiladorlikning 28-haftasidan boshlab kuniga bir marta CTG, besh kunda bir marta dopplerometriya, qon oqimining buzilishsiz kechishi mumkin. Umbilikal arteriyalarda buzilishlar bo‘lsa, dinamik kuzatuv har uch kunda bir marta o‘tkazildi. Og‘ir anemiya bilan (II, III daraja) o‘rta miya arteriyasida dopplerografiya o‘tkazildi. Tadqiqotchilarni kuzatishlari natijasida Uch nafar homilador ayoldagi kuzatuvlarda qon oqimining yomonlashishini ko‘rildi, bu patologik yoki preterminal turdagi CTGning yomonlashishi bilan birga operativ tug‘ilishga olib keldi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarga tibbiy yordam ko‘rsatish epidemiyaga qarshi choralarga qat'iy rioya qilingan holda amalga oshirildi. Tug‘ilgandan keyin biron bir bola reanimatsiyaga muhtoj emas. Kindik ichakning kechiktirilgan qisilishi, onaning

qorin bo'shlig'iga yotqizilishi, teriga tegishi va emizish barcha hollarda istisno qilindi. Tug'ilgandan so'ng darhol bolalar birlamchi hojatxona uchun maxsus jihozlangan xonaga ko'chirildi, shu jumladan, teridagi biologik suyuqlik qoldiqlarini xlorheksidin eritmasi bilan yuvish, shundan so'ng ular karantin bo'limlarida izolyatsiya qilingan. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar bo'limi havo tomchilari va aloqa orqali infeksiyani yuqtirishning oldini olish bilan. Ona bilan aloqa butunlay chiqarib tashlandi. Barcha bolalar COVID-19 infeksiyasiga shubha qilingan deb hisoblangan. Hayotning birinchi va uchinchi kunlarida ular orofarenkdagi tamponlarda virus genlarini ketma-ketlashtirish orqali COVID-19 uchun tekshirildi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning o'rtacha vazni 3176,8 g, 1 daqiqada Apgar ko'rsatkichi o'rtacha 7 ball, 5 daqiqada - o'rtacha 8 ball. Ikki yangi tug'ilgan chaqaloqda CRP darajasining 6 mg / l va 12 mg / l gacha ko'tarilishi qayd etildi, uchinchi kunga kelib ko'rsatkichlar normal holatga qaytdi. Boshqa klinik va laboratoriya ko'rsatkichlari (umumiy qon ro'yxati, siydik, biokimyoviy qon testi) yosh normasi doirasida. Barcha bolalar ijobiy vazn dinamikasi bilan bo'shatilgan. Uchinchi kunga kelib, ko'rsatkichlar normal holatga qaytdi. Boshqa klinik va laboratoriya ko'rsatkichlari (umumiy qon ro'yxati, siydik, biokimyoviy qon testi) yosh normasi doirasida. Barcha bolalar ijobiy vazn dinamikasi bilan bo'shatilgan. Uchinchi kunga kelib, ko'rsatkichlar normal holatga qaytdi[5, 6].

#### **XULOSA.**

O'tkir homilalik gipoksiya qorin bo'shlig'i va vaginal tug'ish operatsiyalari uchun eng keng tarqalgan ko'rsatkich edi. Ona va homila qoniqarli holatda bo'lishi sharti bilan vaginal tug'ilish jarrohlikdan ko'ra afzalroqdir, chunki. operativ tug'ish paytida, homila olib tashlangandan so'ng darhol aorto-kaval siqilish va bachadon qisqarishining to'xtashi natijasida yuzaga keladigan gipervolemiya rivojlanadi, bu mexanizm ayolda nafas etishmovchiligini kuchaytiruvchi muhim omil hisoblanadi. Aytish kerakki, sezaryen qilish chastotasi og'ir epidemiologik vaziyat tufayli oshmadi, chunki tug'ish usulini tanlashda biz birinchi navbatda akusherlik holatiga e'tibor qaratdik. Shuni ta'kidlash kerakki, onadagi patologik jarayon erta homiladorlik davrida rivojlanadi, homiladorlikning yanada jiddiy asoratlari biz kuzatamiz - uning yo'qolishi

va salbiy perinatal oqibatlariga qadar. Yangi koronavirus infeksiyasini uning har qanday ko‘rinishida boshdan kechirgan bemorlarda platsenta kompleksiga jiddiy e‘tibor berish zarurati, masalan, antenatal homila o‘limi mumkin bo‘lgan asoratlarni bartaraf etish va oldini olish uchun bir ma’noga ega. Kasallanishni oldini olish, homila va onani shifokor ko‘rsatmasiga rioya qilishini nazoratga olish shuningdek, kasalangan bemorlarni davolash ularni sog‘lom bola ko‘rishlari uchun ishlar amalga oshirish kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Farida E., Rana M., Nader H., Mohamed E., Nourhan F., Shahd M., Mohamed S., Sara G., Mohamed N., Menna K., Abdelrahman A., Moataz M. E., Ashraf N. A systematic scoping review of COVID-19 during pregnancy and Childbirth // J. Gynaecol. Obstet. Open. 2020. №24. P. 47-52. DOI: 10.1002/ijgo.13182.
2. Yu N., Li W., Kang Q., Xiong Z., Wang S., Lin X., Liu Y., Xiao J., Liu H., Deng D., Chen S., Zeng W., Feng L., Wu J. Clinical features and obstetric and neonatal outcomes of pregnant patients with COVID-19 in Wuhan, China: a retrospective, single-centre, descriptive study // The Lancet. Infectious Diseases. Open. 2020. Vol. 20, №5. P. 559-564. DOI:10.1016/S1473-3099(20)30176-6
3. Schwartz D.A. An analysis of 38 pregnant women with COVID-19, their newborn infants, and maternal-fetal transmission of SARS-CoV-2: maternal coronavirus infections and pregnancy outcomes // Arch. Pathol. Lab. Med. Open. 2020. №17. DOI: 10.5858/arpa.2020-0901-SA.
4. Chen H., Guo J., Wang C., Luo F., Yu X., Zhang W. Clinical characteristics and intrauterine vertical transmission potential of COVID-19 infection in nine pregnant women: a retrospective review of medical records // Lancet. Open. 2020. Vol. 395, №10226. P. 809-815. DOI: 10.1016/S0140-6736(20)30360-3
5. Kalilmatova D.M., Dobroxotova Yu.E. COVID-19 infeksiyasidagi homiladorlik va tug‘ishning xususiyatlari. Amaliy tibbiyot. 2020. 18-tom, 2-son, 6-11-betlar

6. <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-techeniya-beremennosti-i-rodov-pri-infektsii-covid-19>
7. Suyarkulova Madhiya Erkinovna, & Abdullaeva Muazzam Rustamjon kizi. (2022, April 25). PREPARATION OF WOMEN WITH GLOMERULONEFTITIS FOR PREGNANCY. "INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM", USA washington. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6481795>
8. Suyarkulova Madhiya Erkinovna, & Abdullaeva Muazzam Rustamjon kizi. (2022). Prevention of Early Birth in Pregnant People with Kidney Disease. Texas Journal of Medical Science, 7, 101–102. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjms/article/view/1387>



## UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI KELAJAGI

**Uteniyazov Maxsud Baxitbay o‘g‘li**

Nukus shahri Xalq ta’lim bo‘limiga qarashli

39-sonli umum ta’lim maktabi informatika fani o‘qituvchisi

E-mail: [maxsuduteniyazov@gmail.com](mailto:maxsuduteniyazov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Informatika fani asoslari, rivojlanish tarixi va kelajagi keltirib o‘tilgan. Va o‘quvchilarni bu fanga qiziqtirish va o‘rgatish yo‘llari aytib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** Informatika, pedagogik amaliyot, kompyuter, dasturlash.

**Annotation:** Fundamentals of computer science, history and future of development are given. And there are given ways to engage and teach students in this science.

**Key words:** informatics, pedagogical practice, computer, programming.

Informatika fanidan pedagogik amaliyot informatikadan uslubiy jihatdan malakali o‘qituvchini tayyorlashda asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. U oliy o‘quv yurtida pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, ijtimoiy va maxsus fanlardan olingan bilimlarni mustahkamlashga va boyitishga imkoniyat yaratadi, yosh o‘qituvchilarga informatika fanini o‘qitishning o‘quv va uslubiy qo‘llanmalardan, dasturiy ta’minotdan, kompyuter sinflaridan foydalanish xususiyatlari bilan tanishishga imkon beradi. Pedagogik amaliyotning asosiy vazifasi: hozirgi zamon informatika fanini o‘qituvchisining ko‘nikma va malakalarini egallashdir. Pedagogik amaliyotni o‘tkazish vaqti o‘quv rejasi bilan aniqlanadi. Pedagogik amaliyot darslarini, sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarni o‘tkazish va tayyorlashda talabalar mustaqil ishi faoliyatining doimiy o‘sib borish prinsipi asosida olib boriladi. Respublikamizda, yosh avlodning o‘z faoliyatini rejalashtirishi, qo‘yilgan masalani yechishga zarur bo‘lgan

axborot topa olishi, o‘rganilayotgan ob‘ekt yoki jarayonni informatsion modelini qura olishi va yangi texnologiyalardan unumli foydalana olishi kabi malakalarga ega bo‘lishi uchun zarur sharoitlar yaratib berilmoqda.

O‘qitish shakli va usuli yosh o‘quvchilarning fikrlashini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Masalaning qiyin tomoni shundaki, bir tomondan o‘quvchining fikrlashini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan ularga zamonaviy kompyuterlar olami haqidagi bilimlarni qiziqarli va uyg‘un ko‘rinishda berishdir.

Informatika fanining yoshlik darajasidagi dolzarblik jihatlari quyidagilarda akslanadi:

- O‘quvchilarda axborotlarni qayta ishlash jarayonida fikrlash tartibotlarini, jumladan, mantiqiy va abstrakt fikrlashni shakllantirish.

- Kompyuterdan o‘quv vositasi sifatida foydalanishni ta‘minlash maqsadida, uning yordamida axborot ustida amaliy ishlar olib borish, zamonaviy dasturiy ta‘minot bilan tanishish.

- Kompyuterdan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish o‘quvchilarda uni o‘rganilayotgan jarayonda hisoblash, tasvirlash, tahrirlash ishlarini bajarishda vosita sifatida qo‘llash tajribasiga ega bo‘ladilar.

- Yoshlarda turli o‘quv kurslarida olayotgan axborot va ma‘lumotlarni kompleks ravishda o‘rganish hamda ularning uzviyligini ta‘minlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

Kompyuter o‘quvchilarning ijodiy va abstrakt fikrlash darajasini yaxshiroq tushunish, o‘z navbatida keng va chuqur rivojlantirish imkonini beradi. Ma‘lumki, bunday fikrlash uyg‘unligi matematika va boshqa fanlarni o‘zlashtirishga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘quv-metodik ta‘minot sohasida informatika o‘qitish metodikasi o‘z oldiga o‘quvchilar uchun qiziqarli darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini, o‘qituvchilar uchun esa uslubiy ishlanmalarni yaratishni maqsad qilib qo‘yadi.

O‘quv-metodik ta’minot o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalarni o‘z ichiga oladi. Bunda asosiy o‘rin darslik va o‘quv qo‘llanmalariga ajratilgan. Qolgan o‘quv-metodik ta’minot asosiy darslik bilan yaqindan bog‘langan bo‘lib, darslikdagi g‘oyalarni tushuntirish va rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

O‘quv-metodik ta’minot tarkibiga davriy nashrlardagi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim va xalq ta’limi vazirliklari nashrlaridagi uslubiy materiallarni va me’yoriy hujjatlarni kiritish mumkin.

O‘quv-metodik ta’minotning hozirgi davrdagi muhim bir bo‘lagi bu, elektron o‘quv- metodik materiallardir.

Informatika fanning asosiy maqsadi – o‘sib kelayotgan avlodni kompyuter yordamida mustaqil fikrlashga, tasavvurini rivojlantirishga va o‘zining ijodiy rejalarini hayotda tadbqiq etishga o‘rgatish.

Informatika - bu umumta'lim fanidir va unga tizimli nuqtai nazardan qarash kerak, bu o‘rta ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari va vazifalari bilan belgilanadi. Informatikani fan sifatida qabul qilinishining qiyinchilik tomoni shundaki undagi masalalar fizika, matematika, astronomiya fanlariga ham tegishlidir va informatika fanlararo aloqadorlikka ega. Bugungi kunda bolalar faqatgina kompyuter mavjudligini bilish bilan cheklanib qolmasliklari kerak, u haqida faqatgina tasavvurga ega bo‘lmay, balki u erkin ishlashlari, ushbu texnikani qo‘llashni bilishlari kerak. Informatika - bu ob'ektlar yoki jarayonlar haqida emas, balki ularni avtomatlashtirish, yaratish va faoliyatining usullari, vositalari va texnologiyalari haqidadir. Bu fan nafaqat uning chuqur o‘rganilishini, balki o‘z bilimlarini modernizatsiya qilish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni amaliy qo‘llay olishni hamda olingan bilimlarni optimallashtirishni ta'minlaydi. Informatika darslarida dunyoni tizimli qabul qilish, tabiatdagi va ijtimoiy sohalardagi xodisalarni umumiy aloqadorligini isloh qilish tasavvurlari rivojlanadi. Uning darajasi asosan axborotni tezda qayta ishlash va unga asoslanadigan qarorlar qabul qilish qobiliyati bilan belgilanadi, bu o‘quvchilar uchun qo‘shimcha imkoniyatlar talab qiladi. O‘qituvchilardan esa barcha yangi usullar va ta'lim vositalaridan foydalanishni.



Maktab informatika fanining mazmuni muayyan darajada fanning rivojlanish darajasiga va jamiyat talablariga javob berishi kerak. Xisoblash texnikasining rivojlanishi, birinchi navbatda shaxsiy kompyuterlar va ularning dasturiy ta'minotining tez suratlarda yangilanishi inson faoliyatining barcha sohalariga tarqalishiga sababchi bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida informatika fanini bolalarga mukammal darajada etkazib bera oladigan, yuqori sifatli axborot texnologiyalari bilan o'qitishga qodir bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash zarurligini ko'rsatmoqda. Yangi kompyuter texnologiyalari paydo bo'lishi, shuningdek, informatika fanlari ta'limi doirasida ta'lim mavzularining kengayishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

### **Xulosa qilib aytganda:**

Kompyuter texnologiyalari shu darajada tez rivojlanmoqdaki ta'lim qanchalik harakat qilmasin undan bir qadam orqada qoladi. Xususan, ACM va Compyuter Science kabi qo'mitalarning yakuniy xulosalariga ko'ra informatika fanini o'qitishda quyidagi mavzular ahamiyatli deb topilgan va bunda so'nggi yillarda amalga oshirilgan texnik o'zgarishlar xisobga olingan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Semakin I.G. Computer science. Basic course. 7-9 grades / I. G. Semakin et al. - 2nd ed., Rev. and add. - M.: BINOM. Knowledge Laboratory, 2004.
2. Bauer FL, Gooz G. Informatics. Introductory course: Per. with him. / Ed. A.P. Ershova. - M.: Mir, 1976.
3. Dorodnitsyn AA Informatics: subject and tasks // Cybernetics. Formation of informatics. - M.: Nauka, 1986.
4. Ershov A. P., Zvenigorodsky G. A., Pervin Yu.A. School informatics (concepts, state, prospects). - Novosibirsk, Computing Center SO AN SSSR, 1979

## QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINI QURITISHDA INFRA QIZIL NURLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI TAHLILI

Ungarov Azizbek Abdumo‘min o‘g‘li

Guliston davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola poliz mahsulotlarini quritishning zamonaviy usuli infra qizil nurlar yordamida quritish texnologiyasi samaradorligi va quritish jarayonida qo‘laniladigan qurilmalar haqida.

**Kalit sozlar:** infra qizil nurlar, diagramma, agregat, quritish jarayoni, qand, gidrofill kolloidlar.


Dunyo bo‘yicha quritish texnologik jarayoni orqali turli yarim fabrikatlar, pigment va bo‘yoq moddalari, ko‘p sonli organik sintez mahsulotlari, mineral tuz va o‘g‘itlar, oziq-ovqat va farmasevtika mahsulotlari olinadi. Ushbu jarayonda yuzaga keluvchi xom ashyoning kimyoviy, fizik-kimyoviy, biologik, strukturaviy-reologik o‘zgarishlari harorat bilan bog‘liq bo‘lib, ilmiy tadqiqotlar mahsulotlarning kimyoviy va biologik xossalari o‘zgartirmaydigan quritish jarayonini optimal rejimlarini hisoblab topish, mavjud quritish texnologiyalarini takomillashtirish va apparatlarini yaratishga qaratilgan.

Bugungi kunda dunyo miqyosida meva-sabzavotlarning quritish davomida kimyoviy tarkibi, fizik-kimyoviy xossalari, strukturasi, biologik faol moddalarini va ta‘mini saqlaydigan resurstejamkor texnika, texnologiya va boshqaruv sistemalarini innovasion modellarining ilmiy asoslarini takomillashtirish, ularni joriy etilishida quritish jarayonini hisoblashning yangi usullari va matematik modellarini ishlab

chiqish, nam jismdagi issiqlik va massa almashinuv jarayonlarini o‘rganish hamda apparatning konstruktiv o‘lchamlarini hisoblash borasidagi ilmiy tadqiqotlarni bajarish dolzarb muammodir.

Respublikamizda oxirgi yillarda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida yuqori sifatli mahsulot olish usullarini, xususan, energiyatejamkor texnologiyalarining yangi turlarini ishlab chiqishga e‘tibor qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida «...iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish ... » vazifalari belgilab berilgan. Bu borada jumladan, o‘simlik mahsulotlarini quritish jarayonida mahsulot tarkibidagi kerakli komponentlarni saqlash, vaqt va energiyani tejash, samarali quritish usullari va texnologiyalarini yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mikroto‘lqinli barabanli quritgich granula holdagi va sochiluvchan materiallarni uzluksiz quritishga mo‘ljallangan. Jihoz aylanishni ta‘minlash maqsadida 2 ta podshipnikka gorizontol o‘rnatilgan barabandan, qiya mahkamlangan rebradan, elektromagnit to‘lqin manbaiga ulangan isitish elementlari va isitilgan havo bilan ta‘minlovchi kanallar, hamda nam havoni haydash kanallaridan tashkil topgan. Elektromagnit to‘lqin manbai sifatida infra qizil nurlar generatori ishlatilgan Uskunaning kamchiligi ish rejimining davriyligi, barabanni ichki yuzasi bo‘ylab qiya o‘rnatilgan qovurg‘alar orqali materialning notekis tarqalishi, isitilgan havo va nam havoni yig‘ish qurilmasini murakkabligidadir. Ushbu qurilmaning kamchiligi energiya uzluksiz berilsa, mahsulotning harorati tez oshib ketadi, uni rostlash qiyin va bu apparatda 100oS dan past temperaturada mahsulotlarni quritish imkoniyati bo‘lmaydi. Ana shu kamchiliklarni inobatga olgan holda resurstejamkor o‘ta yuqori chastota energiyali-barabanli quritish apparati taklif qilindi



**Uzluksiz ishlaydigan mikroto‘lqinli-barabanli quritish qurilmasi:**

1-yuritma, 2-uzatma, 3-baraban, 4-yuklash uskunasi, 5-bunker, 6-tashuvchi shnek, 7-

so‘ruvchi parrak, 8-to‘kish darchasi, 9-to‘lqin so‘ndirgich, 10-O‘YuCh paneli, 11-elektromagnit generatorlari, 12-bug‘-havo aralashmasini haydash trubkasi, 13-issiq havo berish trubkasi, 14, 15-yon qopqoq, 16-rezina salnik

Quritish jarayoni bilan korxonalar qadoqlash, saqlash va tashish xarajatlaridan sezilarli darajada tejashadi. Chunki oziq-ovqat mahsulotlarining vazni va hajmi sezilarli darajada kamayadi va ushbu mahsulotlarni atrof-muhit haroratida saqlash mumkin. Energiya narxining keskin o‘sishi so‘nggi yillarda dunyo bo‘ylab quritishga bo‘lgan qiziqishning keskin oshishiga olib keldi. Bugungi kunda har xil turdagi quritgichlar va quritish usullari tijorat maqsadlarida turli xil oziq-ovqat mahsulotlaridan, shu jumladan meva va sabzavotlardan namlikni olib tashlash uchun ishlatiladi, ularning har biri ma'lum bir maqsad uchun ishlatiladi. Biroq, inson salomatligi va atrof-muhitni himoya qilish bo‘yicha harakatlar doirasida odamlar quritish usullarida tabiiylikni izlay boshladilar. Shuning uchun bugungi kunda mevalar va ba'zi sabzavotlar, masalan anjir, o‘rik, uzum va xurmo quyoshda quritishga harakat qilmoqda va ba'zi hollarda atmosferada suvsizlanish jarayonlari qo‘llaniladi.

Quritish jarayoni bir vaqtning o‘zida ham diffuzion, ham issiqlik jarayoni hisoblanib, natijada bu jarayonlar quritilayotgan mahsulotlar xossalari o‘zgarishini keltirib chiqaradi<sup>3</sup>. Quritish jarayonida mahsulotdan suv batamom chiqarilib yuborilmaydi, balki bu jarayon quritish agenti parametrlariga mos ravishda teng namlik vujudga kelguncha davom etadi. Masalan, bu yerda quritish agenti sifatida qizdirilgan havo rol o‘ynashi mumkin. Ma'lumki, meva va sabzavotlarda suv erkin (hujayra

sharbati) va bog‘langan holatlarda bo‘ladi. Lekin meva sabzavotlarda erkin suv miqdori bog‘langan suv miqdoriga nisbatan ancha ko‘p bo‘ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1-O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish dasturi (1998-2000 yillar) T., O‘zbekiston 1998

2-Balashev N.N., Zeman G.O. “Sabzavotchilik” T., “O‘qituvchi”, 1977.

3-Bo‘riev X.Ch., Zuev V.I., Qodirxo‘jaev O. Muxamedov M.M. “Ochiq yerda sabzavot ekinlar yetishtirishning progressiv texnologiyalari” T., “O‘zMEDIN”, 2002.

Edu.uz

Ziyonet.uz



## UOLT UILTMAN NASRIDA “AMERIKA ORZUSI” KONSEPTI

Fayzullayeva Nigina Sur’at qizi

BuxDU I bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) M.R.Kilicheva

**Annotatsiya:** Maqolada jahon adabiyotining mashhur yozuvchisi Uolt Uitman ijodi orqali Amerika xalqlarining talqini aks etgan va shoirning she’riyatida tutgan o’rni haqida so’zlangan.

**Kalit so’zlar:** Uolt Uiltman, “Leaves of Grass”, “The Inebriate”,

Dunyo xalqlarining birodarligi va umuminsoniy adolat kuychisi sifatida tarixda qolgan, qolaversa, erkin she’rning otasi deb atalgan shoir, esseist va jurnalist Uolt Uitman Qo’shma Shtatlardagi she’riyatga katta ta’sir ko’rsatgan. Uning eng mashhur asari – “Leaves of grass” ning birinchi marta nashr etilganida bahs-munozaralarga sabab bo’lgan. Uitmanning she’riy uslubi inqilobiy bo’lib, u birinchi marta " Barglarning barglari" deb nomlangan va Ralf Valdo Emerson tomonidan maqtovga loyiq topilgan. Ozgina vaqt o’tgandan keyin Whitman tomoshabinlarni jalb qila boshlagan, lekin u ko’pincha tanqidlarga uchragan. So’nggi o’n yilliklar mobaynida Uiltmanning shahvoniyligi, uning atrofidagi munozaralarda namoyon bo’lgan. Shuningdek, shoir ko’p yillar davomida ziddiyatlarga duch kelgan bo’lsa-da, umrining oxiriga kelib u ko’pchilik tomonidan "Amerikaning yaxshi kul shoiri" deb nomlangan. Uitman adabiyotning yana bir "keksa oq tanli yigiti" ekanligi bi bir necha marotaba ta’kidlab kelingan.

Uolt Uitmanning dastlabki ijod namunalari ancha an’anaviy bo’lgan. Shoir mashhur tendentsiyalar haqida yozgan va shahar hayotiga oid eskizlarni yaratgan. 1842-yilda shoirning dastlabki romani “The Inebriate”da Franklin Evans bosh qahramon bo’lib, u yosh va soda yigit bo’lgan, u do’sti (Kolbi) tomonidan osongina aldangan va oxir-oqibat-da ichkilikka ruju qo’yan. Franklin ko’p marta spirtli

ichimliklarni iste'mol qilmaslikka harakat qiladi, lekin ikkita xotini vafoti va bir necha muvaffaqiyatsizliklar qahramonni yana-da ichkilik domiga tortadi. Franklin Evans obrazi orqali shoir o'z xatolari orqali yashayotgan va ularni o'rganayotgan, hayot yo'li davomida saboqlarini olayotgan yigitning sayohati orqali aks ettirilgan. Uiltman shu asarida alkogolizm dahshatlarini tasvirini keltirgan. Keyinchalik, Uitmanning romanni "chirigan" deb tan olishi mumkin edi, ammo nashr etilganida tijorat jihatidan muvaffaqiyatga ega bo'lgan.

Shoir o'zining dastlabki ish faoliyatini turli gazeta va jurnalda faoliyat olib boorish bilan boshlagan, masalan, 1840-yillarning o'rtalarida Uiltman "Bruklining kunlik burguti" gazetasida muharriri bo'lib ishlagan, biroq uning "Erkin tuproq" partiyasi bilan siyosiy qarashlari oqibatida uni ishdan bo'shatdi. Keyinchalik, 1848 yilning boshida Nyu-Orlean gazetasida ishlagan, o'sha davrda shoir uchun shaharning ekzotik tabiati yoqimli bo'lsa-da, u Bruklining uyiga ko'chib ketgan. So'ngra, 1850- yillarning boshlarida shoir gazetalar uchun yozishni davom ettirgan, va albatta, uning diqqat markazida she'riyat bo'lgan. Uiltman o'zining atrofidagi mashxur shahar hayotidan ilhomlanib she'rlar yoza boshlagan..

Bunga ko'ra, Uitmanning yana bir mashhur she'riy to'plami "Leaves of grass"ning birinchi nashrini nashr eta boshlagan. Kitobda hali she'riyatda noma'lum bo'lgan, noodatiy yo'nalishda ijod olib borilgan. Uiltman o'zining she'rlarida ajoyib so'zlarni yozgan, aslida o'zini "amerikalik bard" deb tasvirgan. Qizig'i shundaki, kitobning sarlavha varag'i, ehtimol, tekshirish uchun muallifning nomi qayd etilmagan.

"Leaves of grass"ning haqiqiy nashrida Uitmanning o'ziga xos lavhalarni keltirgan, masalan, Nyu-Yorkdagi olomon, zamonaviy kashfiyotlar, xalqni hayron qoldirgan voqealar va hatto-ki 1850-yillarning shafqatsiz siyosati o'z aksini topgan. Uiltman ijodi davomida oddiy odamlarning shoiri bo'lishga harakat qilishiga qaramasdan, uning kitobi boshqa shoirlarnikidan katta farq qilmadi. Biroq, "Leaves of Grass"ning barglari bitta katta jamiyatni o'ziga qamrab olgandi. Uiltman o'z ijodi bilan, yozuvchi va ma'ruzachi Ralph Voldo Emersonni hayratga solgan va unga kitobining

bir nusxasini yuborgan. Emerson uni o‘qib chiqib, katta taassurot bildirib, o‘zining fikrlarini go‘zal maktub orqali bayon etgan. "Men sizni katta martabaning boshida o‘zimning salomim bilan qutlayman", - deydi Emerson Whitmanga maxsus maktubda. Shu xat orqali Uiltman o‘z kitobini targ‘ib qilishni istagan.

Qolaversa, hozirgi zamon shoirlari ham Uiltman ijodiga befarq emasliklarini bildirganlar. Bunga misol qilib, Germaniyalik tadqiqotchi Schöberlein shunday deydi: "Men sinfda Uitmanning kamroq ma'lum bo‘lgan sevgi she'rlaridan birini tez-tez o‘qiyman va shogirdlarim butun asar ikki jins vakillari ham teng ekanligini tushunishganida, ular yuzidagi hayratni ko‘rishdan zavqlanaman - bu ularga shunchalik beparvo tuyuldiki, dastlab ular buni sezmadilar”.

Fikrim so‘ngida shuni aytishim mumkin-ki, Uitman noma'lum siyosiy va falsafiy mutafakkir bo‘lib, ijodi davomida o‘zining shaxsiy tarafkashliklarini yengib o‘tishga qodir shaxs - bu haqiqatan ham ajoyib. Shu o‘rinda, uning barcha jasoratlari va shov-shuvlarini bir chetga surib qo‘ysak-u, Uitmanning qarashlari birinchi navbatda “demokratiya”ga yo‘naltirilganligi va uning xulq-atvorlari yig‘indisi, dunyoga qarashi haqidagi asosiy tezisi men uchun juda muhim tushuncha bo‘lib qolmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. [http://americanenglish.stat.gov/files/ae/resource\\_files/1-the\\_gift\\_of\\_the\\_magi\\_0.pdf](http://americanenglish.stat.gov/files/ae/resource_files/1-the_gift_of_the_magi_0.pdf)
2. [https://americanenglish.state.gov/files/ae/resource\\_files/a-retrieved-reformation.pdf](https://americanenglish.state.gov/files/ae/resource_files/a-retrieved-reformation.pdf)
3. [https://www.booksite.ru/fulltext/gen/ri/genri\\_o/stories/obrash.htm](https://www.booksite.ru/fulltext/gen/ri/genri_o/stories/obrash.htm)
4. [https://americanenglish.state.gov/files/ae/resource\\_files/the-last-leaf.pdf](https://americanenglish.state.gov/files/ae/resource_files/the-last-leaf.pdf)



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARDA SOG'LOM RAQOBATNI SHAKLLANTIRISH INTELEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISH

**O'razaliyeva Sojida Tojiboy qizi**

Toshkent viloyati chirchiq davlat pedogogika instituti tyutor

**Ustayeva Dinola Nuraliyevna**

TVCHDPI MAT 21/6 guruh talabasi

Email: [sojidaorazaliyeva@gmail.com](mailto:sojidaorazaliyeva@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ular orasida doimo sifat fan va ta'lim va boshqa sohalarda raqobat bo'ladi. Bu raqobat tarbiyachilar va tashkilot pedagoglarning sog'lom fikr yuritishiga va ta'lim muhitini yaxshilashga olib keladi. Ta'lim muhiti musaffo joyda ta'lim-tarbiya jarayoni sifatli va samarali bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Raqobat va rag'bat, sog'lom raqobat, sifatli ta'lim, intellektual salohiyat

**Annotation:** Preschool education organizations and between them there will always be competition in quality science and education and other areas This competition leads educators and organizations to think healthy and improve the learning environment

**Keywords:** Competition and incentives healthy competitive quality education intellectual potential

Dunyoning rivojlangan davlatlari singari yurtimizda ham ta'lim-tarbiya va yoshlar tarbiyasiga e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda intellektual salohiyatli kadrlarni tayyorlash asosiy bosh vazifamiz hisoblanadi. Chunki kadrlar yosh avlodni tarbiyalovchi shaxslar hisoblanishadi. O'g'il-qizlarimizning zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishda va dunyo mamlakatlari bilan raqobatbardosh etib tarbiyalash pedagoglar zimmasida.

«Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Prezidentimiz ta'lim tizimini isloh qilish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritar ekan, ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning «Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i maktabdir» degan fikrini alohida ahamiyatga ega. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki ta'limni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi.

Ma'lumki, murakkab o'tish yillarida ta'lim tizimidagi ma'naviy-ma'rifiy muhit, o'qituvchi kasbining obro'yi, nufuzi pasayib ketgani, yangi davr pedagoglarini tarbiyalash, pedagogika fanini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy etishga yetarli e'tibor berilmagani sohada bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi.

Ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini yangilash zarurligi, bilim berishda chet eldagi ilg'or tajribalardan foydalanish, tarbiyada esa milliy an'ana va qadriyatlarga suyanish muhimligi qayd etildi.

Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish bo'yicha chiqayotgan Prezident qonun va farmonlari, vazirlar mahkamasining qaror va farmoyishlari, maktabgacha ta'lim vazirligining normativ-huquqiy hujjatlarining qabul qilinishi bu soha rivoji uchun juda muhim va aniq vazifalarni belgilab berishga uni amaliyotga tadbiq etishga zamin yaratdi.

Shu kabi ishlab chiqilayotgan qaror va farmonlar ijrosi va ularning isloh qilinishida huquqiy savodxonligi yuqori tarbiyachi –pedagoglarga yuklangan. Maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy savodxonligi yuqori kreativ fikrlovchi

kadrlarga ehtiyoj juda katta hisoblanadi. Shu sababli ham pedagog kadrlar va ular o‘rtasida sog‘lom raqobatni shakllantirish maqsadida turli xildagi seminar treninglar, ularni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga oid qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

**Bular shular jumlasidan:**

- Zakovat ko‘rik tanlovi (tarbiyachilar o‘rtasida)
- Mohir qo‘llar tanlovi
- Yil tarbiyachisi
- Ochiq eshiklar kuni

Shu kabi tadbirlar tashkil etilmoqda. Bu kabi tadbirlardan ko‘zlangan asosiy maqsad zamonaviy pedagog va uning hozirgi qiyofasiga hrmat bilan qarash va tarbiyachi – pedagoglar o‘rtasida fikr almashishni ta’minlash.

**Afzallik tomonlari.**

- Innovatsion g‘oya va uni amalga qo‘llash uchun muhit
- Yangicha yondashuvdagi mashg‘ulotlarni tashkil qilish uchun metodik yordam
- Ijodkorlikni va kreativlikni shakllantirish
- Fikr almashish va sog‘lom raqobat uchun innovatsion loyihalar (bir biriga o‘xshamagan)
- Master-klass
- Yangi bilimlarni qabul qilish va egallash texnologiyalarini o‘rganish.

Tanganing ikkinchi tomoni bo‘lgani kabi bu singari innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish va intellektual yetuk kadrlar salohiyatini yana ko‘rsatishida o‘zlarini namoyon etishlarida ham muammolarga duch kelishmoqda.

**Mavjud muammolar:**

- Sohaga doir metodik qo‘llanmalarining kamligi
- Tarbiyachi pedagoglar uchun qo‘shimch yuklamalarning ko‘pligi
- Ortiqcha qog‘ozbozlik
- Qabul qilinayotgan qarorlar mohiyatini to‘liq ochib beruvchi kadrlarning yetishmasligi shu kabi ko‘pgina muammolar hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar**

Bu kabi muammolarni bartaraf etish yo‘llarini izlash va ta’lim jarayonida tadbiq qilish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Takliflar:**

- Yangi go‘ya yoki loyihani amalga oshirish uchun moddiy ta’minot bilan ta’minlash
- Metodik va metodologik resurslar bilan ta’minlash
- Ilg‘or va kreativ fikrlovchi salohiyatli kadrlarni moddiy rag‘batlantirish
- Muassasalarda tashkil etiladigan ma’naviyat soatlarida seminar-trening o‘tkazish
- Ustoz-shogirt an‘analariga zamonaviy yondashish
- Taqdimot va seminarlar tashkil etish va ularni keng targ‘ib etish uchun AKT vositalarining yetarli bo‘lishi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Shavkat Mirziyoyev., Erkin va farovon, Demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz’. Toshkent - „O‘zbekiston’’-2016.
Томорқа ер участкаси	<p>Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштириш учун ер майдони</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- соф қишлоқ хўжалик маҳсулоти қийматидан келиб чиққан ҳолда солиққа тортиш (Ф.Кене, С.Дюпон);</li> <li>- ернинг яхшиланиш харажатларини ва бошланғич қийматини ҳисобга олган ҳолда солиқ ундириш (Д.Рикардо);</li> <li>- ҳисобланган ёки ҳақиқий рента асосида солиқ солиш (А.Смит);</li> <li>- ишлаб чиқарилган маҳсулот қийматидан келиб чиққан ҳолда солиққа тортиш (Г.Жорж);</li> </ul>

Ҳозирги солиқ қонунчилигида амалиётга киритилган солиқ имтиёзларига назар ташлайдиган бўлсак, уларнинг мазмун - моҳияти айнан ушбу асослар билан йўғрилганлигини гувоҳи бўламиз.

Аҳолига тегишли томорқа ерларида суғориладиган ерлар унумдорлигидан фойдаланиш ва уни рағбатлантириш, қишлоқ хўжалиги оборотидан чиқиб кетган ер майдонларидан самарали фойдаланишда бозор механизмининг айрим жиҳатлари, хусусан, ер солиғи тўлашда ер унумдорлигини ошираётган хўжалик субъектларига ер солиғидан (қисман ёки тўла) имтиёзлар тақдим этиш молиявий қўллаб-қувватлашнинг самарали усули бўлиб хизмат қилади.

Маълумки, Томорқа ер эгалари ердан фойдаланганлик учун ижара ҳақи тариқасида ер участкасининг сифати, жойлашган манзили ва сув билан таъминланганлик даражасига кўра, унинг кадастр баҳоси (меъёрий қиймати)дан келиб чиққан ҳолда, ҳар йили ер учун ижара ҳақи яъни , ер солиғи тўлайдилар. Янги таҳрирда қабул қилинган “Солиқ кодекси”га кўра, 2020 йил 1 январдан бошлаб, фермер хўжаликларида ягона ер солиғи ўрнига ер солиғи тўлаш амалиётига ўтилди.Унда мулк ҳуқуқи, эгалик қилиш, фойдаланиш ёки ижара ҳуқуқлари асосида юридик ва жисмоний шахслар, фуқароларда бўлган ер участкалари ердан фойдаланувчилардан олинadиган ер солиғининг объекти ҳисобланади. Фермер хўжалигига берилган ер участкасидан фойдаланганлик учун ҳақ солиқ қонунчилигига асосан, ер солиғи тўловлари йилига икки марта: ҳисобот йилининг 1 сентябригача – йиллик солиқ суммасининг камида 30 фоизини ва ҳисобот йилининг 1 декабригача – солиқ суммасининг қолган қисмини тўлайди<sup>95</sup>.

Муаллифнинг фикрича, ер солиғини тўлашда қулай шарт-шароитларни яратиш мақсадида уни тўлашни қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини ишлаб

<sup>95</sup> Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси (янги таҳрири).(ЎзР 30.12.2019 й.ЎРК-599-сон Қонуни билан тасдиқланган).

чиқариб, реализация қилгандан сўнг, даромади маълум бўлганда тўлаш амалиётига ўтиш керак. Ҳисобот йилининг 1 сентябргача – йиллик солиқ суммасининг 50 фоизигача ва ҳисобот йилининг 1 декабригача – солиқ суммасининг қолган қисмини тўлайди. Бунда ер солиғини ҳисоблаш ва тўлаш бўйича харажат ва вақт тежалишига олиб келади, солиқ мажбуриятларини ўз вақтида амалга ошириш имкониятлари кенгайди. Ер солиғи яқунлаган ҳисобот йили кўрсаткичлари асосида экин майдони меъерий қийматидан келиб чиқиб белгиланади.

Томорқа ер эгалари фаолиятини молиявий қўллаб-қувватлашда солиқ имтиёзларидан фойдаланиш ва кўламини ошириш бўйича олиб борилган тадқиқотлар натижасида қуйидаги таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилди:

1. Томорқа ер эгаларини солиққа тортишда ерларнинг унумдорлик даражасидан келиб чиқиб, солиқ ставкаларини белгилаш;
2. Томорқа ер эгалари фаолиятини солиқ имтиёзлари орқали рағбатлантиришда ишлаб чиқариладиган маҳсулотнинг стратегик аҳамиятидан келиб чиқиб жорий қилиш;
3. Ер ва мол-мулк солиғини ундиришда табиий ресурс тежамкорлигига ва экологик муаммоларнинг ечимига этиборни қаратиш;
4. Аҳоли томорқаларида етиштирилган маҳсулотларни қайта ишлаш ва қўшимча қиймат занжирини ҳосил қилишдаги иштирокига қараб солиқдан имтиёзлар бериш;
5. Экспортга маҳсулот ишлаб чиқарувчи томорқа ер эгаларига солиқдан тўла ёки қисман имтиёзлар бериш;
6. “Инсофли” солиқ тўловчилар учун, охириги 5 йиллик солиқдан қарздорлиги бўлмаган томорқа ер эгаларига солиқ каникули ёки солиқ кредитини тақдим қилиш.

Ушбу таклифларни инобатга олган ҳолда солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш ва амалиётга жорий қилиш қишлоқ хўжалигида томорқа ер эгалари фаолиятининг ривожланишига, аҳолини даромадининг ошишига, бозор

учун маҳсулот ишлаб чиқарувчилар ўртасида рақобат муҳитининг шаклланишига хизмат қилади.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси (янги таҳрири),(ЎзР 30.12.2019 й.ЎРҚ-599-сон Қонуни билан тасдиқланган)
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 29 июндаги ПФ-5468-сон «Ўзбекистон Республикасининг солиқ сиёсатини такомиллаштириш концепцияси тўғрисида»ги Фармони.
3. Ўзбекистон республикаси президентининг“Ўзбекистон республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” ги 23.10.2019 йилдаги ПФ-5853-сон фармони.
4. Воронин С., Корабоев Б., Ниязметов И., Угай Д. Международный опыт налогообложения недвижимости // Общество и экономика. – 2021. – Выпуск 2 С. 119-130.

### Интернет ресурслари

1. <http://WWW.mf.uz> – (Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирлиги расмий сайти)
2. <http://WWW.soliq.uz> – (Ўзбекистон Республикаси Давлат Солиқ қўмитаси расмий сайти)
3. <http://WWW.stat.uz> – (Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитаси расмий сайти)

**“ТОМОРҚА ХИЗМАТИ” МЧЖ ЛАР ФАОЛИЯТИНИ СУҒУРТА  
ХИЗМАТИ ОРҚАЛИ МОЛИЯВИЙ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ –АҲОЛИ  
ТОМОРҚАЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ГАРОВИДИР**

**Хакимов Зафар Ибрагимович,**

ТМИ- мустақил тадқиқотчи

[zafarxakimov39@gmail.com](mailto:zafarxakimov39@gmail.com)

**Аннотация:** Ушбу тадқиқот ишида, “Томорқа хизмати” МЧЖ лар фаолиятида суғурта хизматидан фойдаланиш ва хорижий давлатлар тажрибаси асосида томорқ ер эгаларини молиявий қўллаб- қувватлаш масалалари тадқиқ этилган.

**Калит сўзлар:** “Томорқа хизмати” МЧЖ, томорқа ер эгалари, суғурта механизми, мажбурий суғурта, ихтиёрий суғурта, кластер.

**Аннотация:** В данном исследовании рассматривается использование страховых услуг в деятельности ОСОО “Томорқа хизмати” и финансовая поддержка землевладельцев на основе опыта зарубежных стран.

**Ключевые слова:** ОСОО “Томорқа хизмати” , землевладельцы, страхоой механизм, обязательное страхование, добровольное страхование, кластер.

**Annotation:** This study examines the use of insurance services in the activities of LLC "Tomorqa Khizmati" and financial support for landowners based on the experience of foreign countries.

**Key words:** LLC "Tomorka Khizmati", landowners, insurance mechanism, compulsory insurance, voluntary insurance, cluster

Ҳозирги вақтда маҳаллий бозорларимизга етказиб берилмаётган қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштиришда нафақат фермер, деҳқон хўжаликлари

балки, шахсий томорқа ерларига эга аҳолининг ҳам муносиб хиссаси бор. Томорқадан юқори ҳосил ва даромад олаётган миришкор деҳқонларимизнинг сони йилдан-йилга ошиб боришида томорқа билан ишлайдиган, аҳолига моддий ресурсларни етказиб берадиган, молиялаштирадиган ва экин екишни назорат қиладиган тизим яратилиб, ҳудудларда “Томорқа хизмати” МЧЖлар фаолиятининг йўлга қўйилгани ҳам муҳим ўрин тутмоқда. Мамлакатимизда “Томорқа хизмати” МЧЖ лар фаолиятини ташкил этиш ва ривожлантириш қишлоқ хўжалиги соҳасида янги мулкчилик турларининг пайдо бўлишига сабаб бўлди. Шундай экан, мамлакат иқтисодиётида аҳоли томорқаларидан самарали фойдаланишда “Томорқа хизмати” МЧЖ лар сонини кўпайтириш ва уларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш долзарблик касб этади. Сўнгги йилларда Ҳукуматимиз томонидан аҳоли томорқаларидан самарали фойдаланишга оид бир қатор қонун, қарор ва фармонлар асосида ушбу соҳага кенг имтиёзлар берилиб, молиявий томондан қўллаб-қувватланмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 16 декабрдаги “Томорқадан фойдаланиш самарадорлигини ошириш, шунингдек, аҳолининг тадбиркорлик ташаббусларини молиявий қўллаб-қувватлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” ги ПҚ-54-сон Қарори томорқа хизмати МЧЖ лар фаолиятида муҳим рол ўйнади. Ушбу қарорнинг мазмунида “Томорқа хизмати” МЧЖ ларни молиявий қўллаб-қувватлаш йўналишларига алоҳида эътибор қаратилди. Мамлакатимизда мева-сабзавотчилик кластерлари, деҳқон хўжаликлари ва томорқачиликни ривожлантириш, уларни молиялаштириш бўйича янги тизим жорий этилди. Унга кўра, қишлоқ хўжалигини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш жамғармаси томонидан мева-сабзавот етиштирувчиларни имтиёзли кредитлаш йўлга қўйилди. Бунинг учун кластер, фермер ва банк ўртасида уч томонлама шартнома тузилиб, кредитлар бир йилга, 6 ойлик имтиёзли давр билан, 14 фоиз ставкада ажратилади.

Кластерларга аҳолидан маҳсулот сотиб олишга айланма маблағ учун 12 ойлик “револьвер” кредитлар ҳам берилади. Яъни, кластер қачон зарур бўлса,



маблағ олади ва фоизини кредитдан фойдаланган давр учун тўлайди. Бунда кластерлар ихтиёрида бўш пул маблағлари туриб қолиши олди олиниб, уларнинг харажатлари қисқаради.

Ушбу мақсадлар учун жами 2 триллион сўм йўналтирилади. Кичик интенсив боғ, узумзор ва мева-сабзавотчиликни ривожлантириш учун 14 фоизлик имтиёзли ставкада 100 миллион сўмгача гаровсиз кредит берилади. Бунга халқаро молия ташкилотларининг 100 миллион доллар маблағи йўналтирилади<sup>96</sup>.

Аммо қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштирилгандан сўнг ўз вақтида реализация қилинмаса, сифати бузилиб кластерларга катта зарар олиб келади. Шунинг учун, бу хатарни олдини олиш мақсадида суғурта хизматини ташкил этиш зарурияти ортади. Эндиликда, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларни суғурталаш орқали молиявий -қўллаб қувватлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Хусусан, амалдаги қонунчиликка кўра, 2022 йил 1 мартдан бошлаб, экспорт шартномаси мавжуд бўлган “Томорқа хизмати” МЧЖ га қарашли мева-сабзавотчилик кластерлари (кооперациялар) ва томорқа ер эгаларига мева-сабзавот ҳосилини хавф-хатардан суғурталаш хизматидан фойдаланганда тўланган суғурта мукофотининг 50 фоизи қоплаб берилади. Суғурта пули хавф-хатардан суғурта қилинаётган ҳосил қийматининг 70 фоизидан кам бўлиши мумкин эмаслиги низомда белгилаб қўйилди.

Айниқса, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқарувчиларни суғурталаш орқали молиявий -қўллаб қувватлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Хусусан, амалдаги қонунчиликка кўра, 2022 йил 1 мартдан бошлаб, экспорт шартномаси мавжуд бўлган мева-сабзавотчилик кластерлари (кооперациялар) ва фермер хўжаликларига мева-сабзавот ҳосилини хавф-хатардан суғурталаш хизматидан фойдаланганда тўланган суғурта мукофотининг 50 фоизи қоплаб берилади. Суғурта пули хавф-хатардан суғурта

96 Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳоли томорқаларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг қўшимча чора - тадбирлари тўғрисида” ги 2020 йил 30 июндаги ПҚ-4767-сон Қарори.-.html/Lex. uz.

қилинаётган ҳосил қийматининг 70 фоизидан кам бўлиши мумкин эмаслиги низомда белгилаб қўйилди.

Қишлоқ хўжалигида суғурта механизмининг анъанавий моделида суғурталанувчи (юримдик ва жисмоний шахслар) ва суғурта ташкилотининг иштироки назарда тутилади. Аммо ривожланган давлатларда давлат бюджети кўмаги билан қишлоқ хўжалигида тадбиркорлик хатарларини суғурталашда, суғурталанувчи (юримдик ва жисмоний шахслар), суғурта ташкилоти ва давлат иштирок этадиган “Давлат хусусий шерикчилик” модели кенг қўлланилади. Буни ташкил этишдан мақсад, муносабатнинг асосий лидери давлат бўлиб, барча молиявий йўқотиш унинг кафиллиги эвазига ташкил этилади. Яъни, лойиҳа ташаббускори ва ташкилотчилик давлатнинг зиммасига юклатилади.

Давлат хусусий шерикчилик моделида давлат суғурта ташкилотининг фаолиятини амалдаги қонунчилик доирасида назоратини олиб боради. Бундан ташқари, қишлоқ хўжалигини суғурталашни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тўғрисидаги махсус қонун давлат ва хусусий шерикчиликнинг муайян моделидаги барча иштирокчиларнинг муносабатларини тартибга солиб туради.

Аксарият моделларда давлат суғурталаш шартларини мувофиқлаштириш билан бирга суғурта мукофотларини миқдорини белгилайди, бюджет маблағлари эвазига субсидиялаштиради ва харажатларнинг маълум қисмини қоплаб беради.

Амалдаги қонунчиликда давлат суғурта ташкилотининг суғурта хизматларини кўрсатиш билан боғлиқ маъмурий харажатларининг бир қисмини қоплаши ва юқори ҳалокатли йўқотишлар юзага келганда давлат ҳимоясини таъминлайди. Катта офатлар юз беришида давлат суғурта ташкилотларига маҳаллий субсидиялаш манбаларини ёки ҳалқаро суғурта ташкилотлари маблағларидан фойдаланишини жорий этиши мумкин. Ушбу шерикчиликда суғурта ташкилотининг роли суғурта хизматларини ташкил этиш ва реализация ишларини олиб боришдан иборат бўлади.

Қишлоқ хўжалигини суғурталашга ихтисослашган суғурта ташкилотлари

тадбиркорлик субъектларига суғурта полисларини сотади, мукофотларни ййғади, хавфларни баҳолайди ва даъволарни кўриб чиқади. Суғурта ходисаси юз берганда суғурта қопламаси миқдорини аниқлайди ва тўлайди, шунингдек, суғурта фаолиятдан олинадиган даромадлар ва зарарларни давлат ўртасида тақсимлайди.

Давлат иштирокида қишлоқ хўжалигини суғурталаш моделида суғурта ташкилоти учун қайта суғурталаш мажбурий ҳисобланади.

Суғурта механизмини жорий этишда қишлоқ хўжалиги ривожланган хорижий давлатлар тажрибасидан фойдаланиш соҳани ривожланишига яқиндан ёрдам беради.

Жумладан, АҚШда давлат томонидан қўллаб -қўвватланадиган қишлоқ хўжалигини суғурта қилиш модели ҳалқаро амалиётдаги энг яхши моделлардан бири ҳисобланади. АҚШ қишлоқ хўжалигини суғурталаш тизими ҳукуматнинг бу соҳадаги хавфларни бошқариш механизмига катта эътибор қаратиб келаётганлиги билан ажралиб туради. Мамлакатда субсидиялашган қишлоқ хўжалигини суғурталаш “Федерал қишлоқ хўжалиги суғурта корпорацияси” амалга оширади.

Унинг вазифалари бўлиб, суғурта мукофотлари ставкаларини белгилаш, субсидиялар бериш ва суғурта маҳсулотларни тасдиқлаш ҳисобланади. Ўз навбатида унинг фаолияти АҚШ Қишлоқ хўжалиги вазирлигининг “Хатарларни бошқариш агентлиги” томонидан назорат қилинади. Федерал корпорациянинг асосий вазифаси субсидиялашган суғурта хизматларини тақдим этадиган суғурта ташкилотлари фаолиятини назорат қилишдир. АҚШда қишлоқ хўжалигини суғурта қилиш тизими мажбурий ҳисобланади.

Шунингдек, Бразилияда ва Мексикада қишлоқ хўжалигини суғурталаш бўйича суғурта шерикчилиги тажрибаси ривожланаётган давлатлар учун дастуруламал бўлиб хизмат қилади. Хусусан, Бразилияда суғурта соҳасида давлат ва хусусий сектор ўзаро таъсир доирасида фаолият олиб бориши учун

лицензия талаб қилинади. Лицензия бериш тартибига кўра, суғурта ташкилоти суғурталаш лозим бўлган маҳсулот тури ва молиявий ресурслари миқдори асос қилиб олинади.

Давлат устуворлигидаги суғурта моделлари Канадада қишлоқ хўжалиги суғуртаси ихтиёрий суғурта тури ҳисобланиб 60 йилдан ортиқ тарихга эгадир. Канада суғурта ташкилотлари ва давлатнинг қишлоқ хўжалигини суғурталаш соҳасидаги ўзаро муносабатлари ҳам диққатга сазовор, шунингдек, бу яратилган ҳамкорлик модели мана бир неча ўн йиллар давомида ўз устунлигини кўрсатиб келмоқда. Давлат ажратадиган субсидиялар суғурта қопламасининг 70 фоизини қамраб олган ҳолда, суғурта мукофотининг ўртача 50 фоизини ташкил этади<sup>97</sup>. Экинларнинг алоҳида кесимида субсидиялар 30-60 фоизларни ташкил қилиш мумкин. Суғурта қопламаси умумий миқдорда 85 хил экин турларини қамраб олади. Шунингдек, фермерлар ихтиёрида кўп даражали ва индекс суғуртаси бўйича 150 дан ортиқ суғурта маҳсулотлари мавжуд. Бундай шерикчиликнинг (давлат ва хусусий сектор ўртасида) муваффақиятли ривожланишида давлат томонидан қишлоқ хўжалигидаги ишлаб чиқарувчиларнинг (суғурталанувчиларнинг фикр ва мулоҳазалари доимий равишда ўрганилиб борилиши) ҳақиқий муаммолари ва эҳтиёжлари аниқ белгилаб олинганлигидир. Канаданинг баъзи вилоятларида Қироллик қишлоқ хўжалиги суғуртаси корпорациялари деб номланган ва бозор тамойиллари асосида ишловчи давлат компаниялари фаолият юритади. Фавқулодда ҳолатларда бу корпорациялар қайтариб бериш шarti билан ҳукуматдан молиявий ёрдам олиш ваколатига эга ҳисобланади.

Канада ҳукумати суғурталаш харажатларининг катта қисмини қоплайди. Субсидияларнинг ўртача миқдори суғурта мукофотининг 60 фоизини ташкил этади. Бироқ умумий суғурта мукофотининг атиги 40 фоизи фермер томонидан тўланади. Субсидиялар тўғридан-тўғри давлат томонидан суғурта компанияларига ўтказилади. Канада хусусий суғурта компаниялари қишлоқ

<sup>97</sup>. Сүпян В.Б. Экономика США: ресурсы, структура и динамика. М.: Магистр Инфра-М, 2014.

суғуртаси бўйича суғурталанувчиларга субсидия ажратилмайдиган чекланган суғурта маҳсулотларини асосан дўл, ёнғин хавфидан суғурталаш тақдимэтишади.

Ҳозирги кунда Канадада 30 тага яқин суғурталаш давлат дастурлари мавжуд бўлиб, улар аграр корхоналар учун хатарларни бошқариш ва даромадларини кўпайтириш борасидаги мамлакат сиёсатини белгилайди.

Европада қишлоқ хўжалиги тараққий этган давлатлардан бири Исроил ҳисобланади. Исроилда қишлоқ хўжалиги суғуртаси ярим асрдан бери давлатнинг фаол қўллаб-қувватлаши асосида ривожланиб келмоқда. Мамлакатда табиий офатлардан химоя қилиш бўйича “KANAT” фонди қишлоқ хўжалигини суғурталашни назорат қилади, шунингдек, суғурта мукофотларини (35% барча турдаги қишлоқ хўжалиги экинлари ва ҳайвонларни) ва қайта суғурта хавфларини суғурталашда субсидияларни ажратади. Шунингдек, ҳукумат табиий офатлар бўйича алоҳида дастурлар (The Natural Disaster Program) доирасида фермерларга суғурта мукофотларининг 80 фоизини тўлаб беради<sup>98</sup>. Ушбу дастур “KANAT” фонди орқали давлат томонидан бошқарилади. Бундан ташқари, ушбу ташкилот деярли барча турдаги экинларни суғурталашни таъминлайди, шунингдек мамлакат бўйлаб ҳайвонлар ва сув хўжалигини суғурта қилиш дастурларини амалга ошириб келади.

Суғурта шерикчилиги орқали қишлоқ хўжалигини суғурталаш модели қишлоқ хўжалигини суғурталаш дастурлари АҚШ ва Канададан ташқари яна Испания моделида ҳам 35 йилдан бери самарали давлат-хусусий шерикчилиги асосида ривожланиб келмоқда. 1978 йилда Испанияда қишлоқ хўжалигини суғурталаш миллий дастури ташкил этилган бўлиб, уни давлат компанияси бошқаради (бугунги кунда бу суғурта шерикчилик таркибига 27 та хусусий суғурта компаниялари киради). Ушбу компания доирасида фермерларга қишлоқ хўжалиги экинлари, сув хўжаликлари ва ҳайвонларни суғурталаш бўйича 100 дан ортиқ суғурта маҳсулотлари тақдим этилади.

<sup>98</sup> Мальцева В.А. Государственная поддержка сельского хозяйства в зарубежных странах: эволюция теории и практики реализации. Екатеринбург, УМЦ УПИ, 2015.

Испания ҳукумати қишлоқ хўжалиги экинлари билан биргаликда қишлоқ хўжалиги ҳайвонларни суғурталашга субсидиялар ажратади. Бу мамлакатда фермерларнинг 70 фоизидан ортиғи, экинларнинг қарийиб 90 фоизи ва ҳайвонларнинг 70 фоизи суғурта билан қамраб олинган. Улардан 40-45 фоизи марказий ҳокимият томонидан, 10-15 фоизи минтақа ҳукуматлари томонидан субсидияланади. Катта йўқотишларда биринчи навбатда ўз экинларини ёки ҳайвонларини суғурта қилган хўжаликларга тўлаб берилади. Барча хатарлар давлат қайта суғурта компаниясида қайта суғурта қилинади<sup>2</sup>. Испания моделига ўхшаш давлат-хусусий шерикчиликнинг Туркия модели ҳам кўплаб давлатлар учун яхши намуна бўлиб ҳисобланади. Туркияда 2005 йилгача ҳайвонлар ва ўсимликларни суғурталаш 15 та хусусий суғурта компаниялари томонидан амалга оширилди эди, шунингдек улар тўплаган суғурта мукофотлари ҳажми бўйича доимий равишда ўзаро рақобатлашиб келишган. 2005 йилда давлат ва хусусий суғурта компаниялари ўртасидаги ўзаро келишувга биноан қишлоқ хўжалигини суғурталаш шерикчилиги ташкил этилди ва уни бошқариш учун “TARSIM” бошқарув компанияси тайинланди. Бугунги кунда ушбу компаниянинг кузатув кенгаши таркибига Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, мамлакат ғазначилик органи ва шерикчиликка аъзо бўлган суғурта компаниялари вакиллари кирилади. Қишлоқ хўжалигини суғурталаш шерикчилигини яратишнинг асосий мақсади мамлакатнинг қишлоқ хўжалигини суғурталаш тизимини ривожлантиришдаги давлатнинг роли ва функцияларини аниқлаштириш, шунингдек, суғурта маҳсулотларини субсидиялаш шаклида давлат томонидан қўллаб-қувватлаш даражаси ва қишлоқ хўжалиги суғуртасининг қамровлигини оширишдан иборат эди. Суғурталанувчилар суғурта мукофотларини тўғридан-тўғри “TARSIM” бошқарув компаниясига тўлайдилар ва давлат субсидиялари (50-66 фоизи) ҳам ушбу компанияга ўтказилади. Суғурта тўловлари ҳам “TARSIM” таркибига кирувчи суғурта компаниялари фаолияти доирасида амалга оширилади. Шунингдек, “TARSIM” компаниясининг асосий вазифаларидан бири қабул

қилинган хавфларни қайта суғурта қилишдан иборат. Бундан ташқари, фермерлар қишлоқ хўжалиги техникасини сотиб олганда, давлат кредитнинг 25 фоиздан 50 фоизгача давлат компенсация тўлайди. Замонавий суғориш тизимларини сотиб олаётганда эса кредитнинг 100 фоизи миқдоригача давлат томонидан қопланади.

Аmmo шуни таъкидлаш керакки, мамлакат қишлоқ хўжалиги маҳсулотини ишлаб чиқаришнинг ўзига хос хусусияти туфайли суғуртанинг камровлилик даражаси турлича, баъзи худудларда бу кўрсаткич 45 фоиздан юқори, баъзи жойларда эса 5 фоиздан камроқни ташкил этади. Туркияда суғурта қилинадиган асосий экинлар қаторига буғдой, помидор, зайтун ва узум киради. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқарувчилари суғурта қилиши мумкин бўлган 36 тадан ортиқ экинлар рўйхати мавжуд. “TARSIM” компанияси бир неча йўналишларда суғурта хизматлирини тақдим этади, булар экинлар, йирик ва кичик қорамоллар, паррандалар, шунингдек, сув хўжалиги ва иссиқхоналарни суғурта қилиш.

Давлат томонидан қўллаб-қувватланадиган асосий суғурта хавфлари қурғоқчилик, тошқин, бўронлар ва ҳайвонлар ўлими ҳисобланади.

Юқоридагилардан хулоса қилиб айтиш мумкинки, мамлакатимизда аҳоли томорқаларидан самарали фойдаланишда “Томорқа хизмати” МЧЖ ларни суғурталашнинг “ мажбурий “ усулидан фойдаланиш юқори самара беради. Чунки, кейинги йилларда иқлим ўзгаришлари ва табиий офатларнинг тез-тез рўй бериши оқибатида қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари нобудгарчилиги янада ортиб бормоқда. Шунингдек, етиштирилган маҳсулотни сотиш билан боғлиқ муаммолар аҳолини томорқасидан олинадиган даромаднинг кескин пасайишига олиб келмоқда. Давлатимиз томонидан яратилаётган имкониятлар кўлами қанчалик кенгаймасин, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштирувчиларни ҳимоя қилишда суғуртанинг роли ошиб бораверади. Суғурталаш жараёнида етиштириладиган маҳсулот тури ва табиатидан келиб чиқиб суғурта механизмини ташкил этиш зарур. Бунинг учун қуйидаги хусусиятлар эътиборга олиниши лозим:

1. Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари турини, хилма-хиллигини эътиборга олиб, касалликка қарши суғурта хизматлари кўламини кенгайтириш;
2. Паррандачилик бўйича суғурта хизматини йўлга қўйиш;
3. Асаларичилик ва балиқчилик маҳсулотларини етиштирувчиларни суғурталашда давлат хусусий шерикчилик моделидан фойдаланиш;
4. Суғурта хизматларини таклиф қилишда ва суғурта бадалларини белгилашда етиштириладиган маҳсулотнинг бозор баҳосидан келиб чиқиб белгилаш;
5. Суғурта тизимини давлат дастурлари асосида ташкил этиш.

Ушбу таклифлар мамлакатимизда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштирувчиларни ўзига бўлган ишончини ортишига ва маҳсулот етиштирувчилар таркибининг ошишига олиб келади. Бу маҳсулот ишлаб чиқарувчиларни турли хил йўқотишлардан ва молиявий қўллаб қувватлаш нинг янги йўналишларидан фойдаланиш имкониятини ошради.

#### Фойдаланилган адабиётлар

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳоли томорқаларидан фойдаланиш самарадорлигини оширишнинг қўшимча чора - тадбирлари тўғрисида” ги 2020 йил 30 июндаги ПҚ-4767-сон Қарори.-.html/Lex. uz.
6. Ўзбекистон республикаси президентининг“Ўзбекистон республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” ги 23.10.2019 йилдаги ПФ-5853-сон фармони.
7. Ўзбекистон республикаси президентининг“Ўзбекистон республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида” ги 23.10.2019 йилдаги ПФ-5853-сон фармони.
8. 1 Мальцева В.А. Государственная поддержка сельского хозяйства в зарубежных странах:эволюция теории и практики реализации.Екатеринбург, УМЦ УПИ, 2015.



9. Супян В.Б. Экономика США: ресурсы, структура и динамика. М.: Магистр Инфра-М, 2014.

#### ИНТЕРНЕТ РЕСУРСЛАРИ

4. <http://WWW.mf.uz> – (Ўзбекистон Республикаси Молия Вазирлиги расмий сайти)
5. <http://www.bigpictureagriculture.com/>.
6. <http://WWW.stat.uz> – (Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитаси расмий сайти)



**INGLIZ YOZUVCHISI, SHOIR VA HIKOYACHISI JOZEF RUDYARD  
KIPLINGNING “MAUGLI “ASARIDA HAYVONLAR OBRAZI TAHLILI**

**Qudratova Muxiba Kamol qizi**

Buxoro davlat universiteti

Ingliz adabiyotshunosligi yo‘nalishi 1-kurs magistranti

E-mail: [qudratovamuxiba@gmail.com](mailto:qudratovamuxiba@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o‘zining yorqin fantazyasi, kuzatuvchanligi, yetuk tasavvurga egaligi, misli ko‘rilmagan iqtidor egasi hamda mohir hikoyanavisligi uchun adabiyot yo‘nalishida inglizlardan birinchi bo‘lib Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan ingliz yozuvchisi, shoir va novellanavisti Jozef Rudyard Kiplingning hayoti, uning “Maugli” asaridagi hayvonlar obrazi tahlili haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** avtobiografik, akademik yutuqlar, yo‘qotishlar, animalistik mavzu, muvozanat.

**AN ANALYSIS OF THE IMAGE OF ANIMALS IN “MOWGLI” BY  
ENGLISH WRITER, POET, AND STORYTELLER JOSEPH RUDYARD  
KIPLING**

**Abstract:** In this article, the life of Joseph Rudyard Kipling, an English writer poet, and novelist who won the first Nobel Prize in literature for his brilliant imagination, observation, unparalleled talent, and skillful storytelling, and his “Mowgli” is analysis of the image of animals in his work.

**Key words:** autobiographic, academic achievements, losses, animalistic theme, balance.

Jahon adabiyotining ajralmas bir bo‘lagi hisoblangan bolalar adabiyotining o‘rni ingliz adabiyotida ham beqiyosdir. Aytish joizki, bugungi kunda eng mashhur ingliz

bolalar yozuvchisi kimligini aytish juda mushkul ish, chunki, Angilya dunyoga ko‘plab daholarni bergan. Shubhasiz, Rudyard Kipling ularning ro‘yxatidagi birinchilaridandir. U o‘quvchiga insoniyat tabiat bilan uyg‘unlikda yashaydigan mutlaqo yangi, har xil dunyo haqida ajoyib hikoyalarni taqdim etdi. Hikoyalarning har satrida Rudyard Kipling o‘z his-tuyg‘ularini Hindistonga qaratgan.

Ingliz bolalar adabiyoti yozuvchilari haqida so‘z borganda taniqli ingliz hikoyachisi Jozef Rudyard Kipling fantaziyalarining paradoksial dunyosi tasavvurni hayajonlantirishi, shuningdek, metaforalarga boy bo‘lgan yozuvchi asarlarining boy tili, ingliz tili xazinasiga katta hissa qo‘shdi. O‘zining tajribasi, his-tuyg‘ulari va fikrlarini ajoyib asarlarda mohirona jamlagan ingliz yozuvchisining hayoti boy va rang-barang bo‘lgan. Klassik ingliz adabiyoti, shoir va nasr yozuvchisi Jozef Rudyard Kipling 1865-yil 30-dekabrda Bombeyda haykaltarosh oilasida tug‘ildi. Uning otasi hind san‘ati tarixining ko‘zga ko‘ringan mutaxassisi, muzey direktori bo‘lgan, onasi esa Londonning taniqli oilasidan chiqqan; ikkala bobosi ham ruhoniylar edi. Jozef Rudyard Kipling Rudyard nomini Angilyadagi Rudyard ko‘li sharafiga oladi. Hindistonning diqqatga sazovor joylari va sadolariga to‘lgan dastlabki yillar bo‘lajak yozuvchi uchun baxtli kechadi. Olti yoshiga qadar bola yashagan do‘stona oilada Hind enagalar va xizmatchilar uning tarbiyasi bilan shug‘ullanishgan. Albatta bu dastlabki yillarda ingliz bola Hindistonni, ular aytganidek, ona suti bilan singdirdi, keyinchalik bu uning ishida juda kuchli aks etadi. Ammo besh yoshida Rudyardning ota-onasi singlisi bilan birga Angliyaga o‘qishga yuborishadi, 6 yil davomida ular xususiy pansionatda yashashadi. Xususiy pansionat egasi Rosa xonim ko‘pincha bolalarga nisbatan jismoniy jazolardan foydalanganligi sababli Kipling bu yillarni ko‘pincha, juda ko‘p yomon xotiralar bilan esga oladi. Rosa xonimning yomon munosabati yosh Rudyardga shunchalik ta‘sir ko‘rsatadiki, umrining oxirigacha yozuvchi uyqusizlikdan aziyat chekadi. Hayotining ushbu davrini “Umidsizlik uyi” deb ataydi. Yozuvchi 1878-yilda Devon maktabiga o‘qishga kiradi. Kollejni tugatgach, “Fuqorolik va harbiy gazetasi” tahririyatida jurnalist sifatida faoliyat yuritadi. Rudyard Angliyada 11 yildan so‘ng Hindistonga qaytib keladi. 1887-1889-yillarda Kipling Hindiston temir yo‘l

kutubxonasi sayohatchilari uchun mo‘ljallangan oltita hikoyalar to‘plamining muallifiga aylanadi. Uning muxbir sifatida ishlashi unga mamlakatning mustamlaka hayotining turli tomonlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. 1889-yilda Kipling Angliyaga uzoq safar qiladi. Londonda u amerikalik yosh nashryotchi Uolkot Balestier bilan uchrashadi va ular birgalikda “Naulahka” hikoyasi ustida ishlaydilar. Romanning Amerika qismini Balestier, hind qismini esa Kipling yozishi kerak edi. Biroq 1891-yil oxirida Balestier tijorat bilan shug‘ullanish niyatida Germaniyaga ketadi va u yerda Tif kasalligini yuqtiradi va vafot etadi. 1892-yilda Rudyard Kipling Balestier vafotidan ko‘p o‘tmay, uning singlisi Kerolinga uylanadi. Turmushlari davomida ular uch farzandning ota-onasi bo‘lishadi. Ularning ikkita qizlari va bitta o‘g‘illari bo‘ladi: Jozefina Els va Jon. Ammo afsuski, yozuvchi va uning oilasi taqdiri fojiali zarbalarga duch keldi. Yozuvchining shaxsiy hayotidagi hamma narsa muammosiz o‘tmadi. Bolaligida Rudyardning qizi pnevmaniyanidan vafot etadi. Biroq uning yo‘qotishlari shu bilan tugamadi. 1915-yil Germaniya bilan urush vaqtida 18 yoshli o‘g‘li ham harbiy frontda vafot etadi. Ayanchlisi shundaki, uning jasadi hech qachon topilmadi. Yozuvchi uchun bu katta fojia edi. To‘rt yil o‘tsada u o‘g‘lining tirikligidan umidvor edi. Ammo 1919-yil iyun oyida nihoyat, umidsizlikka tushgan yozuvchi, harbiy qo‘mondonlikka og‘lining o‘limi to‘g‘risida xabar beradi. 90-yillarda kamroq muvaffaqiyatga erishsa-da, Rudyard yozishni davom ettiradi. 1907-yilda Jozef Rudyard Kipling adabiyot bo‘yicha ingliz yozuvchilari orasida birinchi bo‘lib Nobel mukofotiga sazovor bo‘ladi. Mukofot olgandan so‘ng darhol yozuvchi Oksford, Kembrij, Edingburg va Durham universitetlarining faxriy doktori etib saylanadi.

1915-yil yildan beri gastrit bilan og‘rigan yozuvchi, keyinchalik u oshqozon yarasiga aylangan. Rudyard Kipling Londonda 1936-yil 18-yanvarda ichakdan qon ketishidan vafot etadi.

Hayvonlar obrazi mavzusi haqli ravishda adabiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning elementlarini folklorda ham, mumtoz adabiyot asarlarida ham ko‘rish mumkin. Ingliz neo-romantizmining asr boshidagi adabiyotning taniqli vakili Jozef Rudyard Kipling merosida hayvonlar haqidagi kitoblar egallaydi. Kiplingning “Maugli” kitobi

tarbiyaviy va ibratli ertakdir. Bo‘rilar tomonidan tarbiyalangan bolaning hayratlanarli hikoyasi tabiatning dastlabki qonunlarini, inson hayotining qadryatlarini ochib beradi. Asarning asosiy g‘oyasi shundaki: agar odam o‘rmon qonuniyatlari asosida o‘stirilgan bo‘lsa ham, uning o‘rni hali ham odamlar orasida, chunki inson doimo odamlarga qaytadi. Asarda o‘rmonda yashaydigan yovvoyi hayvonlarning asrab olingan o‘gli, Maugli, haqida hikoya qilinadi. Ikki yoshli o‘rmonda adashib qolgan bolani cho‘loq yo‘lbars Sher Xon uni o‘z o‘ljasiga aylantirmoqchi boladi. Bola emaklab bo‘rilar iniga boradi. Ota-ona bo‘rilar uni o‘z oilasiga oladi va Sher Xondan himoya qiladi. Ular uni “Maugli” deb atashadi, bu “baqa” degan ma’noni anglatadi. Maugli kuchli, qo‘rqmas, shafqatsiz bo‘lib o‘sadi. Ammo shu bilan birga, Maugli mehribon va hamdard yurakka ega edi. Buni bo‘ri Akelga, ayiq Baluga, hamda Bagiraga o‘zini juda qadrlaydigan bolaning ularga bo‘lgan munosabatida ko‘rish mumkin. Maugli o‘zining insoniy aqli bilan o‘rmon qonunlarini tushunishga muvaffaq bo‘ladi. “Biz bir qondanmiz, sen va men “, deydi u tropik o‘rmon aholisiga. Va shuning uchun ham uni universal sevgi o‘rab oladi. Bo‘rilar tomonidan tarbiyalangan bolaning hayratlanarli hikoyasi tabiatning dastlabki qonunlarini ochib beradi, inson hayotining qadryatlari haqida o‘ylashga majbur qiladi. O‘rmonda qolib ketgan odam bolasi o‘lmadi, chunki u sodiq va ishonchli do‘stlarni topadi. Bu do‘stlar hayvonlar edi. Ammo Kipling ularga xalq ertaklarida bo‘lgani kabi insoniy xususiyatlarni ham bermaydi. Ularning barchasi fikrlaydigan mavjudot bo‘lib qonunlariga muvofiq sharoitga qarab harakat qiladi. Bu qonunlardan biri nasl haqida g‘amxo‘rlik qilishdir. Ota va ona bo‘rilar bu qonunning timsoliga aylanishdi. Mauglini birinchi marta ko‘rganda, Bo‘ri o‘zini shunchaki himoyasiz “kuchukcha” ekanligini his qiladi. Shuning uchun u o‘z bolalarni himoya qilgandek, uni himoya qiladi, va barcha hayvonlar uning huquqini tan olishdi. Asarda Akela, Balu, Bagira tabiat dunyosining donoligini ifodalaydi. Ularning sharofati bilan o‘rmonda yaxshilik va yomonlik, hayot va o‘limning notinch muvozanatini ko‘rish mumkin. Ertakda o‘ziga xos xarakter va urf-odatlarlarga ega bo‘lgan hayvonlarning go‘zal tasvirlangan tasvirlari mavjud. Bular o‘rmon o‘qituvchisi: gurg‘ul va oqko‘ngil ayiq Balu, dono fil-Xati. Qora pantera Bagira, Akela bo‘rilar turkumining oliyjanob

rahbari, dashshatli va makkor yo‘lbars Sher Xon va boshqalar. Hayvonlar Maugliga xususan, ota Bo‘ri unga o‘z hunarini, Balu asal va yong‘oqlar ham xom go‘sht singari mazali taom ekanligini, Bagiradan qanday ov qilishni o‘rganadi. Maugli esa bunga javoban hayvonlarga mehribonlik qiladi: hayvonlarga hayotining qiyin paytlarida yordam beradi, ularning panjaralaridan tikanni oladi. Maugli ulg‘ayib, hayvonlar ustidan o‘z kuchini his qiladi. Uning nigohiga hech biri dosh berolmaydi, chunki faqat u Qizil gulni-olovni bo‘ysindiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ertak bizni do‘stlikda sodiq, mard va halol bo‘lishga, hayot bergan do‘stlarni va ulardan olingan tarbiyani qadriga yetishga o‘rgatadi. Shuningdek, bu tabiat insonning uyi ekanligini tushunish imkonini beradi.

#### ADABIYOTLAT

1. K. Rudyard, *The jungle Books*, Oxford University Press, Oxford, 1992.
2. K. Rudyard, *Something of Myself*, Cambridge University Press, London, 1991.
3. Kipling, Rudyard. *The Jungle Book*. Howrah: Skylark books, 2006.” Research Papers on Darwinism in The Jungle Book”. n. pag. www. paper masters. com.
4. <https://www.amazon.com/Maugli-Mowgli-Rudyard-Kipling /dp/5740600847>  
<https://www.amazon.com/Secret-History-Jungle-Book-Mowgli/dp/0993523919>

УУТ: 595+632. 937

**ОЛМА ҚУРТИ (CAROSOPCA POMONELLA L.) ТУХУМХЎРИ  
TRICHOGRAMMA EMBRIOPHAGUMНИ БИОЛОГИК  
САМАРАДОРЛИГИНИ АНИҚЛАШ**

**Рахмонова Мадинахон Кимсанбоевна**

Доцент, Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти

**Хамдамов Жамшидбек Кимсанбоевич**

Магистр, Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти

**Анотация:** Ушбу мақрла трихограмманинг олма боғларида учрайдиган олма қуртига қарши қўллашга бағишланган. Трихограмманинг олма қуртининг тухумларига қарши фойдаланишда 1:10 нисбатда 75 фоиз биологик самара олинган.

**Калит сўзлар:** Куртлар, тухумлар, зараркунанда, энтомофаг, паразит, усимликларни биологик хдмоя қдлиш.

**Annotation:** This technique is intended to be used against Trichogramma against apple worms living in apple orchards. The use of Trichogramma against apples of the apple worm in a ratio of 1:10 showed 75% biological effectiveness.

**Key words:** worms, eggs, pests, entomophages, parasites, biological protection of plants.

**Кириш.** Олма қуртининг тухумини бирнечта паразитлари бўлиб, улар ичида ихтисослашган тури Trichogramma embryo-phagum Htg дир. Бу тур олма биоценозида зараркунандани сонини бошқаришда муҳим ахамиятга эга.[ 1]

Олма мевахўрининг зарари асосан мевани шикастлаши, уни сифатини пасайтириб, ҳрсилдорликни камайтириш билан ифодаланади. Турли йилларда, **иқлим** шароит, ҳамда табиий кушандаларнинг ахамиятига қараб бу ҳашаротга

қарши курашилмаса, у уругли мева дарахтларининг ҳосилдорлигини 30% дан хатто 50% гача камайтириб юборади. Зарарланган шикастланган мевалар тўкилиб кетади. Бу зараркунанданинг бир нечта кушандалари бўлиб уларга олтинкўз, хонқизи, йиртқич кушандалар ва унинг ихтисослашган паразити трихограмма бўлиб унинг тухумлик даврида нобуд қилади айниқса *Trichogramma embryophagum* Htg. олма куртига қарши яхши самара беради.[5]

**Услуглар ва материаллари.** Тошкент вилояти, қибрай тумани “солар агромакс” фермер хужалигида 2015- 2016 йилларда олиб борилди. Трихограмма эмброфагум хитойдан интродуксия қилиниб, шу хужаликда иқлимлаштирилади.

Трихограмма эмбриофагумни лабаратория шароитида мумкуяси, ситотрога тухумларида купайтирилиб ишлаб чиқаришда қўлланилди.

Олма куртини зарарлаш пакана боғларда олиб борилди. Тажрибалар ҳар 100 тупдан зарарланган 30 та новдаларда олиб борилди. Тажрибалар 5 қайтариликдан иборат бўлди. Тажриба натижаларига статистик ишлов бериш Доспехов бўйича олиб борилди. Биологк самарадорликни Аббот(1925й) формуласи ёрдамида аникланди.[ 3,4]

$$100x(A \text{ B}-Ba)$$

$$Bc = - \text{-----}$$

АБ

Бунда, Bc- биологик самарадорлик, %

A- тажрибада ишловдан олдин зараркунанда сони, дона

в- назоратда ишловдан сўнг зараркунанда сони, дона

B- тажрибада ишловдан сўнг зараркунанда сони, дона

a- назоратда ишловдан олдин зараркунанда сони, дона

***Trichogramma embryophagum* Htg.** Ушбу тур имаголарнинг катталиги 1 мм, ранги оч сариқ. Асосан ўрмон ва боғдорчилик худудларида купроқ учрайди. Паразитнинг катталиги 3 мм. Ранги сариқ ҳаво ҳароратининг ошиши унинг фаоллигини оширади. Паразит тухумларини ўрмон ва боғдорчиликда тангақанотлилар тухумларига қўяди. Бир авлоднинг ривожланиши тоғли



худудларда 20 кунгача давом этади. Ушбу шароитда 4-5 авлод беради. Паразит личинкалик даврида хужайин тухумлари ичида қишлайди.

Трихограмма доминант турлари экологиясининг ўзгариши шуни кўрсатадики, улар фақат морфологик белгилари билангина эмас, балки гидротермик жихатдан ҳам тафовут қилади. Масалан, Қашқадарё вилоятида аниқданган маҳаллий оддий трихограмма тури  $+25^{\circ}\text{C}$  ҳароратга ва 30% ҳаво намлигига бардош беради. [3]

**Тадқиқот натижалари** Ўтказилган тажрибаларимизнинг натижасидан маълумки олма куртининг тухумларига қарши трихограмманинг хўжайинга нисбатан ҳар хил миқдорда кўйилганда уларнинг биологик самарадорлиги турлича бўлиб, унинг 1:10 нисбатида кўйилганда 8,2 олма куртини тухумидан 7,2 таси 3 кундан сўнг қолган, 5 кунга улар сони яъни зарарланмаган тухумлар сони 3,4 тани ташкил этди ёки унинг биологик самарадорлиги 59% ни ташкил этди.

Кузатувни 7 кунда 2,1 дона тухум зарарланган бўлиб унинг биологик самарадорлиги 75% ни ташкил этди. Трихограммани 1:5 нисбатида кўйилганда 30 новдадаги ўртача 7,9 дан тухум тўғри келиб, 3 кундан сўнг улар



**Trichogramma embriophagum** ни Олма куртига карши турини куллаш самарадорлиги.

1-жадвал

Трихограмман иолмакуртитухумларига каршинисбати паразит:тухум	Ҳар 30 тановдадаги тухумлар сони				Биологик самарадорлиги, %		
	Трихограмма чиқаришдан олдин	Трихограмма чиқарилгандан кейинги кунлар			3	5	7
		3	5	7			
<b>1:10</b>	<b>8,2</b>	<b>7,2</b>	<b>3,4</b>	<b>2,1</b>	<b>12,0</b>	<b>59,0</b>	<b>75,0</b>
<b>1:15</b>	<b>7,9</b>	<b>7,8</b>	<b>4,3</b>	<b>3,5</b>	—	<b>46,0</b>	<b>55,5</b>
<b>1:20</b>	<b>8,3</b>	<b>8,3</b>	<b>5,2</b>	<b>4,1</b>	—	<b>38,0</b>	<b>50,6</b>
<b>Назорат</b>	<b>8,3</b>	<b>8,9</b>	<b>10,3</b>	<b>14,7</b>	—	—	—

1-жадвал сони 0,1 донага қисқарган, 5 кунда эса 4,3 дона тухум зарарланмасдан қолган ёки унинг биологик самарадорлиги 46% ни ташкил этган бўлиб, 7 кунда 3,5 дона тухум зарарланмасдан қолган унинг биологик самарадорлиги 55,5% ни ташкил этган.

Тажрибанинг 1:20 нисбатда қўйилганда 3 кундан сўнг зарарланган тухум кузатилмади. Тадқиқотларимиз 5 кунда 5,2 дан олма курти зарарланган бўлиб унинг биологик самарадорлиги 38% бўлган 7 кунга келиб зарарланган тухумлар сони 4,1 дона бўлиб биологик самарадорлиги 51% булган. [1,4]

Тажрибанинг назорат вариантыда 8,3 дона тухум 5 та новдадаги ҳосил органида кузатилган бўлса тажрибанинг 5 кунда эса 14,7 донага кўпайгани қайд этилди.

Шундай қилиб олма куртини тухумларига **Trichogramma embriophagum** 1:10 нисбатда куйилганда 75 фоизгача юқори самара бериши кузатилди.

**Хулоса, таклиф ва тавсиялар.** Зараркунандаларга қарши биологик курашнинг ўрни жуда муҳим бўлиб айниқса олма қуртининг тухумларига ихтисослашган паразита булган *Trichogramma embriophagum* қўллаш яхши самара беради. [1,5]

Ўтказилган тажрибалар *Trichogramma embriophagum* ни олма қуртини тухумларига қарши қўллашда ҳар хил нисбатлар тарқатиб кўрилди ва зараркунандаларнинг нобуд бўлишига қараб зараркунандаларнинг нисбатлари кўпайтириб борилади, яъни 1:10; 1:15; 1:20 нисбатларда боради. Бу тартибда кўпайтириб борилиши трихограмманинг биологик самарадорлиги энг юқори бўлган нисбатини аниқлашдир.

Тадқиқотимиз давомида шу маълум бўлдики олма қуртига қарши трихограмма эмбриофагумни 1:10 нисбатда куллаганимизда 75 фоиз натижага эришилди.

<b>“Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлашда мева-сабзавот ҳамда узумчилик соҳасининг роли ва аҳамияти”</b> Халқаро илмий-амалий анжуман иштирокчиси ҳақида маълумотлар:	
Муаллифнинг Ф.И.Ш.	Ш.Эсанбоев
Илмий даражаси, унвони:	К;.Х.Ф.Н
Ловозими:	Доцент
Ташкилот номи	Тошкент Давлат Аграр Университета
Почта оркали алоқа манзили	Тошкент вилояти Қибрай тумани университет кучаси 2 уй
Тел:	+998998032120 *
Факс:	
E-mail:	
Маъруза тури (ялпи мажлисда, шуба йигилишида)	Шуба йигилишида
Шуба йуналаши:	5-шуба
Маъруза мавзуси:	Олма қурти ( <i>carposyca pomonella</i> L.) тухумхури <i>trichogramma embriophagum</i> wi. биологик самарадорлигини аниқлаш
Муаллифлар Ф.И.Ш.	Гозибеков А.С, Боедиев.Ш.Ш
Сана:	19.04.2017
Имзо.	

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Б.А.Сулаймонов, Х.Х.Кимсанбоев, Ш.Эсанбоев. Мевали боғ зараркунандалари ва уларга қарши биологик усулни қўллаш асослари.  
Т: Extremum press, 2015.-144.
2. Доспехов.Б.А, методика плевого опыта: Москва: Колос 1985 - 145с
3. Гар. К.А Методы испытаний токсичности и эффективности инсектицидов М 1963.-287 с
4. Abbots W.S.A method of computing the effectiveness of insecticide. 1925 - 156
5. Атамирзаева Т.М. Фауна и экология трихограмма ( Hymenoptera, Trichogrammatidae, Trichogramma) Узбекистана. — Автореф. канд. дисс... по спец. 03.00.09. Энтомология. - Ташкент (УзНИИЗР), 1994. С -20.

## ҚУШҚЎНМАС (SILYBUM MARIANUM) ЎСИМЛИГИНИ ЕТИШТИРИШ ВА ДОРИВОРЛИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ

**Рахмонова Мадинахон Кимсанбоевна**

Доцент

Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти

**Хамдамов Жасурбек Кимсанбоевич**

магистр ГОШДАУ

**Анотация:** Мазкур мақола Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёввойи ҳолда ўсувчи доривор ўсимликларни муҳофаза қилиш, маданий ҳолда етиштириш, қайта ишлаш ва мавжуд ресурслардан оқилона фойдаланиш чоратадбирлари тўғрисида” 2020 йил 10 апрелдаги ПҚ-4670 қарорида белгилаб берилган устувор вазифалар ижросини таъминлашга қаратилган.

**Калит сўзлар:** Қушқўнмас *Silybum Marianum* фармоқлогия биокимёвий

**Annotation:** This article is aimed at ensuring the implementation of the priorities set by the President of the Republic of Uzbekistan dated April 10, 2020 PP-4670 “On measures for the protection, cultivation, processing and use of available resources of wild medicinal plants.

**Key words:** asparagus *Silybum Marianum*, pharmacology, biochemistry

**Кириш;** Қушқўнмас (*Silybum Marianum*) доривор ўсимлиги Фарғона водийсида турли шароитларда барча агротехник қоидалар асосида етиштирилади. Шунингдек, етиштирилган доривор ўсимлик биокимёвий таҳлил қилиниб, таркибида фармакологик таъсирга эга моддаларни фоиз миқдорлари аниқланади. Олинган натижалар асосида таъсир этувчи моддаларни

фармакологик маълумотларга таянган ҳолда дори шакллари таркиб ва технологияси яратилади.

Ҳозирги вақтда кенг миқёсдаги жигар хасталикларидида қўлланадиган дори воситалари ва уларнинг субстанциялари чет эллардан импорт қилинмоқда. Маълумотларга кўра, Қушқўнмас (*Silybum Marianum*) асосида кенг миқёсдаги жигар хасталикларидида ишлатиладиган дори воситаларига бўлган талаб кун сайин ортиб бормоқда. Экология ва атроф-муҳитнинг ифлосланиши, кимёвий воситалар, алкогольизм, инфекциялар ва саноат маҳсулотларининг хаддан зиёд ишлатилиши инсон организмнинг фильтри ҳисобланган жигарнинг зарарланишига сабаб бўлмоқда. Бошқа аналоглар таркибини ўрганиш натижасида биз режалаштираётган янги дори препарати кенг спектрлилиги, маҳаллий маҳсулотлардан олиниши ва бу ўз навбатида бемор организмга нотаниш маҳсулотдан кўра, яхши таъсир этиши билан афзал ҳисобланади. Касаллик профилактикаси учун ҳар бир соғлом инсон ҳам ушбу препарат истемол қилиши тавсия этилади.

**ТАДҚИҚОТ МАҚСАДИ:** Ўзбекистонга четдан келтириладиётган қимматбаҳо препаратлар ўрнини маҳаллий, эндемик тур ўсимликлардан олинадиган, арзон ва сифатли препаратлар билан таъминлаш ҳисобланади.

1. Фарғона водийсида табиий ёруғ, тошлоқ, шўрхок ва сувга танқис ерлар ниҳоятда кўплиги Қушқўнмас ўсимлигини етиштириш учун қулай шароит ҳисобланади.

2. Бошқа районлардан афзаллиги иқлимнинг қулайлиги, қаровсиз ерларнинг кўплиги ва ишчи кучининг арзонлигидадир.

3. Бундан ташқари маҳаллий препаратларнинг таъсир эффекти ҳам беморларга яхши таъсир қилади.

4. Қушқўнмас етиштиришда биз фақатгина табиий ўғитлардан фойдаланишни олдимизга мақсад қилганмиз, чунки кимёвий воситалар ўсимликдан олинадиган препаратларда йиғилиб, уни истемол қилганда жигар хужайралари тикланишига салбий таъсир этиши кузатилади. 5. Бундан ташқари,

етиштирилаётган ўсимлик кимёвий таркибини аниқлаш, таққослаш ва янги препаратни тайёрлаш учун Ўсимлик моддалар кимёси институти ва Тошкент фармацевтика институтида замонавий лабораториялар ва етук илмий потенциал мавжуд эга.

**Тадқиқот методлари:** Дала тажрибаларини ўтказиш методикаси, экспериментал тадқиқотлар ва ишлаб чиқаришда синаш бўйича ҳалқаро комиссияси тавсияномалари ва стандарт синаш усулларига асосланиб бажарилади. Лойиха иштирокчилари томонидан 10дан ортиқ скобус ва 100 дан ортиқ импак факторли журналларда мақолалар, 10 дан ортиқ патент ва ишланмалар, 10 дан ортиқ илмий-амалий лойихалар бажарилган. Қушқўнмас ўсимлиги тиканли бўлганлиги учун уни етиштириш ва йиғиб олиш учун махсус техника ишлаб чиқаришга эҳтиёж бор. Бу масалада ҳам инженер ва техника фанлари бўйича доцент мутахассислар иш олиб бормоқда. Тадқиқот муаммосининг ҳозирги урганилиш ҳолати, жаҳон илм-фанидаги илмий-тадқиқот йуналишлари ва илмий ракобатчилар Ҳозирги вақтда кенг миқёсдаги жигар хасталикларидан қўлланадиган дори воситалари ва уларнинг субстанциялари чет эллардан импорт қилинмоқда. Масалан, Россия маҳаллий дори препарати- Камадол, Болгарияда (Карсил) ва Германияда (Легалон) ва Беларусияда Силимарин ишлаб чиқарилади. Ушбу препаратлар таркиби асосан Қушқўнмас ўсимлигидан олинади. Ўзбекистон фармацевтика агентлигининг “ДРАГ –АУДИТ” дастуридан олинган Маълумотларда кўрсатилишича, сўнгги 3 йилда Ўзбекистонга 1. 130. 000 доллар миқдоридан Карсил препарати сотиб олиб келинган. Илмий ва инновацион фаолиятнинг устувор йуналиши: Замонавий усуллардан фойдаланиб турли фасл ва турли тупроқ-иқлим шароитларида етиштиришга мос, бошқа регионларда етиштирилаётган доривор ўсимликларни таркибига қараганда юқори фоизда таъсир этувчи моддалар сақлаган доривор ўсимликларни етиштириш агротехникасини яратиш. Етиштирилган доривор ўсимлик таркибини биокимёвий таҳлил этган ҳолда

ундан турли хасталикларда қўлланиладиган янги дори препаратлари яратиш технологиясини ишлаб чиқиш.

Тадкикотнинг илмий янгилиги, куйилган вазифа(лар)ни хал этиш ва режалаштирилган натижаларни олиш имкониятларини асослаш

2020 йил апрель ойида Андижон қишлоқ хўжалиги институтида очик майдонда кенг дала шароитида Қушқўнмас (*Silybum Marianum*) уруғлари экилди. Узунлиги 60-150 см бўлган бир ёки икки йиллик ўт- ўсимлик. Пояси тик, содда ёки тарвақайлаб кетган, мўрт, юмшоқ. Баъзан барг бандлари жуда катта (узунлиги 80 см гача, кенглиги 30 см), буришган. Гуллари найчали, икки жинсли, қизғиш (баъзан пушти, бинафшаранг ёки оқ) бўлиб, катта шарсимон саватчаларда жойлашган. Мевалари – тескари тухумсимон тепасида тожсимон тукли уруғ саватчада зич бўлиб

жойлашган, узунлиги 5-8 мм, кенглиги 2-4 мм; меванинг тепаси қийшиқ кесмали, асоси юмалоқ, юзаси ялтироқ, силлик, баъзан бўйлама буришган. Меваси оч жигаррангдан қора ранггача бўлади, кўпинча доғсимон, баъзида мовий рангда бўлади. Ҳеч қандай ҳиди йўқ, таъми аччиқ. Бутун ёз гуллайди.

### Фойдаланилган адабиётлар

- 1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-5264-sonli Farmoni. (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.12.2017 y., 06/17/5264/0339-son)
2. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari (maqolalar to‘plami, SH.Nurmatov, Q.Mirzajonov, A.Avliyoqulov va b. Tahriri ostida). - Toshkent: O‘zPITI, 2007. - 147 b.
3. Dospexov B.A. Statisticheskaya obrabotka dannykh polevogo o‘ryta. - Zemledeliye, 1965. - №10.
- 4 Dospexov B.A. Metodika polevogo o‘ryta. - M.: Kolos, 1979. - 415s
5. **Internet saytlar** <http://www.abcslim.ru/articles/346/artishok>

<http://kafe-5.narod.ru/artishoke.htm>



## «ЖҮРЕККЕ ЖЫРЛАРЫН ҰЯЛАТҚАН ТӨЛЕГЕН АЙБЕРГЕНОВ»

Гулжайнар Бектай қызы Байдуллаева

Ташкент облысы Шыршық мемлекеттік педагогика институтының

Қазақ тілі және әдебиеті бағытының I курс студенті

Ғылыми жетекші: Жандос Абдазимович Байзаков

### АННОТАЦИЯ

Кең дарияны сусындатқан Төлеген Айбергенов ақынның өлеңдеріне басқа жандардың ой пікірлері. Ақынның өлеңдеріне келешек ұрпаққа деген мінездемелері туралы түсінік.

**Кілтті сөздер:** өнер тұлғасы, дарын иесі, келеңсіз кезең, тәрбиелік мәні.

### ANNOTATION

Tolegen Aibergenov, who watered the wide river. The concept of the characteristics of the poet's poems for future generations.

**Keywords:** personality, talent, negative period, educational value.

Дүниеде бір ақын бар,  
Біреу танып, біреу танымаған.  
Сол ақынды жырларымен сусындатқан,  
Әрбір жанға жылу сыйлайтын.  
Жырлары барда,  
Қалайша көңілге сыйдырмаспыз жырларын.  
Бұл ақынды танимыз енді бүгін,  
Өзі білген өмірдегі өткен күннен.  
Жырлайық, жырларын құрметпенен,  
Айбергеновтей лайықты ақынменен.

Төлеген Айбергенов 1937 жылы 8 наурызда Қарақалпақ елінің Қоңырат деген жерінде дүниеге келген. Жетісу тайпасының Табын руынан шыққан 1959 жылы Ташкенттің Низами атындағы педагогика институтының қазақ тілі мен әдебиеті факультетін бітіріп, туған ауылында мұғалімдік қызмет атқарады.

Шымкент облысының Сарағаш ауданындағы кешкі жастар мектебінде директор болып 1965 жылдан Қазақстан жазушылар одағы жанындағы әдебиетті насихаттау бюросында қызмет істеді.

Төлеген Айбергеновтің «Ақ ерке, Ақ жайық», «Жаңғырған Маңғыстау», «Қазақстан», «Сені ойладым», «Мені ойла», «Ақ қайыңдар», «Бір тойым бар», т.б. өлеңдеріне жазылған әндер ел арасында кеңінен танымал. Мына бір өлеңінде:

- Маңғыстау маңғаз өлке шежірелі
- Киелі бабалардың өзіме еді.
жанашырлық танытып, Қоқандағы хан сарайында тұра бастайды. 65 жасында Марғилан қаласында қайтыс болды. **Әмір (Әмір Омархан):** Ол өзбектің ұлы ақыны, әдеби мектептің негізін салушы, тарихшы және мемлекет қайраткері болды. Әмірсаид Мұхаммед Умархан Қоқанда туған, Қоқан ханы Әлімханның інісі. Марғилан губернаторы (1807-1810), Қоқан ханы (1810-22) болды. 1808 жылы Әндіжан губернаторы Рахмонкулибидің қызы Мохларойымға (Нодира) үйленді. Құрастырушы «Умарнома» дастанының авторы Девон. Оның шығармалары әртүрлі журналдарда жарияланды, соның ішінде Османлы халифасы Махмуд II-ге сыйға тартылған «Махаббат хаттары» жинағы. **Нодира (Комила):** Белгілі ақын, мемлекет қайраткері. Оның шын есімі Мохларойим, Әндіжан губернаторы Рахмонкулиби отбасында дүниеге келген. 1808 жылы Марғиланның сол кездегі губернаторы Әмір Умарханға үйленеді. 1810 жылы ағасы Олимханның орнына отырған Умарханмен бірге Қоқанға келеді. 1822 жылы Омархан қайғылы қазадан кейін ұлы Мадалиханмен бірге Қоқан хандығын басқарды. Медреселер, мешіттер, керуен сарайлар салады. Білім иелеріне жол көрсетеді, кедейлерге демеушілік жасайды. 1842 жылы Бұхара ханы Әмір Насрулла өлім жазасына кесті. **Мұхаммедшариф Гүлхани** Белгілі өзбек жазушысы, өзбек әдебиетінің сатиралық мектебінің негізін салушылардың бірі. Оратепада (кейбір деректерде Наманған облысы) туған, өмір сүрген жылдары белгісіз. Түрік және парсы тілдерінде жұмыс істейді. «Зәрбұлмасалды» Умархан жазған. Ол туралы Фазлидің «Маджмуаи Шойрон», Возехтің «Тухфатул-Ахбоб» және Авазмұхаммад Аттордың «Тарихи Жаһаннама» атты еңбегінде айтылады. **Мұхаммад Ризо Огахи:** Өзбектің ұлы ақыны, тарихшысы, аударма мектебінің негізін салушы және мемлекет қайраткері Мұхаммед Ризо Огахи Хиуа маңындағы Қиёт ауылында Ернийезбек мирабының отбасында дүниеге келген (1809). Үш жасында әкесі қайтыс болып, ағасы Мунистің қолында өседі. 1829 жылы Мунис қайтыс болғаннан кейін Огахи бас мираб болып тағайындалды. 1857 жылы мирабтан бас тартты. Ол қалған өмірін шығармашылыққа арнайды. Ол 1874 жылы 65 жасында қайтыс болды.



## ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЕТТЕР ТІЗІМІ

- Сұлтанова М., Шығармашылық беттер, Ташкент, 1975; Зульфия [библиография], Ташкент, 1977; Сұлтанова М., Зульфия, Ташкент, 1985; Ибрагимов М., Шуақты ақын, Ташкент, 1986; Құрмет [ред.: Рахима Шомансурова, Рано Рахмонова], Ташкент, 1995 ж.
- О‘zME. Бірінші том. Ташкент, 2000 ж



## ЎҚИТИШ ВОСИТАЛАРИНИ ЛОЙИХАЛАШ ВА ҚЎЛЛАШНИНГ ПЕДАГОГИК ҚОНУНИЯТЛАРИ

**Нурбобоев Шокир Бойназарович**

Самарқанд Давлат университети мустақил тадқиқотчиси

[shokirjon1991@email.com](mailto:shokirjon1991@email.com)

**Аннотация.** Кўп босқичли узлуксиз олий таълим жараёнини таъминлаш учун ўқитиш воситаларини илмий асосланган лойиҳалаш, яратиш ва қўллашнинг замонавий концепцияларини ёритишдан иборат.

**Калит сўзлар.** Узлуксиз таълим, концептуал мулоҳазалари, ўқитиш воситалари дидактик тизим.

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ЗАКОНЫ ФОРМИРОВАНИЯ И ПРИМЕНЕНИЯ ОБУЧАЮЩИХ СРЕДСТВ

**Аннотация.** Освещение современных концепций наукоемкого проектирования, создания и применения средств обучения для обеспечения многоступенчатого непрерывного процесса высшего образования.

**Ключевые слова.** Концептуальные аспекты непрерывного образования  
Учебно-методическая система

## PEDAGOGICAL LAWS FOR THE FORMATION AND APPLICATION OF EDUCATIONAL AIDS

**Annotation.** Illumination of modern concepts of science-intensive design, creation and application of teaching aids to ensure a multi-stage continuous process of higher education

**Key words.** Conceptual aspects of continuous education Educational and methodological system

## **КИРИШ**

Коронавирус пандемияси даврида инсоният ҳаётининг барча соҳаларида мисли кўрилмаган ўзгаришлар рўй бермоқда. Йиллар давомида шаклланган кадриятлар, анъаналар ва тамойилларнинг “бўлиниши” га олиб келди. Хусусан, нуфузли олимлар, халқаро ташкилотлар экспертлари томонидан яқин ва ўрта муддатли истиқболда ерларнинг ўзлаштирилишига таҳдид солувчи хавфлар бўйича берилган прогноз кўрсаткичлари тасдиқланмаган. Аммо бу аниқ: агар дунё бир бутун сифатида ҳаракат қилмаса, инсон ўта хавфли вазиятнинг қурбонига айланиб бораётганига шубҳа йўқ. Нажотнинг ягона йўли – тўпланган билим, шаклланган кўникма ва хулосаларни ягона мақсад сари йўналтириш, билим ва тажрибани самарали уйғунлаштиришдир.

Билим ва билимнинг шаклланиши эса бевосита таълим тизимидан келиб чиқади. Таълим тизимининг самарадорлиги бевосита ўқитувчининг савиясига, талаба эҳтиёжларига, ўқув адабиётлари мазмунига ва мустақил таълимни шакллантиришга қаратилган инфратузилмага боғлиқ. Бинобарин, илғор кадрлар тайёрлаш, уларнинг меҳнат бозори талаблари асосида рақобатбардошлигини ошириш, ижодий фикрлайдиган мутахассисларни тайёрлаш таълим муассасаларида йўлга қўйилган ўқув жараёни билан чамбарчас боғлиқ.

## **АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ**

Таълим фаолияти нафақат инновацион таълим технологиялари асосида ўқитишга, балки талабани мустақил таълим олишга, таълимга янгича ёндашувга ўргатиш, зарур ва чуқур назарий билимларни олиш, меҳнат бозори талаблари асосида амалий кўникма ва малакаларни шакллантиришга қаратилган. Бу тизим талабанинг касбий ривожланиши ва камолотига ҳамда унинг ҳаёт давомида билимларни эгаллашни таъминлашга ва меҳнат бозорининг замонавий талабларига жавоб бера оладиган инсон капиталини шакллантиришга қаратилган.

Тарихан шундай шаклланганки, назарий муаммолар ўрганилаверган, амалий

иш эса муайян даражада ажралган ҳолда олиб борилган. Ўқитиш воситалари илмий ёндашувларни етарлича концептуал асослашсиз, тизимсиз, уларни қўллашнинг аниқ шароитларидан ташқарида яратилган, таълим жараёнининг ташқи ва ички омиллари ҳамда бўғинларининг булар билан алоқасини ҳисобга олмасдан, уларнинг ўзаро алоқасини эътиборга олмасдан лойиҳалаштирилган. Таълим жараёнидаги уларнинг ўрни ва ролини етарли даражада илмий асослашсиз, ўқитишнинг мақсадлари ва мазмунини амалга ошириш қўлланилаётган шакллари ва усулларининг функционал-дидактик имкониятларисиз педагогик жараёнига қандайдир илова бўлиб хизмат қилган, бу эса уларни қўллаш самарадорлигини сезиларли даражада камайтирган.<sup>112</sup>

### **НАТИЖАЛАР**

Узлуксиз таълим жараёнида ўқув воситаларини дидактик лойиҳалаш ва модулли қўллаш олий таълимнинг қуйидаги дидактик қонуниятларини: шахснинг шаклланиши, олий таълим ва ўзаро алоқалари; педагогик ва амалиёт жараёнларининг ўзаро ҳаракати; касбга йўналтириш интеграцияси, дифференциациянинг бирлиги; профессионал ва олий таълимнинг ўзаро алоқаси; шахс шаклланишидаги ижтимоийлашув ва профессионаллашувининг ўзаро боғлиқлигини [Беляева А.П.] ҳисобга олган ҳолда, шунингдек, ўқитиш жараёни услубий қонуниятларини: олий таълимнинг услубий (ёки технологик) тизимидаги асосий бўғинларнинг ўзаро алоқаси ва ўзаро ҳаракати бирлиги; ўқитиш ва билим олиш жараёнининг бирлиги (билимлар, малака ва кўникмалар шаклланишига психологик-педагогик қонуниятлар ва дидактик тамойилларнинг таъсиридан ўзаро бир-бирдан келиб чиқадиган ўқув фаолиятидаги ўқитувчининг ҳамда талабаларнинг ўқитиш ва ўқиш фаолияти бирлиги); ўқитиш воситаларининг функционал имкониятлари ва ўқитувчининг ўқитиш фаолияти ҳамда талабалар ўқув фаолияти ўқитиш мазмуни ва элементлари воситаланиш жараёнидаги намоён бўлиши даражаларининг ўзаро алоқаси, ўқитишни ташкил этиш шакллари

<sup>112</sup> Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. ... док.пед.наук. - СПб.: 1995. – 43 с.

ҳисобга олган ҳолда ўтказилиши лозим.<sup>113</sup>

Биз ишлаб чиққан концепциянинг асосини яхлит педагогик тизим сифатидаги ўқитиш воситаларини лойиҳалаш ва қўллашга модулли ёндашув ташкил этади.

## ХУЛОСА

Таълим олиш шароитларида мутахассисликка тайёрлашнинг замонавий тенденциялари, мақсадлари, педагогик қонуниятлари, тамойиллари, ҳамда талабларига асосланган ҳолда ўқитиш воситаларини лойиҳалаш ва модулли қўллаш дидактик тизимининг қуйидаги ***етақчи, услубий, концептуал мулоҳазалари*** шакллантирилди:

- ўқитиш воситаларини лойиҳалаш ва модулли қўллаш дидактик тизими башоратловчи, модулли-мақсадли, кўп босқичли, кўп соҳали, очик, умумий, дидактик-услубий тизим бўлиб, ундан ўқитиш воситалари модулли илмий асосланган лойиҳалаш ҳамда булар билан олий таълим ихтисосликлари ва касбларининг турли ўқув фанлари, тайёрлаш (таълим) йўналишларини таъминлаш учун фойдаланиш мумкин.

- Дидактик тизим тузилмаси унинг фаолият кўрсатишига таъсир қилувчи ички ва ташқи омиллар ва шароитлар; ўқитиш воситаларини дидактик лойиҳалаш ва модулли қўллаш жараёнларига қўйиладиган ўзига хос тамойиллар ва талаблар; дидактик технологиялар ҳамда унинг воситалари; ўқитиш воситаларини лойиҳалаш, тажриба-конструкторлик ишлаб чиқилиши ва яратилиши; ўқув-тарбия жараёнида уларни модулли қўллаш билан белгиланади.

- Ўқув воситаларини лойиҳалаш ва модулли қўллаш дидактик тизимининг амал қилиши ва ривожланиши мутахассисларини тайёрлаш (ўқитиш) йўналишларининг дидактик ва услубий қонуниятларига, умумий дидактик ҳамда махсус касбий тамойилларига асосланади.

- Ўқитиш воситаларини лойиҳалаштириш ва модулли қўллаш дидактик-технологик яхлитликдан иборат бўлган, башоратлаш, режалаштириш, ўқитиш воситаларини танлаш, уларнинг мажмуи таркибини бутлаш, оптималлигини

<sup>113</sup> Джуроаева Б.Р. Формирование педагогической культуры будущих учителей в процессе профессиональной подготовки при изучении дисциплин педагогического цикла: Дис. ... канд. пед. наук. – Т., 2002. – 146 с.

баҳолаш, ишлаб чиқиш, яратиш ва таълим жараёнида модулли қўллаш жараёнларининг турли даража ва босқичларини қамраб олувчи инновацион технология асосидаги дидактик педагогик лойиҳалаш босқичларининг мантиқий ўзаро боғлиқлигида амалга оширилади.

- Ўқитиш воситаларининг модулли лойиҳалашнинг дидактик технологияси ва унинг воситалари олий таълим педагогикаси, дидактика ҳамда назарий ва амалиёт таълим услубиётига таянади, буларда ўқитиш воситаларига дидактик функциялар ҳамда ўқув вазибаларига эга бўлган ва таълим тизими объектлари ва жараёнларини таҳлил қилиш ҳамда моделлаштиришга бўлган тизимли, шахсли-фаолиятли, технологик ва алгоритмли ёндашувлар асосида амалга ошириладиган мустақил етакчи педагогик категория сифатида қаралади, буларда ўқитиш воситаси педагогнинг ўқитиш фаолияти бошқа бўғинлари: мақсадлари, мазмуни, шакли, усуллари ва технологиялари ҳамда талабаларнинг ўқув фаолияти билан тизим яратувчи алоқага эга бўлган энг муҳим бўғин сифатида юзага чиқади.

Ўқитиш воситаларини дидактик лойиҳалаш ва модулли қўллашнинг ўзига хос тамойиллари дейилганда бошланғич талаблар ва қоидалар мажмуи тушинилади. Буларга риоя қилинганда зарурий ўқув воситаларини илмий асосланган режалаштириш ва танлаш ҳамда уларнинг мажмуаларини яратиш, кўп босқичли, узлуксиз касбга тайёрлаш жараёнида буларни самарали қўллаш таъминланади.<sup>114</sup>

Ўқитиш воситаларини лойиҳалаштиришнинг ўзига хос тамойиллари жумласига: ўқитиш воситаларини лойиҳалаш ва қўллашнинг дидактик зарурати ва мақсадга мувофиқлиги; лойиҳалашнинг илғор хусусияти; модулик ва кўп функциявийлик; ўқитиш воситаларида ўқув маълумотининг бирлашуви ва фарқланиши, вариативлик ва муқобиллик; оптималлик; дидактик ва техник лойиҳалашнинг бирлиги киради.<sup>115</sup>

Ўқитиш воситалари мажмуаларини лойиҳалаш дидактик технологиясининг

<sup>114</sup> Ибрагимов Х.И. Автогенная тренировка как средство самовоспитания. – М.: Педагогический вестник, 1996. – 115 с.

<sup>115</sup> Исакулова Н.Ж. Узлуксиз таълим жараёнида ўқувчиларга фанлараро экологик тарбия беришнинг назарияси ва амалиёти (Умумий ўрта таълим ва педагогика коллежининг “Бошланғич таълим” йўналиши мисолида). Дис.пед.фан док. – Т.: ЎМКХТТКМО ва УҚТИ, 2012. –Б. 288

асосий воситалари: ўқитиш воситаларининг атамали тушунчалари ва таснифи; ўқитиш жараёнидаги функционал-дидактик имкониятлар ҳамда ўқитиш воситаларини оқилона қўллаш соҳалари; ўқитиш воситаларининг ўқитиш жараёнида ушбу жараённи билиш, ўрганиш, унинг ривожини башорат қилиш ҳамда ўқитиш воситаларини лойиҳалаш ва модулли қўллаш шароитларида уларни бошқариш учун ҳисобга олиниши зарур бўлган бошқа тизим яратувчи бўғинлари билан ўзаро алоқасидир.

### АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2009. – 41 б.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ҳаракатлар стратегияси асосида жадал тараққиёт ва янгилашни сари. – Т.: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 92 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5712-сон Фармони. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06/19/5712/3034-сон, 29.04.2019 й.
4. Бегимкулов У.СҲ. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти: Пед. фан. док. ...дисс. – Т., 2007. – 305 б.
5. Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. ... док.пед.наук. - СПб.: 1995. – 43 с.
6. Джураева Б.Р. Формирование педагогической культуры будущих учителей в процессе профессиональной подготовки при изучении дисциплин педагогического цикла: Дис. ... канд. пед. наук. – Т., 2002. – 146 с.

7. Ибрагимов Х.И. Автогенная тренировка как средство самовоспитания. – М.: Педагогический вестник, 1996. – 115 с.

8. Исакулова Н.Ж. Узлуксиз таълим жараёнида ўқувчиларга фанлараро экологик тарбия беришнинг назарияси ва амалиёти (Умумий ўрта таълим ва педагогика коллежининг “Бошланғич таълим” йўналиши мисолида). Дис.пед.фан док. – Т.: ЎМКХТТКМО ва УҚТИ, 2012. –Б. 288





## LEPIDOPTERA TURKUMIGA MANSUB B'ULGAN TANAX'UR ZARARKUNAN DALAR BIOEKOLOGIIYASI VA UCHRAH DARAJASI

А.А.Раҳимова

Андижон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти

Ўсимликлар ва қишлоқ хўжалик маҳсулотлари карантини кафедраси ассистенти

**Аннотация:** Ушбу мақолада Андижон ва Тошкент вилоятларининг боғ ва ўрмон биоценозида учрайдиган дарахт танаси зараркунандаларидан дарахт сассиқхўри (*Cossus cossus* L), йирик тиниққанот (*Aegeria apiformis* Cl.), қорамтир терак тиниққаноти (*Parathrene tabaniformis* Rtt.), олма ойнадори (*Synanthedon myopaeformis*)нинг учраш даражаси, биоэкологияси ўрганилган ва қарши кураш чоралари келтирилган.

**Калит сўзлар;** ўрмон, биоценоз, тангачақанотлилар, танахўр, *Cossus cossus*, *Synanthedon myopaeformis*, *Aegeria ariformis* Cl., *Parathrene tabaniformis* Rtt., личинка, биоэкология, кураш усуллари.

### BIOECOLOGY AND THE LEVEL OF OCCURRENCE STEM PESTS BELONGING TO THE ORDER LEPIDOPTERA

**Abstract;** in this article, the occurrence, bioecology and control measures of the odorous woodworm (*Cossus cossus* L), poplar glassworm (*Aegeria apiformis* Cl.), poplar dark glassworm (*Parathrene tabaniformis* Rtt.) and apple glassworm (*Synanthedon myopaeformis*) found in forest biocenoses and gardens of Andijan and Tashkent regions were studied.

**Keywords:** forest, biocenosis, Lepidoptera, stem-eater, cossus cossus, *Synanthedon myopaeformis*, *Aegeria apiformis* Cl., *Parathrene tabaniformis* Rtt., larvae, bioecology, control measures.

Ўрмон биоценозида манзарали ва ёғочбоп дарахтларга жиддий зарар етказадиган Lepidoptera туркуми вакиллари бўлган сассик дарахтхўр, олма ойнадори, терак ойнадори, кичик терак шишасимони ва бошқа зараркунандалар иқтисодий жихатдан зарар етказмоқда. Дарахтхўр зараркунандалар Ўрта Осиёда кенг тарқалган бўлиб, жумладан Ўзбекистоннинг аксарият туманларида қайд қилинган. Бундан ташқари бу зараркунанда Қирғизистон ва Тожикистоннинг воҳа ва тоғ зоналарида кўп учрайди. Шунингдек, Приморье, Сахалин, Монголия ва Хитой ўрмонларида ҳам кенг тарқалган.

Танахўр зараркунандалар баргхўрларга қараганда биоэколик жихатдан фарк қилади, чунки уларнинг асосий ривожланиш босқичлари дарахт танасида кечеди ва уларга қарши кураш чоралари ҳам бир мунча қийинчиликлар келтириб чиқаради. Кузатишларимиз давомида Андижон ўрмон хўжаликлари ва Тошкент вилояти Дўстлик боғида учровчи дарахт тана зараркунандаларининг биоэкологияси ва уларнинг ривожланиш даражалари, ўрмон биоценозида тарқалиши ҳамда учраш даражаларини мониторинг қилинган.

Андижон вилоятида Кўмакай ўрмон бўлимида ўтказилган тадқиқот натижаларига кўра, ўрмон биоценозида икки оилага мансуб бўлган уч турдаги тана зараркунандалари учраши аниқланди. Cossidae оиласига мансуб битта тур (*Cossus cossus* L) зараркунандаси 55,2 % учраши маълум бўлди. Aegeridae оиласига мансуб йирик тиниққанот (*Aegeria ariformis* Cl.) 24.5% ва қорамтир терак тиниққаноти (*Parathrene tabaniformis* Rtt.) 21,5% учраши аниқланди. (расм-1)

Дарахт сассикхўри (*Cossus cossus* L.) капалакнинг олдинги қанотлари кўнғир-кулранг тусда. Қанотлари ноаниқ кулранг-оқиш доғлари ва кўндалангига


тўлқинсимон чизиклари бор. Орқа қанотлари тўқ-жигарранг кўринишда бўлиб, хира тўлқинсимон чизиклари бор. Кўкрак қисмининг уст томони тўқ, қорни оқ ва йўғон, эркагининг қанотлари ўлчами 65-70 мм. Урғочисининг қанотлари эса 80-95 мм. Янги чиққан личинкалар тўқ-қизил, кейинроқ эса оч-қизил рангда бўлади. Боши қора ялтироқ. Вояга етган личинкаси 80-95 мм, нафас олиш тешиклари жигарранг. Агар личинкаларга бирор нарса тегиб кетса ўзидан мушк ҳидли суюқлик ажратади. Ғумбаги қалин ипаксимон пилласининг ичида жойлашган. Қўнғир рангда. Ғумбагининг узунлиги тахминан 60 мм. Тухуми овалсимон, тиниқ- жигар ранг, қора йўллари бор, ҳажми 1,2 мм.

Ёғоч қурти кўпгина япроқ баргли дарахтларни, жумладан, терак, тол, заранг, оқ қайин, эман ва бошқа мевали дарахт турларининг луб қаватини ва ёғочлик қисмини ўйиб еб катта зарар етказади.

Бу зараркунанданинг табиатга учиб чиқиши Ўрта Осиё шароитида май ойи охирлари ва июн ойларида бошланади. В.И.Плотников ва И.К.Махновский маълумотларига кўра, бу капалак кўпгина кўчатзор ва теракзорларга 20% дан 50% гача зарар етказилганлиги қайд қилинган.

Табиатда танахўрининг капалаклари учиб юриши одатда 14-15 кун давом этади. Личинкалар аввал дарахтнинг луб қаватини кемиради, кейинчалик дарахт танасининг пастки қисмининг ёғочлик қисмини ҳам ҳар томонлама (кўндалангига, тиккасига) тешиб ташлайди. Улар ҳосил қилган тешик йўллارнинг девори личинкалар ҳосил қилган суюқлик билан заҳарланиб, жигарранг ёки қора рангли бўлиб қолади. Дарахт барглари тўкила бошлаганда личинкалар озикланишни тўхтатади ва ўзлари ясаган хандакларда қишлайди. Улар шу ерда келгуси йил дарахтлар барг ёзгунига қадар ётади. Кулгуси йил баҳорда личинкалар яна озикланишни давом эттиради ва кузга бориб ғумбакка айланиб, иккинчи марта қишлайди. Ғумбакка айланиш босқичи 3-6 хафта давом этади.

Урғочи капалак дарахт ёриқлари, пўстлоқ остига ёки зарарланган тешикларга 20-25 тадан тўп-тўп қилиб тухум қўяди. Тахминан 14-15 кундан сўнг тухумлардан ёш личинкалар чиқади. Ёғоч қуртининг кўпайиши (генерацияси) икки йиллик.




**1-расм. Ўрмон биоценозида тана зараркундаларининг учраш даражалари. (Андижон ўрмон биоценози 2018-2019 йй).**

Личинкалар ҳосил қилган дарахт ичи хандак (тешик)ларининг узунлиги ўртача 50 см баъзан 1-1,5 м га ҳам етиши мумкин. Личинкалар озиқланиши бутун ёз бўйи ва кузгача давом этади. Иккинчи марта (вояга етган) личинкалар яна қишлайди. Келгуси йил апрел май ойларига бориб, улар ғумбакка айланади. Орадан маълум муддат ўтиб ғумбакдан ёш капалакчалар учиб чиқади.

Тадқиқотларни кейинги босқичида Тошкент ва Андижон ўрмон хўжаликларида олма ойнадори (*Synanthedon myopaeformis*) зараркундасини ўрганиш бўйича тадқиқотларни давом этирдик.

Олма ойнадори (*Synanthedon myopaeformis*) зараркунандаси нафақат тоғли худудларда балки охириги йилларда катта миқдордаги олма боғларида ҳам кенг тарқалаётгани маълум бўлмоқда. (расм-2.)



2-  
Расм.

**Тошкент ва Андижон вилоятларида олма ойнадори (*Synanthedon myopaeformis*) ва бошқа зараркунандаларнинг учраш даражалари.2019-2020йй.**

Олма ойнадори (*Synanthedon myopaeformis*) зараркунандаси Тошкент ва Андижон вилоятларининг турли худудларида учраш даражалари турлича эканлиги маълум бўлди. Унга кўра, 2019 йилда Тошкент вилоятининг тоғли худудларидаги олиб борилган тадқиқотларда олма биоценозида учрайдиган умумий зараркунандалар билан зарарланган олма дарахтида 16% ни олма ойнадори ташкил этди. Шу йили Андижон вилоятида олиб борилган тадқиқотларга кўра олма ойнадори зараркунандаси 21% эканлиги тадқиқотлар натижасида маълум бўлди.

Тадқиқотларни кенгайтириш ва яна ҳам аниқлик киритиш мақсадида ушбу тадқиқотлар 2020 йилда ҳам амалга оширилди. Натижада, олма ойнадори Андижон ўрмон хўжалик биоценозида 23%, Тошкент вилоятида 19% учраши кузатилди. Бундан кўриниб турибдики, ушбу олма ойнадори (*Synanthedon myopaeformis*) зараркунандаси йиллар давомида кўпроқ учраб катта майдонларда зарар етказиши ортмоқда. Юқоридаги зараркунанда турлари мамлакатимизнинг

нафақат ўрмон биоценозида, балки боғ агробиеценозида ҳам катта иқтисодий зарар етказиб келмоқда.

Қарши кураш чоралари;Тана зараркунандалари билан зарарланган новдаларни икки марта август ва сентябрда кесиб ёқиб ташлаш лозим. Кимёвий прераратлардан Zolon 35%em.k.(2.0-4.0 г/га) пуркаш йўли билан йўқотилади. Биологик кураш усулида тухумхўр паразит *Trichogramma dendrolimi* энтомофаги зараркунанда зичлигига қараб 1-3гр га қўллаш тавсия этилади.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1.Бей-Биенко Г.Я.Общая энтомология Москва «Высшая школа» 1980. –Б.245-246.

2.Сулаймонов Б.А. Ўсимликларни биологик химоя қилиш воситалари  
Тошкент 2018–Б.172.

3. Рахимова А. Андижон ўрмон хўжаликларида учрайдиган Lepidoptera туркуми вакиллари // “Agro Kimyo Himoya va o‘simliklar karantini” илмий-амалий журнали –№1–Б. 31-32.

4 Хўжаев Ш.Т Ўсимликларни зараркунандалардан уйғунлашган химоя қилиш,ҳамда агротоксикология асослари «Navroz»нашриёти Тошкент-2014–Б. 360-361.

5.Эсанбаев Ш., Жумаев Р.А., Анорбаев А.Р. Ўрмон агробиеценози энтомофаунасида фитофаг турларини ҳисобга олиш ва паразит хўжайин муносабатлари миқдорини тиклаш // Агро Кимё химоя ва ўсимликларни карантини. Республика илмий-амалий журнал. –№ 1(1) 2017. –Б. 36-39.

## АЖДОДЛАР МЕРОСИНИ ЎРГАНИШДА КИТОБХОНЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

**Очилова Н.Р.**

ҚарМИИ “Ижтимоий фанлар” кафедраси доценти

**Аннотация:** Кейинги йилларда аждодларимиз меросига, китобхонлик ва илму маърифатга бўлган эътибор анчагина сусайиб қолган эди. Республикамиздаги вилоят, туман, шаҳар марказларига эътибор берсангиз, қўша-қўша бозор, юзлаб супермаркетлар орасида китоб дўконлари деярли кўринмай қолди. Ҳозирги кунда юртимизда бошланган адабиёт тантаналари халқаро эътирофларга сабабчи бўлмоқда

**Калит сўзлар:** зулмат, жаҳолат, залолат, китоб дўконлари, илм олишлик, онг, англаш ва тафаккур қилиш, аждодлар мероси, маънавий-маърифий ишлар

Бутун инсониятни зулмат, жаҳолат, залолатдан фақат илму маърифатгина халос эта олиши барчага маълумдир. Ва мана шу илму маърифат китоб ўқиш, илм олиш билангина бўлади. «Илм» сўзи Қуръони каримнинг 811 жойида турли маъноларда келган. Қуръон ва суннатда илм инсониятни турли ахлоқсизликлар, ҳаром-харишлар, ёмон йўл ва амаллардан қайтариши зикр этилган. Дарҳақиқат, илм олишлик, онг, англаш ва тафаккур қилиш, биз инсонларни Аллоҳ таоло томонидан яратилган бошқа махлуқотлардан ажратиб турувчи меъзон, инсонни улуғловчи неъмат саналади.

Давлатимиз раҳбари 2020 йилнинг 20 май куни Адиблар хиёбонида ташрифи чоғида: “Адабиёт– халқнинг юраги, элнинг маънавиятини кўрсатади. Бугунги мураккаб замонда одамлар қалбига йўл топиш, уларни эзгу мақсадларга илҳомлантиришда адабиётнинг таъсирчан кучидан фойдаланиш керак. Аждодлар меросини ўрганиш, буюк маданиятимизга муносиб буюк адабиёт

яратамиш учун ҳамма шароитларни яратамиш”, деган эди. 2021 йилнинг 19 январь куни Шавкат Мирзиёев маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш масалалари бўйича ўтказган видеоселектор йиғилишида эса ушбу фикрларига асос ҳозирлади. Хусусан, давлат раҳбарининг “Маънавият ва ижодни қўллаб-қувватлаш мақсадли жамғармасини ташкил этиш тўғрисида”ги қарорида кўрсатилганидек, энди халқимизнинг қадимий тарихи, бой маданияти, асрий анъанаю қадриятлари куйланган, миллий маънавиятимизнинг мазмун-моҳияти теран бадий ифодасини топган мумтоз, замонавий адабиётимиз намуналари хорижий тилларга тизимли таржима қилинади ҳамда жаҳон ахборот тармоғида кенг тарғиб этилади. Бинобарин, миллий меросимиз, буюк аждодларимизнинг жаҳон тамаддунига қўшган улкан ҳиссалари дунё миқёсига олиб чиқилади. Мамлакатимиз ва халқаро доирада илмий-маърифий тадбирлар, адабий анжуманлар, фестиваллар, танловлар, халқ сайиллари китоб ва адабиёт байрамлари тарзидаги адабий-муסיқий кечалар ўтказилади.

Ҳазрат Навоий айтганларидек, элнинг адаби, юксак маънавияти унинг ҳар не бойлигидан устун туради. Аини пайтда ана шу руҳий устуворлик, мустаҳкам маънавий пойдевор учун улкан саъй-ҳаракатлар бўлаётгани қувонарлидир.

Ҳозирги кунда юртимизда бошланган адабиёт тантаналари халқаро эътирофларга сабабчи бўлмоқда. Устозимиз Абдулла Орипов хотирасига бағишланган “Олтин сўз” халқаро мушоирасида ҳам биз бундай эътирофлардан беҳад қувондик. Алишер Навоий бобомизнинг 580 йиллиги тантаналари эса ҳатто Америка Қўшма штатларида ҳам нишонланди. Навоийшунос Бенедик Перининг, “Навоийдек қуёши бор юрт ошиғиман”, деган таъкиди ҳам биз учун ғурурбахш.

Устозлар “бошидан кечирган”, ҳатто ўзимиз ҳам гувоҳ бўлган “ўтган кунлар”имиз машаққатлари ҳақида гап кетганида Ўзбекистон халқ шоири Абдулла Ориповнинг мана бу мисралари ёдимга келади:



Бир вақтлар илҳомнинг ўтли тиғида,  
Фалакни кўзларди менинг ҳам созим.  
Лекин икки дарё оралиғида  
Қолиб кетди менинг ўшал овозим.

Шу ўринда бир ҳақиқатни таъкидлаб ўтиш зарур. Мамлакат адабий ҳаётида, адабий жараён ва жамоатчилик орасида, айниқса, ёш ижодкорлар учун нуфузи ва мақомига кўра том маънода чинакам адабиёт байрамига айланган, не-не устозлару шогирдларнинг юракларини жимирлатиб орзиқтирган Зомин семинарлари ўз-ўзидан пайдо бўлгани йўқ. Ўриклисойнинг бетимсол табиати манзаралари билан ака-ука, опа-сингил тутинган адабиёт байрамларининг, ёшлик ва сурур анжуманларининг ҳақиқий ижодкори, чин ташаббускори Президентимиз Шавкат Мирзиёев бўлган. Ўша кезларда ижтимоий фаолиятию иш тартиби ўта тиғизлигига қарамай, катта эътибор ва хайрихоҳлик билан ўзи эгалик қилиб, ўзи бош-қош бўлган ҳолда анжуманни юксак мақомда ташкиллаштирган. Шу боис мазкур семинар акс-садолари билан, қувончу ҳайратлари билан тез орада бутун мамлакатга ёйилиб кетди. Ташаббус билан ғоя – адабиётсевар ва маърифатпарвар раҳбарга тааллуқли бўлгани, ғоя ва ният муаллифининг ўзи уни амалга оширишда бевосита раҳбарлик қилиб иштирок этаётгани-ю, ёш шоирлар билан баб-баравар завққа тўлиб, қувониб-шодланиб ўтиргани-шу биргина ҳолатнинг ўзи семинарнинг нуфузини ҳам, мавқеини ҳам янада юксалтириб юборган эди. Бу қутилмаган эътибор ва хайрихоҳликдан анча-мунча давра кўрган тажрибали устозлар ҳам ҳаяжонга тушгани ёдимда... Ўша пайтларда шаҳар ва туман миқёсида ўтадиган кўпгина адабий йиғинларда аксарият маҳаллий раҳбарларнинг қатнашиши у ёқда турсин, ижод аҳлига рўйхуш бермасдан, адабий-маънавий тадбирларга нописанд қараганига кўп бора дуч келган, шунга кўниккан кексароқ адиблар учун бу янгилик ростакамига ҳайратланарли эди.

Бугун энди ўйлаб, муқояса қилиб кўрсак, адабиёт ва ижод аҳлига эътибор, ёш истеъдодларга кўрсатилаётган амалий ғамхўрлик, китоб ва китобхонлик

масалалари, Адиблар хиёбони ва унинг доирасида Ёзувчилар уюшмасининг янги биносини бунёд этиш сингари эзгу ишлар доирасида қабул қилинган қарор ва ҳужжатлар, халқ қабулхоналарию одамлар билан очикдан очик мулоқот қилишдек эзгу амалларнинг илк тамал тошлари ҳам ўша Зоминдаги муборак анжуманларда қўйилган, десак муболаға бўлмайди. Одамзоднинг жаҳолатга қарши биринчи муқоваланган исёни китобдир. Риёю разолат, тубанлик, пастликка қарши одам болалари бино этган илк истехком ҳам китоб саналади. Бизнинг боболаримиз бутун рўйи оламни, ерни ҳам, самони ҳам билим билан, тафаккур ва китоб билан забт этишган. Серюлдуз осмон, Мирзо Улуғбек бобомизнинг дурахшон кутубхонасига ўхшайди. Термизийлардан, Бухорийгача, Ибн Синолару Бухорийлар, Фарғоний ва ал-Хоразмий боболаргача жаҳонни ақлу заковат, илму ҳикмат билан эгаллаган буюк жаҳонгирлар бўлишган.

“Не мулк ичраки бир фармон йибордим, Анинг забтига бир девон йибордим”, деганларида Навоий ҳазратлари биргина ўзлари эмас, илму маърифати билан жаҳонқушойлик қилган сарзаминимизнинг барча буюк алломалари, донғи оламшумул боболаримизни ҳам айнан назарда тутган бўлса, ажаб эмас. Ҳалигача у ёғи Амриқою бу ёғи Оврupo қадар, Ҳинду Хитойдан тортиб Парижу Австриёгача, Эрону Қоҳира, Истанбулу Лондондан токи Токиога қадар бирон бир китоб “Бобурнома” янглиғ ер юзи ўлкаларни бунчалик бардавом забт эта олган эмас. Жаҳонгирлик мана бундоғ бўлибди десак, япон бобуршуноси жаноб Эвжи Мано ўрнидан туриб ҳурмат билан тавозе бажо келтирмоғи ҳам айни ҳақиқат.

Бироқ кейинги йилларда аждодларимиз меросига, китобхонлик ва илму маърифатга бўлган эътибор анчагина сусайиб қолган эди. Республикамиздаги вилоят, туман, шаҳар марказларига эътибор берсангиз, кўша-кўша бозор, юзлаб супермаркетлар орасида китоб дўконлари деярли кўринмай қолди. Демак, энг аввало, китобхонлик ва китоб мутолааси муаммосини ҳал қилиш учун китоб етказиб бериш, китоб тарқатиш масаласини жиддий ҳал қилиш керак эди. Шу нуқтаи назардан олиб қараганда “Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш

тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида”ги Президент фармойиши айтилган вақтида қабул қилинган муҳташам ва зарурий ҳужжат бўлди.

Аслида, она Ватанимизнинг ўзи буюк ва бетимсол китоб. Бу улғвор китобни ўқиб англамоқ учун, садоқатли, маърифатли ва билимли фарзанди бўлиб шарафламоқ учун аввало Ватан равнақи, тинчлиги, ободлиги учун хизмат қилиш зарурлигини англаб етган ҳар бир ўғил-қиз шарафли ва муқаддас бурчни адо этган бўлади.

### АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқидан. Ўзбекистон – ёшлар мамлакати. Тараққиёт стратегияси маркази. 27721 | 24 Июль 2019 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожатномаси 22 декабрь 2017 йил. – Тошкент. “Ўзбекистон”, 2018.-16 бет.
3. Мирзиёев Ш. “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 13 сентябрдаги ПҚ-3271-сон қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами Тошкент. 2017. № 38 5-8 бетлар.
4. М.Тожимамадова. Биз ёзмасак ким ёзгайдир бу кунларнинг “Хамса”син”. Янги Ўзбекистон. 30 март.2021й
5. М.Миржалилов . Китоблар улугликка элтувчи йўлдир. 27 окт.2020й.

## АНИЖОН ВИЛОЯТИ ШАРОИТИДА КОМОСТОК ҚУРТИ БИОЛОГИЯСИ ТАРҚАЛИШИ ЗАРАРИ

**Рахмонова Мадинахон Кимсанбоевна**

Доцент.

Андижон кишлок хўжалиги ва агротехнологиялар институти

**Парпиева Махмудахон Қурбоналиевна**

Катта ўқитувчи

**Анотация:** Комсток куртнинг ватани Япония ва Хитой давлати бўлиб, энтомолог С.Куван 1902 йилда бу куртни таърифлайди ва унга америка энтомологи Комсток шарафига Комсток номини беради. Комсток курти тенг қанотлилар туркумининг, кокцидлар – *Coccinea* кенжа туркумига, сўрувчи ҳашаротларнинг унғуборли куртлар оиласига мансуб бўлиб, хавфли ички карантин ҳашаротдир.

**Калит сўзлар:** Комсток курт личка имого туркум оила.

**Annotation:** The Comstock worm comes from Japan and China, the entomologist S. Kuvan described the worm in 1902 and named it Comstock in honor of the American entomologist Comstock. The lump worm is a dangerous domestic quarantine insect of the genus *Coccinea*, a subfamily of coccidia, a family of sucking insects.

**Key words:** Komostok kurt lynka imo family series.

**Кириш:** Ушбу зараркурандани барча мевали ва манзарали дарахт, дарахтсимон ўсимликлар ҳамда айрим ўтсимон ўсимликларда (ҳатто тут қаторларига яқин жойларда, ғўзада ҳам) учратиш мумкин. Мевали дарахтлардан анор, олма, нок, шафтоли, шунингдек тутларни қаттиқ зарарлайди. Комсток курти ҳар қандай дарахтда учраши, панада ҳаёт кечириши, биологик

хусусиятлари жуда кўп уруғли бўлиб, табиатда тез тарқалиши ҳисобига унга қарши курашиш жуда қийиндир. Комсток қурти Ўрта Осиёнинг барча Республикаларига Қозоғистонга, шунингдек Гурузия, Арманистон ва Озарбайжонга тарқалган. Унинг Ўзбекистонга кириб келган вақтдан бери ўтган бўлсада 75 йил мобайнида карантин чора-тадбирлари қатъий олиб борилишига қарамадан тарқалмоқда. Бугунги кунда МДХ давлатларида комсток қурти барча минтақаларга кенг тарқалиб кетиш хавфи мавжуд. Комсток қурти тарқалмаган ҳудудларни ундан муҳофаза қилиш учун кўчатларни, ўсимлик маҳсулотларини киритиш ва чиқаришида барча карантин қоидаларига амал қилиш ва унга қарши кураш чора-тадбирларини кенг кўламли олиб бориш лозим. Комсток қуртининг биологик ривожланиш вақтини ва унга қарши кураш чора-тадбир усулларини яхши билиш, бу вазифани муваффақиятли бажарилишини таъминлайди.

Тарқалиши. Комсток қурти тўғрисида кўп йиллар мобайнида адабиёт манбаларида маълумотлар берилмаган. 1920 йилга келиб матбуотда унинг янги ўчоқлари пайдо бўлиши тўғрисида хабарлар тарқала бошлади. Ҳозирги вақтда комсток қурти Осиё, Африка, Австралия, Америка ва Европанинг кўпгина мамлакатларида тарқалган. МДХда комсток қурти биринчи марта 1939 йилнинг август ойида Ўрта Осиё ипакчилик институтининг Тошкент шаҳри яқинидаги Жарариқ тажриба хўжалигида Япониядан келтирилган йирик баргли тут кўчатларида аниқланди. Ўзбекистонда комсток қурти Тошкент вилоятининг бутун суғориладиган қисмида тарқалиб, сўнгра Республиканинг бошқа вилоятларига ҳам тарқалиб кетди. Фарғона вилоятида комсток қурти 1947 йилда топилди. Бу ерда қуртнинг тарқалиши Тошкент вилоятидагига қараганда тезроқ бўлди. 1953 йилда бутун Фарғона вилоятига комсток қурти тарқалиб бўлган эди. Боғларнинг, дарахтзорларнинг кўплиги, тутларнинг қалин ўтказилиши ва ариқлар қуртнинг

тез тарқалишига ёрдам берди. 1953-1957 йилларда Андижон вилоятининг барча туманларида комсток қурти жуда тез тарқалди. Ушбу зараркунанда 1957 йил Жиззах вилоятининг Зомин, Самарқанд вилоятининг Иштихон тумани ва Самарқанд шаҳрида, 1960 йил эса Бухоро, Навоий вилоятлари ва 1961 йилда Сурхондарё вилоятининг Афғонистон билан чегарадош туманларида тарқалган. Хоразм ва Урганчда 1962 йилда, Қорақалпоғистон Республикаси ҳудудларида 1964 йилларда пайдо бўлди. Комсток қурти сўнгги йилларда бутун Ўзбекистон ҳудудлари бўйлаб тарқалиб бормокда.

Морфологик белгилари. Эркак ва урғочи зотлари ташқи тузилиши бўйича кескин фарқланади. Урғочиси ясси шаклли, қанотсиз, кам ҳаракат ва усти оқ мумсимон доғлар билан қопланиб 5 мм узунликда бўлади. Танасининг ён томонида 17 жуфт мумсимон ўсимталари бор, дум қисми сезиларли даражада чўзинчоқ бўлади. Мўйловлари саккиз бўғинли бўлади. Комсток қуртининг эркаки 1 жуфт шаффоф қанотли, серҳаракат, ранги қизғиш-жигарранг тусда, узунлиги 1-1,5 мм, мўйловлари 10 бўғинли. Тухумининг узунлиги 0,3 мм, бир томонидан торайган овал шаклда. Ранги сариқ-зарғалдоқ бўлиб, юпқа оқ гард билан қопланган. Комсток қурти – танасининг катталиги ва дум қисмининг узунлиги билан бир – биридан фарқ қилувчи учта личинкалик ёшини ўтайди.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Саувач А.Х., Мусолин Д.Л. Биология и экология паразитических перепончатокрыл (Hymenoptera: Aroscita: Parasitica). Санкт-петербург. 2013.-С3.
2. Коладева Л.М. Определитель вредных и полезных насекомых и клещей плодовыхягодимах культур в Ленинград. «Колос» 1984. С 32-33.
3. Штернцис М.В., Джалилов У., Андреева И.В., Томилова О.Г Биологическая защита растений “Колос” -Москва.: 2004. -С 101.
4. Хамраев А.Ш., Насриддинов К. Ўсимликларни биологик ҳимоялаш. Халқ

мероси нашрети. Тошкент 2003. 212 б.

Андижон қишлоқ хўжаликги ва агротехнологиялар институти ўсимликлар ва қишлоқ хўжалик маҳсулотлари карантини кафедраси мудир дотцент М.Рахмонова магистр С.Абдулазизова



## ОПТИК ЛИНИЯ ТРАКТИДА СИГНАЛЛАРНИ УЗАТИШНИНГ АСОСИЙ ТАЛАБЛАРИ

**Самандаров Улуғбек Мурод ўғли**

Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги ТАТУ

II-босқич магистранти

**Аннотация:** Ишда оптик линия трактида сигналларни сифатли узатиш масалалари, уларнинг асосий хусусиятлари ҳамда линия кодларига асосланган усуллари кўриб чиқилган. Тўлқин узунлиги бўйича зичлаштирилган оптик тизимларда линия кодларини ишлатишнинг самарадорлиги кўрсатилган. Шунингдек, оптик линия тракти орқали сигналларни сифатли узатиш талаблари асосланган.

**Калит сўзлар:** оптик линия тракти, толали оптик узатиш тизимлари, рақамли код, кодлаш, линия кодлари, скрембирлаш, тўлқин узунлиги бўйича мультиплекслаш.

**Annotation:** The paper discusses the issues of qualitative signal transmission in the optical line path, their basic properties, and methods based on line codes. The use of linear codes in optical wavelength-density optical systems is demonstrated. Similarly, the requirements for qualitative transmission of signals through the optical line path are justified.

**Keywords:** optical line path, fiber optic transmission systems, digital code, encoding, line codes, scrambling, multiplexing by wavelength.

ТОУТларнинг линия кодлари стандартлаштириш даражаси ва PDH, SDH ва бошқа баъзи, масалан, оптик компьютер тармоқлари мультиплекслаш қурилмаларига эга бўлган мавжуд бир тўлқинли узатиш тизимларида



қўлланилиши бўйича таснифланади. 1-расмда ТООТлар линия кодларининг таснифланиши келтирилган бўлиб, уларга скремблирланган; ортиқчаликсиз кодлар; 1В2В; блокли mВnВ ва қўшимчалли; икки сатҳли, яъни иккита мантиқий ҳолатлар – юқори ва паст оптик қувват сатҳларига эга бўлган кодлар киради.

NRZ (Non Return to Zero – такт интервалида нолга қайтишсиз) узатиш форматидаги скремблирланган линия коди рақамли SDH ТООТ учун биринчи глобал линия кодлаши стандарти ҳсобланади. Уни шакллантириш алгоритми ХЭАИ-Т G.707 тавсиясида келтирилган. Код линия сигналларига қўйиладиган талабларнинг бажарилишини таъминлайди. Скремблирланган коднинг айрим характеристикалари ҳам оптик линия трактида сигналларни узатиш хоссаларига бевосита боғлиқ.

ТООТ линия трактлари орқали узатиладиган сигналларга қуйидаги асосий талаблар қўйилади:

- энергетик спектрининг узлуксиз қисми паст частоталар соҳасида минимал спектрал зичликка ва минимум юқори частотали ташкил этувчиларга эга бўлиши керак;

- чизиқли сигнал такт частотаси ҳақидаги маълумотларга эга бўлиши лозим;

- спектрнинг узлуксиз қисми такт частотаси яқинида минимал бўлиши керак;

- спектр энергиясининг асосий улуши чекланган частоталар соҳасида бўлиши лозим;

- линияли кодлаш жараёни ахборот сигналининг статистикасига боғлиқ бўлмаслиги керак;

- линия сигналларини шакллантириш алгоритми регенерациялаш хатоликларини ишончли назорат қилишни таъминлаши керак.



1-расм. Рақамли ОУТлари трактларида линия кодларининг таснифланиши

Нисбий кодлар линия сигналларига қўйиладиган талабларга мос келмаслиги сабабли кодлар кенг қўлланилмайди. Ортиқчаликсиз кодлаш (NRZ-L, NRZ-S, NRZ-M) ва NRZ ва RZ чизиқли код формати тушунчаларини фарқлаш керак. Формат узаткичнинг такт интервалидаги активлигини аниқлайди. NRZ формати бутун такт интервалдаги активликка мос келади, RZ формати эса тактли интервалнинг бир қисмидаги (50% ёки 25%) узаткичнинг активлигига мос келади. 1В2В синфидаги линия кодлари деганда дастлабки сигналнинг бир бити икки битли комбинацияга ўзгартириладиган кодлар тушунилади. Бунда бу битларнинг давомийлиги ўзгартириладиган битларнинг давомийлигидан икки баравар кичик бўлади. Шундай қилиб, чизиқли сигналнинг такт частотаси икки баравар ошади ва линиядаги узатиш тезлиги дастлабки кетма-кетликдан икки баравар катта бўлади. 1В2В синфидаги линия кодларига қуйидагилар киради:

- ВI-L (биимпульсли абсолют);
- ВI-M (биимпульсли М нисбий);
- ВI-S (биимпульсли S нисбий);
- DBI (дифференциал икки фазали);
- СMI (символлар гуруҳлари инверсияланадиган);

- МСМІ (модификацияланган СМІ) ва ҳ.к.

1В2В синфдаги чизиқли кодларнинг афзалликларига бир хил символларнинг кам сонли кетма-кетликлари, кодер/декодерлар схемаларининг кичик ўлчамлари, яхши мувозанатланганлик ва барқарор такт синхронизми киради. Бу кодларнинг камчилиги сифатида узатиш тезлигининг икки каррага ошиши ва шунга мос равишда сигналларни ўтказиш полосасининг кенгайишини ҳисоблаш мумкин.

Қўшимчали кодларга мисоллар mB1C; mB1P; mB1P1R кодлар ҳисобланади. mB1C кодларни шакллантиришда m ахборот символларига охириги m га инверс қийматга эга бўлган қўшимча битга C қўшилади. Агар m битлардан охиригиси “1” бўлса, u ҳолда C символ “0” бўлади ва аксинча, Агар m битлардан охиригиси “0” бўлса, C символ “1” (3B1C, 8B1C) бўлади. mB1P кодларда m – ахборот символларининг сони, P – қўшимча символ. Агар m блокдаги бирлар сони тоқ бўлса, u ҳолда P символ “1” қийматини олади, агар u тоқ бўлса, P символ “0” га тенг (10B1P, 17B1P) бўлади.

Агар линия трактида хизмат кўрсатиш алоқасини ташкил қилиш керак бўлса, u ҳолда дастлабки иккилик кетма-кетлик mB1P алгоритмига мувофиқ кодланади, кейин эса яна бир R бит – хизмат алоқаси бити қўшилади. mB1P1R чизиқли код олинади. Мисол: 10B1P1R.

Кўп даражали кодлар нурланишни ташқи модуляциялашда оптик узатиш тизимларида, шунингдек тўғридан-тўғри модуляциялаш қатъий чизиқли модуляцион характеристикалари бўлганда қўлланилиши мумкин. Мисол сифатида ХЭАИ-Т G.703 тавсияларида кўзда тутилган HDB-3 орт уч даражали чизиқли кодлашни келтириш мумкин.

ТОУТлар турли линия кодларини қиёсий таҳлил қилиш учун бир қатор стандартлаштирилган характеристикалардан фойдаланиш таклиф этилади:

- ортиқчалик сигналга керакли хусусиятларни беради ва такт частотасини оширади;


- нисбий узатиш тезлиги узатиш тезлигининг ўзгариши коэффициентини кўрсатади.

Кетма-кет келадиган бир хил символларнинг максимал сони такт частотасини ажратиш барқарорлигини аниқлайди. Номутаносиблик тактли синхронлаштиришга таъсир қиладиган кодлар комбинацияларидаги бирлар ва ноллар сонининг тенг эмаслиги ҳисобланади. Чизиқли код элементар импульсининг 90% энергиясига эга бўлган частоталар полосаси кенглиги такт интервалидаги (Т) энергетик спектр узлуксиз қисмининг солиштирма қисмини тавсифлайди:

$$R = 1 - \frac{m}{n} \quad (1)$$

Рақамли йиғинди n-даражали коднинг (n=2, 3, ...) вақт оралиғидаги қийматлари бўйича қўшни сатҳлар фарқларининг абсолют қийматига келтирилган импульслар амплитудаларининг йиғиндисини ҳисобланади.

Скремблирлаш дастлабки иккилик кетма-кетликнинг иккинчи модули бўйича қўшиш мантиқий операциясини амалга оширадиган ва псевдо-тасодифий кетма-кетлик сифатида қўлланиладиган тасодифий сигнални ўзгартирадиган қурилма ёрдамида амалга оширилади (2-расм).



2-расм. Скремблирланган чизиқли сигнални шакллантурувчи схемаси



линия трактнинг пасив оптик компонентлари ўз характеристикалари бўйича ХЭАИ-Т G.671 тавсияларига мос келиши керак.

3. Ҳозирги вақтда тўлқин узунликли тизимларнинг линия трактларини лойиҳалашнинг жуда аниқ усуллари мавжуд. Бирок, тўлқин узунликли узатиш техникасини ишлаб чиқарувчилар бундай техникани олувчиларга бундай усулларни очиқ шаклда тақдим этмайди. Бунда улар зарур ҳисоблашларни амалга ошириш учун тайёр дастурий маҳсулотлар билан қурилмаларни етказиб беради.

Магистрал узатиш оралиқларида янги толали оптик линияларни лойиҳалашда сурилган нолга тенг бўлмаган дисперсия (NZDSF) масалан, True Wave учун ХЭАИ-Т G.655 тавсиясига жавоб берадиган шиша толали оптик кабеллардан фойдаланиш керак бўлади. Бу тола учун дисперсион характеристика нафақат учинчи шаффофлик ойнасида (1530-1565 нм), балки тўртинчи шаффофлик ойнасида (1565-1620 нм), яъни С ва L диапазонларда спектрал мультиплекслашда оптимал ҳисобланади.



## IMPROVING INTERETHNIC HARMONY IN OUR COUNTRY

**Elboeva Shakhnoza Buriniyozovna**

Senior teacher of social sciences

Karshi Engineering and Economic Institute

**Abstract:** From the first days of independence, given the multinational nature of Uzbekistan, special attention was paid to strengthening interethnic harmony and solidarity. Also, national-cultural centers are public organizations that serve the national-cultural needs of certain nationalities living in Uzbekistan.

**Keywords:** national cultural centers, national culture, language, customs, traditions, friendship, cooperation, cultural and educational relations, activities of centers.

From the first days of independence, given the multinational nature of Uzbekistan, special attention was paid to strengthening interethnic harmony and solidarity. The policy of the state in this area, the main directions of which are set out in the Constitution of the Republic of Uzbekistan on the basis of universally recognized universal values and principles.

National cultural centers are public organizations that serve the national cultural needs of certain nationalities living in Uzbekistan. National cultural centers voluntarily unite citizens of Uzbekistan interested in studying, preserving and developing the national culture, language, customs, traditions and customs inherent in a particular nation. It is based on the Law of the Republic of Uzbekistan "On non-governmental and non-profit organizations" (April 14, 1999). The charter is registered by the relevant judicial organizations (Ministry of Justice or regional and municipal departments of justice). Carries out its activities directly or through its branches in the territory of the Republic of Uzbekistan.

National Cultural Centers Some of the main national cultural centers living in Uzbekistan were established in 1989 by Koreans, Kazakhs, Jews and Armenians in the

regions of the republic. was created in. The real development and prosperity of these centers began after Uzbekistan gained independence. In connection with the acquisition of independence by Uzbekistan, ample opportunities have been created for their effective work. As a result, the number of national cultural centers is growing every year. If in 1992 there were 10 national cultural centers, then in 1995 their number increased to 72, and in 2003 - to 135. They include cultural centers of the republic, regional, city, district cultural centers.

Decree of the President of the Russian Federation "On measures to further improve interethnic relations and friendly relations with foreign countries", adopted on May 19, 2017, opens up new prospects for organizing national and cultural events in the spirit of the times, expanding cultural and educational ties with foreign countries. countries [1].

The main goal of the further development of national culture is the formation of a harmoniously developed personality and the strengthening of social cohesion through the improvement of the cultural and social sphere.

The following are the main principles for the further development of national culture:

- freedom of creativity, equality in intercultural relations, human rights,
- respect for national and universal values and preservation of cultural diversity;
- ensuring the structure, scientific character and continuity of education in the field of culture and art;
- Achieving publicity and transparency of work on the further development of culture and art;
- to form a mood of intolerance towards ideas that negatively affect the psyche and maturity of a person [2].

The main way to achieve interethnic harmony and solidarity is the development and strengthening of the importance of national and universal values. Bukhara has long been a unique region of ethnic and religious tolerance. Currently, various ethnic groups and religious communities live peacefully in the oasis [3].



In 2002, about 15 thousand Tatars lived in our region, including more than 8 thousand in Bukhara. Glum Gibadullin, chairman of the National Cultural Center, said: “We live and work in peace with Uzbeks, Tajiks, Russians and representatives of other nationalities, like children of one family. We are careful. In achieving these noble goals, we are assisted by regional and city khokimiyats, as well as sponsoring organizations such as Pakhtasanoat JSC[4].

The Turkish National Center was founded on June 27, 1991. Registered by the Department of Justice of the Executive Committee of Bukhara on January 22, 1992. The center is headed by Shakhriev Kamal Suleimanovich.

The center is in contact with the Turkish state. The Turks sought to revive their customs and traditions, national songs and dances. The center celebrates the national holidays of Turkey.

Many young Turks often come to the center to learn about their national traditions.

They learn national songs and dances. The center also cooperates with other national centers in the region. The center is located on Rikova Street in Bukhara.

One of the national cultural centers of our country, making a worthy contribution to improving interethnic harmony, is the Tajik national cultural center "Orieno".

The center was established in Tashkent on June 8, 1990. In a short time, the Center has done a lot to strengthen our independence and ensure interethnic stability. The main goal of the center is the preservation, development and study of the culture, language and traditions of the Tajik people, as well as the culture of other fraternal peoples [5].

### USED LITERATURES

1. Sh. Mirziyoyev. On measures for the further improvement of interethnic relations and friendly relations with foreign countries. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan. Tashkent, May 19, 2017
2. The concept of further development of national culture in the Republic of Uzbekistan. APPENDIX 1 to the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated November 28, 2018 No. PQ-4038.

3. Kurbonova M. B. Bukhara oasis-land of interethnic tolerance.// Prospects for modernization, innovative development and tolerance. Collection of materials of the Republican scientific conference. Book 3. T., 2010. - B. 5.

1. Akhmedova S. Joys of "Sabantoy - 2002". / Buxoronoma. 2002, July 6, No. 27, - B.

2. Kudratov A. Created Tajik cultural center. / Truth of Bukhara. January 6, 1990

3. Ochilova N. THE MAIN FEATURES OF WESTERN EUROPE MEDIEVAL, MODERN PHILOSOPHY AND PHILOSOPHICAL VIEWS IN THE 9TH-12TH CENTURIES IN CENTRAL ASIA. Journal of Critical Reviews. ISSN-2394-5125 Vol 7, Issue 14, 2020 . Received: 04/09/2020. p-192-199

4. Ochilova N. THE DEVELOPMENT OF THINKING IN STUDENTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. International Engineering Journal For Research & Development. Vol.5 Issue 3 E-ISSN NO:-2349-0721 Impact factor : 6.193 www.iejrd.com 1-4 p

5. Ochilova N.R. HOW TO INFLUENCE YOUR ATTITUDE TO A PERSON. Academy.Scientific methodical magazine. No. 11 (50), 2019 18-21 Russian impact factor: 0.19 ISSN 2412-8236 (Print) ISSN 2542-0755 (Online)



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA INTERFAOL USUL ORQALI TA`LIM BERISH

**Otajonov J.M.**

FarDU, Maktabgacha ta`lim kafedrası katta o`qituvchisi (PhD)

Ahmadjonova A.D.

FarDU, 1 kurs magistranti

E-mail: [otajonov.jamshidbek@mail.ru](mailto:otajonov.jamshidbek@mail.ru)

**Annotasiya.** Ushbu maqolada maktabgacha ta`lim tashkilotlarida mashg`ulot o`qitishning asosiy shartlaridan biri uning sifatida barcha bosqichlarida o`qitishning interfaol usullaridan foydalangan holda bolalarning aqliy faoliyatini yanada rivojlantirish jarayoni yiritilgan.

**Kalit so`zlar:** Interfaol texnologiyalar, javobgarlik hissi? o`z-o`ziga tanqidiy munosabat, ta`lim jarayoni, muloqot, bolalar, maktabgacha ta`lim tashkiloti, metod, usul, mashg`ulot, rasm, guruh.

## TEACHING PRESCHOOL CHILDREN THROUGH INTERACTIVE METHOD

**Annotation.** In this article, the process of further development of the mental activity of children using interactive methods of teaching at all stages as one of the main conditions for training in preschool organizations is torn.

**Keywords.** Interactive technology, sense of responsibility, self-critical attitude, educational process, communication, Children, organization of preschool education, method, method, occupation, painting, group.

Interfaol usullar – ta`lim jarayonida o`zaro muloqot qilishni anglatadi, bu o`z navbatida kognitiv va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning alohida shakli hisoblanib, unda barcha ishtirokchilarni muloqot bilan qamrab olish nazarda tutiladi.

(ya`ni hamma erkin muloqotga kirisha oladi, shu bilan bir qatorda muammoni teng muhokama qilishda ishtiroki ta`minlanadi).

Interfaollik bolada javobgarlik hissini, o`z-o`ziga tanqidiy munosabatni shakllantiradi, muammolarni hal qilishda ijodiy yondashishni rivojlantirib, o`zining kuchli tomonlarini to`g`ri va holisona baholashga, bilimlaridagi ishlovga moyil jihatlarini ko`ra bilishga o`rgatadi. Interfaol darsning asosiy tarkibiy qismi bu dialogdir. Interfaol ta`lim jarayonida bolalar faol muloqotda bo`ladilar, ba`zan bahslashadilar, suhbatdoshlari bilan o`zaro tortishib, o`z fikrini isbotlashga harakat qiladilar.

Maktabgacha ta`lim muassasalarida mashg`ulot o`tishning asosiy shartlaridan biri uning barcha bosqichlarida o`qitishning interfaol usullaridan foydalanib, bolalarning aqliy faoliyatini yanada rivojlantirishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga interfaol usullari orqali ta`lim berish - bu o`quv faoliyatini tashkil etishning o`ziga xos shakli bo`lib, u asosida har bir bolaga o`z muvaffaqiyatini his qila olishini va muayyan intellektual ishlarni bajarib, yuqori ko`rsatkichlarga erishishi ta`minlab borish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish amalga oshiriladi.

Interfaol o`qitish metodlari deganda, bolalarga juftlikda, guruh bo`lib yoki kichik guruhlarda suhbatlashish, bahslashish va turli nuqtai nazarlarni muhokama qilish orqali o`quv materiali ustida ishlash imkonini beradigan faoliyat tushuniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o`stirish va rivojlantirishning interfaol usullari

Mikrofon - bu usul davomida bolalar o`qituvchi bilan birgalikda davra hosil qiladilar mikrofoniga taqlid qilishadi yoki o`yinchoq mikrofonni bir-biriga uzatib, berilgan mavzu bo`yicha o`z fikrlarini bildiradilar.

Misol uchun, bola mikrofonni oladi, o`zi haqida bir necha og`iz gapiradi, so`ng mikrofonni boshqa bolaga uzatadi. Bolalarning barcha mulohazalari qabul qilinadi, qanoatlantiriladi, lekin muhokama qilinmaydi.

Munozara - bu usulda bolalar aylana bo‘lib turib oladilar, mikrofonni bir-biriga uzatayotganlarida berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini bildiradilar, keltirilgan mulohazalar muhokama qilinib, bir-birlariga savollar berishadi, ularga javob berayotib, muammoni hal qilish yo‘llarini birgalikda izlaydilar.

Juftlik – bu bolalar o‘zaro juftliklarni tuzib, berilgan topshiriqlarni birgalikda bajaruvchi usul hisoblanadi, masalan, navbatma-navbat rasmni tasvirlab berish.

Zanjir - usul davomida bolalar berilgan topshiriqlarni muhokama qilishadi va o‘z takliflarini zanjirlarda ifodalashadi. Masalan, ular jadval bo‘yicha ertak tuzib, ertakning qanday borishini chizmalarda yoki shartli belgilarda ko‘rsatib boradilar.

Yumaloq qor – bunda bolalar kichik-kichik guruhlariga bo‘linib muammoli vaziyatni muhokama qilishadi yoki umumiy vazifani bajarib, jamoaning har bir a‘zosi uchun aniq harakatlar ketma-ketligini kelishib oladilar.

Deylik, ular uy qurishmoqchi, oldindan jamoaning har bir a‘zosini harakatlar ketma-ketligi va u yoki bu bolaning qaysi rang bilan ishlashi haqida oldindan kelishib olinadi.

Fikrlarni sintez qilish - bu bolalarni kichik guruhlariga birlashtiradigan, ma‘lum bir vazifani bajarishni yuklaydigan usul hisoblanadi. Masalan, qog‘ozga rasm chizishni olishimiz mumkin.

Bir guruh rasm chizishni boshlaydi va chizilgan rasmni boshqa guruhga o‘tkazadi, ikkinchi guruh a‘zolari esa bajarilgan vazifani yakunlaydilar. Ish nihoyalangandan so‘ng, ular nima uchun rasm chizganliklari haqida umumiy hikoya tuzadilar.

G‘oyalar xalqasi - bu interfaol o‘qitish usullaridan biri bo‘lib, bunda har bir bola yoki har bir guruh bitta vazifani bajaradi, masalan, bolalar yangicha usulda ertak tuzishadi, uni muhokama qilishadi, so‘ngra taklif yoki g‘oyalar bildirishadi. (masalan, ertakni yana qanday tugatish mumkin Bo‘g‘irsoq tirik qoladi yoki unga tulkini yengib o‘tishga qanday yordam berish kerak va hokazo). Bu orqali bolalar mustaqil fikrlaydilar, o‘zaro guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmalari ham shakllanadi.

Birlashgan gul - bu usulda bolalar umumiy muammoni hal qilish uchun bir nechta guruhlariga bo‘linadilar: doskaga ma’lum bir tushunchaning tasviri tushirilgan gulning “o‘rtasi” yopishtiriladi. Masalan, “o‘yinchoqlar”, “gullar”, “mevalar”, “hayvonlar”.

Har bir guruh ushbu tushuncha atrofiga uni izohlovchi so‘zlarni yoki rasmlarni tanlab yopishtiradilar va eng katta gulni yaratgan jamoa g‘olib bo‘ladi (eng mos rasmlar yoki so‘zlarni to‘g‘ri tanlash bilan).

Ko‘p tarmoqli faoliyat usuli - bu bolalar bilan ishlash davomida turli xil analizatorlar (ko‘rish, eshitish, teginish, ta‘m, hid bilish)ni majburiy ravishda ishtirokini ta‘minlaydigan usuldir. Masalan, rasmni ko‘rishda quyidagi ketma-ketlikni qo‘llash maqsadga muvofiq: rasmda tasvirlangan narsalarni ajratib ko‘rsatish yoki ob`ektlarni turli analizatorlar tomonidan idrok etish orqali tasvirlash.

Bolalarga rasmda tasvirlangan barcha ob`ektlarni ko‘rib chiqqanlaridan so‘ng, quyidagicha ijodiy vazifalar beriladi:

- “quloqchinlar” orqali rasmdagi tovushlarni “tinglash”;
- tasvirlangan qahramonlar bilan virtual muloqotlar o‘tkazish;
- rasmda tasvirlangan gullarning “xushbo‘y hidini” his qilish;
- “tasvir mavzusidan tashqariga chiqish”;
- rasmni aqlan his etish: uning yuzasi (issiq, sovuq), ob-havo sharoitining qandayligi (shamolli, yomg‘irli, quyoshli, issiq, ayoz) va boshqalarni aniqlash.

Misol uchun, "O‘rmonda sayr" rasmi muhokama qilinayotganda, quyidagi savollarni berishingiz mumkin: Sizningcha, qizlar nima haqida gaplashmoqda? Daraxtlarning po‘stlog‘ini qanday tuzilganini ko‘rib chiqing. Barglarning shitirlashini, maynalarning chiyillashi va hokazolarni tinglang.

“Aqliy hujum” ham bolaning, ham kattalarning ijodkorligini rivojlantirishga yordam beradigan usullardan biri. Bu usul ko‘proq murakkab muammolar yoki vaziyatlarni muhokama qilishda foydalidir.

Muammo ustida individual fikr yuritish uchun ma’lum bir vaqt beriladi (hatto 10 daqiqagacha ham berilsa bo‘ladi) va belgilangan vaqt o‘tgach, qaror haqida qo‘shimcha ma’lumotlar yig‘iladi.

Bolalar – ya`ni "aqliy hujum" ishtirokchilari muammoni hal qilishning barcha ehtimolli bo‘lgan (va mantiq nuqtai nazaridan imkonsiz) variantlarini ko‘rib chiqishlari kerak, so‘ng ularni tinglab, yagona to‘g‘ri qaror qabul qilinadi.

“Nima? Qachon? Qayerda?” - usuli, undan foydalanish jarayonida hamkorlik, ijodiy muammolarni hal qilish, shaxsiy bilim va ko‘nikmalarni va o‘zaro fikrlarni almashish uchun juda kerakli usul hisoblanadi.

“Tarafdor va qarshilar” – ushbu bolalar bilan ishlash usuli davomida muammoni ikki xil usulda hal etish taklif qilinadi: tarafdorlar va qarshi tomonlar. Misol uchun, nima uchun qishni yoqtirishingizni ("tarafdor" argumenti) va nima uchun qishni yoqtirmasligingizni ("qarshi" argumenti) aytib berish.

“Agar mana bunday bo‘lganida ... nima bo‘ladi?” – bu usul bolalarga o‘ylash va o‘z taxminlarini ifoda etish taklif qilinadigan usul hisoblanib, bolalarga savol beriladi, masalan: “Agar yerdagi barcha daraxtlar yo‘q bo‘lib ketsa nima bo‘ladi?”, “Agar ertaklardagi yirtqich hayvonlar vegetarian bo‘lib qolsa nima bo‘ladi?” va hokazo.

Xayoliy rasm – ushbu usul mobaynida bolalar aylana bo‘lib turishga taklif qilinadi va har bir bola o‘z navbatida xayoliy rasmni tasvirlaydi (birinchi bolaga bo‘sh qog‘oz beriladi go‘yoki rasm chizilgandek, keyin esa varoqni navbatdagi sherigiga uzatadi, so‘ngra qog‘oz xayoliy rasm tasviri bilan o‘yinning boshqa ishtirokchisiga beriladi va o‘yin shu tarzda davom etadi).

“Nima qilish kerak ...?” bu usulda, bolalar ob`ektlarning ko‘p qirrali xususiyatlarini anglashni o‘rganadilar. Masalan: “Qalamdan foydalanishning boshqa usulini tasavvur qiling-a? (ko‘rsatkich drijer tayoqchasi, termometr, tayoqcha va boshqalar).

Yangicha ifodalash – bu interfaol o‘qitish usulida, bolalar turli jamoalarga bo‘linishlari va o‘zlarini biron bir ob`ekt (kitoblar, qalamlar, stollar, qo‘g‘irchoqlar va boshqalar) o‘rnida tasavvur qilishlari kerak bo‘ladi va obrazlarini tanlangan rol nuqtai nazaridan ko‘rsatib berish talab etiladi.

Teskari ertak – faoliyat usulida bolalar ikki jamoaga bo‘linib, asosiy tushunchalarni qarama-qarshi tushunchalar bilan almashtirib, o‘z ertaklarini boshqacha

bir tarzda tuzishlari taklif qilinadi. Har bir jamoaga vazifa beriladi: jamoalar o‘z ertaklarini tuzadilar va ikkinchi jamoaning boshqacha tarzda tuzgan ertaklarini topishga harakat qiladilar.

Misol uchun: “Qadim zamonda chol va kampir yashagan ekan. Ularning Olapar laqabli kuchuklari bor ekan. Kunlardan bir kun Olapar ularga oddiy suyak emas, balki antiqa bir suyak keltiribdi. Kampir xursand bo‘lib uni qozonga solib qaynatibdi, qaynatibdi pishirolmabdi. Keyin Chol ham urinib ko‘ribdi lekin u ham uddalolmabdi. Birdan mushuk sakrab tushibdi va qozon ag‘darilib ketibdi, mushuk suyakni ham olib, qochib ketibdi. Chol va kampir rosa xafa bo‘lishibdi, shunda Olapar chol va kampirga: "Men sizga mazali ovqat pishirishingiz uchun yana bir suyak olib kelaman, lekin boshqacha emas, balki oddiysini keltiraman",– debdi.

Kollaj - bu usulda, bolalar ikki jamoaga bo‘linib, qog‘ozga mavjud materiallardan foydalanib o‘zlarining rasmlarini (masalan, noto‘g‘ri shakldagi figurani) chizishlari va rasm haqida 2-3 gap tuzishlari talab etiladi.

Reklama - bu o‘qitish usulida ham, bolalardan ikkita jamoaga bo‘linishlari va har bir jamoa a‘zolari biror bir predmetni tanlab, uni boshqalarning e‘tiborini jalb qiladigan barcha ijobiy xususiyatlari hamda vazifalarini maqtashlari talab etiladi.

Afsuski, hozirgi kunda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlash davomida interfaol o‘qitish usullari haligacha yetarli darajada qo‘llanilmaydi. Buning o‘ziga yarasha bir qancha sabablari bor (A. Kononkoning fikricha):

- ko‘pchilik pedagog-tarbiyachilarning o‘z faoliyatida tushuntirish va illyustrativ ko‘rgazmalardan, monolog usullaridan foydalanishga moyillik ko‘rsatishlarining sustligi va boshqalardek talab va tamoyillarga so‘zsiz bo‘ysunish odati;
- tarbiyachilarning ko‘pchilik qismi innovatsion usullarga ishonmasligi va ulardan qo‘rqishi;
- ularni samarali qo‘llash va faol aniqlay olish, mas‘uliyat bilan qaror qabul qilish, imtiyozlardan foydalanish tajribasining yo‘qligi;
- o‘zgalar nazarida kulgili, ojiz, tajribasiz “uquvsiz”ga o‘xshab qolishdan qo‘rqish;



- o‘z-o‘ziga baho berishning pastligi tarbiyachilarni haddan tashqari tashvishga solishi;
- yoki haddan tashqari tanqidiy munosabatda bo‘lish tendentsiyasi;
- yangi shart-sharoit va talablarga tez moslasha olmaslik;
- o‘z-o‘zini xolis baholay olish, o‘z imkoniyatlarini, xohish-istaklarini zamon talablari bilan moslashtirish qobiliyatining va o‘zini tahlil qilish ko‘nikmasining shakllanmaganligi sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quv jarayoniga interfaol usullarni joriy etish shart chunki:

- bugungi kunda tarbiyalanuvchilarni o‘qitishda maktabgacha ta‘lim tizimi talablarini yangilashga bo‘lgan talab har qachongidan ham ortib bormoqda;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda tabaqalanish va individuallashtirishga qarshi kurashish;
- maktabgacha ta‘lim sifatiga qo‘yiladigan talablarning o‘zgarib borishi, uni nafaqat bilimga tayyorgarlik darajasi, balki maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bitiruvchilarining boshlang‘ich bilish kompetensiyalarini, bilimlarini o‘z hayotida qo‘llay olishlari, ularni doimiy ravishda yangilash va boyitib borishni talab etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ochiq pedagogik forum: Pedagogik g‘oyalar festivali “Ochiq dars”: [www.festival.1september.ru](http://www.festival.1september.ru) “Maktabgacha ta‘lim o‘qituvchisi faoliyatini tashkil etishda AKTdan foydalanish: tajriba, muammolar, istiqbollar” maqolasi mualliflar Buzmakova Svetlana Vladimirovna, tarbiyachi Krivopalova Galina Aleksandrovna
2. Tarbiyalanuvchi va kompyuter / Ed. L.A.Leonova. M., 2004 yil.
3. A. Kononko Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun kompyuter. Moskva: EKSMO nashriyoti, 2006 yil.

## ЭЛЕКТР МАЙДОНИДА ТУННЕЛЬ ДИОДИДА ХОСИЛ БЎЛАДИГАН ОРТИҚЧА ТОКНИНГ ВОЛЬТ-АМПЕР ХАРАКТЕРИСТИКАСИГА ТАЪСИРИ

**Дадамирзаев Муҳаммаджон Гуломқодирович,**

Наманган муҳандислик - қурилиш институти

**Ўктамova Мунира Комилжон қизи**

Ўзбекистон Миллий университети ҳузуридаги Яримўтказгичлар физикаси ва  
микроэлектроника илмий-тадқиқот институти

E-mail: [umk9391@gmail.com](mailto:umk9391@gmail.com)

**Аннотация:** Ушбу ишда туннель диодида хосил бўладиган ортиқча ток Чайновет модели асосида таҳлил қилиб чиқилди. Туннель диодидаги ортиқча токнинг ўзгариши бўйича Франц-Кельдеш модели асосида электр майдоннинг турли қийматларида туннель диодининг вольт-ампер характеристикаси олинди. Тсу–Эсаки модели асосида диффузион ток таъсирини ҳам ўрганилди.


**Калит сўзлар:** Чайновет модели, Тсу-Эсаки модели, барернинг шаффофлик коэффициенти, ортиқча ток, Франц-Кельдеш эффекти.

Туннель диодидаги ортиқча токни ҳисоблаш учун аниқ моделлар ишлаб чиқилган. Моделлар қанча кўп бўлмасин асосан улардан туннель диодига хос бўлган асосий учта зарурий сифатлар мавжуд бўлиши керак эди. Яъни туннелланиш кучли бўлган чўққи токи, туннелланиш эҳтимоллиги минимал бўлган дрейф токининг бошланишига мос келувчи токининг чуқурдаги энг кичик қиймати ва дрейф токининг кучайиши билан боғлиқ бўлган токининг кўпайиш режимига ўтишидир. Чайновет туннель диодидаги ортиқча ток ифодаси  $I_{CH} = D_K * P$  дан [1], шаффофлик коэффициенти эса қуйидаги  $P =$


$\exp\left(-\frac{\alpha E_t^3}{F}\right)$  ифодадан фойдаланиб, бу ерда F-майдон кучланганлиги,  $E_t = E_g - qV + \mu_n + \mu_p$ ;  $\alpha = \theta \frac{4\sqrt{2m_e}}{3qh}$ ;  $\theta \approx 1$  ( $\theta$ -Чайновет моделининг ўзгармас параметри) тенгликлардан қуйидаги ифодага эга бўламиз[2]:

$$I = I_t + I_x + I_{\text{диф}} = A \int_0^{\mu_n + \mu_p - qV} \exp\left(-\frac{\theta \frac{4\sqrt{2m_e}}{3qh} (E_g - qV + \mu_n + \mu_p)^3}{F}\right) \sqrt{\varepsilon(\mu_n + \mu_p - \varepsilon - qV)} * \left(\frac{1}{\exp\left(\frac{\varepsilon - \mu_n}{kT}\right)} - \frac{1}{\exp\left(\frac{\varepsilon - \mu_n + qV}{kT}\right) + 1}\right) d\varepsilon + D * \exp\left(-\frac{\alpha E_t^3}{F}\right) + I_0 \left(\exp\left(-\frac{qV}{kT}\right) - 1\right) \quad (1)$$

$I_t$ -туннель токи,  $I_x$  –ортиқча ток,  $I_{\text{диф}}$  – диффузия токи, бунда  $P(F)$  ни ўзгарувчан ва ортиқча токни, диффузия токини ҳисобга олиб (1) ифодамиздан фойдаланган ҳолда электр майдонни ўзгармас бўлганда ҳароратнинг ортиши билан  $I_p$  –туннель токининг энг юқори нуқтасидаги қиймати ва диффузион токни ортишини 2-расмда кўришимиз ва 1-расмдаги тажриба графиги билан мослигини таҳлил қилишимиз мумкин. Ортиқча ток ифодасидаги ҳолатлар зичлиги – D ни бирга тенг деб олдик.




**1-расм.** BD4 Ge-асосли туннел диодида турли ҳароратлар учун олинган тажриба графиги [3]




**2-расм.** (1) ифодага кўра туннел диоди ВАХси

$P(F)$  ни ўзгарувчан ва ортиқча токни ҳамда, диффузион токни ҳисобга олмаган ҳолда (1) ифодамиздан фойдаланиб электр майдонини ўзгарувчан бўлганда

хароратнинг ортиши билан  $I_p$  –туннель токининг энг юқори нуқтасидаги қиймати харорат ортиши билан камайишини 3-расмда кўришимиз мумкин.



**3-расм.** (1) ифодамиздан фойдаланган ҳолда туннель диоди учун турли электр майдонлари  $F_1 = 2 * 10^4 (\frac{V}{m})$ ,  $F_2 = 2.5 * 10^4 (\frac{V}{m})$ ,  $F_3 = 2.8 * 10^4 (\frac{V}{m})$  олинган ВАХ си. Бунда ортиқча ток ва диффузион токни ҳисобга олмаймиз



**4-расм.** Карловский модели асосида олинган туннель диодининг вольт-ампер характеристикаси [4]

### Хулоса

Чайновет моделида ортиқча ток ифодаси  $P$  га тўғри пропорционал бўлганлиги учун унинг ВАХси электр майдон зичлигига ( $E$ ) га боғлиқ равишда ўзгаради [5,7]. Бу ерда ортиқча ток деярли сезилмаган, диффузия токи хароратга боғлиқ равишда ортиқча токга нисбатан устунлик қилади. Демак, тажрибаларда олинган туннель диодида ҳосил бўладиган токни баҳолаш учун бошқа моделлерга нисбатан Франц-Кельдеш эффекти асосида кўрилган Чайновез модели бўйича юқори аниқликда текшириш мумкинлиги кўрсатилди.

### Фойдаланган адабиётлар

1. A.G.Chynoweth, W.L.Feldman and R.A.Logan, **Phys. Rev.** **121,684 (1961)**.
2. N. Moulin, Mohamed Amara, F. Mandorlo, M. Lemiti. Tunnel junction I ( V ) characteristics: Review and a new model for p-n homojunctions. Journal of Applied

Physics, American Institute of Physics, 2019, 126 (3), pp.033105.  
ff10.1063/1.5104314ff. ffhal-03035269ff

3.W. Abd El-Basit, Z.I.M. Awad, S.A. Kamh, F.A.S. Soliman  
Electronic Research Lab., Physics Dept., Faculty of Women for Arts, Science, and  
Education, Ain-shams University, Cairo, Egypt  
Nuclear Materials Authority, P. O. Box 530, Maadi, 11728, Cairo, Egypt  
Temperature dependence of backward tunnel diode oscillator circuit.

4. Jaroslav Karlovsky. Simple Method for Calculating the Tunneling Current of an  
Esaki Diode. Popov Research Institute of Radio Communications, Praha,  
Czechoslovakia (Received January 3, 1962).

5. Yury Turkulets and Ilan Shalish. Franz-Keldysh effect in semiconductor built-in  
fields. 22 April 2018

6. T.A.De Massa and D.P.Knott, **Solid-St. Electron. 13,131(1970).**

7. Tyler A. Growden, Evan M. Cornuelle, David F. Storm, Weidong Zhang, Elliott R.  
Brown, Logan M. Whitaker, Jeffrey W. Daulton, Richard Molnar, David J. Meyer  
and Paul R. Berger. 930 kA/cm<sup>2</sup> peak tunneling current density in GaN/AlN resonant  
tunneling diodes grown on MOCVD GaN-on-sapphire template. Cite as: Appl. Phys.  
Lett. 114, 203503 (2019); [doi:10.1063/1.5095056](https://doi.org/10.1063/1.5095056).



## ФРАНЦ КАФКА ИЖОДИДА МОДЕРНИЗМ

**Шаҳноза Куванова Омоновна**

Қарши давлат университети эркин тадқиқотчиси

E-mail:[kuvanova\\_7576@list.ru](mailto:kuvanova_7576@list.ru)

**Бозорова Мухлиса Баҳром кизи**

Қарши давлат университети иккинчи курс талабаси

E-mail:[bozorova\\_2002@mail.ru](mailto:bozorova_2002@mail.ru)

### АННОТАЦИЯ

Кафканинг Дунёни нисбатан шафқатсиз, ҳиссиз, бюрократ золим сифатида қабул қилиши ва ҳамиша салбий қараши, қўрқув ва адоқсиз виждон азобию соғинч туйғуси, шунингдек, мазкур мавҳум Маконда Инсоннинг ўзини тополмай яшаши ортидан жамиятдан руҳан, маънан ва қалбан олислашув оқибатида туғилган ажойиб асарларни модернизмнинг экзистенциализми билан боғлашлари мақолада таҳлил қилинган.

**Таянч сўзлар:** роман, ёзувчи, матн, ўқиш, яратиш, бадиий тасвир, яшаш, ообект, ижодкорлик, қўрқув, сабаб, жалб қилиш.

### ANNOTATION

The article analyzes the worldview of Kafka as a relatively cruel, insensitive, bureaucratic tyrant, his constant negative attitude, fear and endless remorse and nostalgia. Kafka was completely uninterested in social conflicts, revolutions and wars and therefore he bypassed the socio-philosophical theories that arose during his period. Nevertheless, the writer's work found its logical basis in that tragic period, the beginning of the era of dreamers.

**Key words:** novel, writer, text, reading, creation, artistic image, life, object, creativity, fear, reason, engagement.

Кафканинг дунёни нисбатан шафқатсиз, ҳиссиз, бюрократ золим сифатида қабул қилиши ва ҳамиша салбий қараши, қўрқув ва адоқсиз виждон азобию соғинч туйғуси, шунингдек, мазкур мавҳум Маконда Инсоннинг ўзини тополмай яшаши ортидан жамиятдан руҳан, маънан ва қалбан олислашув оқибатида туғилган ажойиб асарларни модернизмнинг экзистенциализми билан боғлашди. Кафка ҳақда ёзилган ҳеч бир китобда уни на миллати ва на ватани эслатиларди, немисзабон ёзувчининг келиб чиқиши яхудий, маданий қадриятларига кўра, австриялик эди. “Баъзан инсоннинг жаннатдан қувилгани ва бу қадар гуноҳга ботганини сабабини бошқалардан кўпроқ англайдигандай туюламан”, кундалигида ёзилган сўзларидан адиб дунёсида инсон туғилибоқ гуноҳкор саналади, отасининг умидларини оқламагани учун унинг олдида икки карра айбдор сезиши табиий ҳол. Шунга қарамай Кафка ўзига содиқ қолди. Отасига битилган мактуб, унинг нафақат гуноҳкорлик, балки иқрорлик даври ҳам эди, ҳатто илтижо ҳам эди. «Отамга мактуб» (1919) — адибнинг ҳақиқий хати саналади, адабий тўқимаси эмас. Мактубда отаю ўғил орасидаги келишмовчилик ошкор қилинмаган, бироқ эгасига жўнатилмаган эди. «Азиз отажоним! Куни кеча нега бунча сендан қўрқимни сўрадинг...» Айтиш жоизки, мазкур хат Франц отасига ўзининг икки асари — “Жазо колониясида” ва “Қишлоқ табиби”ни ўқишга тутқазгани, бироқ отаси уларга, ҳатто очиб қарамаганидан дили оғригани туфайли ёзилган. Айни мана шу эътиборсизлик, беписанд қараш туфайли ҳам Кафкадай ёзувчи адабиётда пайдо бўлди.

Адибнинг тириклик вақтларида ниҳоятда оз нарсалари босилган: «Америка»нинг биринчи боби «Ўтёқар» («Der Heizer», 1913) номи остида, «Хукм» («Das Urteil», 1916) ва «Эврилиш» («Der Verwandlung», 1916) новелласи, «Қишлоқ табиби» ҳикоялар тўплами («Ein Landarzt», 1919), “Жазо колониясида” («In der Strafkolonie», 1919), «Оч» ҳикоялар тўплами («Ein Hungerkünstler»), «Жараён»дан пачалар («Der Prozess», 1915—1916). Бор ёғи шу, энг қизиқарлиси,

адиб уларни ўлимидан сўнг ёкишни васият қилиб қолдирмаган, яъни ўлимга ҳукм этмаган асарлари, десак ҳам бўлади. Ёзувчининг вафотидан кейин «Жараён» 1925 йил, «Америка» тўлиқ ҳолда 1927 йилда, «Қўрғон» («Das Schloß»), дастлаб 1921—1922, сўнг 1926 йилларда нашр қилинган. Кафка меросининг ажралмас қисми бу унинг «Кундалилар»и («Tagebücher» 1910—1923) саналади, «Мактублар» («Briefe», 1902—1924), «Миленага мактублар» («Briefe an Milena», «Фелицияга мактублар» («Briefe an Felice») адабиётшуносларга Кафка руҳиятини англашга ёрдам берди, десак янглишмаймиз. Буларнинг бари ёзувчининг дунёнинг фақат ўз қарашлари орқали тасаввур қилгани, уни ўз “Мен”и орқали қабул қилганидан далолат беради ва кундалигидаги мазкур сўзларидан англаш қийин эмас: «Ташқарига чиқишга ҳожат йўқ. Столинг олдида ўтир ва қулоқ сол, ҳатто эшитмагин, шунчаки кут, қимир этма ва ёлғизликка маҳкум эт ўзингни ва Дунё сенга эшик очади, чунки унинг бошқа иложи йўқ» Оламни қабул қилишнинг модернистик услуби, бу гўзал бўёқлардан холи биров ваҳимага солувчи адабиётдир. Фелиция Бауэр (Кафканинг қаллиғи бўлган, ёзувчи негандир тўйга яқин қолганида, у билан фотиҳасини бузган.) Кафка ҳақида сўзлаганида, унинг хотирасида қолган бир гапини такрорлашни севарди: «Камина адабий қизиқишларидан холи. Фақат адабиётдан иборат одамман». Айни мана шу жойда адибнинг кимлиги маълум бўлади. У ўз ижодига сингиб кетган модернист. Адиб ижодини ўрганишга киришганлар ҳамини шу жиҳатга аҳамият қаратишади, яъни Кафка ижоди автобиографик характерга эга, у реалликни яшириб ўтирмайди, асар қаҳрамонларининг ниқоби олинса, Кафка қиёфасини осонликча кўриш мумкин. Масалан, у кўпгина қаҳрамонларининг исми олдида «К» [4:68] ҳарфини тикиштириб қўяди ёки «Иосиф» деган исм ҳам кўп учрайди ёхуд оддийгина «у» деган олмошни қўллайди, бу билан ёзувчи ҳамини ўзини назарда тутди.

## Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. “Гашек ва Кафка” мақоласи//Чех файласуфи Карел Козик.



2. М.Гус. “Ниқобсиз модернизм”. — М.: Советский писатель, 1966, 68-бет.
3. Franz Kafka. Der Process. Novell. Fischer publishing house. Frankfurt am Main,2010. pp.— 9., 11.,18.,233.,238.,240.,241.
4. Felix Weltsch. Relegation und humor in the liefe and work of Franz Kafka, F.A. Herbig publisch bookstore. Munich 2009, - p. 22.



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIIY MOSLASHUVI VA JAMIYATGA INTEGRATSIYALASHUVINI TAMINLASH

**Ergasheva Nasiba Ne'matulla qizi**

Guliston davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya:** maqolada bolalarni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Ota- onalarga bu borada tavsiyalar berilgan. Ijtimoiy moslashtirishda erta ta'limning ahamiyatli ekanligi ta'kidlangan.

**Kalit so'zlar:** erta ta'lim, ijtimoiy moslashtirish, men tuyg'usi, to'g'ri tarbiya usullari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy moslashuvi bolaning jamiyat qadriyatlari, urf- odatlari va madaniyatini, hamda jamiyatda qulay hayot kechirishga yordam beradigan shaxsning ijtimoiy xususiyatlarini o'zlashtiradi. Ijtimoiy moslashuv jarayoni orqali bolalar muayyan qoidalar asosida yashashni o'rganadilar va xatti-harakatlar normalarini hisobga olishadi.

Faol ravishda muloqot qilish va axborot almashinuvi tufayli bolada ijtimoiy salohiyat oshadi. Ijtimoiy mas'uliyatsiz bo'lgan bolalar ko'pincha kattalar va tengdoshlari bilan muloqot qilmaydi, boshqalarning tajribalarini rad etadi.

Bola o'zini to'g'ri baholay olishi va o'ziga ishonchi bo'lishi muhim hisoblanadi. Sababi, bolalarning o'z- o'zini baholashi ularning ijtimoiy salomatligiga va xatti-harakatlariga bevosita ta'sir qiladi. Bola shaxsining uyg'un rivojlanishi uchun bolalarning ijtimoiy rivojlanishi yaxlit pedagogik tizimga asoslangan bo'lishi kerak. Bolaning ijtimoiy maqomini shakllantirishga ta'sir qiluvchi usullardan biri bu o'yindir. O'yin orqali bolalar o'zlarini jamiyatning to'la- to'kis a'zolari deb his etishadi, ya'ni o'yinda ular turli jamiyat a'zolari ro'llarini o'ynashadi. Bunda bolalar o'zlari bilgan kasb- xunar egalari ro'llarini ijro etishadi. Asosan, pedagog, shifokor,

melitsioner, haydovchi, bog‘bon, dehqon, sotuvchi ro‘llarini ijro etib, kim bilan qanday munosabat qilishni o‘rganib, jamiyat hayotiga ijtimoiylashib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvda dastlab “Xola- xola” o‘yini va shu kabi o‘yinlardan foydalanishadi.

Masaru Ibukaning ta’kidlashicha: “Barcha odamlar, agar jismoniy nuqsonlari bo‘lmasa, deyarli bir xil holatda tug‘iladilar. Bolalarning aqlli yoki nodon, ma’sum yoki tajovuzkor bo‘lishi ularning tarbiyasiga bog‘liq. Agar har bir bolaga kerakli narsa zarur vaqtda berilsa, u o‘tkir zehni va kuchli irodaga ega bo‘lib ulg‘ayadi”.

Biz ko‘pincha bolalarimizni tug‘ilganidan erkalab, uning hamma talablarini bajarishga harakat qilamiz, lekin bu har doyim ham samarali bo‘lmaydi. Ya’ni biz bolani yoshligidan erka qilib qo‘yishimiz mumkin, hatto ikki- uch yoshida bola xudbin bo‘lib qolishi ham hech gap emas. Bunday bolalarni nazorat qilish ham qiyin bo‘ladi. Bolada shunday holatlarni kuzatgan ota- ona endilikda farzandini jilovlay boshlaydi. Bola biror narsani xato qilsa, urushadilar va jazolaydilar, bu bolaga yomon ta’sir qiladi. Sababi shu vaqtgacha hamma uni ko‘ngliga qarab, uning talablarini so‘zsiz bajarishmoqda edi, endi bo‘lsa uni hohishlariga cheklovlar qo‘yilmoqda. Uning ongida shu vaqtgacha mehribon bo‘lgan ota- onasi, birdan o‘zgarib qattiqqo‘l odamga aylanib qoladi. Bolalarni jamiyatga to‘g‘ri moslashtirish uchun biz bolani boshidan to‘g‘ri tarbiya qilmog‘imiz zarur. Bu borada “erta ta’lim” usullaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Masaru Ibukaning fikricha: “Uch yoshgacha bo‘lgan bolaga ota- ona “majburlashi” va yod olish (tushunmasdan yodlash) mos keladi, shu bois ota- onalar bolalarni yo‘naltirishi va yaxshilikka o‘rgatishi zarur. Bu yoshda bola ko‘p narsalarni anglamay, faqatgina takrorlab bilib olishi mumkin. Bu davrda bolaning miyasi tanqidiy va tahliliy qobiliyatlarga ega emas, u huddi yozilmagan oq qog‘ozga o‘xshaydi. Ma’lumotni qabul qilish uchun uni tushunishi yoki anglashi zarur emas. Ammo bu paytda bola o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, u ajratmasdan faqatgina yaxshi ma’lumotni emas, balki yomon ma’lumotni ham qabul qiladi va bu uning shaxsi shakllanishida asos bo‘ladi. Shu bois ota- onalar doimiy ravishda o‘zlari to‘g‘ri deb

bilgan xatti- harakat usulini mustaqil ravishda nima yaxshi, nima yomonligini bilmaydigan yosh bolaning miyasiga singdirib borishlari shart. Bunga esa ota- onaning “majburlashi” ham mos keladi”.

Bola jamiyatga ijtimoiy moslashishida avvalo, ota- onaning o‘rni yuqoridir. Agar ota- ona yoki yaqinlar bolani kamsitsa, masxara qilsa unda yomon odatlar shakllanishi, bolada jamoaga qo‘shila olmaslik, uyatchanlik, tortinchoqlik sifatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Masaru Ibuka ota- onalarning bunday harakatini shafqatsizlik deb baholaydi va bu holat haqida shunday fikrlarni bildiradi: “Ko‘pgina ota- onalar farzandlar kamchiligini begonalar oldida muhokama qiladilar va: “Bolalar hech narsa tushunmaydi”, – deb o‘ylaydilar. Ammo kamchilik qanchalik kichik bo‘lmasin, uni ko‘pchilik oldida oshkor etish bolaga qanday zarar yetkazishini hech qachon taxmin qilib bo‘lmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, biz farzandimizni kelajakda qanday ko‘rishni istasak, tug‘ilganidan boshlab to‘g‘ri tarbiya qila olishimiz kerak. To‘g‘ri tarbiya qilishda kerak bo‘lsa, qattiqqo‘llik ham foyda beradi, faqat bola o‘z “meni”ni taniguncha bu usul foyda beradi. “Men” tuyg‘usi shakllangan bolaga qattiqqo‘llik qilishni zararli taraflari ko‘p. Masalan, bunday holatda bolada “Men yaxshi bola emasman” degan tasavvur paydo bo‘ladi, hamda bu bir qator jiddiy salbiy sifatlar(o‘ziga bo‘lgan bahoning pastligi, ko‘p narsalardan hadiksirash, kayfiyatning beqarorligi, o‘zini aybdor deb hisoblashning yuqoriligi va shu kabilar)ning paydo bo‘lishiga olib keladi. To‘g‘ri tarbiya qilingan bola esa jamoaga ham, jamiyatga ham tezda moslashadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

1. Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” Toshkent. “Akademnashr”2021.
2. Masaru Ibuka “Uchgacha ayni vaqti” Toshkent. “Akademnashr”2021.
3. Ashirova O‘g‘iloy “Bolalarni aqliy rivojlantirishda erta ta’limning ahamiyati”. Journal of New Century Innovations. 2022.

4. Ashirova O‘g‘iloy “Erta ta’limni to‘g‘ri qo‘llash orqali bolalarni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish”. “International conference on learning and teaching 2022/6” nomli xalqaro konferensiya.

5. Uz.tierient.com.



## ADABIY TIL VA BUVAYDA TUMANI SHEVALARI

**Mo‘sojonova Durdonaxon Bahodirjon qizi**

Farg‘ona davlat universiteti magistranti

**R.Shukurov**

Filologiya fanlari nomzodi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiy til va Buvayda tumani shevalaridagi so‘zlarning farqlari, shevadagi so‘zlarning qisqagina lug‘ati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** adabiy til, sheva, dialekt, leksik, semantik, Buvayda shevalari, me‘yor, fonetik, grammatik.

## LITERARY LANGUAGE AND THE DIALECT OF BUVAYDA DISTRICT

**Abstract:** This article explains the differences between the literary language and the dialects of Buvayda district, as well as a short dictionary of dialect words.

**Key words:** literary language, dialect, dialect, lexical, semantic, Buvayda dialects, norms, phonetics, grammar.

O‘zbek dialektologiyasi o‘zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalish chegaralarini o‘rganadi. Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy ma‘naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Aslida ham ona tili deganda sheva tushunilishi haqiqatga yaqindir. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur. Demak, shevalar to‘g‘risidagi fanni o‘rganish talabalarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash imkoniyatini tug‘diradi. To‘g‘ri, har bir madaniyatli shaxs rasmiy doiralarda o‘zbek adabiy tilida muomala qilishi shart, lekin bu o‘z shevasini unutishi kerak degan so‘z emas.

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili o‘zbek milliy tilining oliy formasi — ishlov berilgan. me'yorlashtirilgan, millat vakillarining barchasi uchun umumiy bo‘lgan barqaror

shaklidir”.<sup>116</sup> Demak, u milliy tilga zid qo‘yilmaydi, undan boshqa tizim ham emas, balki shu milliy tilning yuqoriroq bosqichi, tartibga solingan bosh ko‘rinishi. xolos.

Dialekt — umumxalq tilining malum etnik guruhga mansub ko‘rinishi.

Sheva — mahalliy dialektning fonetik, leksik, grammatik umumiylikka ega bo‘lgan, bir yoki bir necha qishloqni o‘z ichiga oluvchi kichik bir qismi. Dialekt va shevalar adabiy tilning shakllanishida ishtirok etadi, ammo adabiy tildan quyidagi belgilari bilan farqlanadi:

a) adabiy til millatning barcha vakillari uchun umumiydir, dialekt va shevalar esa millat tarkibidagi etnik guruhlarining har biri uchun alohidaalohida bo‘ladi, bir-biridan fonetik, leksik, grammatik jihatdan farqlanadi;

b) adabiy tilning yozma shakli mavjud: u ma‘lum me‘yorlarga bo‘ysundirilgan yozuv sistemasiga asoslanadi. Dialekt va shevalar uchun alohida adabiy-orfografik yozuv yo‘q;

d) adabiy tilning qo‘llanishi hududiy (territorial) jihatdan chegaralanmaydi, dialekt va shevalarning qo‘llanishi esa bu jihatdan chegaralangandir;

e) adabiy tilda davlat ishlari — xalq ta‘limi, matbuot, radio-televideniya, ilm-fan, ma‘muriy-idoraviy hujjatlashtirish ishlari olib boriladi; qonun, farmon va qarorlar shu tilda e‘lon qilinadi. Dialekt va shevalar bu funksiyada qo‘llanmaydi.

Buvayda Farg‘ona viloyatining Qo‘qon shahriga yondosh tumanlaridan. Shaharga yaqin qishloqlarda Qo‘qon shevasining ta‘siri seziladi. Boshqa joylarda Farg‘ona viloyatining Bag‘dod, O‘zbekiston, Beshariq, Furqat tumanlari lahjasiga yaqin shevada so‘zlashiladi. Quyida e‘tiboringizga havola etilayotgan mo‘jaz lug‘at ko‘proq ana shu hududga xos so‘zlardan iborat. Bu hudud odamlari uquvsizlik, lanjlik, manfaatparastlik kabi illatlarni juda yomon ko‘radi, chog‘i, tanbeh ma‘nosidagi so‘zlar ko‘p.

Bu so‘zlarning ayrimlari nafaqat Farg‘onada, balki boshqa viloyatlarimizda ham ishlatilishi mumkin.

<sup>116</sup> Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. “NAVRO‘Z” nashriyoti 2016

Bo‘riq – makka yoki jo‘xori poyasining mol-qo‘y yeganidan so‘ng qolgan bargsiz qismi.

Yoz kunlari tandirni bo‘riq yoqib ham oqartirish mumkin.

Dimiqtirmoq – boshini suvga tiqib, suv yuttirmoq, shu yo‘l bilan qiynamoq.

Aka, anavini qarang, dimiqtiraman deyapti.

Yemgo‘sh – til-jag‘li, o‘zining gapini ma‘qullab turaveradigan odam.

E-e, g‘irt yemgo‘sh ekansan-ku! Ko‘rganni eshitgan yengibdi, deb shuni aytishsa kerak-da!

Jippang‘ – to‘la, labigacha to‘ldirilgan, to‘kilay-to‘kilay deb turgan.

Paqirni jippang‘ qilib qo‘ygan ekansan, cho‘mich solgan edim, suvi to‘kildi.

Kesmaldak, keskaldirik – bargsiz, quruq tut novdasi.

Kesmaldaklarni bostirmaning tomiga bosib qo‘ydik.

Lashim – yirik-mayda aralash, yoppasiga.

Kartoshkani lashim besh ming so‘mdan sotdik.

Katta – boboga shunday murojaat qilinadi. “Katta ota” iborasining qisqartmasi bo‘lsa kerak. Biroq bu so‘z hozir iste‘moldan chiqib ketyapti. Uning o‘rniga “opoqi”, “opoqdada”, “bobo” so‘zlari ishlatilyapti.

Kattamning ham yoshlari o‘tib, esi kirdi-chiqdi bo‘lib qoldi.

Nushqut – nishxurd, yem-xashak, o‘t qoldig‘i.

Yangiqo‘rg‘ondan olib kelgan qo‘yim juda yaxshi chiqdi, umuman nushqut chiqarmaydi.

Ozitqi – adashtirib, yo‘ldan ozdiruvchi maxluq, ajina.

“Bemahalda yurma, ozitqi ozdirib ketadi”, deb tayinladi enam.

Otaqari – kattalarning gapiga aralashib, aql o‘rgatadigan bolaga nisbatan ishlatiladi.

“Tushunmagan narsangga otaqarilik qilma, bolam”, – dedi enam.

Enaqari – kattalarning gapiga aralashib, aql o‘rgatadigan bolaga nisbatan ishlatiladi.

"Sen enaqarilik qilma, qizim " deb koyidilar oyim.



Palg‘ari – uzum novdasini yerga ko‘mib, boshqa joyga o‘tqazish. Yerga ko‘milgan qism kelajakda tomirga aylanadi va tok kuchli oziqlanadi.

Bugun o‘n tup uzumni palg‘ari qildim.

Poldir – dovdur, qo‘pol harakat bilan yon-atrofidagi narsalarni ag‘dar-to‘ntar qilib yuradigan odamga nisbatan ishlatiladi.

Buncha poldiraysan? Sendaqa poldirni ko‘rmaganman, bir chekkada turgan obdastani ag‘darib ketganingni qara!

Polpis – kir-chir, o‘ziga e‘tiborsiz yuradigan odam.

Polpisga o‘xshaysan-a! Kiygan kiyiming – bir ahvol, yag‘iri chiqib yotibdi!

Po‘nka – qarq‘ani shu nom bilan ham atashadi.

Hozir po‘nkalar yozda ham uchib ketmayapti.

Sumalanmoq – lapashanglik, lanjlik qilmoq. Menimcha, bu so‘z “sumalak” so‘zi bilan o‘zakdosh. Sumalak juda sekin pishadi, suyuq bo‘ladi. Odatda, lavangtabiat odamlar atalaga ham o‘xshatiladi.

Buncha sumalanasan, tezroq yursang-chi!

So‘ltamat – biror ishni eplamay, doim bo‘shashib yuradigan odam.

So‘ltamatlanma, qadamingdan o‘t chaqnasin, o‘t!

Uchelish – “T” shaklidagi uch yo‘l tutashmasi, bir tomoni berk chorraha.

Uchelishda o‘rtog‘im Umidjonni ko‘rib qoldim.

Qapishtirmoq – futbol o‘yinida to‘pni raqibga qarata qattiq zarb bilan yo‘naltirmoq. Ko‘pincha katta yoshlilar kichiklarni qapishtirib, qo‘rqitadi. Shu orqali oson aldab o‘tib, gol urishga harakat qiladi.

“Jonli devorga turmayman, qapishtiradi”, dedi u akasiga.

Qiyratmoq – sho‘xlik qilib qiynamoq.

Gulchehraning o‘g‘li juda sho‘x bo‘libdi, onasini kuni bo‘yi qiyratadi.

G‘ijirqum – ariq ostida yig‘ilib qoladigan mayda qum. Bu so‘z o‘rnida “shilqum” so‘zi ham ishlatiladi.

Sotib olsang, ortib qoladi. Bu yerni suvagani Qilovlidan g‘ijirqum olib kelsang ham yetadi.

Ho‘pitmoq – cho‘milmoq.

Bugun Oqariqqa ho‘pitgani boramiz.

Yag‘ir- kir, hamma yog‘i iflos bo‘lgan odamga nisbatan aytiladi.

Ahvolingni qara, yag‘ir bòlib ketibsan.

Hovdir- doimo shoshilib yuradigan, shoshilib hovdiraydigan insonga nisbatan ishlatiladigan so‘z.

Hovdir, buyoqqa kel, qara nima ish qilib qo‘yganingni!

Buvo- dadaning ukasi, amaki.

Men bugun do‘konda buvomni ko‘rdim.

Zakan- ariqdan ko‘ra kattaroq qilib ko‘vlangan, turli suv o‘tlari o‘sadigan joy.

Zakanni chuqurroq kovlatib yana ham kengaytirish kerak, buni boshqarmaga ayting aytinglar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Buvayda tumani shevalari adabiy tildan ancha yiroqda ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Hozirgi kunda o‘sib borayotgan yosh avlodlarimizning aksariyat qismi adabiy tilda sopzlashmoqdalar bu esa shevalarning va shevadagi ba‘zi bir adabiy tilda umuman uchramaydigan faqatgina shevaga xos so‘zlarning yo‘qolib ketishiga olib keladi. Buning oldini olish uchun shevaga xos bo‘lgan barcha so‘zlarni, iboralarni va jummalarni yozib, ularni kelajak avlod uchun yetkazishimiz zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Каримов И. Ватан ва халк мангу колади. - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистан Миллий кутубхонаси нашриети, 2010. — Б. 123.
2. Ashirboev S. O‘zbek dialektologiyasi. •- Toshkent, 2011, 2013.
- 3.Бегалиев М. К- Ўзбек тилининг К^орабулок шеваси лексикаси.- Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2007.
4. Бобожонов Ў. Жанубий Хоразм этнографик лексикаси. НДА.
5. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi.“NAVRO‘Z” nashriyoti 2016  
Elektron talim resurslari
- 6.www.pedagog.uz
- 7.www.edu.uz

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA 5-6 YOSHLI BOLALARGA INGLIZ TILINI O'RGATISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

**Mamirqulova Gulnoza Tolibjon qizi**

Guliston davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya:** maqolada bolalarni ingliz tiliga o'rgatishda multimedia texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati haqida so'z boradi. Bu borada turli o'yinlardan ham foydalanish tavsiya etilgan. Chet tillarini o'rganishda ham erta ta'limning ahamiyatli ekanligi ta'kidlangan

**Kalit so'zlar:** Rasmlar so'zlaganda usuli, mutfilmlar, multimedia texnologiyasi, “Rasmlarni guruhla” o'yini.

Hozirgi kunda xorijiy tillarni bilish ko'nikmasi ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Bu maktabgacha ta'lim jarayonini ham chetda qoldirgani yo'q. Yoshlar ta'limi davomida xorijiy tillarni o'rgatishning ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Xorijiy tillar xonalarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya, multimedia texnologiyalari va o'qitishning ilgor texnik vositalari bilan jihozlash, teleradiokanallarda bolalarni xorijiy tillarga o'rgatuvchi ko'rsatuv va eshittirishlarni berib borish, xorijiy badiiy va multiplikatsion filmlar, mutfilmlarni muntazam namoyish etish chet tillarini oson o'rganish imkonini berdi.

**Multimedia** – zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalangan holda interaktiv dasturiy ta'minot nazorati ostida vizual va audio effektlarning o'zaro ta'siri, ular matn, ovoz, grafik, fotosuratlar, videolarni bitta raqamli tasvirda birlashtiradi.

**Rasmlar so'zlaganda usuli** ancha qulay bo'lib, Rus tilini o'rgatishda, bolalarning ogzaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim. Kviz kartochkalari bolalarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma bolalarga bir vaqtda mashg'ulotda ishtirok etishi imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi.

**Multifilmlar.** Har qanday bolani e'tiborini tortadigan qiziqarli, chet tilidagi multfilmlar juda ko'p. Bolalar chet tilini o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilmdagi qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o'rganishda qiziq va samarali yo'l hisoblanadi. Bolalar uchun ingliz tilidagi qo'shiqlardan tortib she'r va hikoyalar, videoroliklar, mutfilmalar orqali tili o'rgatish samarali hisoblanadi.

Masaru Ibuka bu haqida shunday degan: : “Qayerdadir eshitganman” degan tajriba keyinchalik bola qobiliyatlarini rivojlantirishga turtki bo'ladi... Shu bois qiyofalar davrida bola o'ziga kelayotgan ma'lumotni tushunishi muhim emas, asosiysi, katta hajmdagi ma'lumot bilan uni qamrab olish ekanini ta'kidlashdan charchamayman.

Ayniqsa, til va musiqa ta'limida – bu yerda hissiy qabul qilish mantiqiy anglashdan mumimroq hisoblanadi”.

**“Rasmlarni guruhla”** o'yinida bolalarga rasmi kartochkalar to'plamlari aralashtirib beriladi. Masala, idish tovoqlar, texnika jihozlari, uy hayvonlari, yovvoyi hayvonlar va shu kabi to'plamlar rasmlari aralashtirib beriladi, bolalar esa ularni nomlarini ingliz tilida aytib, rasmi kartochkalarni guruhlarga ajratadi. Bu o'yin ma'lum bir mavzu asosida bolalarning olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. O'yin qatorlar musobaqasi yoki kichik guruhlarda ishlash shaklida tashkil etiladi. Masalan, uy hayvonlarini toping va ularning nomini to'g'ri ayting deb, guruhlarga topshiriq beriladi. O'yini davomida qaysi guruh vazifalarni tez va to'g'ri bajarsa, shu guruh g'olib bo'ladi.

Bolalarga bir vaqtning o'zida multimedia texnologiyalari orqali bir necha tillarni o'rgatsa bo'ladi. Buning isbotini Yaponiyalik Masao Nagata farzandlarida ko'rishimiz mumkin. Uning o'g'li ikki yarim yosh, qizi esa uch oylik edi. Bolalar yosh bo'lishiga qaramay ota ularga bor e'tiborini qaratib, ularning aqliy qobiliyatlarini namoyon qilishga kirishdi. Nagata farzandlariga ingliz, ispan, italyan, nemis, fransuz tillarida so'zlashuvni o'qitishni deyarli bir vaqtda boshlagan. U ko'pgina tillar bir paytda o'rgatilsa, o'qitish usulini umumlashtirish mumkin degan, hamda buni amaliyotda

qo‘llab ko‘rgan. Ya‘ni farzandlariga radioda fransuz tili darslari ingliz tilida tushuntirib borilgan. Ayni shu vaqtda farzandlari pianino chalishni o‘rganish jarayonida, ular o‘rganayotgan notalar italyan tilida izohlangan, tajimasi esa ingliz, nemis va fransuz tillarida bo‘lgan. Agar ular izohni tushunmasalar, chalishni ham o‘rganolmas edilar. Shunday qilib ular bir necha tilni bir vaqtda o‘zlashtirishgan.

Masaru Ibuka chet tillarini o‘rganish bo‘yicha quyidagi fikrlarni bildirgan: “Agar bolaga qiyofalarni anglash qobiliyati eng yaxshi ishlaydigan davrda turli ma‘lumotlar berilmasa, uning aqli rivojlanmaydi. Kattalar xorijiy tillarni o‘rganishi juda qiyin, chunki ularda bu qobiliyat zaiflashadi, ular biror narsani xotirada saqlashi uchun avval tahlil qilishi va tushunishi zarur. Shu bois avval chet tilining grammatikasini o‘rgansangiz, keyin unda so‘zlashish qiyin bo‘ladi.

Grammatikani 5-6 sinfdan o‘rganish kerak, go‘daklikda to‘tidek oddiygina takrorlash lozim. Chunki qiyofalar yoshida bola rivojlanishi uchun eng keraklisi tashqi rag‘batlarni doimiy takrorlashdan iborat.

Xulosa qilib aytib o‘tish kerakki, farzandlarimiz yetuk kadr bo‘lib yetishlarida avvalambor, maktabgacha ta‘limning o‘rni ahamiyatlidir. Biz ularni zamonaviy texnologiyalar va zamonaviy ta‘lim tizimi bilan ta‘minlashimiz talab etiladi. Chet tillarini o‘rganish bolalarga kelajakda yangi imkoniyatlar eshigini ochishi, ular malakali kadr bo‘lib yetishishi, butun jamiyat uchun nafi tegadigan shaxs bo‘lib kamol topishlari uchun ham ahamiyatlidir. Shuning uchun ham bolalarimizga yoshligidan ta‘lim berib borishimiz, turli xil qiziqarli o‘yinlar, multimedia texnologiyalari bilan e‘tiborlarini tortishimiz, chet tillarini o‘rgatish davomida muntazam rag‘batlantirib borishimiz ularni kelgusidagi ta‘limlari uchun dastlabki qadam bo‘ladi, desak adashmagan bo‘lamiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 1.V.I.Loginova, P.G.Samorukovalar taxriri ostida «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi».«O‘qituvchi»T.,1991y.
2. Masaru Ibuka “Uchgacha ayni vaqti” Toshkent. “Akademnashr”2021.

3. Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” Toshkent. “Akademnashr”2021.
4. Ashirova O‘g‘iloy “Bolalarni aqliy rivojlantirishda erta ta’limning ahamiyati”  
Journal of new century innovations. 2022.



## **BOLALARNI RUS TILIGA O‘RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI**

**Mannobova Mukarramxon Murodali qizi**

Guliston davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada bolalarni chet tiliga turli o‘yinlar orqali o‘rgatish samarali ekanligi yoritib berilgan. Rus tilini zamonaviy usullaridan foydalanib bolalarga oson o‘rgatish xususidagi fikrlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** chet tillar tizimi, o‘yin va metodika, “Rasmdagi so‘zlar o‘yini”, “Quvnoq topishmoqlar”, “Pantomima”, multfilmlar.

Xorijiy tillarni o‘rgatishda bolalarning yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Maktabgacha yoshdagi bolalarga o‘yin tarzidagi darslar va og‘zaki nutq darslari shaklida chet tillarini o‘rgatishni amalga oshirish, haqiqatan, kichik yoshdagi bolalarga mosdir. Ta’limda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O‘yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta’limga o‘yin orqali yondashuv ta’lim jarayonini osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu tilga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi. O‘yin tarzidagi darslar bolalarning og‘zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Bolalar rasmi yoki videoli turli ko‘rishlarni juda yaxshi ko‘rishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali, ularning nutqlarini o‘stirishda o‘yinlardan muntazam foydalanib turish lozim. Masalan, Bu nima?, Bu kim?, Kim ko‘p so‘z biladi? kabi o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘yin jarayonida bolalarning so‘zlarni eslab qolishi, to‘g‘ri talaffuz etishiga qarab rag‘batlantirib borish zarur. Bolalarning so‘z boyliklarini ortib borishiga qarab boshqa turdagi o‘yinlar, turli xil musobaqalarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga dastlab meva nomlari, kasblar, uy jihozlari kabi mavzulardagi mashqlarni o‘yinlar yordamida bajartirish mumkin. So‘ngra ular kompyuterdagi rang-barang tasvirlarga uyg‘un holatda ko‘rsatilsa, o‘quvchilarning nutqi rivojlanib, atrof-muhitga munosabat doirasi kengayadi. Yangi mavzuni namoyish etish bosqichida ekranda

soʻzlar va uni aks ettiruvchi rasmlar paydo boʻladi. Bolalar soʻzlarni tinglab, ularni talaffuz etish imkoniyatiga ega boʻladilar. Mavzuni kompyuter yordamida taqdim etishda taʼlimni individuallashtirish printsipligiga eʼtibor berish lozim. Ayrim bolalar soʻzning grafik, ayrimlari esa tovushli obrazni qabul qilishda qiyinchilikka uchraydilar. Kompyuter u yoki bu qiyinchilikni mashqlar vositasida bartaraf etib, bolalarning rus tilidan oʻzlashtirishga qiynalayotgan jihatlarini topishga va ularni bartaraf etishga yordam beradi.

Hozirgi kunda taʼlim jaroyonida koʻproq interfaol metodlarga eʼtiborni qaratish taʼlim samaradorligini oshiradi. Quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib, tarbiyachilar bolalarga Rus tilini yoki boshqa chet tillarini oson oʻrgatishlari mumkin:

**“Quvnoq topishmoqlar”** bolalarga topishmoqlar oʻrgatish. Rus tilini oʻrgatishda muhim ahamiyatga ega, ular oʻzlariga notanish boʻlgan soʻzlarni oʻrganadilar va oʻylab topishmoq javobini topadilar.

**Pantomima** bu usul oʻtilgan mavzular mustahkamlanishi kerak boʻlgan mashgʻulotlarda yoki bolalar charchagan paytda foydalansa boʻladi. Hikoya zanjiri usuli bolalarning oʻgzaki nutqini oshirishda va xotirani mustahkamlashda yordam beradi. Rasmlar soʻzlaganda usuli ancha qulay boʻlib, Rus tilini oʻrgatishda, bolalarning ogʻzaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim.

**Multfilmlar.** Bolalar chet tilini oʻrganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilmdagi qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan soʻzlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til oʻrganishda qiziq va samarali yoʻl hisoblanadi. Bolalar uchun rus tili qoʻshiqlaridan tortib sheʼr va hikoyalar, videoroliklar orqali rus tilini samarali oʻrgatish mumkin.

**“Rasmdagi soʻzlar oʻyini”.** Bu oʻyin bolalarni xotirasini charxlashga va topqir boʻlishga undaydi. Kartalarda har xil predmetlar rasmlari bor, masalan: koptok, guldon, kitob, ruchka, qalam, stol, stul va shu kabi rasmlar bor. Tarbiyachi rasmlar kartalardan birini koʻrsatadi (daftar) va soʻraydi: Что это? (Bu nima?) Oʻquvchilar oʻzlarida xuddi shunday rasmni topadilar va javob beradilar: Эта тетрадь (Bu daftar).



Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, rus tilini o‘qitishda bolalarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqish, ehtiyojini to‘la qondirishga yordam beruvchi pedagogik texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktik ishlanmalarni tayyorlash va ularni amalga oshirishning mustahkam mexanizmini ishlab chiqish muaommoning amaliy yechimini ta'minlaydi. Chet til o‘rganish ko‘p qirrali ta’limot bo‘lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o‘zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan, ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o‘rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o‘rgatish samarali natija beradi. Chet til o‘rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo‘lishni taqozo etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yuliya Papina, Maksuda Karimova. “Rus tilini o‘rganamiz”. Akademnashr. 2019.
2. A. Absalomov. “Rus tilini o‘rganishning eng samarali usullari”. Yangi asr avlodi. 2013.
3. <http://hozir.org>.



## NUTQ O‘STIRISH JARAYONIDA BOLALAR ADABIYOTI NAMUNALARIDAN FOYDALANISH

**Niyozmatova Shahnozabonu Ismoil Qizi**

Guliston davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada bolalar adabiyoti namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqini rivojlantirish masalasi tahlil qilingan. Zero maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqini o‘stirishda bolalar adabiyoti namunalari muhim ahmiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** bolalar adabiyoti namunalari, maktabgacha ta’lim muassasasi.

Davlatimiz rahbari yosh avlod ta’limi va tarbiyasi jarayonida o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go‘dakligidan fikr va tafakkurini to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni tarbiyalashning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozimligini ta’kidlaganlar.

Ertak – xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri, to‘qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Maktabgacha yoshdagi bolalarga aytib, o‘qib, hikoya qilib beriladigan ertaklardan ko‘zlangan maqsad, birinchidan, bolalarni insoniy fazilatlar asosida tarbiyalash bo‘lsa, ikkinchidan bo‘lsa bolalarni dunyoqarashini hamda nutqini o‘stirish, ularda diqqat, xotira, tasavvur va motivlarni shakllantirishdan iboratdir.

Maqol xalq og‘zaki badiiy ijodining keng tarqalgan janrlaridan biridir. Maktabgacha ta’lim muassasalarida mashg‘ulotlarda maqollardan foydalanish bolalarning nutq malakasini shakllantirishi, ularda hayotiy tushunchalarning boyitishi, eng asosiysi, har bir maqol mazmunidagi insoniy fazilatlar; vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ota-onaga hurmat, kichiklarga izzat, do‘stlik va uni qadriga yetish,

kamtarinlik, rostgo'ylik, halollikka o'rgatish va aksincha, yomon illatlardan holi bo'lishga da'vat etilishi masalalari o'z aksini topgan. Jumladan, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida nutqiy vazifalarni hal etish uchun u yerda turli shartsharoit yaratish muhim zamin hisoblanadi. Bunday sharoit bolalarda gapirish, atrofdagilarni nomlash, nutqiy muomalaga kirishish istagini tug'dirishi kerak.

**Hikoya qilishga (monologik nutqqa) o'rgatish.** Monologik nutqni egallash bolalarni maktabga tayyorlash uchun muhimdir. Maktabda esa bu fazilat mustahkamlanadi. Bog'lanishli nutq tafakkurning, uning turli xususiyatlarining shakllanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, hikoya bolaning so'z boyligini hosil qilishiga, jumla tuza olishiga, mazmuni kompozitsiyaga sola olishiga yordam beradi. Bunda bolada ko'rgazmali bo'lmagan har qanday og'zaki hikoyani tinglay olish, ularni tushunish, so'ng esa tinglaganlariga taqlid qilish, ya'ni o'ziga ham qayta hikoya qilish ko'nikmalari hosil bo'ladi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi bolalarga o'zlari ham oddiy hikoyalar tuzish o'rgatiladi.

**Badiiy adabiyot bilan tanishtirish.** Maktabgacha ta'lim muassasasidagi tarbiyalanuvchilar bolalar adabiyotining eng yaxshi asarlari bilan tanishtiriladi. Tarbiyachi bolalarda ayrim oddiy ko'nikmalarni tarbiyalaydi. Bular badiiy asarni tinglash va tushunish, uning qahramonlari to'g'risida mulohaza bildirish kabilardan iboratdir. Bolalar ayrim mazmunan sodda va oson she'rlarni eslab kolishlari, ifodali o'qishlari, yod aytishlari lozim. Bu vazifalarning barchasi bolada axloqiy qiyofa va estetik tuyg'ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liq. Tarbiyachi har bir bolada suratlarni tomosha qilish va o'qishga qiziqish uyg'otishi, kitob bilan to'g'ri muomala qilishga, o'z bilimlarini o'rtoqlari bilan baham ko'rishga o'rgatishi kerak. Shunga erishish kerakki, bog'chada badiiy so'z bolalarning doimiy hamrohiga aylansin. U kundalik so'zlashuv nutqida yangrab tursin, tantanali, bayramona kayfiyat baxsh etsin, inssenirovkalar, dramalashtirilgan o'yinlar, kinofilmlar orqali jonlanib, bolalar bo'sh vaqtini to'ldirib tursin.

Yuqorida biz bolalar nutqini o'stirishning yettita asosiy vazifasidan ikkitasini ajratib ko'rib chiqdik. Bu vazifalarning ko'pchiligi maktabgacha ta'lim muassasining

barcha yosh guruhlarida hal etiladi. Faqat ularning aniq mazmuni har xil bo‘ladi. Chunki u bolalarning yosh imkoniyatlariga bog‘liqdir. Ko‘rsatilgan vazifalarning har biri ham ta‘limiy, ham tarbiyaviy jihatga ega.

Hulosa qilib aytadigan bo‘lsak, 4-5 yoshli bolalar faol ravishda suhbatga kirishadilar, jamoaviy suhbatda ishtirok etishlari, ertak va qisqa hikoyalarni aytib berishlari, o‘yinchoqlar va rasmlardan foydalanib mustaqil ravishda hikoya tuzishlari mumkin. Biroq, ularning izchil nutqi hali ham nomukammal. Ular savollarni to‘g‘ri shakllantirishni, o‘rtoqlarining javobini to‘ldirishni va tuzatishni bilishmaydi. Ularning hikoyalari ko‘p hollarda kattalar modelini ko‘chiradi, mantiqning buzilishini o‘z ichiga oladi, hikoya ichidagi gaplar ko‘pincha faqat rasmiy (ko‘proq, keyinroq) bog‘lanadi.

O‘rta maktabgacha yoshda matnni tushunish va tushunishda bolaning hayoti va adabiy tajribasining kengayishi bilan bog‘liq bo‘lgan ba‘zi o‘zgarishlar mavjud. Bolalar qahramonlarning harakatlarini to‘g‘ri baholaydilar. Beshinchi yilda so‘zga munosabat, unga qiziqish, uni qayta-qayta takrorlash, tushunish istagi bor.

4-5 yoshli bolada idrok etilayotgan matnning semantik mazmunining yaxlit tasvirini shakllantirish mexanizmi to‘liq ishlay boshlaydi. Adabiy asarni idrok etish, mazmuni bilan bir qatorda badiiy ifoda xususiyatlarini anglash qobiliyati o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, u butun maktabgacha yoshda asta-sekin shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini bilish, so‘z haqida g‘oyalarni shakllantirish, uning semantikasini o‘zlashtirish, nutqning ifodali va obrazli vositalarini ajratish ona tilini bolalar bog‘chasida o‘zlashtirishga yordam beradi va shu bilan bolani tayyorlash muammosini hal qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Sodiqova Sh.A - Maktabgacha pedagogika. Darslik - T.: Tafakkur bo‘stoni.- 470 b.
2. Qodirova F.R.- Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari - T.: “ISTIQLOL”, 2006y. - O.,quv qo.,llanma.

3. O.Yusupov, I.Mirzaeva, A.Mukhamedaminov, D.Shigabutdinova, S.Nazarov, U.Muradov, T.Toshpulatov, Sh.Fayziev, Sh.Fayziev. Phraseological Units with Colour Designation Component as a Means of Reflecting the Self-Consciousness of the English People. LINGUISTICA ANTVERPIENSIA, 2021. P. 719-731
4. <http://hozir.org>.



## MAKTABGACHA TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIY VA TARIXIY QADRIYATLARNING O'RNI

**Rajabova Nafosat Iskandar qizi**

Guliston davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni qadriyatlar asosida tarbiyalash muhimdir. Bolalarni tarbiyalashda tarixiy qadriyatlarimizning o'rni beqiyosdir. Ushbu maqolada madaniy va tarixiy qadriyatlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning tarbiyasidagi o'rni xaqida so'z ketgan.

**Kalit so'zlar:** qadriyatlar, milliy iftixor, qadr, madaniy-tarixiy meros, vatanparvarlik hissi.

Har bir mamlakatning barqaror taraqqiyoti hamda rivojlanishi inson omiliga, xususan, yosh avlodning ilmiy, ijodiy va ma'naviy salohiyatiga bog'liqdir. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasidagi muammolar deyarli barcha davlatlar uchun umumiy masaladir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni madaniy va tarixiy qadriyatlar asosida tarbiyalashda uning mohiyatini tushunib yetish kerak. Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Jumladan, inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning barchasi kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakam erkin his etishi, o'z mehnati natijasining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir. Kishining qurshab turgan cheksiz ko'p narsa va hodisalar, shu jumladan, milliy ma'naviyat ichidan ham, muayyan shaxs yoki ijtimoiy guruh, yoki konkret millat, yohud butun insoniyat uchun alohida ahamiyatga, qadrga ega bo'lganlari qadriyat deyiladi.

Qadriyat — voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va

insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarning qaysi sohasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo‘lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta’rif berishga intilishgan.

Qadriyat kategoriyasi faqat buyum va narsalarning iqtisodiy qiymatini emas, jamiyat va inson uchun biror ahamiyatga ega bo‘lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar, talab va tartiblar va boshqalarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladi.

Ijtimoiy jarayonlar ta’sirida kishilarning qadriyatlar to‘g‘risidagi qarashlari o‘zgarib boradi. Tarixiy zaruriyatga qarab goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning oldingi safiga chiqadi. Masalan, yurtni yov bosganida — ozodlik, urush davrida — tinchlik, tutqunlikda — erkinlik, kasal yoki bemorlikda — sihat-salomatlikning qadri oshib ketadi.

Qadriyatlar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mahsuli sifatida o‘z tarixiy ildizi, rivoji, vorislik jihatlariga ega. Qadriyatlar umumbashariy, milliy, shaxsiy bo‘lishi mumkin. Olam, tabiat va jamiyatning eng muhim tomonlarini, qonun-qoidalarini, aloqadorliklarini ifodalaydigan qadriyatlar umumbashariy xususiyatga ega. Bunday qadriyatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan, abadiy qadriyatlardir.

Muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma’naviyati, urf-odat va an’analari, o‘tmishi va kelajagi bilan bog‘liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir.

Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e’tiqodi, umr ma’nosi, odobi, go‘zalligi bilan bog‘liq qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir. qadriyatlar komil insonni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek xalqining asriy an’analari, jumladan, tarbiya sohasidagi an’analari ajdodlarimizning tabarruk dini bilan bog‘liq. Yoshi kattalarga salom berish, ularni hurmat qilish, yoshi kichiklar va kuchsizlarni avaylash, ilm olish va kasb o‘rganishga da’vat, halol mehnat qilishga chaqirish, qo‘shnilar bilan xushmuomala

bo‘lish kabi an’analar o‘zbek oilalarida, ularning dinga munosabatlaridan qat’iy nazar, yoshlarga singdirib kelingan. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlarining milliy shakllarini rivojlantirish maktabgacha ta’lim tashkiloti oldiga qo‘yilgan muhim vazifalardandir. Qadriyatlar qanchalik bir-biriga yaqinlashib, ta’sir ko‘rsatmasin, har bir millat uchun ma’naviy kamolotning asosiy yo‘li va mezoni milliy qadriyatlar bo‘lib qoladi. Biron millatning yaxshi urf odatlari, marosimlari qachonki boshqa millat ruhiga, milliy ma’naviy ehtiyoji va talablariga mos kelgandagina shu millat hayotida chuqur tomir otish imkoniga ega bo‘ladi. Har bir xalq qadrlagan narsa yoki hodisa, birinchi navbatda, uning milliy ma’naviyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni madaniy va tarixiy qadriyatlar asosida tarbiyalash, bu yosh avloddan milliy g‘oya asosidagi tafakkur, chuqur bilim va ixtisoslikni talab qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish va maktabga tayyorlash, ularning ruhiyati, shaxsiy qobiliyati, intilishi va ehtiyojlari milliy, madaniy va tarixiy qadriyatlar hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda rivojlanishni ta'minlash, ularni maktab ta'limiga tayyorlashdan iborat.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Azizova Z. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda qo‘g‘irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. -T., 2010.
2. “ Maktabgacha pedagogika” Sh. Sodikova. Toshkent -2013 y.
3. Boboyeva D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o‘stirish



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'YIN FAOLIYATINING AHAMIYATI

**Davirova Xulkarxon Berdibekovna**

Guliston davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin faoliyatining ahamiyati yoritilgan. O'yinning foydali xususiyatlari haqida so'z borgan. O'yin orqali tarbiya va ta'limni to'g'ri berish mumkinligi aytilgan. Ota- onalar va tarbiyachi-pedagoglarga bu borada tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'yin, tanishtiruvchi o'yin, ro'lli o'yin, ijodiy o'yin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan. O'yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg'ulotlardan so'ng, sayrlardan so'ng, bolalar uylariga ketishidan oldin vaqt ajratiladi.

Masaru Ibukaning ta'kidlashicha: “O'yinlar bolaning jismoniy va ruhiy rivojlanishini rag'batlantiradi, o'yinlarda uning shaxsiyati shakllanadi. Bu jarayonga ota- onaning munosabati o'yinchoqlar asosiy vazifasini yo'qotishi yoki , aksincha, kichkintoyning rivojlanishiga kuchli turtki bo'lishini belgilab beradi. Shuning uchun onalar o'z farzandlarining o'yinlariga e'tiborliroq bo'lishlari kerak.

Ota- onalar o'z farzandlarining o'yinlariga e'tiborli bo'lishlari kerak deganimda ular bolaning hayotida o'yinlarning ahamiyatini tushunishlari va o'yinlar yordamida mustaqil rivojlanishiga yordam berishlarini nazarda tutmoqdaman”.

O'yin maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Bunda o'yin, mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bola shug'ullanadigan asosiy ishlar o'yin shaklida bo'ladi. O'yin bola faoliyati uchun kerakli jarayondir, sababi o'yinda bola harakat qiladi, o'ylaydi, gapiradi, idrok etadi.

Ilk yoshdagi bolalar o‘yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o‘yin bo‘lib, u narsa- buyum o‘yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo‘l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir.

Keyingi bosqich aks ettirish o‘yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o‘yini psixologik mazmuning rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi.

Birinchi yoshning ohiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o‘yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo‘lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish kerakligini aks ettiradi.

Navbatdagi bosqich ro‘lli o‘yin bo‘lib, unda bolalar o‘zlariga tanish bo‘lgan kattalar mehnati va kishilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradilar.

Bolalar o‘yin faoliyatining bosqichma- bosqich rivojlanishi to‘g‘risidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o‘yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemasi tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida o‘yin faoliyatining o‘rni juda katta bo‘lib, o‘yindan maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta‘lim berishda keng foydalaniladi. Zero:

- ✓ O‘yin bolalarning mustaqil faoliyati bo‘lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo‘ladi;
- ✓ O‘yin maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir;
- ✓ O‘yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir;
- ✓ O‘yin bolalarga ta‘lim va tarbiya berishning metod va usulidir;
- ✓ O‘yin bolalar o‘quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir.

O‘yinda bola organizmiga xos bo‘lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, berdamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o‘yin munosib o‘rin egallaydi.

O‘yin ta‘lim va mashg‘ulotlar hamda kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib juda katta ta‘lim- tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy o‘yinlarda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy kuchini ishga solidi,

tafakkurini , hayolini, diqqatini, xotirani faollashtirishni talab qiladi, bola masalalarni mustaqil hal qilishga o‘rganadi, o‘ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o‘ylab topadi, o‘z bilimlaridan foydalanish va uni so‘z bilan ifodalashga o‘rganadi.

Bolalar aql- idrokini o‘yin va musiqa orqali tabiiy ravishda o‘stirib boramiz. Biz, ota- onalar, bunga qo‘ldan kelgancha yordam berishimiz kerak. Bizning bu harakatlarimiz farzandlarimizning kelajagiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, o‘yin orqali bolaga tarbiyaning barcha turlarini o‘rgatish mumkin. Bolalar hayotni o‘yinlar orqali o‘rgansa yaxshi samara beradi. Mashg‘ulotda egallangan bilim va ko‘nikmalar o‘yin orqali rivojlantiriladi hamda mustahkamlanadi. Bolalarning o‘zlari ijodiy o‘yinlar o‘ylab topishsa ham foydalidir.

Ijodiy o‘yinlar – bolalarning mustaqil o‘yini bo‘lib, o‘yin mazmunini bolalarning o‘zlari o‘ylab topadilar.

Barcha o‘yinlar ham bolalar uchun foydali bo‘lmay, ularga zarar ham yetkazishi mumkin. Shuning uchun biz tarbiyachi- pedagoglar o‘yin tanlashda e’tiborli bo‘lib, mashg‘ulot yoki shu kabi jarayonlar uchun kerakli o‘yinlardan foydalana olishimiz kerak. Ko‘pchilik ota- onalar farzandining dangasaligidan nolishadi, dangasalikni ham o‘yin orqali yo‘q qilish mumkin. Qanday deysizmi? Farzandingizni biror ishni qilishini istasangiz unga buni buyruq ohangida emas, balki o‘yin tarzida ayting, shunda bola o‘yin o‘ynayapman deb, o‘zi bilmagan holatda mehnat qiladi, bu orqali unda mehnatsevarlik ham rivojlanadi. O‘yinlar orqali tarbiyachilar bolalarda juda ko‘p yaxshi sifatlarni rivojlantirishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI**

4. Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” Toshkent. “Akademnashr”2021.
5. Masaru Ibuka “Uchgacha ayni vaqti” Toshkent. “Akademnashr”2021.
6. Nargiza Qayumova “Maktabgacha pedagogika”o‘quv qo‘llanma. Toshkent-2013.
7. <https://fayllar.org>

## TALABALARDA KASBIY KOMPITENTLIKNI SHAKILANTIRISHDA QO‘LANILAIGAN METODLAR VA ULARNING IMKONIYATLARI

**Abdusamatova Shaxodat Xojiakbar qizi**

Islom Karimov nomidagi TDTU

Olmalik filiali qoshidag akademik litsey hodimi tel:

e-mail: [abdusamatovashahodat@gmail.com](mailto:abdusamatovashahodat@gmail.com)

**Quvondiqova Fero‘za Muzaffar qizi**

Muhammad al Xorazimiy nomidagi TATU

AKT sohasida KT fakulteti 3-kurs talabasi

e-mail: [quvondiqovaferuzal@gmail.com](mailto:quvondiqovaferuzal@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talabalara kasbiy kompetentlikni shakillantirishda qo‘laniladigan zamonaviy metod va texnologiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** kompetentlik, kasbiy mahorat, metod, texnologiya, kasbiy kompetentlik

Mutaxassisning malakasi va nuqtai nazari uning ish joyidagi faoliyatiga ta'sir qiladi shunday ekan yaxshi mutahasis bo‘lib yetishish uchun talabalar o‘z bilimlarini yangi bilimlar bilan bog‘lashlari kerak, bu esa ulardan foydalanish mumkin bo‘lgan bilimlarga ega bo‘lishi kerak. Tegishli bilimga ega bo‘lish o‘quvchilarga muammoni hal qilish, xulosalar chiqarish va nuqtai nazaridan kelib chiqib fikr yuritish imkonini beradi. Bilim o‘quvchining muammoni tasvirlashiga ta'sir qiladi, bu esa o‘quvchining muammoni hal qilishdagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishlariga ta'sir qilishi mumkin. Mutaxassislar muammoni ko‘rsatish bilan bog‘liq yuqori darajada tashkil etilgan bilim tuzilmalariga ega, bu esa tegishli bilimlarga osonlik bilan kirish va ulardan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lish imkonini beradi, lekin bu darajaga erishish mushkil. Turli

fanlar har xil tashkiliy xususiyatga ega bo‘lganligi sababli, o‘quvchilar mavzuning mazmunini ham, tashkil etilishini ham bilishlari kerak, shundagina ular asil mohiyatni anglab yetadilar va bu bilimlardan kelajakda mustaqil o‘zlari foydalana oladilar.

Eng yaxshi o‘quvchilar va muammoni hal qiluvchilar usullarini oldindan tushunadilar va yangi ehtiyojlarni qondirish uchun strategiyalarni o‘zgartirishga qodir, ular "metakognitiv" qobiliyatlarga ega. Mutaxassislar singari, odamlar kundalik sharoitlarda va muayyan kontekstlarda ijtimoiy me'yorlar ostida ishlaydi va boshqa vaziyatlarda bajara olmaydigan vazifalarni bajarishga imkon beradigan vositalar to‘plamidan foydalanadi.

Ta'lim, o‘qitish va o‘rganish muhiti bo‘yicha ushbu tadqiqotga asoslanib, Bransford va boshqalar. ta'lim muhiti o‘quvchilarga yo‘naltirilgan bo‘lishi, mazmunini, mazmunini o‘rganish sabablarini va maqsadli o‘zlashtirishni aniq ko‘rsatuvchi bilimga yo‘naltirilgan muhitni ta'minlashni taklif qilish. Ushbu muhitlar talabalarning o‘rganishini (formativ) doimiy ravishda baholashi va jamiyatga asoslangan yondashuvni o‘z ichiga olishi kerak.

Talabalar kasbiy kompetentligini shakllantirishning quyidagi texnologiyalari mavjud:

– Amaliyotdagi birinchi o‘zgarish o‘qituvchi o‘rganish uchun mas’ul bo‘lgan nuqtai nazardan o‘qituvchi va talabalar o‘rganish kuchiga ega bo‘lgan nuqtai nazarga o‘tishni talab qiladi. Talabalar o‘z ta’limlarida o‘z so‘zlariga ega bo‘lsalar, ular vazifani bajarishda ishtirok etish uchun ko‘proq motivatsiyaga ega bo‘lishadi. Misol uchun, talabalarning o‘z oldiga yuqori maqsadlar qo‘yishlari va ularga erishish uchun harakat qilishlari talabalarni o‘z o‘rganishlari uchun mas’ul bo‘lishga undaydi.

– Amalda ikkinchi o‘zgarish tarkib bilan bog‘liq. Kontentga yo‘naltirilgan sinfda o‘qituvchilar tarkibni "qoplaydilar", talabalar esa uni "o‘zlashtiradilar". Bundan farqli o‘laroq, o‘quvchilarga yo‘naltirilgan sinfda o‘qituvchilar va talabalar bilimlarni qurish uchun tarkibdan foydalanadilar. Natijada, o‘quvchilarning oldingi bilimlari birinchi o‘ringa chiqadi, talabalar bilimning turli shakllaridan foydalanadilar va bilim qurish ijtimoiy tashabbusga aylanadi. Talabalar bilimlarni qurish ustida ishlaganlarida, ular

o‘zlariga savollar berish va ularga javob izlash orqali ko‘proq o‘rganishga qiziqish uyg‘otadilar.

– Amaliyotdagi uchinchi o‘zgarish o‘qituvchining roliga qaratilgan. Yuqorida aytib o‘tilganidek, o‘qituvchilar va talabalar o‘quvchilarga qaratilgan sinfda kuchni baham ko‘radilar. Bu o‘qituvchi rolini ma‘lumot beruvchidan fasilitatorgacha, ya‘ni talabalarga mazmun bilan samarali tarzda o‘zaro aloqada bo‘lishga yordam beradigan rolini qayta ta‘riflashga aylanadi. O‘qituvchi talabalarga kontentdan unumli foydalanishga yordam berishning ikkita eng yaxshi usuli (ya‘ni, soha mutaxassislarining ko‘nikmalari, malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish) mavzuning muhimligini ko‘rsatish va dars materialini real hayot bilan bog‘lashdir. vaziyatlar. Bu ikki strategiya IDEA 4-maqsadiga erishish bilan mustahkam bog‘langan. O‘qituvchilar ko‘pincha bu maqsadga erishish uchun haqiqiy muammoli topshiriqlar va amaliy tadqiqotlardan foydalanadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, talabalar o‘quvchilarga yo‘naltirilgan muhitda faol ishtirokchilarga aylanish orqali mutaxassislariga zarur bo‘lgan ko‘nikmalar, malakalar va nuqtai nazarlarni rivojlantiradilar. Ushbu muhitdagi o‘qituvchilar va talabalar bir-biridan loyiha yoki ish bilan bog‘liq shaxslararo muloqot, atrof-muhit bilan o‘zaro aloqalar va guruh ishini ifodalovchi vositalardan foydalanish orqali o‘rganadigan amaliyot hamjamiyatini tashkil qiladi. Vaqt o‘tishi bilan amaliyot hamjamiyatida faol ishtirok etish kontentni o‘rganishni yaxshilaydi va ishtirokchilarga yangi boshlovchilikdan ekspert maqomiga o‘tishga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTAR**

1. Nensi Makklyur “Mutaxassislari uchun zarur bo‘lgan aniq ko‘nikmalar, malakalar va nuqtai nazarlarni rivojlantirish” Fairmont shtat universiteti.
2. Walvoord, BE va Anderson, VJ (1998). Samarali baholash: o‘rganish va baholash uchun vosita

## ROSSIYADA FEVRAL INQILOBI

**Amonjonov Sardorbek Nabijon o‘g‘li**

Andijon davlat universiteti

Tarix fakulteti talabasi

E-mail: [Sardorbek\\_3200@mail.ru](mailto:Sardorbek_3200@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Rossiya imperiyasida fevral inqilobi haqida fikr mulohaza yuritimiz

**Kalit so‘zlar:** Petrograd, mustabid, muvaqqat, matbuot, ittifoqlar tuzish, Chor hukumati, tanazzullik.

1917-yil 28-fevralda Petropavlovsk qal'asi va qishki saroy bosib olish, chor hukumati vazirlarini qamash bilan Petrogradga inqilobiy voqealar nihoyasiga yetdi. Ishchilarning ish tashlashi, umumshaxar namoyishlari, mirshablat bilan bo‘lib o‘tgan qonli janglar, soldatlarning qo‘zg‘alon ko‘targan haloyiq bilan birodarlashuvi, siquvi ostida chor mustabid hokimyatining qo‘rg‘onlari taslim bo‘ldi. Rossiya imperiyasi poytaxtida demokratik inqilob g‘alaba qozondi, bu inqilobni butun mamlakat qollab-quvvatladi.

2-martda ishchi va soldat deputatlari Petrograd sovetining burjua partiyalari va tashkilotlari vakillaridan iborat bo‘lgan hamda "Progressivniy blok" nomi bilan birlashgan Davlat dumasi Muvaqqat qo‘mitasi bilan kelishuv asosida Rossiyada Muvaqqat hukumat tuzildi. Rossiyada qo‘shhokimyatchilik - ikki diktatura: Muvaqqat hukumat siymosida demokratik diktatura va Sovetlar siymosids prolitariat va dehqonlarning inqilobiy-demokratik dikturasining o‘ziga xos qo‘shiluv yuzaga keldi. Bu hodisa g‘olibona Fevral demokratik inqilobining o‘ziga xosligoni, uning harakatlantiruvchi kuchlari va sabablarini aks ettirdi hamda mamlakatdagi voqealarnishundan keyingi rivojlanishida o‘ziga hos iz qoldirdi.

Muvaqqat hukumat 3-martda e'lon qilgan Bayonnomasida va 6-martda e'lon qilgan Rossiya fuqarolaroga Murojatnomasida o'z dasturini bayon qilib berdi. Hukumat siyosiy erkinliklar-so'z, matbuot, ittifoqlar tuzish, yig'ilishlar va ishtashlashlar erkinligini joriy etdi, barcha tabaqa, diniy va milliy cheklashlarni bekor qildi, boshqaruv shaklini va mamlakat konstitutsiyasini belgilanishi lozim bo'lgan hamda umumiy, teng, to'ppa-to'g'ri va yashirin ovoz berish asosida mahalliz o'zini o'zi boshqarish organlari saylov o'tkazish; polisiyani halq militsiyasi bilan almashtirish; to'la amnitsiya e'lon qilish lozimligini tantanali ma'lum qildi.[1.23]

1917-yilgi fevral inqilobi Rossiyada tub o'zgarishlarning yuz berishiga olib kelmadi. Buning boisi shundaki, Muvaqqat hukumat o'zining tor manfaatlari doirasidan chetga chiqqan olmay, yetilgan tub masalalarni hal etishga o'z qiziq qildi. Natijada siyosiy tuzumda o'zgarish bo'lgani holda muhim ijtimoiy-iqtisodiy, agrar, milliy, sulh masalalari yechilmay qola berdi. Bu esa mamlakat hayotini yanada boshi berk ko'chaga kirib, tanglik, tanazzullik holatlarining kuchayib borishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa rus armiyasini 1-jahon urushini davom etishi va fro'ntda ketma ket mag'lubiyat umumxalq noroziligini va qahr-g'azabini tobora kuchaytirmoqda edi. Negaki urushning butun og'irligi xalq ommasining Zimmasiga tushayotgan edi. Rossiyaning iqtisodiy halokat tomon borishi ijtimoiy tanglik va inqiroziy jarayonlarning zo'rayishi esa Muvvaqqat hukumatning tobora obro'sizlanishiga xalqdan yakkalanib qolishiga oqibatta esa vaziyatning keskinlashuviga olib kelayotgan edi. Lenin boshliq bolsheviklar xuddi mana shu qaltis vaziyatdan ustamonlik bilan foydalandi.

Shuni xulosa qilish mumkinki 1917-yilgi inqilob 3 asr Rossiyada hukmronlik qilgan Romanovlar sulolasiga hukmronligini tugashi bilan yakunlandi. Rossiya imperiyasi xalqi Romanovlar sulolsi davrida to'xtovsiz samoderjaviya zulmiga qarshi kurash olib borgan. Fevral inqilobi natijasida hokimiyat tepasiga Rossiya burjaziyasi doiralari vakillari keldi va Muvaqqat hukumat tuzadi.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M.Jo‘rayev O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida 2-kitob “Sharq” nashriyoti –matbaa konserni bosh taxririyyati Toshkent 2000
2. Q. Usmonov va boshqalar O‘zbekiston tarixi“Sharq” nashriyoti –matbaa aksiyadorlik jamiyati kompanyasi bosh taxririyyati Toshkent 2014



## SEYSMIK FAOL HUDUDLARDA SEYSMIK HIMOYA QURILMALARINI QO‘LLASH

**Yuvmitov Anvar Sayfiddinovich**

TAQI, PhD, dotsent

**Juraev Jurabek Furqatovich**

Farg‘ona politexnika instituti M1-21BIQ magistranti

e-mail: [jurabekjurayev1990@gmail.com](mailto:jurabekjurayev1990@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada seymik faol hududlarda himoya qurilmalarini jahon tajribalari asosida o‘rganish keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** tebranish, himoyalash, dinamik xarakteristikalar, seysmik kuchlar.

**Annotation:** The article presents a study of protective devices in seismically active areas based on world experience.

**Key words:** vibration, protection, dynamic characteristics, seismic forces.


Seysmik mustahkam qurilish boshlanganida bu maqsad inshootlarni qurishda tebranishlarni so‘ndiruvchi materialni qo‘llash orqali amalga oshiriladi. Qadimgi davrda, ba’zi hollarda, quruvchilar bino va inshootlarga zilzilalar ta’sirini kamaytirish maqsadida maxsus qorishma yoki qamishli prokladka ko‘rinishidagi yumshoq prokladkalarni poydevorning yuqori qismiga o‘rnatish yo‘li bilan poydevorni izolyatsiyalashgan. Bu usullarni hammasini konstruksiyaning o‘zida joylashgan bino va inshootlarni seysmik kuchlardan himoyalash usuli deb nomlash mumkin. Ba’zi mualliflar ularni bino va inshootlarni zilzila ta’siridan himoya qilinishni passiv usullari deb atashadi [1-20].

Bino va inshootlarni faol himoya qilish usuli moslamalarining konstruksiyalari xilma-xildir. Har bir turdagi moslamadan bino va inshootlarning har xil qismlarida foydalanish ularning geometrik parametrlarini o‘zgartirish bilan dinamik

xarakteristikalarini yaxshilash imkonini beradi. Natijada, ularni seysmik mustahkamligini ta'minlashda sezilarli natijaga erishish mumkin bo'ladi.

Bino va inshootlarni zilziladan faol (aktiv) himoyalashga quruq ishqalanish bog'lamalarini, gisterezist tipidagi ishqalanishlarni, ulanuvchi va o'chiriluvchi bog'lamalarni va boshqalarni kiritish mumkin. Seysmiklikka qarshi faol choralar orasida turli xil so'ndirgichlar va dempferlar muhim o'rin tutadi. Ular bino va inshootlarni dinamik xarakteristikalarini yaxshilash imkonini beradi. Hozirgi vaqtda butun dunyo bo'yicha qurilish sohasida rezinametall tayanchli, sirg'anuvchi tayanchli, pulat tayanchli, yoysimon qo'rg'oshin tayanchli, gidravlik amortizatorli va friksion dempfer va b. ko'rinishidagi so'ndiruvchi moslamalar keng tarqalgan.


Energiyani yutuvchi vazifasini bajaruvchi vertikal silindrik qo'rg'oshin o'zakli rezinametall tayanchlar ishlarda taklif qilingan. Qo'rg'oshin o'zak vertikal yo'nalishda yuqori qattqlikni ta'minlaydi deb hisoblangan. Kuchli seysmik ta'sirlarda o'zakda katta plastik deformatsiyalar paydo bo'ladi, bu esa tebranishlarni so'nishini 3-5 barobar oshirishga imkon beradi. Bunday konstruktsiya seysmik izolyatsiyaning eng tejamkor sistemasi hisoblanadi, biroq tadqiqotlar, ba'zi hollarda qo'rg'oshin o'zakni buzilib ketishi mumkinligini ko'rsatdi (1-rasm).



1- rasm. Rezinametall tayanch

Yapon olimlari tomonidan bino va inshootlarni seysmik mustahkamligini oshirish uchun po'lat tayanchlar ixtiro qilingan. Bunday tayanchlar zilzila paytida ko'ndalang, bo'ylama, vertikal va aylanma (burama) tebranishda ishlashga imkon berdi. Yaponiyada Kobesko zilzilasi sodir bo'lganidan buyon, ya'ni 1995 yildan har yili quriladigan uylarning 150 dan ortig'i bunday turdagi tayanchlarni qo'llash bilan qurilgan. Ushbu tayanch poydevor bilan binoning sokol qismi orasiga o'rnatilgan. Zilzila paytida tayanch sokol ostidagi poydevorni aralashtirishga imkon berdi va

natijada poydevor qismi energiyasining asosiy qismi binoning yer ustki qismiga o'tmaydi. Bu izolyatsiyani qo'llashda seysmik kuch deyarli ikki barobar kamayadi. Tayanch to'rtta dumaloq prujina ko'rinishida mustahkamligi yuqori bo'lgan elastik po'latdan yasalgan (2-rasm). Bu seysmik izolyatsiyalovchi tayanchning kamchiligi nam sharoitda korroziyaga uchraydi (zanglaydi) va ko'p yillar o'tishi bilan kuchlanishlar ta'siri hisobiga po'lat o'z mustahkamligini yo'qotadi.



2-rasm. Po'lat tayanch

Yapon olimlari tomonidan qo'rg'oshindan yoysimon shakl ko'rinishida seysmik izolyatsiyalovchi tayanch ixtiro qilingan. Tayanch sokol poydevoriga qattiq mahkamlanadi va poydevor bilan binoning sokol qismiga o'rnatiladi (3-rasm). Bu tayanch rezinametall va po'lat tayanch bilan ishlatiladi. Qo'rg'oshin plastik xususiyatlarga ega, shuning uchun zilzila paytida poydevorda paydo bo'ladigan energiyaning asosiy qismi tayanchning plastiklik xususiyatlari hisobiga yo'qoladi. Bu turdagi izolyatsiyalovchi tayanchning effekti sezilarli bo'lib, seysmik kuch deyarli ikki barobardan ko'p kamayadi.



3-rasm. Yoysimon qo'rg'oshin tayanch

Bulardan tashqari jahon amaliyotida yopishqoq ishqplanishli amortizatorlar, friksion dempferlar, mayatnikli so'ndirgichlar, ulanuvchi va ajraluvchi bog'lanishlarni qo'llash bilan . zilzilalardan himoya qilishning samarali choralari ishlab chiqilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Siavash Khajehpoor. Optimal Conceptual Design of Highrise Office Building. Waterloo, Ontario, Canada. 2011. -207 p.
2. Коренев Б.Г., Шейнин И.С., Устройство для гашения колебаний механических систем // Бюллетень изобретений, 1962,- № 23.
3. Окомото Ш. Сейсмостойкость инженерных сооружений. –М.: Стройиздат, 1980. – 342 с.
4. Назаров А.Г. Метод инженерного анализа сейсмических сил. – Ереван: АН Арм. 1959. – 285 с.
5. Makhkamov, Y. M., & Mirzababaeva, S. M. (2020). Strength of bending reinforced concrete elements under action of transverse forces under influence of high temperatures. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 618-624.
6. Makhkamov, Y. M., & Mirzababaeva, S. M. (2021). RIGIDITY OF BENT REINFORCED CONCRETE ELEMENTS UNDER THE ACTION OF SHEAR FORCES AND HIGH TEMPERATURES. *Scientific-technical journal*, 4(2), 93-97.
7. Махкамов, Й. М., & Мирзабабаева, С. М. (2019). ТЕМПЕРАТУРНЫЕ ПРОГИБЫ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ БАЛОК В УСЛОВИЯХ ВОЗДЕЙСТВИЯ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ТЕМПЕРАТУР. *Проблемы современной науки и образования*, (11-1), 45-48.
8. Mamazonovich, M. Y., & Mirzaakbarovna, M. S. (2021). To Calculation Of Bended Elements Working Under The Conditions Of Exposure To High And High Temperatures On The Lateral Force By A New Method. *The American Journal of Applied sciences*, 3(5), 210-218.
9. Mamajonov, A. U., Yunusaliev, E. M., & Mirzababaeva, S. M. (2020). Production test for producing porous filler from barkhan sand with additives of hydrocastic clay and oil waste. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 629-635.

10. Махкамов, Й. М., & Мирзабабаева, С. М. (2019). Образование и развитие трещин в изгибаемых железобетонных элементах при высоких температурах, их деформации и жесткость. *Научно-технический журнал ФерПИИ*, (3), 160.

11. Мирзажонович, Қ. Ғ., & Мирзабабаева, С. М. (2022). БИНОЛАРНИ ЎРОВЧИ КОНСТРУКЦИЯЛАРИНИ ТУЗЛАР ТАЪСИРИДАГИ СОРБЦИОН ХУСУСИЯТИНИ ЯХШИЛАШ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 86.



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA AQLIY QOBILİYATLARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

**O‘razaliyeva Sojida Tojiboy qizi**

Toshkent viloyati chirchiq davlat pedagogika instituti tyutor

**Xolnazarova Mahina Faxriddinovna**

Toshkent viloyati chirchiq davlat pedagogika instituti

MAT 21/6 guruh talabasi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda intellektual salohiyati yuqori bolalar va o‘zlashtirishi oson va tez bo‘lgan bolalarni tarbiyalash bugungi kun tarbiyachi pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Davlatimiz rahbarining ham bu sohada olib borayotgan islohatlari qabul qilinayotgan qaror va farmonlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

**Kalit so‘zlar.** Qobiliyat, intellektual aql, pedagogik texnologiya, intellektual texnologiya, metod, aqliy hujum.

**Annotation:** One of the main tasks of educators today is to bring up children with high intellectual potential and children who are easy and quick to learn.

**Keywords:** Ability intellectual intelligence pedagogical technology intellectual technology method mental attack.

Mamlakatimizda yosh avlod ta‘lim-tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘g‘il-qizlarning zamonaviy bilim olishi va xorijlik tengqurlari bilan raqobatbardosh bo‘lib ulg‘ayishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish borasida qilinayotgan ishlar izchil va keng ko‘lamda davom etmoqda.

Ta‘lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali bolalarda quyidagi kompetensiyalar rivojlanadi:

- har tomonlama intellektual salohiyatli bugungi zamon talablariga raqobatbardosh bo‘lishlarini taminlaydi;

- ta’lim va o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi
- bolalarda kreativ fikrlash va yangi g‘oyalar shakllanadi
- innovatsion tajribalar va yaratuvchanlik qobiliyatlari rivojlanadi
- berilayotgan topshiriqlarga noodatiy yondashish usullarini o‘ylab topishadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimida va jarayonida qanday texnologiyalarni qo‘llash samarali natijalarga erishishimiz uchun zamin yaratadi. Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladiga muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishisdir. Qisqa vaqt mobaynida muayyan nazariy-ilmiy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek o‘quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan kompetensiyalarni baholash pedagogdan yuksak mahorat va ta’lim muhitiga yangicha yondashuvni talab etadi.

Pedagogik texnologiya o‘z mohiyatiga ko‘ra sub’ektiv xususiyatga ega. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat’iy nazar texnologiyalar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
- o‘qituvchi o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o‘quvchilar tomonidan o‘quv predmetlari bo‘yicha puxta bilimlarning egallanishini ta’minlashi;
- o‘quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishi;
- o‘quvchilarning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi;
- pedagogik jarayonda demokratik va insonparvarlik g‘oyalarining ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

### **„AQLIY HUJUM” METODI**

Mazkur metod bolalarning mashg‘ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta’minlash va oshirish, qisqa vaqt mobaynida fikr yuritishlariga undash va bir xil fikrlash



inertsiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang fikrlarni to‘plash imkonini, mustaqil va erkin fikr yuritishni ta’minlaydi.

„Aqliy hujum” metodining asosiy tamoyili va sharti mashg‘ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan berilgan fikrlarni oxirigacha eshitish fikr yakunlangach umumiy va qo‘shimcha xulosalarni berish.

### **“TAJRIBA VOSITASIDA O‘QITISH SIKLI” METODI**

Mazkur metod quyidagi 4 omil asosida quriladi:

- reflektiv kuzatish;
- abstrakt xulosalash;
- faol tajriba olib borishga tayyorlanish;
- aniq tajriba o‘tkazish.

Yuqorida qayd etilgan omillarning har biri muayyan g‘oyaga asoslanadi.

Chunonchi:

1. O‘quvchilar uchun mashqlar mazmunini tanqidiy o‘rganish va ular ustida fikr yuritish imkoniyatini beruvchi sharoit yarat (reflektiv kuzatish);
2. O‘quvchilarga zarur nazariy bilimlarni ber;
3. Muammo yuzasidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirish va xulosalash uchun sharoit yarat (abstrakt xulosalash);
4. O‘quvchilarga mukammal shakllangan, ayni vaqtda yana bir bor tekshirib chiqilishi lozim bo‘lgan mashqlarni ishlab chiqish imkonini ber (faol tajriba olib borishga tayyorlanish);
5. Yakuniy xulosani shaxsiy tajribadan o‘tkaz va faoliyatda undan foydalan (aniq tajriba o‘tkazish).

### **“BESHINCHISI (OLTINCHISI, YETTINCHISI, ... ) ORTIQCHA METODI**

O‘quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llash quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

— o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

— hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo‘lgan 4 ta (5 ta, 6 ta, ... ) va taalluqli bo‘lmagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish;

— o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

— o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tishlari hamda ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘likni asoslashlarini talab etish lozim).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o‘rtasidasigi mantiqiy bog‘likni ko‘rsata va asoslash olish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini asoslay, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o‘zaro taqqoslash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Shavkat Mirziyoyev.,Erkin va farovon,Demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz’.Toshkent - „O‘zbekiston’’-2016.
- 2.Xo‘jaev N.,Xoshimova M.,Hakimova M. va boshqalar.Pedagogika.(darslik)-T.:TDIU,2007.
- 3.Ismailova Z.K.Pedagogika.Darslik.T.:Moliya,2008.
- 4.Z.F.Sharopova.Ta’lim texnologiyalari.Toshkent-2019.

## НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ К ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Туркманова Зиёдахон Авазбек Кизи

Магистрант направления Дошкольное образование

Андижанского государственного университета

**Аннотация:** В статье проанализированы научно-методические и нормативные основы творческих способностей и обучения дошкольников к творческой деятельности. Рассмотрены такие понятия как творчество, творческая деятельность.

**Ключевые слова:** творчество, творческая деятельность, дошкольник, учебная программа.

**Abstract:** the article analyzes the scientific, methodological and normative foundations of creative abilities and teaching preschoolers to creative activity. Such concepts as creativity, creative activity are considered.

**Keywords:** creativity, creative activity, preschool children, curriculum.

Преобразования, происходящие в обществе, порождают в образовании новые требования к подготовке детей к школе. Одним из них является развитие творческих способностей у детей старшего дошкольного возраста.

Концепция развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года разработана во исполнение постановления Президента Республики Узбекистан от 30 сентября 2018 года N ПП-3955 "О мерах по совершенствованию системы управления дошкольным образованием" для создания условий для всестороннего интеллектуального, нравственного, творческого, эстетического и физического развития детей дошкольного возраста требует пересмотра существующего порядка организации образовательно-

воспитательного процесса в дошкольных образовательных учреждениях и внедрения современных методов оказания услуг дошкольного образования.

В государственной учебной программе Республики Узбекистан дошкольного образовательного учреждения «Первый шаг» говорится об учебно-воспитательной деятельности в области «Творчество» ребенок в возрасте 6-7 лет[1]:

- проявляет интерес к искусству и культуре;
- ценит национальные традиции и воспринимает их частью повседневной жизни;
- самостоятельно выражает предпочтения определенному виду искусства;
- применяет полученные знания и навыки для создания и воплощения творческого замысла в различных жизненных ситуациях;
- понимает созидательную роль человека в преобразовании мира.

Анализ проблемы развития творческих способностей во многом будет предопределяться тем содержанием, которое мы будем вкладывать в это понятие. Очень часто в обыденном сознании творческие способности отождествляются со способностями к различным видам художественной деятельности, с умением красиво рисовать, сочинять стихи, писать музыку и т.п. Что такое творческие способности на самом деле?

Очевидно, что рассматриваемое понятие тесным образом связано с понятием "творчество", "творческая деятельность". Под творческой деятельностью следует понимать такую деятельность человека, в результате которой создается нечто новое – будь это предмет внешнего мира или построение мышления, приводящее к новым знаниям о мире, или чувство, отражающее новое отношение к действительности.

Если внимательно рассмотреть поведение человека, его деятельность в любой области, то можно выделить два основных вида поступков. Одни действия человека можно назвать воспроизводящими или репродуктивными. Такой вид деятельности тесно связан с нашей памятью и его сущность заключается в том,

что человек воспроизводит или повторяет уже ранее созданные и выработанные приемы поведения и действия.

Кроме репродуктивной деятельности в поведении человека присутствует творческая деятельность, результатом которой является не воспроизведение бывших в его опыте впечатлений или действий, а создание новых образов или действий. В основе этого вида деятельности лежат творческие способности. Таким образом, в самом общем виде определение творческих способностей выглядит следующим образом. Творческие способности – это индивидуальные особенности качества человека, которые определяют успешность выполнения им творческой деятельности различного рода.

Так как элемент творчества может присутствовать в любом виде человеческой деятельности, то справедливо говорить не только о художественных творческих способностях, но и о технических творческих способностях, о математических творческих способностях, и т.д.

**Государственные требования Республики Узбекистан** определяются в следующих областях развития ребенка:

- ✓ физическое развитие и формирование здорового образа жизни;
- ✓ социально-эмоциональное развитие;
- ✓ речь, общение, навыки чтения и письма;
- ✓ познавательное развитие;
- ✓ творческое развитие.

Область **«Творческое развитие»** распределяется по следующим подобластям:

- художественное видение мира;
- художественно-творческие способности[2]

Говоря о формировании творческих способностей, необходимо остановиться на вопросе о том, когда, с какого возраста следует развивать музыкальные творческие способности детей. Психологи называют различные сроки от полутора до пяти лет. Также существует гипотеза, что развивать

музыкально- творческие способности необходимо с самого раннего возраста. Эта гипотеза находит подтверждение в физиологии.

### ЛИТЕРАТУРА

1. Государственная учебная программа Республики Узбекистан «Илк кадам», Ташкент – 2018
2. Государственные требования к развитию детей раннего и дошкольного возраста Республики Узбекистан были разработаны и тиражированы при технической поддержке Представительства Детского фонда ООН (ЮНИСЕФ) в Узбекистане. 2018 год



## ПОТЕНЦИАЛЬНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕДИА В КЛАССЕ

**Икрамова. Н.А**

Магистрант,

Педагогический институт Бухарского

Государственного Университета

### АННОТАЦИЯ

Использование средств массовой информации является требованием на сегодняшний день. В этой статье также обсуждается использование различных технологии и последствия, которые могут последовать много лет в жизни дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** Рекреационное время, занятия в классе, образовательное и обогащающие технологии, средства массовой информации.

Понимание распространенности и характера использования технологий и средств массовой информации в классе имеет важное значение поскольку эти действия могут отвлекать от обучения в классе. Что касается домашних условий, исследователи предполагают, что время, проведенное со средствами массовой информации, может нанести ущерб развитию детей, поскольку оно вытесняет другие полезные занятия, такие как совместное чтение и взаимодействие воспитателя и ребенка. Кроме того, как количество, так и качество речи опекуна и взаимодействия опекуна с ребенком ниже во время просмотра телевизора по сравнению со свободной игрой или другими видами деятельности. Имеются также некоторые свидетельства связи между использованием домашних средств массовой информации дошкольниками и более низким уровнем готовности к

школе. У детей старшего возраста использование менее 2 часов рекреационного времени перед экраном в день было связано с более высокими общими когнитивными показателям.

